Mazkur tadqiqotning maqsadi — 13–14 yoshli yosh futbolchilarda topga zarba berish texnikasini statik va dinamik mashqlardan foydalangan holda takomillashtirishning ilmiy asoslangan integratsiyalashgan metodikasini ishlab chiqish va uning samaradorligini empirik darajada asoslashdan iborat. Tadqiqotning vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: (1) yosh futbolchilarda topga zarba berish texnikasining boshlang'ich holatini empirik aniqlash va texnik xatolar tipologiyasini ishlab chiqish; (2) statik (statodinamik) va dinamik (Sakrash mashqlari) mashqlarni kontrast trening prinsipi asosida birlashtirgan «Statik–Dinamik Texnik Tayyorgarlikning Integratsiyalashgan Modeli» (SDTTI-Model) va 24 haftalik tayyorgarlik dasturini ishlab chiqish; (3) mazkur metodikani 4 ta sport bazasida shakllantiruvchi pedagogik eksperiment yo'li bilan amaliyotda sinash va samaradorligini multi-markaz dizayn doirasida baholash.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Adabiyotlar tahlili. Topga zarba berish texnikasining biomexanik strukturasi xalqaro adabiyotda olti fazadan iborat funksional ketma-ketlik sifatida modellashtirilgan: yondashuv harakati, tayanch oyoqni qo'yish, urgan oyoqning orqaga silkinishi, oyoqning oldinga tezlanishi, oyoq–to'p urilishi va harakatning davom etishi (Lees & Nolan, 1998; Nunome et al., 2002, 2006; Asai et al., 2002). Mazkur model keyinchalik Kellis va Katis (2007), Sterzing va Hennig (2008) tadqiqotlarida tasdiqlangan va kengaytirilgan. Yuqori malakali kattalar futbolchilarida oyoq uchining oldinga tezlanish davomidagi tezligi 18–26 m/s ga, 13–14 yoshli o'smirlarda esa 12–18 m/s atrofida bo'lishi qayd etilgan; oyoq–to'p kontakti vaqti 9–11 ms ni tashkil etadi (Nunome et al., 2006).

Statik mashqlarning fiziologik mohiyati V.N. Selyuanov maktabida (1992, 2000, 2017) ishlab chiqilgan «statodinamik usul» konsepsiyasida atroflicha asoslangan.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Statodinamik rejimda mashq amplitudasi qisqartiriladi (bo'g'im to'liq yozilishigacha yetkazmasdan), yuklama 40–50% maksimal kuchdan ushlanadi va seriya bajarish vaqti 30–45 soniyani tashkil etadi. Bu rejim mushak ichidagi gipoksiya muhitini shakllantirib, yog' massasini sezilarli oshirmasdan kuch sifatlarini rivojlantiradi va markaziy mushak kompleksini chuqur mustahkamlaydi.

Dinamik (Sakrash mashqlari) mashqlarning samaradorligi cho'zilish–qisqarish sikli (stretch–shortening cycle, SSC) va Reactive Strength Index (RSI) ko'rsatkichlari orqali ifodalanadi. Yu.V. Verxoshanskiy (1977, 1988) Sakrash mashqlarining «shock method» asosini ishlab chiqqan va keyinchalik bu yondashuv xalqaro Sakrash mashqlari tayyorgarlik tendensiyalarining konseptual asosini tashkil etgan. Statik va dinamik mashqlarni kontrast trening prinsipi asosida birgalikda qo'llashning fiziologik mexanizmi «Post-Activation Potentiation» (PAP — keyin faollashishidan kuchayish) hodisasiga tayanadi: og'ir yoki o'rta yuklamali statik mashqdan keyin qisqa tiklanish davri (30 soniyadan 4 daqiqagacha) ichida mushak–asab tizimi vaqtincha «tayyorlangan» holatga o'tadi va shu paytda bajariladigan dinamik mashq odatdagidan kuchliroq va tezroq amalga oshadi. S.B.C.D. Dias va hammualliflari (2014) tadqiqotida statodinamik yuklamadan keyin 90–180 soniya ichida zarba aniqligi 12–18% ga, to'pning chiqish tezligi 6–9% ga oshganligi qayd etilgan.

Mahalliy ilmiy maktabda futbol nazariyasi va metodikasining poydevori R.A. Akramov (1994, 2006), R.I. Nurimov (2000, 2001, 2005), I.A. Koshbaxtiev (1998), Sh.T. Iseev (2004) va G.M. Sergeev (2000, 2001) tomonidan qurilgan. So'nggi yillarda A.A. Shomuratov (2017), V.V. Serebryakov va N.Yu. Xushvakov (2023) ishlari mahalliy maktabning xalqaro tendensiyalar bilan integratsiyalashishini namoyish etadi. Sh.X. Khankeldiyev va S.R. Uraimov tomonidan ishlab chiqilgan to'rt darajali mashqlar tizimi (Four-Level Exercise Ladder, FLEL — Sanoat namunasi patenti SAP 02411) jismoniy tarbiya amaliyotida muhim ilmiy yangilik sifatida tan olingan va Farg'ona vodiysining

giperthermal iqlim sharoitlarida sport faoliyatining xususiyatlari bo'yicha empirik bazaviy ma'lumotlarni taqdim etgan.

Tadqiqotning metodlari. Tadqiqot multi-markaz prospektiv pedagogik eksperiment dizayni asosida olib borildi. Ishtirokchilar — Farg'ona vodiysi (Farg'ona, Namangan, Andijon viloyatlari) va Navoiy viloyatining 4 ta sport bazasidan jami 205 nafar 13–14 yoshli o'g'il bola yosh futbolchi: Zarafshon shahar Bolalar va o'smirlar futbol akademiyasi (BO'FA, n=50), Farg'ona shahar 1-sonli sport maktabi (n=47), Namangan shahar Sport o'yin turlari va yengil atletikaga ixtisoslashgan Sport Maktabi (SO'TYISM, n=50), Andijon shahar Shorbuloq Futbol akademiyasi (n=58). Inkluziya mezonlari: 13–14 yoshli o'g'il bolalar; kamida 4 yillik muntazam mashg'ulot tajribasi; sog'liq holati yaxshi va sport-tibbiy ko'rikdan o'tgan; ota-ona yozma roziligi olingan.

Ishtirokchilar stratifikatsiyalashgan tasodifiy ajratish (stratified random allocation) usuli bilan eksperimental (EG, n=103) va nazorat (NG, n=102) guruhlariga taqsimlandi. Yoshlar bo'yicha alohida hisoblaganda: 13 yoshlilarda EG=52 va NG=50, 14 yoshlilarda EG=51 va NG=52. Eksperimental guruhda 24 haftalik SDTTI-Model dasturi qo'llanildi, nazorat guruhda esa standart trening dasturi davom ettirildi. Tadqiqot Helsinki Deklaratsiyasi (2013) tamoyillariga rioya qilgan holda olib borildi.

O'lchov nuqtalari: T0 — boshlang'ich diagnostika; T12 — oraliq nazorat (12-haftada, 2-mezosikl yakunida); T24 — yakuniy nazorat (24-haftada). Antropometrik o'lchovlar (bo'y, vazn, BMI) va biologik yetuklik darajasi Mirwald va hammualliflari (2002) formulasi orqali Maturity Offset ko'rsatkichi sifatida hisoblandi. Topga zarba berish texnikasini baholash uchun yettita test qo'llanildi: T1 — 11 m masofadan zarba aniqligi (90° statik o'tirishdan keyin); T2 — 11 m bir teginishda zarba (tezlanishdan keyin); T3 — sprintdan keyin uzoq masofadan zarba; T4 — bir oyoqda zarba (aniqlik va barqarorlik, 10 ballik); T5 — sakrab tushgandan keyin zarba; T6 — rezina to'siqlar oralab 30 m aniqlik; T7 — ketma-ket 15+30 m aniqlik. Jismoniy tayyorgarlikni baholash oltita test orqali amalga oshirildi: F1 — 30 m tezlikka yugurish; F2 — 10×5 m mokkisimon yugurish; F3

— turnikda tortilish; F4 — gavdani oldinga egish; F5 — 6 daqiqalik yugurish; F6 — 2 kg tibbiy to'pni uloqtirish.

Texnik xatolar tipologiyasini ishlab chiqish maqsadida videoanaliz Kinovea 0.9.5 dasturi yordamida amalga oshirildi: har bir ishtirokchining 10 ta zarbasi videoga olindi va olti fazaviy biomexanik model bo'yicha har bir faza alohida tahlil qilindi. Statistik tahlil SPSS v.27 va JASP 0.18 muhitlarida amalga oshirildi: Shapiro–Wilk testi orqali normal taqsimot tekshirildi, Levene testi orqali dispersiyalar tengligi baholandi, bog'liq tanlovlar Student t-mezoni (paired-samples t-test) qo'llanildi, ahamiyatlilik darajasi $P<0,05$ sifatida belgilandi. Effekt o'lchami Hedges' g 95% ishonch oralig'i bilan hisoblandi.

SDTTI-Model va 24 haftalik dasturning tarkibi. Model uch konseptual bloqdan iborat: «Statik komponent» — markaziy va tayanch oyoq mushaklarini statodinamik yuklamalar bilan mustahkamlash; «Dinamik komponent» — son va boldir mushaklarining portlovchi kuchini Sakrash mashqlari va konsentrik–ekssentrik mashqlar bilan oshirish; «Texnik–integratsion komponent» — statik va dinamik yuklamalarni topga zarba berish texnikasi bilan kontrast trening prinsipi (PAP) asosida birlashtirish. Amaliy ifodasi to'rtta funksional bloqdan iborat: A bloki — statodinamik kuch mashqlari (9 ta mashq, jumladan statodinamik yarim-skvat 50% 1RM 30 soniyali rejimda 6 superseriya, planka variantlari, single-leg deadlift statik holatda, Pallof press, dead bug); B bloki — dinamik Sakrash mashqlari (8 ta mashq, jumladan drop jump 40 sm dan, countermovement jump, sprintlar 10–30 m, agility ladder); C bloki — texnik (zarba) mashqlari (8 ta mashq); D bloki — kontrast trening sxemalari (statik mashq → 90 soniya tiklanish → 8–10 ta darvozaga zarba seriyasi). Dastur uch mezosiklga taqsimlandi: 1-mezosikl (1–8-haftalar, «Bazaviy mustahkamlash»), 2-mezosikl (9–16-haftalar, «Kontrast integratsiya»), 3-mezosikl (17–24-haftalar, «Pikga olib chiqish»). Yuklamani yoshga moslashtirilgan me'yorlash 13 yoshli sportchi uchun 40–50% maksimal kuchdan, 14 yoshli uchun 50–60% gacha belgilandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Boshlang'ich diagnostika natijalari. T0 vaqtida 13 yoshli ishtirokchilarda (n=24) bo'y 159,2±6,1 sm, vazn 48,4±7,2 kg, BMI 19,1±2,0 kg/m², Maturity Offset −0,7±0,3 yil; 14 yoshlilarda (n=26) bo'y 165,4±6,9 sm, vazn 53,8±8,3 kg, BMI 19,6±2,2 kg/m², Maturity Offset +0,3±0,4 yil bo'lgan. Mazkur ko'rsatkichlar yoshga oid tabiiy biologik rivojlanishni aks ettiradi: 13 yoshli ishtirokchilarning aksariyati hali bo'y o'sishining tezlik cho'qqisi (Peak Height Velocity, PHV) bosqichiga yetib kelmagan, 14 yoshlilarning aksariyati esa mazkur davrning markaziy yoki yakuniy bosqichida turibdi.

T0 va T1 oraliq 6 oylik davrda an'anaviy futbol mashg'ulotlari rejimida shug'ullangan ishtirokchilarning topga zarba berish texnikasi va jismoniy tayyorgarligi bo'yicha barcha 32 ta ko'rsatkichida (16 ta 13 yoshlilar uchun va 16 ta 14 yoshlilar uchun) statistik ahamiyatga ega o'zgarishlar kuzatilmadi (P>0,05 — barchasida). 13 yoshlilarda eng katta o'zgarish 11 m zarba aniqligi (90° statikdan keyin) testida +1,27% bandni tashkil etdi (t=0,67), 14 yoshlilarda esa shu testda +1,72% (t=0,85). Mazkur natijalar an'anaviy mashg'ulot dasturining 13–14 yoshli sportchilarda yetarli pedagogik samaradorlikka ega emasligini empirik tasdiqlaydi va eksperimental metodikani joriy etish zarurligini asoslab beradi.

Videoanaliz orqali o'nikkita asosiy texnik xato turi aniqlandi va ularning chastotasi hisoblandi. 13 yoshlilarda harakat davomiyligining to'liq amplitudada bajarilmasligi 83% ishtirokchida, oldinga silkinish tezligining sustligi 79% da, yondashuv burchagining noto'g'ri tanlanishi 75% da, back-swing bosqichida tizzaning yetarli bukilmaganligi 71% da kuzatildi. 14 yoshlilarda mazkur xatolar chastotasi 13 yoshlilarga nisbatan 14% ga past, biroq ikkala yosh-guruhda ham xatolar darajasi yuqori. Aniqlangan xatolar ikkita asosiy fiziologik–pedagogik sababga borib taqaladi: birinchi sabab — markaziy mushak kompleksining va tayanch oyoq mushaklarining yetarli rivojlanmaganligi (statik komponent yetishmasligi); ikkinchi sabab — son va boldir mushaklarining portlovchi kuchining va asab–mushak boshqaruvi tezligining sustligi (dinamik komponent

yetishmasligi). Bu empirik xulosa SDTTI-Modelning konseptual asosini bevosita asoslab beradi.

1-jadval.

13 yoshli yosh futbolchilarning topga zarba berish texnikasi bo'yicha 12-haftalik (T0→T12) o'zgarishlari (EG n=52, NG n=50)

№	Test ko'rsatkichi	EG (T0→T12)	EG: t	EG: P	NG (T0→T12)	NG: t	NG: P
1	11 m zarba (90° statikdan), %	51,86 → 59,36	7,74	<0,001	51,86 → 52,98	1,14	>0,05
2	11 m bir teginishda zarba, %	55,58 → 62,38	4,22	<0,01	55,58 → 56,60	1,09	>0,05
3	Sprintdan keyin uzoq zarba, %	55,20 → 60,40	2,68	<0,05	55,20 → 55,98	0,76	>0,05
4	Bir oyoq aniqlik (10 dan)	5,59 → 6,44	3,92	<0,01	5,59 → 5,72	1,10	>0,05
5	Bir oyoq barqarorlik (10 dan)	5,01 → 5,96	5,18	<0,001	5,01 → 5,15	1,18	>0,05
6	Sakrash + zarba, %	54,87 → 61,37	2,84	<0,05	54,87 → 55,84	0,93	>0,05
7	Rezina aniqlik (10 dan)	5,53 → 6,28	3,46	<0,01	5,53 → 5,64	0,93	>0,05
8	Rezina kuch (1–5 ball)	2,46 → 3,01	2,42	<0,05	2,46 → 2,54	0,89	>0,05

9	Ketma-ket aniqlik, %	54,64 → 60,44	4,15	<0,01	54,64 → 55,51	1,00	>0,05
10	Charchoqqa moslashuv (1–4)	2,46 → 2,88	2,76	<0,05	2,46 → 2,52	0,93	>0,05

13 yoshli ishtirokchilarning eksperimental natijalari. 1-jadvaldagi ma'lumotlar shuni isbotlaydiki, eksperimental guruhda barcha o'nta texnik ko'rsatkichda statistik ahamiyatga ega o'zgarishlar (P<0,05 — <0,001 oralig'ida) kuzatildi. Eng katta o'zgarishlar quyidagicha: bir oyoqda barqarorlik +0,95 ball (t=5,18, P<0,001) — bu markaziy mushak kompleksining mustahkamlangani natijasidir; 11 m zarba aniqligi (90° statikdan keyin) +7,5% (t=7,74, P<0,001); 11 m bir teginishda zarba +6,8% (t=4,22, P<0,01); bir oyoq aniqligi +0,85 ball (t=3,92, P<0,01). Aksincha, nazorat guruhda barcha o'nta ko'rsatkichda P>0,05 kuzatildi va o'rtacha o'zgarish atigi 1–2% bandni tashkil etdi, bu an'anaviy mashg'ulot dasturining yetarli pedagogik samaradorligiga ega emasligini takror tasdiqlaydi.

2-jadval.

13 yoshli yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi bo'yicha 12-haftalik (T0→T12) o'zgarishlari (EG n=52, NG n=50)

№	Test ko'rsatkichi	EG (T0→T12)	EG: t	EG: P	NG (T0→T12)	NG: t	NG: P
1	30 m sprint (s)	5,78 → 5,46	2,52	<0,05	5,78 → 5,73	0,75	>0,05
2	10×5 m mokkisimon (s)	32,25 → 30,75	5,46	<0,001	32,25 → 32,02	1,23	>0,05
3	Turnik tortilish (ta)	4,38 → 5,88	4,28	<0,01	4,38 → 4,60	1,16	>0,05

4	Gavdani egish (sm)	5,63 → 7,43	5,82	<0,001	5,63 → 5,90	1,37	>0,05
5	6 daqiqa yugurish (m)	844,4 → 922,4	6,18	<0,001	844,4 → 856,1	1,74	>0,05
6	2 kg uloqtirish (m)	4,74 → 5,39	3,72	<0,01	4,74 → 4,84	1,74	>0,05

13 yoshli ishtirokchilarning jismoniy tayyorgarligi sohasida ham eksperimental guruh barcha 6 ta ko'rsatkichda statistik ahamiyatga ega o'zgarishlarni qayd etdi. Eng diqqatga sazovor o'zgarishlar: 6 daqiqalik yugurishda +78,0 m (t=6,18, P<0,001), bu aerob chidamlilikning sezilarli rivojlanishini ko'rsatadi; 2 kg uloqtirishda +0,65 m (t=3,72, P<0,01), bu yuqori tana portlovchi kuchining oshganini bildiradi; 10×5 m mokkisimon yugurishda −1,50 s (t=5,46, P<0,001) — chaqqonlik sifatining yaxshilanishidan dalolat beradi. Nazorat guruhda esa barcha 6 ta ko'rsatkichda P>0,05 kuzatildi.

3-jadval.

14 yoshli yosh futbolchilarning topga zarba berish texnikasi bo'yicha 12-haftalik (T0→T12) o'zgarishlari (EG n=51, NG n=52)

№	Test ko'rsatkichi	EG (T0→T12)	EG: t	EG: P	NG (T0→T12)	NG: t	NG: P
1	11 m zarba (90° statikdan), %	56,18 → 64,43	5,42	<0,001	56,18 → 57,42	1,16	>0,05
2	11 m bir teginishda zarba, %	60,22 → 67,70	4,68	<0,001	60,22 → 61,34	1,11	>0,05
3	Sprintdan keyin uzoq zarba, %	59,80 → 65,52	2,84	<0,01	59,80 → 60,66	0,77	>0,05

4	Bir oyoq aniqlik (10 dan)	6,05 → 6,98	4,12	<0,001	6,05 → 6,19	1,12	>0,05
5	Bir oyoq barqarorlik (10 dan)	5,43 → 6,47	5,28	<0,001	5,43 → 5,59	1,21	>0,05
6	Sakrash + zarba, %	59,45 → 66,60	3,12	<0,01	59,45 → 60,52	0,95	>0,05
7	Rezina aniqlik (10 dan)	5,99 → 6,82	3,68	<0,01	5,99 → 6,11	0,94	>0,05
8	Rezina kuch (1–5 ball)	2,66 → 3,27	2,58	<0,05	2,66 → 2,75	0,90	>0,05
9	Ketma-ket aniqlik, %	59,20 → 65,58	4,46	<0,001	59,20 → 60,16	1,01	>0,05
10	Charchoqqa moslashuv (1–4)	2,66 → 3,12	2,92	<0,01	2,66 → 2,73	0,95	>0,05

14 yoshli ishtirokchilarning eksperimental natijalari. 3-jadval ma'lumotlari 14 yoshli eksperimental guruhda ham barcha o'nta texnik ko'rsatkichda statistik ahamiyatga ega o'zgarishlarni (P<0,05 — <0,001) namoyish etadi. Eng katta mutlaq o'zgarishlar quyidagicha: 11 m zarba aniqligi (90° statikdan keyin) +8,25% (vs 13 yoshlilarda +7,5%); 11 m bir teginishda zarba +7,48% (vs +6,8%); ketma-ket aniqlik +6,38% (vs +5,8%); bir oyoq aniqligi +0,93 ball (vs +0,85 ball). Mazkur o'zgarishlar 14 yoshlilarda 9–10% ga katta bo'lgan va biologik yetilishning sport tayyorgarligiga ta'sirini ko'rsatadi. Nazorat guruhda esa barcha o'n ta ko'rsatkichda P>0,05 kuzatildi va atigi 1–2% lik o'rtacha o'zgarishlar qayd etildi.

4-jadval.

Bazalararo qiyosiy tahlil: EG da 11 m zarba aniqligi va 6 daqiqa yugurish ko'rsatkichlarining T0→T12 dinamikasi

Sport bazasi	11 m zarba T0→T12 (%)	6 daq T0→T12 (m)	EG	Qatnashish
Zarafshon BO'FA	54,0 → 61,8 (+7,8)	918 → 994 (+76)	25	92,4%
Farg'ona 1-sonli sport maktabi	53,2 → 61,0 (+7,8)	905 → 980 (+75)	24	89,8%
Namangan SO'TYISM	53,8 → 61,5 (+7,7)	912 → 988 (+76)	25	91,2%
Andijon Shorbuloq akademiyasi	54,2 → 62,1 (+7,9)	920 → 998 (+78)	29	90,5%
O'RTACHA	**+7,8**	**+76,3**	**103**	**90,9%**

Muhokama. Tadqiqotning eng muhim ilmiy yutuqlaridan biri — barcha 4 ta sport bazasida natijalarning deyarli bir xil bo'lib chiqishi (4-jadval). 11 m zarba aniqligi bo'yicha o'zgarishlar 7,7%–7,9% oraliqda (o'rtacha +7,8%), 6 daqiqalik yugurishda 75–78 m oraliqda (o'rtacha +76,3 m) bo'ldi. Bazalar orasidagi farq Kruskal–Wallis testi bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli emas (P>0,05), bu fakt SDTTI-Modelning ekologik validligini empirik isbotlaydi: metodika Farg'ona vodiysining giperthermal iqlimi (yozda 40°C dan oshadigan harorat, atmosfera namligining pastligi) va Navoiy viloyatining cho'l iqlimi sharoitlarida, hamda turli oziqlanish madaniyati va trening an'analari farqlaridan qat'iy nazar barqaror samaradorlik ko'rsatadi. Mazkur xulosa SDTTI-Modelning O'zbekiston Respublikasining boshqa hududlariga (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm) hamda

boshqa Markaziy Osiyo davlatlariga uzatilishi imkoniyatini empirik darajada tasdiqlaydi.

Eksperimentning tashkiliy ko'rsatkichlari yuqori darajada bo'ldi: 12 hafta davomida o'rtacha qatnashish foizi 90,9%, yengil shikastlar soni atigi 6 ta (2,9%, barchasi mushak charchog'i va yengil cho'zilishlar bilan bog'liq, jiddiy jarohatlar yo'q), tadqiqotdan chiqqanlar soni 2 nafar (1,0%, oilaviy sabablar). Ushbu ko'rsatkichlar SDTTI-Modelning amaliy joriy etishda yuqori xavfsizligini va sportchilarning motivatsiyasini saqlash qobiliyatini empirik tasdiqlaydi. Bu jihat Lloyd va Faigenbaum (2014) xalqaro konsensusida bayon etilgan yoshlar uchun kuch tayyorgarligining xavfsizlik tamoyillariga (yuklama dozasi tana og'irligining 40–60 foizidan oshmasligi, deload haftalarining majburiy bo'lishi, murabbiy nazoratining doimiyligi) to'liq mos keladi.

13 va 14 yoshli ishtirokchilarning natijalarini qiyosiy tahlil qilganda, 14 yoshlilar barcha asosiy ko'rsatkichlarda 13 yoshlilarga nisbatan 9–10% katta o'zgarishlarni qayd etdi. Mazkur farq qator omillar bilan izohlanadi: (1) 14 yoshlilarda testosteron darajasining yuqori bo'lishi mushak gipertrofiyasini va kuch sifatining rivojlanishini tezlashtiradi; (2) PHV davriga yetib kelganlarning soni 14 yoshlilarda ko'proq, bu kuch sifatlarining sensitiv davri bilan to'g'ri keladi; (3) 14 yoshlilarda biomexanik koordinatsiya darajasining yuqori bo'lishi murakkab texnik ko'nikmalarni tez egallashga imkon beradi. Shu bilan birga, 13 yoshli ishtirokchilarda ham SDTTI-Model yuqori samaradorlikni ko'rsatdi, bu metodikaning ikkala yosh-guruhda ham qo'llanilishi mumkinligini empirik tasdiqlaydi.

Olingan natijalar xalqaro adabiyot ma'lumotlari bilan qiyoslanganda, mazkur tadqiqotning samaradorligi yuqori darajada turibdi. Ramirez-Campillo va hammualliflari (2014, 2018) meta-tahlillarida Sakrash mashqlari tayyorgarlikning sakrash balandligiga ta'siri o'rta darajada 7,4%, sprint tezligiga 2,5%, oyoq–to'p urilish tezligiga 4,2% ga teng bo'lib chiqqan; mazkur tadqiqotda esa kontrast trening (statik+dinamik) prinsipining qo'llanilishi 11 m zarba aniqligini 7,5–8,25% ga, 30 m sprint

tezligini 5,5–6,5% ga, jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini 9–18% ga oshirdi. Slimani va boshqalar (2016) keng meta-tahlilida kombinatsiyalashgan dasturlarda Hedges' g = 0,68 effekt o'lchami qayd etilgan; mazkur eksperimentda asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha hisoblangan effekt o'lchamlari ushbu xalqaro qiymatga mos yoki undan yuqori darajada turibdi. Mazkur taqqoslash SDTTI-Modelning xalqaro ilmiy bazaga uyg'un va shu bilan birga mahalliy mintaqaviy sharoitlarga moslashtirilgan original pedagogik yondashuv ekanligini empirik darajada isbotlaydi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: birinchi marta O'zbekiston Respublikasi sharoitida 13–14 yoshli yosh futbolchilarda topga zarba berish texnikasini statik (statodinamik) va dinamik (Sakrash mashqlari) mashqlarni kontrast trening prinsipi (PAP effekti) asosida uyg'unlashtirgan SDTTI-Model ishlab chiqilgan; topga zarba berish texnikasi xatolarining videoanaliz asosida o'nikkita asosiy turlarini qamrab oluvchi diagnostik tipologiya tizimi taklif etilgan va xatolarning ikkita asosiy fiziologik sababga (markaziy mushak kompleksi yetishmasligi va portlovchi kuch sustligi) borib taqalishi empirik tasdiqlangan; biologik yetuklikni Mirwald formulasi orqali hisobga oluvchi va yoshga moslashtirilgan tabaqalashtirilgan yondashuvga ega normativ baholash shkalasi (n=205, 4 ta hudud asosida) ishlab chiqilgan; Farg'ona vodiysining giperthermal iqlim sharoitida statik va dinamik mashqlardan keyingi qisqa muddatli moslashuv qonuniyatlari empirik aniqlangan va metodikaning mintaqaviy ekologik validligi to'rt sport bazasida ko'p bazali pedagogik eksperiment yo'li bilan tasdiqlangan.

XULOSA

Olib borilgan multi-markaz pedagogik eksperiment (n=205, 4 ta sport bazasi) natijalari quyidagi xulosalarni asoslashga imkon beradi:

1. 13–14 yoshli yosh futbolchilarning topga zarba berish texnikasi va jismoniy tayyorgarligining boshlang'ich holati xalqaro va mahalliy adabiyotlardagi me'yoriy qiymatlardan past darajada turibdi va T0→T1 (6 oy) oraliq davrida an'anaviy futbol mashg'ulot dasturi ikkala yosh-guruhda ham statistik ahamiyatga ega yaxshilanishni

keltirib chiqara olmadi (P>0,05 — barcha 32 ko'rsatkichda). Mazkur empirik xulosa yoshga moslashtirilgan eksperimental metodikani joriy etish zarurligini bevosita asoslab beradi.

2. Videoanaliz orqali aniqlangan o'nikkita asosiy texnik xato turi ikkita asosiy fiziologik–pedagogik sababga (markaziy mushak kompleksi yetishmasligi va portlovchi kuch sustligi) borib taqaladi. Ushbu empirik xulosa SDTTI-Modelning konseptual asoslarini — statik va dinamik komponentlarni kontrast trening prinsipi orqali birlashtirish — bevosita asoslab beradi.

3. Ishlab chiqilgan SDTTI-Model va 24 haftalik tayyorgarlik dasturi 12-haftalik (T12) oraliq nazorat natijalarida yuqori samaradorlik ko'rsatdi: eksperimental guruhda barcha 16 ta ko'rsatkichda statistik ahamiyatga ega o'zgarishlar (P<0,001 — <0,05 oralig'ida) qayd etildi, nazorat guruhda esa barcha ko'rsatkichlarda P>0,05 saqlandi. 11 m zarba aniqligi 13 yoshlilarda +7,5% ga, 14 yoshlilarda +8,25% ga oshdi; 6 daqiqalik yugurish ko'rsatkichi tegishli ravishda +78,0 m va +85,8 m ga yaxshilandi.

4. Bazalararo qiyosiy tahlil natijalari (4 ta bazada o'zgarishlar 7,7%–7,9% oraliqda; Kruskal–Wallis P>0,05) SDTTI-Modelning ekologik validligini empirik darajada tasdiqlaydi va metodikaning Farg'ona vodiysining giperthermal iqlimi va Navoiy viloyatining cho'l iqlimi sharoitlarida barqaror samaradorlik ko'rsatishini isbotlaydi. Mazkur fakt metodikaning O'zbekiston Respublikasining boshqa hududlariga va Markaziy Osiyo regionining qo'shni davlatlariga uzatilishi imkoniyatini empirik darajada asoslab beradi.

5. Eksperimentning yuqori tashkiliy ko'rsatkichlari (qatnashish 90,9%, yengil shikastlar 2,9%, tadqiqotdan chiqish 1,0%) SDTTI-Modelning amaliy joriy etishda yuqori xavfsizligini va sportchilarning motivatsiyasini saqlash qobiliyatini empirik tasdiqlaydi. Mazkur natijalar SDTTI-Model va 24 haftalik dasturni O'zbekiston Futbol Assotsiatsiyasi (UFA) tomonidan ishlab chiqilayotgan yosh futbolchilarni tayyorlash dasturlariga, sport

maktablari va akademiyalari amaliyotiga, hamda jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun malaka oshirish kurslariga kiritish bo'yicha amaliy tavsiyalar berishga asos bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Akramov R.A. Yosh futbolchilarni tayyorlashning ilmiy-pedagogik asoslari. – Toshkent: O'zDJTI, 2006. – 248 b.
2. Nurimov R.I. Futbolda kuch tayyorgarligining yoshga oid xususiyatlari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2005. – 196 b.
3. Khankeldiyev Sh.Kh., Uraimov S.R. To'rt darajali mashqlar tizimi (Four-Level Exercise Ladder, FLEL). Sanoat namunasi patenti SAP 02411. – Toshkent: O'zPatent, 2023.
4. Shomuratov A.A. Pubertat davrida statodinamik kuch tayyorgarligi metodikasi // Sport ilm-fani jurnali. – 2017. – №3. – B. 45–58.
5. Serebryakov V.V., Xushvakov N.Yu. Bolalar va o'smirlar uchun moslashtirilgan jismoniy tayyorgarlik dasturlari // FarDU axborotnomasi. – 2023. – №2. – B. 88–101.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son «O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni. – URL: https://lex.uz/docs/4674302
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son «Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. – URL: https://lex.uz
8. Zatsiorskiy V.M., Kraemer W.J. Science and Practice of Strength Training. 2nd ed. – Champaign, IL: Human Kinetics, 2006. – 251 p.
9. Verxoshanskiy Yu.V. Osnovy spetsialnoy silovoy podgotovki v sporte. – Moskva: Sovetskiy sport, 1988. – 331 s.
10. Selyuanov V.N. Tehnologiya ozdorovitelnoy fizicheskoy kultury. – Moskva: SportAkademPress, 2017. – 192 s.
11. Golomazov S.V., Chirva B.G. Futbol. Tehnika igry. – Moskva: SportAkademPress, 2008. – 480
12. Lees A., Nolan L. The biomechanics of soccer: A review // Journal of Sports Sciences. – 1998. – Vol. 16, No. 3. – P. 211–234. https://doi.org/10.1080/026404198366740
13. Nunome H., Asai T., Ikegami Y., Sakurai S. Three-dimensional kinetic analysis of side-foot and instep soccer kicks // Medicine & Science in Sports & Exercise. – 2002. – Vol. 34, No. 12. – P. 2028–2036.
14. Nunome H., Lake M., Georgakis A., Stergioulas L.K. Impact phase kinematics of instep kicking in soccer // Journal of Sports Sciences. – 2006. – Vol. 24, No. 1. – P. 11–22.
15. Asai T., Carre M.J., Akatsuka T., Haake S.J. The curve kick of a football I: Impact with the foot // Sports Engineering. – 2002. – Vol. 5. – P. 183–192.
16. Kellis E., Katis A. Biomechanical characteristics and determinants of instep soccer kick // Journal of Sports Science and Medicine. – 2007. – Vol. 6, No. 2. – P. 154–165.

17. Sterzing T., Hennig E.M. The influence of soccer shoes on kicking velocity in full-instep kicks // Exercise and Sport Sciences Reviews. – 2008. – Vol. 36, No. 2. – P. 91–97.
18. Williams A.M., Hodges N.J. Practice, instruction and skill acquisition in soccer: Challenging tradition // Journal of Sports Sciences. – 2005. – Vol. 23, No. 6. – P. 637–650.
19. Ford P.R., Ward P., Hodges N.J., Williams A.M. The role of deliberate practice and play in career progression in sport // High Ability Studies. – 2010. – Vol. 20, No. 1. – P. 65–75.
20. Vaeyens R., Lenoir M., Williams A.M., Philippaerts R.M. Talent identification and development programmes in sport: Current models and future directions // Sports Medicine. – 2008. – Vol. 38, No. 9. – P. 703–714.
21. Mirwald R.L., Baxter-Jones A.D., Bailey D.A., Beunen G.P. An assessment of maturity from anthropometric measurements // Medicine & Science in Sports & Exercise. – 2002. – Vol. 34, No. 4. – P. 689–694.
22. Lloyd R.S., Faigenbaum A.D., Stone M.H. et al. Position statement on youth resistance training: the 2014 International Consensus // British Journal of Sports Medicine. – 2014. – Vol. 48, No. 7. – P. 498–505.
23. Ramirez-Campillo R., Meylan C., Alvarez C. et al. Effects of in-season low-volume high-intensity plyometric training on explosive actions and endurance of young soccer players // Journal of Strength and Conditioning Research. – 2014. – Vol. 28, No. 5. – P. 1335–1342.
24. Ramirez-Campillo R., Alvarez C., Garcia-Hermoso A. et al. Methodological characteristics and future directions for plyometric jump training research: A scoping review // Sports Medicine. – 2018. – Vol. 48, No. 5. – P. 1059–1081.
25. Slimani M., Chamari K., Miarka B. et al. Effects of plyometric training on physical fitness in team sport athletes: A systematic review // Journal of Human Kinetics. – 2016. – Vol. 53. – P. 231–247.
26. Dias S.B.C.D., Andrade A.G.P., Goncalves H. et al. Acute effects of statodynamic loading on kicking accuracy in adolescent soccer players // Sports Biomechanics. – 2014. – Vol. 13, No. 4. – P. 322–331.
27. Dhull V., Singh A., Sharma R. Contrast training in youth soccer: A systematic review and meta-analysis // International Journal of Sports Physiology and Performance. – 2025. – Vol. 20, No. 3. – P. 412–428.
28. Bailey S.J., Burgess D.J., Drust B. Post-activation potentiation in youth athletes: Mechanisms and applications // Sports Medicine. – 2025. – Vol. 55, No. 2. – P. 245–262.

AN IMPROVED MODEL FOR THE DEVELOPMENT OF LINGUISTIC MODELING SKILLS IN PRIMARY SCHOOL MOTHER TONGUE EDUCATION

Jurabayeva Zarnigor Zokhidjon kizi,
Independent Researcher, Namangan State Pedagogical Institute.
E-mail: zarnigorjurabayeva95@gmail.com

Abstract. *This article explores the theoretical and methodological foundations of developing linguistic modelling skills in primary school students and presents an improved model for their formation. It analyzes the cognitive, practical, and creative components in an integrated way and highlights their role in enhancing the effectiveness of mother tongue instruction. A four-stage model (diagnostic, preparatory, organizational, and assessment stages) is also described using Grade 4 mother tongue lessons as an example. The findings confirm that linguistic modelling is an effective tool for the systematic acquisition of grammatical knowledge, the development of logical and creative thinking, and the improvement of students' communicative competence.*

Keywords: *linguistic modeling, mother tongue education, primary education, linguistic competence, grammatical models, cognitive component, creative component, interactive teaching methods.*

BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA LINGVISTIK MODELLASHTIRISH MALAKASINI RIVOJLANTIRISHNING TAKOMILLASHTIRILGAN MODELI

Jurabayeva Zarnigor Zoxidjon qizi,
Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik modellashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari hamda takomillashtirilgan modeli yoritilgan. Tadqiqotda kognitiv, amaliy va kreativ komponentlarning integratsiyasi va ularning ona tili ta'limi samaradorligini oshirishdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, 4 bosqichli (diagnostik, tayyorlov, tashkiliy va baholash) model 4-sinf ona tili darslari misolida ko'rsatib berilgan. Natijalar lingvistik modellashtirish grammatik bilimlarni tizimli o'zlashtirish, mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish hamda kommunikativ kompetensiyani oshirishda samarali vosita ekanini tasdiqlaydi.*

Kalit so'zlar: *lingvistik modellashtirish, ona tili ta'limi, boshlang'ich ta'lim, lingvistik kompetensiya, grammatik modellar, kognitiv komponent, kreativ komponent, interfaol metodlar.*

УСОВЕРШЕНСТВОВАННАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Журабаева Зарнигор Зохиджон кизи,
Независимый исследователь Намаганского государственного педагогического института.

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические и методические основы развития навыков лингвистического моделирования у учащихся начальных классов и представлена усовершенствованная модель их формирования. Анализируются когнитивный, практический и креативный компоненты, а также их роль в повышении эффективности обучения родному языку. Описана четырёхэтапная модель (диагностический, подготовительный, организационный и оценочный этапы), которая показана на примере уроков родного языка в 4 классе. Результаты исследования подтверждают, что лингвистическое моделирование является эффективным средством системного усвоения грамматических знаний, развития логического и творческого мышления, а также коммуникативной компетенции учащихся.*

Ключевые слова: *лингвистическое моделирование, обучение родному языку, начальное образование, лингвистическая компетенция, грамматические модели, когнитивный компонент, креативный компонент, интерактивные методы обучения.*

INTRODUCTION

The contemporary stage of educational system development identifies the formation of 21st-century competencies in students as one of its highest priorities. These competencies include analytical thinking, problem-solving, creative thinking, and the ability to engage in independent learning. In achieving these objectives, primary education occupies a pivotal role. It is during this stage that students develop the ability to understand linguistic phenomena on a scientific basis, systematically acquire grammatical concepts, and apply them effectively in practical language use.

In recent years, organizing mother tongue education based on the competency-based approach has become one of the major directions of educational research. Within this approach, the learner is viewed not as a passive recipient of ready-made knowledge, but as an active participant who is capable of independently analyzing, synthesizing, and applying knowledge in new contexts. From this perspective, linguistic modeling is regarded as an effective didactic tool that promotes students' deep understanding of grammatical concepts.

Linguistic modeling enables the representation of language phenomena through diagrams, tables, algorithms, concept maps, or graphical models, thereby simplifying complex grammatical relationships and making them more accessible to learners. As a

result, students do not merely memorize grammatical rules but begin to understand their underlying logic and structural relationships. Therefore, the development of linguistic modeling skills is considered an important factor in fostering students' cognitive abilities, language performance, and communicative competence [4].

Recent studies indicate that linguistic modeling enhances learners' ability to identify relationships among language units, organize grammatical knowledge into coherent conceptual structures, generalize linguistic patterns, and transfer acquired knowledge to new learning contexts. Through the use of concept maps, graphical representations, and other visual modeling techniques, students develop deeper conceptual understanding rather than relying solely on rote memorization. This process promotes analytical and critical thinking while facilitating a more comprehensive understanding of language structures. In primary education, modeling activities related to word structure, parts of speech, phonetics, and morphology have been shown to strengthen learners' grammatical reasoning and improve their ability to apply grammatical concepts in authentic communicative situations [3].

Psychological and educational research increasingly recognizes model-based learning as an effective pedagogical approach for enhancing students' cognitive engagement and knowledge construction. By engaging learners in the creation, interpretation, and revision of models, this approach promotes conceptual understanding, analytical reasoning, and meaningful learning rather than rote memorization. Model-based instruction also supports the development of higher-order thinking skills by enabling students to organize knowledge systematically and apply it to novel learning situations [1].

In current primary education practice, linguistic modeling is frequently confined to individual classroom activities, such as completing tables or constructing simple diagrams. The absence of a comprehensive methodological framework that systematically supports the development of grammatical concepts limits students'

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

opportunities to acquire and apply linguistic competence effectively. Consequently, the enhancement of linguistic modeling through the integration of cognitive, practical, and creative components has become an important research and methodological priority.

This study aims to develop an improved model for enhancing linguistic modeling skills in primary school mother tongue education and to validate its methodological effectiveness. To accomplish this objective, the structural components of linguistic modeling were examined, a stage-based framework for the development of linguistic concepts was proposed, and practical implementation strategies were illustrated through selected grammar topics.

MATERIALS AND METHODS

This study is aimed at improving the methodological foundations for developing linguistic modeling skills in primary school mother tongue instruction. To achieve the research objectives, a combination of theoretical and empirical methods was employed. During the theoretical phase, scholarly literature on linguodidactics, pedagogy, educational psychology, and the competency-based approach was critically analyzed to clarify the concept of linguistic modeling and identify its structural components. In addition, previous methodological studies on the development of grammatical concepts in primary education were systematically reviewed. Based on the findings of this analysis, an enhanced model of linguistic modeling was developed to support the systematic formation of students' grammatical knowledge and skills.

The research methodology was grounded in the principles of constructivist learning theory and the competency-based approach. According to these perspectives, learners are regarded not as passive recipients of ready-made knowledge but as active participants who construct, analyze, and apply knowledge independently in authentic learning contexts. Accordingly, the proposed linguistic modeling approach was designed to enhance students' cognitive engagement, foster logical reasoning, and support creative thinking throughout the learning process. These principles served as the core

methodological foundation for the development and implementation of the instructional model.

The study focused on grammar topics taught in Grade 4 mother tongue classes. In particular, the topics *"Nouns with Possessive Suffixes"* and *"Nouns with Case Suffixes"* were selected as the instructional content for implementing linguistic modeling. These topics were considered appropriate because they involve well-structured grammatical relationships, offer broad opportunities for visual and conceptual modeling, and effectively promote students' analytical thinking and grammatical reasoning [**2**].

The proposed instructional model comprises three interconnected components: cognitive, practical, and creative. The cognitive component focuses on fostering students' understanding of linguistic phenomena, strengthening their comprehension of grammatical regularities, and developing linguistic reasoning. During this phase, learners examine the role of possessive suffixes in expressing person and number, identify the relationships between grammatical elements, and organize these relationships into systematic conceptual models.

The practical component of the proposed instructional model was implemented through a sequence of linguistic operations designed to facilitate the application of grammatical knowledge in authentic learning activities. Various instructional strategies, including comparison, grouping, classification, and transformation, were employed to promote students' analytical reasoning and procedural understanding of grammatical concepts. The practical activities developed for the topic of possessive suffixes are presented in Table 1.

Table 1. Practical Component of the Proposed Linguistic Modeling Framework

Instructional Method	Learning Activity	Expected Learning Outcome

Comparison	Students compare possessive suffixes in singular and plural noun forms.	Develop an understanding of grammatical similarities and differences between possessive forms.
Grouping	Students categorize possessive suffixes according to grammatical person (first, second, and third person).	Strengthen the ability to identify systematic grammatical patterns.
Classification	Students classify phonetic changes that occur when possessive suffixes are attached to nouns.	Improve understanding of phonological and morphological regularities.
Transformation	Students transform a noun into different possessive forms by changing grammatical person and number.	Develop the ability to apply grammatical rules flexibly in new linguistic contexts.

Visual modeling tools, including tables, algorithms, diagrams, and structural schemes, constituted an essential methodological component of the proposed instructional model. Possessive suffixes were organized into tables according to grammatical person, diagrams were employed to represent the relationships among grammatical forms, and algorithmic models illustrated the decision-making process for selecting appropriate suffixes in different linguistic contexts. By presenting grammatical concepts in a structured visual format, these models enhanced students' conceptual understanding, promoted meaningful learning, and strengthened their grammatical reasoning skills.

The creative component focused on fostering students' ability to develop independent linguistic models, engage in exploratory language activities, and transfer

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

grammatical knowledge to new communicative contexts. Learners applied possessive suffixes across different lexical items, analyzed phonological adaptation patterns, identified exceptional cases, and independently created visual representations, including diagrams and tables, to illustrate grammatical relationships. Consequently, linguistic modeling evolved beyond a tool for learning grammar and became an effective instructional strategy for promoting creativity, independent problem-solving, and higher-order cognitive skills.

The development of linguistic concepts was organized according to a four-stage instructional model. The first stage, referred to as the diagnostic stage, was designed to assess students' prior knowledge and identify their initial understanding of the target grammatical concepts. At this stage, the INSERT (Interactive Noting System for Effective Reading and Thinking) strategy was employed, enabling students to evaluate their knowledge by using the indicators *"I know," "New information," "Contradicts my prior knowledge,"* and *"I do not understand."* This strategy promoted reflective thinking by encouraging learners to monitor their own understanding, identify misconceptions, and recognize areas requiring further learning.

The second stage, the preparation stage, focused on planning and activating students' prior knowledge. During this phase, the teacher organized the instructional content according to the curriculum across the academic term, while students used the KWL (Know–Want to Know–Learned) strategy to activate their existing knowledge, identify learning goals, and prepare cognitively for the acquisition of new concepts. The use of the KWL strategy encouraged self-assessment, promoted metacognitive awareness, and strengthened students' capacity for self-directed learning.

The third stage, the implementation stage, focused on developing and applying linguistic models. Teachers designed models aligned with grammar topics, while students created their own based on examples. The fourth stage, the evaluation stage, assessed students' linguistic modelling skills through a multidimensional framework

covering cognitive, practical, and creative aspects, ensuring a holistic evaluation of grammatical competence.

Overall, the proposed methodology integrates theoretical analysis, pedagogical modelling, interactive strategies, and competency-based assessment into a unified framework. This approach effectively supports the implementation of linguistic modelling in primary education and promotes the development of grammatical and communicative competence as well as higher-order thinking skills.

RESULTS

The enhanced linguistic modeling framework developed in this study was examined as an effective instructional mechanism for fostering grammatical concepts among primary school students. The principal advantage of the proposed model lies in its emphasis on promoting students' conceptual understanding of grammatical phenomena rather than the mere memorization of grammatical rules. It encourages learners to identify relationships among linguistic units, interpret underlying grammatical patterns, and formulate independent conclusions through analytical reasoning. The framework is structured around three interrelated components – cognitive, practical, and creative – which function as an integrated pedagogical system. While each component performs a distinct role in the development of linguistic competence, their interaction provides a comprehensive and systematic approach to grammar instruction, thereby supporting students' conceptual understanding, practical application of grammatical knowledge, and creative language use.

The findings of the study demonstrated the central role of the cognitive component in the linguistic modeling process. This component enables students to observe linguistic phenomena, distinguish grammatical units, understand the relationships among them, and generalize grammatical patterns. For example, when studying the topic *"Nouns with Possessive Suffixes,"* students first develop an understanding of the role of possessive suffixes in expressing grammatical person and number. They then analyze the

phonological variants of these suffixes and identify the rules governing their use in different linguistic contexts. This sequential learning process promotes the meaningful acquisition of grammatical concepts, allowing students to develop a deeper conceptual understanding rather than relying on the memorization of grammatical rules.

During cognitive activity, students' analytical thinking also developed. For example, by working with examples such as "kitob," "kitobim," "kitobing," and "kitobi," they came to understand that changes in grammatical form also lead to changes in meaning. This ensured that grammatical knowledge was acquired in connection with semantic content. As a result, students began to approach grammatical phenomena not from a formal perspective, but from a functional one.

In the process of introducing the practical component, students' skills in performing linguistic operations developed significantly. In particular, comparison, grouping, classification, and transformation exercises enabled the integration of grammatical knowledge with practical activity. In comparison exercises, students identified the similarities and differences between possessive suffixes in singular and plural forms. In grouping tasks, they systematized grammatical units based on specific criteria. During classification, connections between phonetic phenomena and grammatical forms were identified, while in transformation exercises, students developed the ability to use words in different grammatical forms.

Visual models played an important didactic role in enhancing the effectiveness of linguistic modelling. During the research, tables, diagrams, algorithms, and structural schemes were used. In table-based models, the classification of grammatical units was presented in a concise and systematic form. Diagrams visually demonstrated the interrelationships between grammatical categories. Algorithmic models enabled step-by-step selection of grammatical affixes. Such tools helped students understand the topic more easily and retain it for a longer period of time.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

During the research, the role of the creative component in developing students' independent thinking was also identified. Students were not limited to working only with ready-made models; they were also involved in creating new models. They demonstrated a creative approach by generalizing grammatical rules, developing various schemes, and conducting linguistic experiments. In particular, linguistic models created by the students themselves indicated a deep mastery of grammatical knowledge. This situation confirms that students acquired knowledge not at a reproductive level, but at a productive level.

The four-stage model of forming linguistic concepts also demonstrated high methodological effectiveness. In the diagnostic stage, students' prior knowledge was identified using the INSERT strategy, and their individual needs were determined. This made it possible to implement a differentiated approach in the subsequent stages.

In the preparatory stage, the use of the KWL (Know–Want to know–Learned) technology activated students' prior knowledge and increased their motivation to master new topics. By independently assessing their own knowledge, students became active participants in the learning process. This contributed to the development of reflective activity, which is one of the key principles of the competency-based approach.

In the organizational stage, lessons were conducted based on linguistic models developed by the teacher. Pupils analyzed these models and subsequently created their own models based on them. Independent modelling activity had a positive impact on the deeper understanding of grammatical knowledge, making correct decisions in problem situations, and developing creative thinking.

The evaluation stage of the research was based on a multi-criteria assessment system designed to provide a comprehensive measurement of students' linguistic modelling competence. This system ensured an objective and systematic analysis of learners' cognitive, practical, and creative achievements. In particular, it allowed for the identification of different levels of grammatical knowledge formation through clearly

defined indicators. The main criteria and their pedagogical significance are presented in the table below.

Stage	Description	Educational Impact
Evaluation stage	A multi-criteria assessment system developed in this stage enabled a comprehensive evaluation of students' linguistic modelling skills.	Provided an objective determination of the level of grammatical knowledge formation through a structured and holistic approach.
Cognitive criteria	Assessment criteria covered cognitive activities.	Helped identify students' understanding, analytical thinking, and conceptual grasp of grammatical knowledge.
Annotatsiya. *Ushbu maqolada "ijtimoiy faollik" va "kompetentlik" tushunchalarining nazariy-metodologik asoslari falsafa, sotsiologiya, psixologiya va pedagogika fanlari kesimida tahlil qilingan. V.G. Mordkovich, L.P. Bueva, T.N. Malkovskaya, K.A. Abulxanova-Slavskaya va A.L. Juravlyov kabi olimlarning ijtimoiy faollik nazariyalari, shuningdek OECD tashkilotining transformativ kompetentsiyalar konsepsiyasi qiyosiy o'rganilgan. Tadqiqot natijasida ikkala tushunchaning umumiy metodologik o'zagi — "sub'ektlik" va "transformativlik" g'oyalari — aniqlangan bo'lib, bu ularni yagona, integrativ pedagogik kategoriya ("ijtimoiy faollik kompetentligi") sifatida birlashtirishning nazariy asosini tashkil etadi. Maqolada, shuningdek, mavjud tadqiqotlarda talaba qizlarga xos gender xususiyatlarini hisobga oluvchi yondashuvning yetishmasligi ilmiy bo'shliq sifatida asoslangan.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy faollik, kompetentlik, transformativ kompetentsiyalar, sub'ektlik, kompetentsiyaviy yondashuv, OECD, talaba qizlar, gender pedagogikasi, ijtimoiy faollik kompetentligi, nazariy-metodologik asos.*

ИССЛЕДОВАНИЕ, РАЗЪЯСНЯЮЩЕЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОНЯТИЙ «СОЦИАЛЬНАЯ АКТИВНОСТЬ» И «КОМПЕТЕНТНОСТЬ»

Аннотация. *В данной статье проанализированы теоретико-методологические основы понятий «социальная активность» и «компетентность» на стыке философии, социологии, психологии и педагогики. Рассмотрены и сопоставлены теории социальной активности таких учёных, как В.Г. Мордкович, Л.П. Буева, Т.Н. Мальковская, К.А. Абульханова-Славская и А.Л. Журавлев, а также концепция трансформативных компетенций ОЭСР. В результате исследования выявлено общее методологическое ядро обоих понятий — идеи «субъектности» и «трансформативности», что составляет теоретическую основу их объединения в единую, интегративную педагогическую категорию («компетентность социальной активности»). В статье также обосновано отсутствие в существующих исследованиях подхода, учитывающего гендерные особенности студенток, что определено как научный пробел.*

Ключевые слова: *социальная активность, компетентность, трансформативные компетенции, субъектность, компетентностный подход, ОЭСР, студентки, гендерная педагогика, компетентность социальной активности, теоретико-методологические основы.*

RESEARCH CLARIFYING THE THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF THE CONCEPTS OF "SOCIAL ACTIVITY" AND "COMPETENCE"

Abstract. *This article analyzes the theoretical and methodological foundations of the concepts of "social activity" and "competence" at the intersection of philosophy, sociology, psychology, and pedagogy. The theories of social activity developed by V.G. Mordkovich, L.P. Bueva, T.N. Malkovskaya, K.A. Abulkhanova-Slavskaya, and A.L. Zhuravlev are examined and compared alongside the OECD's transformative competencies concept. The study reveals a common methodological core underlying both concepts — the ideas of "subjectivity/agency" and "transformativeness" — which forms the theoretical basis for integrating them into a unified pedagogical category ("social activity competence"). The article also substantiates the absence, in existing research, of an approach accounting for the gender-specific characteristics of female students, identifying this as a scientific gap.*

Keywords: *social activity, competence, transformative competencies, agency/subjectivity, competency-based approach, OECD, female students, gender pedagogy, social activity competence, theoretical and methodological foundations.*

KIRISH

Talaba qizlar ijtimoiy faollik kompetentligini rivojlantirish muammosini ilmiy asoslash uchun, avvalo, uning tarkibida yotgan ikki tayanch tushuncha — "ijtimoiy faollik" va "kompetentlik" — ning nazariy-metodologik ildizlarini alohida-alohida ko'rib chiqish, so'ngra ularning fanlararo kesishuv nuqtalarini aniqlash zarur. Bu ikki tushuncha turli davrlarda, turli fanlar doirasida mustaqil rivojlangan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos ilmiy an'anaga ega. "Faollik" kategoriyasi falsafada insonning borliqqa nisbatan faol munosabatini ifodalovchi eng umumiy tushunchalardan biri sifatida qaraladi. Faollik falsafiy ma'noda sub'ektning ob'ektga nisbatan faol, o'zgartiruvchi ta'sirini bildiradi — bu yerda sub'ekt shunchaki tashqi ta'sirlarni qabul qiluvchi emas, balki borliqni ongli ravishda o'zgartiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Aynan shu falsafiy asosdan kelib chiqib, keyinchalik sotsiologiya va psixologiyada "ijtimoiy faollik" tushunchasi shakllangan — u insonning nafaqat tabiatga, balki ijtimoiy munosabatlarga nisbatan ham faol, o'zgartiruvchi pozitsiyasini ifodalaydi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda ayollar va qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga, ularning ta'lim, ilm-fan, tadbirkorlik va boshqaruv sohalaridagi ishtirokini oshirishga qaratilgan izchil davlat siyosati amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 2-fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g'risida”gi PF-5325-son Farmoni, 2018-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g'risida”gi PQ-3808-son Qarori, 2019-yil 2-sentyabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g'risida”gi O‘RQ-552-son Qonuni, 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g'risida”gi PF-87-son Farmoni, 2026-yil 3-martdagi “Ayollar va qizlarni qo‘llab quvvatlash turli havf - xatarlardan saqlash” PF-33-son Farmoni ijrosiga bag'ishlangan yig'ilishda qizlarning kasb-hunar egallashi, iqtisodiy mustaqil bo'lishi, o'z hayotiy qarorlarini ongli ravishda qabul qilishi jamiyat taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani ta'kidlandi. Shuningdek, qizlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan “Dolzarb 90 kun” chora-tadbirlari samaradorligini oshirish muhim vazifa sifatida belgilanganligini ko‘rish mumkin. Shu kabi bir qator qonuniy strategik hujjatlar va “Oliy ta’limni 2030 – yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da talaba-yoshlarning, jumladan, qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va jamoatchilik mas’uliyati kabi fazilatlarni tarbiyalash vazifalari belgilab qo‘yilgan. Bu esa oliy ta’lim tizimi oldiga talaba qizlarda ijtimoiy faollikni nafaqat tarbiyaviy tadbir, balki maqsadli shakllantiriladigan kompetentlik sifatida rivojlantirish vazifasini qo‘ymoqda.

Talaba qizlarda ijtimoiy faollik kompetentligini rivojlantirish muammosi zamonaviy pedagogika fanida bir necha nazariy yo‘nalishlar kesimida — falsafiy-sotsiologik, psixologik-pedagogik hamda amaliy-metodik jihatlardan tadqiq etib kelinmoqda. Ushbu muammoning ilmiy o‘rganilganlik darajasini tahlil qilish uchun uni shartli ravishda besh yo‘nalishga ajratish maqsadga muvofiqdir: birinchidan, “ijtimoiy faollik” tushunchasining nazariy-metodologik ildizlarini yorituvchi klassik va zamonaviy tadqiqotlar; ikkinchidan, talabalarda ijtimoiy faollik va fuqarolik ishtirokini shakllantirishga bag‘ishlangan rus va MDH tadqiqotlari; uchinchidan, transformativ

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

kompetentsiyalar va fuqarolik kompetentligi bo‘yicha xorijiy (G‘arb) tadqiqotlar; to‘rtinchidan, respublikamizda ijtimoiy faollik va gender masalalari bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar; beshinchidan, ushbu tadqiqotlar tahlili asosida aniqlangan ilmiy bo‘shliq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VAMETODOLOGIYA

Ijtimoiy-gumanitar terminologik lug‘atlarda “ijtimoiy faollik” tushunchasining nazariy asoslarini shakllantirishda bir necha olimning hissasi alohida ahamiyatga ega. V.G. Mordkovich o‘zining metodologik tahlilida ijtimoiy faollikni sub’ektning muhim, ajralmas belgisi sifatida ko‘rsatib, uni o‘lchash va qayd etishning uslubiy muammolarini o‘rtaga qo‘ygan. L.P. Bueva ijtimoiy faollikni insonning faoliyat va muloqot orqali ijtimoiylashuv jarayoni bilan bog‘lab, uni shaxsning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’sirining natijasi sifatida talqin etgan. T.N. Malkovskaya bu tushunchani birinchilardan bo‘lib tarbiyaviy jarayon predmeti sifatida — ya’ni ijtimoiy faollikni maqsadli pedagogik ta’sir orqali shakllantirish mumkinligini asoslab bergan. K.A. Abulxanova-Slavskaya esa ijtimoiy faollik nazariyasiga sub’ektlik g‘oyasini kiritib, faollikning eng muhim mezoni sifatida shaxsning “sub’ektlik darajasi”ni — ya’ni u hayotiy voqealarga shunchaki ergashadimi yoki ularni oldindan ko‘rib, tashkil etadimi — degan farqni ilgari surgan. A.L. Juravlyov rahbarligidagi Rossiya Fanlar akademiyasi Psixologiya instituti maktabida esa muammo yanada kengroq — jamoaviy sub’ekt va birgalikdagi faoliyat psixologiyasi nuqtai nazaridan rivojlantirilgan, bunda shaxs faolligi alohida emas, balki guruh va jamiyat darajasidagi o‘zaro ta’sirlar tizimida tahlil qilinadi.

MUHOKAMA

Pedagogik va ijtimoiy-pedagogik lug‘atlarda ushbu tushunchaning umumlashtirilgan ta’riflari keltirilgan, ularda ijtimoiy faollik insonning dunyoga nisbatan faoliyat asosidagi munosabati, jamiyat uchun ahamiyatli, ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshira olish qobiliyati sifatida izohlanadi. Bu ta’riflarning barchasida umumiy

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

metodologik o‘zak — “faoliyat”, “sub’ektlik” va “transformatsiya” tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi kuzatiladi.

“Kompetentlik” tushunchasi ijtimoiy faollikdan farqli o‘laroq, nisbatan yosh, XX asrning ikkinchi yarmida ta’lim iqtisodiyoti va kasbiy psixologiya doirasida shakllangan kategoriya hisoblanadi. Uning nazariy-metodologik asoslarini xalqaro miqyosda tizimlashtirishda OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti)ning DeSeCo (Definition and Selection of Competencies) loyihasi alohida o‘rin tutadi. D.S. Rychen va L.H. Salganik tomonidan tizimlashtirilgan ushbu konsepsiyada kompetentlik bilim, ko‘nikma va munosabatlarning muvaffaqiyatli hayot va yaxshi faoliyat yurituvchi jamiyat uchun zarur bo‘lgan integrativ birligi sifatida ta’riflangan.

M.V. Kolesnikovaning 2007-yilgi tadqiqotida (Omsk pedagogika universiteti) talabalar ijtimoiy faolligini kasbiy shakllanish jarayonida rivojlantirish masalasi o‘rganilgan, biroq unda gender xususiyatlari va kompetentsiyaviy yondashuv hisobga olinmagan. E.V. Baxarovskaya (2015) talaba-yoshlar ijtimoiy faolligini boshqaruv ob'ekti sifatida, A.A. Nikolayeva (2010) esa uni fuqarolik identifikatsiyasini shakllantirish omili sifatida tadqiq etgan. Bu ikkala ishda ham “kompetentsiya” tushunchasi faqat umumiy motiv yoki shaxsiy sifat darajasida tilga olinadi, mustaqil kompetentlik tizimi sifatida ishlanmagan.

N.U. Nurmatovaning 2023-yilgi PhD dissertatsiyasida (“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti) oila, mahalla va maktab hamkorligi asosida o‘quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish masalasi tadqiq etilgan. Bu — respublikamizda qizlar ijtimoiy faolligiga bag‘ishlangan eng yaqin ishlardan biri bo‘lsa-da, u maktab o‘quvchilari darajasida olib borilgan. Talabalar ijtimoiy faolligiga oid boshqa tadqiqotlar asosan tarbiyaviy ish yoki jismoniy faollik doirasida cheklangan.

Kompetentsiyaviy yondashuvning keyingi bosqichi — OECD “Learning Compass 2030” konsepsiyasi doirasida “transformativ kompetentsiyalar” g‘oyasining ilgari surilishi bo‘ldi. Ushbu konsepsiyaga ko‘ra, transformativ kompetentsiyalar uch tarkibiy

qismdan iborat: yangi qadriyat yaratish, ziddiyat va dilemmalarni yarashtirish hamda mas'uliyatni o'z zimmasiga olish. Bu uchtasi birgalikda shaxsni passiv ijrochidan faol, o'zgartiruvchi sub'ektga aylantirishga xizmat qiladi — bu g'oya "ijtimoiy faollik" tushunchasining falsafiy mazmuni bilan bevosita uyg'unlashadi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, "ijtimoiy faollik" va "kompetentlik" tushunchalari bir-biridan mustaqil ravishda, turli ilmiy an'analar doirasida rivojlangan bo'lsa-da, ularning nazariy mazmunida sezilarli umumiylik mavjud: ikkalasi ham shaxsni passiv ob'ekt emas, balki faol, o'zgartiruvchi sub'ekt sifatida talqin etadi (bu — Abulxanova-Slavskaya va OECD transformativ kompetentsiyalar konsepsiyasida alohida yaqqol ko'rinadi). Aynan shu umumiylik — "sub'ektlik" va "transformativlik" g'oyalarining ikkala tushunchada ham markaziy o'rin tutishi — ularni yagona, integrativ pedagogik kategoriya ("ijtimoiy faollik kompetentligi") sifatida birlashtirishning nazariy-metodologik asosini tashkil etadi.

Shu bilan birga, tahlil yana bir muhim jihatni ochib beradi: mavjud tadqiqotlarning birortasida ham bu ikki tushuncha ongli ravishda, maxsus metodologik asoslash bilan birlashtirilmagan, ayniqsa bu birlashtirilgan kategoriyaning gender xususiyatlarini — xususan, talaba qizlarga xos ijtimoiylashuv, tarbiya va rivojlanish jihatlarini — hisobga oluvchi shaklda ishlab chiqilishi hali ilmiy tadqiqot predmeti bo'lmagan. Bu — dissertatsiyamizning nazariy-metodologik yangiligini belgilovchi asosiy nuqtalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

бульханова-Славская К. А. *Деятельность и психология личности*. — М.: Наука, 1980. — 335 с.

ахаровская Е. В. Социальная активность студенческой молодёжи как объект управления: дис. канд. социол. наук: 22.00.08. — Чита, 2015. — 213 с.

ueva *Л*. П. Человек: деятельность и общение. — М.: МГУ, 1978. — 216 с.

уравлев А. *Л*. Психология совместной деятельности. — М.: Изд-во «Институт психологии РАН», 2005.

олесникова М. В. Развитие социальной активности студентов в процессе

профессионального становления: на примере педагогического вуза: дис. канд. пед. наук: 13.00.08. — Омск, 2007. — 186 с.

альковская Т. Н. Воспитание социальной активности старших школьников. — Л.: ЛГУ, 1973.

ордкович В. Г. Социальная активность: некоторые методические проблемы фиксации и измерения // Факторы социальной активности городского населения. — М.: АН СССР, 1986. — 37 с.

иколаева А. А. Социальная активность как фактор формирования гражданской идентичности современной российской студенческой молодежи: дис. канд. социол. наук: 22.00.04. — Тула, 2010.

9. Bandura, A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. — New York: W.H. Freeman and Company, 1997.

10. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. — 159 p.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Turaboyev Azamat Maxamadullayevich
University of Business and Science
pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi
turaboevazamat@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarda milliy o'zlikni anglashni rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik va psixologik omillar, jumladan, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, ma'naviy meros, kasbiy identifikatsiya, refleksiv tafakkur hamda ijtimoiy faoliyatning o'zaro bog'liqligi asoslab berilgan. Maqolada transformatsiya yondashuvi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy o'zlikni anglashni rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilib, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *milliy o'zlikni anglash, identifikatsiya, refleksiv tafakkur, transformatsiya yondashuv, refleksiya, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, ma'naviy meros, etnopsixologiya, ijtimoiy psixologiya va etnopedagogika.*

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF FORMING NATIONAL SELF-AWARENESS IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Abstract: *This article provides a scientific and theoretical analysis of the pedagogical and psychological characteristics involved in fostering national self-awareness among future primary school teachers. It substantiates the interrelationships among the pedagogical and psychological factors influencing the development of national self-awareness in future educators—specifically national values, historical memory, spiritual heritage, professional identity, reflective thinking, and social engagement. The article highlights the significance of an educational process organized around a transformational approach for developing national self-awareness in future primary school teachers and analyzes the effectiveness of utilizing modern pedagogical technologies and interactive methods.*

Keywords: *national self-awareness, identification, reflective thinking, transformational approach, reflection, national values, historical memory, spiritual heritage, ethnopsychology, social psychology, and ethnopedagogy.*

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: *В статье представлен научно-теоретический анализ педагогико-психологических особенностей формирования национального самосознания у будущих учителей начальных классов. Обосновываются взаимосвязи между педагогическими и психологическими факторами, влияющими на развитие национального самосознания будущих педагогов, — в частности, национальными ценностями, исторической памятью, духовным наследием, профессиональной идентичностью, рефлексивным мышлением и социальной активностью. Подчеркивается значимость организации образовательного процесса на основе трансформационного подхода для развития национального самосознания будущих учителей начальных классов, а также анализируется эффективность применения современных педагогических технологий и интерактивных методов.*

Ключевые слова: *национальное самосознание, идентификация, рефлексивное мышление, трансформационный подход, рефлексия, национальные ценности, историческая память, духовное наследие, этнопсихология, социальная психология, этнопедагогика.*

KIRISH

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida milliy o‘zlikni anglashni shakllantirish bugungi kunda oliy pedagogik ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki boshlang‘ich ta’lim o‘quvchi shaxsining intellektual, ma’naviy-axloqiy va fuqarolik fazilatlari shakllanadigan muhim bosqich bo‘lib, ushbu jarayonning samaradorligi, avvalo, o‘qituvchining kasbiy kompetentligi, pedagogik mahorati va milliy o‘zligini anglash darajasiga bevosita bog‘liqdir. Milliy o‘zligini chuqur anglagan bo‘lajak pedagog o‘z kasbiy faoliyatida milliy qadriyatlar, tarixiy meros, ma’naviy an’analar va umuminsoniy tamoyillar uyg‘unligini ta’minlay oladi hamda ularni o‘quvchilarga zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida singdirishga qodir bo‘ladi.

Pedagogik-psixologik nuqtai nazardan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida milliy o‘zlikni anglashning shakllanishi murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, u shaxsning motivatsion, kognitiv, emotsional-qadriyatli hamda refleksiv-faoliyat komponentlarining o‘zaro uyg‘un rivojlanishini taqozo etadi. Ushbu jarayonda talabaning milliy tarix, til, madaniyat, urf-odat va an’analar haqidagi bilimlari, ularga nisbatan ijobiy munosabati, kasbiy qadriyatlari, vatanparvarlik tuyg‘usi, fuqarolik mas’uliyati hamda o‘z faoliyatini tanqidiy tahlil qila olish ko‘nikmalari muhim

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

psixologik omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois pedagog kadrlarni tayyorlash tizimida milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirish shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy hamda transformatsion yondashuvlar asosida tashkil etilishi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda bo‘lajak pedagoglarning ma’naviy salohiyatini yuksaltirish, ularda milliy o‘zlikni anglash, Vatanga sadoqat, fuqarolik mas’uliyati va yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan davlat siyosati izchil amalga oshirilmoqda. Ushbu yo‘nalishning huquqiy asosini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi PQ-3160-son «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida»gi, 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi hamda 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari tashkil etadi. Mazkur me’yoriy-huquqiy hujjatlarda oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirish, bo‘lajak mutaxassislarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatni mustahkamlash, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan.

Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida milliy o‘zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda tadqiq etish, ushbu jarayonning mazmuni, mexanizmlari, omillari va samarali metodlarini aniqlash zamonaviy pedagogika fanining dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Zero, milliy o‘zligini anglagan pedagog nafaqat o‘z kasbiy faoliyatida yuqori natijalarga erishadi, balki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ham milliy qadriyatlarga hurmat, fuqarolik pozitsiyasi, ma’naviy barkamollik va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga munosib hissa qo‘shadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Milliy o‘zlikni anglash murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa bo‘lib, uning mazmunida subyektiv omillar muhim o‘rin egallaydi. Mazkur jarayon jamiyat taraqqiyoti, tarixiy sharoit va ijtimoiy munosabatlar ta’sirida o‘zgarib boradi. Ba’zi vaziyatlarda milliy o‘zlikni anglash me’yoridan chetga chiqib, boshqa millatlarga nisbatan ustunlikni da’vo qiluvchi yoki ularni inkor etuvchi qarashlarni yuzaga keltirishi mumkin. Bunday holat sog‘lom milliy o‘zlikni anglashdan farqli ravishda millatchilik va etnotsentrizm kabi salbiy ko‘rinishlarning shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Milliy o‘zlikni anglash shaxsning o‘zini muayyan millat vakili sifatida idrok etishi, shu bilan birga boshqa millatlar bilan o‘zaro taqqoslash orqali o‘ziga xos va umumiy jihatlarni anglay olishi bilan tavsiflanadi. Ushbu jarayonda faqat farqlar emas, balki xalqlar o‘rtasidagi mushtarak qadriyatlar va umumiy insoniy fazilatlarni ham anglash muhim hisoblanadi. Aks holda, faqat tafovutlarga urg‘u berish millatlararo munosabatlarda noto‘g‘ri stereotiplar va etnosentrik qarashlarning yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin.

Milliy o‘zlikni anglash doimo baholash, tahlil qilish va o‘zaro munosabatlarni anglash bilan bog‘liq. Inson o‘z millatining tarixi, tili, madaniyati, urf-odatlari va qadriyatlarini chuqurroq bilgan sari boshqa millatlarning ham o‘ziga xos jihatlarini anglay boshlaydi. Natijada millatlararo muloqot madaniyati rivojlanadi, bag‘rikenglik va o‘zaro hurmat tamoyillari mustahkamlanadi.

Rus tadqiqotchisi Knyazevning fikricha, “Milliy o‘zlikni anglash millatni yaxlit ijtimoiy birlik sifatida idrok etish va uni boshqa millatlardan ajrata olish qobiliyatida namoyon bo‘ladi” deb ta’kidlaydi. [6] Zamonaviy etnopsixologik tadqiqotlarda esa millatlar o‘rtasidagi nafaqat farqlar, balki umumiyliklarni anglash ham milliy o‘zlikni rivojlantirishning muhim omili sifatida e’tirof etilmoqda.

Milliy o‘zlikni anglash ikki darajada namoyon bo‘ladi:

birinchisi shaxs darajasida,

ikkinchisi esa etnik guruh yoki jamoa darajasida.

Shaxsning milliy o‘zligini anglashi uning individual tajribasi, dunyoqarashi va qadriyatlari bilan bog‘liq bo‘lsa, jamoaviy darajadagi milliy o‘zlik butun etnik guruhning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va umumiy manfaatlari asosida shakllanadi. Ushbu ikki daraja o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘lib, biri ikkinchisining rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Professor E. G‘oziyevning ta'kidlashicha, "Milliy o‘z-o‘zini anglash – muayyan xalqning u yoki bu ijtimoiy guruhga mansubligida, makroijtimoiy munosabatlarda o‘z millati egallagan mavqeini aniq tasavvur qilganligida, milliy manfaatdorligida o‘z ifodasini topishdir."[7] Olimning ta’kidlashicha, bu jarayonning shakllanishida oiladagi tarbiya, ota-onaning shaxsiy namunasi, ona tili muhiti, milliy madaniyatga bo‘lgan qiziqish, qarindoshlik munosabatlari va ijtimoiy muhit muhim omillar hisoblanadi.

S.S. Otamurodovning ta'kidlashicha, “Globallashuv sharoitida milliy o'zlikni anglash milliy taraqqiyotning muhim omili bo'lib, shaxsda milliy qadriyatlarga sodiqlik, fuqarolik mas'uliyati hamda Vatan ravnaqi uchun daxldorlik hissini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur jarayon, ayniqsa, yoshlar va bo'lajak pedagoglarning ma'naviy kamolotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi” deb ta’kidlaydi.[8]

Milliy o‘zlikni anglashning rivojlanishiga tarixiy taraqqiyot, tabiiy-geografik sharoit, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy munosabatlar kabi obyektiv omillar, shuningdek, shaxsning dunyoqarashi, bilim darajasi, ma’naviy kamoloti va individual faolligi kabi subyektiv omillar ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur omillarning uyg‘unlashuvi milliy o‘zlikning barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida iqtisodiy aloqalarning kengayishi, hududiy birlikning mustahkamlanishi, umumiy til va madaniyatning rivojlanishi millatlarning shakllanishi va milliy o‘zlikning rivojlanishiga zamin yaratgan. Shu bilan birga, xalqning tarixiy taqdiri, turmush tarzi, urf-odatlari va an’analari uning ma’naviy qiyofasi hamda milliy tafakkuriga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Mustaqillik davrida O‘zbekiston psixologiya fanida milliy o‘zlikni anglash, etnopsixologik jarayonlar hamda milliy psixologik xususiyatlarni tadqiq etishga alohida e’tibor qaratildi. Ushbu yo‘nalishda M.G. Davletshin, G‘.B. Shoumarov, E.G‘. G‘oziyev, V.M. Karimova, M.M. Mamatov, N.S. Safayev, A.M. Jabborov, I.I. Mahmudov va boshqa olimlar tomonidan qator ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Mazkur tadqiqotlarda etnik xarakter genezisi, uning tarkibiy tuzilishi, funksiyalari hamda milliy o‘zlikni anglash bilan bog‘liq psixologik omillar turli ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilingan.

Xususan, M.G.Davletshin hamda E.G‘.G‘oziev respublikamizda etnopsixologiya fanining shakllanishi va rivojlanishiga oid nazariy hamda amaliy masalalarni tadqiq etgan bo‘lsalar, M.M.Mamatov va N.S.Safayev ilmiy izlanishlarini etnik identifikatsiya hamda milliy o‘zlikni anglash muammolarini yoritishga bag‘ishlaganlar. F.S.Tato‘baeva ijtimoiylashuv jarayonida etnik stereotiplarning shaxs rivojiga ko‘rsatadigan ta’sirini tahlil qilgan bo‘lsa, I.I. Mahmudov etnik stereotiplarning xulq-atvor namoyon bo‘lishidagi o‘rnini ilmiy jihatdan asoslab bergan [6].

Shuningdek, S.S. Otamurotov O‘zbekiston mustaqilligi sharoitida yoshlarning ijtimoiy faolligi bilan uzviy bog‘liq holda milliy o‘zlikni anglash holatini o‘rgangan [8]. N. Salaeva o‘zbek oilasining hududiy va etnopsixologik xususiyatlarini tadqiq etgan bo‘lsa, V.M. Karimova yosh yigit-qizlarning o‘zbek oilasi haqidagi ijtimoiy tasavvurlarini psixologik nuqtai nazardan tahlil qilgan. O.B. Muxammatberdiev esa O‘rta Osiyo xalqlarining zamonaviy taraqqiyot sharoitida milliy o‘zlikni anglash jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan yoritgan.

Ba’zi ilmiy qarashlarda etnik o‘zlikni anglash va milliy o‘zlikni anglash bir-biridan farqlanadi. Aslida esa bu tushunchalar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, milliy o‘zlik etnik mansublikni anglash negizida shakllanadi. Shaxs o‘z millatining o‘ziga xos jihatlarini boshqa millatlar bilan taqqoslash orqali yanada chuqurroq anglaydi. Bunday jarayonning muvaffaqiyatli kechishi uchun esa yetarli intellektual salohiyat, mantiqiy tafakkur va ijtimoiy tajriba talab etiladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Milliy o‘zlikni anglash etnopsixologiya, ijtimoiy psixologiya, etnopedagogika va milliy tarbiya fanlarining asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Mustaqillik davrida ushbu tushunchaga alohida e’tibor qaratilib, uni shaxsning o‘zini muayyan millatning teng huquqli vakili sifatida anglash, umumiy tarix, til, madaniyat, qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar, davlat va Vatanga daxldorlik hissini his etishi bilan bog‘liq murakkab ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida talqin qilish keng tarqaldi.

Ilmiy adabiyotlarda milliy o‘zlikni anglashning tarkibiy qismlari bo‘yicha yagona yondashuv mavjud bo‘lmasa-da, ko‘plab tadqiqotchilar uning asosiy elementlari sifatida milliy identifikatsiya va milliy manfaatni ko‘rsatadilar. Ushbu elementlar shaxsning hissiy kechinmalari, qadriyatlari, e’tiqodi, munosabatlari va ijtimoiy ustanovkalari bilan chambarchas bog‘liq.

Milliy identifikatsiya insonning o‘zini ma’lum millat vakili sifatida qabul qilishi, umumiy tarixiy xotira, etnik kelib chiqish, ona tili, Vatan, milliy madaniyat, urf-odat va an’analarga daxldorlik hissini anglashni ifodalaydi. U shaxsning o‘z millati haqidagi bilimlari, tasavvurlari, qadriyatlari va ijtimoiy tajribalarini yagona tizimga birlashtiruvchi muhim psixologik omil hisoblanadi. Turli xalqlarda milliy identifikatsiyaning namoyon bo‘lish darajasi tarixiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy sharoitlarga qarab o‘zgarib boradi.

Psixologik jihatdan milliy o‘zlikni anglashning rivojlanishi shaxsning o‘zini identifikatsiya qilishi bilan boshlanadi. Milliy identifikatsiya bo‘lajak o‘qituvchining o‘zini o‘zbek xalqining vakili sifatida anglashi, milliy tarix, ona tili, Vatan, milliy qadriyatlar, urf-odat va an’analarni o‘zining ma’naviy hayotining ajralmas qismi sifatida qabul qilishi orqali namoyon bo‘ladi. Mazkur identifikatsiya shaxsning milliy manfaatlarni anglashiga, fuqarolik pozitsiyasining mustahkamlanishiga hamda kasbiy faoliyatida milliy qadriyatlarni targ‘ib qilishga tayyorligini ta’minlaydi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida milliy o‘zlikni anglashning shakllanishi ijtimoiy taqqoslash va refleksiya jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. Talaba o‘z milliy

mansubligini anglash jarayonida nafaqat o‘z xalqining tarixiy taraqqiyoti, madaniy merosi va ma’naviy qadriyatlarini o‘rganadi, balki boshqa millatlarning madaniyati va qadriyatlariga nisbatan hurmat ruhida munosabatni ham shakllantiradi. Natijada unda milliy g‘urur bilan bir qatorda bag‘rikenglik, tolerantlik va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik rivojlanadi. Bu esa pedagogik faoliyatda turli madaniy muhit vakillari bilan samarali muloqot olib borish imkoniyatini yaratadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida milliy o‘zlikni anglashni shakllantirish zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb ilmiy-amaliy muammolaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayon shaxsning milliy mansublikni anglash, tarixiy xotirani qadrlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish, fuqarolik mas’uliyatini his etish, kasbiy o‘zini identifikatsiyalash hamda refleksiv tafakkurni rivojlantirish kabi o‘zaro bog‘liq komponentlarning izchil shakllanishiga asoslanadi. Shu nuqtai nazardan, milliy o‘zlikni anglash faqatgina ma’lum bilimlarni egallash bilan cheklanmay, balki talabaning dunyoqarashi, e’tiqodi, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy faolligi va kasbiy pozitsiyasini belgilovchi integral shaxsiy sifat sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘rganilgan ilmiy manbalar milliy o‘zlikni anglash masalasi falsafa, pedagogika, psixologiya, etnopsixologiya va sotsiologiya fanlari doirasida keng tadqiq etilganligini ko‘rsatadi. Biroq mazkur muammoni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi bilan bevosita bog‘lagan holda, transformatsion yondashuv asosida rivojlantirish mexanizmlari hali ham yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ayniqsa, talabaning shaxsiy tajribasini qayta tahlil qilish, o‘z qadriyatlarini tanqidiy baholash, refleksiv fikrlashni rivojlantirish, kasbiy identifikatsiyani mustahkamlash va milliy qadriyatlarni zamonaviy pedagogik faoliyatga integratsiya qilishga qaratilgan metodik ta’minotning takomillashtirilishi zarurati mavjud.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Shuningdek, milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirish jarayoni oliy ta’lim muassasasidagi barcha ta’lim va tarbiya faoliyatining uzviy integratsiyasini talab etadi. O‘quv fanlari mazmuniga milliy qadriyatlar, tarixiy meros, ma’naviy-ma’rifiy g‘oyalar hamda zamonaviy fuqarolik jamiyati tamoyillarini singdirish, amaliy mashg‘ulotlarda muammoli vaziyatlar, refleksiv topshiriqlar, loyiha ishlari, treninglar va interfaol metodlardan foydalanish talabalarning milliy o‘zlikni anglash darajasini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mentorlik tizimi, ijtimoiy loyihalar, volontyorlik faoliyati va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning samarali tashkil etilishi ham ushbu jarayonning muhim pedagogik shartlaridan biri hisoblanadi.

Demak, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirishning samaradorligi bir qator pedagogik-psixologik omillar bilan belgilanadi. Jumladan, ichki motivatsiyaning shakllanganligi, milliy qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabat, refleksiv tafakkurning rivojlanganligi, kasbiy identifikatsiyaning barqarorligi, kommunikativ kompetentlik, innovatsion faoliyatga tayyorlik hamda uzluksiz o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilish ushbu jarayonning muhim ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Shunday qilib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida milliy o‘zlikni anglashni shakllantirish uzluksiz, bosqichma-bosqich va ilmiy asoslangan pedagogik jarayon bo‘lib, u shaxsning ma’naviy kamoloti, kasbiy rivojlanishi va ijtimoiy faolligini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1–2-jildlar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
4. Davletshin M.G. *Psixologiya*. – Toshkent: O‘qituvchi.
5. Mavlonova R., Rahmonqulova N. *Pedagogika nazariyasi va tarixi*. – Toshkent: Fan va texnologiya.

6. Xalilova N.I., Amirova O.Q. Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022. – 456 b.
7. G'oziyev E.G'. *Psixologiya.* – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – 352 b.
8. **Otamurotov S.S.** *Globallashuv va millat.* – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.
9. SHAXSDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI A To'raboyev - MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI, 2025 Related articles All 2 versions https://doi.org/10.5281/zenodo.15641133
10.Nishonova Munira Yakubjonovna, & Xalilov Adham Farhod og'li. (2024). YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA OILA, MAHALLA VA MAKTAB HAMKORLIGIDA O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 47(3), 149–153. Retrieved from https://newjournal.org/01/article/view/14974
11.Baxtiyor, Q. (2024). THE CORRELATION RELATIONSHIP OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY IN ADOLESCENTS WITH ACHIEVEMENT.
12. Qayumov, B. Z. (2025). O'SMIRLARDA KREATIVLIK NAMOYON BO'LISHINING HUDUDIY TAFOVUTLARI. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI, 3(6).

TALABA–SPORTCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY MASHG'ULOT METODLARINING O'RNI

Adhamova Nozligul Sadriddin qizi
Namangan davlat pedagogika instituti,
E–mail: adhamovanozligul@gmail.com Tel.: +998 93 401 05 11

Annotatsiya: *Mazkur maqolaning maqsadi talaba–sportchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda zamonaviy mashg'ulot metodlarining ilmiy va amaliy imkoniyatlarini aniqlash, ularni oliy ta'lim sharoitida qo'llashning izchil modelini taklif etishdan iborat. Tadqiqot nazariy–tahliliy yo'nalishda olib borilib, sport mashg'uloti nazariyasiga oid mahalliy va xorijiy adabiyotlar, 2015–2026–yillarda chop etilgan ilmiy maqolalar hamda metodik tavsiyalar qiyosiy, kontent va tizimli tahlil usullarida o'rganildi. Tahlil jarayonida yuqori intensiv intervalli mashg'ulot, kuch tayyorgarligi, funksional va aylanma mashg'ulot, plyometrik mashqlar, integrativ nerv–mushak tayyorgarligi hamda raqamli monitoringning jismoniy sifatlar rivojiga ta'siri baholandi. Natijalar talaba–sportchilar uchun bir xil standart dasturdan ko'ra individual ko'rsatkichlar, sport ixtisosligi, o'quv yuklamasi va tiklanish holatiga moslashtirilgan kombinatsiyalangan model samaraliroq ekanini ko'rsatdi. Maqolada sakkiz haftalik namunaviy mezotsikl, yuklamani nazorat qilish mezonlari va murabbiy uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Shuningdek, yuqori intensiv va tiklovchi kunlarning maqbul almashinuvi, subyektiv zo'riqish bahosi hamda uyqu ko'rsatkichlaridan foydalanish yo'llari belgilandi. Xulosa sifatida zamonaviy metodlar pedagogik nazorat, bosqichma–bosqich yuklama va tiklanish bilan uyg'unlashtirilgandagina barqaror natija berishi asoslandi.*

Kalit so'zlar: *talaba–sportchi, jismoniy tayyorgarlik, HIIT, kuch tayyorgarligi, funksional mashg'ulot, plyometriya, periodizatsiya, monitoring, individualizatsiya, tiklanish.*

РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ ТРЕНИРОВКИ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ СТУДЕНТОВ–СПОРТСМЕНОВ

Аннотация: *Цель статьи заключается в определении научно–практических возможностей современных тренировочных методов для совершенствования физической подготовленности студентов–спортсменов и в разработке последовательной модели их применения в условиях высшего образования. Исследование носит теоретико–аналитический характер. С использованием сравнительного, контентного и системного анализа изучены отечественные и зарубежные труды по теории спортивной тренировки, научные статьи 2015–2026 годов и методические рекомендации. Рассмотрено влияние высокоинтенсивной интервальной тренировки, силовой подготовки, функциональной и круговой тренировки, плиометрических упражнений, интегративной нервно–мышечной подготовки и цифрового мониторинга на развитие основных физических качеств. Установлено, что для студентов–спортсменов более результативна не единая стандартная программа, а комбинированная модель,*

адаптированная к индивидуальным показателям, спортивной специализации, учебной нагрузке и текущему уровню восстановления. В статье предложены примерный восьминедельный мезоцикл, критерии контроля нагрузки и практические рекомендации для тренера. Дополнительно обосновано чередование интенсивных и восстановительных дней, а также использование субъективной оценки нагрузки и показателей сна. Сделан вывод, что современные методы обеспечивают устойчивое улучшение силы, выносливости, быстроты, координации и работоспособности только при их сочетании с педагогическим контролем, постепенным повышением нагрузки, профилактикой травм и рациональным восстановлением.

Ключевые слова: *студент–спортсмен, физическая подготовленность, HIIT, силовая подготовка, функциональная тренировка, плиометрика, периодизация, мониторинг, индивидуализация, восстановление.*

THE ROLE OF MODERN TRAINING METHODS IN IMPROVING THE PHYSICAL FITNESS OF STUDENT–ATHLETES

Abstract: *This article aims to determine the scientific and practical potential of modern training methods for improving the physical fitness of student–athletes and to propose a consistent model for their application in higher education. The study was designed as a theoretical and analytical review. Local and international literature on sports training, research articles published between 2015 and 2026, and methodological recommendations were examined through comparative, content, and systems analysis. The effects of high–intensity interval training, resistance training, functional and circuit training, plyometric exercises, integrative neuromuscular training, and digital monitoring on major components of physical fitness were analyzed. The findings indicate that a single standardized program is less appropriate for student–athletes than a combined model adjusted to individual fitness indicators, sport specialization, academic workload, and recovery status. An eight–week sample mesocycle, practical load–monitoring criteria, and coaching recommendations are presented. The study concludes that modern methods can produce sustainable gains in strength, endurance, speed, coordination, and general work capacity only when they are integrated with pedagogical supervision, progressive overload, injury–prevention exercises, adequate recovery, and regular feedback based on objective and subjective indicators.*

Keywords: *student–athlete, physical fitness, HIIT, resistance training, functional training, plyometrics, periodization, monitoring, individualization, recovery.*

KIRISH

Oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan sportchi bir vaqtning o'zida ikki murakkab faoliyat tizimida ishtirok etadi: u o'quv fanlarini o'zlashtirishi va sport natijasini muntazam oshirib borishi kerak. Mazkur ikki yo'nalishdagi talablar vaqt, energiya, uyqu, ovqatlanish va ruhiy barqarorlikka birgalikda ta'sir qiladi. Shu sababli

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

talaba–sportchining jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish faqat mashqlar hajmini ko‘paytirish bilan hal etilmaydi. Mashg‘ulotning mazmuni, intensivligi, davomiyligi, takrorlanish soni va tiklanish oralig‘i o‘quv jadvali hamda individual imkoniyatlar bilan uyg‘unlashtirilishi zarur. Aks holda katta yuklama kutilgan moslashuv o‘rniga charchoqning to‘planishi, texnik harakatlarning buzilishi va jarohat xavfining ortishiga olib kelishi mumkin.

Jismoniy tayyorgarlik sportchining kuch, tezkorlik, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik va koordinatsion imkoniyatlarini bir butun tizim sifatida ifodalaydi. Ushbu sifatlarning nisbati sport turiga qarab farqlansa–da, talaba–sportchi uchun umumiy ish qobiliyati, nerv–mushak boshqaruvi va tez tiklanish qobiliyati tayanch omillar bo‘lib qoladi. An’anaviy yondashuvlarda ko‘pincha uzoq davom etadigan bir xil takroriy mashqlar yoki qat’iy reja ustunlik qilgan. Zamonaviy sport metodikasi esa yuklamani qisqa bloklarga ajratish, yuqori va past intensivlikni navbatlashtirish, kuch va chidamlilikni oqilona birlashtirish, harakat sifatini real vaqt rejimida kuzatish hamda natijaga qarab dasturga tezkor tuzatish kiritishni talab etadi [1; 2].

Yuqori intensiv intervalli mashg‘ulotlar vaqt tejamkorligi bilan, qarshilik bilan bajariladigan mashqlar kuch va quvvatni oshirish imkoniyati bilan, plyometriya esa cho‘zilish–qisqarish siklidan samarali foydalanib tezkor–kuch sifatlarini rivojlantirishi bilan ajralib turadi. Funksional va aylanma mashg‘ulotlarda bir nechta mushak guruhlari, muvozanat va energetik tizimlar bir vaqtda ishga tushadi. Integrativ nerv–mushak mashg‘ulotlari kuch, muvozanat, sakrash, tormozlanish va yo‘nalishni o‘zgartirish elementlarini birlashtirib, harakat samaradorligini va jarohatga chidamlilikni yaxshilaydi. Biroq mazkur metodlarning hech biri barcha sportchilar uchun bir xil me’yor va ketma–ketlikda qo‘llanmasligi kerak.

Muammoning dolzarbligi shundaki, talaba–sportchilar mashg‘ulotida zamonaviy metodlar ko‘pincha alohida usul sifatida qo‘llanadi, ularning o‘zaro nisbatini belgilash, semestrdagi o‘quv yuklamasi bilan muvofiqlashtirish va individual javobni monitoring

qilishga yetarli e'tibor berilmaydi. Bundan tashqari, internet manbalarida ommalashgan ayrim yuqori intensiv dasturlar tayyorgarlik darajasi va texnika nazoratisiz ko'chirib olinadi. Bu esa ilmiy asoslangan metod bilan trend ko'rinishidagi mashqlar majmuasini bir–biridan farqlash zaruratini kuchaytiradi.

Tadqiqotning maqsadi talaba–sportchilar jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda zamonaviy mashg'ulot metodlarining o'rni va o'zaro bog'liqligini aniqlash, oliy ta'lim sharoitiga mos kombinatsiyalangan metodik modelni asoslashdan iborat. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: zamonaviy metodlarning fiziologik–pedagogik xususiyatlarini tahlil qilish; ularning kuch, tezkorlik, chidamlilik, koordinatsiya va tiklanishga ta'sirini qiyoslash; yuklamani nazorat qilish ko'rsatkichlarini tizimlashtirish; talaba–sportchilar uchun sakkiz haftalik namunaviy mezotsikl hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Sport mashg'uloti nazariyasida tayyorgarlik jarayoni maqsadli, bosqichli va boshqariladigan pedagogik tizim sifatida talqin qilinadi. Mahalliy va mintaqaviy metodik adabiyotlarda mashq yuklamasining hajmi va shiddati sportchining yoshi, malakasi, ixtisosligi hamda musobaqa taqvimi bilan bog'lab rejalashtirilishi ta'kidlanadi [3; 4]. Periodizatsiya konsepsiyasi esa yillik tayyorgarlikni makro–, mezo– va mikrotsikllarga ajratib, moslashuv, charchoq va tiklanishning navbatma–navbat boshqarilishini nazarda tutadi [1]. Zamonaviy tadqiqotlar ushbu tamoyillarni inkor etmaydi, balki ularni sportchi haqidagi tezkor ma'lumotlar, individual javob va o'zgaruvchan taqvim bilan boyitadi.

Yuqori intensiv intervalli mashg'ulot bo'yicha tizimli tahlillar qisqa, lekin yuqori shiddatli ish bo'laklarini faol yoki sust tiklanish oralig'i bilan navbatlashtirish aerob quvvat, takroriy yuqori intensiv harakat va ayrim anaerob ko'rsatkichlarni yaxshilashini ko'rsatadi [5; 6]. Yosh sportchilarda ham mazkur metod vaqt samaradorligi bilan ajralib turadi, biroq mashqning texnik murakkabligi va umumiy haftalik yuklama hisobga

olinishi kerak. Funksional yuqori intensiv mashg‘ulotlar bo‘yicha meta–tahlil natijalari ularning umumiy jismoniy tayyorgarlik va sportga xos ko‘rsatkichlarga ijobiy ta’sirini qayd etgan [7].

Qarshilik bilan mashq qilish sportchining maksimal kuchi, tezkor kuchi va harakat iqtisodkorligini rivojlantirishda muhim vositadir. Elita sportchilariga oid tizimli tahlilda kuch mashg‘ulotining sportga xos natijalarga sezilarli ta’siri aniqlangan, biroq ta’sir darajasi sport turi va boshlang‘ich tayyorgarlikka bog‘liq bo‘lgan [8]. Plyometrik mashqlar bo‘yicha tadqiqotlar sakrash, sprint, yo‘nalishni o‘zgartirish va texnik harakatlarning ayrim elementlari yaxshilanishini ko‘rsatadi [9; 10]. Shu bilan birga, tushish va qo‘nish texnikasi o‘zlashtirilmagan sportchida plyometrik hajmni tez oshirish bo‘g‘imlarga keraksiz zarba yuklamasini beradi.

Tadqiqot nazariy–tahliliy dizaynda tashkil etildi. Manbalarni tanlashda sportchi yoki jismoniy faol talabalarda qo‘llanilgan mashg‘ulot metodlari, jismoniy tayyorgarlik natijalari, yuklama monitoringi yoki periodizatsiya masalalarini yoritgan ishlar ustuvor deb olindi. 2015–2026–yillarda nashr etilgan tizimli sharhlar, meta–tahlillar va konsensus hujjatlari zamonaviy dalillar sifatida, sport mashg‘uloti nazariyasiga oid fundamental adabiyotlar esa tushunchaviy asos sifatida o‘rganildi. Yakuniy tahlilga 16 ta asosiy manba kiritildi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, kontent tahlili, tizimlashtirish, pedagogik modellashtirish va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Har bir metod quyidagi mezonlar asosida baholandi: rivojlantiriladigan yetakchi jismoniy sifat; mashg‘ulotning vaqt samaradorligi; texnik murakkablik; charchoq va jarohat xavfi; individual moslashtirish imkoniyati; minimal monitoring talabi. Natijalar sport turidan qat’i nazar qo‘llanishi mumkin bo‘lgan umumiy modelga hamda ixtisoslikka qarab o‘zgartiriladigan qismlarga ajratildi. Mazkur maqolada yangi eksperimental guruh natijalari keltirilmaydi; natijalar ilmiy manbalar sintezi va metodik modellashtirishga tayangan holda bayon qilinadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahlil natijasida zamonaviy mashg‘ulot metodlarini talaba–sportchi tayyorgarligiga kiritishda “ko‘proq usul – ko‘proq natija” tamoyili emas, balki “aniq maqsad – mos vosita – nazorat qilinadigan yuklama” ketma–ketligi ustuvor bo‘lishi aniqlandi. Bir mashg‘ulotda ko‘plab metodlarni aralashtirish sportchining qaysi ta’sirga moslashayotganini noaniq qiladi. Shuning uchun haftalik mikrotsiklda har bir kunning asosiy yo‘nalishi belgilanib, qo‘shimcha vositalar yetakchi vazifani qo‘llab–quvvatlashi kerak. Masalan, maksimal kuch kuni juda katta hajmdagi HIIT bilan yakunlansa, texnik sifat pasayishi va keyingi kun tiklanishi sekinlashishi mumkin.

Birinchi natija zamonaviy metodlarni besh funksional guruhga ajratish mumkinligini ko‘rsatdi: 1) energetik imkoniyatlarni rivojlantiruvchi HIIT va interval usullar; 2) kuch va quvvatni rivojlantiruvchi qarshilik hamda plyometrik vositalar; 3) bir nechta harakat sifatini uyg‘unlashtiruvchi funksional, aylanma va integrativ nerv–mushak mashg‘ulotlari; 4) yuklamani vaqt bo‘yicha taqsimlovchi blokli, to‘lqinsimon va moslashuvchan periodizatsiya; 5) boshqaruvni ta’minlovchi raqamli va subyektiv monitoring. Ushbu guruhlar bir–birini almashtirmaydi; ular turli vazifani bajaradi va to‘g‘ri nisbatda birlashtirilganda umumiy tizim hosil qiladi.

Yuqori intensiv intervalli mashg‘ulotning o‘rni

HIIT talaba–sportchilar uchun ayniqsa vaqt cheklangan sharoitda aerob va anaerob imkoniyatlarni rivojlantirish vositasi sifatida ahamiyatli. Uning mohiyati yurak urish tezligi va nafas almashinuvini yuqori darajaga olib chiqadigan ish bo‘laklarini oldindan belgilangan tiklanish oralig‘i bilan takrorlashdan iborat. Intervallar yugurish, velotrenajyor, eshkak eshish ergometri, sakrash arqoni yoki sportga xos harakatlar yordamida tashkil etilishi mumkin. Tizimli sharhlar yosh va tayyorlangan sportchilarda HIIT aerob quvvat, takroriy sprint va umumiy ish qobiliyatini yaxshilashini ko‘rsatadi [5; 6].

Talaba–sportchi uchun HIIT haftasiga odatda 1–2 marta, asosiy musobaqa bosqichidan va boshqa yuqori shiddatli kunlardan kelib chiqib rejalashtiriladi. Boshlang‘ich variant sifatida 30 soniya yuqori shiddatli ish va 60–90 soniya tiklanishdan iborat 6–8 takror, tayyorlangan sportchilar uchun esa 2–4 daqiqalik intervallar qo‘llanishi mumkin. Biroq raqamlar qat’iy me’yor emas: sport turi, yurak urish tezligi, harakat tezligi va subyektiv zo‘riqish bahosi asosida o‘zgartiriladi. HIITning asosiy xatari uni har kuni yoki kuch mashg‘ulotidan keyin doimiy “jazolovchi” yuklama sifatida qo‘llashdir. Bunday yondashuv qisqa muddatli charchoqni natija deb qabul qiladi, lekin sifatli moslashuvni kafolatlamaydi.

Kuch, tezkor–kuch va plyometrik tayyorgarlik

Kuch tayyorgarligi talaba–sportchining nafaqat maksimal og‘irlikni yengishi, balki tezlanish, tormozlanish, sakrash, kurash holatini ushlab turish va texnik harakatni charchoq sharoitida barqaror bajarishi uchun zarur. Zamonaviy yondashuv mashqlarni faqat mushak guruhlari bo‘yicha emas, balki harakat namunalari bo‘yicha rejalashtiradi: o‘tirib–turish, tortish, itarish, son bo‘g‘imidan bukilish, bir oyoqli tayanch, gavdani barqarorlashtirish va yukni ko‘tarib yurish. Qarshilik miqdori texnika buzilmaydigan, belgilangan takrorlar bajariladigan va keyingi mashg‘ulotni izdan chiqarmaydigan darajada tanlanadi.

Kuch mashg‘ulotining samarasi progressiv yuklama bilan bog‘liq. Progress faqat shtanga vaznini oshirishni anglatmaydi; takror soni, yondashuv, harakat amplitudasi, bajarish tezligi, bir tomonlama mashqlar murakkabligi yoki dam olish oralig‘i ham boshqarilishi mumkin. Sportga xos natijalarga kuch mashg‘uloti sezilarli hissa qo‘shishi ilmiy tahlillarda tasdiqlangan [8]. Talaba–sportchilar uchun haftasiga 2 marta sifatli kuch mashg‘uloti ko‘pincha uch yoki to‘rt nazoratsiz mashg‘ulotdan foydaliroq bo‘ladi.

Plyometriya mushak–pay tizimining tez cho‘zilish va darhol qisqarish xususiyatidan foydalanadi. Past balandlikdan sakrab tushish, vertikal va gorizontal sakrashlar, to‘siqlar orqali sakrash, bir oyoqli sakrash hamda medbol uloqtirishlar

tezkor–kuch tayyorgarligining amaliy vositalaridir. Ularning foydasi sprint, sakrash va yo‘nalishni o‘zgartirish qobiliyatida ko‘rinadi [9; 10]. Shunga qaramay, plyometrik mashqda sifat hajmdan muhim: qo‘nish yumshoq, tizza va panja yo‘nalishi barqaror, gavda nazoratli bo‘lishi kerak. Charchoq kuchayib, qo‘nish texnikasi buzilganda mashq to‘xtatiladi.

Funksional, aylanma va integrativ nerv–mushak mashg‘ulotlari

Funksional mashg‘ulot sportchiga kundalik yoki sportga xos murakkab harakatlarni samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan kuch, muvozanat, harakatchanlik va koordinatsiyani birgalikda rivojlantirishga qaratiladi. Mazkur atama har qanday tasodifiy mashqlar ketma–ketligini anglatmaydi. Mashq tanlovi maqsadga xizmat qilishi, texnik jihatdan boshqarilishi va yuklama o‘lchanishi kerak. Aylanma mashg‘ulotda bir nechta stansiya ketma–ket bajarilib, vaqt tejaladi; yurak–qon tomir tizimi bilan birga mushak chidamliligi rivojlanadi. Yuqori intensiv funksional dasturlar bo‘yicha ilmiy tahlillar jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarida ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rsatgan [7].

Integrativ nerv–mushak mashg‘uloti kuch, muvozanat, tezkorlik, sakrash, tormozlanish va harakat yo‘nalishini o‘zgartirishni bir mashg‘ulot tizimida uyg‘unlashtiradi. Uning muhim afzalligi – sportchiga kuchni nazoratli va xavfsiz harakatga aylantirishni o‘rgatishidir. Bunday dasturlar ayniqsa qizlar va yigitlarda tizza, to‘piq hamda son atrofidagi barqarorlikni rivojlantirishda foydalidir. Nerv–mushak profilaktik dasturlari yosh sportchilarda jarohat xavfini kamaytirishi va sakrash, sprint, muvozanat kabi ko‘rsatkichlarni yaxshilashi haqida dalillar mavjud [11; 12]. Shu bois mashg‘ulotning 10–15 daqiqalik tayyorlov qismiga sifatli qo‘nish, bir oyoqda muvozanat, tez tormozlanish va gavda barqarorligi mashqlarini kiritish maqsadga muvofiq.

Periodizatsiya va kombinatsiyalangan model

Talaba–sportchi tayyorgarligida periodizatsiya musobaqa kalendarigagina emas, semestr ritmiga ham mos bo‘lishi kerak. Nazorat ishlari, sessiya, amaliyot va uzoq safarlar mashg‘ulot rejasiga real ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois qat’iy reja o‘rniga maqsadi

saqlanadigan, ammo kunlik yuklamasi holatga qarab moslashtiriladigan moslashuvchan periodizatsiya samarali. Haftada ikki og‘ir va bir necha o‘rtacha kun ketma–ket joylashtirilmasdan, ular orasida texnik, tiklovchi yoki past intensiv mashg‘ulotlar beriladi.

Kuch va chidamlilikni birgalikda rivojlantirishda “interferensiya” xavfi mavjud: juda katta hajmdagi chidamlilik yuklamasi kuch va quvvat moslashuvini pasaytirishi mumkin [13]. Buni kamaytirish uchun kuch va intensiv chidamlilik mashg‘ulotlarini imkon qadar alohida kunlarga yoki kamida bir necha soat farq bilan joylashtirish, yetarli ovqatlanish va uyquni ta’minlash, umumiy hajmni nazorat qilish kerak. Kuch ustuvor sport turida haftaning eng sifatli va tiklangan kuniga kuch mashg‘uloti qo‘yiladi; chidamlilik ustuvor sportda esa yetakchi interval mashg‘ulotlari asosiy o‘rinni egallaydi.

1–jadval. Zamonaviy metodlarning metodik vazifalari va nazorat mezonlari

Metod	Asosiy maqsad	Tavsiya etiladigan o‘rin	Asosiy nazorat	Ehtiyot chorasi
HIIT	Aerob–anaerob ish qobiliyati	Haftasiga 1–2 marta	Yurak urishi, tezlik, RPE	Ketma–ket og‘ir kunlardan saqlanish
Kuch mashg‘uloti	Maksimal kuch va quvvat	Haftasiga 2 marta	Takror sifati, RIR, og‘irlik	Texnika buzilsa yukni kamaytirish
Plyometriya	Tezkor–kuch, reaktivlik	Isinishdan keyin, charchoqdan oldin	Sakrash sifati, qo‘nish	Kontakt sonini bosqichli oshirish

Funksional aylana	Umumiy va mushak chidamliligi	O‘rtacha yuklama kuni	Stansiya vaqti, texnika, RPE	Tasodifiy mashq tanlamaslik
Nerv–mushak tayyorgarligi	Muvozanat va jarohat profilaktikasi	Har isinishda 10–15 daqiqa	Tizza–panja yo‘nalishi, muvozanat	Sifatni hajmdan ustun qo‘yish
Raqamli monitoring	Yuklamani individuallashtirish	Har mashg‘ulot va haftalik tahlil	sRPE, uyqu, puls, tezlik	Ma’lumotni kontekstsiz talqin qilmaslik

Yuklamani monitoring qilish va individuallashtirish

Zamonaviy metodlarning haqiqiy samarasi monitoring orqali aniqlanadi. Tashqi yuklama sportchi bajargan ishni – masofa, vaqt, tezlik, takror, ko‘tarilgan og‘irlik yoki tezlanishlar sonini ifodalaydi. Ichki yuklama esa organizmning shu ishga javobi bo‘lib, yurak urish tezligi, qon laktati, subyektiv zo‘riqish, kayfiyat va charchoq bilan baholanadi. Konsensus hujjatlarida birgina ko‘rsatkichga tayanmasdan, bir nechta sodda va barqaror usulni birga qo‘llash tavsiya etiladi [14]. Talaba–sportchi uchun murakkab laboratoriya uskunalarisiz ham mashg‘ulot davomiyligini RPE bahosiga ko‘paytirish orqali sRPE yuklamasi, ertalabki holat, uyqu davomiyligi va mushak og‘riqlari qayd etilishi mumkin.

Subyektiv ko‘rsatkichlar “aniq emas” deb e’tiborsiz qoldirilmasligi kerak. Sportchi har kuni bir xil tartibda savollarga javob bersa, o‘zgarish tendensiyasi murabbiy uchun foydali ma’lumot beradi. Sportchilar bildirgan holatni kuzatish vositalari bo‘yicha sharhlar ularning trening javobini baholashdagi amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi [15]. Masalan, ketma–ket uch kun uyqu sifati past, oyoqlarda og‘riq yuqori va odatdagi tezlik pasaygan bo‘lsa, rejalashtirilgan og‘ir HIITni texnik yoki tiklovchi mashg‘ulotga almashtirish maqsadga muvofiq.

Individualizatsiya sportchini guruhdan ajratib qo‘yish emas. Guruh umumiy mashg‘ulot vazifasini bajaradi, ammo ish va dam olish nisbati, og‘irlik, takrorlar soni yoki harakatning murakkabligi shaxsiy darajaga qarab o‘zgaradi. Masalan, bir guruhdagi sportchilar bir xil 6 ta intervalni bajarishi mumkin, biroq ularning tezligi maksimal aerob tezlikka nisbatan belgilanadi. Kuch mashg‘ulotida esa “zaxirada qolgan takrorlar” usuli bilan biri og‘irroq, boshqasi yengilroq vazn tanlaydi. Bu usul guruhni boshqarish imkonini saqlagan holda ortiqcha va yetarli bo‘lmagan yuklamani kamaytiradi.

Talaba–sportchilar uchun sakkiz haftalik namunaviy mezotsikl

Tahlil asosida umumiy jismoniy tayyorgarlikni yaxshilashga qaratilgan sakkiz haftalik model ishlab chiqildi. Model sport turiga xos texnik–taktik mashg‘ulotlarni almashtirmaydi; ularni jismoniy tayyorgarlik vositalari bilan muvofiqlashtiradi. Dastlabki ikki hafta harakat texnikasi va bazaviy hajmga, uchinchi–to‘rtinchi haftalar yuklamani oshirishga, beshinchi hafta nisbiy yengillashtirishga, oltinchi–yettinchi haftalar sifatli intensivlikka, sakkizinchi hafta esa nazorat va tiklanishga yo‘naltiriladi.

2–jadval. Sakkiz haftalik kombinatsiyalangan mezotsikl modeli

Hafta	Asosiy vazifa	Kuch	Chidamlilik/HIIT	Monitoring va tiklanish
1	Diagnostika va texnika	2 yengil mashg‘ulot, RIR 3–4	1 o‘rtacha interval	Boshlang‘ich test, uyqu va RPE kundaligi
2	Bazaviy hajm	2 mashg‘ulot, 6–10 takror	1 HIIT, 1 past intensiv ish	Og‘riq va yurak urishini kuzatish
3	Progressiv yuklama	Og‘irlik yoki takrorni 5–10% oshirish	Intervallar sonini bosqichli oshirish	sRPE haftalik yig‘indisi

4	Kuch va quvvat	Asosiy mashqlar + yengil plyometriya	1 sifatli HIIT	Sakrash/tezlik sifatini baholash
5	Yengillashtirish	Hajmni 25–35% kamaytirish	Past–o'rtacha intensivlik	Uyqu, mushak og'rig'i, kayfiyat
6	Maxsus ish qobiliyati	Sportga yaqin kuch mashqlari	Sportga xos intervallar	Tezlik va RPE mosligini tekshirish
7	Yuqori sifatli intensivlik	Kam hajm, yuqori sifat	1–2 nazoratli HIIT	Ortiqcha charchoq belgilarini aniqlash
8	Nazorat va tiklanish	Yengil kuch + test	Qisqa nazorat testi	Boshlang'ich natija bilan solishtirish

Namunaviy mikrotsikl besh asosiy bo'lakdan tuzilishi mumkin. Dushanba –kuch va qisqa plyometriya; seshanba – texnik–taktik mashg'ulot hamda past intensiv aerob ish; chorshanba – HIIT yoki sportga xos intervallar; payshanba – tiklanish, harakatchanlik va yengil texnika; juma – kuch va nerv–mushak tayyorgarligi; shanba – nazorat o'yini yoki sportga xos kompleks; yakshanba — dam olish. Musobaqa haftasida HIIT va kuch hajmi kamaytirilib, harakat tezligi hamda texnik sifat saqlanadi. Sessiya davrida esa umumiy hajm qisqartirilib, qisqa va maqsadli mashg'ulotlar ustuvor qilinadi.

Muhokama shuni ko'rsatadiki, zamonaviy metodlarning afzalligi ularning "yangiligi"da emas, balki yuklamani aniq dozalash, vaqtni tejash, sportga xos vazifani modellashtirish va individual javobga moslashish imkoniyatidadir. HIIT chidamlilik uchun, kuch mashg'uloti nerv–mushak salohiyati uchun, plyometriya tezkor–kuch uchun, funksional va integrativ mashg'ulot esa sifatlarni birlashtirish uchun xizmat qiladi. Monitoring ushbu vositalarning qachon va qancha qo'llanishini boshqaradi.

Demak, monitoringdan ajratilgan zamonaviy metod boshqaruv vositasidan ko‘ra navbatdagi og‘ir mashqlar to‘plamiga aylanib qoladi.

Talaba–sportchi bilan ishlashda murabbiy va jismoniy tarbiya o‘qituvchisi o‘zaro hamkorlik qilishi muhim. Sportchining dars jadvali, nazorat ishlari, safarlari va uyqu imkoniyati haqida ma’lumot mashg‘ulot rejasiga kiritilishi kerak. Shuningdek, sportchi yuklama maqsadini tushunsa, mashq texnikasi, RPE va tiklanish haqidagi ma’lumotni aniqroq beradi. Bu pedagogik muloqot sportchini passiv ijrochidan o‘z tayyorgarligini anglaydigan faol subyektga aylantiradi.

Tadqiqotning cheklovi uning nazariy–tahliliy xususiyatga egaligidir. Turli sport turlarida metodlarning optimal dozasi bir xil emas, shuning uchun tavsiya etilgan mezotsikl bevosita ko‘chirib olinmasdan, sport turi va sportchi holatiga moslashtirilishi lozim. Kelgusida Namangan davlat pedagogika instituti talaba–sportchilari ishtirokida 8–12 haftalik pedagogik tajriba o‘tkazib, kuch, sprint, chidamlilik, koordinatsiya va tiklanish ko‘rsatkichlarini nazorat hamda tajriba guruhlarida qiyoslash maqsadga muvofiq.

XULOSA

Talaba–sportchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda zamonaviy mashg‘ulot metodlari muhim, biroq ularning samarasi alohida metodning mashhurligi bilan emas, maqsadga muvofiq tanlanishi va yagona pedagogik tizimga birlashtirilishi bilan belgilanadi. HIIT aerob–anaerob ish qobiliyatini qisqa vaqt ichida rivojlantirishga, qarshilik bilan mashqlar maksimal kuch va quvvatni oshirishga, plyometriya tezkor–kuch hamda reaktivlikni takomillashtirishga, funksional va integrativ nerv–mushak mashg‘ulotlari esa muvozanat, koordinatsiya va harakat barqarorligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Talaba–sportchi uchun eng maqbul yondashuv individual ko‘rsatkichlar, sport ixtisosligi, semestrdagi o‘quv yuklamasi, uyqu va tiklanish holatini hisobga olgan kombinatsiyalangan modeldir. Haftalik rejada yuqori intensiv kunlar o‘zaro ajratilishi,

kuch va chidamlilik yuklamasining interferensiyasi kamaytirilishi, plyometrik va texnik mashqlar charchoqdan oldin bajarilishi lozim. Yuklama hajmi va shiddati bosqichma–bosqich oshirilishi, har 4–5 haftada nisbiy yengillashtirish davri berilishi maqsadga muvofiq.

sRPE, yurak urish tezligi, mashq tezligi, uyqu sifati, mushak og‘rig‘i va kayfiyat kabi sodda ko‘rsatkichlarni muntazam kuzatish murabbiyga rejani sportchining real holatiga moslashtirish imkonini beradi. Zamonaviy texnologiyalar qaror qabul qilishni qo‘llab–quvvatlaydi, ammo pedagogik kuzatuv va sportchi bilan muloqotni almashtirmaydi. Shunday qilib, ilmiy asoslangan metod tanlovi, individualizatsiya, monitoring, jarohat profilaktikasi va oqilona tiklanish birgalikda talaba–sportchilarning barqaror jismoniy rivoji hamda sport natijasini ta’minlaydigan asosiy shartlar hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Bompa T.O., Buzzichelli C.A. Periodization: Theory and Methodology of Training. – Champaign: Human Kinetics, 2019. – 392 p. (Mashg‘ulotni davrlashtirish: nazariya va metodika).
2. Platonov V.N. Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte. Obshchaya teoriya i yeye prakticheskiye prilozheniya. – Kyiv: Olimpiyskaya literatura, 2015. –680 s. (Olimpiya sportida sportchilar tayyorlash tizimi).
3. Salomov R.S. Sport mashg‘ulotining nazariy asoslari. – Toshkent: O‘zDJTI, 2005. – 238 b. (Theoretical foundations of sports training).
4. Matveyev L.P. Obshchaya teoriya sporta i yeye prikladnyye aspekty. – Moskva: Sport, 2010. – 340 s. (Sport umumiy nazariyasi va uning amaliy jihatlari).
5. Engel F.A., Ackermann A., Chtourou H., Sperlich B. High–Intensity Interval Training Performed by Young Athletes: A Systematic Review and Meta–Analysis // Frontiers in Physiology. – 2018. – Vol. 9. – Article 1012. (Yosh sportchilarda yuqori intensiv intervalli mashg‘ulot).
6. Yuan Y., Soh K.G., Qi F., Bashir M., Zhao N. Effects of high–intensity interval training on selected indicators of physical fitness among male team–sport athletes: A systematic review and meta–analysis // PLOS ONE. – 2024. – Vol. 19, No. 11. – e0310955. (Jamoaviy sportchilarning jismoniy tayyorgarligiga HIIT ta’siri).
7. Wang X., Soh K.G., Samsudin S. et al. Effects of high–intensity functional training on physical fitness and sport–specific performance among athletes: A systematic review with meta–analysis

// PLOS ONE. – 2023. — Vol. 18, No. 12. – e0295531. (Yuqori intensiv funksional mashg'ulotning ta'siri).

TALABALARNING TARIXIY TAFAKKUR DARAJASINI BAHOLASH MEZONLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO TAJRIBANING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

A.M.Axmedov
NamDU mustaqil izlanuvchisi
E-mail: axmedovm77@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalarning tarixiy tafakkur darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqishning nazariy va metodologik asoslari xalqaro tajriba misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Kanada Historical Thinking Project, Stanford universiteti qoshidagi Digital Inquiry Group, International Baccalaureate tarix kursi hamda College Board'ning AP World History tizimi qiyosiy o'rganildi. Tahlil natijasida tarixiy tafakkurni baholashda tarixiy ahamiyatni belgilash, birlamchi manba bilan ishlash, sabab–oqibatni tahlil qilish, davomiylik va o'zgarishni aniqlash, tarixiy perspektivani tushunish, dalillangan argument qurish, kontekstualizatsiya va manbalarni o'zaro tekshirish kabi komponentlar tayanch mezonlar sifatida ajralib chiqdi. Maqolada mazkur komponentlar asosida oliy ta'lim uchun moslashgan mezonlar tizimi, indikatorlar va baholash darajalari taklif etiladi. Natijalar tarix fanini o'qitishda reproduktiv nazoratdan analitik-diagnostik baholashga o'tish zarurligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *tarixiy tafakkur, baholash mezonlari, xalqaro tajriba, tarixiy kompetensiya, birlamchi manba, kontekstualizatsiya, argumentatsiya, oliy ta'lim.*

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN DEVELOPING CRITERIA FOR ASSESSING STUDENTS' HISTORICAL THINKING

Abstract. *This article analyzes the theoretical and methodological foundations of developing criteria for assessing students' historical thinking on the example of international experience. The study comparatively studied the Canadian Historical Thinking Project, the Digital Inquiry Group at Stanford University, the International Baccalaureate history course, and the College Board's AP World History system. As a result of the analysis, components such as determining historical significance, working with primary sources, cause-and-effect analysis, identifying continuity and change, understanding a historical perspective, building a substantiated argument, contextualization, and cross-checking sources were identified as basic criteria for assessing historical thinking. Based on these components, the article proposes a system of criteria, indicators, and assessment levels adapted for higher education. The results indicate the need to move from reproductive control to analytical-diagnostic assessment in teaching history.*

Keywords: *historical thinking, assessment criteria, international experience, historical competence, primary source, contextualization, argumentation, higher education.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА В РАЗРАБОТКЕ КРИТЕРИЕВ ОЦЕНКИ ИСТОРИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретические и методологические основы разработки критериев оценки исторического мышления студентов на примере международного опыта. В исследовании сравнительно изучались Канадский проект исторического мышления, группа цифровых исследований Стэнфордского университета, курс истории Международного бакалавриата и система AP World History от College Board. В результате анализа были определены такие компоненты, как определение исторической значимости, работа с первоисточниками, причинно-следственный анализ, выявление преемственности и изменений, понимание исторической перспективы, построение обоснованного аргумента, контекстуализация и перекрестная проверка источников, как основные критерии оценки исторического мышления. На основе этих компонентов в статье предлагается система критериев, показателей и уровней оценки, адаптированная для высшего образования. Результаты указывают на необходимость перехода от репродуктивного контроля к аналитико-диагностической оценке в преподавании истории.*

Ключевые слова: *историческое мышление, критерии оценки, международный опыт, историческая компетентность, первоисточник, контекстуализация, аргументация, высшее образование.*

KIRISH

Zamonaviy tarix ta'limida asosiy masala talabaning qancha fakt yodlagani emas, balki u tarixiy voqea va jarayonlarni qanday tushuntira olishi, manbalarni qay darajada tanqidiy o'qishi, dalil asosida xulosa chiqara olishi bilan belgilanadi. Shu bois tarixiy tafakkur kategoriyasi so'nggi o'n yilliklarda tarix didaktikasining markaziy tushunchalaridan biriga aylandi. Kanada tarix ta'limi maktabida tarixiy tafakkur oltita o'zaro bog'liq komponent orqali ifodalanadi: tarixiy ahamiyat, birlamchi manba dalili, davomiylik va o'zgarish, sabab va oqibat, tarixiy perspektiva hamda tarixiy talqinning axloqiy o'lchami. IB tarix kursida esa ko'p-perspektivali yondashuv, o'zgarish, sababiylik va ahamiyat kabi konseptlar tayanch o'quv natijalari sifatida ko'rsatilgan. AP World History tizimi tarixiy jihatdan himoyalanadigan tezis, kontekstualizatsiya, dalillardan foydalanish va tahlilni baholash markaziga qo'yadi. Stanforddan shakllangan va hozir

Digital Inquiry Group sifatida faoliyat yuritayotgan yo‘nalish esa sourcing, contextualization, corroboration va close reading ko‘nikmalarini tarixiy fikrlashning amaliy tayanchi deb ko‘rsatadi.

METODOLOGIYA

Muammo shundaki, ko‘plab amaliy baholash tizimlarida tarixiy tafakkur hanuz faktologik o‘zlashtirish bilan tenglashtiriladi. Natijada talabaning tarixiy manbaga munosabati, dalillash sifati, qarama-qarshi talqinlarni ajratish qobiliyati va tarixiy kontekstni anglash darajasi to‘liq diagnostika qilinmaydi. Tarixiy tafakkurni baholashga bag‘ishlangan tadqiqotlar esa bu yo‘nalishda nazariy aniqlik, validlik va amaliy qulaylikni birlashtirgan mezonlar tizimi zarurligini ko‘rsatadi. Ercikan va Seixas tahriri ostidagi ilmiy to‘plam tarixiy tafakkurni baholashda kognitiv maqsadlarni aniq belgilash, mazmuniy bilim bilan protseduraviy bilim nisbatini ochish va baholash vositalarini validatsiya qilish muhimligini ta’kidlaydi. Smith, Breakstone va Wineburgning HAT bo‘yicha validlik tadqiqotida qisqa konstruktiv javobli topshiriqlar tarixiy tafakkurning mo‘ljallangan konstruktlarini tanlash testlariga qaraganda chuqurroq ushlashi ko‘rsatilgan.

Shu jihatdan mazkur maqolaning maqsadi — talabalarning tarixiy tafakkur darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqishda xalqaro tajribaning nazariy va metodologik asoslarini aniqlash hamda oliy ta’lim sharoitiga moslashgan mezonlar modelini taklif etishdir.

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, kontent-tahlil va konseptual modellash metodlari qo‘llanildi. Empirik baza sifatida to‘rtta nufuzli xalqaro yo‘nalish tanlandi: 1) Canada Historical Thinking Project; 2) Stanford an’anasidan rivojlangan Digital Inquiry Group; 3) International Baccalaureate Diploma Programme History; 4) College Board AP World History: Modern. Mazkur manbalar tarixiy tafakkurni o‘qitish va baholashning eng ko‘p iqtibos qilinadigan va amalda qo‘llanadigan platformalari bo‘lgani uchun tanlandi. Qo‘shimcha ravishda tarixiy tafakkurni baholash bo‘yicha metodologik tadqiqotlar,

xususan New Directions in Assessing Historical Thinking hamda HAT bo'yicha validlik ishlari tahlil qilindi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Tahlil bir necha bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda har bir tizimda tarixiy tafakkur qanday konseptual birliklar orqali ifodalanishi ajratib olindi. Ikkinchi bosqichda o'sha birliklarning baholashdagi operatsional ko'rinishlari, ya'ni qaysi topshiriqlar, rubrikalar va indikatorlar bilan o'lchanishi solishtirildi. Uchinchi bosqichda umumiy invariant komponentlar va tizimlararo farqli jihatlar aniqlanib, oliy ta'lim uchun integrallashgan mezonlar modeli ishlab chiqildi. Metodologik prinsip sifatida uch talab saqlandi: konstrukt aniqligi, indikatorlarning kuzatiluvchanligi va baholash natijasining pedagogik interpretatsiya uchun yaroqliligi. Bu yondashuv tarixiy tafakkurni "bilimlar yig'indisi" emas, balki mazmuniy bilim va intellektual amallarning birligi sifatida talqin qilishga asoslanadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, xalqaro tajribalarda tarixiy tafakkur turlicha terminlar bilan ifodalansa-da, ularni birlashtiruvchi tayanch yadro mavjud. Historical Thinking Project tarixiy tafakkurni olti konsept asosida quradi. IB tarix kursi ko'proq perspektivlik, sabab va oqibat, o'zgarish va ahamiyatga urg'u beradi. AP tizimi argument, kontekstualizatsiya, aniq dalildan foydalanish va tahliliy mulohazani baholaydi. Digital Inquiry Group esa manba kelib chiqishini aniqlash, uning yaratilish sharoitini tushuntirish, boshqa manbalar bilan solishtirish va matnni yaqin o'qish strategiyalarini asosiy ko'nikma sifatida ishlab chiqqan. Demak, xalqaro tajribalarning barchasida tarixiy tafakkur uch qatlamdan tashkil topadi: birinchisi — kontekstual tushunish; ikkinchisi — manba bilan tanqidiy ishlash; uchinchisi — dalillangan tarixiy izoh va xulosa ishlab chiqish.

Tahlil natijasida oliy ta'lim talabalari uchun quyidagi integrallashgan mezonlar majmui ishlab chiqildi.

Birinchi mezon — tarixiy kontekstni anglash. Bunda talaba voqea yoki jarayonni vaqt, makon, siyosiy, iqtisodiy va madaniy muhit bilan bog‘lay olishi kerak. Mazkur mezon AP rubrikasidagi contextualization va IB tarixidagi konseptual joylashtirish bilan mos keladi.

Ikkinchi mezon — birlamchi va ikkilamchi manbalar bilan ishlash. Bu yerda talaba manbaning muallifini, yaratilgan davrini, maqsadini, auditoriyasini, cheklovlarini va ishonchlilik darajasini ajratadi. Stanford yo‘nalishidagi sourcing va corroboration, shuningdek HTPdagi primary source evidence aynan shu mazmunni anglatadi.

Uchinchi mezon — sabab–oqibat va davomiylik–o‘zgarishni tahlil qilish. Tarixiy voqeani faqat bitta omil bilan izohlash emas, balki omillar tizimini, qisqa va uzoq muddatli natijalarni ajratish baholanadi. Bu komponent Kanada va IB modellari uchun markaziy o‘rin tutadi.

To‘rtinchi mezon — tarixiy perspektiva va ko‘p talqinlilikni tushunish. Talaba turli ijtimoiy guruhlar, siyosiy kuchlar yoki tarixchilar bir hodisani turlicha talqin qilishini ko‘rsata olishi zarur. IB tarix kursining ko‘p-perspektivali xususiyati va HTPdagi perspective-taking shu mezonning nazariy asosidir.

Beshinchi mezon — dalillangan argument qurish. AP rubrikalarida bu tarixiy jihatdan himoyalanadigan tezis, mos dalillar va tahlil orqali o‘lchanadi. HAT tadqiqotlari ham tarixiy tafakkurni aniqlashda konstruktiv yozma javoblarning samaradorligini ko‘rsatadi.

Oltinchi mezon — tarixiy ahamiyatni belgilash va refleksiya. Talaba qaysi voqea nima sababdan muhim bo‘lganini, uning keyingi taraqqiyotga ta’sirini va hozirgi talqinlardagi o‘rnini tushuntira olishi kerak. Bu HTPda mustaqil konsept sifatida berilgan.

Mazkur komponentlar asosida 100 ballik baholash modeli taklif qilindi: tarixiy kontekst — 15 ball, manba bilan ishlash — 20 ball, sabab–oqibat va davomiylik–o‘zgarish — 15 ball, perspektiva va talqinlar — 15 ball, argumentatsiya — 20 ball, tarixiy ahamiyat

va refleksiya — 15 ball. Ushbu taqsimot xalqaro modellarni qiyosiy tahlil qilish natijasida ishlab chiqildi va unda manba tahlili hamda argumentatsiyaga yuqori ulush berildi, chunki aynan shu ikki blok tarixiy tafakkurning murakkab kognitiv faoliyat sifatida namoyon bo‘lishini kuchliroq aks ettiradi. Bunday nisbat HAT tadqiqotlari va AP/IB amaliyotidagi yozma, dalillangan topshiriqlar ustuvorligi bilan hamohangdir.

Natijada tarixiy tafakkur darajalarini to‘rt pog‘onada ifodalash maqsadga muvofiq deb topildi. Past darajada talaba asosan reproduktiv javob beradi, kontekst va manba tahlili sust bo‘ladi. O‘rta darajada ayrim tahliliy elementlar mavjud, lekin izchillik yetishmaydi. Yaxshi darajada talaba voqeani kontekstual tushuntiradi, manbani tanqidiy sharhlaydi va argument quradi. Yuqori darajada esa talaba ko‘p manbali, ko‘p-perspektivali, dalillangan va refleksiv tarixiy xulosa ishlab chiqadi. Bu darajalash xalqaro rubrikalardagi progressiv murakkablik prinsipiga mos keladi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, tarixiy tafakkurni baholash mezonlari oddiy bilim nazoratidan tubdan farq qiladi. Xalqaro amaliyotda muvaffaqiyatli baholash tizimlari uch belgiga ega: ular birinchidan, tarix fanining o‘ziga xos epistemik tabiatini hisobga oladi; ikkinchidan, manbalar bilan ishlashni markazga qo‘yadi; uchinchidan, tayyor javobni emas, asoslangan mulohazani baholaydi. Shu bois tarixiy tafakkur darajasini aniqlash uchun faqat yopiq test topshiriqlariga tayanish yetarli emas. HAT bo‘yicha tadqiqotlar ham qisqa konstruktiv javobli topshiriqlar tarixiy fikrlashni tanlash testlariga qaraganda chuqurroq ochishini ko‘rsatgan.

Mazkur holat oliy ta’lim metodikasiga bir necha xulosa beradi. Avvalo, baholash vositalari professor-o‘qituvchining subyektiv kuzatuviga emas, aniq indikatorlarga tayangan rubrika asosida tuzilishi zarur. Ikkinchidan, tarixiy tafakkur bir topshiriq bilan to‘liq o‘lchanmaydi; manba tahlili, hujjat asosidagi esse, qiyosiy savol, sabab–oqibat xaritasi va og‘zaki munozara kabi formatlar kompleks qo‘llanishi kerak. Uchinchidan, baholash natijalari reyting qo‘yish uchun emas, balki tarixiy tafakkurning qaysi

komponenti sust shakllanganini aniqlash uchun diagnostik vosita sifatida ishlatilishi kerak. Bu jihatlar tarixiy tafakkurni o‘qitish va baholashning uzviy birligini talab qiladi.

Shu bilan birga, xalqaro tajribani bevosita ko‘chirib olish metodik jihatdan to‘g‘ri bo‘lmaydi. IB va AP tizimlari ko‘proq kollejga tayyorlov va yuqori stakes baholash vazifasini bajaradi; Digital Inquiry Group esa maktab va media savodxonlik kesishmasida rivojlangan; Kanada modeli esa konseptual tarix didaktikasini chuqur ishlab chiqqan. Demak, milliy oliy ta’lim uchun ularning invariant elementlari olinishi, ammo indikatorlar o‘quv dasturi, auditoriya xususiyati va fan moduli vazifalariga moslashtirilishi lozim. Aynan shu nuqtada nazariy asos bilan metodologik moslashtirish birlashadi.

XULOSA

Tadqiqot natijasida talabalarning tarixiy tafakkur darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqishda xalqaro tajriba mustahkam nazariy va metodologik asos bera olishi aniqlandi. Qiyosiy tahlil Kanada, Stanford/Digital Inquiry Group, IB va AP tizimlarida turli terminologik tafovutlar bo‘lsa-da, tarixiy tafakkurning yadrosi deyarli umumiy ekanini ko‘rsatdi. Ushbu yadro tarixiy kontekstni anglash, manbani tanqidiy tahlil qilish, sabab–oqibat va davomiylik–o‘zgarishni tushuntirish, ko‘p-perspektivali talqinlarni ajratish, dalillangan argument qurish hamda tarixiy ahamiyatni belgilash komponentlaridan iborat.

Shu asosda oliy ta’lim uchun ishlab chiqilgan mezonlar modeli tarix fanini o‘qitishda analitik, diagnostik va kompetensiyaviy baholashni yo‘lga qo‘yishga xizmat qiladi. Uning amaliy ahamiyati shundaki, u professor-o‘qituvchiga talabaning tarixiy tafakkurini umumiy taassurot asosida emas, aniq kuzatiladigan indikatorlar orqali baholash imkonini beradi. Kelgusidagi tadqiqotlarda mazkur modelni eksperimental sinovdan o‘tkazish, rubrikalarning ishonchliligi va validligini empirik tekshirish, shuningdek geymifikatsiya va raqamli platformalar asosidagi baholash topshiriqlariga moslashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. The Historical Thinking Project. Historical Thinking Concepts - https://historicalthinking.ca/historical-thinking-concepts
2. The Historical Thinking Project. About the Historical Thinking Project - https://historicalthinking.ca/about-historical-thinking-project
3. Digital Inquiry Group. Official site and framework materials - https://www.inquirygroup.org
4. International Baccalaureate. History in the DP – https://www.ibo.org/programmes/diploma-programme/curriculum/individuals-and-societies/history
5. College Board. AP World History: Modern Exam - https://apcentral.collegeboard.org/courses/ap-world-history/exam
6. College Board. AP World History: Modern 2025 Scoring Guidelines, Set 1 - https://apcentral.collegeboard.org/media/pdf/ap25-sg-world-history-modern-set-1.pdf
7. Ercikan, K., Seixas, P. (eds.). *New Directions in Assessing Historical Thinking*. Routledge - https://www.routledge.com/New-Directions-in-Assessing-Historical-Thinking/Ercikan-Seixas/p/book/9781138018273
8. Smith, M., Breakstone, J., Wineburg, S. *History Assessments of Thinking: A Validity Study* - https://stacks.stanford.edu/file/druid%3Atj409fm6721/Smith%20Breakstone%20Wineburg_History%20Assessments%20of%20Thinking.pdf
9. Seixas, P. *Assessment of Historical Thinking* - https://historybenchmarks.ca/sites/default/files/files/docs/2012Report_EN.pdf
10.Thorp, R. *On historical thinking and the history educational challenge* - https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/00131857.2020.1712550

TARBIYAVIY TA'SIR TUSHUNCHASI: TARBIYAVIY TA'SIRNING TA'LIM MOTIVATSIYASIDAGI O'RNI

Ravshanbek Islomov Turgunaliyevich
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: ravshanbekislomov11@gmail.com

Annotatsiya. *Tarbiyaviy ta'sir o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarning o'quv motivatsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada ta'lim ta'siri tushunchasi, uning roli va turlari, shuningdek, o'qish uchun motivatsiyani shakllantirish va saqlashga ta'siri o'rganiladi. Ta'lim ta'sirini amalga oshirishning turli xil yondashuvlari ko'rib chiqiladi, bu o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga va ularning ta'lim yutuqlarini yaxshilashga yordam beradi. Ta'lim jarayonini individuallashtirish va qulay ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan usul va usullarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tahlil asosida o'qituvchilar uchun ta'lim amaliyotida ta'lim ta'siridan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar taklif etiladi.*

Kalit so'zlar*: tarbiyaviy ta'sir, o'quv motivatsiyasi, o'quv jarayoni, pedagogika, ta'lim usullari, ta'limni individuallashtirish, ta'lim muhiti.*

ПОНЯТИЕ ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ: РОЛЬ ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ В УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ

Равшанбек Исламов Тургуналиевич
научный сотрудник Наманганского государственного университета

Аннотация. *Воспитательное воздействие является важной составляющей учебного процесса и оказывает существенное влияние на учебную мотивацию учащихся. В данной статье рассматривается понятие воспитательного воздействия, его роль и виды, а также его влияние на формирование и поддержание мотивации к обучению. Рассматриваются различные подходы к реализации образовательного воздействия, способствующие повышению мотивации учащихся и улучшению их образовательных достижений. Особое внимание уделяется методам и приемам, направленным на индивидуализацию образовательного процесса и создание благоприятной образовательной среды. На основе анализа педагогам предлагаются рекомендации по эффективному использованию воспитательного воздействия в образовательной практике.*

Ключевые слова: *воспитательное воздействие, учебная мотивация, учебный процесс, педагогика, методы обучения, индивидуализация обучения, образовательная среда.*

THE CONCEPT OF UPBRINGABLE INFLUENCE: THE ROLE OF UPBRINGABLE INFLUENCE IN EDUCATIONAL MOTIVATION

Ravshanbek Islamov Turgunalievich
Researcher of Namangan State University

Annotation. *Upbringable impact is an important component of the educational process and has a significant impact on the educational motivation of students. This article explores the concept of educational impact, its role and types, as well as its impact on the formation and maintenance of motivation for study. Various approaches to the implementation of educational impact are considered, which will help to increase the motivation of students and improve their educational achievements. Particular attention is paid to methods and methods aimed at individualizing the educational process and creating a comfortable educational environment. Based on the analysis, recommendations are proposed for teachers on the effective use of educational influence in educational practice.*

Keywords: *educational impact, educational motivation, educational process, pedagogy, educational methods, individualization of education, educational environment*

KIRISH

Tarbiya ta'siri o'quv jarayonida asosiy rol o'ynaydi, o'quvchilarning shaxsiyatini shakllantirishga, ularning qadriyat yo'nalishlari va o'qishga bo'lgan motivatsiyasiga ta'sir qiladi. U axloqiy fazilatlarni, ijtimoiy ahamiyatga ega munosabatlarni va o'qishga ijobiy munosabatni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar va usullarni o'z ichiga oladi.[1] Zamonaviy sharoitda, ta'lim vazifalari murakkablashganda va ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablar oshganda, tarbiyaviy ta'sir o'quvchilarning o'quv motivatsiyasi va yutuqlarini oshirish vositasi sifatida alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Tarbiya - bu murakkab va ko'p qirrali tushuncha bo'lib, insonning shaxsiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni o'z ichiga oladi. U odamlarning xulq-atvori, fikrlash uslubi, qadriyatlari, bilimlari va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan jarayondir.[2]

Tarbiyani turli xil nuqtai nazardan tushunish mumkin:

1. Keng ma'noda: Tarbiya - bu odamning tug'ilishidan boshlab o'limigacha davom etadigan va ijtimoiy muhit, ta'lim, madaniyat, oila va shaxsiy tajribalar tomonidan shakllantiriladigan barcha ta'sirlarni o'z ichiga oladi.

2. Tor ma'noda: Tarbiya - bu odamning xulq-atvori, fikrlash uslubi va qadriyatlarini maqsadli ravishda shakllantirish jarayoni. Bu jarayon oila, maktab, jamiyat, diniy institutlar va boshqa ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladi.

3. Psixologik nuqtai nazardan: Tarbiya - bu individning ruhiy va aqliy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni o'z ichiga oladi. Uning maqsadi shaxsning o'zini o'zi anglashini, irodasi, his-tuyg'ularini va xatti-harakatlarini tartibga solishdir.

4. Ijtimoiy nuqtai nazardan: Tarbiya - bu jamiyatning shaxsga ta'sir qilish, uni jamiyatga moslashtirish, uning qonunlari, qadriyatlari va an'analariga qo'shilishni o'rgatish jarayoni.

METODOLOGIYA

Tarbiya jarayonida quyidagi omillar muhim rol o'ynaydi:

Oila: Oila bolaning birinchi va eng muhim tarbiyachi muhitidir. Oila a'zolari o'zlarining xatti-harakatlari va qadriyatlari orqali bolaga ta'sir o'tkazadi.

Maktab: Maktab o'quvchilarni bilimlar bilan ta'minlash, ularni ma'lum kasblarga tayyorlash va jamiyatga moslashtirish uchun muhim rol o'ynaydi.

Jamiyat: Jamiyatning madaniyati, qonunlari, an'analar va ijtimoiy norma va qadriyatlari shaxsning xatti-harakatlariga ta'sir qiladi.[3]

Shaxsiy tajribalar: Har bir shaxsning o'ziga xos tajribalari uning rivojlanishiga ta'sir qiladi.

Ommaviy axborot vositalari: Televizor, radio, internet va boshqa ommaviy axborot vositalari shaxsning fikrlash uslubi va qadriyatlariga ta'sir qilishi mumkin.[4]

Tarbiyaning ahamiyati:

Shaxsiy rivojlanish: Tarbiya shaxsning to'liq va harmonik rivojlanishi uchun muhimdir. Uning xulq-atvori, fikrlash uslubi, qadriyatlari va ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Jamiyatga moslashish: Tarbiya shaxsning jamiyatga moslashishi, uning qonunlari, qadriyatlari va an'analariga qo'shilishiga yordam beradi.

O'zini o'zi anglash: Tarbiya shaxsning o'zini o'zi anglashini, irodasi, his-tuyg'ularini va xatti-harakatlarini tartibga solishini rivojlantirishga yordam beradi.

Ijtimoiy taraqqiyot: Tarbiya jamiyatning taraqqiyotiga hissa qo'shadi, chunki u yangi avlodni bilimli, madaniyatli va ijtimoiy mas'uliyatli shaxslar sifatida tayyorlaydi.

Tarbiya murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, shaxsning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Uning ahamiyati shaxsiy rivojlanish, jamiyatga moslashish, o'zini o'zi anglash va ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashda yotadi.

Tarbiyaviy ta'sir - bu shaxsning xatti-harakati, fikrlash uslubi, qadriyatlari, bilimlari va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan maqsadli ta'sirdir. U turli shaxslar, guruhlar yoki muhitlar tomonidan amalga oshiriladi va ma'lum bir natijaga erishishni maqsad qiladi.

Tarbiyaviy ta'sir quyidagi xususiyatlarga ega:

Maqsadli: Tarbiyaviy ta'sir ma'lum bir natijaga erishishni maqsad qiladi. Masalan, bolaga o'zini tutish qoidalarini o'rgatish, uning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish yoki uni jamiyatga foydali a'zo bo'lishga undash.[5]

Tizimli: Tarbiyaviy ta'sir tizimli ravishda amalga oshiriladi. Bu degani, ta'sirlar bir-biriga bog'liq va ularning o'zaro ta'siri natijasida shaxsning rivojlanishiga ta'sir o'tkaziladi.

Faol: Tarbiyaviy ta'sir faol va o'zaro ta'sirli bo'ladi. Bu degani, shaxs tarbiyaviy ta'sirga passiv ravishda javob bermaydi, balki uni o'zlashtiradi, qabul qiladi yoki rad etadi.[6]

Shaxsiylashtirilgan: Tarbiyaviy ta'sir shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini, ehtiyojlarini, qobiliyatlarini va rivojlanish bosqichini hisobga olib amalga oshiriladi.

Tarbiyaviy ta'sir turli xil shakllarga ega bo'lishi mumkin:

To'g'ridan-to'g'ri ta'sir: Bu o'qituvchilar, ota-onalar yoki boshqa tarbiyachilarning shaxsga to'g'ridan-to'g'ri ta'siridir. Bu gapirish, ko'rsatmalar berish, mashqlar bajarish, namunalar ko'rsatish va boshqa usullar orqali amalga oshiriladi.

Bilvosita ta'sir: Bu shaxsning ijtimoiy muhit, ommaviy axborot vositalari, adabiyot, san'at va boshqa omillar orqali shakllantirilishidir.

O'z-o'zini tarbiyalash: Bu shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini, ehtiyojlarini, qobiliyatlarini va rivojlanish bosqichini hisobga olib, o'zini o'zi tarbiyalashga qaratilgan harakatlaridir.

Tarbiyaviy ta'sirning ahamiyati:

Shaxsiy rivojlanish: Tarbiyaviy ta'sir shaxsning to'liq va harmonik rivojlanishi uchun muhimdir. Uning xulq-atvori, fikrlash uslubi, qadriyatlari va ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.[7]

Ijtimoiy moslashish: Tarbiyaviy ta'sir shaxsning jamiyatga moslashishi, uning qonunlari, qadriyatlari va an'analariga qo'shilishiga yordam beradi.

O'zini o'zi anglash: Tarbiyaviy ta'sir shaxsning o'zini o'zi anglashini, irodasi, his-tuyg'ularini va xatti-harakatlarini tartibga solishini rivojlantirishga yordam beradi.

Ijtimoiy taraqqiyot: Tarbiyaviy ta'sir jamiyatning taraqqiyotiga hissa qo'shadi, chunki u yangi avlodni bilimli, madaniyatli va ijtimoiy mas'uliyatli shaxslar sifatida tayyorlaydi.

Tarbiyaviy ta'sir - bu shaxsning shaxsiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydigan maqsadli va tizimli ta'sirdir. Uning ahamiyati shaxsning xatti-harakatini shakllantirish, jamiyatga moslashish, o'zini o'zi anglash va ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashda yotadi.

Tarbiyaviy ta'sirni talabaning o'ziga xos fazilatlari, munosabati va xulq-atvorini shakllantirish uchun uning shaxsiga maqsadli pedagogik ta'sir sifatida aniqlash mumkin. Bu turli xil ta'lim tadbirlari, o'qituvchilar va ota-onalar bilan o'zaro munosabatlar, shuningdek talaba joylashgan ta'lim muhiti orqali amalga oshiriladi. Tarbiyaviy ta'sir to'g'ridan-to'g'ri (masalan, ko'rsatmalar, rag'batlantirish, tanqid qilish) va bilvosita ta'sirni (masalan, atrof-muhitning ta'siri, atrofdagi odamlarning misoli) o'z ichiga oladi.[8]

Ta'lim motivatsiyasi o'quvchini o'quv jarayonida faol ishtirok etishga va ta'lim maqsadlariga erishishga undaydigan ichki rag'batdir. Tarbiyaviy ta'sir ushbu motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi, o'quvchining o'qishga bo'lgan

munosabatiga, uning mavzuga bo'lgan qiziqishiga va muvaffaqiyatga intilishga ta'sir qiladi. Samarali tarbiyaviy ta'sir talabaning o'qishga bo'lgan qiziqishini va tanlangan sohada rivojlanish istagini uyg'otish orqali uning ichki motivatsiyasini oshirishi mumkin.

XULOSA

Tarbiyaviy ta'sir o'qituvchining qo'lida kuchli vosita bo'lib, o'quvchilarning o'quv motivatsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Undan samarali foydalanish talabalarning individual xususiyatlarini chuqur tushunishni, qulay ta'lim muhitini yaratishni va turli xil ta'lim usullaridan foydalanishni talab qiladi. Ta'lim ta'siriga e'tibor qaratadigan o'qituvchilar o'qish uchun barqaror motivatsiyani shakllantirishga va yuqori ta'lim natijalariga erishishga hissa qo'shishi mumkin. Kelajakda ta'lim ta'siriga yondashuvlarni o'rganish va takomillashtirishni davom ettirish kerak, shunda u zamonaviy ta'lim muammolari sharoitida samarali va dolzarb bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

осков О. С. Принудительные меры воспитательного воздействия: уголовно-правовые и криминологические аспекты. – 2006.

олоткевич Т. Н. Самоуправление студентов как фактор организации воспитательной работы в вузе //Дисс…. канд. педагог. – 2005.

ферова М. А. Влияние семейного воспитания на развитие мотивации достижения детей 9-11 лет : дис. – Ярославль : [Яросл. гос. пед. ун-т им. КД Ушинского], 2004.

оровиков С. А. Принудительные меры воспитательного воздействия как альтернатива наказанию несовершеннолетних. – Общество с ограниченной ответственностью Издательство" Юрлитинформ", 2009.

айхлина Е. Л. Роль воспитательно-образовательного пространства педагогического вуза в развитии патриотического самосознания студентов //Современные проблемы науки и образования. – 2016. – №. 2. – С. 226-226.

арионова С. В., Банковская О. В. ПОНЯТИЕ И ХАРАКТЕРИСТИКА ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ ВОЗДЕЙСТВИЯ НА ОБУЧАЮЩИХСЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ ДЕОНТОЛОГИЧЕСКОГО ТИПА //ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫЕ ОСНОВЫ ОРИЕНТАЦИИ МОЛОДЕЖИ НА ВОЕННЫЕ ПРОФЕССИИ. – 2018. – С. 61-62.

умская Л. И. Качество и эффективность воспитательного процесса в вузе/ЛИ Шумская. – Минск: БГУ, 2007.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 4-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

GEYMIFIKATSIYA ASOSIDA TARIXIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

A.M.Axmedov
NamDU mustaqil izlanuvchisi
E-mail: axmedovm77@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tarix fanini o'qitishda tarixiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik shartlari geymifikatsiya yondashuvi asosida tahlil qilinadi. Tarixiy tafakkur zamonaviy tarix ta'limining markaziy natijalaridan biri sifatida talabaning tarixiy ahamiyatni belgilash, manbalarni tahlil qilish, davomiylik va o'zgarishni anglash, sabab va oqibatni tushuntirish, tarixiy nuqtayi nazarni hisobga olish hamda tarixiy talqinlarning axloqiy o'lchamlarini baholash qobiliyatlari bilan bog'liq holda izohlanadi. Geymifikatsiya esa o'yin dizayni elementlarini noo'yin kontekstiga tatbiq etish orqali ta'lim jarayonida motivatsiya, ishtirok va refleksiyani kuchaytiruvchi didaktik mexanizm sifatida tavsiflanadi. Maqolada tarixiy tafakkurni rivojlantirishning asosiy pedagogik shartlari sifatida motivatsion muhitni yaratish, muammoli-tahliliy topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, manbalar bilan ishlashni o'yin mexanizmlari bilan uyg'unlashtirish, hamkorlikka asoslangan ta'limni tashkil etish, refleksiv baholashni yo'lga qo'yish va professor-o'qituvchining metodik tayyorgarligini kuchaytirish masalalari ochib beriladi. Tadqiqot natijasida geymifikatsiya tarix fanida faqat qiziqish uyg'otuvchi vosita emas, balki tarixiy tafakkurning kognitiv, operatsion, kommunikativ va baholovchi komponentlarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shartlar tizimi sifatida qaralishi asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *tarixiy tafakkur, geymifikatsiya, pedagogik shartlar, manbaviy tahlil, tarixiy nuqtayi nazar, refleksiya, motivatsiya, didaktik model.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ИСТОРИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ ГЕЙМИФИКАЦИИ

Аннотация. *В данной статье анализируются педагогические условия развития исторического мышления в преподавании истории на основе подхода геймификации. Историческое мышление, как один из центральных результатов современного исторического образования, рассматривается в контексте способности студента определять историческое значение, анализировать источники, понимать преемственность и изменения, объяснять причинно-следственные связи, учитывать историческую перспективу и оценивать моральные аспекты исторических интерпретаций. Геймификация описывается как дидактический механизм, повышающий мотивацию, вовлеченность и рефлексию в образовательном процессе путем применения элементов игрового дизайна в неигровом контексте. В статье раскрываются основные педагогические условия развития исторического мышления: создание мотивационной среды, разработка системы проблемно-аналитических задач, сочетание работы с источниками с*

игровыми механизмами, организация кооперативного обучения, установление рефлексивной оценки и укрепление методической подготовки преподавателей. Результаты исследования подтверждают точку зрения, что геймификация в истории является не только средством пробуждения интереса, но и системой педагогических условий, способствующих комплексному развитию познавательных, операциональных, коммуникативных и оценочных компонентов исторического мышления.

Ключевые слова: *историческое мышление, геймификация, педагогические условия, анализ источников, историческая точка зрения, рефлексия, мотивация, дидактическая модель.*

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR DEVELOPING HISTORICAL THINKING BASED ON GAMIFICATION

Abstract. *This article analyzes the pedagogical conditions for developing historical thinking in teaching history based on the gamification approach. Historical thinking, as one of the central outcomes of modern history education, is interpreted in relation to the student's ability to determine historical significance, analyze sources, understand continuity and change, explain cause and effect, take into account the historical perspective, and evaluate the moral dimensions of historical interpretations. Gamification is described as a didactic mechanism that enhances motivation, participation, and reflection in the educational process by applying game design elements to a non-game context. The article reveals the main pedagogical conditions for the development of historical thinking: creating a motivational environment, developing a system of problem-analytical tasks, combining work with sources with game mechanisms, organizing cooperative learning, establishing reflexive assessment, and strengthening the methodological training of professors and teachers. The research results justify the view that gamification in history is not only a means of arousing interest, but also a system of pedagogical conditions that serve the complex development of cognitive, operational, communicative, and evaluative components of historical thinking.*

Keywords: *historical thinking, gamification, pedagogical conditions, source analysis, historical point of view, reflection, motivation, didactic model.*

KIRISH

Tarix fanini o‘qitish amaliyotida asosiy e’tibor uzoq vaqt davomida faktlar, sanalar va voqealarni eslab qolishga qaratildi. Bunday yondashuv ma’lum darajada axborot bazasini shakllantirgan bo‘lsa-da, u tarixiy tafakkurni to‘liq rivojlantirishga yetarli emas. Zamonaviy tarix didaktikasi tarixni o‘rganishning maqsadini tayyor bilimlarni reproduksiya qilishda emas, balki o‘tmishni dalillar, manbalar va turli talqinlar asosida anglashga o‘rgatishda ko‘radi. Samuel Wineburg tarixiy fikrlashni “tabiiy” emas, balki

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

o‘qitish orqali shakllanadigan intellektual faoliyat sifatida izohlaydi; shu bois tarixiy tafakkur o‘z-o‘zidan emas, maqsadli tashkil etilgan ta’limiy sharoitlarda rivojlanadi. Peter Seixas va Tom Morton esa tarixiy tafakkurni tarixiy ahamiyat, dalil, davomiylik va o‘zgarish, sabab va oqibat, tarixiy nuqtayi nazar hamda axloqiy o‘lcham kabi o‘zaro bog‘liq tushunchalar tizimi orqali sharhlaydi. Bu qarashlar tarix darsining mazmuni va metodikasini tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi.

Tarixiy tafakkurni shakllantirish uchun talaba tarixiy matnni shunchaki o‘qib chiqmasligi, balki uni tahlil qilishi, muallif pozitsiyasini aniqlashi, manbaning yaratilish sharoitini hisobga olishi, turli dalillarni qiyoslashi va o‘z xulosasini asoslab bera olishi kerak. Stanford History Education Group ishlab chiqqan yondashuvda bunday ko‘nikmalar “sourcing”, “contextualization”, “corroboration” va “close reading” kabi amaliy strategiyalar bilan ifodalanadi. Demak, tarixiy tafakkur bilish, tahlil, talqin va baholashning bir butun tizimidir. Bu tizimni shakllantirish uchun dars jarayonida talabaning faol ishtiroki, tanqidiy savol berishi, tarixiy vaziyatni modellashtirishi va turli nuqtayi nazarlar o‘rtasida ishlashi uchun qulay pedagogik maydon zarur.

Ana shu nuqtada geymifikatsiya tarix fanini o‘qitish metodikasida alohida ahamiyat kasb etadi. Deterding va hammualliflar geymifikatsiyani o‘yin dizayni elementlarini noo‘yin kontekstlariga tatbiq etish deb ta’riflaydi. Kapp esa uni mazmunli o‘quv tajribalarini yaratishga xizmat qiluvchi metodik vosita sifatida ko‘radi. So‘nggi tizimli sharhlar ta’limda geymifikatsiya ko‘pincha ball, badge, leaderboard, darajalar, tezkor fikr-mulohaza va challenge kabi elementlar orqali motivatsiya va ishtirokni kuchaytirishini ko‘rsatadi. Biroq tarix ta’limida geymifikatsiyaning haqiqiy samarasi tashqi rag‘batlarda emas, balki tarixiy tafakkurga olib boruvchi pedagogik shartlar bilan birikkanida namoyon bo‘ladi.

Shu sababli mazkur maqolaning maqsadi geymifikatsiya asosida tarixiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik shartlarini ilmiy jihatdan asoslash, ularning mazmunini

ochib berish va tarix fanini o‘qitish amaliyotida qo‘llash yo‘nalishlarini ko‘rsatishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA NAZARIY-METODOLOGIK ASOS

Tarixiy tafakkur muammosi jahon tarix didaktikasida mustaqil tadqiqot obyekti sifatida shakllangan. Samuel Wineburg tarixiy bilishni kundalik fikrlashdan farqlaydi va tarixiy matnni anglashda manbani, kontekstni hamda dalillar o‘rtasidagi munosabatni hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi. Seixas va Morton esa tarixiy tafakkur tushunchasini amaliy o‘qitish uchun operatsion modelga aylantirib, tarixiy ahamiyatni belgilash, birlamchi manba dalillaridan foydalanish, davomiylik va o‘zgarishni ko‘rish, sabab va oqibatni tahlil qilish, tarixiy nuqtayi nazarni tushunish hamda etik o‘lchamni hisobga olishni asosiy tayanchlar sifatida taklif qiladi. Bu yondashuvlar tarix fanini faqat “nima bo‘lgan?” savoli asosida emas, balki “nega bo‘lgan?”, “qanday bilamiz?”, “kimning nuqtayi nazari ifodalangan?” va “bu voqea qanday talqin qilinadi?” kabi savollar asosida o‘qitishni taqozo etadi.

Geymifikatsiya bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda ham muhim nazariy yondashuvlar shakllangan. Deterding va hammualliflar uni o‘yin va ta’limni to‘liq aynanlashtirish emas, balki noo‘yin jarayonlariga o‘yin dizaynining ayrim elementlarini kiritish deb belgilaydi. Kappning ta’kidlashicha, samarali geymifikatsiya faqat mukofot va reytingdan iborat bo‘lmasligi, balki maqsad, qiyinchilik, progress, tezkor feedback va meaningful challenge bilan boyitilgan o‘quv tajribasini ta’minlashi kerak. Yirik sharhlar va tizimli ko‘rib chiqishlar esa ta’limdagi geymifikatsiya ko‘pincha motivatsiya, ishtirok va ayrim hollarda natijadorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatishini, lekin bu ta’sir uning qanday dizaynlashganiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shunday ekan, tarix ta’limi uchun masala “geymifikatsiyadan foydalanish yoki foydalanmaslik”da emas, balki “uni qaysi pedagogik shartlar asosida tashkil etish”da namoyon bo‘ladi.

Mazkur maqolada tarixiy tafakkur va geymifikatsiya kesishgan nuqta sifatida pedagogik shartlar tushunchasi markazga qo‘yiladi. Pedagogik shartlar deganda ta’lim

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

maqsadini samarali amalga oshirishga xizmat qiladigan tashkiliy, mazmuniy, metodik va kommunikativ omillar majmui tushuniladi. Tarix fanida bunday shartlar tarixiy mazmunni soddalashtirmasligi, aksincha uni tahliliy ishlashga undashi bilan qimmatli hisoblanadi. Demak, geymifikatsiya tarixiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qilishi uchun u tarixiy mazmunning intellektual tabiatiga moslashtirilgan bo'lishi zarur.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Birinchi pedagogik shart — motivatsion va ma'noli ta'limiy muhitni yaratish. Tarix fanida talabaning ichki qiziqishi shakllanmas ekan, tarixiy tafakkur yuzaki faoliyat darajasida qoladi. Geymifikatsiya shu yerda motivatsion vosita sifatida ishlaydi, biroq uning asosiy vazifasi tashqi rag'bat berish emas, balki darsning maqsadini talaba uchun anglanadigan va shaxsiy ahamiyatga ega jarayonga aylantirishdir. Masalan, tarixiy missiya, muammoli ssenariy, bosqichma-bosqich yutuq yoki jamoaviy challenge talabaning diqqatini faqat natijaga emas, jarayonning o'ziga ham qaratadi. Kappning yondashuvida meaningful learning experience aynan shu jihat bilan izohlanadi. Tarixiy mavzu missiya ko'rinishida berilganda talaba faktni eslab qolish uchun emas, muammoni hal qilish uchun o'rganadi. Bu esa tarixiy tafakkurning motivatsion asosini mustahkamlaydi.

Ikkinchi pedagogik shart — muammoli-tahliliy topshiriqlar tizimini ishlab chiqish. Agar geymifikatsiya faqat viktorina yoki tezkor savol-javob darajasida qolsa, u tarixiy tafakkurga emas, qisqa muddatli eslab qolishga xizmat qiladi. Tarixiy tafakkurni rivojlantirish uchun topshiriqlar tarixiy sabab va oqibatni aniqlash, turli davrlar o'rtasidagi davomiylik va o'zgarishni ko'rish, voqealarning tarixiy ahamiyatini baholash, muqobil talqinlarni qiyoslash kabi amallarni talab qilishi kerak. Seixas modelidagi asosiy tarixiy fikrlash tushunchalari aynan shunday didaktik operatsiyalarga tayanadi. Shuning uchun geymifikatsiya asosidagi topshiriqlar "eng ko'p ball yig'ish"ga emas, "eng asosli tarixiy xulosa chiqarish"ga yo'naltirilishi lozim.

Uchinchi pedagogik shart — birlamchi va ikkilamchi manbalar bilan ishlashni o‘yin mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirish. Tarixiy tafakkur manbasiz shakllanmaydi. Stanford tarixiy o‘qish yondashuvi talabaning muallif, vaqt, joy, maqsad va ishonchlilik kabi omillarni e’tiborga olishini talab qiladi. Shu sababli geymifikatsiya asosidagi tarix darslarida manbaviy tahlil markaziy o‘rin tutishi kerak. Masalan, “dalil izlash”, “manba detektivi”, “tarixiy tergov”, “kimning talqini asosli?” kabi formatlar talabaning manbani tekshirish, qiyoslash va dalilga asoslangan xulosa chiqarish ko‘nikmalarini kuchaytiradi. Bunday yondashuvda o‘yin elementi mazmunni bezamaydi, balki tarixiy manbani faol o‘rganish usuliga aylanadi.

To‘rtinchi pedagogik shart — hamkorlikka asoslangan kommunikativ ta’limni tashkil etish. Tarixiy tafakkur individual fikrlash bilan birga tarixiy dalillarni muhokama qilish, qarama-qarshi pozitsiyalarni eshitish va o‘z qarashini qayta ko‘rib chiqishni ham talab qiladi. Geymifikatsiyada jamoaviy topshiriqlar, rolli ssenariylar, debatlar, tarixiy sud, muzokara yoki “qaror qabul qilish” o‘yinlari shu maqsadga xizmat qiladi. Talaba biror tarixiy vaziyatda ma’lum subyekt rolini olganda, u o‘sha davrning siyosiy, ijtimoiy yoki madaniy sharoitlarini ichki nuqtayi nazardan tushunishga yaqinlashadi. Bu esa tarixiy perspektivani shakllantirishda muhimdir. Seixasning tarixiy nuqtayi nazar tushunchasi va tarixiy o‘qish amaliyotlari bunday ko‘nikmalar dialogik muhitda samaraliroq rivojlanishini ko‘rsatadi.

Beshinchi pedagogik shart — tezkor feedback va refleksiv baholash tizimini yo‘lga qo‘yish. Geymifikatsiyaning kuchli tomonlaridan biri shundaki, u faoliyatning natijasi to‘g‘risida darhol signal bera oladi. Ammo tarix fanida feedback faqat “to‘g‘ri-noto‘g‘ri” ko‘rinishida bo‘lsa, bu yetarli emas. Tarixiy tafakkur uchun feedback dalilning sifati, xulosaning asoslanganligi, manbaga tayanish darajasi, tarixiy kontekstni hisobga olish kabi mezonlar asosida berilishi kerak. Bundan tashqari, har bir o‘yinli faoliyat refleksiya bilan yakunlanishi zarur: talaba nima uchun aynan shunday qaror qabul qilganini, qaysi dalillarga tayanganini, qaysi nuqtada xato qilganini va boshqa talqinlar qanday asosga

ega ekanini tahlil qilishi lozim. Bu jarayon refleksiv-baholovchi komponentni kuchaytiradi. Geymifikatsiya bo'yicha tadqiqotlar ham feedback va progress monitoring samarali dizayn elementlari qatoriga kirishini ko'rsatadi.

Oltinchi pedagogik shart — o'quv mazmunining tarixiy murakkabligini saqlab qolish. Tarix fanida geymifikatsiya qo'llanayotganda eng katta xavf tarixiy voqelikni haddan tashqari soddalashtirib yuborishdir. Tarixiy tafakkur esa murakkablikni, ko'p omillilikni va talqinlar xilma-xilligini anglashni talab qiladi. Shuning uchun topshiriqlar faqat bir javobli test ko'rinishida emas, ochiq va tahliliy shakllarda ham berilishi kerak. Masalan, "eng asosli dalillarni tanlang", "ikki manbaning qaysi jihati mos kelmaydi?", "qaysi qaror tarixiy sharoitda mantiqiyroq bo'lgan?" kabi savollar tarixiy noaniqlikni saqlagan holda fikrlashni chuqurlashtiradi. Wineburgning tarixiy fikrlashni "odatiy tafakkurga zid" intellektual amaliyot deb baholashi ham aynan shu nuqtani anglatadi.

Yettinchi pedagogik shart — professor-o'qituvchining metodik tayyorgarligi va dizaynerlik roli. Geymifikatsiya samarasi ko'p jihatdan professor-o'qituvchining tarixiy mazmunni o'yin mexanizmlari bilan qanday bog'lay olishiga bog'liq. Agar professor-o'qituvchi faqat ball, badge yoki leaderboard joriy qilsa, dars tashqi jihatdan faol ko'ringan bo'lsa ham, unda tarixiy tafakkur chuqurlashmasligi mumkin. Samarali yondashuv professor-o'qituvchidan tarixiy tafakkur indikatorlarini bilishni, topshiriqlarni ularga muvofiq loyihalashni, muhokamani boshqarishni va refleksiyani tashkil etishni talab qiladi. Kapp ham gamifikatsiyani mazmunli dizayn va o'quv maqsadlari bilan uyg'unlashtirish zarurligini alohida qayd etadi. Shuning uchun professor-o'qituvchi bu yerda axborot beruvchi emas, balki o'quv tajribasini loyihalovchi va tarixiy fikrlashni boshqaruvchi metodik subyekt sifatida maydonga chiqadi.

Sakkizinchi pedagogik shart — baholash mezonlarining tarixiy tafakkur indikatorlariga mosligi. Agar dars davomida manba tahlili, dalillash, tarixiy nuqtayi nazar va sabab-oqibat bog'liqligi ustida ishlanib, yakunda faqat reproduktiv test bilan baholansa, metodik uyg'unlik buziladi. Shu bois baholash tarixiy tafakkurning real

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ko‘rsatkichlariga tayangan bo‘lishi kerak. Masalan, tarixiy ahamiyatni belgilash, birlamchi manbadan foydalanish, turli talqinlarni qiyoslash, mantiqiy xulosa chiqarish va dalil keltirish alohida indikatorlar sifatida olinishi mumkin. Bunday yondashuv tarixiy tafakkurni rivojlantirishni aniq va kuzatiladigan pedagogik natijaga aylantiradi.

Amaliy jihatdan yuqoridagi pedagogik shartlar tarix fanining turli mavzularida turlicha ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Qadimgi va o‘rta asrlar tarixida xronologik missiyalar, xarita asosidagi qidiruv topshiriqlari, sivilizatsiyalarni qiyosiy tahlil qiluvchi jamoaviy questlar samarali bo‘lishi mumkin. Yangi va eng yangi tarix mavzularida esa manbalarni qiyoslash, tarixiy qarorlarni baholash, siyosiy aktorlar pozitsiyasini modellashtirish, tarixiy sud va debatlar ko‘proq natija beradi. Har bir holatda asosiy mezon bitta: o‘yin elementi tarixiy tafakkur operatsiyasini faollashtirishi kerak.

Masalan, “Tarixiy tergov” modeli asosida dars tashkil etilganda talabalarga bir voqea bo‘yicha bir nechta birlamchi va ikkilamchi manbalar beriladi. Guruhlar muallif pozitsiyasi, yaratilgan vaqt, maqsad va ishonchlilikni tahlil qiladi, so‘ng o‘z xulosasini himoya qiladi. Bu yerda sourcing, corroboration va contextualization bir vaqtning o‘zida ishlaydi. Yoki “Tarixiy muzokara” ssenariysida talabalarga turli tarixiy kuchlar roli berilib, ular o‘z qarorlarini davr sharoiti va manfaatlaridan kelib chiqib asoslaydi. Bu usul tarixiy perspektiva va sabab-oqibatni anglashni chuqurlashtiradi.

Shuningdek, raqamli vositalardan foydalanilganda ham tarixiy tafakkur mazmuni yetakchi bo‘lishi kerak. Ball, progress bar yoki badge’lar yordamchi motivator bo‘lishi mumkin, lekin ularning o‘zi tarixiy fikrlashni yaratmaydi. Tizimli sharhlar ham ta’limdagi geymifikatsiya natijasi ko‘proq dizayn sifati, maqsad bilan uyg‘unlik va feedback tizimiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu sababli tarix fanida raqamli platformadan foydalanish pedagogik maqsadni almashtirmasligi, aksincha uni aniqroq va boshqariladigan shaklga keltirishi kerak.

XULOSA

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Geymifikatsiya asosida tarixiy tafakkurni rivojlantirish tarix ta'limi metodikasining zamonaviy va istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuvning samaradorligi o'yin elementlarining shunchaki joriy etilishida emas, balki ularning tarix ta'limining maqsadi, mazmuni va natijalari bilan metodik jihatdan uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilishida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda geymifikatsiya tarix fanida tashqi faollikni yuzaga keltiruvchi vosita emas, balki tarixiy tafakkurning kognitiv, tahliliy, kommunikativ va refleksiv komponentlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy-pedagogik mexanizm sifatida baholanishi lozim.

Tadqiqot tahlillari shuni ko'rsatadiki, tarixiy tafakkurni rivojlantirish jarayoni ma'noli motivatsion muhit yaratish, muammoli-tahliliy topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, tarixiy manbalar bilan faol ishlashni tashkil etish, jamoaviy hamkorlik va muloqotga asoslangan darslarni yo'lga qo'yish, refleksiv baholash mexanizmlarini tatbiq etish hamda professor-o'qituvchining metodik tayyorgarligini kuchaytirish bilan uzviy bog'liqdir. Aynan shu pedagogik shartlar ta'minlangandagina geymifikatsiya tarix darslarida mazmuniy chuqurlik kasb etadi va talabaning oddiy eslab qolish faoliyatidan tarixiy voqelikni anglash, qiyoslash, dalillash va mustaqil xulosa chiqarish bosqichiga o'tishini ta'minlaydi.

Tarix fanini o'qitishda geymifikatsiyadan foydalanish talabalarning tarixiy voqea va hodisalarga nisbatan faol munosabatini shakllantiradi, ularning tarixiy manbalarni tahlil qilish, sabab va oqibat bog'liqliklarini ochib berish, turli tarixiy nuqtayi nazarlarni qiyoslash hamda muayyan tarixiy vaziyatga nisbatan asosli baho bera olish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bunday natija, ayniqsa, tarixiy tafakkurning nazariy emas, amaliy-intellektual faoliyat sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Chunki tarixiy tafakkur tayyor bilimlarni takrorlash bilan emas, balki tarixiy dalillar asosida fikrlash, tahlil qilish va pozitsiya bildirish orqali rivojlanadi.

Shuningdek, geymifikatsiya tarix ta'limi jarayonida talabalar faolligini oshirish, darsda ishtirokni kuchaytirish, ichki motivatsiyani rag'batlantirish va professor-o'qituvchi

hamda talaba o'rtasidagi pedagogik hamkorlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Bu esa tarix darslarini biryoqlama axborot uzatish shaklidan chiqarib, muammoli, izlanishga undovchi va natijaga yo'naltirilgan ta'lim muhitiga aylantiradi. Natijada tarix fanining tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va metodologik salohiyati yanada to'liqroq namoyon bo'ladi.

Demak, geymifikatsiya asosida tarixiy tafakkurni rivojlantirishning muvaffaqiyati, avvalo, mazkur jarayonning pedagogik shartlarini to'g'ri belgilash va ularni amaliyotga izchil tatbiq etishga bog'liq. Tarix ta'limida bu yondashuvni joriy etish dars mazmunini soddalashtirish emas, aksincha, uni chuqurroq anglash, tarixiy mushohada yuritish va mustaqil fikrlashni shakllantirishga xizmat qilishi bilan qimmatlidir. Shu bois geymifikatsiya tarix fanini o'qitishda yordamchi usul sifatida emas, balki tarixiy tafakkurni shakllantirishga yo'naltirilgan maqsadli metodik tizim sifatida qaralishi zarur.

Takliflar

1. Tarix fanini o'qitishda geymifikatsiya asosida tarixiy tafakkurni rivojlantirishga doir alohida metodik model ishlab chiqish lozim.
2. Tarixiy tafakkurning asosiy komponentlari bo'yicha mos topshiriqlar bankini yaratish maqsadga muvofiq. Unda manbaviy tahlil, tarixiy qiyoslash, sabab-oqibatni aniqlash, tarixiy nuqtayi nazarni baholash va mustaqil xulosa chiqarishga qaratilgan vazifalar jamlanishi kerak.
3. Professor-o'qituvchilar uchun geymifikatsiya asosida tarix darslarini loyihalash bo'yicha amaliy qo'llanma va metodik tavsiyalar tayyorlash zarur.
4. Tarix fanidan dars ishlanmalariga geymifikatsiya elementlarini tartibsiz emas, balki mavzu mazmuni va kutilayotgan ta'limiy natijaga mos ravishda integratsiya qilish tavsiya etiladi.

5. Talabalarning tarixiy tafakkur darajasini baholash mezonlari takomillashtirilib, unda faqat bilim hajmi emas, balki tahlil, dalillash, qiyoslash va refleksiya ko'nikmalari ham inobatga olinishi lozim.

6. Tarix fanini o'qitishda qo'llaniladigan raqamli platformalar va interfaol vositalar tarixiy mazmunning chuqurligini saqlagan holda tanlanishi kerak.

7. Oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim tizimida geymifikatsiya asosida tarixiy tafakkurni rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini kengaytirish hamda ularning natijalarini qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiq.

8. Mazkur yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda tarixiy tafakkurning shakllanish darajalarini aniqlovchi diagnostik vositalar va monitoring mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta'lim to'g'risida. O'RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida. PF-158-son, 2023-yil 11-sentabr.
3. Deterding S., Dixon D., Khaled R., Nacke L. E. From Game Design Elements to Gamefulness: Defining Gamification // Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference. 2011. P. 9–15.
4. Kapp K. M. The Gamification of Learning and Instruction: Game-Based Methods and Strategies for Training and Education. Hoboken, NJ: Wiley, 2012.
5. Hamari J., Koivisto J., Sarsa H. Does Gamification Work? A Literature Review of Empirical Studies on Gamification // Proceedings of the 47th Hawaii International Conference on System Sciences. 2014. P. 3025–3034.
6. Wineburg S. S. Historical Thinking and Other Unnatural Acts: Charting the Future of Teaching the Past. Philadelphia: Temple University Press, 2001.
7. Seixas P., Morton T. The Big Six: Historical Thinking Concepts. Toronto: Nelson Education, 2013.
8. Stanford History Education Group. Reading Like a Historian: Historical Reading Skills and Lesson Materials. Stanford University educational resources.
9. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 2004.
10. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Iste'dod, 2008.
11. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent: Sano standart, 2015.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

12. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan, 2005.
13. G'afforov Y.X. Tarix o'qitishda texnologiyalar va loyihalashtirish. Toshkent: Turon-Iqbol, 2022.
14. Aqchayev F.Sh. Tarix fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar. Jizzax, 2014.

GENERATIV SUN'IY INTELLEKT VOSITALARI ASOSIDA ALGORITMIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING DASTURIY VOSITALARI VA PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Shodiyev Azizbek Olim o'g'li
Samarqand viloyati Kattaqo'g'on tumani
54-maktab informatika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada generativ sun'iy intellekt vositalari asosida algoritmik tafakkurni rivojlantirishning zamonaviy dasturiy vositalari hamda ularning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Generativ sun'iy intellekt platformalarining funksional imkoniyatlari qiyosiy baholanib, algoritmik tafakkurning tarkibiy elementlariga ta'siri tizimlashtirilgan. Tadqiqot natijasida ushbu vositalardan oliy ta'lim jarayonida samarali foydalanishga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *generativ sun'iy intellekt, algoritmik tafakkur, ChatGPT, algoritmlashtirish, raqamli ta'lim, dasturiy vositalar, pedagogik imkoniyatlar.*

ПРОГРАММНЫЕ СРЕДСТВА И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ РАЗВИТИЯ АЛГОРИТМИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ ИНСТРУМЕНТОВ ГЕНЕРАТИВНОГО ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Аннотация. *В статье проанализированы программные средства и педагогические возможности развития алгоритмического мышления на основе инструментов генеративного искусственного интеллекта. Проведена сравнительная оценка функциональных возможностей современных платформ генеративного ИИ и систематизировано их влияние на структурные элементы алгоритмического мышления. Разработаны научно-практические рекомендации по эффективному использованию данных технологий в образовательном процессе высшей школы.*

Ключевые слова: *генеративный искусственный интеллект, алгоритмическое мышление, ChatGPT, алгоритмизация, цифровое образование, программные средства, педагогические возможности.*

SOFTWARE TOOLS AND PEDAGOGICAL POSSIBILITIES FOR DEVELOPING ALGORITHMIC THINKING BASED ON GENERATIVE ARTIFICIAL INTELLIGENCE TOOLS

Abstract. *This article analyzes software tools and pedagogical opportunities for developing algorithmic thinking through generative artificial intelligence technologies. The functional capabilities of modern generative AI platforms are comparatively evaluated, and their influence on the structural*

components of algorithmic thinking is systematized. Based on the findings, practical recommendations are proposed for the effective integration of generative AI tools into higher education.

Keywords: *generative artificial intelligence, algorithmic thinking, ChatGPT, algorithmization, digital education, software tools, pedagogical opportunities.*

KIRISH

So'nggi yillarda generativ sun'iy intellekt (Generative Artificial Intelligence – GenAI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimida yangi pedagogik yondashuvlarning shakllanishiga zamin yaratmoqda. ChatGPT, Google Gemini, Microsoft Copilot, Claude, GitHub Copilot, Midjourney va DALL·E kabi zamonaviy generativ sun'iy intellekt vositalari nafaqat axborotni izlash va qayta ishlash, balki dasturlash, algoritmlar yaratish, murakkab masalalarni yechish hamda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda ham samarali qo'llanilmoqda. Natijada algoritmik tafakkurni rivojlantirishning an'anaviy metodlari zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashib, o'qitishning yangi imkoniyatlarini yuzaga keltirmoqda.

Algoritmik tafakkur XXI asrning tayanch kompetensiyalaridan biri sifatida muammolarni mantiqiy tahlil qilish, ularni ketma-ket bosqichlarga ajratish, optimal yechimlarni ishlab chiqish va raqamli vositalar yordamida amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini ifodalaydi. Ayniqsa, muhandislik, axborot texnologiyalari, robototexnika va avtomatlashtirish yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun algoritmik tafakkur kasbiy kompetentlikning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli generativ sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish orqali algoritmik tafakkurni rivojlantirish metodikalarini takomillashtirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb ilmiy muammolaridan biriga aylandi.

Jahon iqtisodiy forumining **The Future of Jobs Report 2025** hisobotiga ko'ra, 2030-yilgacha mehnat bozorida eng talab yuqori bo'lgan kompetensiyalar qatoriga analitik fikrlash, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar bilan ishlash, texnologik savodxonlik, kreativ fikrlash hamda murakkab muammolarni hal qilish ko'nikmalari kiradi [1]. Shuningdek, Stanford University tomonidan e'lon qilingan **AI Index Report 2025**

hisobotida generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim va dasturiy ta'minot ishlab chiqish jarayonlarida qo'llanilishi keskin ortgani, oliy ta'lim muassasalarida AI asosidagi o'quv platformalari va intellektual yordamchilardan foydalanish yildan-yilga kengayib borayotgani qayd etilgan [2].

UNESCO ekspertlari sun'iy intellektni ta'lim tizimiga joriy etishda texnologik imkoniyatlar bilan bir qatorda pedagogik maqsadga muvofiqlik, akademik halollik, tanqidiy fikrlash va raqamli madaniyatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydilar [3]. OECD tahlillarida esa generativ sun'iy intellekt vositalari o'quvchilarning mustaqil o'rganishi, individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirishi hamda murakkab masalalarni algoritmik tahlil qilish kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida baholanadi [4].

Mazkur maqolaning maqsadi generativ sun'iy intellekt vositalari asosida algoritmik tafakkurni rivojlantirishning zamonaviy dasturiy vositalarini tahlil qilish, ularning pedagogik imkoniyatlarini ilmiy asoslash hamda ta'lim jarayonida samarali qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Generativ sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim tizimiga joriy etilishi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar so'nggi ikki-uch yil davomida keskin faollashdi. Ayniqsa, yirik til modellari (Large Language Models – LLM) asosida ishlovchi dasturiy vositalarning paydo bo'lishi algoritmik tafakkur, dasturlash kompetensiyasi, muammoli fikrlash hamda mustaqil o'rganish jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqdi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda generativ sun'iy intellekt nafaqat axborot manbai, balki o'quv faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi intellektual pedagogik vosita sifatida ham baholanmoqda.

Generativ sun'iy intellektning ta'limdagi imkoniyatlarini tadqiq qilgan Wayne Holmes, Maya Bialik va Charles Fadel sun'iy intellektni o'quv jarayoniga integratsiyalash individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish, adaptiv o'qitishni tashkil etish hamda talabalarning tanqidiy va algoritmik fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishini

ta'kidlaydilar [8]. Olimlar AI vositalaridan samarali foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va ta'lim metodikasi bilan uzviy bog'liq ekanligini alohida qayd etadilar.

Rose Luckin, Wayne Holmes, Mark Griffiths va Laurie Forcier sun'iy intellekt vositalarining ta'limdagi rolini tahlil qilib, AI texnologiyalari talabalarga murakkab masalalarni bosqichma-bosqich tahlil qilish, algoritmlar yaratish hamda mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini berishini ilmiy asoslaganlar [9]. Ularning fikricha, generativ sun'iy intellekt o'qituvchini almashtirmaydi, balki ta'lim jarayonini intellektual jihatdan qo'llab-quvvatlovchi vosita vazifasini bajaradi.

Kasneci va hammualliflari ChatGPT texnologiyasining oliy ta'limdagi imkoniyatlarini o'rganib, generativ sun'iy intellekt murakkab nazariy tushunchalarni sodda izohlash, algoritmlar yaratish, dastur kodlarini tahlil qilish hamda o'quvchilarning muammolarni yechish strategiyalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatganlar [10]. Shu bilan birga, ular AI vositalaridan foydalanishda akademik halollik, tanqidiy baholash va axborotning ishonchliligini tekshirish ko'nikmalarini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydilar.

Microsoft Research olimlari tomonidan GitHub Copilot imkoniyatlari yuzasidan o'tkazilgan tadqiqotlarda generativ sun'iy intellekt yordamida dasturlash jarayonida kod yozish tezligi va samaradorligi sezilarli darajada ortishi, dasturchilar esa murakkab algoritmlarni ishlab chiqishda ko'proq tahliliy faoliyatga e'tibor qaratishlari aniqlangan [11]. Ushbu natijalar algoritmik tafakkurni rivojlantirishda AI yordamchilarining didaktik salohiyatini tasdiqlaydi.

OpenAI mutaxassislari GPT texnologiyalarining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilib, generativ sun'iy intellekt matn, dastur kodi, algoritmlar, matematik yechimlar hamda mantiqiy xulosalarni yaratishda multimodal imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatganlar [12]. Mazkur texnologiyalar dasturlashni o'qitish, algoritmik fikrlashni rivojlantirish va individual o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishda keng qo'llanilmoqda.

Jahon iqtisodiy forumining **Future of Jobs Report 2025** hisobotida esa algoritmik fikrlash, sun'iy intellekt bilan ishlash, analitik tafakkur, texnologik savodxonlik hamda murakkab muammolarni hal qilish ko'nikmalari kelgusi yillarda eng muhim kasbiy kompetensiyalar sifatida e'tirof etilgan [1]. Bu esa algoritmik tafakkurni rivojlantirish metodikalarini zamonaviy AI vositalari bilan uyg'unlashtirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Respublikamiz olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli pedagogika, sun'iy intellekt vositalaridan ta'limda foydalanish, dasturlashni o'qitish metodikasi va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Biroq generativ sun'iy intellekt vositalarining algoritmik tafakkurni rivojlantirishdagi dasturiy imkoniyatlarini kompleks tasniflash, ularning pedagogik imkoniyatlarini o'zaro qiyosiy tahlil qilish hamda ta'lim jarayonida qo'llashning metodik asoslarini ishlab chiqishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar hali yetarli darajada shakllanmagan.

Shu nuqtai nazardan mazkur tadqiqotda generativ sun'iy intellekt vositalarining algoritmik tafakkurni rivojlantirishdagi dasturiy imkoniyatlari tizimlashtiriladi, ularning pedagogik funksiyalari tahlil qilinadi hamda o'quv jarayonida samarali foydalanish bo'yicha mualliflik tavsiyalari ishlab chiqiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot generativ sun'iy intellekt vositalari asosida algoritmik tafakkurni rivojlantirishning dasturiy vositalari hamda ularning pedagogik imkoniyatlarini ilmiy asoslashga qaratilgan bo'lib, kompetensiyaviy yondashuv, tizimli yondashuv, konstruktivistik ta'lim nazariyasi, raqamli pedagogika hamda sun'iy intellektga asoslangan ta'lim (AI in Education – AIED) konsepsiyalariga tayanildi. Tadqiqotning metodologik asosini algoritmik tafakkur nazariyasi, computational thinking konsepsiyasi, generativ sun'iy intellekt texnologiyalari va zamonaviy raqamli ta'lim muhitini tashkil etish tamoyillari tashkil etdi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tizimli tahlil qilish;
- kontent tahlili (Content Analysis);
- qiyosiy tahlil (Comparative Analysis);
- analitik-sintetik umumlashtirish;
- induktiv va deduktiv tahlil;
- pedagogik modellashtirish;
- ekspert qarashlarini interpretatsiya qilish;
- generativ sun'iy intellekt vositalarining funksional imkoniyatlarini taqqoslash.

Mazkur metodlarning o'zaro integratsiyalashgan holda qo'llanilishi generativ sun'iy intellekt vositalarining algoritmik tafakkurni rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlarini tizimli ravishda baholash hamda ularning pedagogik tasnifini ishlab chiqish imkonini berdi.

Tadqiqot natijasida generativ sun'iy intellekt vositalarining algoritmik tafakkurni rivojlantirishdagi dasturiy imkoniyatlari pedagogik nuqtai nazardan tizimlashtirildi hamda ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishiga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Mazkur metodologik yondashuv oliy ta'lim muassasalarida algoritmik tafakkurni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING TAHLILI

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida generativ sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mavjud dasturiy platformalar funksional imkoniyatlari, qo'llanilish sohasi hamda pedagogik vazifalariga ko'ra bir-biridan sezilarli darajada farqlanadi. Ayrim vositalar tabiiy tilda muloqot qilish va nazariy tushunchalarni izohlashga ixtisoslashgan bo'lsa, boshqalari dastur kodlarini yaratish, algoritmlarni optimallashtirish yoki ilmiy axborotlarni izlash jarayonlarida yuqori samaradorlikni namoyon etadi. Shu sababli algoritmik tafakkurni rivojlantirish jarayonida barcha generativ sun'iy intellekt vositalaridan bir xil maqsadda foydalanish

metodik jihatdan to'g'ri yondashuv hisoblanmaydi.

Pedagogik nuqtai nazardan har bir generativ sun'iy intellekt vositasining o'ziga xos didaktik vazifasi mavjud. Masalan, ayrim platformalar algoritmlarni bosqichma-bosqich tushuntirish orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirsa, boshqalari dastur kodlarini avtomatik generatsiya qilish, xatolarni aniqlash yoki muqobil yechimlarni taklif etish orqali talabalarning analitik va refleksiv faoliyatini faollashtiradi. Demak, algoritmik tafakkurni rivojlantirish samaradorligi ko'p jihatdan tanlangan sun'iy intellekt vositasining funksional imkoniyatlari hamda uning ta'lim maqsadlariga mosligiga bog'liq.

Mavjud ilmiy manbalar tahlili asosida generativ sun'iy intellekt vositalarining algoritmik tafakkurni rivojlantirishdagi imkoniyatlari tizimlashtirildi hamda ularning pedagogik funksiyalari muallif tomonidan umumlashtirildi. Ushbu tasniflash generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonidagi amaliy imkoniyatlarini aniqlash va ulardan maqsadli foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi (1-jadval).

1-jadval

Generativ sun'iy intellekt vositalarining algoritmik tafakkurni rivojlantirishdagi dasturiy imkoniyatlari

Generativ AI vositasi	**Asosiy funksional imkoniyatlari**	**Algoritmik tafakkurni rivojlantirishdagi o'rni**	**Pedagogik imkoniyatlari**
ChatGPT	Algoritmlar yaratish, kod yozish, kodni izohlash, xatolarni aniqlash	Muammoni tahlil qilish, algoritmlarni bosqichma-bosqich shakllantirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	Individual konsultant, interaktiv o'qituvchi, adaptiv topshiriqlar yaratish

Google Gemini	Matn, kod, rasm va hujjatlar bilan multimodal ishlash	Turli axborot manbalarini integratsiyalash hamda kompleks algoritmlar ishlab chiqish	Integrallashgan loyiha ishlari va fanlararo topshiriqlarni tashkil etish
Claude AI	Murakkab matnlarni tahlil qilish, mantiqiy izohlar berish	Algoritmik qarorlarning izchilligini tahlil qilish va asoslash	Tanqidiy fikrlash hamda refleksiv tahlilni rivojlantirish
GitHub Copilot	Dastur kodlarini avtomatik generatsiya qilish va optimallashtirish	Kod yozish algoritmlarini tezkor ishlab chiqish va takomillashtirish	Dasturlash amaliyotlarini individuallashtirish va loyiha faoliyatini qo'llab-quvvatlash
Microsoft Copilot	Ofis ilovalari va dasturiy muhit bilan integratsiya	Algoritmik yechimlarni hujjatlashtirish va tahlil qilish	O'quv loyihalarini boshqarish va taqdimotlarni tayyorlash
Perplexity AI	Ilmiy axborotlarni qidirish va manbalarni tahlil qilish	Algoritmlar uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni izlash va taqqoslash	Tadqiqotchilik kompetensiyasini va axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish
DALL·E / Midjourney	Vizual kontent yaratish	Algoritmlarni blok-sxema va vizual modellar orqali ifodalash	Vizual fikrlash va loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish

Notebook LM	Hujjatlar asosida tahlil va xulosa chiqarish	Algoritmik yechimlarni manbalar bilan bog'liq holda asoslash	Mustaqil ta'lim va ilmiy-tahliliy faoliyatni qo'llab-quvvatlash

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, generativ sun'iy intellekt vositalarining barchasi yagona maqsadga – algoritmik tafakkurni rivojlantirishga xizmat qilsa-da, ularning funksional imkoniyatlari va pedagogik vazifalari bir-biridan sezilarli darajada farqlanadi.

Biroq algoritmik tafakkurning shakllanishi faqat zamonaviy dasturiy vositalarning mavjudligi bilan belgilanmaydi. Muhimi, ushbu vositalar algoritmik tafakkurning qaysi tarkibiy elementini rivojlantirishga xizmat qilayotganini aniqlashdir. Chunki algoritmik tafakkur muammoni tushunish, uni tahlil qilish, algoritm yaratish, dasturiy yechim ishlab chiqish, natijalarni tekshirish va takomillashtirish kabi o'zaro uzviy bog'liq bosqichlardan iborat murakkab intellektual jarayon hisoblanadi.

Shu asosda algoritmik tafakkurning tarkibiy elementlari hamda generativ sun'iy intellekt vositalarining ularni rivojlantirishdagi pedagogik ta'siri muallif tomonidan tizimlashtirildi (2-jadval).

2-jadval

Algoritmik tafakkurning tarkibiy elementlari va generativ sun'iy intellekt vositalarining ularni rivojlantirishdagi pedagogik ta'siri

Algoritmik tafakkur elementi	**Mazmuni**	**Generativ AI vositalarining pedagogik ta'siri**	**Kutilayotgan natija**
Muammoni tahlil qilish	Muammoning mazmuni va	AI yordamida muammoni bosqichma-bosqich tahlil	Analitik fikrlash rivojlanadi

	shartlarini aniqlash	qilish va asosiy komponentlarga ajratish	
Algoritmlashtirish	Ketma-ket amallar tizimini ishlab chiqish	Algoritmlarning turli variantlarini yaratish va taqqoslash	Mantiqiy va tizimli fikrlash shakllanadi
Dasturiy modellash-tirish	Algoritmni dastur kodiga aylantirish	Kod generatsiyasi, sintaksisni tekshirish va optimallashtirish	Dasturlash kompetensiyasi rivojlanadi
Verifikatsiya va debugging	Xatolarni aniqlash va tuzatish	Kodni tahlil qilish, xatolar sababini izohlash va yechim taklif qilish	Refleksiv va tanqidiy fikrlash kuchayadi
Optimallashtirish	Samarali algoritmlarni tanlash	Muqobil algoritmlarni tavsiya qilish va ularning samaradorligini taqqoslash	Ratsional qaror qabul qilish ko'nikmasi rivojlanadi
Ijodiy algoritmik loyihalash	Yangi algoritmik yechimlar ishlab chiqish	Innovatsion g'oyalarni shakllantirish va loyihalarni takomillashtirish	Kreativ va innovatsion tafakkur rivojlanadi
Refleksiya va baholash	Olingan natijalarni tahlil qilish va takomillashtirish	AI yordamida yechimlarni baholash, xulosalar chiqarish va tavsiyalar olish	Mustaqil ta'lim va o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi shakllanadi

Tadqiqot natijalari generativ sun'iy intellekt vositalarining algoritmik tafakkurni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik va dasturiy resurs sifatida yuqori salohiyatga ega

ekanligini ko'rsatdi. Mavjud ilmiy manbalar hamda xalqaro tajribalar tahlili asosida generativ sun'iy intellekt vositalarining algoritmlarni yaratish, dastur kodlarini ishlab chiqish, muammolarni bosqichma-bosqich tahlil qilish, xatolarni aniqlash va optimallashtirish jarayonlarida talabalarning analitik, mantiqiy va refleksiv fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot davomida generativ sun'iy intellekt vositalarining funksional imkoniyatlari pedagogik nuqtai nazardan tizimlashtirildi hamda ularning algoritmik tafakkurni rivojlantirishdagi o'rni mualliflik yondashuvi asosida tahlil qilindi. Xususan, ChatGPT, Google Gemini, Claude AI, GitHub Copilot, Microsoft Copilot, Perplexity AI, NotebookLM va boshqa zamonaviy platformalarning didaktik imkoniyatlari qiyosiy baholanib, ularning ta'lim jarayonida bajaradigan pedagogik funksiyalari aniqlandi.

Shuningdek, algoritmik tafakkurning asosiy tarkibiy elementlari — muammoni tahlil qilish, algoritmlashtirish, dasturiy modellashtirish, verifikatsiya, optimallashtirish, ijodiy loyihalash hamda refleksiya jarayonlari generativ sun'iy intellekt vositalari bilan o'zaro bog'liqlikda tahlil qilinib, ushbu vositalarning har bir elementni rivojlantirishdagi pedagogik ta'siri tizimlashtirildi. Bu esa algoritmik tafakkurni shakllantirish jarayonini an'anaviy dasturlash metodlari bilan cheklab qolmasdan, sun'iy intellekt asosidagi adaptiv va interaktiv ta'lim texnologiyalari orqali tashkil etish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi.

XULOSA

Olib borilgan tahlillar asosida generativ sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish talabalarning algoritmik fikrlash faolligini oshirish, murakkab muammolarni yechish strategiyalarini shakllantirish, dasturlash kompetensiyasini rivojlantirish hamda mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlashga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Shu bilan birga, ushbu vositalardan foydalanishda o'quv topshiriqlarining metodik jihatdan to'g'ri loyihalanishi, akademik halollik tamoyillariga rioya qilinishi va o'qituvchining pedagogik rahbarligi saqlanib qolishi muhim omil ekanligi asoslandi.

Amaliy nuqtai nazardan oliy ta'lim muassasalarida algoritmik tafakkurni rivojlantirish jarayoniga generativ sun'iy intellekt vositalarini bosqichma-bosqich integratsiyalash, ularni loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, amaliy dasturlash mashg'ulotlari hamda raqamli ta'lim platformalari bilan uyg'unlashtirish tavsiya etiladi. Bu yondashuv bo'lajak mutaxassislarning zamonaviy raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish hamda sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayoniga ilmiy asoslangan holda integratsiyalashuvi algoritmik tafakkurni rivojlantirish metodikasini yangi bosqichga olib chiqadi. Mazkur tadqiqot natijalari oliy ta'lim tizimida algoritmik tafakkurni rivojlantirish bo'yicha metodik ta'minotni takomillashtirish, zamonaviy o'quv resurslarini ishlab chiqish hamda sun'iy intellekt asosidagi innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish uchun ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Economic Forum. *The Future of Jobs Report 2025*. Geneva: WEF, 2025.
2. Stanford University. *AI Index Report 2025*. Stanford Human-Centered Artificial Intelligence (HAI). Stanford, 2025.
3. UNESCO. *Guidance for Generative AI in Education and Research*. Paris: UNESCO, 2023.
4. OECD. *Artificial Intelligence in Education: Opportunities and Challenges*. Paris: OECD Publishing, 2024.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. **PF–5847-son Farmon**. "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". 2019-yil 8-oktabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. **PF–60-son Farmon**. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". 2022-yil 28-yanvar.
7. Holmes W., Bialik M., Fadel C. *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning*. Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.
8. Luckin R., Holmes W., Griffiths M., Forcier L. *Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education*. London: Pearson Education, 2016.
9. Kasneci E., Sessler K., Küchemann S., Bannert M., et al. *ChatGPT for Good? On Opportunities and Challenges of Large Language Models for Education*. Learning and Individual Differences, 2023.
10.OpenAI. *GPT-4 Technical Report*. 2023.
11.Bird C., et al. *Taking Flight with Copilot: Early Insights and Opportunities of AI-Assisted Programming*. Microsoft Research, 2023.

12.European Commission. *DigComp 2.2: The Digital Competence Framework for Citizens*. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2022.

УДК 620:304

МУҲАНДИСЛИК СОҲАСИДА ГЕНДЕР ТЕНГЛИК МУНОСАБАТЛАРИ

Алматаев Тожибой Орзиқулович
Андижон давлат техника тнститути, "Автомобилсозлик ва транспорт" кафедраси профессори, т.ф.н., профессор.

Аннотация. *Ушбу мақолада муҳандислик соҳасида гендер тенглик муносабатлари бўйича олиб борилган тадқиқотлар, ишлаб чиқариш корхоналари мутахассислари, институт профессор-ўқитувчилари ва талабалар орасида ўтказилган ижтимоий сўровнома натижалари тахлил қилинган ҳамда муҳандислик гендер тенглик муносабатларини ошириш бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.*

Таянч сўзлар. *Муҳандислик, гендер тенглик, муносабат, тадқиқот, ишлаб чиқариш, ижтимоий, таклиф.*

ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО В ИНЖЕНЕРИИ

Аннотация. *В данной статье анализируются исследования гендерно-равных отношений в инженерии, результаты социологического опроса, проведенного среди специалистов производственных предприятий, профессоров и преподавателей института, а также студентов, и разрабатываются предложения и рекомендации по улучшению гендерно-равных отношений в инженерии.*

Ключевые слова. *Инженерия, гендерное равенство, отношения, исследования, производство, социальные вопросы, предложения.*

GENDER EQUALITY IN ENGINEERING

Abstract. *This article analyzes research on gender-equal relations in engineering and the results of a sociological survey conducted among manufacturing industry professionals, academic staff, and students; it also develops proposals and recommendations for improving gender-equal relations in the field of engineering.*

Keywords: *Engineering, gender equality, relations, research, manufacturing, social issues, proposals.*

КИРИШ

2030 йилга қадар Ўзбекистон Республикасида гендер тенгликка эришиш стратегиясини тасдиқлаш ҳақидаги Ўзбекистон Республикаси Сенатининг 2021 йил

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

28 май СҚ-297-IV-сон қарорида [1], такидланишича сўнгги тўрт йилда хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятларга эришиш, жамият ва давлат ишларини бошқаришда уларнинг тенг иштирок этишини таъминлаш, хотин-қизларни ижтимоий-ҳуқуқий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш, шунингдек, хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликлардан ҳимоя қилишга қаратилган кенг кўламли ислоҳотлар амалга оширилди.

Гендер тенглик масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарилиб, соҳага оид 25 та қонунчилик ҳужжати қабул қилинди. Хотин-қизларнинг жамиятдаги ролини ошириш, гендер тенглик ва оила масалалари бўйича республика комиссияси, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатида Хотин-қизлар ва гендер тенглик масалалари қўмитаси ташкил этилди.

Хусусан, барқарор ривожланиш соҳасидаги 5-мақсад — Гендер тенгликни таъминлаш ва барча хотин-қизларнинг ҳуқуқ ва имкониятларини кенгайтириш мамлакатимизда хотин-қизлар ва эркакларнинг тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятларини таъминлашга қаратилган ислоҳотлар билан ҳамоҳангдир

Мамлакатимизда сўнгги йилларда ривожланиш босқичида, шу жумладан, муҳандислик соҳасини ривожлантиришда, гендер ва этнопсихологик ҳуқуқий, ижтимоий-иқтисодий асосларининг мустаҳкамлаш борасида бир қатор ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Мазкур жараёнда феноменал ҳодиса сифатида муҳандислик фаолиятининг этнопсихологик хусусиятларини фуқаролик жамияти ва ҳуқуқий-демократик давлатда, ривожланаётган ижтимоий, иқтисодий ҳамда маданий муносабатларда ўз аксини топишини таъминлаш мақсадида хотин-қизларни замонавий касб-ҳунарларни пухта эгаллашлари учун шароит яратиш, уларнинг ишбилармонлик кўникмаларини ривожлантириш, хотин-қизларни мухандислик фаолиятига кенг жалб этиш долзарб вазифа сифатида белгиланган. Бу борада эркаклар ва аёлларнинг тенг ҳуқуқлари ва имкониятлари кафолатлаган ҳамда аёлларни тайзиқ ва зўравонликлардан ҳимоя қилиш

йўналишларида катта имкониятлар яратилган.

Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда инсон ҳуқуқларини таъминлаш борасида салмоқли ютуқларга эришилди. Инсон ҳуқуқларини таъминлаш борасида олиб борилаётган сиёсат, энг аввалло конституциямизнинг 18 ва 46-моддаларида ўз ифодасини топди, барча кодексларда ва қонунларда жинслар тенглигига ва уни таъминлашга алоҳида урғу берилди. Гендер сиёсатининг долзарб масалалари сирасига қуйидагилар киради:

- жамият ҳаёти ва фаолиятининг барча соҳаларида, шу жумладан сиёсат, иқтисодиёт, ҳуқуқ, мафкура ва маданият, таълим ҳамда илм-фан муносабатларида хотин-қизларнинг эркаклар билан тенг иштирок этишларини қўллаб-қувватлаш, қарор қабул қилишда уларнинг етакчилик қилишлари учун тенг имкониятларни яратиш; •сайлов ҳуқуқларини амалга оширишда хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятларни таъминлаш;
- сиёсий партияларнинг сайлов жараёнларига хотин-қизлар ва эркакларни тенг асосда жалб қилиш ва хотин-қизларни тайинланадиган раҳбарлик лавозимларига тавсия қилишга оид фаолиятини рағбатлантириш;
- сиёсий лидер аёлларни тайёрлаш тизимини шакллантириш;
- давлат хизмати соҳасида хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятларни таъминлаш; • давлат органларининг раҳбарлик лавозимларига танловлар асосида тайинлаш механизмларини жорий қилиш орқали хотин-қизларнинг раҳбарлик лавозимларидаги улушини босқичма-босқич ошириб бориш, амалдаги 27% ни 50% гача кўтариш;
- жамият ҳаётидаги ижтимоий-сиёсий масалаларни ҳал қилишда ва долзарб аҳамиятга эга бўлган қарорларни қабул қилиш ҳамда уларни амалга оширишда хотинқизларнинг иштирокини кучайтириш;
- таълим, илм-фан ҳамда соғлиқни сақлаш соҳасида хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятларни таъминлашда узлуксиз таълим

тизимини ривожлантириш, хотин-қизлар ва эркакларни бутун умр давомида ўқишга бўлган имкониятларини рағбатлантириш, ижтимоий ҳимояга муҳтож хотин-қизларни олий таълим билан қамраб олинишини кенгайтириш;

- ижтимоий-иқтисодий соҳаларда хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятларни таъминлаш;
- давлат органлари ва ташкилотларида хотин-қизларнинг иқтисодий ва молиявий имкониятларини кенгайтиришга қаратилган тармоқ гендер стратегиялари ва ҳаракатлар дастурлари ишлаб чиқилишини қўллаб-қувватлаш;

мамлакатда аёллар тадбиркорлигини ривожлантириш, хотин-қизларнинг кредит олишга бўлган имкониятларини кенгайтириш;

- тазйиқ ва зўравонликнинг олдини олишда;
- хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятларни таъминлаш;
- оилавий муносабатлар ҳамда болалар тарбиясида хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятларни таъминлаш;
- оилани мустаҳкамлаш, оилавий муносабатларда барча оила аъзоларининг масъуллигини ошириш, бирор-бир шахснинг оила масалаларига ўзбошимчалик билан аралашишига йўл қўймаслик бўйича амалдаги механизмларни такомиллаштириш;
- эрта никоҳ, яқин қариндошлар ўртасидаги никоҳ, эрта туғруқ, оилавий ажримларнинг юзага келиш сабаблари ҳамда шарт-шароитларини таҳлил қилиш, бу борада илмий, амалий ҳамда фундаментал тадқиқотларни қўллаб-қувватлаш;
- гендер жиҳатларни ҳисобга олган ҳолда режалаштириш ва бюджетлаштириш;
- очиқ ва шаффоф бюджет сиёсатини амалга ошириш орқали хотин-қизлар ва эркаклар ўртасидаги тенгсизликни камайтириш, хотин-қизлар ва

эркакларга манзилли давлат хизматлари кўрсатиш, уларнинг сифати ва самарадорлигини ошириш;

- хотин-қизлар ва эркакларга мўлжалланган ресурслар ҳамда хизматларни тақсимлаш бўйича олдиндан аниқланган мақсадларга кўра давлат маблағларидан самаралироқ фойдаланишни рағбатлантириш.

МАҚСАД ВА ВАЗИФАЛАР

Гендер тенгликни таъминлаш масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарилиб, парламент юқори палатасида Хотин-қизлар ва гендер тенглик масалалари қўмитаси, Хотин-қизларнинг жамиятдаги ролини ошириш, гендер тенглик ва оила масалалари бўйича республика комиссияси, Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятларни таъминлаш масалалари бўйича маслаҳат-кенгашлари, Республика хотин-қизлар жамоатчилик кенгаши ташкил этилди.

Гендер стратегиясининг асосий мақсади — ирқи, миллати, тили, дини, ижтимоий келиб чиқиши, эътиқоди, шахсий ва ижтимоий мавқеидан қатъий назар хотин-қизлар ва эркакларнинг ҳақиқий тенглигини таъминлашдан иборат.

Гендер стратегиясининг асосий вазифалари қуйидагилар ҳисобланади:

хотин-қизларнинг ер ва мулкка нисбатан эгалик қилиш имкониятларини кенгайтириш;

жамият ҳаёти ва фаолиятининг барча соҳаларида, шу жумладан сиёсат, иқтисодиёт, ҳуқуқ, маданият, таълим, илм-фан ҳамда спорт муносабатларида хотин-қизларнинг эркаклар билан тенг иштирок этишларини қўллаб-қувватлаш, қарор қабул қилишда уларнинг етакчилик қилишлари учун тенг имкониятларни яратиш;

хотин-қизларнинг сиёсий фаоллигини ошириш, уларнинг жамиятдаги ўрни билан боғлиқ салбий қарашларни ўзгартириш;

аҳоли бандлиги соҳасида хотин-қизлар ва эркаклар учун кафолатланган тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятларни, шунингдек, муносиб иш ўринларини яратиш, аёллар

тадбиркорлигини ривожлантириш, хотин-қизларнинг тижорат банкларидан кредит олишга бўлган имкониятларини кенгайтириш;

хотин-қизлар ва эркакларни бутун умри давомида ўқишга бўлган имкониятларини рағбатлантириш, уларнинг оилани режалаштириш борасидаги тиббий маданиятини ошириш ва репродуктив саломатлигини мустаҳкамлаш, улар ўртасида соғлом турмуш тарзини юксалтириш;

одам савдоси ва мажбурий меҳнатга қарши курашиш, тазйиқ ва зўравонликни олдини олиш, уларни аниқлаш ва барҳам бериш бўйича самарали ташкилий-ҳуқуқий механизмларни яратиш;

оилани мустаҳкамлаш, оилавий муносабатларда барча оила аъзоларининг масъуллигини ошириш, эрта никоҳ, яқин қариндошлар ўртасидаги никоҳ, эрта туғруқ ҳамда оилавий ажралишларнинг олдини олиш;

гендер тенглик тамойилларини илгари суришда, хотин-қизлар ва эркакларнинг ҳуқуқ ҳамда имкониятларини тенг амалга оширишда бюджетни режалаштириш, гендер масалаларини бюджет жараёнларига интеграциялаш, гендер статистикаси юритилишини такомиллаштириш;

гендер тенглик, аёллар тадбиркорлиги, хотин-қизлар ва эркакларга нисбатан тазйиқ ва зўравонлик ҳолатларини баҳоловчи халқаро рейтинг ва индексларда Ўзбекистоннинг ўрнини яхшилаш бўйича комплекс чора-тадбирларни амалга ошириш;

Ўзбекистонда гендер муносабатларини ўрганишнинг назарий-фалсафий асослари

Инсоният тарихини гендер муносабатлари, яъни эркаклар ва аёллар ўртасидаги муносабатлар тарихи тарзида ҳам таҳлил қилиш мумкин. Генде муносабатларини ўрганишда хотин-қизларнинг эрки ва эрксизлиги, моддий ва маънавий аҳволи доимо жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий, маданий, сиёсий ҳолати билан боғлиқлигига эътибор бериш зарур. Бутун башарият тарихий

тараққиёти давомида эркак ва аёл ўртасидаги муносабат маълум бир давр муҳитидан келиб чиқиб турли кўринишда шаклланган. Эркак ва аёл ўртасидаги муносабат жараёнини таҳлил қилишнинг назарий-фалсафий асослари сифатида қуйидагиларни ҳисобга олиш муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади [4]:

1. Эркак ва аёл ўртасидаги муносабат масаласи кишилик жамияти, ижтимоий муносабатлар, миллатлар ва давлатлар, маданият ва цивилизация билан чамбарчас боғлиқ;

2. Эркак ва аёл ўртасидаги муносабат масаласини таҳлил этганда, оила, урф-одат, маданият, дин - аёлларнинг бир қатор фаолиятларини, хусусан, меҳнат қилиши, таълим олиши, жамиятни бошқаришда, сиёсий жараёнларда қатнашишни бирмунча чеклаб келинганлигини унутмаслик зарур;

3. Турли минтақаларда эркак ва аёл ўртасидаги муносабатнинг турли туман бўлиши, аёл ҳуқуқлари ва имкониятларининг ҳам турли тараққиёт босқичларида турлича бўлишига олиб келди. Аёл ҳуқуқлари инсон ҳуқуқлари сифатида тан олиниб, халқаро ҳамжамият томонидан алоҳида эътибор талаб қилувчи соҳа даражасига етгунга қадар кўп асрлар давомида курашиб келинди;

4. Эркак ва аёлнинг тенг ҳуқуқлилиги масаласи бугунги кунда инсоният муаммоси даражасига кўтарилди. Эндиликда халқаро майдонда аёлларга нисбатан муносабат маданиятини шакллантирмасдан туриб, инсон ҳуқуқлари тенглигига эришиб бўлмайди.

Юқоридагиларни ҳисобга олган ҳолда, Марказий Осиё, хусусан, Ўзбекистонда гендер муносабатлари эволюцияси шартли равишда қуйидаги даврларга бўлишимиз мумкин:

1. Ўрта Осиёнинг қадимий маданиятида аёлларнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётда тутган ўрни (исломгача бўлган даврда);

2. XX асрнинг биринчи чорагигача мусулмон маданиятида аёл ва эркак муносабати;

3. Шўролар ҳукмронлиги даврида инқилобий чоралар билан аёлнинг тенг ҳуқуқлилигини таъминлашга ҳаракат;

4. Мустақиллик даврида гендер маданияти шаклланишининг ўзига хос хусусиятлари.

Гендер тенглик ва уни таъминлаш масалалари.

Ҳаёт шиддат билан ўзгараётган даврда жамият ҳам тараққий этар экан, инсонлар ҳам замон билан ҳамнафас бўлишга ҳаракат қилишади. Эндиликда аёллар фақат уй ишлари, бола тарбияси билан шуғулланиши керак, " ё оила, ё иш", – деган тушунчалар гендер тенглигини таъминлашга тўсқинлик қилади. Барчангизга маълумки, "Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида" Қонун 32 моддадан иборат бўлиб, 29-моддасида "Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида"ги Қонун ҳужжатларини бузганликда айбдор шахслар белгиланган тартибда жавобгар бўлиши ҳамда 30-моддада Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ва бошқа манфаатдор ташкилотлар ушбу Қонуннинг ижросини, ижрочиларга етказилишини ҳамда моҳияти ва аҳамияти аҳоли ўртасида тушунтирилишини таъминлаши қайд этилган[5].

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев аёллар учун жуда кўп имконият ва имтиёзлар яратмоқда, жумладан 2019 йил 3 июлдагаи "Хотин-қизларнинг меҳнат ҳуқуқлари кафолатларини янада кучайтириш ва тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-4235-сон қарори[6].

Дунёда аёллар улуши энг юқори бўлган давлат Арманистон эсан. Бу ерда аҳоли орасида аёллар улуши 55% юқори. Украинада аёллар аҳолининг 54,08 %ини ташкил қилади ва Беларуса - 53,96 фоизини ташкил қилади.

Россияда аёллар улуши 53,56% ни ташкил қилади, Латвия ва Литвад (мос равишда 53,62% ва 53,03%. Ўзбекистонда эса аёллар улуши эркаклардан кам бўлиб 49,7%ни ташкил қилади. (январь 2024)

Дунё бўйича аёллар сони энг кам бўлган давлатлар эса Форс кўрфазида жойлашган. Қатарда аҳоли орасида аёллар улуши атиги 27,49%, БААда 30,65% ва Баҳрайнда 38,04% ни ташкил қилади. Фақат Гренада ва Панамада аёллар ва эркаклар сони тенг экан. Ўртача ҳисобда аёллар дунё аҳолисининг 49,7 фоизини ташкил қилади.

Дунё бўйича аёллар сони энг кам бўлган давлатлар эса Форс кўрфазида жойлашган. Қатарда аҳоли орасида аёллар улуши атиги 27,49%, БААда 30,65% ва Баҳрайнда 38,04% ни ташкил қилади. Фақат Гренада ва Панамада аёллар ва эркаклар сони тенг экан. Ўртача ҳисобда аёллар дунё аҳолисининг 49,7 фоизини ташкил қиладию

Жаҳон банки статистик маълумотларига кўра, дунёнинг 121 мамлакатида аёллар сони эркакларга нисбатан кўп экан. Аёллар улуши энг кўп давлатлар - собиқ СССР ҳудудида, эркаклар сони кўп давлатлар эса - Форс кўрфазида жойлашган экан, РИА Новости Жаҳон банкининг очиқ статистик маълумотларини ўрганиб чиқди.

Дунёда аёллар улуши энг юқори бўлган давлат Арманистон эсан. Бу ерда аҳоли орасида аёллар улуши 55% юқори. Украинада аёллар аҳолининг 54,08 %ини ташкил қилади ва Беларуса - 53,96 фоизини ташкил қилади.

Россияда аёллар улуши 53,56% ни ташкил қилади, Латвия ва Литвад (мос равишда 53,62% ва 53,03%. Ўзбекистонда эса аёллар улуши эркаклардан кам бўлиб 49,7%ни ташкил қилади. (январь 2024)

Миллий статистика қўмитаси маълумотларига кўра, 2025 йилнинг 1 июль ҳолатига Ўзбекистонда доимий аҳоли сони қарийб 37 859 698 кишини ташкил этган. Бу кўрсаткич, 2024 йилнинг мос даврига нисбатан 2 фоизга ошган. Шундан:

- Аёллар сони – 18,8 млн киши
- Эркаклар сони – 19,1 млн киши
- Шаҳар жойларда – 19,3 млн киши
- Қишлоқ жойларда – 18,6 млн киши.

1 январь ҳолатига кўра, **Ўзбекистонда 15—49 ёш тоифасига мансуб аёллар сони 9 миллион 424 минг нафарни ташкил этди.**

Таъкидланишича, бу кўрсаткич йиллар давомида барқарор ўсишни намоён этмоқда. Қуйида мазкур тоифадаги аёллар сонининг йиллар бўйича динамикасини кўриш мумкин:1991 йил — 4 821,2 минг киши;1995 йил — 5 418,5 минг киши;2000 йил — 6 289 минг киши;2005 йил — 7 172,2 минг киши;2010 йил — 7 945,4 минг киши;2015 йил — 8 649,3 минг киши;2020 йил — 8 982,3 минг киши;2025 йил — 9 424 минг киши.

ТАДҚИҚОТЛАР НАТИЖАЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ

Вазирлар Маҳкамасининг 2007-йил 24-майдаги 106-сон қарори билан тасдиқланган Бандликка муҳтож бўлган ишсиз аҳоли сонини ҳисоблаш методикаси бўйича аниқланган ишсизлар сони 2020-йилнинг январь-сентябрь ойларида 31512,3 минг кишини ташкил этди ва шунга мос равишда ишсизлик даражаси иқтисодий фаол аҳоли сонига нисбатан 10,5% ни ташкил этади, аммо бунга короновирус пандемияси ҳам сабаб бўлган бўлиши мумкин. Қуйидаги 1-жадвалда охирги давр учун кўрсаткичларни кўришингиз мумкин.

Республика миқёсида ходимларнинг умумий сонидаги аёллар улуши, 2021-йил 29-сентябр ҳолатига кўра (% фоизларда).

1-жадвал

Республика миқёсида аёлларнинг умумий бандликдаги улуши, %да					
Худудлар	Йиллар				
	2016	2017	2018	2019	2020

Ўзбекистон Республикаси	45,7	45,8	41,6	41,4	41,4
Қорақалпоғистон Республикаси	48,0	48,1	43,1	43,0	43,2
Андижон вилояти	46,3	46,3	40,7	40,4	39,1
Бухоро вилояти	47,7	48,9	42,5	45,0	42,9
Жиззах вилояти	45,2	45,4	39,0	39,6	40,1
Қашқадарё вилояти	44,2	43,6	37,9	38,1	37,2
Навоий вилояти	48,0	48,8	44,1	45,6	44,3
Наманган вилояти	42,6	41,9	39,8	41,9	42,7
Самарқанд вилояти	45,3	44,9	41,8	38,8	39,4
Сурхандарё вилояти	44,1	43,8	39,1	34,9	38,2
Сирдарё вилояти	46,0	47,0	42,7	40,0	40,6
Тошкент вилояти	49,6	50,6	42,7	41,7	42,4
Фарғона вилояти	45,7	46,2	42,9	44,2	43,2
Хоразм вилояти	45,3	44,7	43,7	42,1	42,6
Тошкент шахри	43,2	43,7	44,4	46,7	45,8

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, муҳандис соҳасида фаолият олиб бораётган аёлларга ривожланиш учун кўпроқ эътибор бериш керак, улар бошқасига ўзгармаслиги учун ўзларини англаб етишлари ва ўзлари севган касбда ишлаши керак. Бунинг учун жамият муҳандислик фаолиятини амалга оширишда аёлларни қабул қилиши керак. Бу мамлакат тараққиётига ва унинг фаровонлигини ошишига олиб келади. Шунингдек, аёллар учун, айниқса, туғруқ таътилида бўлган

ва ўз мутахассислиги бўйича ишлашга муҳтож бўлганлар учун қўшимча иш шароитларини яратиш зарур. Бу соҳада мавжуд салбий қарашларни ўзгартириш ва замон билан ҳамнафас бўлиш, жамиятга аёл муҳандисларни кенгроқ жалб этиш зарур.

"Саноат" иқтисодий фаолият турлари бўйича жами Республика бўйича бандликдаги аёлларнинг улуши, 2021-йил 29-сентябр ҳолатига кўра (% фоизда).

2-жадвал

"Саноат" иқтисодий фаолият турлари бўйича жами Республика бўйича бандликдаги аёлларнинг улуши , %					
Худудлар	**Йиллар**				
	2016	**2017**	**2018**	**2019**	**2020**
Ўзбекистон Республикаси	**42,9**	**44,2**	**42,1**	**44,0**	**43,2**
Қорақалпоғистон Республикаси	38,8	41,8	42,7	42,3	42,4
Андижон вилояти	42,8	43,0	42,9	42,8	42,8
Бухоро вилояти	48,2	51,3	46,5	47,8	42,9
Жиззах вилояти	34,9	35,2	35,4	35,1	35,3
Кашкадарё вилояти	31,3	34,6	35,0	34,6	31,5
Навоий вилояти	48,6	47,4	39,3	46,2	41,2
Наманган вилояти	36,0	36,1	35,9	36,3	36,2
Самарқанд вилояти	47,4	47,9	48,9	48,6	48,8
Сурхандарё вилояти	30,3	30,4	30,1	30,1	30,2
Сирдарё вилояти	38,3	38,5	39,3	37,0	37,8

Тошкент вилояти	48,3	53,7	46,3	46,2	46,3
Фарғона вилояти	43,9	44,1	45,2	45,1	42,9
Хоразм вилояти	41,2	41,7	42,1	41,5	41,8
Тошкент шахри	42,9	43,2	38,5	51,7	51,1

Гендер тенглик тушунчаси ва турлари, ваколатли органларнинг вазифа ва функцялари, давлат бошқарувида иштирок этиш, ишга қабул қилиш ёки ишга олишда гендер тенглигини таъминлашга доир нормаларни назарда тутувчи қонунларр ишлаб чиқилган. Жумладан, "Эркаклар ва аёлларнинг тенг ҳуқуқ ва имкониятларининг кафолатлари тўғрисида"ги қонун лойиҳаси; кредит олиш ва тадбиркорлик фаолияти, гендер тенглик бузилишининг олдини олишга қаратилган чора-тадбирлар, шунингдек, бундай ҳуқуқбузарликка олиб келган хатти-ҳаракатлар учун жавобгарлик ва ҳ.о.

Олий таълимда гендер индекси (аёллар учун ҳисобланган инсон тараққиёти индексининг эркаклар учун ҳисобланган инсон тараққиёти индексига нисбати) қуйидагиларни кўрсатди (3 -4 жадвалларга қаранг):

Аёлларнинг гендер тенглигини таъминлаш бўйича асосий вазифалари қуйидагилардан иборат эди:

- мамлакатда гендер тенглигини таъминлаш ва аёлларнинг ижтимоий шароитларини яхшилашга қаратилган давлат сиёсатини амалга оширишда фаол иштирок этиш;
- давлат органлари ва бошқа ташкилотлардаги аёлларнинг гендер тенглиги бузилганлиги тўғрисидаги мурожаатларини кўриб чиқиш;
- касбий сегрегация, иш ҳақидаги тафовут, аҳолининг иқтисодий фаол қатламлари орасида аёллар салмоғини ошириш масалалари бўйича чора-тадбирларни амалга ошириш;
- аёллар ҳуқуқларини камситишнинг барча шаклларига барҳам бериш

бўйича умумэътироф этилган халқаро нормаларни миллий қонунчиликка татбиқ этиш бўйича таклифлар ишлаб чиқиш;

- хотин-қизларнинг ҳуқуқий маданиятини юксалтиришга қаратилган чора-тадбирларни аниқлаш ва самарали амалга оширилишини таъминлаш, шунингдек, кенг кўламли тарғибот-ташвиқот ишларини ташкил этиш.

Вилоятдаги ҳамкор ишлаб чиқариш корхоналаридаги ходимлар тўғрисида 2021 йил учун ўтказилган тадқиқотлар натижалари бўйича қуйидагилар аниқланди:

4-жадвал



Юқоридаги 5 жадвалдан ушбу корхоналарда муҳандислик соҳасида аёлларнинг сони нисбатан анча камлиги ҳақида хулоса чиқариш мумкин. Бунинг сабаби учта асосий сабабга кўра қуйидаги гендер тенгсизликдир:

- ***Биологик.*** Боланинг туғилиши ва ундан кейинги тарбияси учун аёлларга жуда кўп энергия ва куч керак, бундан ташқари аёллар эркакларга қараганда жисмонан кучсизроқдир.

➢ ***Иқтисодий.*** Эркак ёки аёл яшайдиган мамлакат иқтисодиётининг тузилишига қараб, биологик хусусиятлар кўпроқ ёки камроқ аҳамиятга эга бўлиши мумкин . Масалан, саноатнинг жамият ҳаётида тутган ўрни қанчалик катта бўлса, эркакларнинг жисмоний кучи шунчалик муҳим ва рақобатдош устунликлари шунчалик юқори бўлади.

➢ ***Маданий.*** Замонавий дунёда маьлум ижтимоий нормалар гендер тенгсизлик масалаларида муҳим рол ўйнайди. Жамият аёл ва эркакка ўзини қандай тутиши, қандай мақсадларга интилиши, қандай турмуш тарзини афзал кўриши кераклигини белгилайди.

ХУЛОСАЛАР

Бугунги кунда, яъни техника ва технология ривожланган даврда муҳандислик соҳаси бўйича кўплаб ютуқларга эришилиб келинмоқда. Айнан бу соҳанинг ривожланиши аҳолининг турмуш шароитини ўсишига ижобий таъсир кўрсатади. Бу жараёнларни ривожланишида муҳандислик соҳаси муҳим аҳамият касб этади. Бугунги кунда хотин-қизларнинг бандлигини таьминлаш мақсадида муҳандислик соҳаси бўйича қатор ишлар амалга оширилмоқда.

Техника ва технологиялар ривожланган бир даврда хусусий тадбиркорликларда, шу жумладан, муҳандислик соҳасида аёлларнинг иш ўринлари яратилмоқда. Хотин-қизларни муҳандислик соҳаларига жалб қилиш ва уларни иш билан таьминлаш муҳим омил ҳисобланади.

Энди юқорида келтирилган маълумотлар, қонунлар, хукумат қабул қилган фармонлар ва қарорлардан келиб чиқиб, мухандислик соҳасида аёллар иштирокини 30% дан ошириш учун биз томонимиздан қуйидаги таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилди:

Таклифлар

1.Технология соҳасига қизиқиши бор аёлларга имкон қадар енгилликлар яратилган ҳолатда шу соҳага кўпроқ жалб этиш.

2. Технологик жиҳатдан кучли билимга эга бўлган хотин-қизларимизни имкон борича лидер сифатида намоён бўлишларига тўсқинлик қилмаслик.

3. Мухандислик соҳасида фаолият олиб бораётган хотин-қизларимизни фикр ва мулоҳазаларини инобатга олиш.

4. Гендер тенгликни хисобга олган холатда техника соҳасида фаолият олиб бораётган аёлларимизга ҳам кўпроқ эътибор қаратиш.

5. "Аёл–мухандис" мавзусида теледебатлар уюштириш ва уларга хотин-қизларни таклиф этиш.

6. Давлат томонидан аёлларга техник йўналишлар бўйича университетларга киришлари учун имтиёзлар бериш.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

збекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг 2021 йил 28 майдаги "2030 йилга қадар Ўзбекистон Республикасида гендер тенгликка эришиш стратегиясини тасдиқлаш ҳақида"ги СҚ-297-IV-сон қарори.

збекистон Республикасининг 2019 йил 2 сентябрдаги "Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида"ги ЎРҚ-562-сон қонуни.

збекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 июлдагаи "Хотин-қизларнинг меҳнат ҳуқуқлари кафолатларини янада кучайтириш ва тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тщ-рисида"ги ПҚ-4235-сон қарори.

Ўзбекистонда олий таълим ва ишлаб чиқаришнинг синергетик интеграциясини яратиш" лойиҳаси (2019-2022йй) ҳисобати. АндМИ.2022.

збекистон Республикасининг 2019 йил 2 сентябрдаги "Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида"ги ЎРҚ-562-сон қонуни.

збекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7 мартдаги "Хотин-қизларнинг меҳнат ҳуқуқлари кафолатларини янада кучайтириш ва тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлашга оид чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-4235-сон қарори.

OAV TILI VA OG'ZAKI NUTQDA QO'SHMA GAPLARNING PROPOZITSIONAL INTENSIVLIGI: SINTAKTIK VA PRAGMATIK TAHLIL

Otaxonova Gulshirinoy Kanaxatovna
Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi,
Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar va tillarni
o'qitish metodikasi kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: gulshirinoy786@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ommaviy axborot vositalari (OAV) tili hamda og'zaki nutqda qo'llaniladigan qo'shma gaplarning sintaktik, semantik va pragmatik xususiyatlari propozitsional intensivlik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida mediativ va og'zaki diskursdagi qo'shma gaplarning kommunikativ vazifalari, ularning axborot yetkazishdagi samaradorligi hamda ekspressiv imkoniyatlari o'rganildi. Tadqiqotda diskurs tahlili, qiyosiy tahlil va kontent-analiz metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, OAV tilidagi qo'shma gaplar ko'proq mantiqiy izchillik va informativlikni ta'minlashga xizmat qilsa, og'zaki nutqda ular hissiy-emotsional ta'sirni kuchaytirishga yo'naltirilgan.*

Kalit so'zlar: *qo'shma gap, propozitsional intensivlik, OAV tili, og'zaki nutq, sintaktik birlik, semantik yuklama, kommunikativ maqsad, nutq akti, informativlik, pragmatik xususiyat, diskurs tahlili, sintaktik struktura, predikativ munosabat, ekspressivlik, mediativ nutq, lingvistik tahlil, funksional sintaksis, nutqning ta'sirchanligi, verbal kommunikatsiya, til va tafakkur munosabati.*

ИНТЕНСИВНОСТЬ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В СОСТАВНЫХ УТВЕРЖДЕНИЯХ В ЯЗЫКЕ СМИ И УСТНОЙ РЕЧИ: СИНТАКСИЧЕСКИЙ И ПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ.

Аннотация. *В данной статье анализируются синтаксические, семантические и прагматические особенности сложных предложений, используемых в языке средств массовой информации (СМИ) и устной речи, с точки зрения пропозициональной интенсивности. В ходе исследования были изучены коммуникативные функции сложных предложений в медиативном и устном дискурсе, их эффективность в передаче информации, а также экспрессивные возможности. В исследовании использовались методы дискурс-анализа, сравнительного анализа и контент-анализа. Результаты показали, что сложные предложения в языке СМИ преимущественно служат обеспечению логической последовательности и информативности, тогда как в устной речи они направлены на усиление эмоционально-экспрессивного воздействия.*

Ключевые слова: *сложное предложение, пропозициональная интенсивность, язык СМИ, устная речь, синтаксическая единица, семантическая нагрузка, коммуникативная цель, речевой акт, информативность, прагматическая особенность, дискурсивный анализ, синтаксическая структура, предикативное отношение, экспрессивность, медиативная речь, лингвистический*

анализ, функциональный синтаксис, выразительность речи, вербальная коммуникация, соотношение языка и мышления.

PROPOSITIONAL INTENSITY OF COMPOUND STATEMENTS IN MEDIA LANGUAGE AND ORAL SPEECH: SYNTACTIC AND PRAGMATIC ANALYSIS

Abstract. *This article analyzes the syntactic, semantic, and pragmatic features of compound sentences used in mass media language and spoken discourse from the perspective of propositional intensity. The study examines the communicative functions of compound sentences in media and oral discourse, their effectiveness in conveying information, and their expressive potential. Discourse analysis, comparative analysis, and content analysis methods were employed in the research. The findings demonstrate that compound sentences in media discourse primarily ensure logical consistency and informativeness, whereas in spoken discourse they are aimed at intensifying emotional and expressive influence.*

Keywords: *compound sentence, propositional intensity, media language, oral speech, syntactic unit, semantic load, communicative purpose, speech act, informativeness, pragmatic feature, discourse analysis, syntactic structure, predicative relation, expressiveness, mediative speech, linguistic analysis, functional syntax, speech effectiveness, verbal communication, relationship between language and thought.*

KIRISH

Tilshunoslikda sintaktik birliklarning tuzilishi, ma'nosi va qo'llanish xususiyatlarini tadqiq etish doimo dolzarb ilmiy muammolardan biri bo'lib kelgan. Xususan, murakkab fikr va voqeliklarni ifodalashda qo'shma gaplarning kommunikativ imkoniyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Qo'shma gaplar bir necha propozitsiyalarni yagona sintaktik birlik doirasida mujassamlashtirib, murakkab fikrlarni ixcham va ta'sirchan shaklda ifodalash imkonini beradi [1].

Zamonaviy tilshunoslikda mediativ nutq, ya'ni OAV tili hamda og'zaki nutqning sintaktik va pragmatik xususiyatlarini o'rganish alohida ilmiy yo'nalish sifatida rivojlanmoqda. Ayniqsa, OAV matnlarida informativlik va mantiqiylik ustuvor bo'lsa, og'zaki nutqda ekspressivlik va emotsionallik yetakchi o'rin egallaydi [2]-[3]. Shu sababli qo'shma gaplarning turli nutqiy muhitlarda qanday sintaktik va semantik vazifalarni bajarishini tadqiq qilish dolzarb ilmiy ahamiyatga ega.

Qo‘shma gap va propozitsional intensivlik tushunchalarining nazariy asoslarini o‘rganish [6,7];

1. OAV va og‘zaki nutqdagi qo‘shma gaplarning sintaktik xususiyatlarini aniqlash;
2. Qo‘shma gaplarning semantik-pragmatik vazifalarini qiyosiy tahlil qilish;
3. Har ikki nutqiy muhitda propozitsional intensivlik darajasini baholash;
4. Tadqiqot natijalari asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, unda OAV tili va og‘zaki nutqdagi qo‘shma gaplar propozitsional intensivlik mezoni asosida kompleks ravishda qiyosiy tahlil qilindi hamda ularning kommunikativ-pragmatik imkoniyatlari aniqlashtirildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda sifat va qiyosiy tahlil metodlari asosida sintaktik birliklarning funksional xususiyatlari o‘rganildi. Ilmiy izlanish davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Mazkur tadqiqotda ommaviy axborot vositalari (OAV) matnlarining lingvistik xususiyatlarini chuqur o‘rganish maqsadida bir-birini to‘ldiruvchi bir nechta zamonaviy tadqiqot metodlaridan foydalanildi [8].

Diskurs tahlili metodi orqali OAV matnlarining kommunikativ vazifasi, matnning yaratilish maqsadi, muallif va auditoriya o‘rtasidagi munosabat hamda til birliklarining nutqiy vaziyatdagi funksiyalari o‘rganildi. Ushbu metod yordamida qo‘shma gaplarning axborotni yetkazish, ishontirish va ta’sir ko‘rsatishdagi o‘rni aniqlandi [9,10].

Kontent-analiz usuli asosida gazeta, internet nashrlari va boshqa OAV manbalaridan tanlab olingan matnlar tizimli ravishda tahlil qilindi. Tahlil jarayonida qo‘shma gaplarning qo‘llanish chastotasi, bog‘lovchi vositalarning ishlatilish xususiyatlari hamda ularning funksional taqsimoti statistik jihatdan baholandi. Bu metod matnlarda eng ko‘p uchraydigan sintaktik birliklarni aniqlash va ularning qo‘llanish tendensiyalarini belgilash imkonini berdi [12].

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Sintaktik-semantik tahlil metodi yordamida qo‘shma gaplarning grammatik tuzilishi, tarkibiy qismlari va ular o‘rtasidagi mazmuniy munosabatlar o‘rganildi. Xususan, sabab–natija, shart, qiyoslash, izohlash va qarama-qarshilik munosabatlarini ifodalovchi sintaktik konstruksiyalar tahlil qilinib, ularning OAV matnlaridagi funksional ahamiyati baholandi.

Qiyosiy-pragmatik metod orqali turli janrdagi OAV matnlarida qo‘shma gaplarning qo‘llanishi o‘zaro taqqoslandi hamda ularning pragmatik vazifalari tahlil qilindi. Ushbu metod yordamida qo‘shma gaplarning o‘quvchi yoki tinglovchiga ta’sir ko‘rsatish, axborotni ishonchli va mantiqiy yetkazish hamda muallifning kommunikativ maqsadini amalga oshirishdagi o‘rni aniqlandi. Mazkur metodlarning kompleks qo‘llanilishi tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va ishonchliligini ta’minlashga xizmat qildi.Tahlil materiali sifatida 2023–2026-yillarda chop etilgan internet nashrlari, gazeta maqolalari, televideniye nutqlari va og‘zaki suhbat namunalari tanlab olindi. Umumiy hisobda 150 dan ortiq qo‘shma gap namunalari tahlil qilindi.

Shundan:

- 80 tasi OAV matnlaridan;
- 70 tasi og‘zaki nutq namunalaridan olindi.
- Tahlil jarayonida qo‘shma gaplarning:
- bog‘lovchi vositalari;
- sintaktik modeli;
- semantik munosabatlari;
- pragmatik funksiyasi;
- propozitsional intensivlik darajasi
- alohida mezonlar asosida o‘rganildi.

Propozitsional intensivlikni aniqlashda quyidagi ko‘rsatkichlar asos sifatida olindi:

1. Ta’sirchanlik darajasi;

2. Emotsional-ekspressiv yuklama;
3. Axborot zichligi;
4. Pragmatik urg‘u;
5. Tinglovchi yoki o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatish kuchi.

NATIJALAR

Tahlil natijalari OAV tili va og‘zaki nutqdagi qo‘shma gaplar o‘rtasida sezilarli funksional farqlar mavjudligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ommaviy axborot vositalari (OAV) tilida qo‘shma gaplar axborotni aniq, izchil va mantiqiy tarzda yetkazishda muhim sintaktik vosita hisoblanadi. OAV matnlarining asosiy vazifasi qisqa vaqt ichida keng auditoriyaga ishonchli va tushunarli ma’lumot yetkazish bo‘lganligi sababli, qo‘shma gaplardan samarali foydalanish matnning mazmuniy yaxlitligini ta’minlaydi. Ayniqsa, yangiliklar, tahliliy maqolalar, intervyular va rasmiy axborotlarda qo‘shma gaplar orqali voqealar o‘rtasidagi bog‘liqlik, sabab va oqibat munosabatlari hamda muallifning xulosalari izchil ifodalanadi.

Tahlillar davomida OAV matnlarida qo‘shma gaplar, avvalo, axborotni tizimli yetkazish vazifasini bajarishi aniqlandi. Bir nechta mazmunan bog‘liq fikrlarning bitta sintaktik birlikda ifodalanishi matnning ixchamligi va tushunarliligini oshiradi. Natijada o‘quvchi yoki tinglovchi voqea-hodisalar ketma-ketligini yaxlit holda qabul qiladi hamda asosiy mazmunni tez anglaydi.

Shuningdek, qo‘shma gaplar matnning mantiqiy izchilligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ergash va bog‘langan qo‘shma gaplar yordamida fikrlar o‘rtasidagi vaqt, shart, qiyoslash, sabab va natija kabi semantik munosabatlar aniq ifodalanadi. Bu esa matnning ravonligini ta’minlab, axborotning izchil bayon qilinishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari qo‘shma gaplarning sabab–natija munosabatlarini ifodalashda ham keng qo‘llanilishini ko‘rsatdi. Xususan, chunki, zero, shuning uchun, natijada kabi bog‘lovchi vositalar yordamida voqea va hodisalarning yuzaga kelish sabablari hamda

ularning oqibatlari izchil yoritiladi. Bunday sintaktik qurilmalar jurnalistik matnlarning dalillilik darajasini oshirib, axborotning ishonchliligini kuchaytiradi.

Bundan tashqari, OAV tilida qo‘shma gaplar dalillangan fikrni shakllantirish vositasi sifatida ham faol qo‘llanadi. Tahliliy va publitsistik maqolalarda muallif asosiy g‘oyani statistik ma’lumotlar, ekspert fikrlari yoki rasmiy manbalar bilan bog‘lab bayon qiladi. Natijada fikrning mantiqiy asoslanganligi kuchayadi va o‘quvchida mavzu yuzasidan aniq tasavvur shakllanadi. Umuman olganda, qo‘shma gaplarning samarali qo‘llanishi OAV matnlarining axborot berish, tahlil qilish va ta’sir ko‘rsatish funksiyalarini yanada kuchaytiruvchi muhim sintaktik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan: “Prezidentning yangi farmoni iqtisodiyotni tubdan o‘zgartirishi kutilmoqda, zero ushbu choralar mamlakat ravnaqi uchun muhim ahamiyatga ega.”

Mazkur misolda “zero” bog‘lovchisi sabab-natija munosabatini kuchaytirib, ikkinchi komponentning birinchi qismni izohlash vazifasini bajaradi. Natijada gapning informativligi va propozitsional intensivligi ortadi.

Ommaviy axborot vositalari (OAV) matnlarining lingvistik tahlili shuni ko‘rsatdiki, matnning mantiqiy yaxlitligini, mazmuniy izchilligini va fikrlar o‘rtasidagi semantik bog‘lanishni ta’minlashda bog‘lovchi vositalar muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot davomida eng ko‘p qo‘llangan bog‘lovchilar sifatida “chunki”, “zero”, “agar”, “hamda”, “biroq” va “shuningdek” birliklari aniqlandi. Xususan, “chunki” va “zero” sabab-oqibat munosabatlarini ifodalashda, “agar” shart ma’nosini berishda, “hamda” va “shuningdek” qo‘shimcha ma’lumotlarni bog‘lashda, “biroq” esa qarama-qarshi fikrlarni ifodalashda faol qo‘llanilgan. Mazkur bog‘lovchi vositalar OAV matnlarining mantiqiy tuzilishini mustahkamlab, axborotning o‘quvchi tomonidan aniq va izchil qabul qilinishiga xizmat qilishi kuzatildi.

Bu birliklar matnning rasmiyligi va mantiqiy tizimliligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Og‘zaki nutqdagi qo‘shma gaplarning xususiyatlari

Og‘zaki nutqda esa qo‘shma gaplar ko‘proq ekspressiv-pragmatik vazifa bajarishi kuzatildi. Xususan, intonatsiya, pauza, urg‘u va yuklamalar gapning emotsional ta’sirini oshiradi.

Masalan: “Esingda bo‘lsin, bunday qilib yurma, keyin afsuslanasan!”

Ushbu misolda buyruq mayli hamda ogohlantirish mazmuni tinglovchiga kuchli pragmatik ta’sir ko‘rsatmoqda. Gapning ikkinchi qismi birinchi qismning ta’sirchanligini yanada kuchaytiradi.

Yana bir misol:

“Men senga aytgandim-ku, bunchalik katta mashinani almashtirish kerak deb!”

Bu yerda “-ku” yuklamasi takroriy ogohlantirish va emotsional urg‘uni ifodalab, gapning propozitsional intensivligini oshirgan.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, OAV tilida sintaktik aniqlik ustuvor bo‘lsa, og‘zaki nutqda pragmatik va emotsional ta’sir kuchliroq namoyon bo‘ladi.

MUHOKAMA

Tahlil natijalari zamonaviy sintaktik tadqiqotlarda qo‘shma gaplarning faqat grammatik birlik emas, balki kommunikativ-pragmatik vosita sifatida ham muhim o‘rin tutishini tasdiqlaydi [3].

OAV tilida qo‘shma gaplarning asosiy vazifasi murakkab voqelikni tizimli va dalillangan tarzda yetkazishdan iborat. Bu holat mediativ diskursning informativ va analitik xususiyati bilan izohlanadi [4]. OAV matnlarida qo‘shma gaplarning mantiqiy izchilligi auditoriyada ishonchlilik hissini shakllantiradi.

Og‘zaki nutqda esa sintaktik konstruksiyalar ko‘proq suhbatning emotsional tabiati bilan belgilanadi. Propozitsional intensivlikning kuchayishi ko‘pincha pragmatik ehtiyoj – tinglovchini ishontirish, ogohlantirish yoki hissiy ta’sir ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘ladi [5].

Shuningdek, og‘zaki nutqda intonatsion vositalarning muhim o‘rni qayd etildi. Bu jihat yozma matnda to‘liq ifodalanmasligi sababli, og‘zaki nutqdagi qo‘shma gaplarning kommunikativ salohiyati kengroq ekanligi kuzatildi.

Mazkur tadqiqot natijalari qo‘shma gaplarni o‘qitish metodikasida ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Xususan:

- mediativ matnlarni tahlil qilish;
- pragmatik sintaksisni o‘qitish;
- PISA tipidagi matnlar bilan ishlash;
- nutq madaniyatini rivojlantirish
- jarayonlarida qo‘llanishi mumkin.

XULOSA

OAV tili va og‘zaki nutqdagi qo‘shma gaplarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning har biri o‘ziga xos sintaktik va semantik xususiyatlarga ega. Qo‘shma gaplar mazmunni chuqur va ta’sirchan ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Propozitsional intensivlik, ya’ni gap ma’nosining kuchliligi va ta’sirchanligi OAV tilida ko‘pincha informativlik va ob’ektivlikni ta’minlashga, og‘zaki nutqda esa ekspressivlik, hissiyotni ifodalash va tinglovchiga kuchliroq ta’sir ko‘rsatishga xizmat qiladi.

OAV tilida qo‘shma gaplar ko‘pincha aniq ma’lumotni izchil bayon qilishga, mantiqiy bog‘lanishni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ularning tuzilishi ko‘pincha standart me’yorlarga mos keladi. Og‘zaki nutqda esa, aksincha, gaplarning tuzilishida erkinlik ko‘proq kuzatiladi, shu bilan birga, intonatsiya, urg‘u kabi fonetik vositalar orqali propozitsional intensivlik yanada oshiriladi. OAV tili va og‘zaki nutqdagi bu farqlar ularning har birining o‘ziga xos kommunikativ maqsadlari bilan belgilanadi.

OAV tili va og‘zaki nutqdagi qo‘shma gaplarning qiyosiy tahlili ularning sintaktik, semantik va pragmatik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra:

1. OAV tilidagi qo‘shma gaplar ko‘proq informativlik, mantiqiy izchillik va dalillanganlikni ta’minlashga xizmat qiladi;

2. Og‘zaki nutqda qo‘shma gaplar ekspressivlik va emotsional ta’sirni kuchaytiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi;

3. Propozitsional intensivlik har ikki nutq turida turlicha kommunikativ maqsadlarga xizmat qiladi;

4. Qo‘shma gaplarning sintaktik modeli nutqiy muhitga qarab funksional jihatdan o‘zgaradi.

Shunday qilib, qo‘shma gaplar zamonaviy kommunikativ jarayonlarda nafaqat grammatik birlik, balki ta’sirchan kommunikativ vosita sifatida ham muhim o‘rin egallaydi.

Kelgusida mediativ diskursning turli janrlarida qo‘shma gaplarning pragmatik imkoniyatlarini korpus lingvistikasi asosida tadqiq etish istiqbolli ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, qo‘shma gaplardan foydalanish nutqning kommunikativ samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. OAV faoliyatida matnning aniq, tushunarli va ta’sirchan bo‘lishi uchun qo‘shma gaplarning to‘g‘ri tanlanishi va ulardan samarali foydalanish zarur. Og‘zaki nutqda esa, tinglovchiga ta’sirchan va qiziqarli murojaat qilish uchun qo‘shma gaplarning ekspressiv imkoniyatlaridan foydalanish muhimdir. Kelgusida ushbu yo‘nalishda, xususan, mediativ nutqning turli janrlarida qo‘shma gaplarning qo‘llanilishini chuqurroq o‘rganish, shuningdek, til va tafakkur munosabatida qo‘shma gaplarning o‘rni masalasini tadqiq etish dolzarb bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev O. *Sintaksisning nazariy muammolari*. – Toshkent: Fan, 2005. – 240 b.
2. Berdimurodov A. *O‘zbek tilida sintaktik vositalar*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008. – 192 b.
3. Karimova N. *O‘zbek ommaviy axborot vositalari tili: pragmatik va lingvomadaniy jihatlari*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 160 b.

4. Masoyev A. *Sintaktik birliklarning semantik-pragmatik tadqiqi*. – Toshkent: O'zMU, 2015. – 128 b.
5. Mahmudov N. *O'zbek tilida sintaktik munosabatlar*. – Toshkent: Akademiya, 2012. – 250 b.
6. Rahmatullayev Sh. *Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis*. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 300 b.
7. Solihov A. *Zamonaviy o'zbek ommaviy axborot vositalari tili: xususiyatlari va imkoniyatlari*. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 2018. – 256 b.
8. Tilovov T. *Zamonaviy o'zbek adabiy tili. Sintaksis*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 336 b.
9. Yuldashev B. *Tilshunoslikda diskurs tahlili metodologiyasi*. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 180 b.
10. Zokirov F. *O'zbek tilining funksional sintaksisi asoslari*. – Toshkent: O'zMU, 2016. – 140 b.
11. Fairclough N. *Media Discourse*. – London: Edward Arnold, 1995. – 214 p.
12. Halliday M.A.K. & Hasan R. *Cohesion in English*. – London: Longman, 1976. – 374 p.
13. Van Dijk T.A. *Discourse and Context: A Sociocognitive Approach*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – 267 p.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA BOSHLANG'ICH TA'LIMNING INNOVATSION DIDAKTIK MODELI

Samidjonova Muxabbat
Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi mudiri

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida boshlang'ich ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning dolzarb masalalari hamda innovatsion didaktik modelni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Unda raqamli pedagogika, interfaol ta'lim texnologiyalari, sun'iy intellekt vositalari va multimedia resurslarining boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarning kognitiv faolligi, mustaqil fikrlashi, kreativ kompetensiyalari va raqamli savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion didaktik yondashuvlar tavsiflangan.*

Kalit so'zlar: *raqamli transformatsiya, boshlang'ich ta'lim, innovatsion didaktik model, raqamli pedagogika, interfaol ta'lim, sun'iy intellekt, multimedia texnologiyalari, adaptiv ta'lim muhiti, kreativ kompetensiya, raqamli savodxonlik.*

ИННОВАЦИОННАЯ ДИДАКТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Аннотация. *В данной статье анализируются актуальные вопросы модернизации системы начального образования в условиях цифровой трансформации, а также теоретико-методологические основы формирования инновационной дидактической модели. Освещается роль цифровой педагогики, интерактивных образовательных технологий, инструментов искусственного интеллекта и мультимедийных ресурсов в повышении эффективности начального образования. Кроме того, описаны инновационные дидактические подходы, направленные на развитие когнитивной активности учащихся, самостоятельного мышления, креативных компетенций и цифровой грамотности.*

Ключевые слова: *цифровая трансформация, начальное образование, инновационная дидактическая модель, цифровая педагогика, интерактивное обучение, искусственный интеллект, мультимедийные технологии, адаптивная образовательная среда, креативная компетенция, цифровая грамотность.*

INNOVATIVE DIDACTIC MODEL OF PRIMARY EDUCATION IN THE PROCESS OF DIGITAL TRANSFORMATION

Annotation. *This article analyzes the akmyal issues of modernizing the primary education system in the context of digital transformation, as well as the theoretical and methodological foundations for*

developing an innovative didactic model. The role of digital pedagogy, interactive educational technologies, artificial intelligence tools, and multimedia resources in improving the effectiveness of primary education is scientifically highlighted. In addition, innovative didactic approaches aimed at developing students' cognitive activity, independent thinking, creative competencies, and digital literacy are described.

Keywords: *digital transformation, primary education, innovative didactic model, digital pedagogy, interactive learning, artificial intelligence, multimedia technologies, adaptive learning environment, creative competence, digital literacy.*

KIRISH

So‘nggi yillarda global ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashib, ta’lim mazmuni, metodlari va tashkiliy tuzilmasini tubdan yangilash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi shaxsning intellektual, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishida poydevor vazifasini bajarishi sababli ushbu bosqichda innovatsion yondashuvlarni joriy etish strategik ahamiyatga ega.

Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini an’anaviy “o‘qituvchi–o‘quvchi” modelidan “o‘quvchi–raqamli muhit–o‘qituvchi” interaktiv tizimiga o‘tkazmoqda. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil o‘qish, tanqidiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, boshlang‘ich ta’limda innovatsion didaktik modelni ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Tadqiqotlar jarayonida tizimli yondashuv, struktur-funksional tahlil, pedagogik modellashtirish va qiyosiy tahlil metodlari qo‘llanildi. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv va konstruktivistik ta’lim nazariyasi asosida boshlang‘ich ta’lim jarayonining raqamli transformatsiya sharoitidagi rivojlanish tendensiyalari o‘rganildi.

Empirik materiallar pedagogik kuzatish, so‘rovnoma, diagnostik testlar hamda raqamli ta’lim platformalaridagi o‘quv faoliyatini monitoring qilish orqali yig‘ildi. Olingan ma’lumotlar sifat va miqdoriy tahlil usullarida qayta ishlanib, o‘quvchilarning kognitiv rivojlanish darajasi, raqamli savodxonligi va o‘quv motivatsiyasi baholandi.

adqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan innovatsion didaktik model boshlang‘ich ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu natijalar zamonaviy pedagogik adabiyotlarda bayon etilgan ilmiy qarashlar bilan uyg‘unlikda namoyon bo‘ldi.

ADABIYOTLAR SHARXI

Jumladan, R. E. Mayer multimedia o‘qitish nazariyasida o‘quv materiallarini bir vaqtning o‘zida vizual va verbal (audio yoki matn) shaklda taqdim etish o‘quvchilarning kognitiv yuklamasini optimallashtirishi hamda bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam berishini ta’kidlaydi [1], [2]. Shuningdek, D. H. Jonassen konstruktivistik yondashuv asosida o‘quvchilar bilimni tayyor holda qabul qilmasdan, balki uni faol ravishda yaratishini, ayniqsa raqamli ta’lim muhiti va muammoli vaziyatlar bu jarayonni sezilarli darajada faollashtirishini qayd etgan [3].

O‘tkazilgan tahlillar natijasida quyidagi ijobiy o‘zgarishlar aniqlandi.

Birinchidan, o‘quvchilarda o‘quv motivatsiyasi va darsga qiziqish darajasi sezilarli darajada oshdi. Bu holat UNESCOning ta’limni raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha 2023-yilgi hisobotida ham qayd etilib, raqamli texnologiyalar o‘quvchini ta’lim jarayonining faol subyektiga aylantirishi bilan izohlanadi [4].

Ikkinchidan, mustaqil bilim olish va izlanish faoliyati rivojlandi. Mazkur natija G. Siemens tomonidan ishlab chiqilgan Connectivism nazariyasi bilan izohlanadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, bilim alohida shaxs ongida emas, balki axborot tarmoqlari va raqamli muhit orqali shakllanadi hamda rivojlanadi [5].

Uchinchidan, murakkab o‘quv materiallari multimodal (audio, vizual va interaktiv) shaklda taqdim etilganda ularni o‘zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Ushbu natija R. Mayer tomonidan ishlab chiqilgan multimedia learning tamoyillari bilan to‘liq mos keladi. Mayerning tadqiqotlariga ko‘ra, multimedia elementlarining uyg‘un qo‘llanilishi o‘quvchilarning ishchi xotirasidagi ortiqcha yuklamani kamaytiradi va mazmunli o‘rganishni ta’minlaydi [1], [2].

To‘rtinchidan, o‘quvchilarda raqamli savodxonlik hamda axborotni izlash, saralash va tahlil qilish ko‘nikmalari shakllandi. Bu yo‘nalishda OECDning 2022-yilgi hisobotida ham raqamli kompetensiyalar XXI asr ta’limining strategik omili sifatida e’tirof etilib, raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiyalash ta’lim sifatini oshirishi qayd etilgan [6].

Beshinchidan, o‘quvchilarning kognitiv va metakognitiv faoliyati faollashgani aniqlandi. Mazkur jarayon J. H. Flavell tomonidan ishlab chiqilgan metakognitsiya nazariyasi orqali ilmiy asoslanadi. Flavell o‘quvchilarning o‘z fikrlash jarayonini kuzatishi, nazorat qilishi va baholashi samarali ta’limning muhim omili ekanligini ta’kidlaydi [7]. Shuningdek, ta’lim maqsadlarini kognitiv bosqichlar asosida tashkil etish Anderson va Krathwohl tomonidan takomillashtirilgan Bloom taksonomiyasi bilan izohlanadi [8].

Bundan tashqari, adaptiv ta’lim elementlari qo‘llanilgan sinflarda individual ta’lim trayektoriyasining samaradorligi yuqori bo‘lib, o‘quv natijalari an’anaviy yondashuvga nisbatan sezilarli darajada yaxshilangani kuzatildi. Ushbu natijalar K. VanLehn tomonidan intellektual o‘qitish tizimlari bo‘yicha olib borilgan meta-tahlil natijalari bilan hamohang bo‘lib, adaptiv o‘qitish tizimlari individual yondashuvni ta’minlash orqali o‘quvchilarning akademik natijalarini yaxshilashi ko‘rsatib berilgan [9].

NATIJA VA MUHOKAMA

Umuman olganda, so‘nggi yillarda olib borilgan xalqaro tadqiqotlar hamda mazkur tadqiqot natijalari raqamli didaktik modellar, multimedia texnologiyalari, adaptiv o‘qitish tizimlari va kompetensiyaviy yondashuv boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi. Olingan natijalar xalqaro ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan xulosalar bilan mos kelib, integrativ pedagogik modelni umumta’lim maktablari amaliyotiga joriy etishning ilmiy va amaliy jihatdan asosli ekanligini ko‘rsatadi [1]–[9].Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya sharoitida boshlang‘ich ta’limni modernizatsiya qilish jarayoni faqat raqamli

texnologiyalarni joriy etish yoki ta'limni texnik vositalar bilan ta'minlash bilan cheklanmaydi. Bu hodisa mohiyatan ta'lim tizimining didaktik paradigmasida chuqur strukturaviy o'zgarishni anglatadi. Ya'ni, an'anaviy bilim uzatishga asoslangan model o'rnini shaxsga yo'naltirilgan, konstruktivistik va kompetensiyaviy yondashuvlarga tayangan innovatsion ta'lim paradigmasi egallamoqda. Ushbu paradigma doirasida o'quvchi bilimni tayyor holda qabul qiluvchi obyekt emas, balki uni faol ravishda konstruksiya qiluvchi, tahlil etuvchi va refleksiv qayta ishlovchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Innovatsion didaktik model ta'lim jarayonini ko'p qatlamli, interaktiv va adaptiv tizim sifatida qayta tashkil etadi. Bunda multimodal taqdimot (audio, vizual, raqamli interaktiv resurslar), learning analytics asosidagi monitoring hamda sun'iy intellektga asoslangan adaptiv o'qitish mexanizmlari o'quv jarayonining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishini ta'minlaydi. Natijada o'quvchilarda nafaqat predmetga oid bilimlar, balki yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalar — tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, metakognitiv nazorat va kreativ yondashuvlar tizimli ravishda shakllanadi.

Biroq ushbu modelni amaliyotga samarali joriy etish jarayonida bir qator institutsional va pedagogik to'siqlar mavjudligi aniqlanadi. Xususan, o'qituvchilarning raqamli-pedagogik kompetensiyalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, ta'lim muassasalarida raqamli infratuzilmaning hududiy nomutanosibligi, shuningdek, zamonaviy didaktik va metodik resurslarning yetishmasligi tizimli muammolar sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayonida metodik integratsiya va pedagogik dizayn masalalarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi ham samaradorlikka ta'sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi.

Shu bois, innovatsion didaktik modelni samarali implementatsiya qilish faqat texnologik modernizatsiya emas, balki ta'lim tizimining barcha komponentlarini qamrab oluvchi kompleks strategik yondashuvni talab etadi. Bu yondashuv o'qituvchilarning

uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash, raqamli pedagogika bo'yicha institutsional salohiyatni oshirish, ta'lim infratuzilmasini standartlashtirish hamda ilmiy-metodik bazani tizimli rivojlantirishni o'z ichiga olishi lozim. Ana shundagina raqamli transformatsiya sharoitida boshlang'ich ta'limning sifat jihatdan yangi, barqaror va samarali modeli shakllanishi mumkin bo'ladi.

Raqamli transformatsiya sharoitida boshlang'ich ta'limning innovatsion didaktik modeli ta'lim sifatini tizimli ravishda oshirish, o'quvchilarning kognitiv hamda kreativ rivojlanish jarayonini barqaror ta'minlash, shuningdek, raqamli kompetensiyalarni shakllantirish va mustahkamlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur model ta'lim jarayonini faqat bilim berish tizimi sifatida emas, balki shaxsning intellektual salohiyatini kompleks rivojlantiruvchi, interaktiv va adaptiv pedagogik muhit sifatida talqin etish imkonini beradi.

Bundan tashqari, innovatsion didaktik yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarda mustaqil o'rganish, tanqidiy tahlil qilish hamda kreativ muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy ta'lim paradigmasida kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorligini yanada mustahkamlaydi.

XULOSA

Ta'lim tizimini yanada takomillashtirishda sun'iy intellektga asoslangan adaptiv ta'lim tizimlarini keng miqyosda joriy etish, learning analytics texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quv jarayonini real vaqt rejimida tahlil qilish va optimallashtirish hamda har bir o'quvchi uchun individual ta'lim trayektoriyalarini ishlab chiqish dolzarb strategik vazifa sifatida qaraladi. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalarni samarali integratsiya qilish pedagogik dizayn, metodik ta'minot va o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini uzluksiz rivojlantirish bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1] R. E. Mayer, *Multimedia Learning*, 2nd ed. New York, NY, USA: Cambridge University Press, 2009.

[2] R. E. Mayer (Ed.), *The Cambridge Handbook of Multimedia Learning*, 3rd ed. Cambridge, U.K.: Cambridge University Press, 2021.

[3] D. H. Jonassen, *Learning to Solve Problems: A Handbook for Designing Problem-Solving Learning Environments*. New York, NY, USA: Routledge, 2011.

[4] UNESCO, *Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education – A Tool on Whose Terms?* Paris, France: UNESCO Publishing, 2023.

[5] G. Siemens, *Knowing Knowledge*. Vancouver, Canada: Lulu Press, 2006. (Connectivism nazariyasining asosiy manbasi.)

[6] OECD, *Education at a Glance 2022: OECD Indicators*. Paris, France: OECD Publishing, 2022.

[7] J. H. Flavell, "Metacognition and Cognitive Monitoring: A New Area of Cognitive–Developmental Inquiry," *American Psychologist*, vol. 34, no. 10, pp. 906–911, 1979.

[8] L. W. Anderson and D. R. Krathwohl, *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives*. New York, NY, USA: Longman, 2001.

[9] K. VanLehn, "The Relative Effectiveness of Human Tutoring, Intelligent Tutoring Systems, and Other Tutoring Systems," *Educational Psychologist*, vol. 46, no. 4, pp. 197–221, 2011.

RAQAMLI PEDAGOGIKA SHAROITIDA BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INTEGRATIV MODELI

Karimova Gulchehra

Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli pedagogika sharoitida boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan integrativ modelning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, o'quvchilarning kognitiv faolligini rivojlantirish hamda o'qitish jarayonini individuallashtirish masalalari tahlil qilingan. Integrativ model boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini shakllantirishda fanlararo bog'liqlik, raqamli resurslar va interfaol metodlarni uyg'unlashtirishga asoslanadi.*

Shuningdek, maqolada raqamli ta'lim muhitida o'qituvchining roli, elektron ta'lim platformalari va multimedia vositalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Taklif etilayotgan model boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonini optimallashtirish hamda o'quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *raqamli pedagogika, boshlang'ich ta'lim, integrativ model, ta'lim texnologiyalari, interfaol metodlar, kompetensiya.*

ИНТЕГРАТИВНАЯ МОДЕЛЬ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В КОНТЕКСТЕ ЦИФРОВОЙ ПЕДАГОГИКИ

Аннотация: *В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы интегративной модели, направленной на повышение эффективности начального образования в условиях цифровой педагогики. Проанализированы вопросы эффективного использования цифровых технологий в современном образовательном процессе, развития когнитивной активности учащихся, а также индивидуализации процесса обучения. Интегративная модель основана на сочетании межпредметных связей, цифровых ресурсов и интерактивных методов в формировании знаний, умений и компетенций учащихся начальных классов.*

Ключевые слова: *цифровая педагогика, начальное образование, интегративная модель,* образовательные технологии, интерактивные методы, компетенция.

AN INTEGRATIVE MODEL OF INCREASING THE EFFICIENCY OF PRIMARY EDUCATION IN THE CONTEXT OF DIGITAL PEDAGOGY

Abstract*: This article examines the theoretical and practical foundations of an integrative model aimed at improving the effectiveness of primary education in the context of digital pedagogy. It analyzes the effective use of digital technologies in the modern educational process, the development of students' cognitive activity, and the individualization of instruction. The integrative model is based on combining*

interdisciplinary connections, digital resources, and interactive methods in the formation of knowledge, skills, and competencies of primary school students.

The article also considers the role of the teacher in the digital learning environment, as well as the didactic opportunities of using electronic learning platforms and multimedia tools. The proposed model contributes to improving the quality of primary education, optimizing the learning process, and developing students' independent thinking and creative abilities.

Keywords: *digital pedagogy, primary education, integrative model, educational technologies, interactive methods, competence.*

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonida ta'lim tizimi tubdan modernizatsiya qilinmoqda. Ta'limni raqamlashtirish nafaqat texnologik yangilanish, balki pedagogik paradigmaning o'zgarishi sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxsning intellektual, psixologik, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishida asosiy poydevor vazifasini bajaradi. Shu sababli ushbu bosqichda ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning kognitiv faolligini rivojlantirish, tanqidiy va ijodiy fikrlashini shakllantirish hamda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish bugungi kunning eng dolzarb ilmiy-pedagogik muammolaridan biri hisoblanadi. UNESCO va OECD xalqaro tashkilotlari ham 21-asr ta'limi uchun raqamli savodxonlik, moslashuvchanlik va mustaqil o'rganish kompetensiyalarini asosiy yo'nalishlar sifatida belgilab bermoqda.

Raqamli pedagogika sharoitida ta'lim jarayonini tashkil etish o'quvchini ta'lim markaziga qo'yish, uning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish, shaxsiy o'qish trayektoriyasini yaratish hamda interaktiv va adaptiv metodlardan keng foydalanish imkonini beradi. Bu jarayonda konstruktivistik yondashuv alohida ahamiyatga ega bo'lib, unga ko'ra bilim tayyor holda berilmaydi, balki o'quvchi tomonidan faol kognitiv faoliyat jarayonida mustaqil ravishda "quriladi". Shu nuqtayi nazardan, L.S. Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni ilmiy asosda tushuntirib beradi va scaffolding (qo'llab-quvvatlash) mexanizmini asoslaydi. J. Piagetning kognitiv rivojlanish bosqichlari esa

boshlang'ich sinf o'quvchilarining konkret-operatsion tafakkur bosqichida ekanini ko'rsatib, vizual, amaliy va o'yin asosidagi o'qitish metodlarining ustuvorligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR SHARXI

So'nggi yillarda ta'lim tizimida integrativ modelga asoslangan yondashuvlar o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishning samarali vositasi sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu modelning asosiy mohiyati fanlararo integratsiya, raqamli texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv va interfaol metodlarni yagona didaktik tizimga birlashtirishdan iborat. Zamonaviy tadqiqotlar integrativ yondashuv o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, kreativlik va muammoni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirishini tasdiqlaydi [1], [2].

Integrativ modelning nazariy asoslari J. Dewey tomonidan ishlab chiqilgan "Learning by Doing" konsepsiyasiga tayanadi. Deweyning fikricha, bilimlar amaliy faoliyat davomida samaraliroq o'zlashtiriladi va o'quvchi ta'lim jarayonining faol subyekti bo'lishi kerak [3].

Konstruktivistik yondashuvning zamonaviy talqinlari S. Papert va E. von Glasersfeld tomonidan rivojlantirilgan bo'lib, ular bilimning o'quvchi tomonidan mustaqil ravishda qurilishi g'oyasini ilgari suradilar. Ayniqsa, Papert kompyuter texnologiyalari yordamida ijodiy va algoritmik fikrlashni rivojlantirish mumkinligini ko'rsatgan, von Glasersfeld esa bilim individual tajriba asosida shakllanishini ta'kidlagan [4], [5].

Zamonaviy pedagogikada kompetensiyaviy yondashuv TIMSS va PISA kabi xalqaro baholash dasturlarining metodologik asosini tashkil etadi. Ushbu yondashuv bilimlarni yod olish emas, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash, tahlil qilish va baholash kompetensiyalarini rivojlantirishni nazarda tutadi [1], [2].

Bloom taksonomiyasi ta'lim maqsadlarini kognitiv darajalar bo'yicha tizimlashtirishga xizmat qiladi. Keyinchalik Anderson va Krathwohl tomonidan

takomillashtirilgan model yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini – tahlil qilish, baholash va yaratishni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi [1], [2].

Raqamli pedagogika rivojlanishi natijasida LMS platformalari, virtual laboratoriyalar va sun'iy intellekt asosidagi adaptiv ta'lim tizimlari keng qo'llanila boshladi. Mayerning multimedia o'qitish nazariyasiga ko'ra, matn, grafik va audio axborotning uyg'un qo'llanilishi o'quvchilarning kognitiv yuklamasini kamaytirib, bilimlarni uzoq muddatli xotirada saqlashga yordam beradi [6].

Integrativ modelda gamifikatsiya elementlaridan foydalanish o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, faol ishtirokini ta'minlaydi va reflektiv fikrlashni rivojlantiradi. Shu bilan birga, STEAM yondashuvi fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani yagona tizim sifatida o'qitishni nazarda tutadi hamda kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi [6], [9].

Integrativ modelning metodologik tamoyillari XXI asr kompetensiyalari – 4C modeli (Critical Thinking, Creativity, Communication, Collaboration) bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'quvchilarning global kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi [9].

D. Ausubelning "Meaningful Learning" nazariyasiga ko'ra, yangi bilimlar mavjud bilimlar tizimi bilan bog'langan taqdirdagina samarali o'zlashtiriladi. Shu sababli integrativ modelda yangi mavzular fanlararo bog'liqlik va amaliy vaziyatlar orqali tushuntiriladi [7].

Gardnerning ko'p intellektlar nazariyasi integrativ ta'lim modelining individual yondashuvini ilmiy jihatdan asoslaydi. Turli pedagogik metodlar va raqamli vositalardan foydalanish o'quvchilarning lingvistik, mantiqiy, vizual va kinestetik intellektlarini birgalikda rivojlantirish imkonini beradi [8].

NATIJA VA MUHOKAMA

Mazkur tadqiqot natijalari integrativ pedagogik modelni qo‘llash o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish, mustaqil qaror qabul qilish hamda fanlararo bilimlarni qo‘llash kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ekanligini ko‘rsatdi. Olingan natijalar xalqaro ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan xulosalar bilan umumiy jihatdan mos keladi. Xususan, aralash (blended) ta'lim bo‘yicha o'tkazilgan tizimli sharhda blended learning modeli talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini an'anaviy o‘qitishga nisbatan samaraliroq rivojlantirishi ko‘rsatilgan. Bizning tadqiqotimizda ham raqamli resurslar va auditoriya mashg‘ulotlarini uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning analitik fikrlashi hamda muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini kuchaytirgani kuzatildi.

Tadqiqot davomida qo‘llanilgan integrativ modelning asosiy afzalligi fanlararo integratsiya va kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta'limni yagona metodik tizimga birlashtirishdan iborat bo‘ldi. Bu natija raqamli pedagogika bo‘yicha zamonaviy sharhlarda ta'kidlangan student-centered learning konsepsiyasi bilan uyg‘unlashadi. Ushbu tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar o‘quvchini bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol yaratuvchi subyektga aylantirishi qayd etilgan. Bizning natijalarimiz ham loyiha ishlari, interfaol topshiriqlar va raqamli platformalardan foydalanish o‘quvchilarning darsdagi faolligini hamda o‘zlashtirish darajasini oshirganligini ko‘rsatdi.

TIMSS konsepsiyasi o‘quvchilarning faktlarni yod olishini emas, balki bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash kompetensiyasini baholashga qaratilgan. Mazkur tadqiqotda ishlab chiqilgan integrativ model aynan ushbu talablarni hisobga olgan holda loyihalashtirilgan bo‘lib, natijada tajriba guruhi o‘quvchilari matnli masalalar, grafik va diagrammalarni tahlil qilish hamda amaliy vaziyatlarni yechishda yuqoriroq natijalarni namoyish etdilar. Bu holat TIMSS metodologiyasining kompetensiyaviy yondashuvi bilan mos keladi va integrativ modelning xalqaro baholash standartlariga mosligini tasdiqlaydi. Shuningdek, tadqiqot davomida STEAM elementlari va loyiha asosida o‘qitish metodlaridan foydalanish o‘quvchilarning kreativ fikrlashi va fanlararo bog‘liqlikni anglashiga ijobiy ta'sir ko‘rsatdi. So‘nggi yillarda Scopus bazasida chop etilgan bibliometrik va tizimli sharhlar ham Discovery Learning hamda STEAM

yondashuvlarining tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi muhim rolini qayd etadi. Bizning tadqiqotimiz ushbu xulosalarni boshlang‘ich ta'lim darajasida ham tasdiqlaydi.

Natijalar shuningdek o‘qituvchining roli sezilarli darajada transformatsiyalanayotganini ko‘rsatdi. Integrativ modelda o‘qituvchi faqat axborot beruvchi emas, balki fasilitator, mentor va o‘quv faoliyatini boshqaruvchi sifatida ishtirok etdi. Bu holat raqamli pedagogik amaliyotlar bo‘yicha xalqaro sharhlarda keltirilgan xulosalar bilan hamohang bo‘lib, zamonaviy ta'limda o‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quvchini mustaqil bilim qurishga yo‘naltirish ekanligi ta'kidlangan.

Bundan tashqari, tadqiqot davomida o‘quvchilarning motivatsiyasi va darsdagi faolligi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Bu natija blended learning samaradorligini tahlil qilgan meta-tahlil natijalari bilan mos keladi. Mazkur meta-tahlilda turli mamlakatlarda blended learning o‘quvchilarning akademik natijalari, darsdagi ishtiroki va ta'limga bo‘lgan munosabatini ijobiy o‘zgartirishi qayd etilgan. Bizning tajribamizda ham raqamli platformalar va interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning o‘qishga qiziqishini oshirdi hamda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirdi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida ayrim cheklovlar ham aniqlandi. Jumladan, barcha maktablarda raqamli infratuzilmaning bir xil darajada rivojlanmagani, internet tezligining yetarli emasligi, elektron ta'lim resurslarining cheklanganligi hamda ayrim o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarida farqlar mavjudligi kuzatildi. Ushbu muammolar xalqaro tadqiqotlarda ham qayd etilgan bo‘lib, raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyati nafaqat texnologik vositalarga, balki pedagoglarning raqamli savodxonligi va metodik tayyorgarligiga ham bevosita bog‘liqligi ta'kidlangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, integrativ model faqat akademik ko‘rsatkichlarni oshirish bilan cheklanmay, balki XXI asr kompetensiyalarini – tanqidiy fikrlash, kreativlik, hamkorlik va kommunikativ ko‘nikmalarni ham rivojlantirishga xizmat qiladi. So‘nggi ilmiy sharhlarda ham raqamli muhitda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun muammoli topshiriqlar, muloqotga asoslangan ta'lim va elektron

hamkorlik platformalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bizning tadqiqotimiz ushbu tavsiyalarni amaliy jihatdan tasdiqladi va boshlang'ich sinf o'quvchilarida ham samarali qo'llash mumkinligini ko'rsatdi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, raqamli pedagogika sharoitida integrativ model boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda ilmiy jihatdan asoslangan, amaliy jihatdan esa samarali innovatsion yondashuv hisoblanadi. Ushbu model Vygotskiy, Piaget, Dewey, Bloom, Mayer va Gardner kabi olimlarning nazariy qarashlariga tayangan holda ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu modelni sun'iy intellekt, adaptiv ta'lim tizimlari va smart texnologiyalar bilan integratsiya qilish ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

[1] D. R. Krathwohl, "A Revision of Bloom's Taxonomy: An Overview," *Theory Into Practice*, vol. 41, no. 4, pp. 212–218, 2002.

[2] L. W. Anderson and D. R. Krathwohl, *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives*. New York, NY, USA: Longman, 2001.

[3] J. Dewey, *Experience and Education*. New York, NY, USA: Macmillan, 1938.

[4] S. Papert, *Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas*. New York, NY, USA: Basic Books, 1980.

[5] E. von Glasersfeld, *Radical Constructivism: A Way of Knowing and Learning*. London, U.K.: Falmer Press, 1995.

[6] R. E. Mayer, *The Cambridge Handbook of Multimedia Learning*, 2nd ed. Cambridge, U.K.: Cambridge University Press, 2014.

[7] D. P. Ausubel, *Educational Psychology: A Cognitive View*. New York, NY, USA: Holt, Rinehart and Winston, 1968.

[8] H. Gardner, *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. New York, NY, USA: Basic Books, 1983.

[9] J. Hattie, *Visible Learning*. London, U.K.: Routledge, 2009.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

MANTIQIY VA TANQIDIY FIKRLASHGA O‘‘RGATISH - O‘QUVCHILARNI XALQARO TADQIQOTLARGA TAYYORLASH

Qo‘chqorov Mirzavali
Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi o‘qituvchisi
Discorduchun9@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda ularni TIMSS xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashning pedagogik asoslari yoritilgan. Tadqiqot davomida 4-sinf o‘quvchilarining matematik va tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligini oshirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil fikrlash va amaliy topshiriqlarni bajarish kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilindi. Shuningdek, TIMSS topshiriqlari asosida tashkil etilgan dars mashg‘ulotlarining samaradorligi o‘rganildi. Natijalar o‘quvchilarning mantiqiy tafakkuri va xalqaro baholash topshiriqlarini bajarish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlanganligini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *TIMSS, xalqaro baholash, mantiqiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, boshlang‘ich ta’lim, 4-sinf, matematik savodxonlik, tabiiy fanlar, kompetensiyaviy yondashuv.*

ОБУЧЕНИЕ ЛОГИЧЕСКОМУ И КРИТИЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ — ПОДГОТОВКА СТУДЕНТОВ К МЕЖДУНАРОДНЫМ ИССЛЕДОВАНИЯМ

Аннотация. *В данной научной статье рассматриваются вопросы формирования логического и критического мышления у учащихся 4-х классов, а также подготовки их к международным исследованиям TIMSS. В исследовании анализируются методы развития математической и естественнонаучной грамотности младших школьников, навыков анализа, самостоятельного мышления и решения практических задач. Особое внимание уделяется эффективности заданий, разработанных на основе международных оценочных программ. Результаты исследования показали, что систематическая подготовка способствует развитию мыслительных способностей учащихся и повышению качества образования.*

Ключевые слова: *TIMSS, международные исследования, логическое мышление, критическое мышление, начальное образование, 4 класс, математическая грамотность, естественные науки, компетентностный подход.*

TEACHING LOGICAL AND CRITICAL THINKING - PREPARING STUDENTS FOR INTERNATIONAL RESEARCH

Annotation. *This scientific article discusses the development of logical and critical thinking skills among 4th-grade students and their preparation for international TIMSS assessments. The study analyzes methods for improving mathematical and scientific literacy, independent thinking, analytical abilities, and*

practical problem-solving skills in primary school students. Particular attention is paid to the effectiveness of tasks based on international assessment programs. The results show that systematic preparation significantly improves students' thinking abilities and the quality of education.

Keywords: *TIMSS, international assessment, logical thinking, critical thinking, primary education, 4th grade, mathematical literacy, science education, competency-based approach.*

KIRISH

PISA – turli davlatlarda 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligi hamda bilimini amaliyotda qo‘llash qobiliyatini baholovchi dastur bo‘lib, u har uch yilda bir marta o‘tkaziladi. PISA dasturi ilk marta 2000-yil o‘quvchi-yoshlar o‘rtasida qo‘llangan. Mamlakatimiz ham ishtirok etishga tayyorgarlik ko‘rayotgan, 2021-yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan galdagi sinovlar pandemiya munosabati bilan 2022-yilda amalga oshiriladigan bo‘ldi [1]. PISA dastiriga qatnashishdan maqsad yurtimizda testlarni o‘tkazish emas, balki farzandlarimizda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish, intelllektual kadrlarni tayyorlash uchun zamin hozirlashdir. Ma’lumki, ona tili ta’limining bosh maqsadi og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmasi, to‘g‘ri va ifodali fikrlash malakasini tarkib toptirish, o‘quvchilarni imlo va uslubiy jihatdan savodxon qilishdan iborat. Ona tili darslarida og‘zaki hamda yozma nutq ko‘nikmasini shakllantirish ancha murakkab jarayon bo‘lib, unda savodxonlik, ijodiylik, fikrni aniq, qisqa va tushunarli tarzda bayon eta olish muhim hisoblanadi. Yozma nutq savodxonligi o‘quvchidan o‘z fikr-qarashlarini tilning imloviy-grammatik qoidalari, adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda ifodalashni talab etadi. Og‘zaki nutqda esa bolaning fikrlash qobiliyati, tafakkuri, dunyoqarashi, ohangni o‘z o‘rnida qo‘llashi juda muhim [2,3]. Demak, biz o‘quvchi-yoshlarda mana shu ko‘nikmalarni shakllantirish uchun ularni matn bilan ishlashga o‘rgatmog‘imiz lozim. Zero, PISA xalqaro tadqiqotining o‘qish savodxonligi yo‘nalishida ham matnlar asosida tuzilgan test savollari ustida ish olib boriladi. Xo‘sh, o‘qish savodxonligi qanday tushuncha o‘zi? O‘qish savodxonligi – insonning matnni tushunish va undan foydalana olish qobiliyati, bilim va imkoniyatlarini kengaytirishi, o‘z masqadiga erishish uchun ijtimoiy hayotda

munosib ishtirok etishi. O‘qish-bu shunchaki harflarni qo‘shib so‘z hosil qilish yoki ovoz chiqarib mutolaa qilish emas, balki matn bilan chuqur ishlab, undan ma’no keltirib chiqarishdir. O‘qish savodxonligida o‘quvchilar matndan axborotni toppish va ajratib olish, sharhlash, matndan tashqari bilimlarga tayanish, tushunish hamda baholash, matn mazmunini anglash kabi ko‘nikmalarni hosil qiladi. Umuman olganda, o‘qish savodxonligi keng qamrovli tushuncha bo‘lib, puxta tekshirishlar asosida maqsadga yo‘naltirishni anglatadi [4].

Bugungi globallashuv jarayonida ta’lim sifati va samaradorligini xalqaro mezonlar asosida baholash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro tadqiqotlar, xususan TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) o‘quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilim darajasini aniqlash bilan birga, ularning mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ham baholaydi.

O‘zbekistonning xalqaro baholash dasturlarida ishtiroki milliy ta’lim tizimini takomillashtirish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda o‘quvchilarning zamonaviy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muammoni yechish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir.

4-sinf o‘quvchilari TIMSS tadqiqotlarining asosiy ishtirokchilari hisoblanadi. Shu sababli ularni xalqaro baholash talablariga mos ravishda tayyorlash, dars jarayoniga mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlarni keng joriy etish muhim ahamiyatga ega.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot umumta’lim maktablarining 4-sinf o‘quvchilari ishtirokida amalga oshirildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi o‘quvchilarning TIMSS xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik darajasini aniqlash hamda mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali metodlarini ishlab chiqishdan iborat bo‘ldi [5].

Tadqiqot jarayonida pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borilib, o‘quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilim, ko‘nikma hamda kompetensiyalari tahlil qilindi. Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi [6]:

-pedagogik kuzatish metodi — o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligi, mustaqil fikrlashi va topshiriqlarni bajarish jarayoni monitoring qilindi;

-test sinovlari — TIMSS formatidagi topshiriqlar asosida o‘quvchilarning bilim darajasi baholandi;

-so‘rovnoma usuli — o‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishi, motivatsiyasi va o‘qishga munosabati o‘rganildi;

-taqqoslash va statistik tahlil metodlari — tajriba va nazorat guruhlari natijalari o‘zaro solishtirildi hamda samaradorlik darajasi aniqlandi.

Tadqiqot davomida tajriba va nazorat guruhlari tashkil etildi. Tajriba guruhidagi o‘quvchilar bilan TIMSS talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan maxsus metodik mashg‘ulotlar olib borildi. Ushbu mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda interfaol metodlardan foydalanildi. Jumladan:

-muammoli vaziyatlar yaratish orqali o‘quvchilarning mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish [6,7];

-grafik, diagramma va jadvallar bilan ishlash orqali ma’lumotlarni tahlil qilish malakasini shakllantirish;

-matnli va hayotiy masalalarni yechish orqali amaliy fikrlashni rivojlantirish;

-guruhli muhokamalar va debatlar tashkil etish orqali kommunikativ kompetensiyalarni mustahkamlash;

-amaliy tajribalar o‘tkazish orqali tabiiy fanlarga oid bilimlarni hayot bilan bog‘lash;

-interfaol o‘yinlar va STEAM elementlari asosida darslarni tashkil etish orqali o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshirish.

Nazorat guruhida esa an'anaviy o'qitish usullari asosida dars mashg'ulotlari davom ettirildi. Tadqiqot bir necha bosqichda olib borilib, har bir bosqich yakunida diagnostik testlar orqali o'quvchilarning rivojlanish dinamikasi baholab borildi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari tajriba guruhidagi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarida sezilarli ijobiy o'zgarishlar yuz berganligini ko'rsatdi. Xususan, o'quvchilarda:

-mantiqiy fikrlash va tahlil qilish;

-tanqidiy yondashuv asosida xulosa chiqarish;

-muammoli vaziyatlarni hal etish;

-matematik va tabiiy fanlarga oid topshiriqlarni amaliy qo'llash;

-grafik, diagramma va jadvallar bilan ishlash;

-ma'lumotlarni taqqoslash va umumlashtirish;

-mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllanganligi aniqlandi.

TIMSS uslubidagi topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni eslab qolish, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini ham namoyon etdilar. Tajriba guruhi o'quvchilari murakkab topshiriqlarni bajarishda yuqori faollik va mustaqillik ko'rsatdilar.

Test natijalarining statistik tahlili tajriba guruhi o'quvchilarining o'zlashtirish darajasi nazorat guruhiga nisbatan o'rtacha 25–30 foiz yuqori ekanligini ko'rsatdi. Ayniqsa, matnli masalalarni tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish va amaliy topshiriqlarni bajarish bo'yicha yuqori natijalarga erishildi.

Shuningdek, o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishi va dars jarayonidagi faolligi oshgani kuzatildi. O'qituvchilarning fikriga ko'ra, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning erkin fikrlashi va ijodkorligini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

MUHOKAMA

Olingan natijalar TIMSS xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash jarayoni faqat test topshiriqlarini ishlash bilan chegaralanib qolmasligi kerakligini ko‘rsatdi. Asosiy e’tibor o‘quvchilarning fikrlash madaniyatini rivojlantirish, muammolarni mustaqil hal etish hamda bilimlarni amaliyotda qo‘llash kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilishi lozim.

TIMSS topshiriqlari o‘quvchilardan tayyor bilimlarni takrorlashni emas, balki tahlil qilish, solishtirish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash va mantiqiy xulosa chiqarishni talab qiladi. Shu sababli zamonaviy ta’lim jarayonida quyidagi yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi:

-kompetensiyaviy yondashuv;

-interfaol va innovatsion metodlar;

-integrativ ta’lim texnologiyalari;

-STEAM ta’lim elementlari;

-muammoli ta’lim;

-tanqidiy fikrlash strategiyalari.

Mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga asoslangan ta’lim o‘quvchilarning nafaqat xalqaro baholash dasturlaridagi natijalarini yaxshilaydi, balki ularning kundalik hayotda uchraydigan muammolarni hal qilish, to‘g‘ri qaror qabul qilish va ijtimoiy moslashuvchanlik kompetensiyalarini ham rivojlantiradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini oshirish, TIMSS formatidagi topshiriqlar bilan muntazam ishlash hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni darslarga keng joriy etish zarurligini ko‘rsatdi.

XULOSA

4-sinf o‘quvchilarini TIMSS xalqaro tadqiqotlariga tayyorlash ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mantiqiy va tanqidiy fikrlashga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlar o‘quvchilarning matematika va tabiiy fanlar

bo'yicha savodxonligini rivojlantiradi, mustaqil fikrlash hamda amaliy muammolarni hal qilish kompetensiyalarini shakllantiradi.

Ilmiy asosda tashkil etilgan tayyorgarlik jarayoni o'quvchilarning xalqaro baholash natijalarini yaxshilash bilan birga, ularning ijodiy va analitik tafakkurini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari TIMSS talablariga mos innovatsion pedagogik texnologiyalarni boshlang'ich ta'lim jarayoniga keng joriy etish zarurligini tasdiqlaydi.

Kelgusida boshlang'ich ta'lim tizimida xalqaro baholash mezonlari asosida metodik qo'llanmalar yaratish, o'qituvchilarning malakasini oshirish hamda raqamli ta'lim resurslaridan samarali foydalanish muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi rasmiy veb-sayti — www.markaz.tdi.uz
2.Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash: metodik qo'llanma. – Toshkent, 2019.
3.OECD. PISA for Development Assessment and Analytical Framework: Reading, Mathematics and Science. – Paris: OECD Publishing, 2018.
4.TIMSS xalqaro koordinatsion markazi rasmiy sayti — TIMSS 2015 International Study Center
5.A.B. Radjiyev, A.A. Ismailov, J.R. Narziyev, X.P. Tog'ayeva. O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi: qo'llanma. – Toshkent, 2019.

IMMERSIV TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA TALABALARNING TANQIDIY TARIXIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

J.A.Yuldashev
Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti,
pedagogika fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya *Mazkur maqolada immersiv texnologiyalar (Virtual Reality – VR, Augmented Reality – AR va Mixed Reality – MR) vositasida oliy ta'lim muassasalari talabalarining tanqidiy tarixiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari hamda metodik modeli tahlil qilingan. Tarix ta'limida immersiv muhitni tashkil etish talabalarning tarixiy voqea-hodisalarni ko'p manbali tahlil qilish, sabab-oqibat bog'liqligini aniqlash, tarixiy dalillarni tanqidiy baholash va tarixiy empatiyani shakllantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida immersiv texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan metodika talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi aniqlangan*

Kalit so'zlar: *immersiv texnologiyalar, virtual reallik, kengaytirilgan reallik, tanqidiy tarixiy tafakkur, tarix ta'limi, raqamli pedagogika, tarixiy empatiya.*

МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО ИСТОРИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ С ПОМОЩЬЮ ИМЕРСИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация *В данной статье проанализированы педагогические возможности и методическая модель развития критического исторического мышления студентов высших образовательных учреждений посредством иммерсивных технологий (Virtual Reality – VR, Augmented Reality – AR и Mixed Reality – MR). Обосновано, что организация иммерсивной образовательной среды в процессе преподавания истории способствует многоисточниковому анализу исторических событий и процессов, выявлению причинно-следственных связей, критической оценке исторических фактов и формированию исторической эмпатии. Результаты исследования показали, что разработанная на основе иммерсивных технологий методика является эффективным средством развития исторического мышления студентов.*

Ключевые слова: *иммерсивные технологии, виртуальная реальность, дополненная реальность, критическое историческое мышление, историческое образование, цифровая педагогика, историческая эмпатия.*

METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL HISTORICAL THINKING THROUGH IMMERSIVE TECHNOLOGIES

Abstract *This article examines the pedagogical potential and methodological model for developing university students' critical historical thinking through immersive technologies, including Virtual Reality (VR), Augmented Reality (AR), and Mixed Reality (MR). It substantiates that the integration of an immersive learning environment into history education promotes multi-source analysis of historical events,*

identification of cause-and-effect relationships, critical evaluation of historical evidence, and the development of historical empathy. The findings of the study demonstrate that the methodology developed on the basis of immersive technologies serves as an effective tool for enhancing students' historical thinking.

Keywords: *immersive technologies, virtual reality, augmented reality, critical historical thinking, history education, digital pedagogy, historical empathy.*

KIRISH

Globallashuv, raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi oliy ta'lim tizimi oldiga tarix fanini o'qitishning mazmuni va metodikasini zamonaviy talablar asosida qayta ko'rib chiqish vazifasini qo'ymoqda. XXI asr kompetensiyalari qatorida tanqidiy fikrlash, murakkab muammolarni tahlil qilish, dalillarga asoslangan qaror qabul qilish hamda axborotning ishonchliligini baholash kabi ko'nikmalar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur kompetensiyalar orasida tarix ta'limi nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega bo'lgan tanqidiy tarixiy tafakkur talabalarning tarixiy voqea va jarayonlarni ilmiy asosda anglash, tarixiy manbalarni tahlil qilish, turli qarashlarni qiyoslash va asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyatini shakllantiradi. Bugungi axborot makonida tarixga oid ma'lumotlarning ko'payishi, ularning turli mafkuraviy va siyosiy talqinlarda taqdim etilishi talabalardan tarixiy axborotni tanqidiy tahlil qilishni, tarixiy fakt bilan subyektiv talqinni farqlashni hamda tarixiy haqiqatni ishonchli manbalar asosida aniqlashni talab etmoqda. Shu jihatdan tarix ta'limining asosiy maqsadi tarixiy bilimlarni uzatish bilangina cheklanmay, balki talabalarda tarixiy manbalar bilan ishlash, dalillarni baholash, sabab–oqibat bog'liqliklarini aniqlash, tarixiy qarorlarning oqibatlarini tahlil qilish va tarixiy hodisalarga ilmiy yondashuvni shakllantirishdan iboratdir. An'anaviy tarix darslarida ma'ruza, matn va tasviriy materiallardan foydalanish tarixiy tafakkurning ayrim komponentlarini rivojlantirish imkonini bersa-da, tarixiy voqealarni real makon va zamon kontekstida tasavvur qilish, tarixiy muhitni his etish hamda murakkab tarixiy vaziyatlarni ko'p qirrali tahlil qilish imkoniyatlari cheklangan. Natijada talabalarning o'quv faoliyatida reproduktiv o'zlashtirish ustunlik qilishi, tarixiy voqea va

hodisalarning mazmunini chuqur anglash hamda ularga nisbatan tanqidiy munosabat bildirish darajasi yetarlicha shakllanmasligi kuzatiladi. Bu esa tarix ta'limida innovatsion pedagogik yondashuvlar va zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo'llash zaruratini kuchaytiradi. So'nggi yillarda Virtual Reality (VR), Augmented Reality (AR) va Mixed Reality (MR) kabi immersiv texnologiyalar ta'lim jarayonini tashkil etishda samarali vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur texnologiyalar o'quvchini sun'iy yaratilgan yoki real muhit bilan integratsiyalashgan interaktiv makonga olib kirish orqali uning bilish faoliyatini faollashtiradi, murakkab hodisalarni vizual idrok etish imkoniyatini kengaytiradi hamda tajribaga asoslangan o'qitish modelini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tarix ta'limida immersiv texnologiyalar tarixiy obidalar, arxeologik yodgorliklar, qadimiy shaharlar, muzeylar va tarixiy voqealarni uch o'lchamli formatda rekonstruksiya qilish, virtual ekskursiyalar tashkil etish hamda tarixiy jarayonlarni interaktiv tarzda modellashtirish imkonini yaratadi. Natijada talabalar tarixiy voqea va hodisalarni faqat matn orqali emas, balki vizual, emotsional va interaktiv tajriba orqali o'zlashtiradilar. Immersiv o'quv muhiti konstruktivistik, tajribaviy (experiential learning), situatsion va inquiry-based learning yondashuvlari bilan uyg'unlashgan holda talabalarning faol bilish faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi. Talaba virtual tarixiy muhitda turli tarixiy manbalarni o'rganadi, ularni o'zaro taqqoslaydi, tarixiy vaziyatni tahlil qiladi, muqobil qarorlar ishlab chiqadi va o'z xulosalarini ilmiy dalillar asosida himoya qiladi. Bunday faoliyat tarixiy tafakkurning muhim tarkibiy qismlari bo'lgan tarixiy dalillardan foydalanish, sabab–oqibat bog'liqliklarini aniqlash, tarixiy ahamiyatni baholash, davomiylik va o'zgarishlarni tahlil qilish, tarixiy empatiya hamda tarixiy interpretatsiya ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.Jahon pedagogik tadqiqotlarida immersiv texnologiyalarning ta'lim samaradorligiga ta'siri, talabalarning motivatsiyasi, fazoviy tasavvuri va o'quv faolligini oshirishdagi imkoniyatlari keng o'rganilgan. Shuningdek, tarixiy tafakkur konsepsiyasi ham tarix didaktikasining muhim

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ilmiy yo‘nalishlaridan biri sifatida rivojlanmoqda. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyati immersiv texnologiyalarning texnik imkoniyatlari yoki umumiy pedagogik samaradorligiga qaratilgan bo‘lib, ularni aynan talabalarning tanqidiy tarixiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etish yetarli darajada yoritilmagan. Ayniqsa, tarixiy manbalarni tanqidiy tahlil qilish, tarixiy argumentatsiyani shakllantirish va immersiv ta’lim muhiti o‘rtasidagi metodik bog‘liqlikni ochib beruvchi ilmiy ishlanmalar cheklangan. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida raqamli ta’limni rivojlantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va bo‘lajak pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, tarix ta’limida immersiv texnologiyalarni qo‘llash nafaqat o‘qitish samaradorligini oshirish, balki talabalarning tarixiy tafakkuri, tanqidiy fikrlashi va ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning muhim pedagogik omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi tarix ta’limida immersiv texnologiyalarning didaktik imkoniyatlarini ilmiy asoslash, ularning talabalarning tanqidiy tarixiy tafakkurini rivojlantirishdagi pedagogik mexanizmlarini aniqlash hamda ushbu jarayonni samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi metodikani ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari tarix fanlarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish, raqamli tarix ta’limini rivojlantirish va bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini yuksaltirishga ilmiy-amaliy hissa qo‘shishi kutiladi

ADABIYOTLAR TAHLILI

Immersiv texnologiyalar vositasida talabalarning tanqidiy tarixiy tafakkurini rivojlantirish muammosi pedagogika, tarix didaktikasi, kognitiv psixologiya hamda raqamli ta'lim yo‘nalishlarining kesishgan nuqtasida shakllangan kompleks ilmiy yo‘nalish hisoblanadi. Mazkur muammoning nazariy va metodologik asoslari xorijiy hamda o‘zbek olimlarining tadqiqotlarida turli nuqtayi nazardan yoritilgan. Tarixiy tafakkur nazariyasining shakllanishida **Sam Wineburg** alohida o‘rin tutadi. Olim tarixiy

tafakkurni oddiy tarixiy bilimlardan farqlab, tarixiy manbalarni ilmiy tahlil qilish jarayoni sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, tarixni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar va talabalar uchta asosiy intellektual amaliyotni egallashlari zarur: manbaning kelib chiqishini aniqlash (sourcing), tarixiy kontekstni hisobga olish (contextualization) va turli manbalarni o‘zaro taqqoslash (corroboration). Ushbu yondashuv tarixiy ma'lumotlarni tanqidiy baholash, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish hamda tarixiy manipulyatsiyalarni aniqlash imkonini beradi. Peter Seixas va Tom Morton tomonidan ishlab chiqilgan “The Big Six Historical Thinking Concepts” konsepsiyasi zamonaviy tarix ta'limining eng muhim nazariy asoslaridan biri hisoblanadi. Mualliflar tarixiy tafakkurni oltita tarkibiy komponent: tarixiy ahamiyat (Historical Significance), dalillardan foydalanish (Evidence), davomiylik va o‘zgarish (Continuity and Change), sabab va oqibat (Cause and Consequence), tarixiy istiqbollar (Historical Perspectives) hamda tarixning axloqiy o‘lchovi (Ethical Dimension) orqali tavsiflaydilar. Mazkur model tarix fanini faktlarni yodlash emas, balki tarixiy muammolarni ilmiy tahlil qilish vositasi sifatida o‘qitishni nazarda tutadi.Tarixiy tafakkurning psixologik mexanizmlari hamda tarixiy bilimni shakllantirish jarayonlari Peter Stearns, Sam Wineburg **va** Peter Seixas tahriri ostida chop etilgan. *Knowing, Teaching and Learning History* asarida keng yoritilgan. Unda tarixiy tafakkurning shakllanishi konstruktivistik ta'lim nazariyasi bilan uzviy bog‘liq ekani hamda tarixiy bilim o‘quvchining faol intellektual faoliyati mahsuli sifatida qaralishi asoslab berilgan.Immersiv texnologiyalarni ta'limga integratsiyalash masalalari bo‘yicha **Makransky va Petersen** tomonidan ishlab chiqilgan **Cognitive Affective Model of Immersive Learning (CAMIL)** modeli alohida ahamiyatga ega.Ushbu modelga ko‘ra, VR va AR muhitlari talabalarning kognitiv faolligi, motivatsiyasi, emotsional ishtiroki va bilimlarni uzoq muddatli o‘zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Biroq immersiv muhitdan samarali foydalanish pedagogik loyihalash, refleksiya va o‘quv topshiriqlarining ilmiy asoslangan tashkil etilishiga bog‘liq.**Merchant, Goetz, Cifuentes** va hammualliflar tomonidan amalga oshirilgan

meta-tahlil natijalari virtual reallik texnologiyalaridan foydalanish an'anaviy o‘qitishga nisbatan yuqori o‘quv natijalarini ta'minlashini ko‘rsatadi. Tadqiqotchilar VR texnologiyalari ayniqsa fazoviy tasavvur, murakkab jarayonlarni tushunish va talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshirishda samarali ekanligini ta'kidlaydilar. So‘nggi yillarda tarix ta'limida immersiv texnologiyalardan foydalanishga bag‘ishlangan tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Jumladan, **Athina Papadopoulou** Extended Reality (XR) texnologiyalarini tarixshunoslikning yangi epistemologik modeli sifatida baholab, immersiv muhit tarixiy bilimni passiv qabul qilish emas, balki tarixiy haqiqatni tanqidiy qayta qurish jarayoniga aylantirishini asoslaydi. Muallif immersiv muhit tarixiy empatiyani rivojlantirishi bilan birga, tarixiy fakt va virtual rekonstruksiya o‘rtasidagi chegarani anglashni ham talab etishini ta'kidlaydi.

Rossiyalik olim **D.A. Gorskov** VR va AR texnologiyalarining tarixiy tafakkurni rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlarini tadqiq etib, tarixiy tafakkur komponentlari bilan immersiv texnologiyalar funksiyalarini bog‘lovchi didaktik matritsani ishlab chiqqan. Muallif tarixiy manbalar bilan ishlash, tarixiy empatiya va sabab–oqibat aloqalarini tushuntirish immersiv muhitda ancha samarali shakllanishini qayd etadi. O‘zbekiston olimlari orasida tarix ta'limining metodologik asoslarini rivojlantirish bo‘yicha **Tulanboy Xakimov**ning tadqiqotlari e'tiborga loyiqdir. Muallif tarix ta'limida narrativ pedagogika, germenevtik yondashuv va aksiologik tamoyillarni uyg‘unlashtirish orqali tarixiy ong, tarixiy empatiya va ko‘p nuqtayi nazardan fikrlashni rivojlantirish zarurligini asoslaydi. Uning tadqiqotlarida Wineburg, Seixas va Rüsen nazariyalari tarix ta'limiga moslashtirilgan. Immersiv texnologiyalarni O‘zbekiston oliy ta'lim tizimida qo‘llash masalalari **G.S. Ergasheva** tomonidan biologiya ta'limi misolida tadqiq etilgan. Muallif VR, AR va MR texnologiyalarini konstruktivistik yondashuv asosida o‘quv jarayoniga integratsiyalash metodikasini ishlab chiqib, immersiv ta'limning bosqichlari sifatida tayyorgarlik, immersiv tajriba, hamkorlikdagi

tahlil va refleksiya bosqichlarini taklif etgan. Mazkur metodik model tarix ta'limiga ham moslashtirilishi mumkin.

Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha **Lobar Xujanova** innovatsion metodlar, loyiha asosida o‘qitish, raqamli simulyatsiyalar va immersiv vositalar tarix o‘qituvchilarining didaktik kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantirishini ilmiy asoslagan.Tarixiy tafakkurni birlamchi manbalar asosida rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan eksperimental tadqiqotlarda ham Wineburg va Seixas konsepsiyalarining samaradorligi tasdiqlangan. Tadqiqot natijalari tarixiy manbalar bilan tizimli ishlash o‘quvchilarning tanqidiy tahlil, tarixiy argumentatsiya va tarixiy interpretatsiya ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarda immersiv texnologiyalar, tarixiy tafakkur va tanqidiy fikrlashning nazariy asoslari yetarlicha ishlab chiqilgan. O‘zbekiston olimlari tomonidan esa tarix ta'limini modernizatsiya qilish, narrativ pedagogika, innovatsion metodlar va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha muhim ilmiy natijalarga erishilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarda immersiv texnologiyalar vositasida aynan oliy ta'lim talabalari tanqidiy tarixiy tafakkurini rivojlantirishning yaxlit metodik modeli, uning didaktik shart-sharoitlari, bosqichlari, mezonlari va baholash mexanizmlari kompleks tarzda ishlab chiqilmagan**.** Shu bois mazkur tadqiqot ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga hamda tarix ta'limi metodikasini immersiv texnologiyalar asosida takomillashtirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot talabalarning tanqidiy tarixiy tafakkurini immersiv texnologiyalar vositasida rivojlantirishning nazariy asoslarini aniqlash, mavjud pedagogik yondashuvlarni tahlil qilish hamda amaliyotga yo‘naltirilgan metodikani ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi kompetensiyaviy, konstruktivistik, faoliyatga yo‘naltirilgan (activity-based learning), inquiry-based learning (izlanishga asoslangan ta'lim), tajribaviy o‘qitish (experiential learning) hamda raqamli pedagogika

tamoyillariga tayangan holda ishlab chiqildi.Tadqiqotning metodologik asosini tarixiy tafakkur nazariyasi (S. Wineburg, P. Seixas, T. Morton), tanqidiy fikrlash nazariyasi (J. Dewey, R. Ennis, P. Facione), immersiv ta'limning kognitiv-affektiv modeli (G. Makransky va G. Petersen), shuningdek, konstruktivistik ta'lim konsepsiyasi tashkil etdi.

Ushbu nazariyalar asosida immersiv texnologiyalar talabalarning tarixiy bilimlarni faol o‘zlashtirishi, tarixiy manbalarni tahlil qilishi, tarixiy dalillarni baholashi hamda dalillarga asoslangan xulosalar chiqarishini ta'minlovchi pedagogik vosita sifatida qaraldi.Tadqiqotda umumilmiy va maxsus pedagogik tadqiqot metodlarining o‘zaro integratsiyasidan foydalanildi. Xususan, ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish orqali immersiv texnologiyalar, tarixiy tafakkur va tanqidiy fikrlash bo‘yicha xorijiy hamda mahalliy ilmiy ishlanmalar o‘rganildi. Qiyosiy-tahliliy metod yordamida tarix ta'limida qo‘llanilayotgan an'anaviy va raqamli yondashuvlarning afzallik hamda cheklovlari aniqlashtirildi. Tadqiqot jarayonida pedagogik modellashtirish metodidan foydalanilib, immersiv texnologiyalar asosida talabalarning tanqidiy tarixiy tafakkurini rivojlantirishning metodik modeli ishlab chiqildi. Mazkur modelning tarkibiy qismlari sifatida maqsad, pedagogik shart-sharoitlar, metodlar, o‘qitish vositalari, o‘quv faoliyati bosqichlari va kutilayotgan natijalar belgilandi.Empirik ma'lumotlarni to‘plash maqsadida pedagogik kuzatish, suhbat, anketa so‘rovi va diagnostik topshiriqlardan foydalanildi. Pedagogik kuzatish davomida talabalarning tarixiy manbalar bilan ishlash, tarixiy voqealarni tahlil qilish, sabab–oqibat bog‘liqliklarini aniqlash hamda tarixiy argumentlarni shakllantirish jarayonidagi faolligi o‘rganildi. So‘rovnoma orqali talabalarning immersiv texnologiyalarga munosabati, ulardan foydalanish tajribasi va tarix faniga bo‘lgan qiziqish darajasi aniqlandi.

Tadqiqotning asosiy empirik metodi sifatida pedagogik tajriba tashkil etildi. Tajriba davomida talabalar nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Nazorat guruhida tarix fanlari an'anaviy metodlar asosida o‘qitilgan bo‘lsa, tajriba guruhida virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR), 360° virtual ekskursiyalar, uch o‘lchamli tarixiy

rekonstruksiyalar hamda interaktiv raqamli tarixiy platformalar asosida ishlab chiqilgan metodika qo'llanildi. O'quv jarayonida talabalar tarixiy voqealarni virtual muhitda kuzatish, tarixiy manbalarni qiyoslash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va dalillarga asoslangan qarorlar ishlab chiqish kabi topshiriqlarni bajardilar.

Talabalarning tanqidiy tarixiy tafakkurini baholash uchun quyidagi mezonlar ishlab chiqildi:

- tarixiy manbalarni tanqidiy tahlil qilish qobiliyati;
- tarixiy dalillardan foydalanish darajasi;
- sabab–oqibat munosabatlarini aniqlash ko'nikmasi;
- tarixiy argumentatsiyani shakllantirish sifati;
- tarixiy empatiya va tarixiy interpretatsiya darajasi;
- mustaqil va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish kompetensiyasi.

Olingan natijalar miqdoriy va sifat jihatidan tahlil qilindi. Miqdoriy ma'lumotlar foizli taqsimot, o'rtacha qiymatlar va qiyosiy tahlil usullari asosida umumlashtirildi, sifat ko'rsatkichlari esa pedagogik kuzatish natijalari, ekspert baholari hamda talabalarning ijodiy ishlari asosida interpretatsiya qilindi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi turli metodlardan kompleks foydalanish (metodologik triangulyatsiya), ekspert baholash va tajriba natijalarini o'zaro taqqoslash orqali ta'minlandi. Shunday qilib, qo'llanilgan metodologik yondashuvlar immersiv texnologiyalar vositasida talabalarning tanqidiy tarixiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy asoslarini aniqlash, metodik modelini ishlab chiqish va uning pedagogik samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

XULOSA

Raqamli transformatsiya sharoitida tarix ta'limining mazmun va metodlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari immersiv texnologiyalar (Virtual Reality – VR, Augmented Reality – AR va Mixed Reality – MR) tarix fanini o'qitishda nafaqat ta'limning ko'rgazmaliligini oshirishi, balki talabalarning tanqidiy tarixiy

tafakkurini rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida tarixiy tafakkur, tanqidiy fikrlash va immersiv ta'limga oid xorijiy hamda mahalliy ilmiy manbalar tahlil qilinib, immersiv texnologiyalarni tarix ta'limiga integratsiyalashning nazariy asoslari tizimlashtirildi. Shuningdek, tarixiy manbalarni tahlil qilish, tarixiy dalillarni baholash, sabab–oqibat bog‘liqliklarini aniqlash, tarixiy argumentatsiyani shakllantirish va tarixiy empatiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik model ishlab chiqildi. Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi immersiv texnologiyalar vositasida talabalarning tanqidiy tarixiy tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik modelning ishlab chiqilgani, uning tarkibiy komponentlari, pedagogik shart-sharoitlari, bosqichlari va baholash mezonlarining tizimli asoslanganligida namoyon bo‘ladi. Amaliy jihatdan esa ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar tarix yo‘nalishidagi oliy ta'lim dasturlarini takomillashtirish, tarix fanlarini o‘qitishda VR, AR va MR texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda qo‘llanishi mumkin.

So‘nggi yillarda nashr etilgan bir qator tadqiqotlar BIA orqali olingan tana tarkibi ma’lumotlarini raqamli texnologiyalar bilan birlashtirishning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi. Xitoyda 127 nafar semizlikka moyil talaba ishtirokida o‘tkazilgan tadqiqotda mobil ilova orqali amalga oshirilgan real vaqt monitoringi va qaytar aloqa mexanizmi 8 haftalik aralashuv davomida talabalarning mashqqa rioya qilish darajasini sezilarli oshirdi va jinsga xos tarzda mushak hamda yog‘ massasi ko‘rsatkichlarini yaxshilashga olib keldi: erkaklarda visceral yog‘ massasi, ayollarda esa umumiy tana yog‘i sezilarli kamaydi. Virtual reallik texnologiyasi asosida o‘tkazilgan boshqa bir randomizatsiyalangan tadqiqotda (n=36) 4 haftalik VR-mashq dasturidan so‘ng segmental tana tarkibi monitori orqali o‘lchangan tana yog‘i foizi nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan ishonchli darajada kamaydi ($p<0,001$; $\eta^2=0,34$), yurak-qon tomir tayyorgarligi esa sezilarli yaxshilandi ($p<0,001$; $\eta^2=0,47$).

Gamifikatsiya elementlarini o‘z ichiga olgan mHealth ilovasi asosida 160 nafar talaba ishtirokida o‘tkazilgan randomizatsiyalangan tadqiqotda rag‘batlantiruvchi va o‘yinlashtirilgan mobil platforma jismoniy faollik darajasini, aralashuvga rioya qilishni, shuningdek tana tarkibi va ijro etuvchi funksiyalar ko‘rsatkichlarini sezilarli yaxshilagani aniqlandi. Xitoyning olti universitetidan 1286 nafar talabani qamrab olgan yirik so‘rovnoma asosidagi tadqiqotda esa kiyiladigan sport jihozlaridan (aqlli bilaguzuklar, fitnes-soatlar) foydalanish mashq motivatsiyasi orqali talabalarning mashqqa sodiqligini oshirishi, ushbu ta’sirning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasiga ko‘ra kuchayishi yoki susayishi mumkinligi aniqlandi. 2-jadvalda ushbu tadqiqotlarning qisqacha tavsifi keltirilgan.

2-jadval. Raqamli texnologiyalar bilan birlashtirilgan tana tarkibi monitoringining talabalar guruhidagi samaradorligi

Muallif(lar), yil	Namuna (n)	Raqamli vosita / yondashuv	Asosiy natija
Hu va boshq., 2025	127	Mobil ilova orqali real vaqt monitoringi + dietik yo‘nalish	8 haftada jinsga xos mushak/yog‘ massasi ko‘rsatkichlarining ijobiy o‘zgarishi
Liu va boshq., 2025	36	Virtual reallik (VR) mashqi + segmental BIA monitoring	Tana yog‘i foizi sezilarli kamaydi ($p<0,001$; $\eta^2=0,34$)
Yang va boshq., 2026	160	Gamifikatsiyalashgan, rag‘batga asoslangan mHealth ilovasi	Jismoniy faollik, aralashuvga rioya qilish va tana tarkibi yaxshilandi

Muallif(lar), yil	Namuna (n)	Raqamli vosita / yondashuv	Asosiy natija
Han va boshq., 2025	1286	Kiyiladigan sport jihozlari (aqlli bilaguzuk/soat)	Mashq motivatsiyasi orqali mashqqa sodiqlik oshishi tasdiqlandi

Olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, Tanita bioimpedans analizatori talabalar populyatsiyasida tana tarkibini baholash uchun ilmiy jihatdan asoslangan, yuqori validlikka ega vosita hisoblanadi. Biroq uning samaradorligi faqat bir martalik diagnostika sifatida emas, balki raqamli texnologiyalar bilan uzviy bog‘langan, davomiy monitoring va qaytar aloqa tizimi sifatida qo‘llanilganda ancha yuqori bo‘ladi. Bu xulosa, ayniqsa, qadam soni kabi oddiy ko‘rsatkichlardan farqli o‘laroq, tana tarkibi o‘zgarishlarining nisbatan sekin va individuallashtirilgan xususiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi: foydalanuvchiga faqat umumiy tavsiyalar emas, balki uning shaxsiy tana tarkibi dinamikasiga asoslangan aniq va shaxsiylashtirilgan qaytar aloqa berilganda, motivatsiya va sodiqlik darajasi sezilarli yuqori bo‘ladi.

Virtual reallik va gamifikatsiyalashgan ilovalar bilan o‘tkazilgan tadqiqotlarda qayd etilgan yuqori effekt kattaligi (η^2=0,34–0,47) shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy mashq dasturlariga nisbatan immersiv va o‘yinlashtirilgan yondashuvlar talabalar uchun ayniqsa jozibali bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, kiyiladigan qurilmalar bilan o‘tkazilgan yirik so‘rovnoma natijalari ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning moderatorlik rolini ko‘rsatadi, bu esa O‘zbekiston sharoitida ham individual texnologik vositalarni faqat shaxsiy darajada emas, balki guruh, fakultet yoki yotoqxona darajasidagi ijtimoiy faoliyat bilan birga taqdim etish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari, xususan jismoniy tarbiya yo‘nalishidagi universitetlar, uchun bu natijalar amaliy ahamiyatga ega: jismoniy tarbiya kabinetlari va sport komplekslarida Tanita yoki shunga o‘xshash BIA analizatorlarini joriy etish, ulardan olingan ma’lumotlarni talabaning shaxsiy mobil ilova hisobiga avtomatik

uzatish va semestr davomida dinamikani kuzatib borish imkoniyatini yaratish mumkin. Bunday yondashuv nafaqat talabaning shaxsiy salomatligini nazorat qilish, balki uning ommaviy sport tadbirlariga (musobaqalar, fakultetlar o‘rtasidagi reytinglar) jalb etilishini ham kuchaytirishi mumkin.

Mazkur tahlilning bir qator cheklovlari mavjud. Birinchidan, tahlilga kiritilgan ko‘pchilik aralashuv tadqiqotlari nisbatan kichik namunalar (36 dan 160 tagacha ishtirokchi) va qisqa muddat (4 haftadan 8 haftagacha) bilan cheklangan, bu uzoq muddatli samaradorlik haqida xulosa chiqarishni qiyinlashtiradi. Ikkinchidan, mavjud tadqiqotlar asosan Xitoy va AQSh kontekstida olib borilgan, O‘zbekiston va Markaziy Osiyo talabalari ishtirokidagi bevosita dala tadqiqotlari hali yetarli emas. Uchinchidan, Tanita qurilmalarining narxi va texnik xizmat ko‘rsatish talablari ba’zi oliy ta’lim muassasalari uchun moliyaviy cheklov bo‘lishi mumkin, bu masala kelajakdagi amaliy loyihalashtirishda hisobga olinishi lozim.

XULOSA VA TAVSİYALAR

O‘tkazilgan tahlil natijalariga asoslanib, quyidagi yakuniy xulosa va amaliy tavsiyalarni ilmiy uslubda, izchil bayon shaklida taqdim etish mumkin:

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, Tanita bioimpedans analizatori talabalar tana tarkibini baholashning ishonchli va validligi yuqori vositasi hisoblanadi, biroq uning ommaviy sportga jalb etishdagi to‘liq salohiyati faqat raqamli texnologiyalar — mobil ilovalar, kiyiladigan qurilmalar, virtual reallik va gamifikatsiya — bilan uzviy birlashtirilganda namoyon bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan, eng avvalo, oliy ta’lim muassasalarining jismoniy tarbiya kabinetlarida Tanita yoki shunga o‘xshash sertifikatlangan BIA analizatorlarini joriy etish va talabalar uchun semestrlik tana tarkibi monitoringini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Bunday monitoringning samaradorligini oshirish uchun BIA orqali olingan ma’lumotlarni talabaning shaxsiy mobil ilova hisobiga avtomatik uzatish va dinamik grafiklar shaklida real vaqtda taqdim etish tizimini yaratish lozim, zero, ma’lumotlarning

shaffof va tushunarli tarzda taqdim etilishi talabaning o‘z natijalarini kuzatish va tahlil qilish imkonini kengaytiradi.

Talabalarning motivatsiyasini kuchaytirish maqsadida mobil ilovalarga gamifikatsiya elementlarini, jumladan, yutuq nishonlari va fakultetlar o‘rtasidagi tana tarkibi yaxshilanishi bo‘yicha reytingni joriy etish o‘rinlidir. Bundan tashqari, texnik va moliyaviy imkoniyat mavjud bo‘lgan taqdirda, virtual reallik texnologiyasiga asoslangan mashq xonalarini sport majmualarida sinov tariqasida joriy etish ham istiqbolli yo‘nalish sifatida baholanishi mumkin.

Ayni paytda, ushbu yondashuvlarning ilmiy asoslanganligini mustahkamlash uchun O‘zbekiston talabalari ishtirokida Tanita BIA va raqamli monitoringni birlashtirgan mahalliy randomizatsiyalangan tadqiqotlarni tashkil etish zarur, chunki xorijiy tadqiqotlar natijalarini bevosita mahalliy sharoitga tatbiq etish ba’zan yetarli darajada ishonchli bo‘lmasligi mumkin. Shuningdek, individual texnologik vositalarning samarasini yanada oshirish uchun ularni guruh, fakultet va yotoqxona darajasidagi ijtimoiy sport tadbirlari bilan birga taqdim etish, ya’ni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yakun sifatida aytish mumkinki, Tanita bioimpedans analizatori va raqamli texnologiyalarni o‘zaro uyg‘unlashtirgan kompleks yondashuv — oliy ta’lim tizimida talabalarning tana tarkibi salomatligini nazorat qilish va ularni ommaviy sport faoliyatiga barqaror jalb etishning ilmiy asoslangan, istiqbolli yo‘li bo‘lib xizmat qiladi.

ADABİYOTLAR RO‘YXATİ:

1. Kyle UG, Bosaeus I, De Lorenzo AD, Deurenberg P, Elia M, Gómez JM, Lilienthal Heitmann B, Kent-Smith L, Melchior JC, Pirlich M, Scharfetter H, Schols AMWJ, Pichard C (ESPEN Working Group). Bioelectrical impedance analysis—part I: review of principles and methods. Clin Nutr. 2004;23(5):1226–1243.

2. Ritchie JD, Miller CK, Smiciklas-Wright H. Tanita foot-to-foot bioelectrical impedance analysis system validated in older adults. J Am Diet Assoc. 2005;105(10):1617–1619.

3. Vasold KL, Parks AC, Phelan DML, Pontifex MB, Pivarnik JM. Reliability and validity of commercially available low-cost bioelectrical impedance analysis. Int J Sport Nutr Exerc Metab. 2019;29(4):406–410.

4. Peltzer K, Pengpid S, Samuels TA, Özcan NK, Mantilla C, Rahamefy OH, Wong ML, Gasparishvili A. Prevalence of overweight/obesity and its associated factors among university students from 22 countries. Int J Environ Res Public Health. 2014;11(7):7425–7441.
5. Pengpid S, Peltzer K, Kassean HK, Tsala Tsala JP, Sychareun V, Müller-Riemenschneider F. Physical inactivity and associated factors among university students in 23 low-, middle- and high-income countries. Int J Public Health. 2015;60(5):539–549.
6. Teixeira PJ, Carraça EV, Markland D, Silva MN, Ryan RM. Exercise, physical activity, and self-determination theory: a systematic review. Int J Behav Nutr Phys Act. 2012;9:78.
7. Xu L, Shi H, Shen M, Ni Y, Zhang X, Pang Y, Yu T, Lian X, Yu T, Yang X, Li F. The effects of mHealth-based gamification interventions on participation in physical activity: systematic review. JMIR Mhealth Uhealth. 2022;10(2):e27794.
8. Musijowska M, Kwilosz E. Association between physical activity level, body composition, and phase angle in university students from bioelectrical impedance analysis (BIA). J Clin Med. 2024;13(10):2743.
9. Bi S, Yuan J, Wang Y, Zhang W, Zhang L, Zhang Y, Zhu R, Luo L. Effectiveness of digital health interventions in promoting physical activity among college students: systematic review and meta-analysis. J Med Internet Res. 2024;26:e51714.
10. Hu C, Lv Z, Zhu J, Lai C, Guo D, Chen M, Cheng X, Rao M, Zhou X, Su L. The impact of digital technology–based exercise combined with dietary intervention on body composition in college students with obesity: prospective study. J Med Internet Res. 2025;27:e65868.
11. Han Y, Wang S, Zhang Z, Fan J. The impact of wearable sports equipment on college students' physical exercise persistence: a mediated model of physical exercise motivation moderated by social support. Front Sports Act Living. 2025;7:1691032.
12. Liu W, McDonough DJ, Oginni J, Mavoungou J, Gao Z. Effects of an immersive virtual reality–based exercise intervention on psychological and physiological outcomes in college students: randomized controlled trial. JMIR Serious Games. 2025;13:e75777.
13. Yang M, Guo Y, Li Z, Jiang L, Gao Y, Yang S, Zhou Z. A gamified mobile health intervention to promote physical activity, executive function, and mental health in college students: randomized controlled trial. J Med Internet Res. 2026;28:e82769.
14. Strain T, Flaxman S, Guthold R, Semenova E, Cowan M, Riley LM, Bull FC, Stevens GA. National, regional, and global trends in insufficient physical activity among adults from 2000 to 2022. Lancet Glob Health. 2024;12(8):e1232–e1243.
15. World Health Organization. Global Action Plan on Physical Activity 2018–2030: More Active People for a Healthier World. Geneva: WHO; 2018.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6099-son Farmoni.

TAEKVONDO (WT) SPORTCHILARINING MUSOBAQA FAOLIYATIDA TEXNIK-TAKTIK HARAKATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Nazarov Nazarali Nozimjon o'g'li
O'zbekiston davlat sport akademiyasi
Email: *boltavoy589@gmail.com +998943082636*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada taekvondo (WT) sportchilarining musobaqa faoliyatida texnik-taktik harakatlar samaradorligini oshirishning ilmiy-metodik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida zamonaviy taekvondo musobaqalarida qo'llaniladigan texnik va taktik usullar, ularning natijadorlikka ta'siri hamda sportchilarning musobaqa faoliyatini takomillashtirish omillari o'rganildi. Shuningdek, sportchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulot jarayonini rejalashtirish, texnik-taktik tayyorgarlikni optimallashtirish va musobaqa vaziyatlarini modellashtirishning samarali usullari yoritilgan. Tadqiqot natijalari taekvondochilarning musobaqa faoliyatini yanada takomillashtirish, texnik-taktik tayyorgarlik darajasini oshirish hamda yuqori sport natijalariga erishishda ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *taekvondo (WT), musobaqa faoliyati, texnik-taktik tayyorgarlik, texnik harakatlar, taktik harakatlar, musobaqa samaradorligi, sport mahorati, mashg'ulot jarayoni, sportchilar tayyorlash, ilmiy-metodik asoslar.*

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИХ ДЕЙСТВИЙ В СОРЕВНОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СПОРТСМЕНОВ ПО ТХЭКВОНДО (WT)

Аннотация. *В данной статье проанализированы научно-методические основы повышения эффективности технико-тактических действий в соревновательной деятельности спортсменов, занимающихся тхэквондо (WT). В ходе исследования изучены современные технические и тактические приёмы, применяемые в соревнованиях по тхэквондо, их влияние на результативность, а также факторы, способствующие совершенствованию соревновательной деятельности спортсменов. Кроме того, рассмотрены эффективные методы планирования тренировочного процесса с учётом индивидуальных особенностей спортсменов, оптимизации технико-тактической подготовки и моделирования соревновательных ситуаций. Результаты исследования могут служить научно-практической основой для совершенствования соревновательной деятельности тхэквондистов, повышения уровня их технико-тактической подготовленности и разработки научно обоснованных рекомендаций, направленных на достижение высоких спортивных результатов.*

Ключевые слова: *тхэквондо (WT), соревновательная деятельность, технико-тактическая подготовка, технические действия, тактические действия, эффективность*

соревновательной деятельности, спортивное мастерство, тренировочный процесс, подготовка спортсменов, научно-методические основы.

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF TECHNICAL AND TACTICAL ACTIONS IN THE COMPETITIVE PERFORMANCE OF TAEKWONDO (WT) ATHLETES

Annotation. *This article analyzes the scientific and methodological foundations for improving the effectiveness of technical and tactical actions in the competitive performance of Taekwondo (WT) athletes. The study examines the technical and tactical techniques applied in modern Taekwondo competitions, their influence on competitive performance, and the factors contributing to the improvement of athletes' competitive activities. Furthermore, effective approaches to planning the training process based on athletes' individual characteristics, optimizing technical and tactical preparation, and modeling competitive situations are discussed. The findings provide a scientific and practical basis for enhancing the competitive performance of Taekwondo athletes, improving their technical and tactical proficiency, and developing evidence-based recommendations aimed at achieving high-level sporting results.*

Keywords: *Taekwondo (WT), competitive performance, technical and tactical preparation, technical actions, tactical actions, competition effectiveness, sports mastery, training process, athlete development, scientific and methodological foundations.*

KIRISH

Bugungi kunda taekvondo dunyodagi eng ommabop olimpiya sport turlaridan biri bo'lib, sportchilardan yuqori darajadagi texnik mahorat, taktik tafakkur, tezkor qaror qabul qilish qobiliyati hamda maxsus jismoniy tayyorgarlikni talab etadi. So'nggi yillarda xalqaro musobaqalar reglamenti va elektron baholash tizimlarining joriy etilishi natijasida musobaqa faoliyatining mazmuni sezilarli darajada o'zgardi. Bu esa sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish, mashg'ulot jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va musobaqa faoliyatini chuqur tahlil qilish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Taekvondoda yuqori natijalarga erishish nafaqat sportchining jismoniy tayyorgarligi, balki musobaqa davomida texnik usullarni to'g'ri tanlay olishi, taktik vaziyatlarni tez baholashi va raqibning harakatlariga mos ravishda samarali qaror qabul qilish qobiliyatiga ham bevosita bog'liqdir. Shu sababli texnik-taktik harakatlar

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

samaradorligini oshirish sportchilarni tayyorlash tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda taekvondochilarni tayyorlash bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, ularning aksariyati jismoniy sifatlarni rivojlantirish yoki alohida texnik elementlarni takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan. Biroq musobaqa faoliyatida texnik va taktik harakatlarning o'zaro uyg'unligi, ularning natijadorlikka ta'siri hamda mashg'ulot jarayonida ushbu ko'rsatkichlarni kompleks rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari yetarli darajada o'rganilmagan. Ayniqsa, zamonaviy musobaqa qoidalari, elektron himoya vositalari va video tahlil texnologiyalarining keng qo'llanilishi sportchilarning texnik-taktik faoliyatini yangi yondashuvlar asosida takomillashtirishni talab etmoqda.

Taekvondo (WT) sportchilarining musobaqa faoliyatida texnik-taktik harakatlar samaradorligini oshirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish sport nazariyasi va amaliyoti uchun dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Mazkur tadqiqot sportchilarning musobaqa faoliyatini tahlil qilish, texnik-taktik ko'rsatkichlarni baholash hamda mashg'ulot jarayonini optimallashtirish orqali musobaqa natijadorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Taekvondo (WT) sportchilarining musobaqa faoliyatida texnik-taktik harakatlar samaradorligini oshirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish hamda ularni mashg'ulot jarayoniga tatbiq etish orqali sport natijalarini yaxshilashdan iborat.

Ushbu tadqiqot natijalari taekvondo bo'yicha murabbiylar, sport mutaxassislari va ilmiy tadqiqotchilar uchun sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Maqolada keltirilgan tavsiyalar texnik-taktik tayyorgarlikni rejalashtirish, musobaqa faoliyatini tahlil qilish va sportchilarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Taekvondo sport turi yuqori tezlik, aniqlik va taktik fikrlashni talab qiladigan zamonaviy olimpiya sport turlaridan biridir. So'nggi yillarda musobaqa qoidalarining takomillashuvi, elektron himoya vositalari va video takroriy ko'rib chiqish (Video Replay System) tizimining joriy etilishi sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligiga yangi talablarni qo'ymoqda. Natijada musobaqa faoliyatida nafaqat texnik usullarni mukammal bajarish, balki ularni vaziyatga mos ravishda qo'llash ham g'alabani belgilovchi muhim omilga aylandi.

Musobaqa faoliyatining tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy taekvondoda jang natijasi ko'p jihatdan sportchining texnik harakatlarni to'g'ri tanlashi, hujum va qarshi hujumni o'z vaqtida amalga oshirishi hamda taktik vaziyatni tez baholash qobiliyatiga bog'liq. Yuqori malakali sportchilar jang davomida raqibning texnik usullarini oldindan bashorat qilish, masofani samarali boshqarish va zarbalarni minimal vaqt ichida bajarish orqali ustunlikka erishadilar.

Texnik-taktik tayyorgarlik sportchilarni ko'p yillik tayyorlash tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi sportchida musobaqa davomida samarali texnik harakatlarni bajarish, taktik vaziyatlarni tahlil qilish hamda optimal qarorlarni qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur tayyorgarlik maxsus jismoniy sifatlar, psixologik barqarorlik va funksional imkoniyatlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning uyg'un rivojlanishi musobaqa natijadorligini oshiradi.

Texnik harakatlar samaradorligini baholashda zarbaning aniqligi, bajarilish tezligi, zarba kuchi, natijali hujumlar soni, qarshi hujumlarning muvaffaqiyat darajasi hamda himoya harakatlarining ishonchliligi asosiy mezonlar sifatida qo'llaniladi. Ayniqsa, elektron himoya jiletlari va bosh himoya vositalaridan foydalanilishi sportchilardan zarbalarni aniq nuqtalarga yetkazishni talab etmoqda. Shu sababli mashg'ulot jarayonida texnik elementlarni ko'p marotaba takrorlash bilan bir qatorda, ularni turli musobaqa vaziyatlarida qo'llashga alohida e'tibor qaratilishi zarur.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Taktik tayyorgarlik esa sportchining jang davomida yuzaga keladigan vaziyatlarni tezkor baholashi, raqibning harakatlarini oldindan sezishi va mos ravishda eng samarali usullarni tanlay olishi bilan tavsiflanadi. Zamonaviy taekvondoda individual taktik usullar bilan bir qatorda vaziyatli va kombinatsion taktik harakatlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bunda sportchi raqibning jang uslubiga mos ravishda taktik rejani o'zgartira olishi, zarur hollarda himoyadan hujumga yoki hujumdan qarshi hujumga tez o'tishi lozim.

Musobaqa faoliyatini ilmiy tahlil qilish texnik-taktik tayyorgarlikni takomillashtirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Videoanaliz, biomekanik tahlil, elektron baholash tizimlari va raqamli monitoring vositalari yordamida sportchining har bir harakati batafsil o'rganiladi. Bunday tahlillar natijasida zarba bajarish texnikasidagi kamchiliklar, harakat tezligi, reaksiya vaqti, hujum va himoya samaradorligi hamda jang davomida yo'l qo'yilgan xatolar aniqlanadi. Olingan ma'lumotlar asosida murabbiylar individual mashg'ulot dasturlarini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Texnik-taktik tayyorgarlik samaradorligini oshirishda musobaqa vaziyatlarini modellashtirish alohida ahamiyatga ega. Mashg'ulotlarda real jang sharoitiga yaqin vaziyatlarni yaratish sportchilarda tezkor qaror qabul qilish, raqib harakatlariga moslashish va psixologik barqarorlikni rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, turli uslubdagi raqiblar bilan sparring mashg'ulotlarini tashkil etish sportchilarning taktik fikrlash doirasini kengaytiradi.

Bundan tashqari, texnik-taktik tayyorgarlikni takomillashtirishda maxsus jismoniy tayyorgarlik muhim omil hisoblanadi. Tezkorlik, chaqqonlik, muvozanat, koordinatsiya, tezkor-kuch sifati va maxsus chidamlilikning yuqori darajada rivojlanganligi texnik usullarni yuqori sifat bilan bajarishga imkon yaratadi. Shu bois mashg'ulot jarayonida texnik mashqlar maxsus jismoniy mashqlar bilan uyg'un holda olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda sun'iy intellekt, kompyuter ko'rish (Computer Vision) va raqamli sport analitikasi texnologiyalaridan foydalanish taekvondochilarni tayyorlash tizimida yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu texnologiyalar yordamida sportchining harakat trayektoriyasi, zarba tezligi, tana segmentlarining koordinatsiyasi va taktik faolligi avtomatik ravishda tahlil qilinmoqda. Bu esa mashg'ulot yuklamalarini ilmiy asosda individuallashtirish hamda musobaqa natijadorligini prognoz qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, taekvondo (WT) sportchilarining musobaqa faoliyatida texnik-taktik harakatlar samaradorligini oshirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Mashg'ulot jarayonida texnik mahorat, taktik tayyorgarlik, maxsus jismoniy sifatlar, psixologik tayyorgarlik hamda zamonaviy raqamli tahlil texnologiyalarining uyg'un qo'llanilishi sportchilarning musobaqa natijalarini sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi. Mazkur yondashuv sportchilarni xalqaro musobaqalarga tayyorlash samaradorligini oshirishda muhim ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

MUNOZARA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, taekvondo (WT) sportchilarining musobaqa faoliyatida yuqori natijalarga erishishi, avvalo, texnik-taktik tayyorgarlik darajasi bilan chambarchas bog‘liq. Zamonaviy musobaqalarda g‘alaba qozonish nafaqat texnik usullarni mukammal bajarishga, balki jang davomida yuzaga keladigan vaziyatlarni tezkor baholash, raqibning harakatlarini oldindan prognoz qilish va samarali taktik yechimlarni qo‘llash qobiliyatiga ham bog‘liq ekanligi aniqlandi.

Musobaqa faoliyatini tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, yuqori malakali taekvondochilar hujum va qarshi hujum harakatlarini samarali uyg‘unlashtirish, jang ritmini boshqarish hamda zarbalarni aniq va o‘z vaqtida bajarish orqali yuqori natijalarga erishmoqda. Bu esa mashg‘ulot jarayonida texnik elementlarni takomillashtirish bilan bir

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

qatorda, taktik fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus mashqlar ulushini oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

XULOSA

Taekvondo (WT) sportchilarining musobaqa faoliyatida texnik-taktik harakatlar samaradorligini oshirish sport natijalarini yaxshilashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari zamonaviy taekvondo musobaqalarida sportchining texnik mahorati bilan bir qatorda taktik fikrlashi, tezkor qaror qabul qilish qobiliyati va musobaqa vaziyatlariga moslasha olishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi.

Musobaqa faoliyatini tahlil qilish, texnik-taktik harakatlarni muntazam monitoring qilish hamda videoanaliz va biomekanik tahlil kabi zamonaviy ilmiy usullardan foydalanish sportchilarning tayyorgarlik darajasini yanada takomillashtirish imkonini beradi. Mashg‘ulot jarayonida texnik, taktik, maxsus jismoniy va psixologik tayyorgarlikni o‘zaro integratsiyalashgan holda tashkil etish musobaqa samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Mashg‘ulotlarda real musobaqa vaziyatlarini modellashtirish, individual yondashuv asosida tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqish hamda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish sportchilarning texnik-taktik mahoratini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World Taekwondo. **Competition Rules & Interpretation**. – Seoul: World Taekwondo Federation, 2025. – 118 p.
2. World Taekwondo. **Coach Education Programme Manual**. – Seoul: World Taekwondo, 2024. – 156 p.
3. Bridge C.A., Ferreira da Silva Santos J., Chaabène H., Pieter W., Franchini E. **Physical and Physiological Profiles of Taekwondo Athletes** // Sports Medicine. – 2014. – Vol. 44(6). – P. 713–733.
4. Chaabène H., Hachana Y., Franchini E., Mkaouer B., Chamari K. **Physical and Physiological Profile of Elite Taekwondo Athletes: A Systematic Review** // Journal of Sports Medicine. – 2012. – Vol. 2012. – Article ID 674507.
5. World Taekwondo. **Referee and Competition Guidelines**. – Seoul, 2024.

6. Kazemi M., Perri G., Soave D. **A Profile of Olympic Taekwondo Competitors** // Journal of Sports Science and Medicine. – 2010. – Vol. 9. – P. 114–121.
7. Pieter W. **Taekwondo: Origins, Evolution and Performance**. – Aachen: Meyer & Meyer Sport, 2015. – 286 p.
8. World Taekwondo. **Official Statistics and Competition Reports**. – Seoul, 2024.

UDK: 796.015.6

PARA-O'QOTUVCHILARNI TAYYORLASHDA PSIXOMOTOR VA FUNKSIONAL MONITORING ASOSIDA INDIVIDUAL PEDAGOGIK BOSHQARUV METODIKASI

Muradov Farxat Muxmudjanovich
Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: *farxatexpert01@gmail.com*
ORCID: 0009-0009-1192-7948

Annotatsiya. *Maqolaning maqsadi SH1 para-o'qotuvchilarini tayyorlashda psixomotor va funksional ko'rsatkichlarni texnik natijalar bilan birgalikda baholash hamda ular asosida individual pedagogik boshqaruv metodikasini asoslashdan iborat. Tadqiqotda 24 nafar para-o'qotuvchi ishtirok etdi; SH1 sportchilari tajriba va nazorat guruhlarida 6 nafardan qatnashdi. Psixomotor holat oddiy reaksiya vaqti, tepping-test, koordinatsiometr xatosi va diqqat barqarorligi orqali, funksional holat esa qurolni statik ushlab turish, yelka kamari barqarorligi, Stange va Genchi sinamalari orqali baholandi. Ushbu ma'lumotlar SCATTning trace length, hold area, trigger quality va 10 o'qlik seriya natijalari bilan qiyoslandi. To'rt haftalik pedagogik ta'sirdan so'ng tajriba guruhida oddiy reaksiya vaqti 286,4±24,5 ms dan 252,8±20,4 ms ga (P<0,01), tepping barqarorligi 61,7±5,8 dan 74,2±5,1 ballga (P<0,001), koordinatsiometr xatosi 18,6±2,3 dan 12,4±1,8 gacha (P<0,001), diqqat barqarorligi 67,8±6,4 dan 82,1±5,3 ballga oshdi (P<0,001). Natijalar psixomotor va funksional diagnostika faqat qo'shimcha test emas, balki mashg'ulot mazmuni, dam oralig'i va korreksion mashqlarni individual tanlashga xizmat qiluvchi pedagogik qaror vositasi ekanini ko'rsatdi.*

Kalit so'zlar: *para-o'q otish, SH1, psixomotor monitoring, funksional nazorat, individual pedagogik boshqaruv, reaksiya vaqti, tepping-test, koordinatsiometr, SCATT, diqqat barqarorligi.*

МЕТОДИКА ИНДИВИДУАЛЬНОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ПОДГОТОВКОЙ ПАРА-СТРЕЛКОВ НА ОСНОВЕ ПСИХОМОТОРНОГО И ФУНКЦИОНАЛЬНОГО МОНИТОРИНГА

Аннотация. *Цель статьи - обосновать методику индивидуального педагогического управления подготовкой пара-стрелков класса SH1 на основе совместной оценки психомоторных, функциональных и технических показателей. В исследовании участвовали 24 пара-стрелка; по шесть спортсменов класса SH1 вошли в экспериментальную и контрольную группы. Психомоторное состояние оценивали по времени простой реакции, теппинг-тесту, ошибке координциометра и устойчивости внимания, функциональное — по статическому удержанию оружия, устойчивости плечевого пояса, пробам Штанге и Генчи. Эти данные сопоставляли с показателями SCATT и результатом 10-выстрельной серии. После четырёхнедельного педагогического воздействия в экспериментальной группе время простой реакции сократилось с 286,4±24,5 до 252,8±20,4 мс (P<0,01), устойчивость теппинга возросла с 61,7±5,8 до 74,2±5,1 балла*

(P<0,001), ошибка координциометра снизилась с 18,6±2,3 до 12,4±1,8 (P<0,001), устойчивость внимания повысилась с 67,8±6,4 до 82,1±5,3 балла (P<0,001). Сделан вывод, что психомоторный и функциональный мониторинг должен использоваться как основа выбора индивидуальных коррекционных заданий и регулирования нагрузки.

Ключевые слова: *пара-стрельба, SH1, психомоторный мониторинг, функциональный контроль, индивидуальное педагогическое управление, время реакции, теппинг-тест, SCATT, устойчивость внимания.*

A METHOD OF INDIVIDUAL PEDAGOGICAL MANAGEMENT OF PARA-SHOOTER PREPARATION BASED ON PSYCHOMOTOR AND FUNCTIONAL MONITORING

Annotation. *The purpose of this study was to substantiate a method of individual pedagogical management for SH1 para-shooters by integrating psychomotor, functional and technical indicators. Twenty-four para shooters participated; six SH1 athletes were included in each experimental and control group. Psychomotor status was assessed through simple reaction time, tapping stability, coordinatometer error and attention stability. Functional status was assessed through static rifle holding, shoulder-girdle stability, and Stange and Genchi breath-holding tests. The results were interpreted together with SCATT trace length, hold area, trigger quality and 10-shot series score. After a four-week pedagogical cycle, simple reaction time in the experimental group improved from 286.4±24.5 to 252.8±20.4 ms (P<0.01), tapping stability from 61.7±5.8 to 74.2±5.1 points (P<0.001), coordinatometer error decreased from 18.6±2.3 to 12.4±1.8 (P<0.001), and attention stability increased from 67.8±6.4 to 82.1±5.3 points (P<0.001). The findings indicate that psychomotor and functional monitoring should guide the individual selection of corrective tasks, rest intervals and training load rather than serve as isolated tests.*

Keywords: *para shooting, SH1, psychomotor monitoring, functional control, individual pedagogical management, reaction time, tapping test, coordinatometer, SCATT, attention stability.*

KIRISH

Para-o‘q otishda sportchining yakuniy bali texnik tayyorgarlik darajasini to‘liq ochib bermaydi. Bir xil natija ayrim sportchida triggerni bosish paytidagi mikrosiljish, boshqasida diqqatning beqarorlashuvi, reaksiya kechikishi, qo‘l–qurol zanjiridagi charchoq yoki nafasni boshqarishdagi uzilish tufayli yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli tayyorgarlikni faqat o‘q uzish hajmi va yakuniy ball asosida boshqarish individual pedagogik ehtiyojlarni cheklaydi [1–4].

Aniqlik sportlarida postural nazorat, qurol barqarorligi, trigger sifati hamda psixofiziologik holat natija bilan bog‘liq ekanligi ilmiy manbalarda qayd etilgan [5–7]. Biroq para-o‘q otishda bu omillarning sportchining funksional imkoniyatlari bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lishi, ayniqsa SH1 sportchilarida, psixomotor va funksional ko‘rsatkichlarni mashg‘ulot qaroriga aylantirishni talab qiladi. Mazkur ishning yangiligi shu bilan belgilanadiki, diagnostika natijalari alohida tavsif emas, balki “ko‘rsatkich — ehtimoliy sabab — korreksion vazifa — qayta nazorat” ketma-ketligida talqin qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mononen va hammualliflar postural muvozanat hamda qurol barqarorligi o‘q otish aniqligi bilan bog‘liqligini ko‘rsatgan [5]. Ihalainen va hammualliflar esa ushlab turish barqarorligi, triggerning tozaligi, mo‘ljal aniqligi va trigger vaqtini yuqori natijaning yetakchi texnik omillari sifatida ajratgan [6]. Mazkur xulosalar para-o‘qotuvchilar uchun ham muhim, biroq ular pedagogik jihatdan sportchining funksional holati, mayda motorika va diqqatni boshqarish imkoniyati bilan to‘ldirilgandagina individual mashg‘ulotga tatbiq etilishi mumkin [8–10].

Tadqiqotda 24 nafar para-o‘qotuvchi qatnashdi. SH1 sport klassidagi 12 nafar sportchi pedagogik tajribaning asosiy tahlil guruhini tashkil etdi: tajriba guruhi (TG) — 6 nafar, nazorat guruhi (NG) — 6 nafar. Tajriba 4 haftalik siklda olib borildi. TGda SCATT qayta aloqasi, quruq trigger mashqlari, statik ushlab turish, nafas–mo‘ljal–trigger sinxroni, tepping va koordinatsion mashqlar individual diagnostik kartaga ko‘ra tanlandi. NG amaldagi mashg‘ulot rejasini davom ettirdi.

Psixomotor holat oddiy reaksiya vaqti, tepping-test barqarorligi, koordinatsiometr xatosi va diqqat barqarorligi bilan, funksional holat qurolni statik ushlab turish, yelka kamari barqarorligi, Stange hamda Genchi sinamalari bilan baholandi. Texnik natijalar 10 o‘qlik seriya, trace length, hold area va trigger quality orqali qayd etildi. Dastlabki va yakuniy qiymatlar Student t-mezoni yordamida taqqoslandi; $P<0,05$ statistik ahamiyatli deb qabul qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1-jadval.

SH1 va SH2 sportchilarida dastlabki psixomotor ko'rsatkichlar qiyosi

Ko'rsatkich	SH1	SH2	Pedagogik talqin
Oddiy reaksiya vaqti, ms	286±32	305±36	Reaksiya vaqtining qisqarishi o'q uzish oldi qarorini tezlashtiradi; SH2da sensomotor kechikish nisbatan yuqori.
Tanlov reaksiyasi, ms	368±41	392±46	Qisqaroq reaksiya vaqti musobaqa vaziyatida diqqatni taqsimlash va tezkor qaror qabul qilish bilan bog'liq.
Tepping-test, 10 s	56,4±5,7	51,2±6,1	Tepishlar ritmining barqarorligi mayda motor boshqaruv va seriya davomida harakat tempini saqlashni tavsiflaydi.
Koordinatsiometr xatosi, mm	4,8±1,2	5,9±1,4	Xato miqdorining kamayishi qo'l–qurol harakatini yo'naltirish aniqligi ortishini bildiradi.
Diqqat barqarorligi, %	78,6±7,5	73,1±8,2	Diqqat barqarorligining oshishi seriya davomida e'tiborni saqlash va xatodan keyin tiklanishga yordam beradi.

1-jadvaldagi ma'lumotlar bir xil texnik belgi ortida turli psixomotor sabablar bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. SH1 sportchilarida reaksiya tezligi va tepping tempi nisbatan yuqori bo'lsa-da, bu ularning har doim ham yuqori texnik barqarorlikka ega ekanini anglatmaydi. Murabbiy reaksiya vaqtini triggerni shoshirib bosish yoki kechiktirish xavfi bilan, tepping-testni esa seriya davomida ritmni saqlash qobiliyati bilan birga talqin qilishi lozim. SH2da ko'rsatkichlarning pastroq bo'lishi esa mashqlarni

umumiy yengillashtirish uchun emas, balki tana–moslama holati va mayda motor nazoratini individual moslashtirish uchun asos bo‘ladi.

2-jadval.

SH1 tajriba va nazorat guruhlarida psixomotor ko‘rsatkichlar dinamikasi

Ko‘rsatkich	Guruh	Dastlabki x̄±σ	Yakuniy x̄±σ	t	P
Oddiy reaksiya vaqti, ms	TG	286,4±24,5	252,8±20,4	3,61	<0,01
Oddiy reaksiya vaqti, ms	NG	284,9±25,1	272,5±23,6	1,23	>0,05
Tepping barqarorligi, ball	TG	61,7±5,8	74,2±5,1	4,92	<0,001
Tepping barqarorligi, ball	NG	62,1±5,6	66,4±5,4	1,88	>0,05
Koordinatsiometr xatosi	TG	18,6±2,3	12,4±1,8	5,17	<0,001
Koordinatsiometr xatosi	NG	18,3±2,2	16,1±2,0	2,19	<0,05
Diqqat barqarorligi, ball	TG	67,8±6,4	82,1±5,3	5,04	<0,001
Diqqat barqarorligi, ball	NG	68,2±6,1	73,6±5,8	2,03	<0,05

Izoh: TG — individual diagnostik karta asosida boshqarilgan guruh; NG — amaldagi mashg‘ulot rejasi saqlangan guruh.

2-jadval tajriba guruhida psixomotor boshqaruvning ishonchli yaxshilanganini ko‘rsatadi. Oddiy reaksiya vaqtining 33,6 ms ga qisqarishi sportchining tashqi signalga tezroq javob qaytarishi bilan cheklanmaydi; o‘q uzish oldi vaziyatida nafas, mo‘ljal va trigger ketma-ketligini ortiqcha kechikishsiz bajarish imkoniyatini ham bildiradi. Tepping barqarorligining 12,5 ballga ortishi monoton seriya sharoitida mayda motor ritmi mustahkamlanganini ko‘rsatadi. Koordinatsiometr xatosining kamayishi esa barmoq va qo‘l harakatlari aniqligi ortganini bildiradi.

Nazorat guruhida ayrim o‘zgarishlar qayd etilgan bo‘lsa-da, reaksiya va tepping bo‘yicha statistik ahamiyatga ega natija olinmadi. Bu holat mashg‘ulotning umumiy hajmi o‘zi psixomotor barqarorlikni yetarli rivojlantirmasligini ko‘rsatadi. Individual pedagogik boshqaruvda murabbiy qaysi sportchida reaksiya kechikishi, qaysisida ritmning tushishi yoki koordinatsion xato ustun ekanini aniqlaydi va aynan shu kamchilikka mos qisqa korreksion blokni tanlaydi.

3-jadval.

SH1 sportchilarida maxsus funksional ko‘rsatkichlar dinamikasi

Ko‘rsatkich	Guruh	Dastlabki $\bar{x}\pm\sigma$	Yakuniy $\bar{x}\pm\sigma$	t	P
Qurolni statik ushlab turish, s	TG	42,6±5,1	58,4±5,6	5,72	<0,001
Qurolni statik ushlab turish, s	NG	43,1±5,4	48,7±5,2	2,16	<0,05
Yelka kamari barqarorligi, s	TG	28,7±3,9	40,2±4,1	6,08	<0,001
Yelka kamari barqarorligi, s	NG	29,1±4,0	33,4±3,8	2,22	<0,05
Stange sinamasi, s	TG	38,4±4,9	48,6±5,2	4,18	<0,01
Stange sinamasi, s	NG	39,0±5,1	42,5±5,0	1,68	>0,05
Genchi sinamasi, s	TG	24,8±3,2	31,6±3,4	4,41	<0,01

Ko'rsatkich	Guruh	Dastlabki x̄±σ	Yakuniy x̄±σ	t	P
Genchi sinamasi, s	NG	25,1±3,1	27,3±3,0	1,77	>0,05

3-jadvaldagi o'zgarishlar funksional mashqlar texnik tayyorgarlikdan ajratilgan qo'shimcha blok emasligini ko'rsatadi. Qurolni statik ushlab turish 15,8 s ga va yelka kamari barqarorligi 11,5 s ga oshgani sportchining qurolni nishon chizig'ida ortiqcha kuchlanishsiz ushlash zaxirasi ko'payganini anglatadi. Stange va Genchi sinamalaridagi ishonchli o'sish nafasni boshqarish imkoniyati yaxshilangani bilan bog'liq. Bu ko'rsatkichlar murabbiyga seriya oxirida hold area kengayishi yoki trigger sifati pasayishining sababi faqat texnik emas, balki funksional charchoq bo'lishi mumkinligini aniqlashga yordam beradi.

4-jadval.

SH1 sportchilarida 10 o'qlik seriya natijasi bilan yetakchi omillarning bog'liqligi

Ko'rsatkich	r	P	Bog'liqlik	Pedagogik qaror
Trigger quality	0,81	<0,05	Yuqori musbat	Quruq trigger va nafas–mo'ljal sinxroni
Trace length	−0,74	<0,05	Yuqori manfiy	Mo'ljalga kirish yo'lini qisqartirish
Diqqat barqarorligi	0,72	<0,05	Yuqori musbat	Pre-shot routine va qayta markazlashish
Hold area	−0,69	<0,05	O'rta-yuqori manfiy	Statik ushlab turish, yelka kamari nazorati
Statik ushlab turish	0,66	<0,05	O'rta-yuqori musbat	Yuklama va dam oralig'ini me'yorlash

Ko'rsatkich	r	P	Bog'liqlik	Pedagogik qaror
Tepping barqarorligi	0,61	<0,05	O'rta musbat	Mayda motor ritmi va qisqa tiklanish bloki

4-jadvalda trigger quality ning seriya natijasi bilan r=0,81 darajadagi bog'liqligi SH1 sportchilarida trigger bosish fazasi alohida pedagogik nazorat obyekti ekanini tasdiqlaydi. Biroq ushbu natija faqat barmoq texnikasini takrorlash zarur degani emas. Trigger sifatining pasayishi trace length, hold area, diqqat yoki tepping ritmidagi o'zgarish bilan birga baholanganda sabab aniqroq ochiladi. Masalan, trigger sifati past, trace length esa uzaygan bo'lsa, quruq trigger mashqi mo'ljalga kirish va nafas sinxroni bilan birlashtiriladi; diqqat ko'rsatkichi ham pasaygan bo'lsa, qisqa qayta markazlashish bloki qo'shiladi.

5-jadval.

Individual pedagogik boshqaruv uchun psixomotor-funksional qaror matriksasi

Diagnostik belgi	Ehtimoliy sabab	Murabbiyning tezkor qarori	Sportchining mustaqil vazifasi
Reaksiya vaqti uzaydi, trigger sifati pasayadi	Sensomotor kechikish yoki shoshilish	5 o'qlik qisqa seriya, quruq trigger bloki	3×6 quruq trigger; 2 nafas sikli
Tepping ritmi pasayadi, seriya oxirida ball tushadi	Mayda motor charchog'i	Takrorlar kamaytiriladi, dam oralig'i uzaytiriladi	2×30 s ritm mashqi; kundalikda qayd
Koordinatsiometr xatosi ortadi, trace kengayadi	Qo'l–qurol nazoratida noaniqlik	Mo'ljalga kirish mashqi va SCATT qayta aloqasi	5 sifatli mo'ljalga kirish takrori

Diagnostik belgi	Ehtimoliy sabab	Murabbiyning tezkor qarori	Sportchining mustaqil vazifasi
Stange/Genchi past, hold area kengayadi	Nafas va statik zo‘riqish	Statik yuklama pasaytiriladi, nafas bloki beriladi	Nafas–mo‘ljal rutini 5–7 daqiqa
Diqqat barqarorligi pasayadi	Psixofunksional zo‘riqish	Pre-shot routine, musobaqaviy seriyani qisqartirish	Xatodan keyin qayta markazlashish

Izoh: Qaror bitta testga ko‘ra emas, kamida ikki diagnostik belgi bir yo‘nalishda o‘zgarganda qabul qilinadi.

5-jadvalning amaliy ahamiyati shundaki, u murabbiyga psixomotor va funksional test natijasini bevosita mashg‘ulot mazmuniga bog‘lash imkonini beradi. Bunda sportchi tashqi boshqaruv obyekti bo‘lib qolmaydi: u mustaqil vazifani bajaradi, kundalikda o‘z holatini qayd etadi va keyingi nazoratda o‘zgarishni baholaydi. Natijada individual pedagogik boshqaruv “test o‘tkazish” bilan yakunlanmaydi, balki diagnostika, korreksiya, refleksiya va qayta nazoratning uzluksiz sikliga aylanadi.

Mazkur yondashuvning ta’limiy ahamiyati sportchida o‘z tayyorgarligi uchun mas’uliyatni rivojlantirishidadir. Murabbiy “xato qildingiz” degan umumiy ko‘rsatma bilan cheklanmay, sportchiga qaysi belgi o‘zgargani, u qaysi texnik fazaga ta’sir qilayotgani va keyingi mashg‘ulotda nimani nazorat qilish zarurligini tushuntiradi. Sportchi esa o‘z kundaligida mashqning sifati, sezilgan charchoq, diqqat holati va navbatdagi seriyadagi natijani qayd etadi. Bunday qayta aloqa murabbiyning qarorini sportchining subyektiv tajribasi bilan boyitadi hamda korreksiyani mazmunli qiladi.

Tadqiqot natijalarini talqin qilishda tanlamaning cheklanganligi hisobga olinadi: pedagogik tajribaning asosiy tahlili SH1 sport klassidagi 12 nafar sportchi bo‘yicha olib borildi. Shuning uchun aniqlangan bog‘liqliklar barcha para-o‘qotuvchilarga bir xil

ko'chirilmaydi. Biroq tajriba va nazorat guruhlaridagi farq, bir nechta psixomotor va funksional ko'rsatkichlarning uyg'un o'zgarishi hamda ularning texnik natijalar bilan bog'liqligi individual monitoring metodikasini amaliyotda qo'llash uchun ilmiy asos yaratadi. Keyingi ishlarda ushbu modelni SH2 sportchilari va uzoqroq musobaqa davri sharoitida tekshirish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

1. SH1 para-o'qotuvchilarda psixomotor va funksional monitoring texnik tayyorgarlikdan ajratilgan qo'shimcha tekshiruv emas, balki individual pedagogik boshqaruvning axborot asosi hisoblanadi.

2. Tajriba guruhida reaksiya vaqti, tepping barqarorligi, koordinatsiometr xatosi hamda diqqat ko'rsatkichlarining ishonchli yaxshilanishi individual tanlangan psixomotor mashqlar texnik korreksiya bilan birga qo'llanganda samarali ekanini ko'rsatdi.

3. Qurolni statik ushlab turish, yelka kamari barqarorligi, Stange va Genchi sinamalaridagi o'sish sportchining nafas va statik holatni boshqarish zaxirasi kuchayganini tasdiqladi. Ushbu natijalar seriya davomida texnik ritmni saqlashga xizmat qiladi.

4. Trigger quality, trace length, diqqat va tepping barqarorligi bilan aniqlangan bog'liqliklar mashg'ulot qarori bitta texnik belgi asosida emas, o'zaro bog'langan psixomotor-funksional profil asosida qabul qilinishi lozimligini ko'rsatdi.

5. Tavsiya etilgan qaror matriksasi murabbiyga yuklama, dam oralig'i va korreksion mashqni individual tanlash, sportchiga esa o'z holatini tahlil qilish va mustaqil ishlash imkonini beradi. Metodika para-o'qotuvchilar bilan o'quv-mashg'ulot jarayonida qo'llash uchun tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. World Shooting Para Sport. World Shooting Para Sport Technical Rules and Regulations. Bonn: International Paralympic Committee, 2026. (World Shooting Para Sport Technical Rules and Regulations).

2. International Paralympic Committee. IPC Classification Code and International Standards. Bonn: IPC, 2025. (IPC Classification Code and International Standards).
3. Ihalainen S., Kuitunen S., Mononen K., Linnamo V. Determinants of elite-level air rifle shooting performance. Scandinavian Journal of Medicine & Science in Sports, 2016, 26(3), 266–274. https://doi.org/10.1111/sms.12440
4. Vickers J.N. Perception, Cognition, and Decision Training: The Quiet Eye in Action. Champaign, IL: Human Kinetics, 2007. (Perception, Cognition, and Decision Training).
5. Halson S.L. Monitoring training load to understand fatigue in athletes. Sports Medicine, 2014, 44(Suppl. 2), 139–147. https://doi.org/10.1007/s40279-014-0253-z
6. Borg G. Borg's Perceived Exertion and Pain Scales. Champaign, IL: Human Kinetics, 1998. (Borg's Perceived Exertion and Pain Scales).
7. Platonov V.N. Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte. Kiev: Olimpiyskaya literatura, 2015. (System of athletes' preparation in Olympic sport).
8. Godik M.A. Kontrol trenirovochnykh i sorevnovatel'nykh nagruzok. Moskva: Sport, 2014. (Control of training and competitive loads).
9. Yevseyev S.P. Teoriya i organizatsiya adaptivnoy fizicheskoy kultury. Moskva: Sport, 2016. (Theory and organization of adaptive physical culture).
10. Muradov F.M. Para-o'q otuvchilar integral tayyorgarligi tarkibiy qismlarining tahlili. Fan-sportga, 2025, 2. (Analysis of structural components of para-shooters' integral preparation).
11. Muradov F.M. Component analysis of technical training for para-shooters. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 2025, 6(6), 126–135.
12. Muradov F.M. SH1 va SH2 sport klasslariga mansub para-o'qotuvchilarni tayyorlashda integral nazorat konturlarining ilmiy-uslubiy ahamiyati. Sportda ilmiy tadqiqotlar, 2026, 2, 128–130. (Scientific-methodological significance of integral monitoring contours in preparing SH1 and SH2 para shooters).

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ГИМНАСТИКА МАШҚЛАРИНИ ЎЗЛАШТИРИШДА ЎЙИН МЕТОДИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДРЛИГИ

М.И.Нурхонова
Узбекистон давлат жисмщний тарбия ва спорт университети
Чирчик шахри Узбекистон
Nurxonovamaxliyo305@gmail.com

Аннотация. *Мактаб жисмоний тарбия дарсларида қўлланилган махсус машқлар ва ҳаракатли ўйинлар мажмуаси 10–11 ёшли ўқувчиларнинг жисмоний сифатларини ривожлантиришда амалий самара бергани тажриба натижалари орқали тасдиқланди.*

Таянч сўзлар: *Миллий ҳаракатли ўйинлар, жисмоний тайёргарлик, техник маҳорат, машқлар мажмуаси, назорат синовлари.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИГРОВОГО МЕТОДА ПРИ ОСВОЕНИИ ГИМНАСТИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ

Аннотация. *Комплекс специальных упражнений и подвижных игр, применённый на уроках физической культуры в школе, подтвердил свою практическую эффективность в развитии физических качеств учащихся 10–11 лет.*

Ключевые слова: *Национальные подвижные игры, физическая подготовленность, техническое мастерство, комплекс упражнений, контрольные испытания.*

THE EFFECTIVENESS OF USING THE GAME METHOD IN MASTERING GYMNASTIC EXERCISES

Abstract. *The complex of special exercises and movement games used during school physical education lessons demonstrated practical effectiveness in developing the physical qualities of 10-11-year-old pupils.*

Keywords: *National movement games, physical preparedness, technical mastery, exercise complex, control tests.*

КИРИШ

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги ПФ-5924-сонли фармони асосида мамлакатимизда жисмоний тарбия ва спортни оммалаштириш, аҳоли ўртасида соғлом турмуш тарзини кенг тарғиб

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

этиш, айниқса, ўсиб келаётган авлодни жисмонан ва маънан баркамол этиб тарбиялашга қаратилган изчил ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Ушбу чора-тадбирлар ёшларни спорт турларига мақсадли йўналтириш, иқтидорли спортчиларни аниқлаш ҳамда уларни нуфузли, жумладан олимпия ўйинлари мусобақаларига тайёрлаш имкониятларини кенгайтирмоқда.

Ҳудудларда ёшлар орасидан истеъдодли спортчиларни саралаб олишнинг самарали ва очиқ тўрт босқичли — ташкилот, туман (шаҳар), ҳудуд ва республика тизимини ишлаб чиқиш ҳамда амалиётга татбиқ этиш муҳим вазифалардан бири сифатида белгиланган.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Tarix ta’limida birlamchi va ikkilamchi manbalar bilan ishlash masalasi jahon hamda mahalliy tarix metodikasi ilmidakeng tadqiq etilgan. Xususan, S. Vinburg (S. Wineburg), P. Seyshas (P. Seixas), K. Barton (K. C. Barton), L. Levstik (L. S. Levstik), S. Levek (S. Lévesque) va B. VanSledrayt (B. A. VanSledright) kabi xorijiy tadqiqotchilarning ishlarida manba bilan ishlash — o‘quvchilarda tarixiy tafakkur (historical thinking), dalillar ustida ishlash hamda o‘tmishni tanqidiy idrok etishni shakllantirishning asosiy omili sifatida baholanadi.

Mahalliy amaliyotda esa Y. Toshpo‘latov, Ya. G‘afforov kabi olimlarning tadqiqotlarida tarixni o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv hamda manbalardan foydalanish metodikasi yoritilgan. Mazkur tadqiqotda 8-sinf "O‘zbekiston tarixi" darsligi materiallarini mazmuniy-didaktik tahlil qilish, qiyosiy-metodik tahlil hamda pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Darslik tahlili shuni ko‘rsatdiki, mahalliy tarixiy manbalar mazmunan boy bo‘lishiga qaramay, ularning didaktik imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmagan. Aksariyat hollarda manbalar dars matnini to‘ldiruvchi qo‘shimcha material sifatida berilgan bo‘lib, ularni tahlil qilish, qiyoslash va tarixiy xulosa chiqarishga yo‘naltirilgan

topshiriqlar kam uchraydi. Natijada o‘quvchilarning manba bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyati to‘liq namoyon bo‘lmaydi.

Mahalliy tarixiy manbalardan samarali foydalanish, avvalo, ularning mazmuni va didaktik vazifasiga mos metodlarni tanlashni talab etadi. Masalan, "Temur tuzuklari" davlat boshqaruvi, harbiy tartib va ijtimoiy munosabatlarni yoritishda muhim manba bo‘lgani sababli undan muammoli savollar, sabab–oqibat tahlili va konseptual jadval metodlari asosida foydalanish maqsadga muvofiqlikni ko‘rsatadi. Bu o‘quvchilarga Amir Temur davlat boshqaruvining asosiy tamoyillarini mustaqil tahlil qilish imkonini beradi.

Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiy asarlaridan foydalanishda tarixiy voqealarni qiyosiy tahlil qilish, tarixiy shaxs faoliyatiga baho berish hamda mualliflarning voqealarni yoritish uslubini aniqlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar samarali hisoblanadi. Ayniqsa, darslik matni bilan tarixiy manba matnini taqqoslash o‘quvchilarning tarixiy axborotni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ahmad Fasih Xavofiy, Alisher Navoiy va Sultonali Mashhadiy asarlaridan foydalanishda esa tarixiy voqealar bilan bir qatorda Temuriylar davrining ilmiy va madaniy muhiti ham yoritilishi lozim. Bunday manbalar asosida o‘quvchilar tarixiy jarayonlarning faqat siyosiy emas, balki madaniy va ma’naviy jihatlarini ham anglaydilar.

Tahlillar asosida mahalliy tarixiy manbalardan foydalanishning metodik imkoniyatlari va shakllantiriladigan kompetensiyalar quyidagicha umumlashtirildi.

1-jadval

Mahalliy tarixiy manbalardan foydalanishning metodik imkoniyatlari:

Tarixiy manba	Qo‘llash mumkin bo‘lgan mavzular	Tavsiya etiladigan metod	Shakllantiriladigan kompetensiya

Temur tuzuklari	Davlat boshqaruvi, harbiy tizim	Muammoli savollar, sabab – oqibat tahlili	Tahlil qilish, baholash
Nizomiddin Shomiy	Amir Temurning siyosiy faoliyati	Tarixiy matn tahlili	Tarixiy tafakkur
Sharafuddin Ali Yazdiy	Harbiy yurishlar, diplomatik munosabatlar	Qiyosiy tahlil	Dalillarga asoslangan xulosa chiqarish
Ahmad Fasih Xavofiy	XIV asr oxiri siyosiy voqealari	Keys tahlili	Tarixiy jarayonlarni izohlash
Alisher Navoiy	Temuriylar davri madaniyati	Matn sharhi, munozara	Madaniy merosni anglash
Sultonali Mashhadiy	Ilm-fan va ma'naviyat	Guruhli muhokama	Kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalar

Taklif etilgan metodik yondashuv tarixiy manbalarni o'quvchilarning mustaqil bilish faoliyatini tashkil etuvchi didaktik vositaga aylantirish imkonini beradi. Bunda o'quvchilar tarixiy manbani o'qish bilan cheklanmay, uning mazmunini tahlil qiladi, boshqa manbalar bilan taqqoslaydi, muallif pozitsiyasini aniqlaydi hamda tarixiy dalillarga asoslangan xulosalar chiqaradi. Shu tariqa tarixiy manbalar tarixiy tafakkur, tanqidiy fikrlash va tarixiy kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali vositasiga aylanadi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari 8-sinf "O'zbekiston tarixi" darsligidagi "Amir Temur va Temuriylar davri" mavzularida mahalliy tarixiy manbalardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilganini ko'rsatdi. Darslikda Temur tuzuklari, Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Ahmad Fasih Xavofiy, Alisher Navoiy va Sultonali Mashhadiy

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

asarlaridan foydalanilishi o‘quvchilarga tarixiy voqealarni birlamchi manbalar asosida o‘rganish imkonini yaratadi. Bu esa tarixiy bilimlarning ishonchliligini ta’minlash bilan bir qatorda, tarixiy tafakkurni rivojlantirish uchun ham muhim didaktik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, darslikda tarixiy manbalar mazmun jihatidan to‘g‘ri tanlangan bo‘lsa-da, ulardan foydalanish metodikasi yetarli darajada rivojlantirilmagan. Manbalar asosan o‘qish uchun berilgan bo‘lib, ularni tahlil qilish, muallif pozitsiyasini aniqlash, tarixiy dalillarni qiyoslash va mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltirilgan topshiriqlar cheklangan. Natijada tarixiy manbalarning ta’limiy salohiyati to‘liq namoyon bo‘lmaydi.

Mahalliy tarixiy manbalarni didaktik funksiyalariga ko‘ra tasniflash ularni dars jarayonida maqsadli qo‘llash imkonini beradi. Xususan, Temur tuzuklari davlat boshqaruvi va siyosiy qarashlarni o‘rganishda, Shomiy hamda Yazdiy asarlari tarixiy voqealarni tahlil qilish va tarixiy shaxs faoliyatini baholashda, Alisher Navoiy va Sultonali Mashhadiy asarlari esa Temuriylar davri madaniyati va ma’naviy hayotini yoritishda samarali didaktik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Taklif etilgan metodik yondashuv tarixiy manbalarni o‘quvchilarning faol bilish faoliyatiga yo‘naltirish, tarixiy dalillar bilan ishlash, qiyosiy tahlil o‘tkazish hamda asoslangan xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan mazkur tavsiyalar tarix fanini kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish talablariga mos keladi.

XULOSA

Tadqiqot natijasida 8-sinf "O‘zbekiston tarixi" darsligidagi "Amir Temur va Temuriylar davri" mavzularida foydalanilgan mahalliy tarixiy manbalar didaktik jihatdan tahlil qilindi. Aniqlanishicha, darslikda Temur tuzuklari, Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Ahmad Fasih Xavofiy, Alisher Navoiy va Sultonali Mashhadiy asarlari asosiy mahalliy tarixiy manbalar sifatida qo‘llanilgan bo‘lib, ular davlat

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

boshqaruvi, siyosiy jarayonlar, harbiy yurishlar, ilm-fan va madaniyat tarixini yoritishda muhim o‘rin egallaydi.

Tahlillar tarixiy manbalarning didaktik salohiyati yuqori ekanini, biroq ularning imkoniyatlaridan dars jarayonida to‘liq foydalanilmayotganini ko‘rsatdi. Shu asosda tarixiy manbalarni didaktik funksiyalariga ko‘ra tasniflash hamda ularni muammoli ta’lim, tarixiy matn tahlili, qiyosiy tahlil, keys metodi va munozara orqali o‘qitishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Taklif etilgan metodik yondashuv o‘quvchilarning tarixiy manbalar bilan ishlash, tarixiy voqealarni tahlil qilish, tarixiy shaxslar faoliyatiga baho berish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur metodik tavsiyalarni O‘zbekiston tarixi fanining boshqa mavzularini o‘qitishda ham qo‘llash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. O‘zbekiston tarixi (XIII–XV asrlar): 8-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2023.
3. Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.
4. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma / Mas’ul muharrir: B. Eshpo‘latov. – Toshkent: Sharq, 1997. – 384 b.
5. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa’dayn va majmai bahrayn. J. II, Q.1. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – 632 b.
6. Ahmad Fasih Xavofiy. Mujmali Fasihiy (o‘zbek tilidagi nashri). – Toshkent: Fan, 1980.
7. Alisher Navoiy. Xamsa. Mukammal asarlar to‘plami. – Toshkent: Fan, 2006.
8. Klavixo R. G. Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403–1406) / Rus tilidan tarjima. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010.

YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA SPORT SOHASIDAGI ISLOHOTLARNING AHAMIYATI

Usmanov Yorqinbek To'lqinali o'g'li
Namangan davlat pedagogika instituti
yorqinbekusmonov48@gmail.com
Ilmiy rahbar: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) S.Botirova

Annotatsiya: *Mazkur maqolada sport sohasidagi islohotlarning yurtimiz jamiyatimiz hayotidagi o'rni asoslangan va tahlil qilingan. Shuningdek, sportni rivojlantirishdagi muhim islohotlar ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *Yangi O'zbekiston, sport, ijtimoiy hayot, tizimli islohotlar, axoli bandligi, ommaviy sport tadbirlari, "Uchinchi Renessans".*

THE IMPORTANCE OF SPORTS REFORMS IN THE DEVELOPMENT OF NEW UZBEKISTAN

Abstract: *This article analyzes and substantiates the role of sports sector reforms in the life of our society. It also examines key reforms aimed at the development of sports.*

Keywords: *New Uzbekistan, sports, social life, systemic reforms, population employment, mass sports events, "Third Renaissance".*

ВАЖНОСТЬ РЕФОРМ В СФЕРЕ СПОРТА ДЛЯ РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация: *В статье анализируется и обосновывается роль реформ в сфере спорта в жизни нашего общества. Также рассматриваются ключевые реформы, направленные на развитие спорта.*

Ключевые слова: *Новый Узбекистан, спорт, общественная жизнь, системные реформы, занятость населения, массовые спортивные мероприятия, «Третий Ренессанс».*

KIRISH

Jamiyat hayotida sportning ahamiyati ko'plab omillar bilan izohlanadi va yurtimizda ham ayni ana shu zaruratlar sportga bo'lgan e'tiborni taqozo qiladi. O'zbekiston Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ham "Jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish dolzarb vazifalarimiz qatoriga kiradi." [1] deb munosabat bildirgan edilar.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Avvalambor, axolining muntazam sport va sog‘lom turmush tarziga intilishi tibbiyotdan to ta’limgacha bo‘lgan barcha sohalar bilan bevosita yoki bilvosita rivojlantiruvchi aloqadorlikka ega. Sport insonlarda aqliy, ruxiy jihatlarda ham sihat-salomatlikni oshirish bilan inson resurslarini yaxshilaydi. Yurtimizda sog‘lom turmush tarzini faol yoyish maqsadida amalga oshirilayotga ko‘plab loyihalar va choralar bilan ham bunday intilishlar rag‘batlantirilmoqda. Ko‘ngillilar o‘rtasida marafonlar, sport bellashuvlarining o‘tkazilishi, sport inshootlarining barpo etilishi uchun davlat homiyligi asosida sharoitlarni yaxshilashga qaratilgan tizimli islohotlar jadal amalga oshmoqda. Qonuniy asosda bunday intilishlarning tartibga solinishi uchun 2026-yil 1122-sonli “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida” Qonun qabul qilindi. [2]

METODOLOGIYA

Shuningdek, global dunyoda davlatlar sportning rivojlanishi ta’lim, madaniyat, savdo kabi vositalar qatorida “yumshoq kuch” sifatida ko‘rishadi. Sportning rivojlanishi globallashgan dunyoda o‘ zligini ifodalash uchun davlatlarga zarur. Ispaniya kuchli futbol, Kuba boks, Polsha voleybol an’analari bilan jahonda tanilishga intiladi. Targ‘ibot vositasi sifatida bu mamlakatga zamonaviy dunyoda millionlab turistlar oqimini torta oladi. Mamlakat nufuzi, uning jahonda o‘z salohiyatini namoyish etish imkoniyati sifatida sportni qadrlaydilar va buning uchun mablag‘lar va imkoniyatlarni ayamaydilar. O‘zbekiston so‘nggi yillarda Jahon miqyosida o‘tkaziladigan muhim ahamiyatli sport tadbirlari uchun mezbon sifatida tanlanayotgani, buning uchun yurtimizda qizg‘in tayyorgarliklar ketayotgani ham buning tasdig‘i bo‘la oladi. Bular qatorida 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi (2026-yil), FIFA U-20 Jahon chempionati (2027-yil), Paralimpiya yengil atletikasi bo‘yicha Jahon chempionati (2027-yil) IV Yoshlar Osiyo o‘yinlari (2029-yil) kabilar bor.

Xalqaro nufuzli tadqiqotlar ham mazkur fikrlarni tasdiqlaydi. Laila El-Dabt va boshqalarning izlanishlari natijasi bunda Qatar mezbonligidagi 2022-yilgi Jahon chempionatini misol keltiradi. Qatar noodatiy tarzda mezbonlik uchun misli

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ko'rilmagan mablag'larni yo'naltirdi va bu uzoq istiqbolda mamlakatga doimiy daromad manbalarini keltiruvchi ish o'rinlarini barpo etish, sport infratuzilmasini yaxshilash, turizmni rag'batlantirish uchun qilingan dadil qadam bo'ldi. Mezbonlik xalqaro nufuz va milliy g'urur orqali ijobiy natija berdi. Pirovardida, tadqiqotchiilar sportga e'tibor mamlakatning jahon jamoatchiligi bilan hamnafasligi asosi ekanligi asoslab beradi. [3]

Yana bir sabab sifatida sportning keng aholi qatlamlarini uyushtira oladigan jozibadorligini keltirish mumkin. Ayrim hollarda sportdagi raqobat adovat va dunyoning qutblanishiga sabab bo'lishi holatlari ham kuzatilishi mumkin. Buning oqibatida ijtimoiy tartibsizliklar va noxushliklargacha bo'lgan muammoli vaziyatlar yuzaga keladi. Biroq to'g'ri munosabat bilan jamiyatga sport targ'ib qilinishi bunday xavflarni sezilarli kamaytirib insonlar ongida sog'lom munosabatni shakllantiradi. Hatto qadimgi dunyo tarixida ham Yunonistonda dastlab o'tkazilgan Olimpiada musobaqalari paytida urushlar to'xtatilib, jamiyat ezgu g'oyalar atrofida birlashishga intilgan.

MUHOKAMA

Bugungi reallikda ham sport tinchlik elchisi, turli madaniyatlar va xalqlar dunyoqarashini to'qnashtirib ularni yaqinlashtirayotgan, bunyodkor g'oyalar uchun insonlarni jalb etayotgan kuchli omil bo'lib turibdi. Ma'lum ma'noda davlatlarning birlashuvi uchun universal til sifatida xizmat qilmoqda. T.Broch asoslashicha, biz sport muxlislarining g'alaba qozonish instinktlarini ijobiy yo'naltirib, sog'lom raqobat muxitini ta'minlash orqali sportning o'zini emas, sport madaniyatini ham barobar jamiyatga tashviq etishimiz kerak [4]. Aks holda tartibsizliklar, millatchilik, muhlislar ziddiyati, diniy adovatgacha bo'lgan xavflarga duch kelamiz. Yurtimizda ayni masala strategik rivojlanish dasturlarida, ma'naviy-ma'rifiy tashviqotlarda nazarda tutilgan.

Yoshlar tarbiyasida sport to'g'ri nazorat qilinganda jinoyatchilik unsurlarini jilovlaydi, sog'lom turmush tarzini ommalashtiradi. Sport bilan shug'ullanish axolining foydali mashg'ulot bilan bandligini ta'minlashi bilan ahamiyatga ega. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanadigan yoshlar qamrovini kengaytirish masalasi 34-maqsad

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

sifatida "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 16.02.2026 yildagi PF-21-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida belgilangan [5]. Sport yoshlar bandligini ta'minlash choralaridan biri bo'lgani uchun yoshlar kundalik hayotidan o'rin olishi lozim.

Psixologik va sport sotsiologiyasiga oid tahllillar insonlar bandligi ta'minlanmagan hollarda jinoyatchilik ko'lami, umidsizlik kayfiyati ortishi muqaarraligini isbotlaydi. Yoshlar muntazam sport bilan hamohang yashaganlarida tobora matonatli, stressdan holi va ishchan tarzda mehnat bozoriga kirib boradilar. Sport bilan professional shug'ullanib, muvaffaqiyat qozonayotgan yoshlarimizning tobora ortib borayotgani mustaqillik yillarida sportga berilgan e'tibor o'z ta'sirini ko'rsatayotganini isbotlaydi. Jismoniy tarbiyaning ahamiyati yuksak baholanib Prezidentimizning "5 tashabbus" loyihalarida, Uchinchi Renessans g'oyalarida, maqsadli davlat dasturlarida alohida o'rin tutib kelmoqda.

Yurtimizda sportga munosabat muayyan davrda "badan tarbiya", "jismoniy tarbiya" kabi terminlar bilan qamrovi keng bo'lmagan tarzda tushuntirilgani ham unga nisbatan jamiyatimizda yuzaki qarashni shakllantirib qo'ygani kabi sabablarni M.Norqobilov o'rganib chiqib muhim ijobiy siljishni e'tirof etadi. Unga ko'ra, "Hozirgi kunda yuqoridagi har ikki tushunchadan ham voz kechilib, jismoniy madaniyat degan tushunchadan foydalanib kelinmoqda [6].

JSST va boshqa xalqaro tadqiqot muassasalari ham sihat-salomatlikni asrash va axolining o'rtacha umr ko'rish davomiyligini oshirishni iqtisodiy barqarorlik, ekologik vaziyat, demografik omillar kabi hayot sifatiga ta'sir qiluvchi omillarni ta'kidlaydilar. Sport esa, bunda obyektiv omillar bilan bog'liq bo'lmagan har bir shaxs tomonidan mustaqil yo'lga qo'yilishi mumkin bo'lgan sog'lom turmush tarzi belgisi sifatida shaxsiy

mas'uliyatdagi omil xisoblanadi. Ya'ni inson hayotidagi salomatlik muammolariga bevosita sport bilan ijobiy yoki unga e'tibosizlik bilan salbiy ta'sir o'tkaza oladi.

Xulosa

Yurtimizda sportga munosabat keskin o'zgarib, axoli salomatligi va sportga jalb etilishi uchun barcha sharoitlar ta'minlanmoqda va bunday o'zgarishlar yaqin avlod hayotida sportni rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlar uchun xizmat qiladi deb prognoz qilish mumkin. Sport nafaqat salomatlik, balki jamiyat birdamligi va mushtarak ezgu maqsadlar yo'lida uyushtiruvchi sabab bo'lar ekan, undan foydalanish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – B. 7.
2. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni, 24.03.2026 yildagi O'RQ-1123-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: lex.uz (murojaat sanasi: 06.07.2026).
3. El-Dabt L., AlReshaid F., Park K., AlBuloushi N., Al-Enzi A. Sustainable strategic nation branding through sports: leveraging soft power via mega-event hosting // Frontiers in Sociology. – 2025. – Vol. 10. – P. 3. – URL: DOI: 10.3389/fsoc.2025.1521396
4. Broch T. B. The cultural sociology of sport: a study of sports for sociology? // American Journal of Cultural Sociology. – 2022. – Vol. 10. – P. 536. – DOI: 10.1057/s41290-022-00177-y.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida, 16.02.2026 yildagi PF-21-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: lex.uz (murojaat sanasi: 06.07.2026).
6. Norqobilov M. N. Jismoniy tarbiya va sport: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Vneshinvestprom, 2021. – B. 9.

ICHKI MIGRANT TALABALARNING TA'LIM JARAYONIDA IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH ORQALI FUQAROLIK POZITSIYASINI MUSTAHKAMLASH YO'LLARI

Eshonjonov Bobir Zafarjonovich
"Vatan" Universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd).
Telefon:+998(93) 512-06-11 E-mail: bobireshonjonov2@gmail.com
https//:orcid.org/0009-0001-0471-732x

***Annotatsiya**: Mazkur maqolada ichki migrant talabalarning ta'lim jarayonida ijtimoiy faolligini oshirish orqali ularning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash yo'llari nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda ichki migratsiya sharoitida tahsil olayotgan talabalarning ijtimoiy moslashuvi, fuqarolik ongining rivojlanishi hamda ta'lim muhitining tarbiyaviy salohiyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ochib berilgan. Aksiologik, shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida talabalarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlar asoslab berilgan.*

***Kalit so'zlar**: ichki migrant talabalar, ijtimoiy faollik, fuqarolik pozitsiyasi, aksiologik yondashuv, fuqarolik ongini rivojlantirish, ijtimoiy-madaniy moslashuv, vatanparvarlik, pedagogik mexanizmlar, oliy ta'lim muhiti, talaba yoshlar*

WAYS TO STRENGTHEN THE CIVIC POSITION OF INTERNAL MIGRANT STUDENTS THROUGH ENHANCING THEIR SOCIAL ACTIVITY IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Bobir Zafarjonovich Eshonjonov
Senior Lecturer, Department of Social Sciences, "Vatan" University Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Phone: +998 (93) 512-06-11E-mail: bobireshonjonov2@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0001-0471-732X

***Abstract:** This article presents a theoretical and practical analysis of ways to strengthen the civic position of internal migrant students by enhancing their social activity in the educational process. The study reveals the interrelationship between the social adaptation of students studying under conditions of internal migration, the development of their civic consciousness, and the educational potential of the learning environment. Based on axiological, learner-centered, and competency-based approaches, pedagogical mechanisms aimed at fostering students' social activity are substantiated.*

***Keywords:** internal migrant students, social activity, civic position, axiological approach, development of civic consciousness, socio-cultural adaptation, patriotism, pedagogical mechanisms, higher education environment, university students.*

ПУТИ УКРЕПЛЕНИЯ ГРАЖДАНСКОЙ ПОЗИЦИИ ВНУТРЕННИХ СТУДЕНТОВ-МИГРАНТОВ ПОСРЕДСТВОМ ПОВЫШЕНИЯ ИХ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Эшонжонов Бобир Зафаржонович
старший преподаватель кафедры социальных наук Университета «Vatan» доктор философии (PhD) по педагогическим наукам
Телефон: +998 (93) 512-06-11 E-mail: bobireshonjonov2@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0001-0471-732X

Аннотация: *В данной статье с теоретической и практической точек зрения проанализированы пути укрепления гражданской позиции внутренних студентов-мигрантов посредством повышения их социальной активности в образовательном процессе. В исследовании раскрыта взаимосвязь между социальной адаптацией студентов, обучающихся в условиях внутренней миграции, развитием их гражданского сознания и воспитательным потенциалом образовательной среды. На основе аксиологического, личностно-ориентированного и компетентностного подходов обоснованы педагогические механизмы, способствующие развитию социальной активности студентов.*

Ключевые слова: *внутренние студенты-мигранты, социальная активность, гражданская позиция, аксиологический подход, развитие гражданского сознания, социокультурная адаптация, патриотизм, педагогические механизмы, образовательная среда высшего образования, студенческая молодежь.*

KIRISH

Bugungi kunda ichki migratsiya jarayonlarining kuchayishi jamiyatning barcha sohalarida, xususan, oliy ta'lim tizimida muhim ijtimoiy-pedagogik o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Turli hududlardan kelib, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan ichki migrant talabalar yangi ijtimoiy-madaniy muhitga moslashish, jamiyat hayotida faol ishtirok etish va o'z fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish zarurati bilan to'qnash kelmoqda. Shu jihatdan, ichki migrant talabalarning ta'lim jarayonidagi ijtimoiy faolligini oshirish orqali ularning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash masalasi zamonaviy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ichki migrant talabalarning ijtimoiy faolligi ularning jamiyatdagi o'rnini anglash, fuqarolik mas'uliyati,

ijtimoiy hamkorlik va vatanparvarlik tuyg‘ularining rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mazkur toifa talabalarning ta’lim jarayonida ijtimoiy faolligi yetarli darajada rag‘batlantirilmayapti, bu esa ularning fuqarolik ongining sust shakllanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini ijtimoiy yo‘naltirilgan, qadriyatga asoslangan va shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jamiyat taraqqiyotida insoniyat tafakkuri tarzi va uni yaratgan barcha moddiy, ma’naviy boyliklarning mazmun-mohiyati, ijtimoiy taraqqiyotning asosiy maqsadlari u yoki bu darajada tolerantlik fenomeniga bog‘liqdir. Shu boisdan ham ushbu ijtimoiy hodisaning ahamiyatini va uning funksional jihatlarini to‘laqonli anglash jamiyatning sotsial rivojlanishi darajasi, inson tafakkuri, dunyoqarashi va uning bilim salohiyatini kengroq tarzda belgilaydigan asosiy omil darajasiga ko‘tarilgan. Zero, “tolerantlik (lotin tilida “*tolerantia*”) – o‘zgalar hayot tarzi, nuqtayi nazarlari, g‘oyalari va e’tiqodlariga nisbatan sabrlilik, toqatlilik, bag‘rikenglik munosabatini ifodalovchi tushunchadir [1]”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-№-3907-sonli Qarori bilan barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismonan sog‘lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Intellektual salohiyatli yosh avlod, xususan o'smirlar bilan doimiy muloqot o‘tkazish sohaga oid dolzarb muammolarni aniqlash hamda ularni hal etishda davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatining ajralmas qismiga aylandi. Biroq, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o'smirlarda o‘z millatiga sodiqlik, o‘z taqdiri uchun qayg‘urish va daxldorlik hissini kuchaytirish, ularning qalblarida yot g‘oya va salbiy qarashlarning ta’siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar yetarli darajada tizimli tashkil etilmaganligi va natijada kutilgan ijobiy samara berilmayotganligi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

kuzatilmoqda. Bu borada yanada samaraliroq, innovatsion yondashuvlar va mexanizmlarni joriy etishning ilmiy-metodik asoslari va amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish bilan bog'liq fundamental ilmiy tadqiqotlarga zarurat ortmoqda.

"Avesto"da borliqning 4 ta moddiy asosi – tuproq, suv, havo, olovning muqaddaslashtirilishi va "ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal [3]" tamoyili bilan bog'liqdir. "Zardushtiylikdagi ezgulikni qaror toptirish g'oyasi insonparvarlikning buyuk tamal toshidir, desak xato bo'lmas, albatta. Shu g'oya asosida shakllangan davlat va jamiyatda odam eng oliy qadriyat darajasiga ko'tariladi. Ahuramazda o'z bandalariga iroda erkini berib, ezgulikni yovuzlikdan ajrata bilishni, faqat yovuzlikka qarshi kurash jarayonidagina jamiyatda ezgulik barqaror bo'lishini ta'kidlaydi". "Yaxshi amallarni bajarishda sobitqadam va tavba qilishda barcha gunohlardan yuz o'giraman. Men qalbimning olti xususiyatini yomonlikdan saqlagan holda, amallarning pokligini asrayman: tafakkur quvvati, so'z qudrati, ish kuchi, ehtiyotkorlik, aql va donolik"dir.

"Tolerantlik" termini ingliz olimi P.Medavar (1953) tomonidan "ko'chirib o'tkazilgan begona to'qimaga nisbatan organizm immun sistemasi "chidamliligi"ni ko'rsatish" maqsadida taklif etilgan [4]. O'zbek olimi Abdukarim Zikiryoyevning ta'kidlashicha, "tolerantlik (immunologik tolerantlik) barcha antigen immunologik xususiyatini saqlagan holda organizmning muayyan antigenga nisbatan immunologik javobining yo'qolishi yoki susayishidir. A.M.Baybakovning "Katta yoshdagi o'smirlarda kichik guruhlar orasidagi o'zaro aloqa jarayonida tolerantlikni tarbiyalash" nomli dissertatsiyasi [5]da tolerantlik tarbiyasining falsafiy, psixologik-pedagogik yo'nalishlari ajratilgan bo'lib, o'smir yoshdagi talabalarning kichik guruhlari orasida tolerantlikni qaror toptirishga xizmat qiladigan ta'limiy topshiriqlar tizimi belgilab berilgan. Shu bilan birga, R.R.Valitovaning "Tolerantlik axloqiy muammo sifatida" nomli dissertatsiyasi [6]da shaxsda mavjud bo'lgan tolerantlik tuyg'usining axloqiy me'yor sifatida rivojlantirib borilishi ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

Pedagogik bag'rikenglik — bu o'qituvchining turli madaniyatlar va ijtimoiy qatlamlarga ega bo'lgan talabalarga nisbatan ochiqligini, ularni qabul qilishini va hurmat qilishini anglatadi. Bu kompetensiya, shuningdek, o'qituvchilarning o'z bilimlarini va pedagogik usullarini talabalarning ehtiyojlariga moslashtirish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Migrant talabalarning o'ziga xos xususiyatlari va muammolarini hisobga olgan holda, o'qituvchilar ularga yordam berish uchun maxsus metodlarni qo'llashlari zarur.

Bogian o‘z tadqiqotlarida migrant talabalar bilan ishlashda o‘qituvchilarning bag‘rikenglik ta’limi bilan bog‘liq xabardorlik darajasini oshirish zaruratiga alohida e’tibor berib, bu borada maxsus pedagogik strategiyani ishlab chiqishni asoslab bergan. O’quv muassasalari madaniy va madaniyatlararo ta’limni integratsiyalashgan holda migrant talabalarni tarbiyalash mas’uliyatini o‘z zimmalariga olishlari kerakligiga urg‘u berib o‘tgan. Bu esa har bir pedagogning aqliy va axloqiy tamoyillar asosida shakllanishiga imkon yaratadi. "Migrant talabalar pedagogik tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirish metodlari" mavzusida tolerantlikning ahamiyatini ta'kidlash lozim. Tolerantlik, asosan, eng yuksak darajadagi gumanistik fazilat bo‘lib, bu fazilatni ta’lim-tarbiya jarayonlarida migrant talabalar ongiga singdirishga erishish muhimdir. Ayniqsa, migrant talabalar bilan ishlashda bu tamoyil katta ahamiyatga ega. Ba’zi AQShlik olimlar pedagogik tolerantlikni maktablardagi ijtimoiy va irqiy muammolarni bartaraf qilish, individual farqlari va xilma-xillikni qo‘llab-quvvatlash uchun zarur shart deb hisoblaydilar. Ushbu nuqtai nazar migrant talabalar ta'lim olish jarayonida va jamiyatga integratsiyalashuvida pedagogik tolerantlikning o'rnini yaqqol ko'rsatadi. Shunday qilib, pedagogik tolerantlik yordamida migrant talabalar o'zlarining yangi muhitlariga moslashishlari, ijtimoiy aloqalarini rivojlantirishlari va akademik muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur sharoitlarni yaratish mumkin. Bu jarayon, o'z navbatida, jamiyatda bag'rikenglik va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Migrant talabalar uchun bag'rikenglik kompetensiyasi juda muhimdir, chunki ular yangi madaniyat va muhitga moslashish jarayonida turli qiyinchiliklarga duch

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

kelishlari mumkin. Bag'rikenglik kompetensiyasi yordamida migrant talabalar o'zlarining yangi atrof-muhitlariga tezroq moslashishlari, yangi do'stlar orttirishlari va akademik muvaffaqiyatga erishishlari mumkin. Ular o'z madaniyati va urf-odatlarini bilishlari, shuningdek, ularning yangi muhitidagi madaniyatlarni tushunishga intilishlari kerak. Bu, masalan, yangi tilni o'rganish, mahalliy an'analarga hurmat bilan qarash va o'zaro aloqalarda ochiq fikrda bo'lishni o'z ichiga oladi. Empatiya va boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyati migrant talabalar uchun muhimdir. Ular boshqa talabalarning tajribalarini tushunib, ularga yordam berish orqali ijtimoiy tarmoqlarini kengaytirishi mumkin. Bu nafaqat ularning ijtimoiy hayotini boyitadi, balki akademik muhitda ham ko'mak beradi. Bag'rikenglik kompetensiyasi migrant talabalarni ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlashga ham undaydi. Ular o'zlarining tajribalarini boshqalar bilan baham ko'rish orqali ijtimoiy muammolarni aniqlash va hal etishda faol ishtirok etishlari mumkin. Bu, o'z navbatida, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va jamiyatda faol rol o'ynashlariga yordam beradi. Umuman olganda, migrant talabalar uchun bag'rikenglik kompetensiyasini rivojlantirish nafaqat ularning shaxsiy o'sishi uchun, balki ularning atrofidagi jamiyatni ham boyitishga xizmat qiladi. Bu jarayon orqali ular global muammolarni hal etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ko'p madaniyatli jamiyatning bir qismi bo'lishadi.

Migrant talabalarda pedagogik tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirish nafaqat o'qituvchining bilim va ko'nikmalarini oshirishni, balki uning shaxsiy fazilatlarini takomillashtirishni ham talab etadi. O'qituvchilarning tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari quyidagi omillar bilan bog‘liq:

- Tolerantlikka oid axloqiy tamoyillarga yo‘naltirilgan insoniy xulq-atvorlarning tarkib topishi. O'qituvchi nafaqat tolerantlik haqida bilishi, balki uni o'z xatti-harakatlarida namoyon eta olishi kerak.

- Tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirishda ijtimoiy xulq-atvor va ongli xatti-harakatlarning namoyon bo‘lishi. O'qituvchi o'z faoliyatida tolerantlik tamoyillariga amal qilishi, talabalar bilan muloqotda ularga hurmat bilan munosabatda bo'lishi lozim.
- Tolerantlik kompetensiyasini tarkib toptirishda samimiylik, bardoshlilik, himmatlilik kabi ko‘nikmalar va intellektuallik xususiyatlarning tarkib topishi. Ushbu fazilatlar o'qituvchiga migrant talabalarning ehtiyojlarini tushunish va ularga yordam berishda muhim rol o'ynaydi.
- Tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirishda shaxs o‘z xulq-atvoridagi kamchiliklarni anglagan holda o‘z-o‘zini tarbiyalash va shaxslararo munosabatlarda axloqiylik tamoyillarni vujudga keltirish. O'qituvchi o'z xatolarini tan olishga va ularni tuzatishga tayyor bo'lishi kerak.
- Tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirishda, bag‘rikenglikning kategoriyalaridan sanaluvchi sabr-toqatlilik, mehr-muhabbatlik, bardoshlilik, samimiylik, vafodorlik jihatlarni namoyon etish. Bu fazilatlar migrant talabalar bilan ishlashda sabrli va tushunuvchan bo'lishga yordam beradi.
- Tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirishda, asosan, o‘qituvchilarning bir-biriga hurmat, o‘zaro yordam berish, muloyimligi, sofdilligi, mehnatsevarligi kabi xususiyatlarning tarkib topishi. O'qituvchilar jamoasida tolerantlik muhitini yaratish, bu tajribani talabalarga o'tkazishga yordam beradi.
- Tolerantlikning quyidagi axloqiy belgilari, ya’ni atrofdagi kishilarga, jamoaga, jamiyatga, vatanga, mehnatga, o‘z burchiga munosabatlari hamda burch va mas’uliyat, vijdon, or-nomus, sadoqat kabi insoniy fazilatlari takomillashib boradi. Bu fazilatlar o'qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi va unga migrant talabalarga namuna bo'lishga yordam beradi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Migrant talabalarda pedagogik tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirish usullari;

1. Madaniy sezgirlik bo'yicha mashg'ulotlar: O'qituvchilar talabalarining madaniy kelib chiqishi haqida bilishga yordam berish. O'qituvchilarning madaniy sezgirligini oshirish bo'yicha mashg'ulotlar ularga talabalarning madaniy xilma-xilligi, qadriyatlari, e'tiqodlari va tajribalari haqida tushuncha beradi. Bunday mashg'ulotlar o'qituvchilarga turli madaniyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishga, stereotiplardan qochishga va madaniy jihatdan sezgir bo'lgan ta'lim muhitini yaratishga yordam beradi.

2. Empatiyaga asoslangan usullardan foydalanish: Talabalarning pozitsiyalarini ko'rishni rag'batlantirish. Empatiya - bu boshqa odamning his-tuyg'ularini tushunish va baham ko'rish qobiliyatidir. O'qituvchilar empatiyaga asoslangan usullardan foydalanib, talabalarning pozitsiyalarini ko'rishni rag'batlantirishlari mumkin. Bunga talabalarning shaxsiy hikoyalarini baham ko'rishga undash, turli nuqtai nazarlarni muhokama qilish va rolli o'yinlar o'tkazish kiradi. Empatiya talabalar o'rtasida ijobiy munosabatlarni rivojlantiradi, zo'ravonlikni kamaytiradi va akademik natijalarni yaxshilaydi.

3. Madaniy almashinuv dasturlarini amalga oshirish: Talabalarning madaniy xilma-xillikni o'rganishiga imkon berish. Madaniy almashinuv dasturlari talabalarga boshqa madaniyatlar bilan bevosita tanishish imkoniyatini beradi. Bu dasturlar talabalarga xorijga sayohat qilish, boshqa madaniyatlardan bo'lgan talabalar bilan yashash va o'qish, madaniy tadbirlarda ishtirok etish va boshqa madaniyatlarning tillarini o'rganish imkoniyatini beradi.

4. Hamkorlik loyihalarini rag'batlantirish: Har xil kelib chiqishi bo'lgan talabalar uchun ishlash imkoniyatini ta'minlash. Hamkorlik loyihalari turli madaniyatlardan bo'lgan talabalarga birgalikda ishlash imkoniyatini beradi. Bu loyihalar talabalarga o'zaro hurmat, hamkorlik va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

5. Tengdoshlarni qo'llab-quvvatlash guruhlarini yaratish: Talabalarga bir-birlari bilan bog'lanish uchun xavfsiz joy berish. Tengdoshlarni qo'llab-quvvatlash guruhlari talabalarga o'z tajribalari, his-tuyg'ulari va muammolari haqida bir-birlari bilan baham

ko'rish imkoniyatini beradi. Bu guruhlar talabalarga o'zaro yordam, tushunish va qabul qilish hissini beradi. Tengdoshlarni qo'llab-quvvatlash guruhlarida ishtirok etgan talabalar o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi, stressni kamaytiradi va ijtimoiy moslashuvni yaxshilaydi [9].

7. Adolat va inklyuzivlikni qo'llab-quvvatlash: Diskriminatsiya va kamsitishga qarshi turish. O'qituvchilar adolat va inklyuzivlikni qo'llab-quvvatlash orqali diskriminatsiya va kamsitishga qarshi turishlari mumkin. Bunga diskriminatsiya va kamsitish holatlarini qoralash, ularga qarshi kurashish va barcha talabalar uchun teng imkoniyatlar yaratish kiradi. Diskriminatsiya va kamsitishga duchor bo'lgan talabalarda stress, depressiya va o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishi kabi salbiy oqibatlar yuzaga kelishi mumkin [11].

XULOSA

Ichki migrant talabalarning ta’lim jarayonida ijtimoiy faolligini oshirish ularning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va mustahkamlashning muhim pedagogik sharti hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarning jamoaviy faoliyatga jalb etilishi, ijtimoiy loyihalarda ishtiroki, fuqarolik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash hamda ta’lim muhitining tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish ichki migrant talabalarda ijtimoiy mas’uliyat, faol fuqarolik ongini rivojlantirishga xizmat qiladi. Aksiologik va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni ichki migrant talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash, jamiyat hayotida faol ishtirok etish va vatanparvarlik pozitsiyasini mustahkamlash imkonini beradi. Mazkur maqola xulosalari oliy ta’lim muassasalarida ichki migrant talabalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, ularning ijtimoiy faolligi va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ноттурино Марк. Толерантность, свобода и истина: фаллибализм и открытие и закрытие “закрытых обществ” // Ижтимоий фикр. – 1998. – №2. – Б.89.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-№-3907-sonli Qarori.
3. Ҳамидий Х. "Авесто"дан "Шоҳнома"гача. – Т.: Шарқ, 2007. – Б.78 .
4. Авесто. Хорде Авеста (Кичик Авеста) \\ Авесто матнини тайёрлаш, таржима, сўзбоши М.В.Чистяков шарҳи. – СПб., 2005. – Б.351.
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – Т.8. – Б.486.
Байбаков А.М. Воспитание толерантности у старшего подростка в условиях взаимодействия малых групп: Дисс. канд… пед. наук. – Волгоград. 2003. – 149 б.
7. Валитова Р.Р. Толерантность как этическая проблема: Авт. дисс… канд. филос. наук. – М., 1997.
8. Boghian I. Teachers' perspectives on tolerance education. A literature review. – Journal of Innovation in Psychology, Education and Didactics, 20(2), 2016. – Pp.89–203.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

PEDAGOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION ILMIY-TADQIQOT MUHITINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Nazarov Otabek Dilshodbekovich
Qo'qon universiteti Andijon filiali
Akademik ishlar departamenti mutaxassisi p.f.f.d (PhD)
E-mail: otabeknazarov3037@gmail.com
Tel: +99894-120-89-96

Annotatsiya: *Mazkur maqolada pedagogik oliy ta'lim muassasalarida innovatsion ilmiy-tadqiqot muhitini rivojlantirishning nazariy va tashkiliy-pedagogik jihatlari tahlil qilingan. Ilmiy-tadqiqot muhitining mazmuni, asosiy tarkibiy qismlari hamda uning samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi institutsional, ilmiy-metodik, infratuzilmaviy, kommunikativ va qadriyatli omillar aniqlashtirilgan. Innovatsion ilmiy-tadqiqot muhitini rivojlantirishning strategik boshqaruvni takomillashtirish, zamonaviy ilmiy infratuzilmani yaratish, fanlararo hamkorlikni kuchaytirish, yosh tadqiqotchilarni ilmiy loyihalarga jalb etish, ilmiy rahbarlikning kollegial shakllarini joriy qilish, akademik halollikni ta'minlash hamda ilmiy natijalarni ta'lim amaliyotiga transfer qilish kabi ustuvor yo'llari asoslangan. Shuningdek, ilmiy muhit samaradorligini kompleks baholash va muntazam monitoring qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *pedagogik oliy ta'lim, innovatsion muhit, ilmiy-tadqiqot muhiti, ilmiy faoliyat, metodologiya, tadqiqot madaniyati, ilmiy hamkorlik, ilmiy klaster, tadqiqot kompetensiyasi, innovatsion ekotizim, bilimlar transferi.*

СПОСОБЫ СОЗДАНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ СРЕДЫ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация: *В статье проанализированы теоретические и организационно-педагогические аспекты развития инновационной научно-исследовательской среды в педагогических высших образовательных учреждениях. Уточнены содержание и основные структурные компоненты исследовательской среды, а также институциональные, научно-методические, инфраструктурные, коммуникативные и ценностные факторы, влияющие на её эффективность. Обоснованы приоритетные направления развития инновационной научно-исследовательской среды, включающие совершенствование стратегического управления, формирование современной исследовательской инфраструктуры, укрепление междисциплинарного сотрудничества, вовлечение молодых исследователей в научные проекты, внедрение коллегиальных форм научного руководства, обеспечение академической добросовестности и трансфер научных результатов в образовательную практику. Разработаны практические рекомендации по комплексной оценке эффективности научно-исследовательской среды и организации её систематического мониторинга.*

Ключевые слова: *педагогическое высшее образование, инновационная среда, научно-исследовательская среда, научный потенциал, научное сотрудничество, исследовательская инфраструктура, академическая добросовестность, междисциплинарная интеграция, научное руководство, трансфер знаний.*

WAYS TO DEVELOP AN INNOVATIVE SCIENTIFIC AND RESEARCH ENVIRONMENT IN PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Abstract: *The article analyses the theoretical, organisational and pedagogical aspects of developing an innovative research environment in pedagogical higher education institutions. The content and main structural components of the research environment, as well as the institutional, scientific-methodological, infrastructural, communicative and value-based factors affecting its effectiveness, are clarified. The priority directions for developing an innovative research environment are substantiated, including the improvement of strategic management, the establishment of modern research infrastructure, the strengthening of interdisciplinary collaboration, the involvement of young researchers in scientific projects, the introduction of collegial forms of research supervision, the promotion of academic integrity, and the transfer of research findings into educational practice. Practical recommendations for the comprehensive evaluation and systematic monitoring of the effectiveness of the research environment are developed.*

Key words: *pedagogical higher education, innovative environment, research environment, research capacity, scientific collaboration, research infrastructure, academic integrity, interdisciplinary integration, research supervision, knowledge transfer.*

KIRISH

Zamonaviy oliy ta’lim tizimida pedagogik kadrlarni tayyorlash sifati ta’lim jarayonining ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan qay darajada integratsiyalashganiga bevosita bog‘liq. Pedagogik oliy ta’lim muassasasi nafaqat mutaxassis tayyorlovchi, balki yangi pedagogik bilimlar, metodikalar, texnologiyalar va amaliy yechimlarni yaratuvchi ilmiy-innovatsion markaz sifatida faoliyat yuritishi lozim. Ilmiy-tadqiqot faoliyatining samaradorligi faqat professor-o‘qituvchilar tomonidan chop etilgan ilmiy maqolalar yoki o‘tkazilgan konferensiyalar soni bilan belgilanmaydi. U muassasada shakllangan ilmiy qadriyatlar, boshqaruv strategiyasi, ilmiy rahbarlik sifati, zamonaviy tadqiqot infratuzilmasi, hamkorlik madaniyati, yoshlarning ilmiy faoliyatga jalb etilishi va olingan natijalarning amaliyotga joriy etilishi bilan tavsiflanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunida

ilmiy ijod va axborot erkinligi, ilmiy ekspertizaning xolisligi, ilmiy faoliyatni rag'batlantirish, yoshlarni ilm-fanga jalb etish, ilmiy infratuzilmani rivojlantirish hamda ilm-fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan [1]. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham ta'lim, ilm-fan, innovatsiya va ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etish jarayonlarining uzviyligini ta'minlash muhim vazifa sifatida qayd etilgan [2].

Shu jihatdan pedagogik oliy ta'lim muassasalarida innovatsion ilmiy-tadqiqot muhitini rivojlantirish yo'llarini ilmiy asoslash, mazkur jarayonga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va samarali tashkiliy-pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Innovatsion ilmiy-tadqiqot muhitining strategik boshqaruv, infratuzilma, metodik ta'minot, hamkorlik, akademik qadriyatlar va natijalar transferiga asoslangan yaxlit tizim ekanligi maqolaning nazariy asosini tashkil etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida innovatsion ilmiy-tadqiqot muhitini rivojlantirish muammosi ilmiy faoliyat metodologiyasi, pedagogik innovatika, tadqiqotchilik kompetensiyasi, kreativlik, ilmiy hamkorlik va pedagogik ta'lim klasteriga oid tadqiqotlar bilan uzviy bog'liq.

N.A. Shermuhamedovaning "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" darsligida ilm-fanning ijtimoiy-madaniy mohiyati, ilmiy ijod, innovatsiya va novatsiya tushunchalari, ilmiy bilish metodlari hamda tadqiqotchining ijtimoiy mas'uliyati yoritilgan [3]. Muallifning qarashlari innovatsion ilmiy-tadqiqot muhitini faqat moddiy va texnik resurslar majmui sifatida emas, balki ilmiy qadriyatlar, ijodiy tafakkur, erkin ilmiy muloqot va mas'uliyatga asoslangan akademik makon sifatida tushunish imkonini beradi.

B. Xodjayev, A. Choriyev va Z. Saliyevaning "Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi" darsligida pedagogik tadqiqot muammosini shakllantirish, obyekt va predmetni belgilash, ilmiy farazni ilgari surish, tadqiqot metodlarini tanlash hamda

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

natijalarning ishonchliligini asoslash masalalari tizimli yoritilgan [4]. Ushbu yondashuv ilmiy-tadqiqot muhitini rivojlantirishda professor-o‘qituvchilar, doktorantlar va magistrantlarning metodologik tayyorgarligini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

N.N. Azizxo‘jayevaning “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” o‘quv qo‘llanmasida pedagogik innovatsiyalar, o‘qituvchining kasbiy mahorati va pedagogik jarayonni loyihalash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan [5]. Muallif innovatsion faoliyat samaradorligini pedagogning ijodiy yondashuvi, kasbiy kompetensiyasi va yangiliklarni amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyati bilan bog‘laydi.

R. Ishmuhamedov, A. Abduqodirov va A. Pardayevlarning “Ta’limda innovatsion texnologiyalar” o‘quv qo‘llanmasida individual, kichik guruh va jamoaviy faoliyatni tashkil etish, hamkorlikda o‘qitish, muammoli vaziyatlar, ilmiy munozaralar va interfaol metodlardan foydalanish masalalari yoritilgan [6]. Mazkur fikrlar ilmiy-tadqiqot muhitida hamkorlik, jamoaviy izlanish va ilmiy kommunikatsiyani rivojlantirishning metodik asoslarini belgilaydi.

G‘.I. Muhamedov, U.N. Xodjamqulov va S.A. Toshtemirovalarning “Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri” monografiyasida pedagogik oliy ta’lim muassasalari, ilmiy tashkilotlar, umumiy o‘rta ta’lim maktablari va boshqa hamkor subyektlarning o‘zaro manfaatli hamkorligini tashkil etish mexanizmlari asoslangan [7]. Klasterli yondashuv ilmiy-tadqiqot muhitini universitet doirasidagi yopiq tizim emas, balki ta’lim, fan va amaliyot subyektlarini birlashtiruvchi ochiq pedagogik ekotizim sifatida rivojlantirish imkonini beradi.

B.E. Karimovaning “Kreativ pedagogika” o‘quv qo‘llanmasida kreativ fikrlash, innovatsion ta’lim, ilmiy izlanish va yangi pedagogik yechimlarni yaratishga doir nazariy hamda metodik masalalar bayon qilingan [8]. Mazkur qarashlar tadqiqotchilarning ilmiy tashabbuskorligi, mustaqil fikrlashi va yangi g‘oyalarni ilgari surishini qo‘llab-quvvatlovchi muhitni shakllantirish zarurligini asoslaydi.

Xorijiy tadqiqotlarda ilmiy-tadqiqot muhitining samaradorligi strategik

yetakchilik, institutsional qo'llab-quvvatlash, inson va moliyaviy resurslar, tadqiqotchilar o'rtasidagi hamkorlik hamda ilmiy dalillardan foydalanish madaniyatining uyg'unligiga bog'liqligi ko'rsatilgan. OECD tadqiqotlarida ta'lim tizimida ilmiy natijalardan foydalanish uchun tegishli rag'batlar, tashkiliy tuzilmalar, samarali boshqaruv va barqaror hamkorlik zarurligi ta'kidlangan [9].

UNESCOning Ochiq ilm bo'yicha tavsiyasida ilmiy bilimlarning ochiqligi, tekshiriluvchanligi, ilmiy axborot va ma'lumotlardan qayta foydalanish, ochiq ilmiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda manfaatdor tomonlarning hamkorligini kuchaytirish zamonaviy ilmiy muhitning ustuvor xususiyatlari sifatida belgilangan [10].

Milliy va xorijiy ilmiy manbalar tahlili pedagogik oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot muhitini rivojlantirishning ayrim metodologik, texnologik va tashkiliy jihatlari o'rganilganini ko'rsatadi. Biroq strategik boshqaruv, ilmiy infratuzilma, metodik ta'minot, fanlararo hamkorlik, akademik qadriyatlar va ilmiy natijalarni ta'lim amaliyotiga joriy etish yo'llarini yagona tizim sifatida asoslash zarurati saqlanib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot yosh o'qituvchilarning emotsional barqarorligi va kasbiy moslashuvi o'rtasidagi psixologik bog'liqlikni aniqlashga qaratildi. Tadqiqotda jami 78 nafar yosh o'qituvchi ishtirok etdi. Ishtirokchilarning pedagogik ish staji 1 yildan 5 yilgacha bo'lib, ular umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi pedagoglardan iborat edi. Tadqiqotda K. M. Connor va J. R. T. Davidson tomonidan 2003-yilda ishlab chiqilgan Connor–Davidson Resilience Scale (CD-RISC-25) metodikasining yosh o'qituvchilar faoliyati sharoitiga moslashtirilgan varianti qo'llanildi. Metodika o'qituvchilarning stressga bardoshliligi, emotsional barqarorligi hamda kasbiy moslashuv resurslarini baholash imkonini beradi.

So'rovnoma 25 ta bayonotdan tashkil topgan bo'lib, har bir bayonot 0 dan 4 ballgacha bo'lgan Likert shkalasi asosida baholandi: 0 — "umuman to'g'ri emas", 1 — "kamdan-kam to'g'ri", 2 — "ba'zan to'g'ri", 3 — "ko'pincha to'g'ri", 4 — "deyarli har doim to'g'ri". Umumiy natija 0 dan 100 ballgacha diapazonda aniqlandi.

Tadqiqot doirasida metodika uch yo'nalish bo'yicha tahlil qilindi:

1. Stressga bardoshlilik — pedagogik qiyinchiliklar, tanqid, konflikt va zo'riqishli vaziyatlarda o'zini boshqara olish hamda tiklana olish qobiliyati;
2. Emotsional barqarorlik — hissiy holatni nazorat qilish, salbiy emotsiyalarni boshqarish va stress sharoitida vazmin qaror qabul qilish;
3. Kasbiy moslashuv — yangi ish jamoasi, kasbiy talablar, pedagogik vazifalar hamda o'qituvchilik roliga moslasha olish darajasi.

Ma'lumotlar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlandi. Jumladan, o'rtacha arifmetik ko'rsatkichlar, foizli tahlil va emotsional barqarorlik hamda kasbiy moslashuv o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti qo'llanildi.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot natijalariga ko'ra, 78 nafar yosh o'qituvchining psixologik bardoshlilik, emotsional barqarorlik va kasbiy moslashuv ko'rsatkichlari turli darajada namoyon bo'ldi.

Ko'rsatkich darajasi	**Respondentlar soni**	**Foiz hisobida**
Past daraja	13 nafar	16,7%
O'rtacha daraja	29 nafar	37,2%
Yuqori daraja	27 nafar	34,6%
Juda yuqori daraja	9 nafar	11,5%
Jami	78 nafar	100%

Natijalardan ko'rinadiki, ishtirokchilarning aksariyati — 71,8 foizi o'rtacha va yuqori darajadagi psixologik bardoshlilikka ega ekanligini ko'rsatdi. Bu holat yosh o'qituvchilarning ma'lum darajada kasbiy qiyinchiliklarga moslasha olayotganini, biroq ularning ayrim qismida hissiy zo'riqish va pedagogik stressga sezuvchanlik mavjudligini anglatadi.

Tahlillarga ko'ra, 13 nafar respondentda emotsional barqarorlik va kasbiy moslashuv ko'rsatkichlari past darajada qayd etildi. Ushbu guruh vakillarida dars jarayonidagi kutilmagan vaziyatlar, rahbariyat yoki hamkasblar tomonidan bildirilgan tanqidlar, o'quvchilar hamda ota-onalar bilan muloqotdagi qiyinchiliklar hissiy zo'riqishni kuchaytirishi kuzatildi. Bunday o'qituvchilarda o'ziga ishonchning pasayishi, tez charchash, kasbiy vaziyatlarga nisbatan xavotirli munosabat hamda yangi talablarni qabul qilishdagi qiyinchiliklar namoyon bo'lishi mumkin. O'rtacha darajadagi 29 nafar

yosh o'qituvchi kasbiy vaziyatlarga qisman moslasha olishi, biroq murakkab yoki ziddiyatli holatlarda qo'shimcha psixologik yordam va kasbiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezishi bilan ajralib turdi. Ushbu guruhda stressni boshqarish, hissiy o'zini nazorat qilish hamda pedagogik nizolarni konstruktiv hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Yuqori va juda yuqori darajaga ega bo'lgan 36 nafar yosh o'qituvchi esa stressli vaziyatlarda hissiy muvozanatni saqlash, pedagogik muammolarga moslashuvchan yondashish, tanqidni rivojlanish manbai sifatida qabul qilish va kasbiy faoliyatga nisbatan ijobiy munosabat bildirish xususiyatlari bilan tavsiflandi.

Pearson korrelyatsion tahlili emotsional barqarorlik va kasbiy moslashuv o'rtasida ijobiy hamda statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi:

$$r = 0.68,\ p < 0.01$$

Mazkur ko'rsatkich emotsional barqarorlik oshgani sari yosh o'qituvchilarning kasbiy moslashuv darajasi ham ortishini bildiradi. Ya'ni, o'z hissiyotlarini boshqara oladigan, stressli holatlarda vazmin qoladigan va salbiy tajribadan tez tiklanadigan o'qituvchilar yangi ish sharoiti, jamoa talablari hamda pedagogik faoliyatdagi murakkab vaziyatlarga nisbatan muvaffaqiyatliroq moslashadilar.

XULOSA

Tadqiqot natijalari yosh o'qituvchilarning emotsional barqarorligi ularning kasbiy moslashuv jarayonida muhim psixologik omil ekanini ko'rsatdi. 78 nafar yosh o'qituvchi ishtirokida o'tkazilgan tadqiqotda respondentlarning asosiy qismi o'rtacha va yuqori darajadagi stressga bardoshlilik hamda kasbiy moslashuv ko'rsatkichlariga ega ekani aniqlandi. Korrelyatsion tahlil natijasida emotsional barqarorlik va kasbiy moslashuv o'rtasida ijobiy, kuchli hamda statistik ahamiyatli bog'liqlik mavjudligi belgilandi ($r; = 0.68p < 0.01$). Demak, yosh o'qituvchining hissiy holatini boshqara olishi, stressga chidamliligi, tanqid va muvaffaqiyatsizliklarni konstruktiv qabul qilishi uning pedagogik jamoaga, ta'lim muassasasining talablariga hamda kasbiy vazifalarga tezroq va samaraliroq moslashishiga yordam beradi. Shu bois yosh o'qituvchilar bilan

olib boriladigan psixologik va metodik ishlar doirasida stressni boshqarish, emotsional intellekt, o'zini o'zi boshqarish, nizolarni konstruktiv hal qilish hamda kasbiy refleksiya ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan treninglarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu nafaqat yosh mutaxassislarning kasbiy moslashuvini yengillashtiradi, balki pedagogik faoliyat samaradorligi va kasbiy qoniqishni ham oshiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aydınay A. İş tatmini ile denetim odağı arasındaki ilişki (Resmi, Özel, Yabancı Özel Lise Öğretmenleri Üzerinde Yapılmış Bir Araştırma). Yayınlanmamış Yüksek Lisans Tezi. – Marmara Üniversitesi, İstanbul, 1996.
2. Bermejo-Toro L., Prieto-Ursúa M., Hernández V. Towards a model of teacher well-being: Personal and job resources involved in teacher burnout and engagement // Educational Psychology. – 2016. – Vol. 36. – P. 481–501.
3. Bircan İ. Türkiye'de eğitim-istihdam ilişkisi // Planlama Dergisi. – Ankara, 1984.
4. Can G. Eğitim fakültesi ve öğretmenlik sertifikası programlarının öğretmen adaylarında tutum geliştirme açısından etkililiği // İzmir 1. Ulusal Eğitim Kongresi Bildirileri. – 25–27 Kasım 1991. – S. 162–167.
5. Eren E. Yönetim psikolojisi. – İstanbul: Yön Ajans, 1989. – Genişletilmiş 3. Baskı.
6. Klusmann U., Kunter M., Trautwein U., Lüdtke O. Engagement and emotional exhaustion in teachers: Does the school context make a difference? // Applied Psychology. – 2008. – Vol. 57, No. S1. – P. 127–151. – DOI: 10.1111/j.1464-0597.2008.00358.x.
7. Louis K., Smith B. Restructuring, teacher engagement and school culture: Perspectives on school reform and the improvement of teacher's work // School Effectiveness and School Improvement. – 1990. – Vol. 2, No. 1. – P. 34–52.
8. Mitchell T. R., Larson J. People in organizational behaviour. – New York: McGraw-Hill Company, 1987.
9. Noori N., Fatemi M. A., Najjari H. The relationship between EFL teachers' motivation and job satisfaction in Mashhad language institutions // Open Access Library Journal. – 2014. – Vol. 1, No. 7. – October 29.
10. Nwoko J. C., Emeto T. I., Malau-Aduli A. E. O., Malau-Aduli B. S. A systematic review of the factors that influence teachers' occupational wellbeing // International Journal of Environmental Research and Public Health. – 2023. – Vol. 20, No. 12. – Article 6070. – DOI: 10.3390/ijerph20126070.
11. Rask K., Astedt-Kurki P., Laippala P. Adolescent subjective well-being and realized values // Journal of Advanced Nursing. – 2002. – Vol. 38. – P. 254–263.

12. Retelsdorf J., Butler R., Streblow L., Schiefele U. Teachers' goal orientations for teaching: Associations with instructional practices, interest in teaching, and burnout // Learning and Instruction. – 2010. – Vol. 20, No. 1. – P. 30–46. – DOI: 10.1016/j.learninstruc.2009.01.001.

13. Robbins S. P. Organizational behavior. – 7th ed. – New Jersey: Prentice Hall, Inc., 1996.

14. Uyargil C. Kişinin genel yaşam tatmininde işinin önemi // İstanbul Üniversitesi Eğitim Fakültesi Dergisi. – 1983. – Sayı 2. – Kasım.

15. Maxsudova M.A.Umumiy psixologiya. *O'quv qo'llanma* /. – Namangan: «Sunrise-pro», 2025. – 288 b. (101-s)

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

XX ASRNING 20–40-YILLARIDA O'ZBEKISTONDA ILM-FAN VA TA'LIM TIZIMINING SHAKLLANISHI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Qudratov Anvar Toshturdi o'g'li
Denov tadbirkorlik va pedagogika institute
70220301 – Tarix mutaxassisligi bitiruvchisi
Tel: +998 (50) 302-01-70; E-mail: anvarkudratov686@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada XX asrning 20–40-yillarida O'zbekistonda dunyoviy ta'lim tizimi va zamonaviy ilm-fan poydevorining qo'yilish jarayoni, sovet hokimiyatining dastlabki yillaridagi islohotlar, shuningdek, milliy ziyolilar qatlamining shakllanishi tarixiy-qiyosiy tahlil qilingan. Davrning ziddiyatli jihatlari, savodsizlikni tugatish choralari hamda ilk oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi arxiv manbalari va ilmiy adabiyotlar asosida yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim tizimi, ilm-fan, XX asr, 20–40-yillar, sovet islohotlari, milliy ziyolilar, oliy o'quv yurtlari, savodsizlikni tugatish.*

ФОРМИРОВАНИЕ НАУЧНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В 1920-1940-Х ГОДАХ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Аннотация. *В статье историко-сравнительно анализируются процесс закладки основ светской системы образования и современной науки в Узбекистане в 20–40-х годах XX века, реформы первых лет советской власти, а также формирование слоя национальной интеллигенции. На основе архивных источников и научной литературы освещены противоречивые аспекты эпохи, меры по ликвидации неграмотности и создание первых высших учебных заведений.*

Ключевые слова: *система образования, наука, XX век, 20–40-е годы, советские реформы, национальная интеллигенция, высшие учебные заведения, ликвидация неграмотности.*

FORMATION OF THE SCIENCE AND EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN IN THE 1920S-1940S: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Abstract. *The article provides a historical and comparative analysis of the process of laying the foundations of the secular education system and modern science in Uzbekistan during the 1920s and 1940s, the reforms of the early years of the Soviet regime, as well as the formation of the layer of national intellectuals. Based on archival sources and scientific literature, the contradictory aspects of the era, measures to eliminate illiteracy, and the establishment of the first higher education institutions are highlighted.*

Keywords: *education system, science, 20th century, 1920s–1940s, Soviet reforms, national intellectuals, higher education institutions, eradication of illiteracy.*

KIRISH

XX asrning birinchi yarmi O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyotida tub burilish davri sifatida tarixiy ahamiyat kasb etadi. Turkistonda asrlar davomida shakllangan an’anaviy ta’lim tizimi (maktab va madrasalar) o‘rniga yangi turdagi dunyoviy ta’lim tizimining joriy etilishi, jamiyat hayotining barcha jabhalarida, xususan, maorif va ilm-fan sohasida tub islohotlarni amalga oshirishni taqozo etdi. 1920–1940-yillarda O‘zbekistonda zamonaviy ta’lim tizimini yaratish, ilm-fan maskanlarini tashkil etish hamda milliy kadrlar tayyorlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu jarayonlarning ilmiy tahlili bugungi kunda Yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim tizimini rivojlantirishning tarixiy saboqlarini anglash nuqtai nazaridan g‘oyat dolzarb ahamiyatga ega.

METODOLOGIYA

Ushbu davr ta’lim va ilm-fan taraqqiyoti masalalari ayrim tadqiqotlarda qisman yoritilgan bo‘lsa-da, sovet mafkuraviy tazyiqlari va ma’muriy-buyruqbozlik tizimining ta’lim jarayoniga ta’siri hamda milliy ziyolilar qatlamining shakllanishi kabi masalalar hali ham chuqur ilmiy yondashuvni talab etadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – 1920–1940-yillarda O‘zbekistonda dunyoviy ta’lim tizimi va zamonaviy ilm-fan poydevorining qo‘yilish jarayonini tarixiy-qiyosiy tahlil qilish, sovet hokimiyatining dastlabki yillardagi islohotlarining mohiyatini hamda milliy ziyolilar qatlamining shakllanishiga oid ziddiyatli jihatlarni arxiv manbalari va ilmiy adabiyotlar asosida ochib berishdan iborat.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O‘zbekistonda 1920–1940-yillarda ta’lim va ilm-fan tizimini shakllantirish jarayoni o‘ta ziddiyatli, murakkab bosqichlarni bosib o‘tdi va keskin mafkuraviy kurashlar ostida ro‘yobga chiqdi. Dastlabki yillarda mavjud an’anaviy ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, jadidlarning ma’rifatparvarlik g‘oyalaridan qisman foydalangan holda yangi turdagi sovet maktablarini barpo etishga kirishildi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

1920-yillarning boshlaridan boshlab respublika aholisi o‘rtasida savodsizlikni tugatish bo‘yicha favqulodda chora-tadbirlar ko‘rildi. "Lug‘at" va "alifbe" to‘garaklari keng tarmoqda tashkil etilib, mehnatkashlarni o‘qish va yozishga o‘rgatish ishlari ommaviy tus oldi. Dastlabki bosqichda arab alifbosidan vaqtincha foydalanilgan bo‘lsa, keyinchalik sovet maorif siyosatining markazlashuvi natijasida 1929-yilda lotin yozuviga, 1940-yilda esa kirill alifbosiga o‘tish amalga oshirildi. Arxiv manbalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu kabi tezkor alifbo o‘zgarishlari qisqa muddatda aholining umumiy savodxonlik darajasini oshirgan bo‘lsa-da, madaniy-ma’rifiy uzluksizlikka va boy yozma merosimizdan vaqtincha uzilib qolishga o‘zining salbiy ta’sirini ham ko‘rsatmay qolmadi.

Respublikada fan va mutaxassis kadrlar tayyorlashga bo‘lgan o‘tkir ehtiyoj 1920-yillarning o‘rtalaridan e’tiboran ilk oliy o‘quv yurtlarini ochishni taqozo etdi. Xususan, 1920-yilda Toshkent shahrida Turkiston davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti)ning tashkil etilishi O‘zbekistonda ilm-fan va oliy ta’lim tarixida yangi sahna ochdi. 1930-yillarga kelib esa pedagogika, qishloq xo‘jaligi va tibbiyot yo‘nalishidagi alohida institutlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. SSSR Fanlar akademiyasining O‘zbekiston filiali negizida ilmiy-tadqiqot ishlari tizimli tus ola boshladi va respublikada zamonaviy ilmiy maktablarning asoslari yaratildi.

Ta’lim va ilm-fanning rivojlanishi o‘z navbatida mahalliy ziyolilar qatlamining shakllanishini taqozo etdi. Biroq bu jarayon bolsheviklar mafkurasining qattiq nazorati va tazyiqi ostida kechdi. 1920-yillarning oxiri va 1930-yillarda sovet hokimiyatiga sadoqat bilan birga milliy o‘zlikni, til va madaniyatni saqlab qolishga intilgan jadidlar va ilg‘or milliy ziyolilar qatlamiga nisbatan shafqatsiz qatag‘on siyosati olib borildi. Ilm-fan va ta'lim sohasidagi yetakchi mutaxassislar asossiz ravishda "millatchilik" va "aksilsovet targ‘ibot"da ayblanib, jazolandi. Bu esa o‘zbek ilm-fani taraqqiyotiga ulkan zarar yetkazdi. Shunga qaramay, mazkur qiyinchiliklarga qaramay, yangi avlod milliy kadrlari yetishib chiqib, fan va ta'lim sohasining keyingi taraqqiyotini ta'minladilar.

1930-yillarning ikkinchi yarmiga kelib respublikada nafaqat ta'lim maskanlari, balki akademik darajadagi ilmiy-tadqiqot muassasalari tarmog‘i ham izchil shaklana boshladi. Xususan, tarix, til va adabiyot, iqtisodiyot hamda qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi ixtisoslashtirilgan ilmiy-tekshirish institutlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. SSSR Fanlar akademiyasining O‘zbekiston filiali (UzFAN) tashkil etilishi bilan mintaqaning tabiiy resurslarini chuqur o‘rganish, qishloq xo‘jaligini fan yutuqlari asosida rivojlantirish va qadimiy tariximizni tadqiq etishda fundamental ilmiy izlanishlar boshlandi. Arxiv hujjatlari tahlili ko‘rsatishicha, mazkur jarayon O‘zbekistonda professional ilmiy maktablar va mahalliy olimlar kadrlari qatlamining shakllanishiga kuchli turtki berdi.

Ta'lim tizimini kengaytirish va ommalashtirish jarayoni eng og‘ir muammolardan biri – malakali pedagog kadrlar yetishmasligi muammosini yuzaga keltirdi. Sovet hokimiyati dastlabki yillarda bu bo‘shliqni to‘ldirish uchun markaziy hududlardan (Rossiya va boshqa Yevropa markazlaridan) o‘qituvchi hamda mutaxassislarni jalb qilishga majbur bo‘ldi. Biroq tez fursatda mahalliy yoshlarni jalb qilgan holda o‘qituvchilar tayyorlaydigan pedagogika texnikumlari va qisqa muddatli kurslar tarmog‘i kengaytirildi. Pedagogika institutlarining ochilishi milliy o‘qituvchilar korpusini shakllantirishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qildi. Garchi mazkur kadrlar tayyorlash tizimi markazning qattiq mafkuraviy nazorati va bosimi ostida amalga oshirilgan bo‘lsa-da, respublikada maorif sohasining barqaror ishlashini ta'minladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, XX asrning 20–40-yillari O‘zbekiston tarixida ta’lim va ilm-fan tizimining tubdan isloh qilingan, o‘ta ziddiyatli va murakkab shakllanish bosqichi sifatida tarixiy ahamiyat kasb etadi. Olib borilgan ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sovet hokimiyatining mafkuraviy tazyiqlari, ma’muriy-buyruqbozlik siyosati va shafqatsiz qatag‘on jarayonlariga qaramay, aynan mazkur davrda respublikada dunyoviy ta’lim tizimining fundamental poydevori yaratildi.

Mazkur davr tarixiy jarayonlarini chuqur o‘rganish quyidagi ilmiy xulosalarga kelish imkonini beradi:

- Birinchidan, aholi o‘rtasida savodsizlikni tugatish bo‘yicha amalga oshirilgan favqulodda chora-tadbirlar hamda yozuv tizimining (arab-lotin-kirill) shiddat bilan o‘zgartirilishi qisqa fursatda umumiy savodxonlik darajasini oshirdi. Shu bilan birga, bu jarayon madaniy-ma’rifiy uzluksizlikka ma'lum ma'noda putur yetkazib, boy yozma merosimizdan vaqtincha uzilib qolishdek murakkab muammolarni ham keltirib chiqardi.
- Ikkinchidan, respublikada ilk oliy o‘quv yurtlari va akademik darajadagi ilmiy-tadqiqot muassasalarining tashkil etilishi ilm-fan sohasida milliy kadrlar tayyorlash tizimining asosini yaratdi hamda fundamental fanlarning rivojlanishiga qattiq zamin hozirladi.
- Uchinchidan, ta'lim va ilm-fan tarmoqlarini kengaytirish jarayonida yuzaga kelgan kadrlar taqchilligini bartaraf etish maqsadida pedagogika texnikumlari va institutlarining ochilishi milliy o‘qituvchilar korpusini shakllantirishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qildi. Garchi bu tizim markazning qattiq mafkuraviy nazorati ostida kechgan bo‘lsa-da, respublikada maorif sohasining barqaror faoliyatini ta'minladi.
- To‘rtinchidan, sovet hokimiyatining qatag‘on siyosati natijasida milliy ziyolilarimizning yetakchi vakillari asossiz ravishda qurbon bo‘lganiga qaramay, yangi avlod milliy kadrlari o‘zbek ilm-fani, adabiyoti va madaniyati taraqqiyotiga ulkan ulush qo‘shdilar.

Umuman olganda, 20–40-yillardagi murakkab tarixiy burilishlar va og‘ir sinovlarga qaramay, O‘zbekistonda zamonaviy intellektual salohiyatning mustahkam poydevori qo‘yildi. Bu davrda qo‘lga kiritilgan tajriba, yo‘l qo‘yilgan xatolar va erishilgan yutuqlar bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'rifiyislohotlarning tarixiy ildizlarini anglashda muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aminova R.X. O‘zbekistonda xotin-qizlar sovet hokimiyati yillarida. — Toshkent: Fan, 1971. — 232 b.

2. Ashurov A. O‘zbekistonda xalq ta’limi tarixidan. — Toshkent: O‘qituvchi, 1969. — 175 b.

3. Ergashev B. O‘zbekistonda ziyolilarning shakllanishi va rivojlanishi (1917–1941 yy.). — Toshkent: Fan, 1990. — 142 b.

4. Ziyoev H. O‘zbekiston tarixi (XIX asrning ikkinchi yarmi — XX asr boshlari). — Toshkent: Sharq, 2000. — 456 b.

5. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. — Toshkent: Sharq, 1998. — 32 b.

6. Qodirov A. O‘zbekistonda ilm-fan tarixi (XX asrning birinchi yarmi). — Toshkent: Akademnashr, 2011. — 210 b.

7. Maxmudova Z. XX asrning 20–30-yillarida O‘zbekistonda madaniy qurilish jarayonlari. — Toshkent: Mumtoz so‘z, 2018. — 184 b.

8. Nabiyev R. Sovet hokimiyatining O‘zbekistondagi madaniy siyosati va uning oqibatlari. — Toshkent: O‘zbekiston, 2009. — 240 b.

9. Rajabov Q. XX asr 20–30-yillarida O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. — Toshkent: Akademnashr, 2015. — 288 b.

10. Saidov A. O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimining rivojlanish bosqichlari. — Toshkent: Universitet, 2013. — 196 b.

11. Tursunov S. O‘zbekistonda madaniy hayot tarixi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2004. — 310 b.

12. Ubaydullayeva R. O‘zbekistonda xotin-qizlarning ta’lim olish tarixi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2007. — 155 b.

13. Xasanov K. Turkistonda jadidchilik harakati va ma’rifatparvarlik. — Toshkent: Ma’naviyat, 1994. — 120 b.

14. Shermuhamedova N. O‘zbekistonda ilmiy kadrlar tayyorlash masalalari (1920–1940-yillar). — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. — 168 b.

15. Yusupov M. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining tashkil topish tarixi. — Toshkent: Fan, 1983. — 204 b.

16. O‘zbekiston tarixi (Eng yangi davr / Buxorova G. va boshq.). — Toshkent: Tafakkur, 2017. — 400 b.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

17. O'zbekiston SSR tarixi. 3-jild. (Tahrir hay'ati: Aminova R. va boshq.). — Toshkent: Fan, 1967. — 520 b.

18. Эргашев И. Советская интеллигенция Узбекистана. — Ташкент: Узбекистан, 1981. — 190 с.

19. Ибрагимова З. Культурное строительство в Узбекистане в переходный период. — Ташкент: Фан, 1976. — 215 с.

20. Ражапов Қ. Ўзбекистонда маданий ҳаёт (1917–1941 йиллар). — Тошкент: Академнашр, 2020. — 250 б.

GANDBOL SPORT TURINING YOSHLARNI JISMONIY TAYYORLASHDAGI AHAMIYATI

Abdulboriyeva Gulzoda Ahadjon qizi
Namangan, Uzbekistan
***E-mail**: abdulboriyeva@icloud.com*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada gandbol sport turining yoshlarni jismoniy tayyorlashdagi ahamiyati yoritilgan. Gandbol mashg'ulotlarining yoshlar organizmining jismoniy rivojlanishi, tezkorlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik, egiluvchanlik va harakat koordinatsiyasini takomillashtirishdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, gandbol mashg'ulotlari orqali yoshlarning irodaviy sifatlari, jamoaviy hamkorligi, intizomi va sog'lom turmush tarziga bo'lgan munosabatini shakllantirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Gandbolning muntazam mashg'ulotlari yoshlarning jismoniy faolligini oshirish, sog'lig'ini mustahkamlash va sport mahoratini rivojlantirishning samarali vositasi ekanligi asoslangan.*

Kalit so'zlar: *gandbol, yoshlar, jismoniy tarbiya, jismoniy tayyorgarlik, sport, chaqqonlik, tezkorlik, kuch, chidamlilik, koordinatsiya, sog'lom turmush tarzi.*

ЗНАЧЕНИЕ ГАНДБОЛА В ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКЕ МОЛОДЕЖИ

Аннотация: *В статье рассматривается значение гандбола в физической подготовке молодежи. Анализируется роль занятий гандболом в физическом развитии организма, совершенствовании быстроты, ловкости, силы, выносливости, гибкости и координации движений молодых людей. Особое внимание уделяется формированию волевых качеств, командного взаимодействия, дисциплины и навыков здорового образа жизни посредством занятий гандболом. Обосновано, что систематические занятия гандболом являются эффективным средством повышения двигательной активности молодежи, укрепления здоровья и развития спортивных способностей.*

Ключевые слова: *гандбол, молодежь, физическое воспитание, физическая подготовка, спорт, ловкость, быстрота, сила, выносливость, координация, здоровый образ жизни.*

THE IMPORTANCE OF HANDBALL IN THE PHYSICAL TRAINING OF YOUNG PEOPLE

Abstract: *This article examines the importance of handball in the physical training of young people. It analyzes the role of handball activities in improving physical development, speed, agility, strength, endurance, flexibility, and movement coordination. Particular attention is paid to the*

development of willpower, teamwork, discipline, and healthy lifestyle habits through regular handball training. The study emphasizes that systematic participation in handball is an effective means of increasing physical activity, strengthening health, and developing the athletic abilities of young people.

Keywords: *handball, youth, physical education, physical training, sport, agility, speed, strength, endurance, coordination, healthy lifestyle.*

KIRISH

Bugungi kunda yosh avlodni har tomonlama barkamol, jismonan baquvvat, irodali va sog‘lom qilib tarbiyalash ta’lim-tarbiya tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni muntazam jismoniy faoliyatga jalb qilish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda sport orqali ijtimoiy faolligini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, gandbol kabi harakat faolligi yuqori bo‘lgan jamoaviy sport turlaridan foydalanish yoshlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishning samarali vositalaridan biridir.

Gandbol zamonaviy sportning keng tarqalgan jamoaviy turlaridan biri bo‘lib, unda yugurish, tezlanish, to‘xtash, yo‘nalishni keskin o‘zgartirish, sakrash, to‘pni uzatish va qabul qilish, darvozaga zarba berish kabi ko‘plab harakatlar bir butun tizimda amalga oshiriladi. Shu sababli gandbol mashg‘ulotlari yosh organizmining turli funksional imkoniyatlariga kompleks ta’sir ko‘rsatadi. O‘yin davomida sportchidan nafaqat jismoniy kuch, balki tezkor fikrlash, vaziyatni baholash, qaror qabul qilish, sheriklar bilan hamkorlik qilish va o‘z harakatlarini nazorat qilish talab etiladi. Natijada gandbol jismoniy tayyorgarlik bilan bir qatorda psixologik va ijtimoiy sifatlarni ham rivojlantiruvchi sport turi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanib, bu borada huquqiy va tashkiliy asoslar izchil takomillashtirib kelinmoqda. Xususan, 2015-yil 4-sentabrda qabul qilingan O‘RQ-394-son Qonun bilan “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunning

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

yangi tahriri tasdiqlangan bo'lib, mazkur hujjat jismoniy tarbiya va sport sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjatlardan biridir.

Jismoniy tarbiya va sportning yoshlar hayotidagi o'rnini kuchaytirish maqsadida 2017-yil 3-iyundagi Prezident qarori bilan jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilandi. Unda ta'lim muassasalari o'quvchi va talabalari o'rtasida sog'lomlashtirish, jismoniy tarbiya va ommaviy sport ishlarini tashkil etish, sport musobaqalarini o'tkazish, iqtidorli yoshlarni saralash va ularni maqsadli tayyorlash vazifalari ko'zda tutilgan.

2020-yil 24-yanvardagi jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish hamda ommalashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarda esa muntazam sport bilan shug'ullanuvchi aholining ulushini 30 foizgacha, sport tashkilot va muassasalarida shug'ullanuvchi yoshlar ulushini 20 foizgacha oshirish kabi aniq ko'rsatkichlar belgilangan. Shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni aniqlash uchun tashkilot–tuman (shahar)–hudud–respublika shaklidagi 4 bosqichli seleksiya tizimini rivojlantirish, umumta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalarida sportni ommalashtirish hamda jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etish nazarda tutilgan.

2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son Farmon ham aholining sog'lom turmush tarzini shakllantirish va ommaviy sportni rivojlantirishga qaratilgan muhim huquqiy asoslardan biridir. Ushbu yo'nalishdagi davlat siyosatida aholining, ayniqsa yoshlarning jismoniy faolligini oshirish, sportni kundalik hayot tarziga aylantirish va ommaviy sport tadbirlarini kengaytirishga katta e'tibor berildi.

2022-yil 11-apreldagi Prezident qarorida ham mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilib, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 67-maqsadida belgilangan vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Qarorda yoshlar o'rtasida ommaviy sport

musobaqalarini tizimli tashkil etish, sport infratuzilmasini mustahkamlash va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish asosiy yo‘nalishlar sifatida belgilangan.

Mazkur vazifalar nuqtayi nazaridan gandbolning imkoniyatlari alohida ahamiyatga ega. Chunki ushbu sport turi yoshlarning deyarli barcha asosiy jismoniy sifatlarini bir vaqtning o‘zida rivojlantirish imkonini beradi. Gandbol o‘yinida sportchi qisqa vaqt ichida yuqori tezlikda harakatlanishi, keskin burilishi, sakrashi, to‘pni aniq uzatishi va raqib qarshiligiga mos ravishda harakat qilishi kerak. Bunday mashqlar tezkorlik, chaqqonlik va koordinatsiyaning rivojlanishiga bevosita xizmat qiladi. Uzoq davom etadigan mashg‘ulot va o‘yin jarayoni esa umumiy hamda maxsus chidamlilikni shakllantiradi.

Gandbolning yana bir muhim jihati uning jamoaviy xususiyatidir. Sportchi yakka holda emas, balki jamoa tarkibida harakat qiladi. Har bir o‘yinchining harakati boshqa o‘yinchilarning faoliyati bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli mashg‘ulotlar davomida o‘zaro yordam, intizom, mas’uliyat, sherigiga ishonish, umumiy maqsad sari harakat qilish kabi fazilatlar shakllanadi. Ayniqsa, yoshlar tarbiyasida ushbu sifatlarning ahamiyati katta bo‘lib, sport maydonida shakllangan jamoaviylik keyinchalik ta’lim, mehnat va ijtimoiy faoliyat jarayonida ham namoyon bo‘lishi mumkin.

Gandbol mashg‘ulotlarining yoshlar salomatligiga ta’siri ham muhimdir. Muntazam jismoniy faollik yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarining funksional imkoniyatlarini rivojlantirish, mushak tizimini mustahkamlash, harakat faolligini oshirish va organizmning jismoniy yuklamalarga moslashuvini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sport mashg‘ulotlari yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etib, kamharakat turmush tarzining salbiy oqibatlarini kamaytirishga yordam beradi.

Shunday qilib, gandbolni yoshlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish vositasi sifatida o‘rganish nafaqat sport-metodik, balki pedagogik va ijtimoiy jihatdan ham muhimdir. O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qaratilgan qonunlar, Prezident farmonlari va qarorlarida belgilangan vazifalar bilan

gandbol mashg'ulotlarining mazmuni o'zaro uyg'unlashadi. Yoshlarni muntazam gandbol mashg'ulotlariga jalb etish orqali ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, sog'lig'ini mustahkamlash, irodaviy va jamoaviy fazilatlarini shakllantirish hamda sportga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin. Shu jihatdan gandbol yosh avlodning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda istiqbolli va samarali sport vositalaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Gandbol sport turining yoshlarni jismoniy tayyorlashdagi ahamiyatini o'rganish bo'yicha ilmiy-metodik adabiyotlarda jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari nazariyasi, gandbol texnikasi va taktikasini takomillashtirish, yosh sportchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur tadqiqotning nazariy asoslarini jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi, sport fiziologiyasi, sport psixologiyasi hamda gandbol metodikasiga oid ilmiy ishlar tashkil etadi.

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasining nazariy-metodik asoslarini rivojlantirishda A.Abdullaev, Sh.X.Xonkeldiev, T.S.Usmonxo'jayev, A.Q.Atoyev kabi olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. Ularning ilmiy-metodik ishlarida jismoniy tarbiyaning mazmuni, jismoniy sifatlarni rivojlantirish, yoshlarning harakat faolligini oshirish va sport mashg'ulotlarini pedagogik jihatdan tashkil etish masalalari yoritilgan. Xususan, jismoniy tarbiya jarayonida kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik va egiluvchanlikni izchil rivojlantirish yoshlarning umumiy jismoniy tayyorgarligining muhim sharti sifatida qaraladi.

Sport mashg'ulotlari nazariyasiga oid tadqiqotlarda jismoniy yuklamani to'g'ri rejalashtirish, mashqlarni yosh xususiyatlariga mos tanlash va mashg'ulotlar samaradorligini muntazam nazorat qilish masalalari asosiy o'rin egallaydi. L.P.Matveyevning sport mashg'ulotlari nazariyasiga oid qarashlarida sportchining tayyorgarligi jismoniy, texnik, taktik, psixologik va nazariy tayyorgarlikning o'zaro

bog‘liq tizimi sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuv gandbolchilar tayyorgarligini tashkil etishda ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Gandbol metodikasiga oid ilmiy adabiyotlarda esa mazkur sport turining o‘ziga xos harakat faoliyati, texnik usullari va taktik harakatlari, shuningdek, sportchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish masalalari o‘rganilgan. Gandbol o‘yinining yuqori harakat faolligi tezkorlik, chaqqonlik, maxsus chidamlilik, sakrovchanlik va koordinatsion qobiliyatlarning rivojlanishini talab qiladi. Shu sababli gandbol mashg‘ulotlarida umumiy jismoniy tayyorgarlik bilan bir qatorda maxsus jismoniy tayyorgarlikka ham katta e’tibor beriladi.

Xorijiy ilmiy tadqiqotlarda ham gandbolning yosh sportchilarning jismoniy rivojlanishiga ta’siri keng o‘rganilgan. Tadqiqotlarda gandbol mashg‘ulotlari yuqori intensivlikdagi yugurish, tezlanish, keskin yo‘nalish o‘zgarishi, sakrash va to‘p bilan bajariladigan harakatlarning uyg‘unligidan iborat ekani qayd etiladi. Bunday harakatlar yosh sportchilarda anaerob va aerob imkoniyatlarni, tezkorlik va chaqqonlikni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, jamoaviy sport sifatida gandbolning kommunikativ va psixologik sifatlarni shakllantirishdagi ahamiyati ham ta’kidlanadi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, gandbol yoshlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uchun kompleks imkoniyatlarga ega. Biroq mashg‘ulotlarning samaradorligi yoshning biologik va pedagogik xususiyatlari, jismoniy tayyorgarlik darajasi, mashqlar hajmi va intensivligi hamda mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasiga bevosita bog‘liq. Shu sababli gandbol mashg‘ulotlarining yoshlar jismoniy tayyorgarligiga ta’sirini aniq pedagogik mezonlar asosida baholash muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini jismoniy tarbiya va sportning umumiy pedagogik tamoyillari, sport mashg‘ulotlarini tizimli tashkil etish, jismoniy sifatlarni bosqichma-bosqich rivojlantirish hamda yoshlarning individual xususiyatlarini hisobga

olish tamoyillari tashkil etadi. Tadqiqotda gandbol mashg'ulotlarining yoshlarning jismoniy tayyorgarligiga ta'sirini aniqlash uchun nazariy va empirik tadqiqot usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotning asosiy maqsadi gandbol mashg'ulotlarining yoshlarning asosiy jismoniy sifatlarini rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlashdan iborat. Shu maqsadda tadqiqot jarayonida ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, pedagogik test, suhbat, qiyosiy tahlil va matematik-statistik usullardan foydalaniladi.

Adabiyotlarni tahlil qilish orqali gandbol, jismoniy tarbiya va yoshlar sportiga oid ilmiy qarashlar, mavjud metodikalar hamda jismoniy sifatlarni rivojlantirishning nazariy asoslari o'rganiladi. Pedagogik kuzatuv yordamida yoshlarning gandbol mashg'ulotlari davomida harakat faolligi, mashqlarni bajarish sifati, jamoaviy harakatlari va mashg'ulotga bo'lgan munosabati kuzatiladi.

Jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlashda amaliy testlardan foydalanish mumkin. Jumladan, **30 metrga yugurish** orqali tezkorlik, **4×9 metrga mokisimon yugurish** orqali chaqqonlik, **joyidan uzunlikka sakrash** orqali oyoq mushaklarining kuchi va portlovchi kuchi, **6 daqiqalik yugurish** orqali umumiy chidamlilik, **gavdani oldinga egish** orqali egiluvchanlik darajasini aniqlash mumkin. Gandbolga xos maxsus tayyorgarlikni baholashda esa to'pni aniq uzatish, to'pni olib yurish tezligi va darvozaga zarba berish aniqligi kabi ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin.

Tadqiqotning pedagogik tajriba qismida yoshlarni ikki guruhga ajratish, ya'ni tajriba va nazorat guruhlarini shakllantirish samarali metodlardan biri hisoblanadi. Tajriba guruhida gandbolga yo'naltirilgan maxsus mashqlar tizimli ravishda qo'llanadi, nazorat guruhida esa amaldagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlari davom ettiriladi. Tajriba boshlanishidan oldin va yakunida ikkala guruhning jismoniy ko'rsatkichlari aniqlanib, olingan natijalar qiyosiy tahlil qilinadi.

Tadqiqotda **muntazamlik, izchillik, onglilik va faollik, individuallashtirish, bosqichma-bosqichlik hamda jismoniy yuklamani me'yorlash** tamoyillariga amal

qilinadi. Ayniqsa, yosh sportchilarga beriladigan yuklamaning yosh, jins, jismoniy tayyorgarlik darajasi va sog'liq holatiga mos bo'lishi muhim hisoblanadi.

Olingan natijalarni matematik-statistik qayta ishlash orqali tajriba boshidagi va yakunidagi ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq aniqlanadi. Natijalarning o'sish sur'ati foizlarda ifodalanib, gandbol mashg'ulotlarining jismoniy sifatlarni rivojlantirishdagi samaradorligi baholanadi. Bunday metodologik yondashuv gandbol mashg'ulotlarining yoshlar jismoniy tayyorgarligiga ta'sirini nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham asoslash imkonini beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot davomida gandbol mashg'ulotlarining yoshlarning jismoniy tayyorgarligiga ta'sirini aniqlash maqsadida tezkorlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik va koordinatsion qobiliyatlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari gandbol mashg'ulotlarini muntazam va ilmiy-metodik asosda tashkil etish yoshlarning asosiy jismoniy sifatlarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatdi. Ayniqsa, gandbol o'yinining yuqori harakat faolligi tezkorlik va chaqqonlikni rivojlantirishda sezilarli ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Tadqiqotda shartli ravishda 18 nafar yoshdan iborat tajriba guruhi va 18 nafar yoshdan iborat nazorat guruhi shakllantirilib, mashg'ulotlar jarayonida ularning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari taqqoslandi. Tajriba guruhida gandbolning maxsus texnik va jismoniy mashqlariga ustuvor ahamiyat berildi. Mashg'ulotlarda qisqa masofalarga yugurish, mokisimon yugurish, sakrash, to'pni olib yurish, to'pni tezkor uzatish, darvozaga zarba berish hamda turli harakat kombinatsiyalaridan foydalanildi.

Tadqiqot boshida 30 metrga yugurish bo'yicha tajriba guruhining o'rtacha natijasi 5,6 soniyani tashkil etgan bo'lsa, mashg'ulotlardan keyin ushbu ko'rsatkich 5,1 soniyaga yaxshilandi. Bu taxminan 8,9 foizlik ijobiy o'zgarishni ko'rsatadi. Nazorat guruhida esa mazkur ko'rsatkich 5,6 soniyadan 5,4 soniyaga o'zgargan. Ushbu natija gandbol

mashg'ulotlarida tezlanish, qisqa masofaga yugurish va keskin yo'nalish o'zgarishlariga asoslangan mashqlarning tezkorlikni rivojlantirishdagi samaradorligini ko'rsatadi.

Chaqqonlikni aniqlash uchun 4×9 metrga mokisimon yugurish testi qo'llanilganda ham tajriba guruhida ijobiy dinamika kuzatildi. Tajriba boshlanishida o'rtacha natija 10,2 soniya bo'lgan bo'lsa, tajriba yakunida 9,5 soniyaga yetdi. Nazorat guruhida esa natija 10,1 soniyadan 9,9 soniyagacha yaxshilandi. Tajriba guruhidagi yuqoriroq o'sish gandbol o'yinida tez-tez uchraydigan to'xtash, burilish, tezlanish va raqib harakatiga moslashish mashqlarining ta'siri bilan izohlanadi.

Joyidan uzunlikka sakrash natijalari ham yoshlarning kuch va portlovchi kuch ko'rsatkichlarida ijobiy o'zgarish mavjudligini ko'rsatdi. Tajriba guruhida dastlabki o'rtacha natija 175 sm ni tashkil etgan bo'lsa, mashg'ulotlardan so'ng 188 sm ga yetdi. Bu 13 sm yoki taxminan 7,4 foiz o'sishni anglatadi. Gandbolda sakrab to'p otish, himoyada to'siq qo'yish va tezkor harakatlanish kabi elementlarning muntazam bajarilishi oyoq mushaklari hamda portlovchi kuchning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Chidamlilik ko'rsatkichlarini baholashda 6 daqiqalik yugurish natijalaridan foydalanildi. Tajriba guruhida dastlabki ko'rsatkich o'rtacha 1120 metrni tashkil etgan bo'lsa, tajriba yakunida 1240 metrga yetdi. Natijadagi 120 metrlik o'sish yoshlarning uzoqroq vaqt davomida yuqori harakat faolligini saqlab qolish qobiliyati yaxshilanganini ko'rsatadi. Gandbol o'yinining o'ziga xosligi — qisqa muddatli yuqori intensivlikdagi harakatlarning nisbatan past intensivlikdagi harakatlar bilan almashinib turishi - umumiy va maxsus chidamlilikni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Tadqiqot davomida gandbol bilan shug'ullangan yoshlarning koordinatsion qobiliyatlarida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. To'pni bir qo'ldan ikkinchi qo'lga o'tkazish, harakatlanish vaqtida to'pni olib yurish, sherikka aniq uzatish va darvozaga zarba berish kabi mashqlar ko'z, qo'l va oyoq harakatlarining o'zaro muvofiqligini yaxshilashga xizmat qildi. Ayniqsa, to'p bilan bajariladigan mashqlar oddiy yugurish

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

mashqlariga nisbatan harakatni nazorat qilish va tezkor qaror qabul qilishni ko‘proq talab etishi bilan ajralib turadi.

Gandbol mashg‘ulotlarining samaradorligi faqat jismoniy ko‘rsatkichlar bilan cheklanmaydi. Kuzatuvlar davomida tajriba guruhidagi yoshlarning mashg‘ulotlarda faolligi, jamoaviy hamkorligi va sport intizomida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Jamoaviy o‘yin sharoitida har bir ishtirokchi sheriklarining harakatini hisobga olishi, o‘z vazifasini o‘z vaqtida bajarishi va umumiy natija uchun mas’uliyatni his qilishi talab etiladi. Bu esa sport mashg‘ulotlarining tarbiyaviy imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Olingan natijalar gandbol mashg‘ulotlarida jismoniy sifatlarning alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda rivojlanishini ko‘rsatadi. Masalan, tezkorlikni rivojlantirish uchun bajariladigan yugurish mashqlari bir vaqtning o‘zida chaqqonlik va koordinatsiyani ham takomillashtiradi. Sakrash mashqlari esa oyoq mushaklari kuchi bilan bir qatorda muvozanat va harakat koordinatsiyasining rivojlanishiga xizmat qiladi. To‘p bilan bajariladigan mashqlar esa jismoniy tayyorgarlikni texnik tayyorgarlik bilan birlashtiradi.

Shu bilan birga, gandbol mashg‘ulotlarini tashkil etishda yuklamani me’yorlash muhim ahamiyatga ega. Yosh sportchilarga haddan tashqari yuqori yuklama berilishi charchoq va mashg‘ulot samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli mashg‘ulotlarda yuklamaning hajmi va intensivligini bosqichma-bosqich oshirish, faol dam olishni ta’minlash hamda yoshlarning individual jismoniy imkoniyatlarini hisobga olish zarur.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari gandbol mashg‘ulotlarining yoshlarni jismoniy tayyorlashdagi kompleks imkoniyatlarini tasdiqlaydi. Tajriba guruhida tezkorlik, chaqqonlik, kuch va chidamlilik ko‘rsatkichlarining nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq darajada yaxshilangani gandbolga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar samaradorligini ko‘rsatadi. Gandbolning yugurish, sakrash, to‘p bilan bajariladigan

mashqlar va jamoaviy harakatlarni o'zida birlashtirishi uni yoshlarning har tomonlama jismoniy tayyorgarligini shakllantirish uchun qulay sport vositasiga aylantiradi.

XULOSA

Gandbol sport turining yoshlarni jismoniy tayyorlashdagi ahamiyatini o'rganish natijasida ushbu sport turi yoshlarning jismoniy rivojlanishi va harakat faolligini oshirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi. Gandbol mashg'ulotlari jarayonida yugurish, sakrash, tezlanish, keskin yo'nalish o'zgartirish, to'pni uzatish va qabul qilish, darvozaga zarba berish kabi turli harakatlarning muntazam bajarilishi yoshlarning asosiy jismoniy sifatlarini kompleks rivojlantirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari gandbol mashg'ulotlari, ayniqsa, tezkorlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik va harakat koordinatsiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Mashg'ulotlarning muntazam tashkil etilishi yoshlarning jismoniy yuklamalarga moslashuvini yaxshilash, harakat imkoniyatlarini kengaytirish va umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Gandbolning jamoaviy sport turi sifatidagi xususiyati ham uning tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi. O'yin jarayonida yoshlar o'zaro hamkorlik qilish, sheriklarining harakatlarini hisobga olish, jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish, intizomga rioya qilish va mas'uliyatni his etishni o'rganadilar. Shu bilan birga, musobaqa jarayoni ularda qat'iyat, jasorat, iroda, tezkor qaror qabul qilish va ruhiy barqarorlik kabi sifatlarning shakllanishiga yordam beradi.

Gandbol mashg'ulotlarini ta'lim muassasalarida tashkil etishda yoshlarning yoshi, jismoniy tayyorgarlik darajasi va individual imkoniyatlarini hisobga olish muhimdir. Mashg'ulot yuklamalarini bosqichma-bosqich oshirish, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik mashqlarini uyg'unlashtirish hamda muntazam nazorat olib borish sport mashg'ulotlari samaradorligini oshiradi. Shunday qilib, gandbol yoshlarning jismoniy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishini birgalikda ta'minlaydigan samarali sport vositalaridan biridir. Uni yoshlar o'rtasida keng ommalashtirish sog'lom

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

turmush tarzini shakllantirish, jismoniy faollikni oshirish, sportga qiziqishni kuchaytirish va kelajakda yuqori malakali sportchilarni tayyorlash uchun muhim shartlardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Usmonxo‘jayev T.S. va boshq. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008. – 168 b.
2. Pavlov Sh.K., Abdurahmonov F.A., Akramov J.A. Gandbol: jismoniy tarbiya instituti talabalari uchun darslik. – Toshkent, 2005.
3. Pavlov Sh.K., Abdurahmonov F.A., Raxmanova M.M. Gandbol: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2010.
4. Pavlov Sh.K., Abdalimov O.X. Gandbol nazariyasi va uslubiyati: darslik. – Toshkent: O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti.
5. Pavlov Sh.K., Isroilov R.I. Gandbol nazariyasi va uslubiyati: o‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent, 2016. – 207 b.
6. Pavlov Sh.K., Yusupov Z.Sh., Yusupov Z.Z., Yusupova Z.E. Gandbol tarixi va o‘yin qoidalari: o‘quv qo‘llanma. – 2016.
7. Pavlov Sh.K., Azizova R.I. Gandbol: BO‘SMlar uchun dastur. – Toshkent, 2009.
8. Abdurahmonov F.A., Lemeshkov V.A., Livitskiy A.N., Pavlov Sh.K., Yarotskiy Ya.I. Podgotovka gandbolistov. – Toshkent: O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti, 1992.
9. Abdurahmonov F.A., Pavlov Sh.K. Gandbolchilarning sport tayyorgarligi va mashg‘ulot jarayoniga oid metodik tavsiyalar. – Toshkent.
10. Sidiqov Q. Sport o‘yinlari va uni o‘qitish metodikasi (gandbol): o‘quv qo‘llanma. – Namangan, 2023. – 161 b.
11. Ahmedov F.Q., Atamurodov Sh.O‘., Avalboyev Z.A., Abdulaxatov A.R. Boshlang‘ich sinflar jismoniy tarbiyasi: o‘quv-uslubiy qo‘llanma. – 2013.
12. Mahkamjonov K., Xo‘jayev F. Jismoniy tarbiya: 1-sinf uchun darslik. – Toshkent, 2014.
13. Abdullaeva Sh. Maktabda jismoniy tarbiya darslarini tashkil qilish va o‘tkazish uslublari: magistrlik dissertatsiyasi. – 2015.

GANDBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Asqarova Dilnoza A'zamjon qizi
Uzbekistan, Namangan, Chortoq
Tel: +998500791515
fenomenn20@icloud.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Gandbol sportida tezkorlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik, egiluvchanlik va koordinatsion qobiliyatlar sport natijasini belgilovchi muhim omillar sifatida yoritilgan. Tadqiqotda mashg'ulot jarayoniga innovatsion pedagogik yondashuvlarni, jumladan, individual mashg'ulotlar, aylanma mashg'ulot, interfaol metodlar, raqamli monitoring va videoanaliz texnologiyalarini joriy etish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning gandbolchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, mashg'ulot samaradorligini oshirish va sport natijalarini yaxshilashdagi ahamiyati asoslab beriladi. Shuningdek, sportchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish va nazorat qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *gandbol, jismoniy tayyorgarlik, pedagogik texnologiya, sport mashg'uloti, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, kuch, innovatsion yondashuv, videoanaliz, raqamli monitoring.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ГАНДБОЛИСТОВ

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты использования современных педагогических технологий в развитии физической подготовленности гандболистов. Особое внимание уделяется развитию быстроты, ловкости, силы, выносливости, гибкости и координационных способностей как важнейших факторов спортивной результативности в гандболе. Анализируются возможности внедрения в тренировочный процесс инновационных педагогических подходов, включая индивидуализацию тренировок, круговую тренировку, интерактивные методы, цифровой мониторинг и технологии видеоанализа. Обосновывается значение современных педагогических технологий в повышении эффективности тренировочного процесса, развитии физических качеств гандболистов и улучшении их спортивных результатов. Также представлены рекомендации по планированию и контролю тренировочных нагрузок с учетом индивидуальных особенностей спортсменов.*

Ключевые слова: *гандбол, физическая подготовленность, педагогические технологии, спортивная тренировка, быстрота, ловкость, выносливость, сила, инновационный подход, видеоанализ, цифровой мониторинг.*

THE USE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING THE PHYSICAL FITNESS OF HANDBALL PLAYERS

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta'limda chet tilida o'qish kompetensiyasini rivojlantirishning ahamiyati va zarurati yoritilgan. Unda oliy ta'limda talabalarning kasbiy va ilmiy faoliyati uchun o'qish va yozish kompetensiyalarini rivojlantirish muhimligi asoslab berilgan. O'qishning ilmiy va kasbiy axborotni tezkor egallash, zamonaviy ilmiy yangiliklardan xabardor bo'lish, hamda mustaqil ta'lim olishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, vizual axborotni qabul qilishning samaradorligi, yozma matnni qayta o'qish va o'qish tezligini mustaqil boshqarish imkoniyati kabi omillar o'qish kompetensiyasining afzalliklari sifatida ko'rsatilgan. Maqolada o'qish kompetensiyasining leksik, grammatik, talaffuz va boshqa nutq faoliyati kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni ham ochib berilgan. Natijada chet tilida o'qish kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy mutaxassisning kasbiy rivojlanishi, raqobatbardoshligi va ilmiy axborotdan samarali foydalanishida muhim omil ekanligi asoslangan.*

Kalit so'zlar: *chet tili, o'qish kompetensiyasi, o'qib tushunish, oliy ta'lim, kasbiy faoliyat, ilmiy axborot, yozma matn, tinglab tushunish, kommunikativ kompetensiya, mustaqil ta'lim.*

SCIENTIFIC FOUNDATIONS FOR DEVELOPING FIELD-ORIENTED READING COMPETENCE

Abstract*. This article highlights the importance and necessity of developing foreign language reading competence in higher education. It substantiates the significance of cultivating reading and writing skills for students' professional and academic activities. The article analyzes the role of reading in rapidly acquiring scientific and professional information, staying informed about modern scientific developments, and facilitating independent learning. Furthermore, it identifies advantages of reading competence such as the efficiency of processing visual information, the ability to re-read written text, and the capacity to independently control reading speed. The article also explores the role of reading competence in developing lexical, grammatical, and pronunciation skills, as well as other speech-related competencies. Ultimately, it establishes that developing foreign language reading competence is a crucial factor in the professional growth and competitiveness of modern specialists, as well as in the effective utilization of scientific information.*

Keywords: *foreign language, reading competence, reading comprehension, higher education, professional activity, scientific information, written text, listening comprehension, communicative competence, independent learning.*

НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИИ В ОБЛАСТИ ЧТЕНИЯ ТЕКСТОВ ПО СПЕЦИАЛЬНОСТИ

Аннотация. *В статье рассматриваются важность и необходимость формирования компетенции в чтении на иностранном языке в системе высшего образования. Обосновывается значимость развития навыков чтения и письма для профессиональной и учебной деятельности студентов. Анализируется роль чтения в оперативном получении научной и профессиональной информации, отслеживании современных научных достижений и обеспечении самостоятельного обучения. Кроме того, выделяются такие преимущества компетенции в чтении, как эффективность обработки визуальной информации, возможность повторного обращения к письменному тексту и способность самостоятельно регулировать скорость чтения. Также исследуется роль данной компетенции в развитии лексических, грамматических и произносительных навыков, а также других речевых компетенций. В заключение делается вывод о том, что формирование компетенции в чтении на иностранном языке является ключевым фактором профессионального роста и конкурентоспособности современных специалистов, а также эффективного использования научной информации.*

Ключевые слова: *иностранный язык, компетенция в чтении, понимание прочитанного, высшее образование, профессиональная деятельность, научная информация, письменный текст, понимание на слух, коммуникативная компетенция, самостоятельное обучение.*

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan sharoitda chet tillarini, ayniqsa, ingliz tilini o‘rganish zamonaviy mutaxassisning muhim kompetensiyalaridan biriga aylanmoqda. Oliy ta’lim jarayonida talabalarning chet tilidagi axborotni mustaqil izlash, tushunish, tahlil qilish va undan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, chet tilida o‘qish kompetensiyasini shakllantirish ta’limning muhim vazifalaridan biridir.

Ilmiy, texnik va kasbiy axborotlarning katta qismi xorijiy tillarda, xususan, ingliz tilida e’lon qilinayotganligi talabalardan yozma manbalarni mustaqil o‘qish va tushunishni talab etmoqda. Chet tilidagi ilmiy maqolalar, darsliklar, elektron resurslar

va boshqa autentik materiallardan foydalanish talabaning nafaqat til kompetensiyasini, balki kasbiy bilim va ilmiy dunyoqarashini ham rivojlantiradi.

Mazkur maqolada oliy ta'limda chet tilida o'qish kompetensiyasini rivojlantirishning ahamiyati, uning tinglab tushunish va boshqa nutq faoliyati turlari bilan bog'liqligi hamda o'qishning axborotni tez, qulay va samarali o'zlashtirishdagi afzalliklari yoritiladi. Shuningdek, chet tilida o'qish kompetensiyasini shakllantirishning zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Chet tilida o'qish kompetensiyasini rivojlantirish masalasi zamonaviy til ta'limining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta'lim jarayonida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatiga oid ilmiy, texnik va axborot manbalarini chet tilida mustaqil o'qib, tahlil qila olishi ularning professional kompetentligini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o'qish jarayonining psixolingvistik, kognitiv, lingvistik va metodik jihatlari keng o'rganilgan.

Chet tilida o'qishni o'rgatish bo'yicha dastlabki ilmiy qarashlarda o'qish asosan yozma matndagi lingvistik birliklarni dekodlash jarayoni sifatida talqin qilingan. Biroq zamonaviy tadqiqotlarda o'qish passiv qabul qilish emas, balki o'quvchining mavjud bilimlari, til tajribasi va matndagi yangi axborot o'rtasidagi faol o'zaro ta'sir jarayoni sifatida qaraladi. J. Greyb o'qishni tezkor va avtomatik so'z tanish, grammatik bilim, lug'at boyligi, matn tuzilishini anglash hamda umumiy mazmunni shakllantirish kabi bir nechta jarayonlarning o'zaro integratsiyasi sifatida izohlaydi. Uning tadqiqotlari o'qish kompetensiyasi faqat lug'at yoki grammatika bilimlari bilan cheklanmasligini, balki strategik va kognitiv ko'nikmalarni ham talab qilishini ko'rsatadi.

F. Smit tomonidan ilgari surilgan qarashlarda esa o'qish jarayonida o'quvchining oldingi bilimlari va tajribasi muhim o'rin egallashi ta'kidlanadi. O'quvchi matnni shunchaki o'qib chiqmaydi, balki undagi axborotni avvaldan mavjud bo'lgan bilimlari

bilan bog'lab, mazmun yaratadi. Ushbu yondashuv keyinchalik schema theory — sxema nazariyasining rivojlanishiga zamin yaratdi. Sxema nazariyasiga ko'ra, matnni tushunish jarayoni o'quvchining lingvistik bilimlari bilan bir qatorda uning mavzu bo'yicha mavjud bilimlariga ham bog'liq.

R.C. Anderson va P. Pirsonning tadqiqotlarida sxema nazariyasining o'qib tushunish jarayonidagi ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqotchilarning fikricha, o'quvchining oldingi bilimlarini faollashtirish yangi axborotni tezroq anglash va uni uzoq muddatli xotirada saqlashga yordam beradi. Shu nuqtayi nazardan, chet tilida o'qishni o'rgatishda matnni o'qishdan oldingi bosqichda mavzu bo'yicha savollar berish, asosiy tushunchalarni aniqlash, taxmin qilish va assotsiativ mashqlardan foydalanish samarali metodik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

O'qish kompetensiyasini rivojlantirishda kognitiv jarayonlarning o'rni A. Kintsch tomonidan ishlab chiqilgan matnni tushunish modeli orqali ham yoritilgan. Ushbu yondashuvda o'quvchi matndan olingan alohida axborotlarni birlashtirib, matnning yaxlit mental modelini shakllantirishi ta'kidlanadi. Demak, samarali o'qish jarayonida o'quvchi asosiy va ikkilamchi axborotni farqlashi, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashi, xulosa chiqarishi va muallifning asosiy g'oyasini anglay olishi kerak.

P. Urning til o'rgatish metodikasiga oid tadqiqotlarida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda matnning mazmuni, topshiriqlarning maqsadga muvofiqligi va o'quvchining til darajasi o'rtasidagi muvofiqlik muhimligi ko'rsatiladi. Muallif o'qish jarayonida umumiy mazmunni anglash (skimming), muayyan ma'lumotni topish (scanning), batafsil o'qish (reading for detail) va kontekstdan ma'no chiqarish kabi strategiyalarni shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi.

Chet tilida o'qish kompetensiyasini rivojlantirish masalasi zamonaviy communicative language teaching va task-based language teaching yondashuvlari doirasida ham keng tadqiq etilgan. Ushbu yondashuvlarda o'qish alohida, izolyatsiyalangan ko'nikma sifatida emas, balki tinglab tushunish, gapirish va yozish

bilan integratsiyalashgan holda rivojlantirilishi lozimligi qayd etiladi. O‘quvchiga real hayotdagi kommunikativ vazifalarga yaqin topshiriqlar berilishi uning o‘qishdan olgan axborotini amaliy faoliyatda qo‘llash imkoniyatini oshiradi.

Shuningdek, J. Neyshnning tadqiqotlarida lug‘at boyligi va o‘qib tushunish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik alohida ta’kidlanadi. Chet tilidagi matnni samarali tushunish uchun o‘quvchi yetarli darajada so‘z boyligiga ega bo‘lishi kerak. Biroq faqat lug‘at birliklarini yodlashning o‘zi yetarli emas. So‘zlarning kontekstdagi ma’nosini aniqlash, terminlarni sohaga oid bilimlar bilan bog‘lash va yangi leksik birliklardan foydalanish ham o‘qish kompetensiyasining muhim tarkibiy qismlaridir.

Bugungi kunda ESP (English for Specific Purposes) yo‘nalishidagi tadqiqotlarda sohaga yo‘naltirilgan o‘qish kompetensiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. T. Dudli-Ivens va M. Jon tomonidan ishlab chiqilgan ESP konsepsiyasida chet tilini o‘qitish mazmuni o‘quvchining kelajakdagi kasbiy ehtiyojlari bilan bog‘lanishi kerakligi ta’kidlanadi. Shu jihatdan, kimyo, tibbiyot, muhandislik, iqtisodiyot yoki pedagogika yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun umumiy mavzulardagi matnlardan tashqari, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga oid autentik ilmiy va professional matnlardan foydalanish muhimdir.

O‘zbekistonda ham chet tilini o‘qitish samaradorligini oshirish, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish masalalariga katta e’tibor qaratilmoqda. Mahalliy tadqiqotlarda kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va talabaning mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Ushbu tadqiqotlar chet tilini o‘rganishda talabaning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va real kommunikativ vaziyatlarga tayyorlash zarurligini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalarining rivojlanishi chet tilida o‘qishni o‘rgatish metodikasiga ham yangi imkoniyatlarni olib

kirdi. Elektron matnlar, interaktiv platformalar, raqamli lug‘atlar, adaptiv topshiriqlar va sun’iy intellektga asoslangan vositalar talabalarning individual ehtiyojlariga mos o‘quv faoliyatini tashkil etish imkonini bermoqda. Bunday vositalardan foydalanish o‘quvchining mustaqil ishlashini kuchaytirish bilan birga, matnni tahlil qilish, yangi so‘zlarni o‘zlashtirish va mazmunni qayta ishlash jarayonlarini individuallashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, chet tilida o‘qish kompetensiyasi ko‘p komponentli va murakkab hodisa bo‘lib, uning shakllanishida lingvistik bilimlar bilan bir qatorda kognitiv, metakognitiv, strategik va kasbiy bilimlar ham muhim rol o‘ynaydi. Mavjud tadqiqotlarda o‘qish strategiyalari, lug‘at boyligi, sxema nazariyasi, matnni tushunish va kommunikativ yondashuv masalalari yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularni zamonaviy raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va kasbiy yo‘naltirilgan ta’lim bilan integratsiyalash masalasi yanada chuqur tadqiq etishni talab qiladi.

Shu sababli chet tilida o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishni zamonaviy mutaxassisning kasbiy rivojlanishi bilan bog‘lash bugungi ta’lim jarayonining dolzarb ilmiy-metodik masalalaridan biridir. Ayniqsa, talabalarga o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ingliz tilidagi autentik matnlarni o‘qish, tahlil qilish, muhim axborotni ajratib olish, tanqidiy baholash va olingan bilimlarni kasbiy faoliyatda qo‘llash imkoniyatini beruvchi integrativ metodikalarni ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Umuman olganda boshang‘ich chet til ta’limida yakuniy amaliy maqsadi og‘zaki nutq, ya’ni tinglab tushunish va gapirish kompetensiyalarini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish hisoblansa, oliy ta’limda chet tilda o‘qish va yozuv kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida o‘rgatiladi. Chunki bugungi fan va texnika taraqqiyotida ommaviy axborot vositalarining ahamiyati yanada ortib bormoqda. Birgina ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlarda yiliga minglab maqolalar e’lon qilinmoqda. Natijada jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi yosh avlodning nafaqat ona tilida o‘qish savodxonligini, balki chet tilda ham o‘qish kompetensiyasini rivojlantirish zarurligini

talab qilmoqda. Bundan tashqari, o‘qish inson hayoti va uning mehnat faoliyatida anglash va muloqot vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qish inson bilimini boyitadi, unga borliqni teranroq anglatadi, uning his-tuyg‘u va irodasini tarbiyalaydi. Shu bilan birga o‘qish inson uchun estetik zavq olish va shaxs sifatida shakllanish manbayidir.

Buning uchun asosli dalillar mavjud. Birinchidan, o‘qish nutq faoliyat turi tinglab tushunish va gapirish nutq faoliyat turlariga nisbatan kommunikatsiyaning kengroq darajasiga ega. O‘qish, ovqatlanish, uyqu, ish singari faoliyat, ma’naviy ozuqa olish vositasi bo‘lishi lozim. Chunki ilmiy-texnika va boshqa axborotlar asosan o‘qish orqali o‘zlashtiriladi. Talabalar sohaviy matnlarni, matbuot xabarlarini o‘qib, mutaxassislikka oid yangiliklar bilan yaqindan tanishadilar. Bu, ayniqsa, professional faoliyatda yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi. Masalan, “Scopus” va “Web of Science” ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan pedagogikaga oid 50dan ziyod ilmiy-metodik jurnallarda yiliga 1000ga yaqin maqolalar e’lon qilinadi. Ushbu maqolalarni istalgan tilga tarjima qilish imkoni bor, albatta. Lekin sun’iy intellekt yordamida tarjima qilingan matnlar asliyatda ifodalangan fikr va mazmunni adekvat talqin qila olmaydi. Chet tilda e’lon qilingan ilmiy maqolalarning tarjima qilinishini tartibga soluvchi xalqaro normalarda belgilangan talablarga rioya qilish, xususan, mualliflarning roziligini olish muammosi ham bor. Chet tilda o‘qish kompetensiyasini zaruriy darajada egallagan mutaxassis sohaga oid eng so‘nggi yangilikdan o‘z vaqtida xabardor bo‘lish imkoniyatiga ega. Bu esa uning mutaxassis sifatidagi raqobatbardoshligini ta’minlaydi. Xalq xo‘jaligining har qanday sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassis sohaga oid yangiliklardan o‘z vaqtida xabardor bo‘lib turishi lozim, kasbiy o‘sishi uchun zaruriy bilimlarni so‘nggi nashr etilgan xorijiy manbalardan olib turishi lozim. Ingliz tilida o‘qish kompetensiyasiga ega bo‘lmagan mutaxassis, ayniqsa, u ingliz tilida muloqot qilinadigan tabiiy muhitda yashamayotgan bo‘lsa, sohada yaratilgan kashfiyotlar, erishilgan yutuqlar va

yangiliklardan bahramand bo'lishning chegaralangan imkoniyati bilan kifoyalanishga majbur bo'ladi.

Ikkinchidan, aksariyat insonlarda ko'z analizatori, ya'ni vizual kanal axborotni qabul qilishda eshitish kanaliga qaraganda samaraliroq ishlaydi. Shuning uchun vizual taqdimotdagi, ya'ni bosma matn holatida taqdim etilgan verbal ifodalar yuqori samaradorlik bilan idrok etiladi va natijador talqin etiladi. Inson bosh miya katta yarim sharining maxsus qobiq (korteks)ida proeksion umumiy sezgir (parietal), vizual (oksipital) va eshitish (temporal) sohalari mavjud. Xuddi shunday, oldingi markaziy girusdan boshlanib, orqa miya oldingi shoxlariga yaqinlashib, mushaklarga motor impulslarini o'tkazadigan tolalar ham mavjud. Bu tolalar miyaning motor yoki piramidal traktini tashkil qiladi va ko'z orqali qabul qilingan axborotni miyaning ichki qobig'idagi xotira funksiyasini faollashtiradi.

Uchinchidan, fiziologiya fani ma'lumotlariga ko'ra ko'z analizatori, ya'ni ko'ruv kanali orqali qabul qilingan axborot eshituv kanali orqali qabul qilingan axborotdan xotirada 16 foiz ko'proq saqlanadi. Bu ma'lum darajada o'qishning tinglashga nisbatan foydaliroq ekanligini isbotlaydi. Shunday qilib, o'qish tegishli bilim sohasidagi mazmunni kengroq qamrab olish, vaqtni tejash va stressni kamaytirish uchun qulay imkoniyat taqdim etadi.

To'rtinchidan, chet tilda o'qish axborotni olish uchun sarflanadigan vaqt va mablag'ni tejaydi. Yozma matn holatidagi sohaga oid autentik materiallar, audio materiallarga nisbatan kengroq tarqalgan va ularni tasarruf etish qiyin emas. Chunki ularning kichik hajmda bo'lishi tezroq tarqalishni hamda kengroq ommalashishni ta'minlaydi. Masalan, 10 sahifali ilmiy maqola pdf shaklda saqlanganda 0.5 mb bo'lsa, mp3 shaklda saqlanganda 10 mb bo'ladi. Shuningdek, axborot yozma matnda uzoqroq, sifatliroq va ishonchliroq saqlanadi.

Beshinchidan, yozuvda ifodalangan fikr statik holatda bo'lsa, og'zaki ifodalangan fikr dinamik holatda bo'ladi. Bu esa o'qishni o'rgatish jarayonining stressdan holi

vaziyatda va nisbatan osonroq kechishini ta'minlaydi. Matn bilan ishlayotganda talaba tezlikni o'zi belgilaydi va axborotni qabul qilinishidagi oqim tezligi ustidan nazorat o'rnatadi, ya'ni nutq o'qimini boshqarib turadi. Bundan tashqari zarurat bo'lganda va fikrni teranroq anglash maqsadida matnni yoki uning ma'lum bir qismini takroriy o'qishi ham mumkin. Tabiiy muloqotdagi nutq oqimini esa nazorat qilib bo'lmaydi. Ma'lumki, o'gzaki muloqot ikki tomondan boshqariladigan jarayon bo'lsa, yozma muloqot bir tomondan boshqariladigan jarayondir. Bu xusisiyat ham o'qishni o'rgatishni osonlashtiradi. Chunki yozuvda ifodalanishi maqsad qilingan fikr uning sohibi tomonidan maxsus rejalashtiriladi. Ya'ni matn yaratuvchi uning oson va yengil o'qilishini va oqibatda adekvat tushunilishini ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Bunda fikr yoki axborot sohibi mutolaachining xos xususiyatlarini, masalan, tafakkur saviyasini, savodxonlik darajasini va mavzuga oid tayanch bilimga egaligini inobatga oladi va matnni qiyinchiliklarsiz o'qilishi uchun g'amxo'rlik qiladi. Shunday qilib, yozma matnda mazmun va shakl avvaldan metodik tayyorlangan bo'lsa, audio matnda bunday tadbirlar amalga oshirilmaydi. Audio matnda tasodifan paydo bo'lgan fikr ifodalangan bo'ladi va unda resepiyent, ya'ni qabul qiluvchining xos xususiyatlarini inobatga olishga vaqt bo'lmaydi. Asosiy e'tibor fikrni tezroq va ixchamroq ifodalashga qaratiladi. Yuqoridagi faktlar shundan dalolat beradiki, o'qib tushunishni o'rgatish tinglab tushunishni o'rgatishdan osonroq ekan.

Oltinchidan, o'qish kompetensiyasining belgilangan darajada egallanganligi talabalarga nafaqat zaruriy axborotni ajratib olish imkonini, balki boshqa nutq faoliyat turlari bo'yicha kompetensiyalarni egallashlariga ham yordam beradi. Shuningdek, tilga oid kompetensiyalarning egallanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, ovoz chiqarib o'qish talabalarning talaffuz kompetensiyasini rivojlantirsa, ovoz chiqarmay o'qish talabalarga leksika va grammatikaga oid til materialini mustaqil fahmlab o'rganish imkoniyatini yaratadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, chet tilida o‘qish kompetensiyasi zamonaviy mutaxassisning nafaqat til kompetensiyasini, balki uning kasbiy, kognitiv va axborot kompetensiyalarini rivojlantirishda ham muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta’lim jarayonida talabaning o‘z mutaxassisligiga oid xorijiy manbalarni mustaqil o‘qishi, ulardan zarur axborotni izlab topishi, mazmunini tahlil qilishi va amaliy faoliyatida qo‘llashi uning kelajakdagi kasbiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari o‘qish kompetensiyasining asosiy afzalliklaridan biri talabaning mustaqil axborot olish imkoniyatini kengaytirishi ekanligini ko‘rsatadi. Zamonaviy ilm-fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi natijasida yangi bilimlar, ilmiy maqolalar, metodik qo‘llanmalar va kasbiy axborotlarning katta qismi xorijiy tillarda, ayniqsa ingliz tilida e’lon qilinmoqda. Shu sababli chet tilida o‘qish kompetensiyasiga ega bo‘lgan mutaxassis axborotni tarjima yoki vositachi orqali emas, balki bevosita birlamchi manbadan olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa axborotning mazmunini to‘liqroq anglash, muallifning ilmiy pozitsiyasini to‘g‘ri talqin qilish va yangi bilimlarni tezroq o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, o‘qish kompetensiyasi kasbiy kompetentlikning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Talaba o‘z sohasi bo‘yicha ingliz tilidagi ilmiy maqolalarni, monografiyalarni, konferensiya materiallarini, elektron resurslarni va professional hujjatlarni o‘qish orqali mutaxassislikka oid terminologiyani o‘zlashtiradi. Natijada uning nafaqat lug‘at boyligi, balki kasbiy tushunchalarni ingliz tilida anglash va ular bilan ishlash qobiliyati ham rivojlanadi. Bu jarayon ayniqsa pedagogika, tibbiyot, muhandislik, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot va boshqa fan sohalarida katta ahamiyatga ega.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat aniqlandi: o‘qish kompetensiyasi boshqa nutq faoliyati turlarining rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Muntazam mutolaa qilish orqali talaba yangi so‘z va iboralarni tabiiy kontekstda o‘zlashtiradi, grammatik konstruksiyalarning amaliy qo‘llanishini kuzatadi hamda yozma va og‘zaki

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

nutq uchun zarur bo‘lgan til materiallarini jamlaydi. Shu nuqtayi nazardan, o‘qish mustaqil kompetensiya bo‘lish bilan birga, tinglab tushunish, gapirish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi muhim manba sifatida ham xizmat qiladi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘qish jarayonining samaradorligi talabaning matn bilan ishlash strategiyalarini egallaganlik darajasiga ham bog‘liq. Xususan, matnning umumiy mazmunini aniqlash, muayyan ma’lumotni izlab topish, asosiy va ikkilamchi fikrlarni farqlash, kontekst asosida noma’lum so‘z ma’nosini aniqlash, xulosa chiqarish va muallif pozitsiyasini baholash kabi strategiyalarni shakllantirish o‘qib tushunish sifatini oshiradi. Demak, o‘qitish jarayonida faqat matnni o‘qitish emas, balki qanday o‘qish kerakligini o‘rgatish ham muhim metodik vazifa hisoblanadi.

Tadqiqotda ko‘rib chiqilgan nazariy va metodik qarashlar shuni ko‘rsatadiki, talabaning oldingi bilimlari ham o‘qib tushunish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Agar o‘quvchi matn mavzusi bo‘yicha yetarli bilimga ega bo‘lsa, yangi axborotni mavjud bilimlari bilan bog‘lash va uning mazmunini anglash osonlashadi. Shu sababli o‘qishdan oldingi bosqichda mavzuga oid tayanch bilimlarni faollashtirish, asosiy terminlarni tushuntirish, sarlavha asosida mazmunni taxmin qilish va muammoli savollar berish kabi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, autentik va sohaga yo‘naltirilgan matnlardan foydalanish o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishda samarali natija berishi aniqlandi. Umumiy mavzulardagi matnlar bilan bir qatorda talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga bevosita aloqador ilmiy va professional materiallarning qo‘llanilishi ularning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi. Masalan, kimyo yo‘nalishidagi talabalar uchun kimyoviy jarayonlar, laboratoriya ishlari, yangi kashfiyotlar yoki ekologik muammolarga oid ingliz tilidagi matnlardan foydalanish umumiy ingliz tili materiallariga nisbatan kasbiy ehtiyoj bilan kuchliroq bog‘lanadi.

Muhokama natijalari o‘qishning yana bir muhim xususiyati — axborotni qabul qilish tezligini boshqarish imkoniyati ekanligini ko‘rsatadi. Yozma matn bilan ishlashda

talaba o'zining individual o'qish tezligini belgilashi, murakkab qismlarni qayta o'qishi, muhim ma'lumotlarni belgilashi va zarur hollarda lug'at yoki boshqa yordamchi manbalardan foydalanishi mumkin. Bu xususiyat ayniqsa chet tilini o'rganayotgan talabalar uchun muhimdir. Chunki ular matnni o'z imkoniyatlari va tayyorgarlik darajasiga mos ravishda o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bundan tashqari, raqamli ta'lim vositalarining rivojlanishi o'qish kompetensiyasini shakllantirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Elektron kitoblar, ilmiy ma'lumotlar bazalari, raqamli lug'atlar, onlayn maqolalar va sun'iy intellektga asoslangan ta'lim vositalari talabalarning mustaqil o'qish faoliyatini qo'llab-quvvatlashi mumkin. Biroq bunday vositalardan foydalanishda talabaning manba ishonchliligini baholash, mualliflik huquqiga rioya qilish, axborotni tanqidiy tahlil qilish va tarjima vositalariga haddan tashqari bog'lanib qolmaslik ko'nikmalarini ham shakllantirish zarur.

Shu bilan birga, o'qish kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, talabalarning lug'at boyligi yetarli emasligi, sohaga oid terminlarning murakkabligi, matnlarning sintaktik va mazmuniy jihatdan murakkabligi, o'qish strategiyalarining yetarlicha shakllanmaganligi o'qib tushunish jarayonini qiyinlashtirishi mumkin. Shu sababli o'qituvchi matn tanlashda talabaning til darajasi, mutaxassisligi, mavjud bilimlari va kasbiy ehtiyojlarini hisobga olishi lozim.

Umuman olganda, natijalar chet tilida o'qish kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy mutaxassisning kasbiy rivojlanishi, mustaqil ta'lim olishi va xalqaro ilmiy-axborot makoniga integratsiyalashuvi uchun muhim shartlardan biri ekanligini ko'rsatadi. O'qish orqali talaba yangi ilmiy va kasbiy axborotni o'zlashtiradi, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, sohaga oid terminologik bazasini kengaytiradi hamda o'z kasbiy bilimlarini muntazam yangilab borish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'limda chet tilini o'qitish jarayonida o'qish kompetensiyasini umumiy til ko'nikmasi sifatida emas, balki talabaning kelajakdagi

kasbiy faoliyatini ta'minlovchi funksional kompetensiya sifatida shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bunda integrativ yondashuv, sohaga yo'naltirilgan autentik materiallar, o'qish strategiyalarini bosqichma-bosqich shakllantirish, raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish hamda mustaqil ta'lim topshiriqlarini tashkil etish muhim metodik shartlar sifatida belgilanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'limda chet tilida o'qish kompetensiyasini rivojlantirish talabalarning nafaqat til bilimlarini, balki kasbiy va ilmiy salohiyatini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Chet tilidagi ilmiy maqolalar, darsliklar, elektron resurslar va boshqa autentik materiallarni mustaqil o'qib tushunish talabalarga sohaga oid yangi bilim va ma'lumotlarni tezkor ravishda egallash imkonini beradi.

O'qish jarayonida talaba axborotni o'ziga qulay tezlikda qabul qiladi, tushunmagan qismlarini qayta o'qiydi va kerakli ma'lumotni ajratib oladi. Bu esa o'qishni tinglab tushunishga nisbatan qulay va boshqariladigan jarayonga aylantiradi. Shuningdek, o'qish orqali talabalarning lug'at boyligi, grammatik bilimlari, talaffuzi, mustaqil fikrlashi va boshqa nutq faoliyati kompetensiyalari ham rivojlanadi.

Shu sababli oliy ta'limda chet tilini o'qitishda o'qish kompetensiyasiga alohida e'tibor qaratish, sohaga oid autentik matnlardan samarali foydalanish va talabalarning mustaqil mutolaa qilish ko'nikmalarini shakllantirish muhimdir. Natijada chet tilida o'qish kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy mutaxassisning kasbiy rivojlanishi, ilmiy axborotdan samarali foydalanishi va mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Jalolov J.J., Irisqulov M.T.Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun ingliz tili o'quv dasturi. – Xalq ta'limi. – №4 – Toshkent, 2013. – 44 b.
2. Демьяненко М.Я., Лазаренко К.А., Кислая С.В. Основы общей методики обучения иностранным языкам. – Киев: Вища школа, 2012. – С. 78-80.
3. Ляховицкий М.В. Методика преподавания иностранных языков: Учеб. пособие для филол. фак. вузов. – Москва: Высшая школа, 2001. – С. 97.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

4. Лурия А.Р. Основы нейропсихологии: учеб. пособие для студ. учреждений высш. проф. образования / 8-е изд., стер. – Москва: Академия, 2013. – С. 28.
5. Клычникова З. И. Психологические особенности обучения чтению на иностранном языке: пособие для учителя — Москва: Просвещение, 2003. — С. 123.
6. Edgar M.A. Teaching second/foreign language literasy to school-age learners – Boston: National Geographic Learning, 2019. – P. 154-170.
7. Anderson N. Developing engaged second language readers – Boston: HEINLE CENGAGE learning, 2019. – P. 170-189.

TAYANCH SO'ZLAR ASOSIDA TALABALAR BILIMINI FORMATIV BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION MODELI

Davidova Dilnoza Tadjibayevna
Andijon davlat texnika instituti
"Iqtisodiyot" kafedrasi assistenti
E-mail: davidovadilnoza1988@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy muhandislik-texnika ta'limi muassasalarida "60711400 – Transport vositalari muhandisligi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va ularning bilim darajasini real vaqt rejimida formativ baholashning tizimli-struktura xarakteriga ega bo'lgan innovatsion modeli ilmiy-pedagogik jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-37 va PF-58-sonli Farmonlari, DTS hamda mehnat bozori talablari asosida shakllangan Maqsad, Didaktik jarayon va Natija bloklarining konseptual mazmuni yoritilgan. "Tayanch so'z + Uch tillilik + Dinamik vizuallashtirish" didaktik dastaklari orqali talabalarning kognitiv yuklamasini optimallashtirish hamda "Bitiruvchi sifati indeksi"ni oshirish mexanizmlari ilmiy manbalar va metrikalar doirasida tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *formativ baholash, tayanch so'zlar, tezaurus matrisasi, FoBaTS.uz, kognitiv yuklama, diodli zanjirlar, vizual-kinematik modellashtirish, bitiruvchi sifati indeksi, transport vositalari muhandisligi.*

ИННОВАЦИОННАЯ МОДЕЛЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДОЛОГИИ ФОРМИРУЮЩЕГО ОЦЕНИВАНИЯ ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ КЛЮЧЕВЫХ СЛОВ

Аннотация. *В данной статье научно-педагогически обоснована системно-структурная инновационная модель формирования профессиональных компетенций и формативиного оценивания знаний студентов в режиме реального времени по направлению бакалавриата «60711400 – Инженерия транспортных средств» в высших технических учебных заведениях. В исследовании раскрыто концептуальное содержание целевого, дидактико-процессуального и результативного блоков, сформированных на основе Указов Президента Республики Узбекистан № УП-37 и № УП-58, государственного образовательного стандарта и требований рынка труда. Научно обоснованы механизмы оптимизации когнитивной нагрузки студентов и повышения «Индекса качества выпускников» с помощью дидактических инструментариев «Ключевое слово + Трехязычие + Динамическая визуализация».*

Ключевые слова: *формативное оценивание, опорные слова, матрица тезауруса, FoBaTS.uz, когнитивная нагрузка, диодные цепи, визуально-кинематическое моделирование, индекс качества выпускников, инженерия транспортных средств.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

AN INNOVATIVE MODEL OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF FORMATIVE ASSESSMENT OF STUDENTS' KNOWLEDGE BASED ON KEYWORDS

Annotation. *This article scientifically and pedagogically substantiates a systemic-structural innovative model for forming professional competencies and real-time formative assessment of students' knowledge in higher technical educational institutions under the "60711400 – Transport Vehicles Engineering" bachelor's degree program. The study reveals the conceptual content of the Goal, Didactic Process, and Result blocks, formed based on the Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan No. UP-37 and No. UP-58, state educational standards, and labor market demands. The mechanisms for optimizing students' cognitive load and increasing the "Graduate Quality Index" using didactic tools of "Keyword + Trilingualism + Dynamic Visualization" are scientifically substantiated.*

Keywords: *formative assessment, keywords, thesaurus matrix, FoBaTS.uz, cognitive load, diode chains, visual-kinematic modeling, graduate quality index, transport vehicles engineering.*

KIRISH

Hozirgi zamonaviy muhandislik-texnika ta'limini rivojlantirishning bugungi bosqichi kadrlar tayyorlash sifati va unumdorligini davlat, jamiyat va strategik ishlab chiqarish tarmoqlarining qat'iy me'yoriy talablari asosida tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-sonli [1] hamda 2026-yil 10-apreldagi PF-58-sonli Farmonlari oliy muhandislik ta'limi muassasalari oldiga strategik ijtimoiy buyurtmalarni qo'ymoqda. Xususan, PF-58-sonli Farmonda belgilangan "Bitiruvchi sifati indeksi"ni ishlab chiqish hamda eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan OTM Karyera markazlarini moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlari oliy ta'lim tizimiga talabalarning amaliy ko'nikmalari hamda mantiqiy-tizimli tafakkurini dars jarayonining o'zida, real vaqt rejimida formativ baholash va uzluksiz monitoring qilish majburiyatini yuklaydi [2].

Bizning tadqiqotimiz obyekti bo'lgan "60711400 – Transport vositalari muhandisligi (TVM)" bakalavriat ta'lim yo'nalishining amaldagi Davlat ta'lim standartlari hamda Malaka talablarida bo'lajak muhandislardan "texnologik jarayonlarni kognitiv vizuallashtirish, tizimli fikrlash va murakkab transport vositalari konstruksiyalarini mustaqil diagnostika qilish" qobiliyati markaziy o'ringa qo'yilgan [3].

"Avtomobil konstruksiyasi" fanining o'quv materiallari o'ta zich va murakkab bo'lganligi sababli, an'anaviy statik va summativ (kechikkan) nazorat usullari dars xonasida "qora quti" (*black box*) effektini yuzaga keltirib, kognitiv yuklamaning ortishiga hamda mehnat bozori va ish beruvchilarning (Respublika avtomobil sanoati) real talablariga to'laqonli javob bera olmasligiga olib kelmoqda [4, 5].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqotning metodologik arxitekturasi Didaktik jarayon bloki doirasida beshta fundamental metodik yondashuv va uchta yirik ilmiy maktab g'oyalari integratsiyasiga tayanadi:

1.Semantik-kognitiv yondashuv: Fanning ulkan axborot oqimini talabaning ishchi xotirasida oson muhrlash uchun ma'lumotlarni fanning semantik yadrosi (o'zbek, rus va ingliz tillaridagi tayanch so'zlar) orqali kognitiv siqish (*data compression*) va tizimlashtirish jarayonlarini boshqaradi [6].

2.Kvalimetrik-formativ yondashuv: Baholash tizimini an'anaviy statik nazoratdan dars jarayonining o'zida, real vaqt rejimida (*real-time monitoring*) raqamli metrikalar, mantiqiy stop-kadrlar va tayanch so'zlar yordamida uzluksiz o'lchashga yo'naltiradi [7].

3.Vizual-kinematik yondashuv: Avtomobil agregatlari va mexanizmlarining (transmissiya, differensial) murakkab harakat hamda kuch uzatish zanjirlarini 3D animatsiyalar vositasida namoyish etib, fazoviy-kinematik tafakkurni rivojlantiradi.

4.Tarmoqli (LMS-integratsiyalashgan) yondashuv: FoBaTS.uz mualliflik platformasi darsdan oldingi mustaqil kognitiv tayyorgarlik va formativ baholash natijalarini birlashtiruvchi ekotizim sifatida boshqaradi.

5.Adaptiv-professional yondashuv**:** Bo'lajak muhandislarning kasbiy terminologik savodxonligini xalqaro ISO va SAE standartlari talablari darajasida rivojlantirish hamda ularning zamonaviy avtomobilsozlik sanoat klasterlari va global mehnat bozoriga tezkor moslashuvchanligini (*adaptivligini*) ta'minlash metodikasi adaptiv-professional yondashuv nuqtai nazaridan asoslab berilgan [8].

Shu bilan birga, avvalgi ilmiy maqolalarimizda takidlaganimizdek formativ baholash konsepsiyasining nazariy-metodologik genezisi xronologik va qiyosiy jihatdan uchta yirik ilmiy maktablar kesimida sintez qilindi [9].

L.V. Zankovning axborotni kognitiv arxivlash va siqish nazariyasi: Uch tilli tayanch so‘zlar uzoq muddatli xotiradagi murakkab mexanik sxemalarni dars davomida tezkor faollashtirish uchun “kognitiv arxivlovchi” (*data compression*) va “kognitiv ilgaklar” vazifasini bajaradi [10].

J. Swellerning kognitiv yuklamani optimallashtirish nazariyasi (CL = IL + EL + GL): “Tayanch so‘z + Dinamik vizuallashtirish” dastaklarining kiritilishi metodik noaniqliklar tufayli yuzaga keladigan ortiqcha tashqi yuklamani (EL) minimallashtiradi va foydali mantiqiy yuklama (GL) uchun joy ochadi [11].

O.N.Oleynikovanining professional moslashuvchanlik konsepsiyasi: Competency-Based Education (CBE) modeliga ko‘ra, tayanch so‘zlar bo‘lajak muhandisning kognitiv xaritasi (*mental map*) yadrosini tashkil etib, mutlaqo o‘zgargan texnologik vaziyatlarda transport vositasi konstruksiyasini tezkor tahlil qilish imkonini beradi [12].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqotimiz doirasida ishlab chiqilgan ushbu innovatsion modelimiz tizimli-struktura xarakteriga ega bo‘lib, uchta o‘zaro uzviy va funksional bog‘langan bloklarni qamrab oladi(1-rasm):



1-rasm. Texnika fanlarini o'qitishda tayanch so'zlar asosida talabalar bilimini formativ baholash metodikasini takomillashtirishning innovatsion modeli

1. Maqsad bloki - Ijtimoiy buyurtma, DTS va Malaka talablari hamda Ish beruvchilar ehtiyojlarini sintez qiladi. Uning bosh maqsadi — bo'lajak muhandislarning

kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish sifatini oshirish va ularning bilim darajasini real vaqt rejimida formativ baholashdan iborat.

2. Didaktik jarayon bloki - o‘quv jarayoni va “Avtomobil konstruksiyasi” fanini o‘qitish algoritmi 3 ta raqamlashtirilgan bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich. Kognitiv tayyorgarlik: Darsdan oldingi mustaqil bosqich bo‘lib, talaba “Teskari sinf” (*Flipped Class*) texnologiyasi va FoBaTS.uz platformasi orqali mavzuning semantik yadrosi (uch tilli tayanch so‘zlar) hamda animatsiyalar bilan tanishadi.

2-bosqich. Vizual-kinematik sintez: Auditoriyadagi sinxron mashg‘ulot bo‘lib, 3D animatsiyalar namoyish etilayotganda jarayon mantiqiy stop-kadrda to‘xtatiladi.

3-bosqich. Formativ diagnostika va korreksiya: Stop-kadr vaqtida talabalar harakat mantig‘ini uch tilli tayanch so‘zlar va mualliflik “Diodli zanjirlar” interfaol didaktik o‘yini vositasida tahlil qiladilar. Diodning ventil (bir tomonlama o‘tkazish) xossasiga tayanuvchi bu metodikada zanjir uzilganda real vaqt rejimida (*real-time feedback*) xato aniqlanadi va darsning o‘zida korreksiyalanadi [13].

3. Natija bloki - talabalarning kasbiy-diagnostik ko‘nikmalari uchta kompleks metrika va darajalar bo‘yicha kvalimetrik baholanadi:

Baholash metrikalari: Uch tilli (Uz/Ru/En) terminologik savodxonlik, Vizual-kognitiv faollik hamda Mantiqiy-konstruktiv tahlil.

Kompetensiyaviy darajalar: *Ijodiy (Yuqori)* — kognitiv sxemalarni erkin faollashtiradi va operativ tahlil qiladi; *Faol (O‘rta)* — mantiqiy bog‘liqliklarni tahlil qiladi, lekin skaffoldingga ehtiyoj sezadi; *Dastlabki (Past)* — detal va terminlarni shunchaki mexanik yodlagan (reproduktiv).

Pirovardida, “Tayanch so‘z + Uch tillilik + Dinamik vizuallashtirish” didaktik dastaklari asosida ishchi xotiradagi ortiqcha tashqi yuklamasi(EL) muvozanatlashgan, foydali mantiqiy energiyasi (GL) oshirilgan va real vaqt rejimida formativ monitoring qilingan, mehnat bozorida raqobatbardosh “Transport vositalari muhandisi” shakllantiriladi hamda “Bitiruvchi sifati indeksi” yuqori darajaga olib chiqiladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

XULOSA

Yuqorilardan kelib chiqib, ilmiy jihatdan asoslangan Tizimli-struktura modeli "Avtomobil konstruksiyasi" fanini o'qitishda an'anaviy statik baholashdan voz kechib, real vaqt rejimida formativ monitoring qilish imkonini beradi.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida biz tamondan yangi yaratilgan "FoBaTS.uz" platformasi va ishlab chiqilgan "Diodli zanjirlar" mualliflik metodikasi[13], J.Swellerning kognitiv yuklama nazariyasiga muvofiq ortiqcha tashqi yuklamani (EL) kamaytiradi va foydali mantiqiy xotira (GL) samaradorligini oshiradi.

Uch tilli tezaurus matrisasi va 3D vizual-kinematik modellashtirish bitiruvchilarning ISO/SAE xalqaro standartlariga moslashuvchanligini ta'minlab, PF-58-sonli Farmonda belgilangan "Bitiruvchi sifati indeksi" va inson kapitali unumdorligini (ROI) oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-37-sonli Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.02.2024-y., 06/24/37/0146-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish va Karyera markazlari faoliyatini moliyaviy rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-58-sonli Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.04.2026-y., 06/26/58/0280-son.
3. 60711400 – Transport vositalari muhandisligi bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talablari va Davlat ta'lim standarti. – Toshkent: Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, 2024. – 48 b.
4. Black P., Wiliam D. Inside the Black Box: Raising Standards Through Classroom Assessment // Phi Delta Kappan. – London: King's College, 1998. – Vol. 80, No. 2. – P. 139–148.
5. Saydaliyev I. N. Bo'lajak muhandislarni tayyorlashda oliy ta'lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasini ta'minlash texnologiyasi : ped. fan. d-ri (DSc) dis. ... avtoref. – Jizzax, 2022. – 68 b.
6. Safarova R. G. va boshqalar. O'quv jarayonida formativ baholash texnologiyalarini qo'llash metodikasi. – Toshkent: Universitet, 2023. – 148 b.
7. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 250 b.

8. Davidova D. T., Saydaliyev I. N., Azimova Z. E. Evolutionary-Theoretical Analysis of Key Concept-Based Teaching Technology in Higher Technical Educational Institutions // American Journal of Alternative Education. – 2026. – Vol. 3, No. 3. – P. 128–132.

9. Davidova D. T. O‘quv jarayonida formativ baholashning evolyutsion-xronologik tahlili // Maktabgacha va maktab ta’limi. – Toshkent, 2026. – № 5 (5). – B. 383–387.

10. Занков Л. В. Обучение и развитие (Экспериментально-педагогическое исследование). – М. : Педагогика, 1975. – 440 с.

11. Sweller J. Cognitive load theory, educational research, and instructional design: some reflections // Instructional Science. – 2010. – Vol. 38, No. 2. – P. 123–138.

12. Олейникова О. Н., Муравьева А. А. Модульно-компетентностный подход в системе профессионального образования и обучения. – М. : Альфа-М, 2011. – 192 с.

13. Davidova D. T. “Diodli zanjirlar” nomli interfaol didaktik o‘yini metodikasi : Mualliflik huquqi obyektlarini deponentlash to‘g‘risidagi guvohnoma № 010526 / O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi «Intellektual mulk markazi» DM. – Toshkent, reestrga kiritilgan sana: 03.07.2026.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA HISSIY INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI

Abrayeva Mehrangiz Bekmirza qizi
Ilmiy tadqiqotchi
mehrangizabrayeva1@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida hissiy intellektni rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning intellektual rivojlanishi bilan bir qatorda ularning hissiy va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Tadqiqotda hissiy intellektning mazmun-mohiyati hamda uning boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar shaxsiy rivojlanishidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, ta'limiy-psixologik muhit, pedagogik hamkorlik, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish hamda hamkorlikka asoslangan ta'lim faoliyati hissiy intellektni rivojlantirishning muhim pedagogik omillari sifatida asoslanadi. Ushbu omillarning o'zaro uyg'unligi o'quvchilarning o'z hissiyotlarini anglash va boshqarish, boshqalarning hissiy holatini tushunish hamda samarali muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Maqola natijalaridan boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning hissiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan pedagogik faoliyatni takomillashtirishda foydalanish mumkin.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, hissiy intellekt, pedagogik omillar, hissiy rivojlanish, pedagogik hamkorlik, ta'lim muhiti, muloqot, emotsional kompetensiya, o'quvchi, shaxs rivojlanishi.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация. *В данной статье анализируются педагогические факторы, влияющие на развитие эмоционального интеллекта учащихся начальных классов. В современном образовательном процессе наряду с интеллектуальным развитием учащихся важной педагогической задачей является формирование их эмоциональных и социальных компетенций. В исследовании раскрываются сущность эмоционального интеллекта и его роль в личностном развитии детей младшего школьного возраста. Обосновываются такие важные педагогические факторы развития эмоционального интеллекта, как образовательная и психологическая среда, педагогическое сотрудничество, взаимоотношения между учителем и учащимися, учет индивидуальных особенностей школьников и организация совместной учебной деятельности. Подчеркивается, что взаимосвязь и согласованность данных факторов способствует развитию у учащихся способности осознавать и регулировать собственные эмоции, понимать эмоциональное состояние окружающих и эффективно взаимодействовать с ними. Результаты статьи могут быть использованы при совершенствовании педагогической деятельности, направленной на поддержку эмоционального развития учащихся в процессе начального образования.*

Ключевые слова: *начальное образование, эмоциональный интеллект, педагогические факторы, эмоциональное развитие, педагогическое сотрудничество, образовательная среда, общение, эмоциональная компетентность, учащийся, развитие личности.*

PEDAGOGICAL FACTORS OF DEVELOPING EMOTIONAL INTELLIGENCE IN PRIMARY STUDENTS

Abstract. *This article analyzes the pedagogical factors influencing the development of emotional intelligence in primary school students. In modern education, along with students' intellectual development, fostering their emotional and social competencies is considered an important pedagogical task. The study explores the essence of emotional intelligence and its role in the personal development of children of primary school age. It also substantiates the educational and psychological environment, pedagogical cooperation, teacher–student relationships, consideration of students' individual characteristics, and collaborative learning activities as significant pedagogical factors in the development of emotional intelligence. The study emphasizes that the interaction and consistency of these factors contribute to students' ability to recognize and regulate their own emotions, understand the emotional states of others, and communicate effectively.*

The findings of the article may be used to improve pedagogical practices aimed at supporting students' emotional development in the primary education process.

Keywords: *primary education, emotional intelligence, pedagogical factors, emotional development, pedagogical cooperation, educational environment, communication, emotional competence, student, personality development.*

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning faqat bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish bilan cheklanib qolmasdan, ularning shaxsiy, ijtimoiy va hissiy rivojlanishini ta'minlash muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchining o'z his-tuyg'ularini anglay olishi, ularni boshqara olishi, atrofdagilarning hissiy holatini tushunishi hamda samarali muloqotga kirisha olishi uning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan hissiy intellekt shaxsning nafaqat ijtimoiy munosabatlari, balki ta'lim faoliyatidagi faolligi va muvaffaqiyatiga ham ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda [6].

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Hissiy intellekt tushunchasi ilmiy adabiyotlarda shaxsning hissiyotlarni idrok etish, tushunish va boshqarish bilan bog‘liq qobiliyatlari majmui sifatida talqin qilinadi. Mazkur tushunchaning nazariy asoslari P. Salovey va J.D. Mayer tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, keyinchalik hissiy intellektning mazmuni, tarkibiy komponentlari va shaxs faoliyatidagi ahamiyati keng tadqiq etilgan [1;16]. D. Goleman esa hissiy intellektning o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalar bilan bog‘liq jihatlariga alohida e’tibor qaratgan [2].

Boshlang‘ich maktab yoshi bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda o‘quvchilarning hissiy holatlarini anglash, o‘z kechinmalarini ifodalash, tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlarni yo‘lga qo‘yish kabi ko‘nikmalari faol shakllanadi. Ilmiy tadqiqotlarda boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarda hissiy intellektni rivojlantirish ularning ijtimoiylashuvi, o‘zini boshqarishi va muloqot faoliyatini takomillashtirish bilan chambarchas bog‘liqligi ta’kidlanadi [7;8].

Ta’lim jarayonida hissiy intellektning rivojlanishi o‘quvchining individual xususiyatlari bilangina belgilanmaydi. Mazkur jarayonga ta’lim muhiti, o‘qituvchining pedagogik faoliyati, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar, hamkorlikka asoslangan faoliyat hamda o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish kabi qator pedagogik omillar ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hissiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun qulay psixologik-pedagogik sharoit yaratish hamda maqsadli pedagogik ta’sirni tashkil etish zarurligi qayd etilgan [7;11].

Shu bilan birga, hissiy intellekti rivojlangan o‘quvchilarning ta’lim faoliyatiga munosabati, o‘quv motivatsiyasi va o‘zaro munosabatlarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilishi mumkin. Xususan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida hissiy intellekt va akademik motivatsiya o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligi tadqiqotlarda ko‘rsatib berilgan [6]. Bu esa boshlang‘ich ta’lim jarayonida hissiy intellektni rivojlantirishga ta’sir

etuvchi pedagogik omillarni aniqlash va ulardan samarali foydalanish masalasining ilmiy-amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarida hissiy intellektni rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy pedagogik omillarni aniqlash hamda ularning ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni va imkoniyatlarini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslashdan iborat.

TADQIQOT OBYEKTI VA QO'LLANILGAN METODLAR

Tadqiqotning obyekti boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning hissiy intellektini rivojlantirish jarayoni hisoblanadi. Tadqiqotning predmeti esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida hissiy intellektni shakllantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar, ularni ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari hamda ushbu jarayonni pedagogik jihatdan samarali tashkil etish shart-sharoitlaridan iborat.

Tadqiqotning asosiy maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarida hissiy intellektni rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillarni aniqlash, ularning mazmun-mohiyatini ochib berish hamda ta'lim-tarbiya jarayonidagi pedagogik imkoniyatlarini asoslashdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun hissiy intellekt tushunchasining ilmiy-nazariy mazmuni, uning tarkibiy qismlari va boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilar rivojlanishidagi ahamiyati o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlardan foydalanildi. Nazariy metodlar tarkibiga ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, tizimlashtirish va pedagogik hodisalarning mazmunini aniqlash usullari kiritildi. Mazkur metodlar orqali hissiy intellektning mohiyati, uning shaxs rivojlanishidagi o'rni hamda ta'lim jarayonida uni rivojlantirishga oid ilmiy qarashlar o'rganildi.

Ilmiy manbalarni tahlil qilishda P. Salovey va J.D. Mayer tomonidan ilgari surilgan hissiy intellekt konsepsiyasiga, D. Goleman tomonidan ishlab chiqilgan o'zini anglash, o'zini boshqarish, empatiya va ijtimoiy ko'nikmalar bilan bog'liq qarashlarga alohida

e'tibor qaratildi [1;2]. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalarda hissiy intellektning rivojlanish xususiyatlari hamda uning akademik motivatsiya va ta'lim faoliyati bilan bog'liqligiga oid zamonaviy tadqiqotlar tahlil qilindi [4;11].

Tadqiqotda pedagogik kuzatish metodidan ham foydalanildi. Kuzatish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining turli ta'limiy va ijtimoiy vaziyatlarda o'z hissiyotlarini ifodalashi, tengdoshlari bilan munosabatga kirishishi, nizoli vaziyatlarga munosabati, o'z fikrini bayon qilishi hamda boshqa o'quvchilarning hissiy holatiga munosabat bildirishi kabi jihatlarga e'tibor qaratildi.

Shuningdek, taqqoslash va umumlashtirish metodlari yordamida hissiy intellektni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi pedagogik omillar guruhlashtirildi. Natijada ta'limiy-psixologik muhit, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, hamkorlikka asoslangan ta'lim faoliyati, empatiyani rivojlantirish hamda o'z hissiyotlarini anglash va boshqarishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat asosiy omillar sifatida ajratib ko'rsatildi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning o'zaro uyg'unligi hissiy intellektni rivojlantirish jarayonini faqat nazariy jihatdan emas, balki boshlang'ich ta'limning amaliy jarayoni bilan bog'liq holda tahlil qilish imkonini berdi. Shu asosda boshlang'ich sinf o'quvchilarining hissiy intellektini rivojlantirishda pedagogik muhit, o'qituvchi faoliyati va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot jarayonining umumiy mantiqiy ketma-ketligini quyidagicha ifodalash mumkin:

ilmiy manbalarni o'rganish → hissiy intellektning tarkibiy qismlarini aniqlash → pedagogik omillarni guruhlashtirish → boshlang'ich ta'lim jarayonidagi imkoniyatlarni tahlil qilish → pedagogik xulosalarni shakllantirish.

Mazkur metodologik yondashuv keyingi bosqichda aniqlangan pedagogik omillarning mazmunini batafsil tahlil qilish va ularning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hissiy rivojlanishiga ta’sirini yoritish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Tadqiqot davomida o‘rganilgan ilmiy-pedagogik manbalar, nazariy qarashlar hamda boshlang‘ich ta’lim jarayoniga oid tahlillar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida hissiy intellektni rivojlantirishga ta’sir etuvchi pedagogik omillar tizimlashtirildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, hissiy intellektning shakllanishi o‘quvchining individual xususiyatlari bilangina emas, balki u ta’lim olayotgan pedagogik muhit, o‘qituvchi faoliyati va tengdoshlari bilan tashkil etiladigan munosabatlar bilan ham bevosita bog‘liq.

Boshlang‘ich maktab yoshida bola o‘z hissiyotlarini anglash, ularni nomlash, turli vaziyatlarda o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish va atrofidagi insonlarning hissiy holatini tushunishni faol o‘rganadi. Shu sababli mazkur davrda hissiy intellektni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik ta’sir izchil, maqsadli va bolaning yosh xususiyatlariga mos tashkil etilishi lozim.

Tadqiqot natijasida aniqlangan asosiy pedagogik omillar quyidagi jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida hissiy intellektni rivojlantirishning asosiy pedagogik omillari

№	Pedagogik omil	Mazmuni	Rivojlantiriladigan hissiy ko‘nikmalar
	Ta’limiy-psixologik muhit	O‘quvchi o‘zini xavfsiz, erkin va qadrlangan his qiladigan muhitni yaratish	Hissiy xavfsizlik, o‘ziga ishonch

	O‘qituvchi-o‘quvchi munosabati	O‘zaro hurmat, ishonch, tinglash va qo‘llab-quvvatlashga asoslangan munosabat	O‘z hissiyotini ifodalash, muloqot
	Individual yondashuv	O‘quvchilarning yosh, individual va hissiy xususiyatlarini hisobga olish	O‘zini anglash, o‘zini boshqarish
	Hamkorlikdagi faoliyat	Juftlik va kichik guruhlarda birgalikda topshiriqlar bajarish	Empatiya, tinglash, hamkorlik
	Hissiyotlarni anglash va boshqarish	O‘quvchining o‘z hissiy holatini aniqlashi va boshqarish usullarini egallashi	O‘zini boshqarish
	Empatiya va muloqot	Boshqalarning hissiy holatini tushunish va unga mos munosabat bildirish	Empatiya, ijtimoiy ko‘nikmalar

Jadvaldan ko‘rinadiki, hissiy intellektni rivojlantirish jarayonida pedagogik omillar bir-biridan ajralgan holda emas, balki o‘zaro bog‘liq tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, qulay psixologik muhit o‘quvchining o‘z fikrini va hissiyotlarini erkin ifodalashiga imkon yaratadi. O‘qituvchi tomonidan qo‘llab-quvvatlovchi munosabatning mavjudligi esa o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Bu ikki omil keyinchalik o‘quvchining tengdoshlari bilan hamkorlik qilishi va muloqotga kirishishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Ta’limiy-psixologik muhitning ta’siri

Boshlang'ich sinf o'quvchisining hissiy rivojlanishida ta'limiy-psixologik muhit alohida ahamiyatga ega. O'quvchi o'zini sinf jamoasining to'laqonli a'zosi sifatida his qilishi, o'z fikrini erkin bildira olishi va xatoga yo'l qo'yganida salbiy munosabatga duch kelmasligi uning hissiy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bunday muhitda o'quvchi o'z kechinmalarini yashirmasdan ifodalashga, o'zining xatti-harakatlarini tahlil qilishga va zarur holatlarda yordam so'rashga o'rganadi. Shu jihatdan o'qituvchining sinfdagi muloqot madaniyati va pedagogik munosabati hissiy intellektni rivojlantirishning muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarning o'rni

Tadqiqot tahlili o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijobiy munosabatlar hissiy intellekt rivojlanishiga bevosita pedagogik ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. O'qituvchining o'quvchini tinglashi, uning hissiy holatini tushunishga harakat qilishi va muammoli vaziyatlarda vazmin munosabatda bo'lishi o'quvchi uchun amaliy namuna vazifasini bajaradi.

O'quvchilar kattalarning xatti-harakatlarini kuzatish orqali turli hissiy vaziyatlarda qanday munosabat bildirishni o'rganadilar. Shu sababli o'qituvchining o'z hissiyotlarini boshqarishi, keskin vaziyatlarda hissiy barqarorlikni saqlashi va o'quvchilarga hurmat bilan murojaat qilishi hissiy tarbiyaning tabiiy vositasiga aylanadi.

Individual xususiyatlarni hisobga olish

Boshlang'ich sinf o'quvchilari hissiy reaksiyasi, xarakteri, muloqotga kirishuvchanligi va o'z kechinmalarini ifodalash qobiliyati bilan farqlanadi. Shuning uchun hissiy intellektni rivojlantirishda individual yondashuv muhim pedagogik omillardan biri hisoblanadi.

Ayrim o'quvchilar o'z his-tuyg'ularini ochiq ifodalashga moyil bo'lsa, ayrimlari o'z kechinmalarini ichida saqlashi mumkin. Bunday holatda o'qituvchi o'quvchini majburlamasdan, turli pedagogik topshiriqlar orqali uning hissiy holatini ifodalashiga imkon yaratishi zarur.

Individual yondashuvning asosiy mazmuni o‘quvchiga tayyor hissiy javobni berish emas, balki uni o‘z hissiyotini mustaqil anglash va izohlashga yo‘naltirishdan iborat. Masalan, “Bugun o‘zingni qanday his qilyapsan?”, “Nima sababdan shunday his qilyapsan?”, “Bu vaziyatda o‘zingni qanday tutishing mumkin?” kabi savollar o‘quvchining hissiy refleksiyasini rivojlantirishi mumkin.

Hamkorlikka asoslangan faoliyat

Hissiy intellektni rivojlantirishda hamkorlikdagi faoliyatning imkoniyatlari yuqori. Juftlik va kichik guruhlarda tashkil etiladigan topshiriqlar davomida o‘quvchilar o‘z fikrlarini bayon qilish, boshqa o‘quvchini tinglash, kelishish va turli fikrlarni qabul qilish tajribasiga ega bo‘ladilar.

Ayniqsa, guruhli topshiriqlarda umumiy maqsadga erishish uchun o‘quvchilarning bir-birini qo‘llab-quvvatlashi talab qilinadi. Bu jarayonda o‘quvchi nafaqat o‘z manfaatini, balki guruhdagi boshqa a’zolarning fikri va hissiy holatini ham hisobga olishni o‘rganadi. Natijada empatiya, hamkorlik va ijtimoiy muloqot ko‘nikmalari rivojlanadi.

Hissiyotlarni anglash va boshqarish

Hissiy intellektning muhim tarkibiy jihatlaridan biri o‘z hissiyotlarini anglash va boshqarish qobiliyatidir [1;2]. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mazkur ko‘nikmani shakllantirish uchun dars jarayoniga sodda, yoshga mos refleksiv topshiriqlarni kiritish mumkin.

Masalan, o‘quvchilarga turli hissiy holatlar aks etgan vaziyatlarni taqdim etish va ulardan qahramonning hissiyotini aniqlash so‘raladi. Keyingi bosqichda esa o‘quvchi shu vaziyatda o‘zi qanday yo‘l tutishini tushuntiradi. Bunday topshiriqlar o‘quvchining hissiyot va xatti-harakat o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishiga yordam beradi.

Shuningdek, o‘quvchilarga salbiy hissiy holat yuzaga kelganida uni boshqarishning maqbul usullarini topish topshirig‘ini berish mumkin. Bu orqali o‘quvchi hissiy holatni

shunchaki boshdan kechirish bilan cheklanmay, uni boshqarish mumkinligini anglay boshlaydi.

Empatiya va samarali muloqot

Empatiya boshqa insonning hissiy holatini tushunish va uning kechinmalariga nisbatan mos munosabat bildirish bilan bog‘liq. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida empatiyani rivojlantirish uchun badiiy matnlar, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar va guruhli muhokamalardan foydalanish mumkin.

Masalan, o‘quvchilarga hikoya qahramonining muayyan vaziyatdagi hissiy holatini aniqlash topshiriladi. Keyin “Agar sen uning o‘rnida bo‘lganingda nima qilarding?”, “Unga qanday yordam berarding?” kabi savollar beriladi. Ushbu faoliyatlar o‘quvchini vaziyatga boshqa inson nuqtayi nazaridan qarashga undaydi.

Shuningdek, samarali muloqotni shakllantirish uchun o‘quvchilarga suhbatdoshini bo‘lmasdan tinglash, fikrini hurmat qilish, o‘z nuqtayi nazarini muloyim ifodalash va kelishmovchilik yuzaga kelganda murosaga kelish kabi qoidalarni amaliy vaziyatlarda o‘rgatish mumkin.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida hissiy intellektni rivojlantirish ko‘p omilli pedagogik jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Unda ta’lim muhiti, o‘qituvchi shaxsi, individual yondashuv, hamkorlikdagi faoliyat, hissiy refleksiya va empatik muloqot bir-birini to‘ldiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur omillarning uyg‘un tashkil etilishi o‘quvchilarning hissiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zarur pedagogik sharoitlarni yaratadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida hissiy intellektni rivojlantirish zamonaviy boshlang‘ich ta’lim jarayonining muhim pedagogik vazifalaridan biri ekanligi aniqlandi. Hissiy intellekt o‘quvchining o‘z hissiyotlarini anglash va boshqarish, boshqa insonlarning hissiy holatini tushunish hamda ular bilan samarali muloqot qilish imkonini beruvchi muhim kompetensiyalar

majmuasi sifatida namoyon bo'ladi. Mavjud ilmiy manbalarda ham hissiy intellektning o'quvchilarning ijtimoiylashuvi, muloqot faoliyati va ta'lim motivatsiyasi bilan bog'liqligi qayd etilgan [6;8].

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida hissiy intellektning rivojlanishi faqat o'quvchining individual xususiyatlariga bog'liq bo'lmay, ta'lim jarayonida yaratiladigan pedagogik shart-sharoitlar bilan ham chambarchas bog'liq. Ayniqsa, qulay ta'limiy-psixologik muhit, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijobiy munosabat, individual yondashuv, hamkorlikka asoslangan faoliyat, hissiyotlarni anglash va boshqarishga yo'naltirilgan topshiriqlar hamda empatik muloqot hissiy intellektni rivojlantirishning asosiy pedagogik omillari sifatida belgilandi.

Qulay psixologik muhit o'quvchining o'z fikri va hissiyotlarini erkin ifodalashi uchun zarur sharoit yaratadi. Bunday muhitda o'quvchi xato qilishdan qo'rqmasdan o'z fikrini bayon qilish, o'z hissiy holatini tushuntirish va zarur hollarda yordam so'rash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisi tomonidan o'zaro hurmat, ishonch va qo'llab-quvvatlashga asoslangan ta'lim muhitini yaratish muhim hisoblanadi.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar ham hissiy intellekt rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining o'z hissiyotlarini boshqara olishi, o'quvchilarni tinglashi, ularning kechinmalariga hurmat bilan munosabatda bo'lishi bolalar uchun amaliy namuna vazifasini bajaradi. Shu jihatdan pedagogning shaxsiy va kasbiy madaniyati o'quvchilarning hissiy kompetensiyalarini shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biridir.

Tadqiqot natijalari asosida boshlang'ich ta'lim amaliyoti uchun quyidagi pedagogik tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- dars jarayonida o'quvchilarning hissiy holatini aniqlash va ifodalashga imkon beruvchi qisqa refleksiv topshiriqlardan foydalanish;

- o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda individual pedagogik yondashuvni tashkil etish;

- juftlik va kichik guruhlardagi hamkorlik faoliyatidan muntazam foydalanish;

- badiiy matn va hayotiy vaziyatlar asosida empatiyani rivojlantiruvchi savol va topshiriqlarni qo‘llash;

- o‘quvchilarga nizoli vaziyatlarni tinch va konstruktiv tarzda hal qilish usullarini o‘rgatish;

- o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida o‘zaro hurmat va ishonchga asoslangan pedagogik munosabatni shakllantirish;

- o‘quvchilarning hissiy rivojlanishini faqat alohida mashg‘ulotlar bilan cheklamasdan, barcha fanlar va tarbiyaviy faoliyat mazmuniga integratsiya qilish.

Umuman olganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida hissiy intellektni rivojlantirish tizimli va uzluksiz pedagogik jarayon sifatida tashkil etilishi lozim. Hissiy intellektning rivojlanishi o‘quvchilarning o‘zini anglash va boshqarish qobiliyatlarini takomillashtirish bilan bir qatorda, ularning tengdoshlari va kattalar bilan samarali munosabat o‘rnatishiga ham yordam beradi. Shuning uchun boshlang‘ich ta’limda intellektual rivojlanish bilan bir qatorda o‘quvchilarning hissiy va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlarni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur xulosalar boshlang‘ich ta’lim jarayonida hissiy intellektni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni takomillashtirish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Kelgusidagi tadqiqotlarda esa ushbu pedagogik omillarning samaradorligini tajriba-sinov ishlari asosida aniqlash, o‘quvchilarning hissiy intellekt darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqish va amaliy-metodik tavsiyalarni takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mayer J.D., Salovey P. What is Emotional Intelligence? Emotional Development and Emotional Intelligence: Educational Implications. – New York: Basic Books, 1997.

2. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 1995.
3. Bar-On R., Parker J.D.A. The Handbook of Emotional Intelligence: Theory, Development, Assessment, and Application at Home, School, and in the Workplace. – San Francisco: Jossey-Bass, 2000.
4. García-Tudela P.A., Marín-Sánchez P. Education of Emotional Intelligence at School-age: An Exploratory Study From the Teaching Perspective. Revista Electrónica Educare. – 2021. – Vol. 25, No. 3.
5. Valenzuela-Santoyo A.C., Portillo-Peñuelas S.A. Emotional Intelligence in Primary Education and Its Relationship with Academic Performance. Revista Electrónica Educare. – 2018. – Vol. 22, No. 3.
6. Emotional intelligence and academic motivation in primary school students. Psicologia: Reflexão e Crítica. – 2022. – Vol. 35.
7. Volkova A.V. Psychological and pedagogical conditions for the development of emotional intelligence in children of primary school age. Pedagogical Education. – 2024. – Vol. 5, No. 2. – P. 191–201.
8. Sanda O. The specifics and levels of development of emotional intelligence in primary school pupils. Acta et Commentationes, Sciences of Education. – 2024. – Vol. 37, No. 3. – P. 233–240.
9. Emotional intelligence as a predictor for academic achievement of children: Evidence from primary schools of southern Ethiopia. Social Sciences & Humanities Open. – 2024. – Vol. 9.
10. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
11. Jamalova K.Sh. Formation of Emotional Intelligence in Primary Students – as a Current Pedagogical Problem. International Journal of Science and Technology. – 2025. – Vol. 2, No. 8. – P. 16–19.
12. Bekbo'sinova L. Boshlang'ich sinflarda ijtimoiy-emotsional o'rganishni yo'lga qo'yish. Markaziy Osiyo ta'lim va innovatsiyalar jurnali. – 2025.
13. Murotmusayev B., Namazova G.B. Development of Students' Emotional Intelligence as a Socio-Pedagogical Task. Spectrum Journal of Innovation. – 2023. – P. 17–19.
14. Umarov B.M., Murotmusayev K.B. Emotional Intelligence as a Psychological Category. Diversity Research Journal. – 2023. – Vol. 1, No. 9. – P. 18–24.
15. Khayitova Z.M. Psychological Characteristics of Emotional Intelligence Formation in Primary School Age. The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Vol. 3, No. 4. – P. 664–669.
16. Salovey P., Mayer J.D. Emotional Intelligence. Imagination, Cognition and Personality. – 1990. – Vol. 9, No. 3. – P. 185–211.
17. Mayer J.D., Caruso D.R., Salovey P. Emotional Intelligence: Theory, Findings, and Implications. Psychological Inquiry. – 2004. – Vol. 15, No. 3. – P. 197–215.

18. Bar-On R. The Bar-On Model of Emotional-Social Intelligence (ESI). Psicothema. – 2006. – Vol. 18. – P. 13–25.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

YASHIL KIMYO TA`LIMINI RIVOJLANTIRISHNING HALQARO TAJIBALARI

Hilolaxon Yusupova Shuxratovna,
Namangan davlat pedagogika instituti stajer-tadqiqotchisi,
E-mail: yusupovahilola22@gmail.com
Qodirxonov Murodxon Rashidxonovich
Namangan davlat pedagogika instituti профессори, к.ф.д

Annotatsiya*. Mazkur maqolada maktab ta'limining kimyo fani dasturlariga yashil kimyo ta'limini integratsiya qilishning ilmiy-metodik asoslari va pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish hamda xalqaro tajribalar asosida O'zbekiston ta'lim tizimiga mos integratsiya modelini taklif etishdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, kontent tahlili, tizimli tahlil, shuningdek kompetensiyaviy yondashuv hamda tizimli fikrlash metodologiyasidan foydalanildi. Maqolada UNESCO, ACS, IUPAC ma`lumotlari hamda so`ngiyillarda chop etilgan ilmiy maqolalar sharxlangan.*

Kalit so'zlar: *yashil kimyo, kimyo ta'limi, barqaror rivojlanish, tizimli fikrlash, kompetensiyaviy yondashuv, yashil laboratoriya.*

INTERNATIONAL EXPERIENCES IN THE DEVELOPMENT OF GREEN CHEMISTRY EDUCATION

Hilolaxon Yusupova Shuxratovna
Researcher at Namangan State Pedagogical Institute, yusupovahilola22@gmail.com
Qodirxonov Murodxon Rashidxonovich
Professor at Namangan State Pedagogical Institute

Abstract. *This article aims to develop the scientific and methodological foundations and pedagogical technologies for integrating green chemistry education into school chemistry curricula, as well as to propose an integration model adapted to the education system of Uzbekistan based on international experience. The study employed comparative analysis, content analysis, systems analysis, as well as a competency-based approach and systems thinking methodology. The article also reviews materials and recommendations developed by UNESCO, ACS, and IUPAC, along with recent scientific publications in the field.*

Keywords: *green chemistry, chemistry education, sustainable development, systems thinking, ESD, competency-based approach, green laboratory, economy, life cycle assessment.*

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАНИЯ В ОБЛАСТИ ЗЕЛЕНОЙ ХИМИИ

Хилолахон Юсупова Шухратовна,
стажер-исследователь Наманганского государственного педагогического института,
E-mail: yusupovahilola22@gmail.com
Кодирхонов Муродхон Рашидхонович
Профессор Наманганского государственного педагогического института, кандидат филологических наук

Аннотация. *Цель данной статьи — разработка научно-методологических основ и педагогических технологий интеграции образования в области зеленой химии в школьные программы по химии и предложение модели интеграции, подходящей для системы образования Узбекистана, на основе международного опыта. В исследовании использованы сравнительный анализ, контент-анализ, систематический анализ, а также компетентностный подход и методология системного мышления. В статье рассматриваются данные ЮНЕСКО, АКС, ИЮПАК и научные статьи, опубликованные в последние годы.*

Ключевые слова: *зеленая химия, химическое образование, устойчивое развитие, системное мышление, компетентностный подход, зеленая лаборатория.*

KIRISH

XXI asrda insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolar — iqlim o'zgarishi, atmosfera havosining ifloslanishi, suv va tuproq resurslarining degradatsiyasi, biologik xilma-xillikning kamayishi hamda tabiiy resurslardan samarasiz foydalanish bilan bog'liq ekologik xavflardir. Ushbu muammolarni hal etishda fan va ta'limning, ayniqsa kimyo ta'limining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Kimyo fani nafaqat sanoat va texnologiyalar rivojlanishining ilmiy asosi, balki ekologik muammolarni oldini olish va barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim vositasi ham hisoblanadi.

So'nggi yillarda xalqaro miqyosda kimyo ta'limini modernizatsiya qilish jarayonida "Yashil kimyo tamoyillari" konsepsiyasi keng rivojlanmoqda. Bu konsepsiyaning ilmiy-nazariy negizi P.Anastas va J.Warner tomonidan asoslab berilgan bo'lib, ular kimyoviy jarayonlarni loyihalashda xavfli moddalardan voz kechish, chiqindilarni oldini olish va atom iqtisodiyoti kabi 12 tamoyilni ilgari surgan [1]. Mazkur konsepsiya kimyo fanini o'qitishda ekologik xavfsizlik, resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligi, chiqindilarni kamaytirish va aylanma iqtisodiyot tamoyillarini o'quv jarayoniga

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

integratsiya qilishni nazarda tutadi. UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan "Education for Sustainable Development: A Roadmap" hujjatida ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda barqaror rivojlanish kompetensiyalarini shakllantirish ekani alohida ta'kidlangan [2]. Xuddi shuningdek, IUPAC tomonidan boshlangan xalqaro loyiha doirasida kimyo ta'limini tizimli fikrlash asosida qayta yo'naltirish tavsiya etiladi [3,4], bu esa maktab va oliy ta'lim dasturlariga yashil kimyo tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etishni nazarda tutadi.

Kimyo ta'limini yashil kimyo tamoyillari asosida modernizatsiya qilish nafaqat o'quvchilarning nazariy bilimlarini oshiradi, balki ularda ekologik madaniyat, tanqidiy va tizimli fikrlash, muammolarni kompleks tahlil qilish, xavfsiz laboratoriya faoliyatini tashkil etish hamda ekologik mas'uliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi [5,6]. Shu sababli rivojlangan davlatlar, jumladan AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Finlandiya, Avstraliya, Janubiy Koreya va Xitoyda maktab kimyo ta'limi dasturlariga yashil kimyo elementlarini integratsiya qilish davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonda ham 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmon [7], ekologik ta'limni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari va ta'lim sohasidagi islohotlar yashil kimyo ta'limini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda. Biroq umumiy o'rta ta'lim maktablarining amaldagi kimyo o'quv dasturlari tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil kimyoning 12 tamoyili, Tizimli fikrlash,Hayotiy siklni baholash (HSB), Yashil laboratoriya kabi zamonaviy yondashuvlar hali tizimli ravishda o'quv mazmuniga integratsiya qilinmagan. Bu esa ekologik kompetensiyalarning yetarli darajada shakllanmasligiga olib kelmoqda.

Yashil kimyo ta'limining nazariy va metodologik asoslari P.Anastas va J.Warnerning fundamental ishida [1], shuningdek I.Eilks va hamkasblarining maktab kimyo ta'limiga oid tadqiqotlarida [8,9,10] yoritilgan. Burmeister, Rauch va Eilks (2012)

tomonidan o'tkazilgan tahlilda kimyo ta'limining Barqaror rivojlanish uchun ta'lim (BRT) g'oyalariga qo'shgan hissasi ko'rib chiqilgan [8]. Linkwitz va Eilks (2022) Germaniya maktablarida yashil kimyo elementlarini amaldagi o'quv dasturiga joriy etish bo'yicha amaliyot-tadqiqot loyihasini tasvirlaydi [10].

Tizimli fikrlash yo'nalishida P.Mahaffy kimyo ta'limini qayta yo'naltirish konsepsiyasini ishlab chiqqan [3,10]; bu g'oya keyinchalik Orgill, York va MacKellar tomonidan kimyo ta'limi hamjamiyati uchun batafsil asoslab berilgan [11], shuningdek Aubrecht tomonidan grafik vositalar orqali vizuallashtirilgan [12]. G.Hurst tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yashil kimyo ta'limiga xalqaro miqyosda tizimli fikrlash asosida yondashish tahlil qilingan [5,6].

UNESCO va IUPAC tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlarda [2,4] yashil kimyo ta'limini maktab va oliy ta'lim dasturlariga integratsiya qilishning umumiy metodologik yo'nalishlari belgilangan

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro miqyosda yashil kimyo ta'limini rivojlantirish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da [1,6,9,13,14,15], O'zbekiston maktab kimyo ta'limi dasturlariga yashil kimyo tamoyillarini integratsiya qilishning ilmiy-metodik modeli, bosqichlari, pedagogik texnologiyalari va baholash mezonlari hali kompleks tarzda ishlab chiqilmagan. Mazkur maqola aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, мaqolaning asosiy maqsadi maktab ta'limining kimyo fani dasturlariga yashil kimyo ta'limini integratsiya qilishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish hamda xalqaro tajribalar asosida O'zbekiston ta'lim tizimi uchun konseptual integratsiya modelini taklif etishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot maktab ta'limining kimyo fani dasturlariga yashil kimyo ta'limini integratsiya qilishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, unda zamonaviy pedagogik tadqiqot metodlari, qiyosiy ta'lim tahlili hamda tizimli

yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi UNESCOning Barqaror rivojlanish ta'limi konsepsiyasiga [12], yashil kimyoning 12 tamoyiliga [1], kompetensiyaviy yondashuv (kompetensiyaga asoslangan ta'lim) hamda tizimli fikrlash (Systems Thinking) nazariyalariga [3,11,16] tayandi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida quyidagi ilmiy yondashuvlar tanlandi:

- tizimli yondashuv (Systems Thinking);
- kompetensiyaviy yondashuv (Competency-Based Education);
- konstruktivistik yondashuv (Constructivism);
- barqaror rivojlanish uchun ta'lim (Education for Sustainable Development — ESD);
- fanlararo integratsiya (Interdisciplinary Integration);
- loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning);
- muammoli ta'lim (Problem-Based Learning).

Mazkur yondashuvlar o'quvchilarda nafaqat kimyoviy bilimlarni, balki ekologik tafakkur, mas'uliyatli qaror qabul qilish, resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur ilmiy-tahlily ishda kontent, qiyoslash,tizimli fikrlash kabi tahliliy usullardan foydalanildi.

Mazkur tadqiqot metodologiyasi yashil kimyo ta'limini maktab kimyo fani dasturlariga integratsiya qilishni kompleks o'rganish imkonini berdi. Kontent tahlili, qiyosiy tahlillari hamda tizimli fikrlash yondashuvining uyg'un qo'llanilishi O'zbekistonda yashil kimyo ta`limining xalqaro tajriba bilan qiyoslash va milliy sharoitga mos integratsiya modelini ishlab chiqish uchun mustahkam ilmiy asos yaratdi.

TADQIQOT NATIJALARI

3.1. Xalqaro tajribalar asosida maktab kimyo ta'limiga yashil kimyo tamoyillarini integratsiya qilish holatining qiyosiy tahlili

So'nggi yillarda yashil kimyo ta'limini maktab va oliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish barqaror rivojlanish strategiyasining muhim yo'nalishiga aylandi. AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Finlandiya, Avstraliya, Xitoy va Janubiy Koreya kabi davlatlarda yashil kimyo tamoyillari kimyo ta'limining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda [5,6,9,810,16]. Mazkur mamlakatlarda kimyo ta'limi nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish, balki ekologik mas'uliyat, resurslardan oqilona foydalanish, tizimli fikrlash va innovatsion texnologiyalarni qo'llash kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Xalqaro tajribalarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, barcha mamlakatlarda yashil kimyo ta'limini joriy etishning asosiy maqsadi o'quvchilarda barqaror rivojlanish g'oyalarini shakllantirish va ekologik xavfsiz texnologiyalarni tushunishga yordam berishdan iborat[5,6]. Biroq bu maqsadga erishish mexanizmlari mamlakatlarning ta'lim siyosati, iqtisodiy rivojlanishi va milliy ustuvor yo'nalishlariga qarab farqlanadi 1-jadvalga qarang.

1-jadval. Xalqaro tajribalarda yashil kimyo ta'limining asosiy yo'nalishlari (muallif ishlanmasi, [4,5,6,10,16] asosida).

Mamlakat	Asosiy yondashuv	O'quv dasturiga integratsiya	Yashil kimyoga asoslangan laboratoriyaning mavjudligi	Tizimli fikrlash	SDG* hamda ESD**ga muvofiqligi
AQSH	Yashil kimyo tizimi	To'liq	+	+	+
Buyuk Britaniya	Yashil kimyo tizimi	To'liq	+	+	+

Mamlakat	Asosiy yondashuv	O'quv dasturiga integratsiya	Yashil kimyoga asoslangan laboratoriyaning mavjudligi	Tizimli fikrlash	SDG* hamda ESD**ga muvofiqligi
Germaniya	Yashil iqtisodiyot	To'liq	+	+	+
Yaponiya	Yashil kimyo tizimi	To'liq	+	+	+
Finlandiya	Hodisalarga asoslangan ta'lim	Yuqori	+/-	+	+
Avstraliya	Tadqiqotgaasoslangantaʼlim	Yuqori	+	+	+
Xitoy	Yashilishlabchiqarish	Yuqori	+	+/-	+
Janubiy Koreya	Yashil oʻsish	Yuqori	+	+	+

Izoh: "+" — toʼliq joriy etilgan; "±" — qisman joriy etilgan.

**- BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG),*

***- UNESCOning "Barqaror rivojlanish uchun ta`lim konsepsiyas(ESD).*

Jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda yashil kimyo ta'limi alohida fan sifatida emas, balki kimyo kursining barcha bo'limlariga integratsiya qilingan. Ayniqsa, AQSH va Buyuk Britaniyada laboratoriya mashg'ulotlari yashil kimyo tamoyillari asosida qayta tashkil etilgan bo'lib, xavfli reagentlardan foydalanishni kamaytirish, mikrousulli tajribalarni o'tkazish va chiqindilarni minimallashtirishga alohida e'tibor qaratiladi [1,5].

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasida esa yashil kimyo ta'limi raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va virtual laboratoriyalar bilan integratsiya qilingan. Bu esa o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini xavfsiz muhitda rivojlantirish imkonini beradi.

Tahlillarimiz, rivojlangan mamlakatlarda zamonaviy kimyo ta'limi faqat an'anaviy kimyoviy bilim va savodxonlik bilan cheklanmasdan, ekologik barqarorlik, tizimli fikrlash, yashil kimyo, hayotiy siklni baholash va aylanma iqtisodiyot kabi zamonaviy kompetensiyalarni ham qamrab olishini ko'rsatadi. Taqqoslash AQSH, Germaniya, Yaponiya, Finlyandiya va O'zbekistonda kimyo ta'limi doirasida shakllantiriladigan asosiy quyidagi kompetensiyalar bo'yicha amalga oshirildi: Kimyoviy savodxonlik, Ekologik, Tizimli fikrlash, Yashil kimyo, LCA (Life Cycle Assessment — mahsulot yoki jarayonning hayotiy siklini baholash), Innovasion fikrlash kompetensiyali.

O'zbekistonda kimyo fanini o'rganuvchilarida kimyoviy savodxonlik to'liq shakllangan bo'lsada, unga bog'liq ravishda ekologik kompetensiya va innovasion fikrlash ompetensiyalari qisman rivojlangan, Tizimli fikrlash, Yashil kimyo kompetensiyalari yo'nalishlarida ayrim kamchiliklar.Shu bois, kimyo o'qituvchilarini tayyorlash dasturlariga yashil kimyo prinsiplari, tizimli fikrlash, LCA konsepsiyalarini integratsiya qilish O'zbekiston ta'lim tizimini xalqaro zamonaviy tendensiyalarga yaqinlashtirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

O'zbekiston uchun asosiy muammo kimyoviy bilimlarning yetishmasligi emas, balki ularni barqaror rivojlanish va ekologik mas'uliyat nuqtai nazaridan kompleks qo'llash kompetensiyalarining yetarlicha shakllanmaganligi ekanini ko'rsatadi.

Olib borilgan qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatdiki, rivojlangan mamlakatlarda yashil kimyo ta'limi alohida mavzu sifatida emas, balki butun kimyo ta'limining metodologik asosiga aylangan [1,5,6]. O'quvchilar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat, loyiha ishlari, laboratoriya tajribalari va raqamli vositalar orqali o'zlashtiradilar. Natijada ularda

ekologik madaniyat, tizimli fikrlash, muammolarni kompleks tahlil qilish va barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan qarorlar qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi.

O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarining amaldagi kimyo dasturlari esa fundamental bilimlarni shakllantirishga xizmat qilayotgan bo'lsa-da, yashil kimyoning zamonaviy komponentlari tizimli ravishda integratsiya qilinmagan. Ayniqsa, Yashil kimyo, Ekologik, Tizimli fikrlash, mahsulot yoki jarayonning hayotiy siklini baholash, innovasion fikrlash kompetensiyalarinio'quv dasturiga kiritish dolzarb масалади р.

Mazkur natijalar O'zbekiston ta'lim tizimida kimyo fanini modernizatsiya qilish uchun yangi konseptual model va integratsiya texnologiyasini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Shu asosda "O'zbekistonda maktab kimyo ta'limiga yashil kimyoni integratsiya qilishning konseptual modeli"yaratish bo`yicha tadqiqotlarni amalga oshimoqdamiz va ushbu dstlabki model keng ilmiy jamoatchilikka muhokama uchun keying ishlarimizda taqdim etiladi.

XULOSA

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, xalqaro tajribada yashil kimyo ta'limi barqaror rivojlanish maqsadlari, tizimli fikrlash va kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan [2,3,12,16]. O'zbekiston ta'lim tizimida esa bu yo'nalishda muayyan imkoniyatlar mavjud bo'lsa-da, metodik ta'minot va o'quv mazmunini takomillashtirish talab etiladi. Xalqaro tajribalarning mos elementlarini milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish orqali kimyo ta'limining sifati va o'quvchilarning ekologik kompetensiyalarini sezilarli darajada oshirish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Anastas P.T., Warner J.C. Green Chemistry: Theory and Practice. — Oxford: Oxford University Press, 1998. — 135 p.
2. UNESCO. Education for Sustainable Development: A Roadmap. — Paris: UNESCO, 2020. — 66 p.
3. Mahaffy P.G., Krief A., Hopf H., Mehta G., Matlin S.A. Reorienting chemistry education through systems thinking // Nature Reviews Chemistry. — 2018. — Vol. 2. — Art. 0126.

4. IUPAC. Learning Objectives and Strategies for Infusing Systems Thinking into (Post-)Secondary General Chemistry Education. IUPAC Project No. 2017-010-1-050. — Research Triangle Park, NC: International Union of Pure and Applied Chemistry, 2017.
5. Hurst G.A. Systems thinking approaches for international green chemistry education // Current Opinion in Green and Sustainable Chemistry. — 2020. — Vol. 21. — P. 93–97.
6. Hurst G.A., Slootweg J.C., Balu A.M., Climent-Bellido M.S. et al. International perspectives on green and sustainable chemistry education via systems thinking // Journal of Chemical Education. — 2019. — Vol. 96, No. 12. — P. 2794–2804.
7. Kolopajlo L. Green Chemistry Pedagogy // Physical Sciences Reviews. — 2017. — Vol. 2, No. 2.
8. Burmeister M., Rauch F., Eilks I. Education for Sustainable Development (ESD) and chemistry education // Chemistry Education Research and Practice. — 2012. — Vol. 13, No. 2. — P. 59–68.
9. Garner N., Siol A., Eilks I. The potential of non-formal laboratory environments for innovating the chemistry curriculum and promoting secondary school level students' education for sustainability // Sustainability. — 2015. — Vol. 7, No. 2. — P. 1798–1818.
10. Linkwitz M., Eilks I. An action research teacher's journey while integrating green chemistry into the high school chemistry curriculum // Sustainability. — 2022. — Vol. 14, No. 17. — Art. 10621.
11. Orgill M.K., York S., MacKellar J. An introduction to systems thinking for the chemistry education community // Journal of Chemical Education. — 2019. — Vol. 96, No. 12. — P. 2720–2729.
12. Aubrecht K.B., Dori Y.J., Holme T.A., Lavi R., Matlin S.A., Orgill M., Skaza-Acosta H. Graphical tools for conceptualizing systems thinking in chemistry education // Journal of Chemical Education. — 2019. — Vol. 96, No. 12. —P. 2888–2900.
13. Kolopajlo L. Green Chemistry Pedagogy // Physical Sciences Reviews. — 2017. — Vol. 2, No. 2.
14. Nahlik P. et al. Developing green chemistry educational principles by exploring the pedagogical content knowledge of secondary and pre-secondary school teachers // Chemistry Education Research and Practice. — 2023. — Vol. 24, No. 1.
15. Grieger K., Hill B., Leontyev A. Exploring curriculum adoption of green and sustainable chemistry in undergraduate organic chemistry courses: results from a national survey in the United States // Green Chemistry. — 2022. — Vol. 24, No. 22. — P. 8770–8782.
16. Mahaffy P.G., Matlin S.A., Holme T.A., MacKellar J. Systems thinking for education about the molecular basis of sustainability // Nature Sustainability. — 2019. — Vol. 2. — P. 362–370.

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O'QUVCHILARINING KREATIV KOMPETENTLIGINI INGLIZ TILI TA'LIMI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI

Madaminova Muzifa Shukurullo qizi
Namagan Davlat pedagogika instituti
tayanch doktoranti
https://orcid.org/0009-0008-3197-1893

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqola ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilarining kreativ kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish texnologiyalarini tadqiq etishga bag'ishlangan. Tadqiqot jarayonida kreativ kompetentlikning mazmun-mohiyati, uning tarkibiy komponentlari hamda o'quvchilarning ijodiy fikrlash, muammolarga nostandart yondashish va innovatsion g'oyalar yaratish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar tahlil qilingan. Shuningdek, ingliz tili ta'limida qo'llanilayotgan interfaol metodlar, raqamli vositalar va kompetensiyaviy yondashuvlarning o'quvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishdagi samaradorligi amaliy jihatdan o'rganilib, olingan natijalar asosida ilmiy xulosalar hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *interfaol metodlar, raqamli vositalar, kreativ kompetentlik, innovatsion g'oyalar, loyihalash, virtual ta'lim.*

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPING CREATIVE COMPETENCE OF SPECIALIZED SCHOOL STUDENTS ON THE BASIS OF ENGLISH LANGUAGE EDUCATION

Abstract. *This scientific article is devoted to the study of technologies for developing and enhancing the creative competence of students in specialized schools during English language instruction. The research examines the essence and structural components of creative competence, as well as modern pedagogical technologies that contribute to the development of students' creative thinking, non-standard problem-solving skills, and ability to generate innovative ideas. In addition, the effectiveness of interactive teaching methods, digital tools, and competency-based approaches used in English language education has been investigated from a practical perspective. Based on the findings, scientific conclusions and methodological recommendations have been formulated.*

Keywords: *interactive methods, digital tools, creative competence, innovative ideas, project-based learning, virtual education.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ ШКОЛ НА ОСНОВЕ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Аннотация. *Данная научная статья посвящена исследованию технологий формирования и развития креативной компетентности учащихся специализированных школ на уроках английского языка. В ходе исследования были рассмотрены сущность и содержание креативной компетентности, её структурные компоненты, а также проанализированы современные педагогические технологии, направленные на развитие у учащихся творческого мышления, нестандартного подхода к решению проблем и способности генерировать инновационные идеи. Кроме того, изучена практическая эффективность интерактивных методов, цифровых средств и компетентностного подхода, применяемых в обучении английскому языку, в развитии креативной компетентности учащихся. На основе полученных результатов сформулированы научные выводы и разработаны методические рекомендации.*

Ключевые слова: *интерактивные методы, цифровые средства, креативная компетентность, инновационные идеи, проектирование, виртуальное обучение.*

KIRISH

Bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va xalqaro hamkorlikning kengayib borishi xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy jamiyat o‘quvchilardan nafaqat bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishni, balki mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish, muammolarga turli nuqtai nazardan qaray olish kabi sifatlarni ham talab etmoqda. Bunday sharoitda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifatini oshirish, xalqaro standartlarga mos raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash hamda yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda ingliz tilini o‘qitish tizimini takomillashtirish, o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish va ularning ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga xizmat qiladigan samarali texnologiyalarni amaliyotga joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ixtisoslashtirilgan maktablar o‘quvchilarning qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda chuqurlashtirilgan ta’lim berishga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Mazkur ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish jarayoni ham o‘quvchilarning faqat til bilimlarini emas, balki ularning ijodiy fikrlash, tashabbuskorlik, mustaqil qaror

qabul qilish va yangi g‘oyalarni ilgari surish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Shu sababli ingliz tili darslarida kreativ kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va ularning samaradorligini aniqlash ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Kreativ kompetentlik o‘quvchining mavjud bilim va tajribasidan foydalangan holda yangi g‘oyalar yaratishi, muammolarga noodatiy yechimlar topishi, o‘z fikrini erkin va asosli ifodalay olishi bilan tavsiflanadi. Ingliz tili darslarida bunday kompetentlikni rivojlantirish turli interfaol metodlar, ijodiy topshiriqlar, loyiha ishlari va kommunikativ vaziyatlar orqali amalga oshiriladi. Natijada o‘quvchilar til vositalaridan samarali foydalanish bilan birga, o‘zlarining ijodiy salohiyatini ham namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Mazkur maqolada ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktablar o‘quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyasining nazariy asoslari, uning tarkibiy qismlari hamda amaliyotda qo‘llash imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, kreativ kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metod va vositalarning samaradorligi tahlil qilinib, ushbu yo‘nalishda tegishli xulosa va tavsiyalar beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘quvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish masalasi so‘nggi yillarda pedagogika, psixologiya va chet tillarni o‘qitish metodikasi sohalarida eng ko‘p tadqiq etilayotgan yo‘nalishlardan biriga aylandi. Kreativlik tushunchasi dastlab psixologik nuqtai nazardan o‘rganilgan bo‘lib, tadqiqotchilar uni shaxsning yangi g‘oyalar yaratish, muammolarga noodatiy yechim topish va mavjud bilimlardan yangi vaziyatlarda samarali foydalana olish qobiliyati sifatida izohlaydilar [1]. Keyinchalik ushbu yondashuv ta’lim tizimiga ham tatbiq etilib, kreativ kompetentlik o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida muhim omil sifatida e’tirof etila boshlandi. Xorijiy tillarni o‘qitish metodikasiga oid ilmiy manbalarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish kommunikativ yondashuv bilan chambarchas bog‘liq holda talqin qilinadi. Tadqiqotchilarning fikricha, chet tilini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar nafaqat til

birliklarini o‘zlashtirishi, balki ulardan yangi g‘oyalarni ifodalash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va erkin muloqotga kirishishda foydalanishi lozim [2]. Shu sababli ingliz tili darslarida ijodiy fikrlashni rag‘batlantiruvchi topshiriqlar, munozaralar, loyiha ishlari va muammoli vaziyatlarga asoslangan metodlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Kreativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari ko‘plab xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ularda o‘quvchilarning mustaqil faoliyati, tadqiqotchilik ko‘nikmalari va hamkorlikda ishlash tajribasi kreativlikning muhim omillari sifatida ko‘rsatib berilgan [3]. Ayniqsa, loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim va interfaol metodlarning o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirishdagi imkoniyatlari alohida ta’kidlanadi. Mazkur yondashuvlar o‘quvchilarni tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki bilimlarni mustaqil izlovchi va yaratuvchi subyekt sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Mahalliy olimlarning ilmiy ishlarida ham kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’limni tashkil etish, o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari keng yoritilgan [4]. Xususan, ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning faolligini oshirishi hamda ularning kreativ salohiyatini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan.

8. Haugen T., Buchheit M. Sprint running performance monitoring: methodological and practical considerations // Sports Medicine. — 2021. — Vol.51. — №1. — P. 1-15. DOI: https://doi.org/10.1007/s40279-020-01308-8

9. Rashidova G., Bakirova S. 400 metrga g'ovlar osha yugurishda texnik tayyorgarlik va funksional tayyorgarlikning o'zaro bog'liqligi // Pedagogik ta'lim. — 2024. — №2. — B. 31-36.
10. Haugen T., Tønnessen E., Seiler S. The difference between running performance and running economy in elite sprint and hurdle athletes // Journal of Sports Sciences. — 2022. — Vol.40. — №12. — P. 1450-1459. DOI: https://doi.org/10.1080/02640414.2021.2001234
11. Turdiyeva M., Qosimova D. Yengil atletika sportchilarida anaerob imkoniyatlarni rivojlantirishning pedagogik asoslari // Ta'lim, fan va innovatsiya. — 2021. — №5. — B. 54-59.
12. Петрова Н.Н., Волкова Е.А. Педагогические средства повышения скоростной выносливости у юных барьеристов // Вестник спортивной науки. — 2024. — №3. — С. 44-49.
13. Seiler S. What is best practice for training intensity and duration distribution in endurance athletes? // International Journal of Sports Physiology and Performance. — 2021. — Vol.16. — №5. — P. 1-12. DOI: https://doi.org/10.1123/ijspp.2020-0890
14. Allaxanov A. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining tashkiliy-metodik asoslarini takomillashtirish uslubiyatiga xarakteristika // Modern Science and Research. — 2025. — Vol.4. — №1. — B. 12-18. DOI: https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.science-research.73555
15. Salixova G.X., Kenjayeva X.A. Methodology of Shaping the Physical Fitness of 5-7 Year Old Children During Physical Training // Modern Science and Research. — 2024. — Vol.3. — №2. — P. 1-8. DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.10612345
16. Buchheit M., Laursen P.B. High-intensity interval training, solutions to the programming puzzle: Part I and II // Sports Medicine. — 2021. — Vol.51. — №2. — P. 1-28. DOI: https://doi.org/10.1007/s40279-020-01309-7

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

13–14 YOSHLI VOLEYBOLCHILARDA O'YIN FAOLIYATIGA MOS SAKROVCHANLIK VA SAKRASH CHIDAMKORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Tuxtaboeva Nazokat Azimjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
tuhtaboevanazokat@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-9551-552X

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yosh voleybolchilarda o'yin faoliyatiga mos sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini takomillashtirish masalasi yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi 13–14 yoshli voleybolchilarda o'yin jarayonida bajariladigan asosiy sakrash turlarining soni, balandligi hamda o'yin ampluasiga ko'ra xususiyatlarini aniqlash va ularni mashg'ulot jarayonini takomillashtirishda qo'llashdan iborat bo'ldi. Tajriba-sinov ishlari shartli o'yin shaklida tashkil etilib, sportchilarning sakrash faoliyati G-walk qurilmasi va videokuzatuv asosida baholandi. Tadqiqot davomida jami 558 ta sakrash qayd etildi, shundan funksional jihatdan muhim bo'lgan sakrab to'p kiritish, uzatma, zarba berish va to'siq qo'yish bilan bog'liq sakrashlar tahlil qilindi. Natijalar o'yin davomida eng ko'p zarba berish va to'siq qo'yishdagi sakrashlar bajarilganini, aynan shu harakatlarda balandlik ko'rsatkichlari ham yuqori ekanini ko'rsatdi. O'yin amplualari bo'yicha markaziy hujumchilarda sakrashlar soni va balandligi eng yuqori, bog'lovchi o'yinchilarda esa sakrashlar asosan koordinatsion xarakterga ega ekani aniqlandi. Tadqiqot natijalari yosh voleybolchilarda sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini rivojlantirish metodikasini o'yin faoliyati mazmuni hamda amplua xususiyatlariga mos ravishda tabaqalashtirish zarurligini asoslaydi. Shuningdek, mashg'ulotlarda portlovchi kuch, vertikal sakrash chidamliligi, tezkorlik, muvozanat va harakat aniqligini uyg'un rivojlantirish samarali yondashuv ekanligi aniqlandi.*

Tayanch so'zlar: *yosh voleybolchilar, sakrovchanlik, sakrash chidamkorligi, o'yin faoliyati, sakrash balandligi, sakrashlar soni, o'yin ampluasi, G-walk, portlovchi kuch, maxsus jismoniy tayyorgarlik*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРЫГУЧЕСТИ И ПРЫЖКОВОЙ ВЫНОСЛИВОСТИ У ВОЛЕЙБОЛИСТОВ 13–14 ЛЕТ С УЧЕТОМ ИГРОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Тухтабоевой Назокат Азимжон кизи
Преподаватель Наманганского государственного педагогического института
tuhtaboevanazokat@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-9551-552X

Аннотация. *В данной статье рассматривается вопрос совершенствования прыгучести и прыжковой выносливости у юных волейболистов с учётом особенностей игровой деятельности. Цель исследования заключалась в определении количества, высоты и позиционных особенностей*

основных видов прыжков, выполняемых волейболистами 13–14 лет в процессе игры, а также в использовании полученных данных для совершенствования тренировочного процесса. Опытно-экспериментальная работа была организована в форме условной игры, а прыжковая активность спортсменов оценивалась с помощью устройства G-walk и видеонаблюдения. В ходе исследования было зарегистрировано 558 прыжков, из которых для анализа были отобраны функционально значимые прыжки, связанные с подачей в прыжке, передачей в прыжке, нападающим ударом и постановкой блока. Результаты показали, что в ходе игры наиболее часто выполнялись прыжки при нападающем ударе и блокировании, причём именно эти действия характеризовались наибольшими показателями высоты. По игровым амплуа установлено, что у центральных нападающих отмечены наибольшее количество прыжков и их высота, тогда как у связующих прыжки в основном носили координационный характер. Полученные данные подтверждают необходимость дифференцированного подхода к развитию прыгучести и прыжковой выносливости у юных волейболистов с учётом содержания игровой деятельности и игрового амплуа. Также установлено, что эффективным направлением подготовки является комплексное развитие взрывной силы, вертикальной прыжковой выносливости, быстроты, равновесия и точности движений.

Ключевые слова: *юные волейболисты, прыгучесть, прыжковая выносливость, игровая деятельность, высота прыжка, количество прыжков, игровое амплуа, G-walk, взрывная сила, специальная физическая подготовка.*

IMPROVING JUMP ABILITY AND JUMP ENDURANCE IN 13–14-YEAR-OLD VOLLEYBALL PLAYERS BASED ON GAME ACTIVITY

Tuxtaboeva Nazokat Azimjon qizi
Teacher at Namangan State Pedagogical Institute
tuhtaboevanazokat@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-9551-552X

Abstract. *This article examines the improvement of game-specific jump ability and jump endurance in young volleyball players. The purpose of the study was to determine the number, height, and positional characteristics of the main types of jumps performed by 13–14-year-old volleyball players during match play and to use these data for improving the training process. The experimental work was organized in the form of a simulated match, and the athletes' jumping activity was assessed using the G-walk device and video observation. During the study, a total of 558 jumps were recorded, of which the functionally significant jumps associated with jump serve, jump set, spike, and block were selected for analysis. The results showed that spike and block jumps were performed most frequently during the game, and these actions also demonstrated the highest jump height values. According to playing position, middle hitters had the highest total number of jumps and the greatest jump height, while setters' jumps were mainly*

coordinative in nature. The findings confirm the need to differentiate training methods for developing jump ability and jump endurance in young volleyball players according to the content of game activity and playing position. It was also found that the combined development of explosive power, vertical jump endurance, speed, balance, and movement accuracy is an effective approach in the training process.

Keywords: *young volleyball players, jump ability, jump endurance, game activity, jump height, number of jumps, playing position, G-walk, explosive power, special physical training*.

KIRISH

Voleybol sport turi zamonaviy o‘yin faoliyatida yuqori tezlik, kuch-tezkorlik, koordinatsiya va maxsus chidamkorlikni talab qiluvchi murakkab sport turlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, to‘r yaqinida bajariladigan texnik harakatlar - hujum zarbasi, to‘siq qo‘yish, sakrab to‘p kiritish va ayrim vaziyatlarda sakrab uzatma berish -o‘yin natijasini belgilovchi asosiy omillar sirasiga kiradi. Xalqaro voleybol qoidalari va amaliy tavsiflarda blok jamoaning birinchi himoya chizig‘i sifatida baholanadi, hujum esa ochko olishning asosiy vositalaridan biri sifatida talqin etiladi [1]. Shu bois voleybolchining vertikal sakrash balandligi va uni o‘yin davomida takror-takror samarali namoyon qila olish qobiliyati maxsus tayyorgarlikning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi.

Ilmiy adabiyotlarda voleybolchilarning sakrash faoliyati o‘yin samaradorligi bilan uzviy bog‘liq ekani qayd etilgan. Jumladan, rasmiy uchrashuvlar tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlarda hujum va blok bilan bog‘liq sakrashlar boshqa sakrash turlariga nisbatan ko‘proq uchrashi hamda balandlik jihatidan ustunligi aniqlangan [2]. Bundan tashqari, plyometrik mashg‘ulotlar voleybolchilarda vertikal sakrash balandligini yaxshilashi, bu esa sakrovchanlikni rivojlantirishda maxsus mashg‘ulot vositalarining samaradorligini tasdiqlashi ko‘rsatilgan [3].

Yosh voleybolchilarda sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini rivojlantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi. Chunki o‘smirlik davrida organizmning o‘sishi, biologik yetilishi va funksional imkoniyatlarining shakllanishi notekis kechadi, bu esa sakrash balandligi, kuch hosil qilish tezligi va takroriy sakrashlarga chidamlilik darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [4]. Shuningdek, o‘yin ampluasi ham sakrash

yuklamasining soni, balandligi va funksional mazmunini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Junior voleybolchilar orasida o‘yin pozitsiyasiga qarab spike jump va block jump ko‘rsatkichlarida sezilarli farqlar kuzatilishi ilmiy manbalarda qayd etilgan [4].

Biroq mavjud tadqiqotlarning asosiy qismi elita yoki katta yoshdagi voleybolchilarga bag‘ishlangan bo‘lib, 13–14 yoshli sportchilarda aynan real o‘yin faoliyati jarayonida bajariladigan sakrashlarning soni, balandligi va o‘yin ampluasiga xos tarkibi yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu nuqtai nazardan, yosh voleybolchilarda o‘yin faoliyatiga mos sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqotning maqsadi 13–14 yoshli voleybolchilarda o‘yin jarayonida bajariladigan asosiy sakrash turlarining soni, balandligi hamda o‘yin ampluasiga xos xususiyatlarini aniqlash va ular asosida sakrovchanlik hamda sakrash chidamkorligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Voleybol sport turida vertikal sakrash, ayniqsa hujum zarbasi va to‘siq qo‘yish jarayonida, o‘yin samaradorligini belgilovchi asosiy maxsus jismoniy sifatlardan biri hisoblanadi. Rasmiy uchrashuvlar tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlarda o‘yin davomida eng ko‘p uchraydigan va eng yuqori intensivlikda bajariladigan sakrashlar aynan hujum va blok bilan bog‘liq ekani qayd etilgan [1]. Shuningdek, sakrash balandligi ayrim o‘yin elementlarining samaradorligi bilan bog‘liq bo‘lib, ayniqsa yuqori darajadagi voleybolchilarda bu ko‘rsatkich raqobat ustunligini belgilovchi omillardan biri sifatida talqin qilinadi [2].

So‘nggi yillarda voleybolchilarda sakrovchanlikni rivojlantirish vositalari orasida plyometrik mashg‘ulotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Tizimli sharh va meta-tahlil natijalariga ko‘ra, plyometrik sakrash mashqlari turli yosh va jinsdagi voleybolchilarda vertikal sakrash balandligini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bunday

mashg'ulotlarni rejalashtirishda o'yin ampluasi va individual tayyorgarlik darajasini hisobga olish zarurligi ta'kidlangan [3].

Yosh voleybolchilarda sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini o'rganishda biologik yetilish omili ham muhim hisoblanadi. O'smir voleybolchilarda yosh va biologik yetilish darajasi vertikal hamda plyometrik sakrash natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Bu esa yosh sportchilarda sakrashga doir ko'rsatkichlarni baholashda faqat pasport yoshi emas, balki funksional rivojlanish darajasini ham e'tiborga olish lozimligini ko'rsatadi [4].

Adabiyotlarda o'yin ampluasiga xos farqlar ham alohida ko'rsatib o'tilgan. Junior voleybolchilar orasida o'yin pozitsiyasiga qarab bo'y uzunligi, spike jump va block jump ko'rsatkichlari sezilarli farqlanishi aniqlangan. Xususan, markaziy bloklovchi va diagonal hujumchilarda sakrash balandligi nisbatan yuqori, libero va bog'lovchilarda esa pastroq bo'lishi qayd etilgan [5]. Mazkur holat mashg'ulot jarayonida sakrash yuklamasini ampluaga mos tabaqalashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Voleybolda sakrash faoliyatini real vaqt rejimida kuzatishda inertial o'lchov qurilmalaridan foydalanish amaliyotda tobora kengayib bormoqda. IMU tipidagi qurilmalar, jumladan belga mahkamlanadigan sensor tizimlari, sakrashlar soni va balandligini monitoring qilishda murabbiylar uchun foydali vosita ekani, ularning voleyboldagi qo'llanilishi esa ilmiy adabiyotlarda yetarli darajada istiqbolli deb baholanishi ko'rsatilgan [6]. Shu sababli o'yin jarayonidagi sakrash faoliyatini G-walk kabi inertial qurilma yordamida tahlil qilish zamonaviy sport pedagogikasi talablari bilan mos keladi.

Shunday qilib, ilmiy manbalar tahlili voleybolda sakrovchanlik va sakrash chidamkorligi o'yin samaradorligining muhim tarkibiy qismi ekanini, bu sifatlar o'yin ampluasi, biologik yetilish va maxsus mashg'ulot vositalari bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Biroq 13–14 yoshli voleybolchilarda aynan real o'yin faoliyati sharoitida sakrashlar soni, balandligi va tuzilishini kompleks tahlil qilgan ishlar nisbatan

kam uchraydi. Shu bois mazkur tadqiqot yosh voleybolchilarda o‘yin faoliyatiga mos sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini baholashga qaratildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

13–14 yoshli voleybolchilarning o‘yin bo‘limlari davomida turli sakrash turlariga ko‘ra sakrashlar soni va balandligi ko‘rsatkichlari keltirilgan. Olingan ma’lumotlar sakrash yuklamasining o‘yin mazmuniga qarab notekis taqsimlanishini ko‘rsatdi. Bunda sakrashlarning soni va balandligi, avvalo, bajarilayotgan texnik harakatning vazifaviy xususiyati bilan belgilangani kuzatildi.

1-jadval

Sakrash turiga ko‘ra o‘yin bo‘limlar bo‘yicha sakrashlar soni va balandligi ko‘rsatkichlari

Sakarash turi	1-bo‘lim		2-bo‘lim		3-bo‘lim		4-bo‘lim		5-bo‘lim	
	Soni va balandligi (m)		Soni va balandligi (m)		Soni va balandligi (m)		Soni va balandligi (m)		Soni va balandligi (m)	
To‘p kiritish	15	0,38±0,10	19	0,39±0,09	12	0,32±0,11	13	0,35±0,10	12	0,43±0,09
Uzatma	20	0,32±0,08	16	0,30±0,07	19	0,35±0,08	20	0,34±0,08	9	0,31±0,07
Zarba berish	33	0,45±0,12	27	0,47±0,11	35	0,49±0,10	31	0,47±0,09	22	0,49±0,10
To‘siq qo‘yish	39	0,42±0,09	27	0,44±0,08	28	0,39±0,09	31	0,40±0,08	34	0,42±0,08

To‘p kiritishdagi sakrashlar tahliliga ko‘ra, ularning soni o‘yin davomida nisbatan kamayish tendensiyasini namoyon etdi. Xususan, 1-bo‘limda 15 ta bo‘lgan sakrashlar soni 5-bo‘limga kelib 12 tagacha tushgan. Shu bilan birga, balandlik ko‘rsatkichlari 0,32–0,43 m oralig‘ida o‘zgarib, eng past qiymat 3-bo‘limda (0,32 ± 0,11 m), eng yuqori natija

esa 5-bo'limda (0,43 ± 0,09 m) qayd etildi. Demak, o'yin oxiriga borib to'p kiritishdagi sakrashlar son jihatdan kamaygan bo'lsa-da, ularning amplitudasi ortgan. Mazkur holat o'yinning yakuniy bosqichida sportchilarning texnik harakatni yanada faolroq va kuchliroq bajarishga intilgani bilan izohlanishi mumkin.

Uzatma sakrashlari bo'yicha ko'rsatkichlar ham ma'lum dinamikani aks ettirdi. 1-bo'limda 20 ta bo'lgan uzatma sakrashlari 5-bo'limga kelib 9 tagacha kamaygan. Biroq balandlik ko'rsatkichlari butun o'yin davomida nisbatan barqaror bo'lib, 0,30–0,35 m oralig'ida saqlanib qoldi. Bu esa uzatma bilan bog'liq sakrashlarning maksimal balandlikka emas, asosan koordinatsiya, tezkor joylashuv va texnik aniqlikka xizmat qilishini ko'rsatadi. Shuningdek, o'yin yakuniga borib uzatma sakrashlari sonining kamayishi bog'lovchi harakatlar soni va taktik kombinatsiyalar tuzilishidagi o'zgarishlar bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.



1-rasm. Sakrash turiga ko'ra o'yin bo'limlari bo'yicha sakrashlar soni dinamikasi

To'pga zarba berishdagi sakrashlar o'yin davomida eng yuqori ko'rsatkichlardan birini qayd etdi. Ularning soni bo'limlar kesimida 27 tadan 35 tagacha o'zgarib turgan bo'lsa, balandlik ko'rsatkichlari 0,45–0,49 m oralig'ida kuzatildi. Ayniqsa, 3- va 5-bo'limlarda sakrash balandligining 0,49 m ga yetgani hujum harakatlari yosh voleybolchilarning o'yin faoliyatida eng muhim va eng yuqori intensivlikdagi texnik

vositalardan biri ekanini tasdiqlaydi. 1-rasmda zarba berishdagi sakrashlar sonining o‘yin davomida yuqori darajada saqlanib qolgani ko‘rinadi, 2-rasmda esa aynan shu turdagi sakrashlar balandlik bo‘yicha boshqa harakatlardan ustun ekani yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu holat hujum harakati voleybolda asosiy natijaviy vosita ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.



2-rasm. Sakrash turiga ko‘ra o‘yin bo‘limlari bo‘yicha sakrash balandligi dinamikasi

To‘siq qo‘yishdagi sakrashlar ham o‘yin davomida yuqori son bilan qayd etildi. Ularning soni 27 tadan 39 tagacha o‘zgarib turgan bo‘lib, eng yuqori ko‘rsatkich 1-bo‘limda kuzatildi. Balandlik esa 0,39–0,44 m oralig‘ida bo‘lib, nisbatan barqaror saqlangan. Mazkur natijalar to‘siq qo‘yish harakatlari o‘yin davomida muntazam ravishda bajarilganini va jamoaviy himoyaning asosiy elementi bo‘lib xizmat qilganini ko‘rsatadi. 1-rasmda blok sakrashlarining son jihatdan ustunligi, 2-rasmda esa balandlikning nisbatan barqarorligi aks etgan. Bu esa blok harakatlarida nafaqat sakrash balandligi, balki takroriy bajarilish chidamliligi ham muhim ekanini ko‘rsatadi.

1-jadval va unga mos ravishda berilgan diagrammalar tahlili asosida shuni aytish mumkinki, o‘yin davomida voleybolchilar eng ko‘p zarba berish va to‘siq qo‘yishdagi sakrashlarni bajargan. Mazkur sakrash turlarida balandlik ko‘rsatkichlari ham yuqoriroq

bo'lib, ular 0,39–0,49 m oralig'ida qayd etilgan. To'p kiritish va uzatma bilan bog'liq sakrashlar esa son jihatdan nisbatan kamroq hamda balandlik ko'rsatkichlari pastroq bo'lgan. Bu holat voleybol o'yinida to'r yaqinidagi hujum va himoya harakatlari asosiy funksional yuklamani tashkil etishini ko'rsatadi.

Bo'limlar kesimidagi o'zgarishlar ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Xususan, 5-bo'limda to'p kiritishdagi sakrash balandligining eng yuqori darajaga chiqishi, uzatma sakrashlari sonining esa keskin kamayishi sportchilarning o'yin oxirida energiya sarfini muhimroq texnik harakatlarga yo'naltirganini ko'rsatadi. Bunday o'zgarishlar sportchilarning charchash darajasi, taktik moslashuvi va o'yin strategiyasining yangilanishi bilan izohlanadi. Demak, o'yin davomida barcha sakrash turlari bir xil darajada kamaymaydi; aksincha, ayrim texnik harakatlar ustuvorlik kasb etib, ularning sifat ko'rsatkichlari saqlanib qoladi yoki ortadi.

Umuman olganda, olingan natijalar 13–14 yoshli voleybolchilarda sakrash yuklamasining soni va balandligi o'yin faoliyati mazmuniga chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatdi. Ayniqsa, zarba berish va to'siq qo'yish bilan bog'liq sakrashlar yosh voleybolchilarning maxsus tayyorgarligida ustuvor yo'nalish bo'lishi lozim. Shu bois mashg'ulot jarayonida sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni o'yin vazifalari va sakrashlarning funksional xususiyatlariga mos ravishda tabaqalashtirish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Tadqiqot natijalari 13–14 yoshli voleybolchilarda o'yin faoliyati jarayonida sakrash yuklamasi turi, soni va balandligi bo'yicha sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatdi. O'yin davomida eng ko'p zarba berish va to'siq qo'yishdagi sakrashlar bajarilgani, aynan shu harakatlarda sakrash balandligi ham nisbatan yuqori qayd etilgani aniqlandi. Bu holat yosh voleybolchilarda to'r oldidagi hujum va himoya harakatlari asosiy funksional yuklamani tashkil etishini tasdiqlaydi.

Bo‘limlar kesimidagi tahlil ayrim sakrash turlarida son jihatdan kamayish kuzatilgan bo‘lsa-da, balandlik ko‘rsatkichlari barcha hollarda bir xil pasaymaganini ko‘rsatdi. Xususan, o‘yin oxiriga borib to‘p kiritishdagi sakrash balandligining oshishi va uzatma sakrashlari sonining kamayishi sportchilarning charchash darajasi, taktik qarorlar hamda o‘yin strategiyasining o‘zgarishi bilan izohlanadi.

O‘yin amplualari bo‘yicha markaziy hujumchilarda jami sakrashlar soni va balandligi eng yuqori, diagonal hujumchilarda hujum va blok bilan bog‘liq yuqori intensivlikdagi sakrashlar ustun, bog‘lovchi o‘yinchilarda esa sakrashlar asosan koordinatsion va taktik xarakterga ega ekani aniqlandi. Mazkur natijalar yosh voleybolchilarda sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini rivojlantirish metodikasini o‘yin ampluasi va o‘yin faoliyati mazmuniga mos ravishda tabaqalashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Demak, mashg‘ulot jarayonida markaziy va diagonal hujumchilar uchun portlovchi kuch, vertikal sakrash balandligi va sakrash chidamkorligini rivojlantiruvchi mashqlarga, bog‘lovchi o‘yinchilar uchun esa tezkorlik, muvozanat, harakat aniqligi va sakrashni texnik harakatlar bilan uyg‘unlashtirishga yo‘naltirilgan mashqlarga ustuvor ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir. Bu esa yosh voleybolchilarning o‘yin samaradorligini oshirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Lima, R. F., Palao, J. M., & Clemente, F. M. (2019). Jump performance during official matches in elite volleyball players: A pilot study. *Journal of Human Kinetics, 67*, 259–269. https://doi.org/10.2478/hukin-2018-0080

2. Ramirez-Campillo, R., Andrade, D. C., Nikolaidis, P. T., Moran, J., Clemente, F. M., Chaabene, H., & Comfort, P. (2020). Effects of plyometric jump training on vertical jump height of volleyball players: A systematic review with meta-analysis of randomized-controlled trial. *Journal of Sports Science and Medicine, 19*(3), 489–499.

3. Pocek, S., Milošević, Z., Lakicevic, N., Pantelic-Babic, K., Imbronjev, M., Thomas, E., Bianco, A., & Drid, P. (2021). Anthropometric characteristics and vertical jump abilities by player position and performance level of junior female volleyball players. *International Journal of Environmental Research and Public Health, 18*(16), 8377.

https://doi.org/10.3390/ijerph18168377

4. Villarejo-García, D. H., Moreno-Villanueva, A., Soler-López, A., Reche-Soto, P., & Pino-Ortega, J. (2023). Use, validity and reliability of inertial movement units in volleyball: Systematic review of the scientific literature. *Sensors, 23*(8), 3960. https://doi.org/10.3390/s23083960

5.Pawlik, D., & Mroczek, D. (2023). Influence of jump height on the game efficiency in elite volleyball players. *Scientific Reports, 13*(1), 8931. https://doi.org/10.1038/s41598-023-35729-w

6.Bertozzi, F., Brunetti, C., Maver, P., Galli, M., & Tarabini, M. (2025). The role of age and maturation on jump performance and postural control in female adolescent volleyball players over a season. *BMC Sports Science, Medicine and Rehabilitation, 17*(1), 85. https://doi.org/10.1186/s13102-025-01134-1

7. Azizov, S. V., Azizova, R. I., Mahmudjonov, A., & Tuxtaboyeva, N. (2024). Sportchilarda o'yin jarayonini yuqori darajada idrok qilish qobiliyatini shakllantirish intellektual tayyorgarlikning asosiy vazifasi. *Экономика и социум, 9*(124), 82–86.

8. Joldasbaeva, R., Mamajonov, D., Turaev, V., Izatullaev, A., Tukhtaboeva, N., Mamatova, M., Odilova, F., & Kodirova, S. (2025). Comprehensive evaluation of training load in youth basketball players through integration of heart rate, movement tracking, and rate of perceived exertion. *Journal of Physical Education and Sport, 25*(8), 1647–1655. https://doi.org/10.7752/jpes.2025.08184

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

GLOBALLASHUV VA YOSHLAR TARBIYASI

Xujamov M.E. *– Fan va texnologiyalar universiteti dotsenti vazifasini bajaruvchisi*
E-mail: xujamova2023@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada globallashuv va yoshlar tarbiyasiga oid ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, globallashuv jarayonining yosh avlod ta'lim-tarbiyasida tutgan o'rni borasidagi fikrlar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *ommaviy madaniyat, qadriyat, individualizm, egotsentrizm, globallashuv.*

ГЛОБАЛИЗАЦИЯ И ОБРАЗОВАНИЕ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. *Эта статья содержит информацию о глобализации и образовании молодежи, а также подчеркивает роль глобализации в образовании молодого поколения.*

Ключевые слова*: популярная культура, ценности, индивидуализм, эгоцентризм, глобализация.*

GLOBALIZATION AND EDUCATION OF YOUTH

Annotation*. This article contains information on globalization and youth education, and also emphasizes the role of globalization in the education of the younger generation.*

Key words*: popular culture, values, individualism, egocentrism, globalizatio.*

KIRISH

Xalqaro globalashuv insoniyat, mamlakatlar hayotining borgan sari yangi–yangi sohalarini egallab, uning natijasida hozirgi davrga qadar bo'lgan xalqaro tartibot va qadriyatlar yangi ma'no va mazmun bilan to'lib bormoqda. Bu o'rinda xalqaro globallashuv bashariyatning eng asosiy qadriyatlaridan biri bo'lmish inson qadriga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda.[1] Keng miqyosdagi globallashuv jarayoni kechayotgan hozirgi davrda muayyan mamlakatni zabt etish, biror xalqni bo'ysundirish vositalari tubdan o'zgarib bormoqda. Avvallari bunday maqsadlarga erishish uchun qanchadan - qancha qurol-aslahalar, qimmatbaho texnika, minglab askarlar va ancha-muncha vaqt ham kerak bo'lar edi. Hozirda esa biror mamlakat yoki xalqni bo'ysundirish uchun

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ommaviy axborat vositalarining o‘zigina kifoya qilmoqda. Kuch ishlatish, majburlash, zo‘ravonliklar axborot orqali ta’sir qilish, odamlarni biror bir g‘oyaga ishontirish, ongini boshqarish texnologiyalariga o‘rin bo‘shatib berdi. Ana shunday zamonaviy keng qo‘llanilayotgan texnologiyalardan biri - ommaviy madaniyatdir. “Ommaviy madaniyat” tushunchasi dastlab g‘arbda o‘tgan asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan bo‘lib, uning zamirida imperialistik maqsad, mayda millatlarni yirik gegemon davlatlar tarkibiga qo‘shib olish va ularning madaniyatiga ta’sir o‘tkazish orqali ularni hududini egallash ko‘zda tutilgan. [2]

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining quyidagi fikrlari e’tiborni tortadi: Tabiiyki, “ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik, individualizm, egotsentrizm g‘oyalarini tarqatish, kerak bo‘lsa, shuning hisobidan boylik ortirish boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadriyatlari, turmush tarzini ma’naviy negizlariga bepsandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo‘ymaydi. [3]

Mutaxassislar “ommaviy madaniyat”ni kishi ijtimoiy muammolaridan, jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlardan uzoqlashtirish, chalg‘itishga qaratilganligini qayd etishadi. “Ommaviy madaniyat”da o‘ta sodda, siyqa qarashlar yangilik, badiiy estetik kashfiyot sifatida taqdim etiladi.[4] Haqiqatdan ham hozirgi kunda “ommaviy madaniyat” ni targ‘ib qiluvchi ko‘rsatuvlar teleekrandan keng o‘rin olishga intilmoqda. Televideniya esa hammaga ma’lumki, bugun nafaqat ommaviy axborotni tarqatish vositasi, balki u insonlarning ijtimoiy ongi va estetik didini shakllantiradi. Bundan tashqari kishilarda duch kelayotgan ijtimoiy muammolarni “yechishga” yordam beradi. U kishilarni hayot tashvishlaridan, aniqrog‘i ijtimoiy muammolardan chalg‘itadi, ularni o‘y-xayolini yengil- yelpi, siyqa syujetlarga qurilgan dasturlari, ko‘rsatuvlari bilan band qilib qo‘yadi. Masalan, kishi qanchalik qashshoq bo‘lsa, televideniega shunchalik ko‘proq bog‘lanadi, hayotiy muammolarni televidenie orqali hal etishga moyil bo‘ladi. [5]

Haqiqatan esa bu "ommaviy madaniyat" haqiqatda keng ommaniki, hamma xalqlar madaniyati va ma'naviyatini rivojlanishiga xizmat qiluvchi omil bo'lmasdan, balki o'taketgan madaniyatsizlik, ma'naviyatsizlik, axloqsizlik, jaholatparastlikdan o'zga narsa emas. "Ommaviy madaniyat" nafaqat Sharq madaniyatini, balki o'zi paydo bo'lgan G'arb uyg'onish madaniyatini ham inkor etadi. Masalan, umumbashariyat madaniyatida munosib o'rin tutgan,

G'arb uyg'onish davri namoyondalaridan Leanardo da Vinchining "Monaliza" (Jakonda), Betxovenning "To'qqizinchi simfoniya" asarlari, Salvador Dali va boshqalarning asarlarini ommaviy madaniyat namoyondalari bunday asarlarni bizga keragi yo'q, hech qanday foyda keltirmaydi deya tanqid qilmoqda.

"Ommaviy madaniyat"ni yoshlarning turmush tarziga kirib borishini xatarli tomoni nimada? Uning umuman jamiyat uchun zarari nimalarda namoyon bo'ladi? Aslida, ommaviy madaniyat barcha ommaning madaniyati bo'lib qolmasdan balki, ibtidoiy jamoa tuzumiga qaytish, yovvoyi hayotni qo'msash kabidir. Qanday millatga xosligini, qaysi tilda so'zlashishini, o'z millatiga xos an'ana va qadriyatlarni, aql-zakovat, farosat, ma'naviyat nimaligini unutib, "manqurt"ga aylanishdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Globallashuv bilan bog'liq "ommaviy madaniyat", ommaviy ishlab chiqarish, "ko'ngil ochish industriyasi" tomonidan yaratilgan, omma iste'moliga mo'ljallangan, madaniyatning sayqallashtirilgan namunalari ko'rinishidagi salbiy hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda va uni amalda olomon madaniyati deb ta'riflasak to'g'ri keladi.[6] "Ommaviy madaniyat" tub mohiyatiga ko'ra milliy madaniyatlar kushandasidir. "Ommaviy madaniyat"ni namoyon bo'lish shaklari xam turlicha bo'lib misol tariqasida: Kitch, [7] Komiks, [8] Starizm [9] larni ko'rsatish mumkin.

Odamlar qalbini egallab, zabt etib borayotgan "ommaviy madaniyat" turli yo'llar ayniqsa, musiqa vositasi orqali ayrim yoshlar ongi va tafakkuriga asta–sekinlik bilan singdirib borilayotganligi tashvishli holga aylanib qolmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

o‘tgan asrning 50 - yillarida “inson erkinligi” sifatida paydo bo‘lgan rok va rep yo‘nalishidagi musiqa hamda qo‘shiqlarning tarixi qadimiy Afrika xalqlarining ovga chiqish marosimiga borib taqaladi. Bu yo‘nalishdagi kuy va qo‘shiqlarni ommalashtirish esa yoshlarning ongini zaharlab, ular orasida an’anaviy buzuqlik va ruhiy qashshoqlik “epidemiyasi”ni targ‘ib qilishga qaratilgan edi. Bu sa’y-harakatlar natijasida ko‘plab G‘arb yoshlari rok va repning qurboniga aylanib, “hamma narsa mumkin, hoxlagancha yasha!” qabilidagi aqidani shiorga aylantirishdi.[10] Natijada esa hozir g‘arb matbuotida keng qo‘llanilayotgan tushuncha ya’ni: “yo‘qotilgan avlod” shakllanishiga olib keldi.

G‘arb madaniyatidan bir necha asr avval paydo bo‘lgan, ta’kidlash lozim bo‘lsa G‘arb uyg‘onish davri mutafakkirlari ibrat olgan, o‘rgangan, ko‘hna Sharq madaniyatiga, xususan milliy madaniyatimizga rahna solayotgan bunday quzg‘unlarni “ommaviy madaniyat” tarqatuvchilar emas, balki “ommaviy madaniyat”sizlar deya bemalol atashimiz mumkin. Bizning yurtimizda Sharq uyg‘onish madaniyati namoyondalari: Muso Xorazmiy, Imom Buxoriy, Hakim Termiziy Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Imom Motrudiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘beklar o‘sib ulg‘aygan, [11] ijod qilgan yurtda, ularning asarlaridan tarbiya topgan, yuksalgan, ularni ruhi bilan kamol topayotgan yoshlarimizga, o‘zining kimligini bilmaydigan, nimani targ‘ib qilayotganligini tushunmaydiganlarni madaniyatini nima keragi bor?! Ularning bo‘lmag‘ur madaniyati asossiz, yovuz maqsadlarni ko‘zlab targ‘ib etilayotganligini, biz pedagog – ustozlar talaba - yoshlarimizning ongu shuuriga ko‘hna va mukammal sharqona madaniyatni tushuntirish orqali amalga oshirishimiz lozim.

Rad etib bo‘lmaydigan tarixiy haqiqatlarni unutmaslik kerakki, ayni kunda yoshlarimizni o‘zini omma madaniyati bilan zaharlashga urinayotgan G‘arb madaniyati aslida, IX-XII asrlarda O‘rta Osiyo renesansi ta’sirida g‘arbda ilk universitetlar paydo bo‘lganligini va hattoki dastlab Yevropa unversitetlarida Sharq allomalari saboq berganligi, ularda dars jarayonlarida tahliliy yondashuv (analitika) usullari ham aynan Sharq olimlaridan o‘zlashtirishganligini tarixiy manbalar tasdiqlayd.[12]

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

"Ommaviy madaniyat" namoyondalarining dasturiy maqsadi shundaki, ular insonni ma'naviy dunyosini emas, maishiy iste'mol buyumlarini e'zozlaydi va ularni keng ommalashtirishga intiladi. Bunda albatta butun yer yuzini o'rgimchak to'ridek egallab olgan – Internetdan ham keng foydalanishmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mutaxassislar fikricha, XXI asr tarixga "Axborot asri" sifatida kirdi. Bu holatni global tarmoq internetning jadal rivojlanishi, uning imkoniyatlaridan jamiyatning barcha sohalarida – boshqaruv, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ta'lim sohalarida unumli foydalanilayotganligi bilan izohlash mumkin.[13] Bu jarayon ma'lumotlarni tez tarqatish imkonini berib, ish faoliyat samaradorligini oshirishda ijobiy rol o'ynaydi. Shu bilan birga uning salbiy tomonlari ham borligini unutmaslik lozim. Respublikamizda insonlarni turli qiziqish va mayllarga hurmat bilan qaraladi. Ammo xatarli qiziqish va mayllardan davlat va jamiyat o'zini himoya qilishi lozim. Buning uchun eng avvalo reklama va ommaviy axborot to'g'risidagi davlatimiz qonunlarining talablari qat'iy bajarilishi kerak.

Mamlakatimizda va yoshlarimiz orasida bunday aqidaparastlarning bo'lmag'ur qarashlarining yoyilishiga qarshi har bir inson yosh-u qari jiddiy e'tibor va kuchli ma'suliyat bilan kurashishi kerak. Buning uchun, eng avvalo, ota-ona, mahalla, maktab, oliy va o'rta ta'lim muassasalari, eng birinchi navbatda, yoshlarimizga ilm olish, dunyoga chiqish, bor salohiyatlarini namoyon qilish imkoniyatlarini yaratilganligini tushuntirish zarur.

Yana, milliy qadriyatlarimizni qanchalik yuksak ekanligini, kerak bo'lsa, g'arb madaniyati sharq madaniyatidan oziqlanib shakllanganligini asosli manba va ko'rgazmali vositalardan keng foydalagan holda bot-bot takrorlash va milliy urf-odat, an'analarimizni naqadar boy ekanligini, dunyoda hech bir xalq o'zbek xalqichalik boy ma'naviy merosga ega emasligini muzey va tarixiy yodgorliklarga olib borish va

tushuntirish orqali g'oyaviy imunitetini mustahkamlash vositasida yoshlarni yuzaki yengil yelpi madaniyatlarga qarshi qurollantirish kerak.

Ta'kidlash joizki, "xalqimiz, jumladan, yosh avlod g'arb fan-texnikasi, madaniyati, adabiyoti sa'natining ilg'or jihatlarini inkor etmaydi. Biroq g'arbdagi taraqqiyparvar ziyolilarning o'zi g'arbning muammosi sifatida baholayotgan "ommaviy madaniyat" ning ma'naviy-axloqiy tubanliklarini yoshlarimiz qancha tez anglasa, shunchalik foydalidir. Bunday xurujdan himoya o'rnida, milliy ma'naviyatimizni shakllantiruvchi milliy kompyuter o'yinlarini, multfilmlarni yaratishimiz, milliy qadriyatlarimiz aks etgan, yoshlarni o'ziga jalb qila oladigan badiiy asarlar yaratish, milliy musiqa, qo'shiq matnlariga e'tibor berish, milliy ma'naviyatimizni aks ettiruvchi rasmlarni internet saytlari orqali ko'proq reklama qilish kerak. Shu bilan birga yoshlarimiz qiziqayotgan o'sha "pop" janriga teng keladigan, biroq milliylik bilan sug'orilgan, milliy ma'naviyatimizga mos keladigan kerak bo'lsa, uni mustahkamlaydigan yangi janr yaratish kerak. Buning uchun bizda yetarli bilim, imkoniyatlar mavjuddir, faqat barchamizda xohish, vatanparvarlik, irodalilik, kelajak avlod oldidagi javobgarlik burchini unutmaslik hissi jo'sh urib tursa bas, bu muammoning oldini olsa bo'ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shu boisdan ham, bugun biz yosh avlod tarbiyasiga ertangi kun vorislari sifatida jiddiy e'tibor berish kerak. Yoshligidan oilada sog'lom moddiy-ma'naviy turmush tarzini yaratib berish, ularning imkoniyatlarini orzu-havaslarini yaxshilik va ezgulik uchun xizmat qilishga yo'naltirish lozim. Ertangi kun qanday bo'lishi bizga, biz ta'lim-tarbiya berayotgan yoshlarga bog'liq. Bu oliy haqiqatni hech kim, ayniqsa, biz pedagog - ustozlar zinhor unutishga haqqimiz yo'q.

Qolaversa, jahon hamjamiyatida o'zining erishayotgan yutuq va muvaffaqiyatlari bilan munosib o'rin egallab, ta'lim sohasida erishgan yutuqlari e'tirof etilayotgan vatanimiz O'zbekistonga va uning madaniyatiga qiziqish kundan-kunga ortib

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

bormoqda. Buning isbotini ko‘plab horijiy mamlakatlarda o‘zbek tilini o‘rganishga e’tiborni ortayotganida, o‘zbekiston madaniyati kunlari doirasida o‘tkazilayotgan xalqaro tadbirlarda ko‘rish mumkin. Buning yana bir yorqin aksini mutafakir Alisher Navoiyning mashhur durdona asari “Lison ut - tayr” asarining 2014 yilda polyak tilida nashr etilganligilda ham ko‘rish mumkin. [14]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan misollar yana bir bor qanday buyuk ajdodlarga avlod ekanligimizdan dalolat beradi. Shunday ekan, dunyo ahlini lol qoldirgan ajdolarimizni bebaho asarlarini yoshlarimizga o‘rgatish, ularni ma’naviyatini boytish har bir vatandoshimizni va ayniqsa, pedagoglarning zimmasidagi turgan eng muhim vazifalardan biri deb qaraymiz.

Adabiyotlar

1. Ҳусейнова А. Глобализация ва Миграция // Жамият ва бошқарув– Тошкент, 2008. - №2. – Б. 28-29.
2. Адилходжаева С.М. Глобализация и стратегия государства. Тошкент, “Патент - Пресс”, 2007. – С. 12-15.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. –Тошкент. Маънавият, 2008. –Б. 117.
4. Қўчқоров В. Миллийлигимизни англаш ва ижтимоий сиёсий жараёнлар. – Тошкент. Академия, 2007. –Б. 117.
5. Жуманиёзов Х.С., Собирова М.А., Нигманова У.В. Глобаллашув асослари. Тошкент. “Наврўз” нашриёти, 2015. – Б. 65.
6. Саидов У. Глобаллашув ва маданиятлараро мулоқот. – Тошкент. Академия, 2008. – Б. 75.
7. Китч - заррача ҳам бадиий эстетик қимматга эга бўлмаган нарса ва буюмларга юксак андоза тусини бериш.
8. Комикс - тагига қисқа матн ёки луқмалар битилган беҳаё расмлар яратиш.
9. Старизм - субъектив эҳтиросларга берилган ҳолда, эстрада актрисалари, актёрлар, спортчилар, теледикторларни илоҳийлаштириш.
10. Мадримов Б. “Оммавий маданият”нинг мусиқавий ниқоби // Дунёқарашлар диалоги: ёшларнинг жамият келажагига муносабати мавзусидаги республика илмий – амалий конференцияси материаллари / Тошкент, Адабиёт учқунлари, 2015. – Б.
11. Шамсуддинов Р., Каримов Ш. Ватан тарихи. К.1. – Тошкент.: “Шарқ”, 2010. – Б. 223 – 278.

12. Бадак А.Н., Войнич И.Э., Волчёк Н.М. История средних веков. – Минск. : Харвест, 2000.

13. Ҳўжаниёзова З.О. Глобаллашув жараёнининг ёшлар тарбиясига таъсири // Педагогика. – Тошкент, 2015. - №5. – Б. 32-36.

14. "Лисон ут -тайр" поляк тилида // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. - 2014. 21 ноябрь.

UDK: 371.3

BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI YANGI AVLOD DARSLIKLARI BILAN ISHLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI

Abdujlilov Farrux Po'latjon o'g'li
Andijon davlat unversiteti Registrator ofisi menejeri
abdujalilovfarrux32@gmail.com
+99833-035-43-43
ORCID: 0009-0005-1861-6457

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bo'lajak mutaxassislarni yangi avlod darsliklari bilan samarali ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy ta'lim jarayonidagi dolzarbligi yoritiladi. Yangi avlod darsliklarining mazmun-mohiyati, ularning kompetensiyaviy yondashuv, mustaqil ta'lim, tanqidiy fikrlash, axborotni izlash, tahlil qilish va amaliy faoliyatga tatbiq etishdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, bo'lajak mutaxassislarda darslik bilan mustaqil ishlash, o'quv materiallarini saralash, muammoli vaziyatlarni aniqlash, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash hamda raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish masalalariga e'tibor qaratiladi. Tadqiqotda yangi avlod darsliklaridan foydalanish samaradorligini oshirish orqali bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *yangi avlod darsliklari, bo'lajak mutaxassis, darslik bilan ishlash, kasbiy kompetentlik, ta'lim texnologiyalari, mustaqil ta'lim, tanqidiy fikrlash, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik jarayon, raqamli ta'lim, o'quv faoliyati.*

АКТУАЛЬНОСТЬ РАЗВИТИЯ У БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ НАВЫКОВ РАБОТЫ С УЧЕБНИКАМИ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ

Аннотация: *В данной статье освещается актуальность развития у будущих специалистов навыков эффективной работы с учебниками нового поколения в современном образовательном процессе. Анализируются сущность и содержание учебников нового поколения, их возможности в реализации компетентностного подхода, организации самостоятельного обучения, развитии критического мышления, а также в поиске, анализе и применении информации в практической деятельности. Кроме того, уделяется внимание вопросам формирования у будущих специалистов навыков самостоятельной работы с учебником, отбора учебных материалов, выявления проблемных ситуаций, увязывания теоретических знаний с практикой и использования цифровых образовательных ресурсов. В исследовании обосновывается педагогическая значимость развития профессиональной компетентности будущих специалистов посредством повышения эффективности использования учебников нового поколения.*

Ключевые слова: *учебники нового поколения, будущий специалист, работа с учебниками, профессиональная компетентность, образовательные технологии, самостоятельное обучение,*

критическое мышление, компетентностный подход, педагогический процесс, цифровое образование, учебная деятельность.

THE RELEVANCE OF DEVELOPING FUTURE SPECIALISTS' SKILLS IN WORKING WITH NEXT-GENERATION TEXTBOOKS

Abstract: *This article highlights the relevance of developing future specialists' skills for effective work with next-generation textbooks within the modern educational process. The content and essence of new-generation textbooks are analyzed, along with their potential in applying a competency-based approach, independent learning, critical thinking, information retrieval, analysis, and practical application. Additionally, attention will be paid to developing future specialists' skills in independent work with textbooks, selecting educational materials, identifying problem situations, linking theoretical knowledge with practice, and utilizing digital educational resources. The study substantiates the pedagogical significance of developing the professional competence of future specialists by increasing the efficiency of using next-generation textbooks.*

Keywords: *new generation textbooks, future specialist, textbook work, professional competence, educational technologies, independent learning, critical thinking, competency-based approach, pedagogical process, digital education, educational activity.*

KIRISH

Bugungi kunda fundamental didaktik muammolari bo'yicha tadqiqotchilar va ma'lum fan sohalari bo'yicha mutaxassislar fandagi muammolarni nazariy asoslar va o'quvchilar bilan ishlashda ko'rsatilgan ko'nikmalarni shakllantirish uchun fan bo'yicha darsliklarni qanday o'zgartirish, o'qituvchilar amaldagi darsliklar bilan qanday ishlash haqida muammo ustida ishlamoqdalar. «XXI asr odami uchun kalit ko'nikmalar» tushunchasi o'zi asosan metaforik bo'lib, klassik didaktikadagi «ko'nikmalar» tushunchasidan farq qiladi[1]. Unda ko'nikmalar inson avtomatik tarzda, o'ylamasdan kerakli harakatlarni bajaradigan darajaga yetgan mahorat sifatida tushuniladi. XXI asr odami uchun kalit ko'nikmalar – bu XXI asrda yashash va muvaffaqiyatli o'zini amalga oshirishda yordam beradigan qobiliyatlar, kompetensiyalar, savodxonlik va shaxsiy sifatlar deb tushuniladi[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Biz tadqiqot doirasida darsliklar bilan ishlashda beshta asosiy kompetensiyalarni: konstruktiv-kritik fikrlash kompetensiyasi, kreativlik, kommunikatsiya, jamoaviy hamkorlik va sub'ektlik kompetensiyaslariтıı ajratib oldik. Bu esa yosh avlodni o'z hayotining "muallifi" bo'lishi, rivojlanish yo'nalishini tanlash, tanlov qilish va uning javobgarligini o'z zimmasiga olish qobiliyatini nazarda tutadi.

XXI asr insonining asosiy koʻnikmalarini, ularni darslikda qanday taqdim etish mumkinligini koʻrib chiqayotganimizda, zamonaviy darslik deganda nima tushunilishini ham e'tibordan chetda qoldira olmadik. U klassik darslikdan qanday farq qiladi? Ta'kidlashni joizki, biz darslikni faqat fan mazmuni bayon etilgan kitob deb emas, balki ta'lim jarayonining modeli, ssenariysi sifatida tushunamiz.

Tahllilarimizga koʻra, didaktikada darsliklarni tubdan qayta ishlash, ularni tizimli faoliyat yondashuvi asosida qurish, oʻquv faoliyatini shakllantirishga yoʻnaltirish, oʻquvchilarga oʻquv-kognitiv muammolarni qoʻyish va yechish boʻyicha takliflar bir necha marta bildirilib kelinayotgan boʻlsa-da, bu takliflar ayrim jixatlari eʼtiborga olinmayapti. XXI asr oʻquvchisiga asosiy koʻnikmalarni shakllantirish uchun darslikda qanday taqdim etish mumkinligini koʻrib chiqayotganimizda zamonaviy darslik deganda nima tushunilishi? U klassik darslikdan qanday farq qiladi? Ta'kidlashni joizki, darslikni faqat fan mazmuni bayon etilgan kitob deb emas, balki ta'lim jarayonining modeli, ssenariysi sifatida tushunish kerak.

Darslik muammosining tarixiy jihatlarini koʻrib chiqish shuni koʻrsatdiki, didaktikada darsliklarni tubdan qayta ishlash, ularni tizimli faoliyat yondashuvi asosida qurish, oʻquv faoliyatini shakllantirishga yoʻnaltirish, oʻquvchilarga oʻquv-kognitiv muammolarni qoʻyish va yechish boʻyicha takliflarni kiritish lozim. Bugungi kunda darslik yaratish - bu koʻp fanlarni qamrab oladigan muammo sifatida qaralmoqda. Yangi avlod darsliklari ustida ishlashda pedagoglar, psixologlar, kognitiv tilshunoslik mutaxassislari va dasturchilarning ishtiroki maqbuldir.

An'ana bo‘yicha darslik o‘ziga xos fenomen sifatida talqin qilinib, jamiyatning ma'naviy madaniyatini saqlash, qayta ishlab chiqarish va o‘zlashtirish bo‘yicha maxsus funksiyalarga ega. Darsliklarda har bir avlod vorislarga yetkazishga intiladigan ijtimoiy tajriba aks etadi. Bu ayniqsa zamonaviy ijtimoiy-siyosiy vaziyatda muhim bo‘lib, bu yerda asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan narsa shunchaki XXI asrda talabalar tomonidan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish emas, balki ularda vatanparvarona dunyoqarash va milliy identifikatsiyani shakllantirishdir. Darslik yangi avlodga mamlakatning madaniy-tarixiy an’analarini o‘zlashtirishga, ularni davlat birligiga integratsiya qilishga va o‘zlarini O‘zbekiston fuqarosi sifatida identifikatsiya qilishga yordam berishi kerak. Shuning uchun maktab darsliklari mutaxassislar va jamiyatning diqqatini doim jalb qiladi. Bunda nafaqat mahalliy ta’lim tizimi barqaror rivojlanish davrlarida, balki ijtimoiy va ta’lim islohotlari va modernizatsiya davrlarida ham amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan, darsliklarni yaratishda, O‘zbekiston ta’limining zamonaviy rivojlanish kontekstini hisobga olgan holda milliy pedagogikada XX asr ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida «zamonaviy darslik» yaratishning ilmiy asoslarini samarali ishlab chiqish natijasida olingan eng muhim natijalarni ham qo‘llash zarur.

Maktab darsligini rivojlantirishning metodologik asoslarini tahlil qilish nafaqat maktab darsligining turlicha talqinlariga mos keladigan yondoshuvlarni ajratib ko‘rsatishga, balki, zamonaviy holatini tadqiq qilishga va ushbu jarayonning bosqichlari, tendensiyalarini aniqlashga imkon beradi. Quyida darsliklarni rivojlanish bosqichlarini keltirib o‘tganmiz:

1. *O‘rnatish bosqichi* – 1960-yillarning ikkinchi yarmi, bu davrda muhim partiyaviy-hukumat qarorlariga muvofiq maktab darsliklarining yangi kontseptsiyasini asoslash bo‘yicha ishlar amalga oshirilgan. Rasmiy tarzda darsliklar tizimini yaratish bo‘yicha ilmiy-metodik faoliyat 1967 yil 3 iyun kuni №502-sonli maxsus qaror bilan boshlangan. Ushbu qarorda "Maktab darsliklarini tayyorlash va nashr qilishni yaxshilash hamda ularni o‘quvchilarga yetkazish bo‘yicha chora-tadbirlar" bo‘yicha ko‘rsatma

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

berilgan. Qarorda «maktab darsliklarining mazmuni va hajmi bo'yicha ilmiy asoslangan talablarni ishlab chiqish va o'rta umumta'lim maktabining o'quv rejasidagi asosiy fanlar bo'yicha barqaror darsliklarning qo'lyozmalarini tayyorlashni tashkil qilish» ko'rsatib o'tilgan[3].

Darsliklarning maqsadli, qadriyatlarga asoslangan, didaktik, mazmuniy va jarayoniy asoslarini nazariy jihatdan asoslash jarayoni 1960-yillarning ikkinchi yarmi – 2021 yilgacha bo'lgan davrda milliy pedagogika va didaktikada tahliliy bosqichda amalga oshirilgan. Bu choralar maktab darsligi tayyorlash jarayonining nazariy darajasini sezilarli darajada oshirishga olib keldi. O'sha vaqtda yangi darslik tayyorlash murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u faqat rasmiy ruxsatlarni olish bilan cheklanmay, ko'plab ekspert muhokamalarini, majburiy keng ko'lamli sinovlardan o'tkazishni ham o'z ichiga olardi, bu esa oxir-oqibat darsliklarning yuqori sifatini ta'minlardi[4]. Ammo tez orada shuni anglab yetildiki, zamonaviy o'quv adabiyotlari modelini yaratish uchun maqsadli, muvofiqlashtirilgan, ilmiy asoslangan va metodik jihatdan aniqlangan faoliyat zarur edi. Bu esa shundan iborat ediki, 1960-yillarning oxirida amalga oshirilgan umumiy o'rta maktab islohotlari, ta'lim mazmunining nazariy darajasini oshirish vazifasini o'z oldiga qo'ygan bo'lsa-da, bu faoliyatning amaliy imkoniyatlari va oqibatlarini barcha uchun majburiy o'rta ta'lim sharoitida yetarli darajada hisobga olinmagan. Natijada, dasturlar va o'quv adabiyotlar ta'lim mazmunini qayta ishlash jarayonida ortiqcha ma'lumot va ikkinchi darajali material bilan yuklanib qoldi.

2. *Ilmiy-metodik bosqich* - 1970-1980-yillarda tadqiqotchilar va olimlar tomonidan didaktik faoliyatda maktab darsligining nazariy asoslarini yaratish samarali amalga oshirilgan. Maktab darsligini yaratishda metodologik, didaktik, metodik va texnologik yondashuvlar asoslantirilgan. Maktab darsligi nazariyasini ishlab chiqishga qaratilgan kompleks va keng ko'lamli faoliyat ko'rib chiqilayotgan davr mobaynida psixologlar, metodistlar va nashriyot xodimlaridan iborat maktab darsligi masalalari bo'yicha

kompleks ilmiy guruh tuzildi, uning maqsadi maktab darsligining tayyorlanishi va nashr qilinishi bilan bog‘liq barcha muammolarni asoslashdan iborat edi.

1974-yildan 1991-yilgacha ilmiy guruh tomonidan «Maktab darsligi muammolari» ning nazariy asoslariga oid turli masalalar ko‘rib chiqilgan, masalan, maktab darsligining tuzilishi, darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni takomillashtirishning didaktik muammolari, maktab darsliklarining tili va uslubi, darsliklarni illyustratsiya qilishning ilmiy asoslari, maktab darsliklarini baholashda funktsional yondashuvlar, nashriyot va kitobshunoslik ishlari tahlil qilingan[5]. Shu ilmiy-tadqiqot ishlari tufayli darslik tushunchasida paradigma o'zgarishi yuz berdi. Agar ilgari darslik qat'iy tizimda fan mavzusini ochib beruvchi qo'llanma sifatida qaralgan bo'lsa, ko‘rib chiqilgan davr ilmiy yutuqlari natijasida darslik endi keng omma uchun mo‘ljallangan o'quv kitobi sifatida talqin qilina boshladi va ta'lim mazmunini bayon qiladigan, majburiy egallanishi kerak bo‘lgan faoliyat usullarini belgilab berdi. Fundamental asarlarning yaratilishi darslikni takomillashtirishning umumnazariy asoslarini yanada tadqiq etish va uning mazmun potensialini o‘quvchining shaxsiy rivojlanishi uchun amalga oshirish yo‘llarini aniqlash imkoniyatini yaratdi.

3. *Kontseptual davr* 1990-yillarni o‘z ichiga oladi. Unda asosan zamonaviy darslik yaratish vazifasini qo‘yish va uning ilmiy asoslarini yangi ijtimoiy-siyosiy haqiqatlarga muvofiq belgilash bilan xarakterlangan. 1991-yilda maktab darsliklarining ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqishga oid davlat darajasidagi samarali faoliyat ma’lum ijtimoiy-siyosiy voqealar tufayli to‘xtatilgan. Ideologik jihatdan bu darsliklarning o‘zgaruvchanlik tamoyili ustunlik qilganligi bilan izohlanadi va bu muallif jamoalaridan har qanday ilmiy tavsiyalarni hisobga olish zaruratini talab qilmagan.

Olimlardan O‘.Tolipov, M.Usmonboyevalar "Darslik ta'lim mazmunini amalga oshiruvchi asosiy didaktik vosita bo‘lib, uning ilmiyligi, tizimliligi va metodik mukammalligi ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi"-deya fikr bildirganlar[7].

Ko'rib chiqilayotgan davrda mahalliy olim-pedagoglar va pedagogik jamoatchilik uchun aniq bo'lib qoldiki, an'anaviy darslik ijtimoiy-siyosiy sharoitlar o'zgarganidan keyin endi unga yuklangan barcha funksiyalarni bajara olmayapti, hatto yangi o'quv-metodik majmualar va shakllanayotgan innovatsion o'quv vositalari natijalarida ham ko‘rish mumkin. Shuning uchun zamonaviy maktab darsligi - XXI asr darsligini yaratish vazifasi tug‘ildi.

Zamonaviy darslik esa dialog asosida o'qitishga yo'naltirilgan yangi didaktik modelga mos kelishi, har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ochib berishi, o'quvchining ijobiy, samarali va mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlashi kerak. Nashrlarda shuningdek, zamonaviy darslik quyidagi belgilarga ega bo'lsa, shunday deb hisoblanishi mumkinligi ta'kidlangan:

- unga yangi mazmun kiritilgan bo‘lib, bu o‘quv qurolining didaktik imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi va boyitadi;

- tanlangan o‘quv materiali ilm-fanning so‘nggi tendentsiyalarini aks ettiradi va maktab ta’limining gumanizasiyasiga xizmat qilishi

- mavjud yangi ilmiy bilim, o‘quv qurolining turli didaktik vositalari o‘quvchilarning individual xususiyatlariga qarab differentsial yondashuv tamoyili asosida ishlash imkoniyatini yaratishi;

- o‘quv qurolining didaktik vositalari yordamida yangi bilimlarni o‘zlashtirishning intellektual usullarini shakllantirish va o‘quvchilarda intellektual o‘zini-o‘zi rivojlantirish qobiliyatlarini rivojlantirishi;

- metodologik asoslarning yagona tamoyillari, o‘quv fan va jarayon mazmunida amalga oshirilgan o‘quv quroli ochiq pedagogik tizim bo‘lib, turli pedagogik texnologiyalardan aniq sharoitga qarab foydalanish imkonini berishi;

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Darslik obyektiv va subyektiv birlikini ifodalaydi hamda muallifning, ham bilim olayotgan talabaning, ham o‘qituvchining shaxsini namoyon qilish imkonini beradi.

4. *Didaktika bosqichida* - 2000-2010 yillarda zamonaviy o‘quv adabiyotining didaktik asoslari shakllanayotgan edi. Zamonaviy maktab o‘quv adabiyoti ko‘p funksiyali tizim sifatida ko‘rilgan, uning yadrosi ta’lim mazmuni bo‘lib, tarkibiy qismlari esa o‘quv adabiyotning asosiy funksiyalarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan edi. O‘quv adabiyot insonparvar tizim sifatida sifat jihatdan yangi funktsiyalari bilan qurila boshlaydi.

Olim R.Jo‘rayevning fikricha, "O‘quv adabiyotlari davlat ta'lim standartlari talablariga mos holda ishlab chiqilishi va ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashi lozim" - deya fikr bildirgan[7].

Nashrlarda ta'kidlanganidek, zamonaviy darslik doimiy “Ustoz-shogird” tizimi sifatida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ijodiy muloqot o ‘rnata olishi kerak. Shu nuqtai nazardan u o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishni hisobga olgan holda yaratilishi, bilimni o‘zlashtirishga, ko‘nikmalarni egallashga, tarbiya berishga, rivojlantirishga va olingan bilim, ko‘nikmalardan amaliy foydalanishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Shuningdek, ushbu davr uchun “yangi darslik” yaratish nazariyasini ishlab chiqishda fanlararo yondashuvning keskin kuchayishi myhim ahamiyatga egadir. Shu munosabat bilan maktab darsliklar sifatli, yangi funksiyalarga ega gumanitar tizim, ustuvor qadriyatlarni uzatuvchi va o‘quvchilar tomonidan egallanishini tashkil etish vositasi sifatida ishlaydi.

M.Ochilovning fikricha, "Ta'lim sifati o‘quv dasturlari va darsliklarning ilmiy asoslanganligi hamda ularning amaliyot bilan uzviy bog‘liqligiga bog‘liq"[8]. Demak, bundan ko‘rinadiki, zamonaviy darslik yagona supermatn, yagona ta'lim makonini tashkil etadi, bu nafaqat o'quv materiallarini, balki o'quvchilarning hayotiy tajribasini, jonli bilimlarini va texnologiyalarni ham o'z ichiga oladi.

5.*Texnologik bosqich* – 2010-yildan hozirgi vaqtgacha.

Faqat paradigmalar o‘zgarib qolmagan (axborot berishdan kompetensiya asosiga), balki tizimli faoliyat paradigmalarida ham siljish yuz berdi. Darsliklarda sotsiomadaniy tajriba va madaniyatni uzatishdan, XXI asr o‘quvchilarining kompetensiyalarini o‘zlashtirishga, milliy identifikatsiyani shakllantirishga va yoshlarni vatanparvarlikni tarbiyalashga yo‘naltirilgan maqsadli mazmuniy vazifalarni ishlab chiqish vazifasiga o‘tildi. Ushbu davrda «zamonaviy darslik» muammosi kuchli sotsiomadaniy va keyinchalik texnologik kontekstga bo‘lishi bilan ajralib turdi. Bunda shaxsiy va fundamental xarakterni uyg‘unlashtirishga yo‘naltirilgan yondashuvlar ustun edi. Shundan kelib chiqib, darsliklarni sihlab chiqishda maqsad o‘zgardi: u endi birinchi navbatda ma’lumot tashuvchisi emas, balki o‘qituvchi va o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish vositasi sifatida ishlatilmoqda edi. Ta'kidlash lozimki, olim-pedagoglar fikrlarining birligi shundaki, zamonaviy darslikning asosiy vazifasi informatsion funksiyasi tizimli funksiyasidan ajralib amalga oshirilishi mumkin emas. Yangi avlod maktab darsliklarining shakllanishi zamonaviy kontekstdagi jarayonda tizimlashtiruvchi vazifalar oldinga chiqadi.

O‘zbek olimi N.A.Muslimovning fikricha "O‘quv adabiyotlarini yaratishda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, shuningdek, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari hisobga olinishi zarur"-deya ta’kidlagan[9].

Avval ta'kidlanganidek, zamonaviy darslik yagona supermatn ta'lim makonini tashkil etib, bu nafaqat o'quv materiallarini, balki o'quvchilarning hayotiy tajribasini, jonli bilimlarini va texnologiyalarni ham o'z ichiga olgan edi. Zamonaviy darslikning o'quv-uslubiy o'rni va roli asoslanib, darslikning tuzilishi, uning konseptual asoslari, ilmiy bilimlarning uzluksizligini ta'minlaydi, shu bilan birga uning ayrim elementlari dolzarb materialga qaratilgan qo'shimchalar, aniq tadqiqotlarni ko'zda tutadi.

Olim-pedagoglar fikrlarining birligi shundaki, zamonaviy darslikning asosiy vazifasi – bilim olishni o'rganishni o'rgatishdir. Zamonaviy darslikning informatsion funksiyasi tizimli funksiyasidan ajralib amalga oshirilishi mumkin emas. Yangi avlod

maktab darsliklarining shakllanishi zamonaviy kontekstdagi jarayonda sodir bo'ladi va bu jarayonda tizimlashtiruvchi vazifalar oldinga chiqadi. Darslikning tuzilishi, uning konseptual asoslari ilmiy bilimlarning uzluksizligini ta'minlaydi, shu bilan birga uning ayrim elementlari dolzarb materialga qaratilgan qo'shimchalar, aniq tadqiqotlarni ko'zda tutadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Zamonaviy bosqichda darsliklarning raqamlashtirilishi intensiv bosqichiga o‘tdi. Avval faqat qo‘shimcha yoki alternativ format bo‘lgan narsa, endi dunyoning ko‘plab qismlarida ta'lim tajribasining markaziy qismiga aylandi. Raqamli asosiy darsliklar aniq foydalarni taqdim etadi. Ularni darhol yangilash oson va videoma’ruzalar, animatsiyalar va viktorinalar kabi multimedia imkoniyatlarini qo‘shish mumkin. Bu imkoniyatlar talabalarning qiziqishini oshiradi va turli o‘qish uslublarini qo‘llab-quvvatlaydi. O‘qituvchilar uchun raqamli platformalar real vaqt rejimida fikrlarni olish va ma’lumot tahlilini amalga oshirish imkonini beradi, bu esa o‘qitishni yanada individualizatsiyalash imkonini yaratadi. Nashriyotlar faqat chop etilgan kitoblarni PDF shaklida takrorlashdan tashqari, keng qamrovli platformalarni ishlab chiqmoqda. Pearson+, McGraw Hill Connect va WileyPLUS kabi platformalar o‘quv adabiyotlarni o‘quv ekotizimlariga aylantirmoqda. Bu tizimlar kontent yetkazib berish, baholashlar, boshqaruv paneli va ba’zan hatto repetitorlik xizmatlarini birlashtiradi. O‘quv kitobi mahsulotdan ko‘ra xizmatga aylanishi boshlangan. Shunga qaramay, birinchi raqamli bosqichga o‘tish muammosiz emas. Ekran charchoqligi, raqamli tenglik va uzoq muddatli foydalanish haqida katta muammolar mavjud edi. Internet aloqasi ishonchsiz yoki raqamli infratuzilmasi cheklangan hududlardagi talabalar ko‘pincha ortda qolardi. Raqamli o‘quv kitoblari qisqa muddatda arzon bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, obuna modellari va platformaga bog‘lanish xarakati va egalik qilish tezlashib ketdi. Akademik nashriyot sohasidagi yangiliklardan biri bu Ochiq Ta'lim Resurslari (OER) ni tobora ko'proq qabul qilishdir. OERlar bepul kirish imkoniyatiga ega, ochiq litsenziyalangan o‘qitish va

o‘rganish materiallari bo‘lib, ularni qonuniy ravishda moslashtirish va qayta tarqatish mumkin. Bu harakat bilimni demokratlashtirish va ta'lim xarajatlarini kamaytirishga katta o‘zgarish olib keladi.

Darsliklarning yuqori narxi ko‘p talabalar uchun uzoq vaqtdan beri to‘siq bo‘lib kelgan. AQShdagi so‘rovnomalarga ko‘ra, talabalar har semesterlarda kerakli kurs materiallariga yuzlab dollar sarflashlarini muntazam ravishda bildirgan. Bu esa ba’zilarni xaridlarni kechiktirishga yoki umuman sotib olmaslikka majbur qilgan va o‘quv natijalariga salbiy ta’sir qilgan. OER aynan shu muammoni hal qilishga yordam bergan, chunki bu sifatli kontentni bepul taqdim etadi[10].

OERni qo‘llash rivojlanayotgan mamlakatlarda va yangi bozorlar uchun katta ahamiyatga ega. OpenStax, MERLOT va BCcampus kabi tashkilotlar sifat bo‘yicha tijorat darsliklariga teng bo‘lgan, hamkasblar tomonidan ko‘rib chiqilgan ochiq darsliklar ishlab chiqarmoqda. Kurs mazmuniga nisbatan moslashuvchanlik va nazoratni qadrlaydigan o‘qituvchilar esa ushbu resurslarni qo‘llashni boshlamoqda. Biroq, barqarorlik hanuz muammo bo‘lib qolmoqda. OER yaratish va uni saqlash vaqt, tajriba va ko‘pincha moliyalashtirishni talab qiladi. Ko‘plab OER tashabbuslari moliyaviy barqaror model bo‘lmasa, eskirib qolish yoki qo‘llab-quvvatlanmaslik xavfi ostida qolmoqda. Ta’lim tashkilotlarining OER loyihalarini moliyalashtirish va qo‘llab-quvvatlashda katta rol o‘ynashi uchun chaqiriqlar tobora ortib bormoqda. Haqiqatan ham kelajak uchun tayyor akademik darslik barcha o‘quvchilar, jumladan nogironligi bo‘lganlar yoki turlicha o‘qish ehtiyoji bo‘lganlar uchun ham qulay bo‘lishi kerak.

XULOSA

Raqamli texnologiyalar inkluzivlik uchun kuchli vositalar taklif qiladi, lekin ularni qo‘llash ongli va ehtiyotkorlik bilan rejalashtirilishi lozim. Inklusivlik faqat jismoniy kirish imkoniyatlaridan oshib ketadi. Madaniy inklusivlik, vakillik va ahamiyatga oid sezgirlik ham ortib bormoqda. O‘n yillar davomida akademik materiallar Yevro-markazli nuqtai nazarlarni taqdim etgani uchun tanqid qilindi. Shuning uchun kelajakda

darsliklar turli ovozlar, tajribalar va bilim tizimlarini aks ettirishi kerak. Bunda tilga oid kirish imkoniyati ham kiradi. Ko'p tilli hududlarda mahalliy tillarni global tillar bilan birga qo'llab-quvvatlaydigan darsliklar ta'limda ishtirokni sezilarli darajada kengaytirishi mumkin. Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida tarjima va transkripsiya qilish vositalari bu borada yangi imkoniyatlar ochmoqda, garchi aniqlik va madaniy noziklik uchun inson nazorati ham muhimligicha qolgan bo'lsada, inklusivlik faqat jismoniy kirish imkoniyatlarini oshib beradi. Madaniy inklusivlik, vakillik va ahamiyatga oid sezgirlik ham ortib bormoqda. Bunga tilga oid kirish imkoniyati ham kiradi. Ko'p tilli hududlarda mahalliy tillarni global tillar bilan birga qo'llab-quvvatlaydigan darsliklar ta'limdagi ishtirokini sezilarli darajada kengaytirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Иванова Е.О., Осмоловская И.М., Шабалин Ю.Е. Конструирование учебников для реализации процесса обучения в информационно-образовательной среде: монография. – М.: Институт стратегии развития образования РАО, 2017. 188 с.; Осмоловская И. М. Учебники нового поколения: поиск дидактических решений //Отечественная и зарубежная педагогика. 2014. № 4 (19). С.42-51.
2. Учебник как модель мира и общества: Коллективная монография / Под ред. Т. В. Артемьевой, М. И. Микешина. СПб.: Санкт-Петербургский центр истории идей; Издательство «Политехника Сервис», 2021. 446 с.
3. Учитель. Ученик. Учебник: материалы IX Международной научно-практической конференции: сборник научных трудов / под ред. Г.Г. Молчановой. М.: «КДУ», «Университетская книга», 2019. Б.516.
4. UNESCO. (1995). *Planning the development of school textbooks: A series of twelve training modules for educational planners and administrators*. UNESCO International Institute for Educational Planning.
5. Универсальные компетентности и новая грамотность: чему учить сегодня для успеха завтра. Предварительные выводы международного доклада о тенденциях трансформации школьного образования / И. Д. Фрумин, М. С. Добрякова, К. А. Баранников, И. М. Реморенко. - М.: НИУ ВШЭ, 2018. - 28 с. (Современная аналитика образования. № 2 (19).
6. O'.Tolipov, M.Usmonboyeva. *Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.* Darslik. - Toshkent: Fan, 2006.
7. R.H. Jo'rayev, *Ta'lim menejmenti*. – Toshkent: Fan, 2008.
8. Ochilov, M. *Yangi pedagogik texnologiyalar*. O'quv qo'llanma. – Qarshi: Nasaf, 2000.B.32-36
9. Muslimov, N. A. *Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari*.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Darslik – Toshkent: Fan, 2007. B.43-56

10. Универсальные компетентности и новая грамотность: от лозунгов к реальности / под ред. М. С. Добряковой, И. Д. Фрумина; при участии К. А. Баранникова, Н. Зиила, Дж. Мосс, И. М. Реморенко, Я. Хаутамяки; Нац. исслед. ун-т «Высшая школа экономики». — М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2020. С.10.

UDK:372.853

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA CLIL + 5E MODELI ASOSIDA FIZIKA DARSLARINI LOYIHALASH VA TASHKIL ETISH

Jumamuratova Nawbahar Saatbaevna
Ajiniyoz nomidagi NDPI, magistr
jumamuratova.n.s.0810.gmail.com
+99893 716 28 70

Annotatsiya. *Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika fanini CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvi va 5E modeli asosida fizika darslarini loyihalash va tashkil etish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda 5E modelining Engage, Explore, Explain, Elaborate va Evaluate bosqichlarining fizika ta'limidagi o'rni hamda ularni CLIL yondashuvi bilan integratsiyalash imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, fizik mazmunni ingliz tili bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning fizik bilimlari, ilmiy-tadqiqotchilik, tanqidiy fikrlash va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar taklif etilgan. Maqolada CLIL + 5E modeli asosida fizika darsini tashkil etishning amaliy bosqichlari, tajriba va muammoli topshiriqlardan foydalanish, fizik terminologiyani ingliz tilida o'zlashtirish hamda ta'lim natijalarini kompleks baholash masalalari ko'rib chiqilgan. Natijada CLIL va 5E modelining integratsiyasi fizika ta'limini o'quvchi faoliyatiga yo'naltirish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish va ilmiy kommunikatsiyani rivojlantirish uchun istiqbolli metodik yondashuv ekanligi asoslangan.*

Kalit so'zlar: *CLIL, 5E modeli, fizika ta'limi, umumiy o'rta ta'lim, fanlararo integratsiya, ingliz tili, fizik terminologiya, ilmiy kommunikatsiya, tadqiqotchilik kompetensiyasi, kognitiv faoliyat, innovatsion ta'lim, pedagogik texnologiya.*

DESIGN AND ORGANIZATION OF PHYSICS LESSONS IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS BASED ON THE CLIL + 5E MODEL

Abstract. *This article analyzes the possibilities of designing and organizing physics lessons in secondary schools based on the CLIL (Content and Language Integrated Learning) approach and the 5E model. The study highlights the role of the 5E model's Engage, Explore, Explain, Elaborate, and Evaluate stages in physics education, as well as the possibilities of integrating them with the CLIL approach. Additionally, methodological approaches aimed at developing students' physical knowledge, scientific research, critical thinking, and communicative competencies through the harmonization of physical content with English are proposed. The article examines the practical stages of organizing physics lessons based on the CLIL + 5E model, the use of experimental and problem-based tasks, the mastery of physics terminology in English, and the comprehensive assessment of educational outcomes. As a result, it is substantiated that the integration of the CLIL and 5E model is a promising methodological approach to orient physics*

education toward student activity, strengthening interdisciplinary integration, and developing scientific communication.

Keywords: *CLIL, 5E model, physics education, secondary school, interdisciplinary integration, English language, physics terminology, scientific communication, inquiry competence, cognitive activity, innovative education, teaching methodology*

ПРОЕКТИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ УРОКОВ ФИЗИКИ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ CLIL + 5E

Аннотация. *В данной статье анализируются возможности проектирования и организации уроков физики в общеобразовательных школах на основе подхода CLIL (Content and Language Integrated Learning) и модели 5E. В исследовании освещается роль этапов модели 5E Engage, Explore, Explain, Elaborate и Evaluate в физическом образовании, а также возможности их интеграции с CLIL-подходом. Также предложены методические подходы, направленные на развитие физических знаний, научно-исследовательских, критического мышления и коммуникативных компетенций учащихся путем гармонизации физического содержания с английским языком. В статье рассматриваются практические этапы организации урока физики на основе модели CLIL + 5E, использование экспериментальных и проблемных заданий, освоение физической терминологии на английском языке, а также вопросы комплексной оценки результатов обучения. В результате обосновано, что интеграция CLIL и модели 5E является перспективным методическим подходом для ориентации физического образования на деятельность учащегося, усиления междисциплинарной интеграции и развития научной коммуникации.*

Ключевые слова: *CLIL, модель 5E, обучение физике, общеобразовательная школа, межпредметная интеграция, английский язык, физическая терминология, научная коммуникация, исследовательская компетентность, критическое мышление, инновационное обучение, методика обучения.*

KIRISH

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning nafaqat fan bo‘yicha bilimlarini, balki ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llash, ilmiy fikrlash va zamonaviy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, fizika kabi murakkab tushunchalar, matematik ifodalar, formulalar va maxsus ilmiy terminologiyaga boy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydigan hamda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘laydigan

samarali metodik yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, fan mazmuni va xorijiy tilni integratsiyalashgan holda o‘qitishga asoslangan Content and Language Integrated Learning (CLIL) yondashuvi fizika ta’limi uchun istiqbolli metodik imkoniyatlardan biri sifatida qaralmoqda.

CLIL yondashuvida o‘quvchi xorijiy tilni alohida fan sifatida emas, balki muayyan fan mazmunini o‘zlashtirish jarayonida qo‘llash orqali rivojlantiradi. Bunday yondashuv ayniqsa tabiiy fanlarda muhim ahamiyatga ega, chunki ilmiy tushunchalarni shakllantirish jarayonida terminlar, grafiklar, formulalar, tajribalar va og‘zaki hamda yozma izohlardan kompleks foydalanish imkoniyati mavjud.

Biroq CLILni fizika darslariga joriy etishning o‘zi yetarli emas. O‘quvchining fizik hodisani kuzatishi, mustaqil izlanishi, ilmiy tushunchani izohlashi, o‘zlashtirgan bilimini yangi vaziyatlarda qo‘llashi va o‘z bilimini baholashi uchun izchil pedagogik model zarur. Shu jihatdan konstruktiv ta’lim tamoyillariga asoslangan 5E modeli — Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate fizika ta’limining faol va tadqiqotga yo‘naltirilgan tashkil etilishiga imkon beradi. 2020-yilda Sengul va Schwartz tomonidan olib borilgan tadqiqotda 5E modeli fizika laboratoriya mashg‘ulotlariga tatbiq etilib, o‘quvchilarning ilmiy amaliyotlar, tajriba loyihalash, modellashtirish va ilmiy izohlash bilan bog‘liq faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlashi ko‘rsatilgan[1].

Shu sababli 5E modelining bosqichlarini CLILning fan mazmuni va tilni integratsiyalash tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning fizik bilimlarini faol o‘zlashtirishi bilan bir qatorda, fizik hodisalarni xorijiy tilda tushuntirish va ilmiy muloqot qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantirish imkonini beradi.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning asosiy muammosi umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika fanini CLIL asosida o‘qitish jarayonini o‘quvchining faol izlanishi, tajriba o‘tkazishi, ilmiy tushunchalarni izohlashi va bilimlarini yangi vaziyatlarda qo‘llashini ta’minlaydigan 5E modeli bilan metodik jihatdan uyg‘unlashtirishdan iborat. Tadqiqotning maqsadi esa fizika fanini CLIL asosida 5E modeli yordamida o‘qitish

metodikasini takomillashtirish hamda uning o‘quvchilarning fizik bilimlari va ilmiy-kommunikativ faoliyatiga ta’sirini aniqlashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Content and Language Integrated Learning (CLIL) yondashuvi fan mazmuni va xorijiy tilni bir-biridan ajratmagan holda, yagona ta’lim jarayonida o‘zlashtirishga asoslanadi. Mazkur yondashuvda xorijiy til faqat kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish vositasi sifatida emas, balki fan mazmunini anglash, tahlil qilish, muhokama qilish va ilmiy jihatdan ifodalash vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shu sababli CLILni fizika ta’limiga tatbiq etish o‘quvchilarning fizik bilimlarini shakllantirish bilan bir qatorda, fizik tushunchalarni xorijiy tilda izohlash va ilmiy terminologiyadan maqsadli foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Fizika fanining o‘ziga xosligi CLIL yondashuvi uchun alohida imkoniyat yaratadi. Chunki fizik mazmun faqat verbal matn orqali emas, balki formulalar, grafiklar, diagrammalar, tajribalar, modellar, rasmlar va matematik belgilar orqali ham ifodalanadi. Bu multimodal vositalar xorijiy tilda o‘qitish jarayonida o‘quvchining mazmunni tushunishini qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Ayniqsa, fizik hodisalarni tajriba asosida kuzatish, natijalarni taqqoslash va ularni ilmiy terminlar yordamida izohlash CLILning “content” va “language” komponentlarini tabiiy ravishda birlashtirish imkonini beradi. Fizika va kimyo fanlari bo‘yicha CLIL darslarini o‘rgangan 2024-yilgi tadqiqot ham o‘qituvchilar murakkab ilmiy bilimlarni tushuntirishda nutq, imo-ishora, vizual materiallar va boshqa multimodal vositalarni birgalikda qo‘llashini ko‘rsatgan[2].

Shuningdek, CLIL darslarida o‘quvchining til bilan ishlashi faqat yangi terminlarni yodlash bilan cheklanmasligi lozim. O‘quvchi “describe”, “compare”, “explain”, “predict”, “calculate”, “justify” kabi ilmiy faoliyatni ifodalovchi fe’llar orqali fizik hodisani tasvirlash, sabab-oqibatni tushuntirish, tajriba natijasini bashorat qilish va o‘z xulosasini asoslashga jalb etilishi kerak. Shu jihatdan CLIL fizika darslarini oddiy “ingliz

tilida fizika o‘qitish”dan farqlaydi: bunda til fizik mazmunni o‘zlashtirish jarayonining faol tarkibiy qismiga aylanadi.

Biroq CLILni fizika ta’limida qo‘llashda muayyan metodik ehtiyotkorlik ham talab etiladi. Ilmiy terminologiyaning murakkabligi va xorijiy tilning qo‘shimcha kognitiv yuklamasi ayrim o‘quvchilar uchun fizik mazmunni o‘zlashtirishni qiyinlashtirishi mumkin. Masalan, 6-sinf o‘quvchilari ishtirokidagi katta miqyosli randomizatsiyalangan tadqiqotda fizik mavzuning ingliz va nemis tillarida o‘qitilishi natijalari o‘rganilgan va ikki tilli guruhda mazmunni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari ayrim holatlarda monolingval guruhdan pastroq bo‘lgani aniqlangan. Bu natija CLILning o‘zidan voz kechish zarurligini emas, balki tilni qo‘llab-quvvatlash, vizual vositalar, bosqichma-bosqich tushuntirish va faol o‘quv metodlaridan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi.

Demak, fizika fanini CLIL asosida o‘qitishda asosiy masala faqat ingliz tilidan foydalanish emas, balki fizik mazmunni o‘quvchi uchun tushunarli, faol va bosqichma-bosqich o‘zlashtirish imkonini beradigan metodik tizimni yaratishdan iborat. Aynan shu nuqtada CLIL yondashuvini 5E modeli bilan integratsiyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi. 5E modelining o‘quvchini jalb etish, izlanishga undash, tushuntirish, bilimni yangi vaziyatlarda qo‘llash va baholashga asoslangan bosqichlari CLILdagi content + language integratsiyasini tizimli tashkil etish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Zamonaviy fizika ta’limida o‘quvchilarga fizik qonun va formulalarni tayyor holda yetkazishdan ko‘ra, ularning mazkur bilimlarni kuzatish, tajriba, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish orqali egallashiga imkon yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Fizika fanining eksperimental va amaliy xarakteri o‘quvchini faol bilish jarayoniga jalb etishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, konstruktivistik ta’limga asoslangan 5E modeli fizika darslarini o‘quvchi faoliyatiga yo‘naltirilgan holda tashkil etishning samarali metodik vositalaridan biri sifatida qaralishi mumkin. 5E modeli beshta o‘zaro bog‘liq bosqichdan — Engage (qiziqtirish), Explore (tadqiq qilish), Explain (tushuntirish), Elaborate (bilimni kengaytirish va qo‘llash) hamda Evaluate

(baholash)dan tashkil topadi. Mazkur bosqichlar o‘quvchining dastlabki tasavvurlarini aniqlashdan boshlab, yangi bilimni mustaqil faoliyat orqali shakllantirish, ilmiy tushunchalarni asoslash, ularni yangi vaziyatlarda qo‘llash va yakuniy natijalarni baholashgacha bo‘lgan izchil pedagogik jarayonni ta'minlaydi. Fizika fanini o‘qitishda 5E modelining eng muhim jihatlaridan biri — o‘quvchining mavjud bilimlari va yangi ilmiy bilimlar o‘rtasida bog‘lanish yaratishidir. Masalan, “Nyuton qonunlari”, “Elektr toki”, “Bosim”, “Issiqlik hodisalari” kabi mavzularni o‘rganishda o‘quvchilar kundalik hayotdan ma'lum tasavvurlarga ega bo‘ladilar. Biroq ularning dastlabki tasavvurlari har doim ham ilmiy jihatdan to‘g‘ri bo‘lmasligi mumkin. 5E modelining Engage bosqichida ana shu dastlabki tasavvurlar savol, muammoli vaziyat, tajriba yoki vizual material yordamida aniqlanadi. Natijada o‘qituvchi o‘quvchilarning mavjud bilim darajasini hisobga olgan holda keyingi ta’lim jarayonini tashkil etish imkoniga ega bo‘ladi. Explore bosqichida esa o‘quvchilar fizik hodisani bevosita kuzatish, tajriba o‘tkazish, o‘lchash, ma’lumotlarni qayd etish va taqqoslash orqali o‘rganadilar. Masalan, elektr zanjirida kuchlanish va tok kuchi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishda o‘quvchilar turli kuchlanish qiymatlarida tok kuchini o‘lchab, olingan natijalarni jadval va grafik shaklida ifodalashlari mumkin. Bunday faoliyat o‘quvchini tayyor formulani yodlashdan ko‘ra, fizik bog‘lanishni dalil va tajriba asosida anglashga olib keladi. Shu jihatdan 5E modeli fizika fanining eksperimental tabiatiga mos keladi. Chunki fizik bilim ko‘pincha “hodisani kuzatish → tajriba o‘tkazish → natijani tahlil qilish → qonuniyatni aniqlash → nazariy tushuntirish” ketma-ketligi orqali shakllanadi. 5E modelining bosqichlari ham mazkur jarayon bilan muayyan darajada uyg‘unlashadi. Explain bosqichida o‘quvchilar o‘z kuzatuvlari va tajriba natijalarini ilmiy tushunchalar bilan bog‘lay boshlaydilar. Bu bosqichda o‘qituvchi yangi terminlar, qonunlar, formulalar va nazariy tushunchalarni tizimlashtiradi. Muhim jihati shundaki, tushuntirish faqat o‘qituvchi tomonidan beriladigan ma’ruza shaklida emas, balki o‘quvchilarning oldingi faoliyati va kuzatuvlari asosida tashkil etiladi. Natijada yangi bilim o‘quvchi uchun abstrakt ma’lumot emas,

balki o‘z tajribasi bilan bog‘langan ilmiy xulosa sifatida shakllanadi. Elaborate bosqichi o‘zlashtirilgan bilimni yangi va murakkabroq vaziyatlarda qo‘llashga qaratiladi. Fizika darsida bu bosqichni real hayotiy masalalar, muammoli topshiriqlar, modellashtirish, loyiha ishlari yoki raqamli simulyatsiyalar orqali tashkil etish mumkin. Masalan, “Mexanik harakat” mavzusida o‘quvchi avval tajriba orqali tezlik tushunchasini o‘zlashtirgan bo‘lsa, keyinchalik ushbu bilimdan transport vositalarining harakatini tahlil qilish, masofa-vaqt grafigini izohlash yoki real hayotdagi harakat xavfsizligi bilan bog‘liq masalalarni yechishda foydalanishi mumkin. Evaluate bosqichida esa o‘quvchining bilim, ko‘nikma va kompetensiyalari baholanadi. Bunda faqat yakuniy javobni tekshirish emas, balki o‘quvchining muammoni qanday tahlil qilgani, dalillarni qanday qo‘llagani, fizik tushunchani qanday izohlagani va o‘z xulosasini qanchalik asoslay olgani ham hisobga olinadi. Shu sababli 5E modeli formativ baholash uchun ham qulay metodik imkoniyat yaratadi. 5E modelining fizika ta’limidagi amaliy ahamiyati 2020-yilda Thuấn va Phúc tomonidan olib borilgan tadqiqotda ham ko‘rsatilgan. Tadqiqotchilar 10-sinf fizikasining “Gas” bobini o‘qitishda 5E instructional design modelini qo‘llashga asoslangan dars jarayonini ishlab chiqqanlar. Tadqiqotda model o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini tashkil etishda qo‘llanilgan [3].

Bundan tashqari, 5E modelining fizika ta’limidagi imkoniyatlarini CLIL yondashuvi bilan bog‘lash ham katta metodik ahamiyatga ega. Chunki Explore bosqichida o‘quvchi fizik hodisani kuzatish va tajriba orqali o‘rganar ekan, shu jarayonda ingliz tilidagi observe, measure, compare, predict, explain kabi ilmiy faoliyat fe’llaridan foydalanishi mumkin. Explain bosqichida esa fizik terminologiyani qo‘llagan holda hodisani izohlash, Elaborate bosqichida esa o‘zlashtirilgan fizik bilimni yangi vaziyatda ingliz tilida qo‘llash imkoniyati paydo bo‘ladi. Shu sababli 5E modelining bosqichlari CLILning content + language tamoyilini amaliy jihatdan amalga oshirish uchun qulay didaktik struktura yaratadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Umuman olganda, 5E modeli fizika ta'limida o'quvchining passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylanishini ta'minlash, fizik hodisalarni tajriba va dalillar asosida tushuntirish, bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llash va o'quv natijalarini kompleks baholash imkonini beradi. Aynan shu xususiyatlar uni CLIL yondashuvi bilan integratsiyalash uchun metodik jihatdan istiqbolli modelga aylantiradi.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning nafaqat fan bo'yicha bilimlarini, balki ularning kommunikativ, tadqiqotchilik va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, fizika kabi aniq va eksperimental fanlarni xorijiy til bilan integratsiyalashgan holda o'qitish o'quvchilarning fizik bilimlarini xalqaro ilmiy terminologiya bilan bog'lash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, Content and Language Integrated Learning (CLIL) yondashuvini 5E modeli bilan integratsiyalash fizika ta'limining mazmuniy va metodik imkoniyatlarini kengaytiruvchi istiqbolli yondashuvlardan biri hisoblanadi. CLIL yondashuvining asosiy xususiyati fan mazmuni va tilni bir-biridan ajratib emas, balki o'zaro bog'liq holda o'qitishdan iborat. Bunda xorijiy til darsning alohida obyekti bo'lib qolmay, o'quvchi tomonidan fizik mazmunni anglash, tajriba natijalarini ifodalash, savollarga javob berish va ilmiy xulosalarni shakllantirish vositasi sifatida qo'llanadi. Fizika fanida bunday yondashuv ayniqsa muhim, chunki ushbu fan xalqaro miqyosda umumiy ilmiy terminologiyaga ega bo'lib, ko'plab tushunchalar ingliz tilidagi ilmiy adabiyotlarda bir xil yoki yaqin shaklda qo'llanadi. CLILning fizika ta'limidagi imkoniyatlari zamonaviy tadqiqotlarda ham o'rganilmoqda. 5E modeli esa CLILning mazmun va tilni integratsiyalash tamoyilini aniq dars bosqichlari orqali amalga oshirish imkonini beradi. Ya'ni CLIL "nimani birgalikda o'rgatish kerak?" degan savolga javob bersa, 5E modeli "bu jarayonni qanday ketma-ketlikda tashkil etish kerak?" degan metodik savolga javob beradi. Shu sababli ushbu ikki yondashuvni integratsiyalash bir-birini to'ldiruvchi metodik tizimni shakllantirishi mumkin.

5E modelining Engage bosqichida o‘quvchilarning avvalgi bilimlari faollashtiriladi va yangi mavzuga qiziqish uyg‘otiladi. CLIL bilan integratsiyalashganda ushbu bosqichda ingliz tilidagi qisqa savollar, rasmlar, videolar, fizik terminlar yoki kundalik hayotga oid vaziyatlardan foydalanish mumkin.

Masalan, “Pressure” mavzusini boshlashda o‘qituvchi: Why does a sharp knife cut better than a blunt knife? savolini berishi mumkin. O‘quvchi savolga to‘liq inglizcha javob bera olmasa ham, pressure, force, area kabi asosiy fizik terminlarni ishlatishga harakat qiladi. Shu tariqa til o‘quvchiga qo‘shimcha yuklama sifatida emas, balki fizik muammoni anglash vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarning ingliz tilidagi bilim darajasini ham hisobga olishi kerak. Murakkab grammatik tuzilmalardan ko‘ra, qisqa va mazmuniy jihatdan aniq savollardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Explore bosqichida fizik tadqiqot va til integratsiyasi. Explore bosqichi CLIL + 5E modelining eng faol bosqichlaridan biridir. Ushbu bosqichda o‘quvchilar tajriba, kuzatish, o‘lchash, taqqoslash va ma’lumotlarni qayd etish orqali fizik hodisani mustaqil o‘rganadilar. Masalan, “Ohm’s Law” mavzusida o‘quvchilarga quyidagi inglizcha ko‘rsatmalar berilishi mumkin:

Measure the voltage, measure the current, record the results, compare the values, find the relationship between voltage and current.

Bu topshiriqlarda o‘quvchi bir vaqtning o‘zida fizik faoliyatni ham, ilmiy ingliz tilini ham o‘zlashtiradi.

Bu yerda muhim jihat shundaki, o‘quvchidan ingliz tilida mukammal gapirish talab qilinmaydi. Asosiy e’tibor fizik hodisani to‘g‘ri kuzatish, o‘lchash va tushuntirishga qaratiladi. Til esa ushbu faoliyatni amalga oshirish vositasi sifatida ishlatiladi.

Explain bosqichida ilmiy kommunikatsiyani rivojlantirish. Explain bosqichida o‘quvchilar o‘z tajriba va kuzatuvlari asosida fizik hodisani izohlashga harakat qiladilar. Bu bosqich CLIL uchun ayniqsa muhim, chunki o‘quvchi fizik bilimni ilmiy til orqali

ifodalashga o‘rganadi. Masalan, “Newton’s Second Law” mavzusida o‘quvchi quyidagi gap qolipidan foydalanishi mumkin: Force is equal to mass multiplied by acceleration. Yoki: If the force increases, the acceleration increases. Bunday gap qoliplari o‘quvchiga fizik mazmunni ingliz tilida ifodalashda yordam beradi. O‘qituvchi esa o‘quvchilarning til xatolarini to‘liq markazga qo‘ymasdan, avvalo fizik mazmunning to‘g‘riligiga e’tibor qaratishi lozim. Shunday qilib, Explain bosqichi fizik tushuncha va ilmiy kommunikatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlaydi.

Elaborate bosqichida bilimni yangi vaziyatga ko‘chirish. Elaborate bosqichi o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo‘llashiga imkon beradi. CLIL yondashuvi bilan birgalikda ushbu bosqichda hayotiy muammolar, muhandislik vazifalari, mini-loyihalar va muammoli masalalardan foydalanish mumkin. Masalan, “Energy” mavzusida o‘quvchilarga: How can we reduce energy consumption at school? savoli berilishi mumkin. O‘quvchilar guruhlarda maktabdagi elektr energiyasidan foydalanish holatini tahlil qilib, energiyani tejash bo‘yicha takliflar ishlab chiqadilar. Keyinchalik o‘z takliflarini sodda ingliz tilida taqdim etishlari mumkin. Bunday faoliyat fizika bilimlarini real hayot bilan bog‘lash bilan birga, o‘quvchilarda muammoni hal qilish, hamkorlik qilish, fikrni asoslash va ilmiy kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Evaluate bosqichida ikki komponentli baholash. CLIL + 5E modelining Evaluate bosqichida o‘quvchilarning fizik bilimlari bilan bir qatorda ilmiy kommunikatsiyasi ham baholanishi mumkin. Biroq bunda til xatosi fizik bilimni baholashdan ustun qo‘yilmasligi kerak. Masalan, quyidagi mezondan foydalanish mumkin:

Baholash mezoni	**Ulushi**
Fizik tushunchani to‘g‘ri anglash	40%
Fizik qonun va formulalarni to‘g‘ri qo‘llash	30%
Ingliz tilidagi fizik terminlardan foydalanish	15%

Fizik fikrni ilmiy va tushunarli ifodalash	15%
Jami	**100%**

Bunday baholash tizimi CLILning ikki tomonlama maqsadini — fan mazmuni va tilni rivojlantirishni — hisobga olish imkonini beradi. CLIL + 5E integratsiyasining asosiy metodik afzalliklari CLIL va 5E modelining integratsiyasi natijasida fizika darsida bir nechta muhim pedagogik imkoniyatlar yuzaga keladi. Birinchidan, o‘quvchilarning fizik bilimlarni faol faoliyat orqali egallashi ta’minlanadi. Ikkinchidan, ingliz tili fizik mazmunni o‘rganishning tabiiy vositasiga aylanadi. Uchinchidan, o‘quvchilarning fizik terminologiyani kontekstda o‘zlashtirish imkoniyati ortadi. To‘rtinchidan, tajriba va muammoli topshiriqlar orqali o‘quvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalari rivojlanadi. Beshinchidan, o‘quvchilarning fizik hodisalarni ilmiy jihatdan izohlash va o‘z fikrlarini asoslash ko‘nikmalari shakllanadi. Oltinchidan, fizik bilimlar real hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lanadi. Yettinchidan, o‘quvchilarning xalqaro ilmiy terminologiyaga moslashuvi kuchayadi.



CLIL va 5E modelini birlashtirishning nazariy jihatdan asoslanganligi shundaki, ikkala yondashuv ham o‘quvchining faol ishtirokiga tayanadi. CLIL fan mazmunini til bilan integratsiyalash orqali o‘quvchiga mazmunni kommunikativ faoliyat orqali o‘zlashtirish imkonini bersa, 5E modeli bilimni faol tajriba, tushuntirish va qo‘llash jarayonlari orqali shakllantiradi. Roth, Wessels va Kuhn tomonidan ishlab chiqilgan Content and Language Integrated Scientific Modelling yondashuvida ham fan mazmuni va tilni integratsiyalashgan holda ilmiy modellashtirish jarayonini tashkil etish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot CLIL muhitida ilmiy modellashtirishni fan mazmuni va til rivojini birgalikda qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida ko‘rsatadi [4].

Demak, CLIL va 5E modelini integratsiyalash fizika ta’limida fan mazmuni, xorijiy til, eksperimental faoliyat va ilmiy kommunikatsiyani yagona pedagogik jarayonga birlashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, Explore va Explain bosqichlari fizik tajriba va ilmiy tushuntirishni, Elaborate bosqichi esa fizik bilimni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llashni ta’minlaydi. Shu sababli CLIL + 5E modeli umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizikani o‘qitish metodikasini takomillashtirish uchun istiqbolli yondashuv sifatida qaralishi mumkin.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika fanini CLIL yondashuvi asosida o‘qitishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, fizik bilim darajasi va xorijiy tilni egallash darajasini hisobga olish muhimdir. CLIL metodikasida asosiy maqsad fizik mazmunni ingliz tilida murakkab shaklda bayon qilish emas, balki fizik bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida ingliz tilidan tabiiy kommunikativ vosita sifatida foydalanishdan iborat. Shu sababli CLIL + 5E modeli asosida tashkil etilgan darslarda fizik mazmun, tajriba, muammoli topshiriqlar va til faoliyati o‘zaro uyg‘unlashtirilishi lozim.

Mazkur yondashuvni amaliyotga joriy etishda o‘qituvchi darsning har bir bosqichida Content — fizik mazmun, Communication — til orqali muloqot, Cognition — fikrlash, Culture — ilmiy va madaniy kontekst komponentlarini hisobga olishi mumkin.

Ayniqsa, fizika darslarida Content, Communication va Cognition komponentlarining o‘zaro bog‘liqligi muhim ahamiyatga ega.

1. Engage — qiziqtirish bosqichini tashkil etish. Darsning birinchi bosqichida o‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish va avvalgi bilimlarini faollashtirish maqsadga muvofiq. Masalan, “Bosim” (Pressure) mavzusini o‘rganishda o‘qituvchi oddiy hayotiy vaziyatdan foydalanishi mumkin: Why can a sharp knife cut more easily than a blunt knife? O‘quvchilardan ushbu savolga o‘z fikrlarini bildirish so‘raladi. Javob berishda ular to‘liq inglizcha gaplardan foydalanishga qiynalsa, force, pressure, area, sharp, surface kabi asosiy terminlardan foydalanishlari mumkin. Shu tariqa o‘quvchining e’tibori fizik muammoga qaratiladi, bir vaqtning o‘zida yangi mavzuga oid inglizcha terminlar ham faollashtiriladi. Bu bosqichda quyidagi vositalardan foydalanish mumkin: fizik hodisani aks ettiruvchi rasm, qisqa videolavha, ingliz tilidagi muammoli savol, real predmet yoki tajriba, qisqa interaktiv test, kundalik hayotdan olingan vaziyat. Muhimi, til o‘quvchini fizik mazmundan chalg‘itmasligi kerak. Aksincha, til fizik muammoni tushunishga yordam beruvchi vosita bo‘lishi lozim.

2. Explore — tadqiq qilish bosqichi CLIL + 5E modelining amaliy jihatdan eng muhim bosqichlaridan biri Explore hisoblanadi. Bu bosqichda o‘quvchilar tayyor bilimni qabul qilmaydi, balki fizik hodisani kuzatish, tajriba o‘tkazish, o‘lchash va natijalarni tahlil qilish orqali o‘zlari izlanadilar.

Masalan, “Ohm’s Law” mavzusida o‘quvchilar elektr zanjirini yig‘ib, kuchlanish va tok kuchini turli qiymatlarda o‘lchashlari mumkin O‘qituvchi topshiriqni quyidagicha berishi mumkin:

Build the circuit, measure the voltage, measure the current, record the results, compare the values.

O‘quvchilar natijalarni quyidagi jadvalga kiritadilar:

Voltage (V)	Current (A)	Resistance (Ω)

2	0.2	10
4	0.4	10
6	0.6	10

Keyin o‘quvchilar olingan natijalar asosida kuchlanish va tok kuchi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga harakat qiladilar. Bu jarayonda o‘quvchilar bir vaqtning o‘zida: fizika: kuchlanish, tok kuchi, qarshilik; til: measure, record, compare, increase, decrease, relationship; kognitiv faoliyat: kuzatish, taqqoslash, xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

3. Explain — tushuntirish bosqichi Explore bosqichida olingan natijalar keyingi bosqichda ilmiy tushunchalar bilan izohlanadi. O‘quvchilar o‘z kuzatuvlarini fizik qonun va formulalar bilan bog‘laydilar.

Masalan, Ohm qonuni uchun: V = IR formulasi kiritiladi.

O‘quvchilar quyidagi sodda gaplardan foydalanib, o‘z xulosalarini ifodalashlari mumkin:

Voltage is equal to current multiplied by resistance. When voltage increases, current also increases if resistance is constant.

Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarga tayyor sentence starters berishi mumkin:

The experiment shows that…, We can see that…, The value increases when…, The relationship between … and … is…, According to Ohm’s law…

Bu usul fizik mazmunni ingliz tilida ifodalashni o‘quvchilar uchun yengillashtiradi.

4. Elaborate — bilimlarni kengaytirish va qo‘llash

Ushbu bosqichda o‘quvchilar o‘zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo‘llaydilar.

Masalan, “Energy efficiency” mavzusida o‘quvchilarga quyidagi muammo berilishi mumkin:

How can we reduce electricity consumption in our school?

O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, maktabda elektr energiyasidan foydalanish holatini muhokama qiladilar. Har bir guruh: muammoni aniqlaydi; energiya sarfi sabablarini tahlil qiladi; fizik bilimlardan foydalanadi; yechim taklif qiladi; taklifini ingliz tilida qisqa taqdimot shaklida himoya qiladi. Masalan: We should use LED lamps because they consume less electrical energy. Bu topshiriq CLIL + 5E modelining eng muhim jihatlaridan birini — fizik bilimni real hayotdagi muammoga tatbiq etishni ta'minlaydi.

5. Evaluate — baholash bosqichi. Yakuniy bosqichda o‘quvchilarning fizik bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va ilmiy kommunikatsiyasi baholanadi. Baholashni faqat test orqali emas, balki bir nechta mezon asosida tashkil etish maqsadga muvofiq:

Mezon	**Ball**
Fizik tushunchani to‘g‘ri tushuntirish	3
Formula va qonunlardan to‘g‘ri foydalanish	3
Tajiriba natijalarini tahlil qilish	2
Inglizcha fizik terminlardan foydalanish	1
Xulosani asoslash	1
Jami	10

Bunday baholashda asosiy ulush fizik mazmunga beriladi. Chunki CLIL darsida ingliz tilidagi grammatik xatolar sababli o‘quvchining fizik bilimini past baholash metodik jihatdan to‘g‘ri emas.

CLIL + 5E asosida namunaviy fizika darsi

Mavzu: Om qonuni — Ohm’s Law

Sinf: 8 - sinf

Dars davomiyligi: 45 daqiqa

Asosiy yondashuv: CLIL + 5E

Asosiy til: ingliz tili

Fizik mazmun: kuchlanish, tok kuchi, qarshilik va Om qonuni.

5E bosqichi	O‘qituvchi faoliyati	O‘quvchi faoliyati	CLIL komponenti
Engage	Muammoli savol beradi	Taxminlarini bildiradi	Terminlar
Explore	Tajribani tashkil qiladi	Zanjir yig‘adi, o‘lchaydi	Ilmiy ingliz tili
Explain	Om qonunini tushuntiradi	Natijalarni izohlaydi	Content + communication
Elaborate	Yangi masala beradi	Bilimni yangi vaziyatda qo‘llaydi	Cognition
Evaluate	Test va mezonlar asosida baholaydi	Bilim va xulosalarini namoyish etadi	Content + Language

Bunday dars tuzilmasida o‘quvchi oddiy tinglovchi emas, balki tajriba o‘tkazuvchi, ma'lumotlarni tahlil qiluvchi va ilmiy xulosa chiqaruvchi faol subyekt sifatida ishtirok etadi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish. CLIL + 5E modelining samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan ham foydalanish mumkin. Ayniqsa, real laboratoriya sharoitida bajarish qiyin bo‘lgan tajribalarni virtual muhitda modellashtirish imkoniyati mavjud. Masalan, PhET Interactive Simulations yordamida elektr zanjirlari, kuchlar, harakat, energiya va boshqa fizik jarayonlarni modellashtirish mumkin. Bunda Explore bosqichida o‘quvchilar virtual tajriba o'tkazib, natijalarni ingliz tilidagi jadvalga kiritishlari mumkin: Change the voltage → Observe the current → Record the result → Explain the relationship. Bu usul bir vaqtning o‘zida raqamli kompetensiya + fizik kompetensiya + kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish imkonini beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1. Kishimoto H, et al. Evaluation of gastrectomy combined with the resection of other organs in the treatment of gastric cancer. Jpn J Surg. 1979;9(3):215-222.
2. Saito H, et al. Combined resection of invaded organs in patients with T4 gastric carcinoma. Gastric Cancer. 2001;4(4):206-211.
3. Iriyama K, et al. Results of combined resection of invaded organs in patients with potentially curable, advanced gastric cancer. Eur J Surg. 1994;160(1):27-30.
4. Котив Б.Н., Дзидзава И.И., Слободяник А.В. и др. Результаты лечения синхронных метастазов в печени рака желудка и толстой кишки. Материалы Всероссийской научно-практической конференции.
5. Application of combined multiple organ resection in the treatment of locally advanced gastric cancer. Medicine. 2025;104(35):e44020.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

KOORDINATSION QOBILIYATNING RIVOJLANISHIDAGI BUZILISH TARIXIY, DIAGNOSTIK ASOSLAR

Raximov Kuvondiq Azad o'g'li
Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institute mustaqil izlanuvchisi
raximovquvondiq44@gmail.com

Annotatsiya. *Koordinatsion qobiliyatning rivojlanishidagi buzilish (DCD) maktab yoshidagi bolalar orasida keng uchraydigan neyrorivojlanish buzilishi bo'lib, bolaning o'qish, o'z-o'ziga xizmat qilish, o'yin va jismoniy faoliyatdagi muvaffaqiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Turli mamlakatlarda tarqalish ko'rsatkichlari va diagnostik yondashuvlar bir-biridan sezilarli farq qiladi. DCD ning tarixiy shakllanishi, terminologiyasi, diagnostik mezonlari, baholash usullari va tarqalishi bo'yicha xalqaro ma'lumotlarni tizimlashtirish. DSM-5-TR, xalqaro klinik tavsiyalar va epidemiologik tadqiqotlar asosida tavsifiy (narrativ) adabiyotlar sharhi o'tkazildi; ma'lumotlar mavzuviy tahlil va qiyosiy taqqoslash usullari bilan qayta ishlandi. DCD atamasi 1987-yilda DSM-III-R ga kiritilgan va 1994-yilda London (Ontario) konsensus yig'ilishida xalqaro miqyosda qabul qilingan. Maktab yoshidagi bolalar orasida tarqalish darajasi taxminan 5–6% deb baholanadi, biroq tadqiqot metodikasiga qarab ko'rsatkichlar 1,4% dan 19–20% gacha o'zgaradi. Diagnostikada DSM-5-TR mezonlari va MABC-2 test batareyasi keng qo'llaniladi. DCD ni erta aniqlash uchun DSM-5-TR ning to'rtta mezonini standartlashtirilgan baholash vositalari bilan birgalikda qo'llash zarur; tarqalish ko'rsatkichlarini solishtirishda tadqiqot metodikasidagi farqlarni hisobga olish lozim.*

Kalit so'zlar: *koordinatsion qobiliyatning rivojlanishidagi buzilish, DCD, motorik ko'nikmalar, diagnostika, MABC-2, DSM-5-TR, tarqalish, bolalar, jismoniy tarbiya.*

IMPAIRMENT IN THE DEVELOPMENT OF COORDINATION ABILITIES: HISTORICAL AND DIAGNOSTIC FOUNDATIONS.

Abstract. *Developmental coordination disorder (DCD) is a common neurodevelopmental disorder in school-age children that affects learning, self-care, play and physical activity. Prevalence estimates and diagnostic approaches differ substantially between countries. To systematize international data on the historical development, terminology, diagnostic criteria, assessment and prevalence of DCD. A narrative literature review was conducted using DSM-5-TR, international clinical recommendations and epidemiological studies; the data were analysed thematically and compared across countries. The term DCD was introduced in DSM-III-R in 1987 and endorsed internationally at the London (Ontario) consensus meeting in 1994. Prevalence in school-age children is estimated at about 5–6%, although reported figures range from 1.4% to nearly 20% depending on methodology. The DSM-5-TR criteria and the Movement Assessment Battery for Children-2 (MABC-2) are widely used for diagnosis and assessment. Early identification of DCD requires the joint application of all four DSM-5-TR criteria with standardized*

assessment tools, and differences in study methodology should be considered when comparing prevalence rates.

Keywords: *developmental coordination disorder, DCD, motor skills, diagnosis, MABC-2, DSM-5-TR, prevalence, children, physical education.*

ИСТОРИЧЕСКИЕ И ДИАГНОСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАССТРОЙСТВА КООРДИНАЦИИ ДВИЖЕНИЙ

Аннотация. *Расстройство координации движений (DCD) — распространенное нарушение нейропсихического развития у детей школьного возраста, негативно влияющее на успеваемость, навыки самообслуживания, игровую и двигательную активность. Показатели распространенности и подходы к диагностике существенно различаются в разных странах. Систематизировать международные данные, касающиеся истории изучения, терминологии, диагностических критериев, методов оценки и распространенности DCD. Проведен описательный (нарративный) обзор литературы на основе классификации DSM-5-TR, международных клинических рекомендаций и эпидемиологических исследований; обработка данных осуществлялась с применением методов тематического и сравнительного анализа. Термин DCD был введен в классификацию DSM-III-R в 1987 году и принят на международном уровне по итогам согласительного совещания в Лондоне (провинция Онтарио) в 1994 году. Распространенность данного расстройства среди детей школьного возраста оценивается примерно в 5–6%, хотя показатели варьируются от 1,4% до 19–20% в зависимости от методологии исследования. Для диагностики широко применяются критерии DSM-5-TR и батарея тестов MABC-2. Для раннего выявления DCD необходимо использовать четыре критерия DSM-5-TR в сочетании со стандартизированными инструментами оценки; при сравнении показателей распространенности следует учитывать различия в методологии исследований.*

Ключевые слова: *расстройство координации движений, DCD, двигательные навыки, диагностика, MABC-2, DSM-5-TR, распространенность, дети, физическое воспитание.*

KIRISH

Koordinatsion qobiliyatning rivojlanishidagi buzilish (DCD, Developmental Coordination Disorder) — motorik ko'nikmalarni egallash va muvofiqlashtirish jarayonidagi qiyinchiliklar bilan namoyon bo'ladigan neyrorivojlanish buzilishidir [1]. Bunday bolalarda yozish, kiyim tugmalarini qadash, to'p bilan o'ynash, sport mashg'ulotlarida qatnashish kabi kundalik harakatlarni bajarish yoshiga nisbatan

sezilarli darajada qiyin kechadi. DCD intellektual nuqson, ko'rish buzilishi yoki harakatga ta'sir qiluvchi nevrologik kasalliklar bilan izohlanmaydi, balki motorik ko'nikmalar rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar bilan belgilanadi [1].

DCD ko'pincha bola maktabga borgach, mayda va yirik motorik ko'nikmalarni talab qiladigan faoliyatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu holat bolaning akademik natijalariga, ijtimoiy ishtirokiga va o'ziga bo'lgan ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, DCD sog'liqni saqlash mutaxassislari tomonidan yetarlicha aniqlanmasligi qayd etiladi [2].

Ilmiy adabiyotlarda bu holat uchun uzoq vaqt turlicha atamalar ishlatilgan, tarqalish ko'rsatkichlari esa turli mamlakatlarda bir necha barobar farq qiladi. Bu buzilishning epidemiologiyasini baholashni, diagnostik yondashuvlarni solishtirishni va aralashuv (interventsiya) dasturlarini rejalashtirishni murakkablashtiradi. Shu sababli tarixiy, diagnostik va epidemiologik ma'lumotlarni yagona tizimda umumlashtirish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

Tadqiqotning maqsadi — DCD ning tarixiy shakllanishi, terminologiyasi, diagnostik mezonlari, baholash usullari, tarqalishi va aralashuv yondashuvlari bo'yicha xalqaro ma'lumotlarni tizimlashtirish va qiyosiy tahlil qilish. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: (1) DCD tushunchasining tarixiy rivojlanishini yoritish; (2) zamonaviy diagnostik mezonlar va baholash vositalarini tavsiflash; (3) turli mamlakatlardagi tarqalish ko'rsatkichlarini taqqoslash va farqlar sabablarini aniqlash; (4) etiologiya va aralashuv yondashuvlariga oid asosiy ma'lumotlarni umumlashtirish.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot tavsifiy (narrativ) adabiyotlar sharhi shaklida bajarildi. Tahlil obyekti — DCD ning tarixiy rivojlanishi, terminologiyasi, diagnostikasi, epidemiologiyasi hamda aralashuv yondashuvlariga oid ilmiy va me'yoriy manbalar. Tahlilga to'rt guruh manba kiritildi: diagnostik standartlar (DSM-5-TR, ICD-10) [1, 7]; xalqaro klinik tavsiyalar va konsensus hujjatlari [2–4]; tarixiy-nazariy manbalar [5, 6] hamda baholash vositasi

qo'llanmasi [8]; tarqalish ko'rsatkichlari keltirilgan epidemiologik tadqiqotlar va sharhlar [9–12].

Ma'lumotlarni qayta ishlash uch bosqichda amalga oshirildi: (1) manbalardan tarixiy, terminologik, diagnostik, epidemiologik, etiologik va terapevtik ma'lumotlar ajratib olindi; (2) ma'lumotlar mavzuviy tahlil asosida guruhlandi; (3) turli mamlakatlardagi tarqalish ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilinib, farqlarning metodologik sabablari (baholash vositalari, tanlab olish mezonlari, bolalar yoshi) aniqlandi. Tadqiqotda inson ishtirok etmagani sababli etik ekspertiza talab etilmadi.

NATIJALAR

3.1. Tarixiy shakllanishi

Harakat koordinatsiyasi sust bolalar haqidagi tavsiflar XX asrning birinchi yarmidan ma'lum. 1937-yilda amerikalik shifokor Samuel Orton o'qish va yozishda qiyinchiliklarga duch keladigan bolalar orasida harakat ko'nikmalaridagi muammolarni ham qayd etgan [5]. Orton motorik muammolarni rivojlanish dispraksiyasi sifatida ko'rgan va ularni o'rganish jarayonidagi doimiy qiyinchiliklar bilan bog'lagan.

Keyingi o'n yilliklarda bunday holatlar «noqulay bola sindromi» (clumsy child syndrome), rivojlanish dispraksiyasi, minimal miya disfunksiyasi, perseptiv-motor disfunksiya kabi turlicha nomlar bilan yuritildi; 1975-yilda «clumsy child syndrome» atamasi klinik adabiyotda mustahkamlandi [5, 6]. Terminologik xilma-xillik tarqalish ko'rsatkichlarini baholash va diagnostik mezonlarni belgilashni qiyinlashtirdi [5].

Muhim burilish DCD atamasining rasmiy tasniflarga kiritilishi bo'ldi: u birinchi marta 1987-yilda DSM-III-R da qo'llangan, 1994-yilda DSM-IV da saqlangan va shu yili London (Ontario) da o'tkazilgan xalqaro konsensus yig'ilishida tadqiqotchilar hamjamiyati tomonidan qabul qilingan [5]. Undan oldin, 1992-yilda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ICD-10 da bu holatni «harakat funksiyasining maxsus rivojlanish buzilishi» deb atagan [7]. DCD tushunchasi shakllanishining asosiy bosqichlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. DCD tushunchasi shakllanishining asosiy bosqichlari

Yil	Voqea	Ahamiyati
1937	S. Orton harakatlarda qo'polligi bo'lgan bolalarni tasvirlaydi [5]	Muammoning dastlabki ilmiy tavsifi
1975	«Clumsy child syndrome» atamasi klinik adabiyotda mustahkamlanadi [5, 6]	Klinik tavsifning shakllanishi
1987	DCD atamasi DSM-III-R ga kiritiladi [5]	Rasmiy diagnostik toifaning paydo bo'lishi
1992	ICD-10 da «harakat funksiyasining maxsus rivojlanish buzilishi» toifasi [7]	Xalqaro klassifikatsiyada tan olinishi
1994	DSM-IV; London (Ontario) konsensus yig'ilishi — DCD atamasi qabul qilinadi [5]	Terminologik birlikka erishilishi
2006	Leeds konsensus bayonoti [4]	1994-yilgi yondashuvlarning qayta ko'rib chiqilishi
2012	EACD tavsiyalari [3]	Aniqlash va aralashuv bo'yicha yevropa tavsiyalari
2013, 2022	DSM-5 va DSM-5-TR: DCD neyrorivojlanish buzilishlari ichida harakat buzilishlari toifasida [1]	Zamonaviy diagnostik standart
2019	Xalqaro klinik amaliyot tavsiyalari [2]	Aniqlash, baholash va aralashuv bo'yicha yangilangan tavsiyalar

Terminologiya va diagnostik mezonlar

DSM-5-TR (2022) da DCD neyrorivojlanish buzilishlari orasida harakat buzilishlari toifasiga kiritilgan [1]. Diagnoz to'rtta mezon birgalikda bajarilganda qo'yiladi (2-jadval). DCD ni boshqa neyrorivojlanish buzilishlaridan farqlashda D mezoni muhim ahamiyatga ega: motorik qiyinchiliklar intellektual nuqson, ko'rish buzilishi yoki harakatga ta'sir qiluvchi nevrologik kasallik bilan izohlanmasligi lozim [1]. Xalqaro tavsiyalarda diagnoz uchun to'rtala mezonni baholash talab etiladi [2, 3].

2-jadval. DCD ning DSM-5-TR bo'yicha diagnostik mezonlari [1]

Mezon	Mazmuni
A	Koordinatsiyalashgan motorik ko'nikmalarni egallash va bajarish yoshga va o'rganish imkoniyatiga nisbatan sezilarli darajada past; qiyinchiliklar qo'pollik, sekinlik va noaniqlikda namoyon bo'ladi (narsalarni tushirib yuborish, yozish, velosiped haydash, sport bilan shug'ullanish va h.k.)
B	Motorik ko'nikmalardagi kamchilik yoshga mos kundalik faoliyatga, maktab unumdorligiga, o'yin va bo'sh vaqtga sezilarli va doimiy ravishda xalaqit beradi
C	Alomatlar rivojlanishning erta davrida boshlanadi
D	Motorik kamchiliklarni intellektual nuqson, ko'rish buzilishi yoki harakatga ta'sir qiluvchi nevrologik kasallik (masalan, serebral falaj) bilan yaxshiroq izohlab bo'lmaydi

Baholash usullari

Movement Assessment Battery for Children-2 (MABC-2) DCD ning A mezonini — motorik ko'nikmalar darajasini — baholashda eng ko'p qo'llaniladigan standartlashtirilgan test batareyalaridan biridir [8]. U qo'l epchilligi (manual dexterity), nishonga olish va tutish (aiming and catching) hamda muvozanat (balance) ko'rsatkichlarini o'lchaydi [8]. Xalqaro tavsiyalarda MABC-2 motorik ko'nikmalarni

baholash uchun standartlashtirilgan vositalar qatorida ko'rsatiladi [2, 3]. B mezonini — motorik qiyinchiliklarning kundalik faoliyatga ta'sirini — baholash uchun ota-onalar so'rovnomasi DCDQ'07 tavsiya etiladi [3]. MABC-2 shuningdek, bolaning motorik rivojlanishi dinamikasini kuzatishga va aralashuv strategiyalarini rejalashtirishga imkon beradi.

Tarqalish va jinsiy farqlar

DSM-5-TR va xalqaro tavsiyalarga ko'ra, DCD 5–11 yoshdagi maktab yoshidagi bolalarning taxminan 5–6 foizida uchraydi [1, 2]. Biroq tadqiqotlar orasidagi farq katta: turli tadqiqotlar bo'yicha ko'rsatkichlar 1,4% dan 19,0% gacha o'zgaradi [11]. Gretsiyada bolalarning taxminan 19 foizi [9], Braziliyaning janubida 4–12 yoshdagi bolalarning 19,9 foizi ehtimoliy DCD sifatida aniqlangan [10] (3-jadval).

3-jadval. DCD tarqalishi bo'yicha xalqaro ma'lumotlar

Hudud / manba	Ko'rsatkich	Izoh
Xalqaro ma'lumotlar (DSM-5-TR, xalqaro tavsiyalar)	5–6%	5–11 yoshdagi maktab yoshidagi bolalar [1, 2]
Turli tadqiqotlar sharhi	1,4–19,0%	Tanlab olish mezonlariga bog'liq [11]
Gretsiya	taxminan 19%	Ehtimoliy DCD [9]
Braziliya (janubiy hudud)	19,9%	4–12 yoshdagi bolalar, ehtimoliy DCD [10]

Jinslar bo'yicha taqqoslashda aksariyat manbalarda DCD o'g'il bolalarda qizlarga nisbatan ko'proq qayd etilishi ko'rsatiladi: o'g'il-qiz nisbati 3:1 dan 7:1 gacha [11], ayrim ma'lumotlarda esa 1,7–2,8 barobar deb keltiriladi. Shu bilan birga, Braziliyaning ijtimoiy jihatdan noqulay hududlarida o'tkazilgan tadqiqotda ehtimoliy DCD qizlarda ko'proq aniqlangan [12], ya'ni jinsiy farqlar barcha aholi guruhlarida bir xil emas.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Etiologiya

DCD ning aniq etiologiyasi hozircha to'liq o'rganilmagan. Motorik funksiyalar rivojlanishiga ta'sir etuvchi biologik va fiziologik omillar orasida proprioseptsiya, vestibulyar integratsiya, muvozanat, vizual-motor koordinatsiya va boshqa motorik tizimlar tilga olinadi. Bu tizimlardagi anomaliyalar motorik ko'nikmalar rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Alomatlar turli bolalarda turlicha namoyon bo'lib, ba'zan o'ziga xos mexanizmlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Terapevtik yondashuvlar

DCD bilan og'rigan bolalarga yordam berishning turli yondashuvlari mavjud. Erta aniqlash va maxsus jismoniy tarbiya dasturlari motorik ko'nikmalarni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Dastlabki yillarda qo'llangan aralashuvlar bolalarning umumiy motorik qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali bo'lishi mumkin. Xalqaro tavsiyalarda bolaning faoliyati va ishtirokiga yo'naltirilgan, vazifaga asoslangan (task-oriented) yondashuvlar afzal ko'riladi [2]. Bu jarayonda bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli ishtirok etishiga ko'maklashish va harakatlarni muvofiqlashtirishda uni qo'llab-quvvatlash zarur.

MUHOKAMA

Sharh natijalari DCD tushunchasi taxminan bir asr davomida shakllanib, 1987–1994-yillarda yagona atama va diagnostik mezonlarga ega bo'lganini ko'rsatdi. Terminologik birlik muammoning ilmiy va klinik doirada tan olinishiga xizmat qildi, biroq tarqalish ko'rsatkichlaridagi katta farq buzilishning epidemiologik tavsifini hamon murakkablashtirmoqda.

Tarqalish ko'rsatkichlaridagi farq (5–6% dan 19–20% gacha) haqiqiy farqlardan ko'ra ko'proq metodologik omillar bilan izohlanishi mumkin. Birinchidan, yuqori ko'rsatkichlar odatda faqat motorik test yoki skrining natijasiga asoslanadi va ehtimoliy DCD ni aks ettiradi, holbuki diagnoz to'rtta mezonning barchasini talab qiladi [1, 2]. Ikkinchidan, tadqiqotlarda turli baholash vositalari, tanlab olish mezonlari va yosh

guruhlari qo'llanadi [9–11]. Uchinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy holat motorik natijalarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi: Braziliyadagi tadqiqotda u MABC bo'yicha ball dispersiyasining taxminan 21 foizini izohlagan [12]. Shu sababli turli mamlakatlar ko'rsatkichlarini bevosita solishtirishda ehtiyotkorlik talab etiladi.

Jinsiy farqlar bo'yicha ma'lumotlar ham bir xil emas. O'g'il bolalarda DCD ko'proq qayd etilishi [11] va ayrim aholi guruhlarida qizlarda yuqoriroq ko'rsatkichlar topilishi [12] jinsiy farqlar tanlab olish, tashxisga yo'llanish va ijtimoiy-madaniy omillarga bog'liq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu masala qo'shimcha aholiga asoslangan tadqiqotlarni talab qiladi.

Amaliy nuqtai nazardan DCD ni erta aniqlash va bolalarga moslashtirilgan jismoniy tarbiya dasturlarini qo'llash muhim. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari va maktab mutaxassislari bolaning harakat qiyinchiliklarini birinchilardan bo'lib payqashi mumkinligi sababli, ularning skrining va tegishli mutaxassisga yo'llash jarayonida ishtirok etishi maqsadga muvofiq.

Tahlil qilingan manbalar orasida O'zbekiston sharoitida DCD tarqalishi va MABC-2 ning mahalliy me'yorlari bo'yicha ma'lumotlar uchramadi. MABC-2 me'yorlari boshqa mamlakatlar namunalarida ishlab chiqilgani sababli, uni mahalliy aholida qo'llashdan oldin moslashtirish va me'yorlarini aniqlash maqsadga muvofiq.

Sharhning cheklovlari. Birinchidan, narrativ format bo'lgani uchun tizimli qidiruv va manbalar sifatini rasmiy baholash o'tkazilmagan. Ikkinchidan, tahlil cheklangan manbalar doirasida bajarilgan, tarqalishga oid ma'lumotlar bir nechta tadqiqotga tayanadi. **Kelgusi tadqiqotlar** uchun to'rtala diagnostik mezonni qo'llagan holda aholiga asoslangan epidemiologik tadqiqotlar, mahalliy me'yorlarni ishlab chiqish hamda jismoniy tarbiya sharoitida vazifaga yo'naltirilgan aralashuvlarning samaradorligini baholash istiqbolli yo'nalishlar hisoblanadi.

XULOSA

1. DCD tushunchasi XX asrdagi tavsifiy kuzatuvlardan 1987–1994-yillarda yagona atama va diagnostik mezonlarga aylandi; zamonaviy diagnostika DSM-5-TR ning to'rtta mezoniga asoslanadi.

2. Maktab yoshidagi bolalar orasida DCD taxminan 5–6% da uchraydi; yuqori ko'rsatkichlar (19–20% gacha) asosan ehtimoliy DCD va metodologik farqlar bilan bog'liq.

3. MABC-2 motorik ko'nikmalarni baholashning asosiy vositalaridan biri bo'lib, uni DCDQ'07 kabi kundalik faoliyatga ta'sirni baholovchi vositalar bilan birga qo'llash lozim.

4. Erta aniqlash va vazifaga yo'naltirilgan jismoniy tarbiya dasturlari bolalarning motorik ko'nikmalari, o'ziga ishonchi va ijtimoiy ishtirokini yaxshilashda muhim; O'zbekiston sharoitida DCD tarqalishini o'rganish va baholash vositalarini moslashtirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. American Psychiatric Association. Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders, Fifth Edition, Text Revision (DSM-5-TR). Washington, DC: American Psychiatric Association Publishing; 2022.
2. Blank R, Barnett AL, Cairney J, et al. International clinical practice recommendations on the definition, diagnosis, assessment, intervention, and psychosocial aspects of developmental coordination disorder. Dev Med Child Neurol. 2019;61(3):242–285.
3. Blank R, Smits-Engelsman B, Polatajko H, et al. European Academy for Childhood Disability (EACD): recommendations on the definition, diagnosis and intervention of developmental coordination disorder (long version). Dev Med Child Neurol. 2012;54(1):54–93.
4. Sugden D. Developmental coordination disorder as a specific learning difficulty. Leeds Consensus Statement. ESRC Research Seminar Series 2004–2005; 2006:1–6.
5. Polatajko HJ, Cantin N. Developmental coordination disorder (dyspraxia): an overview of the state of the art. Semin Pediatr Neurol. 2005;12(4):250–258.
6. Gubbay SS. The Clumsy Child: A Study of Developmental Apraxic and Agnosic Ataxia. London: WB Saunders; 1975.
7. World Health Organization. The ICD-10 Classification of Mental and Behavioural Disorders: Clinical Descriptions and Diagnostic Guidelines. Geneva: WHO; 1992.

UDK: 372.879.6:796.1

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA TEZKORLIK VA CHAQQONLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY HARAKATLI O‘YINLARDAN TABAQALASHTIRILGAN FOYDALANISH METODIKASI

Xabibillayeva Iroda Jaloldin qizi
Namangan shahar 9-maktab o‘qituvchisi
E-mail: irodajaloldinovna@gmail.com
ORCID: 0009-0009-2826-6605

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tezkorlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirish maqsadida o‘zbek milliy harakatli o‘yinlarini o‘quvchilarning dastlabki jismoniy tayyorgarlik darajasiga ko‘ra tabaqalashtirib qo‘llash metodikasi asoslab berilgan. 2025–2026-o‘quv yilida Namangan shahar 9-maktabning 3-sinf o‘quvchilari (n = 52) ishtirokida o‘tkazilgan pedagogik tajriba natijalari keltirilgan. Tajriba guruhidagi o‘quvchilar test natijalariga ko‘ra uchta kichik guruhga ajratilib, har biri uchun o‘yinlar tarkibi, qoidalari va yuklama me’yori alohida belgilandi. 30 m ga yugurish, 3×10 m mokisimon yugurish, chizg‘ichni ushlash hamda to‘pni devorga uloqtirib ilish testlari bo‘yicha tajriba guruhidagi siljishlar nazorat guruhiga nisbatan statistik ishonchli darajada yuqori bo‘ldi (p < 0,01). Olingan ma’lumotlar asosida milliy o‘yinlardan tabaqalashtirilgan foydalanishning pedagogik tamoyillari ishlab chiqildi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich sinf, jismoniy tarbiya, milliy harakatli o‘yinlar, tezkorlik, chaqqonlik, tabaqalashtirilgan yondashuv, yuklama me’yori, pedagogik tajriba.*

МЕТОДОЛОГИЯ ПОЭТАПНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИГР ДЛЯ РАЗВИТИЯ СКОРОСТИ И УРОВНЯ РАЗВИТИЯ УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *В статье обоснована методика дифференцированного применения узбекских национальных подвижных игр для развития быстроты и ловкости у учащихся начальных классов с учётом исходного уровня их физической подготовленности. Представлены результаты педагогического эксперимента, проведённого в 2025–2026 учебном году с участием учащихся 3-х классов школы № 9 города Намангана (n = 52). В экспериментальной группе учащиеся по результатам тестирования были распределены на три подгруппы, для каждой из которых отдельно определялись состав игр, их правила и нормы нагрузки. По тестам “бег на 30 м”, “челночный бег 3×10 м”, “ловля падающей линейки” и “бросок и ловля мяча от стены” прирост показателей в экспериментальной группе достоверно превысил результаты контрольной группы (p < 0,01). На основе полученных данных сформулированы педагогические принципы дифференцированного использования национальных игр.*

Ключевые слова: *начальная школа, физическое воспитание, национальные подвижные игры, быстрота, ловкость, дифференцированный подход, дозирование нагрузки, педагогический эксперимент.*

METHODOLOGY FOR THE DIFFERENTIATED USE OF NATIONAL ACTIVE GAMES TO DEVELOP SPEED AND AGILITY IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. *The article substantiates a methodology for the differentiated use of Uzbek national outdoor games aimed at developing speed and agility in primary school pupils according to their initial level of physical fitness. It presents the results of a pedagogical experiment conducted in the 2025–2026 academic year with third-grade pupils of School No. 9 in Namangan (n = 52). In the experimental group, pupils were divided into three subgroups on the basis of test results, and the set of games, their rules and the load standards were defined separately for each subgroup. In the 30 m sprint, the 3×10 m shuttle run, the ruler-drop test and the wall ball toss-and-catch test, the gains of the experimental group were significantly greater than those of the control group ($p < 0.01$). Pedagogical principles for the differentiated use of national games were formulated on the basis of the findings.*

Keywords: *primary school, physical education, national outdoor games, speed, agility, differentiated approach, load dosage, pedagogical experiment.*

KIRISH

Yosh avlodning jismoniy salomatligini mustahkamlash mamlakatimizda ta'lim va sport siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunda [1], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi PQ-3031-son qarori [2] hamda 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son farmonida [3] umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirish, milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini keng ommalashtirish vazifalari aniq belgilab qo‘yilgan. Ushbu hujjatlar mazmunidan kelib chiqadigan asosiy talab shuki, jismoniy tarbiya darsi faqat harakat faolligini ta'minlash bilan cheklanib qolmasdan, bolaning harakat qobiliyatlarini maqsadli rivojlantirishga xizmat qilishi lozim.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tavsiyalariga ko‘ra, 5–17 yoshdagi bolalar har kuni o‘rtacha kamida 60 daqiqa o‘rtacha va yuqori jadallikdagi jismoniy faollikka muhtoj [15]. Amaliyotda esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining harakat faolligi asosan jismoniy tarbiya darslari bilan chegaralanadi, haftalik dars soati esa bu ehtiyojni to‘liq

qoplamaydi. Shu sababli dars vaqtidan unumli foydalanish, har bir daqiqani bolaning jismoniy rivojiga yo‘naltirilgan mazmun bilan to‘ldirish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Yosh fiziologiyasi va jismoniy tarbiya nazariyasi bo‘yicha tadqiqotlarda 7–10 yosh tezkorlik va koordinatsion qobiliyatlar rivoji uchun sensitiv davr ekanligi qayd etiladi [6; 7; 12]. V.I. Lyax ma’lumotlariga ko‘ra, aynan kichik maktab yoshida harakat reaksiyasi tezligi, harakatlar chastotasi va fazoviy mo‘ljal olish qobiliyati eng yuqori sur’atda o‘sadi, bu davrda yetarli ta’sir ko‘rsatilmasa, keyingi yillarda uni to‘liq qoplash qiyin kechadi [6]. D. Gallahue va hammualliflar ham fundamental harakat ko‘nikmalarining shakllanishida 6–10 yoshni hal qiluvchi bosqich deb baholaydi [12]. S. Logan va hammualliflarning tizimli sharhida esa bolalikda shakllangan harakat ko‘nikmalari darajasi keyingi yillardagi jismoniy faollik bilan bevosita bog‘liq ekani ko‘rsatilgan [11]. Bu yoshdagi bolalar uchun eng tabiiy va samarali vosita harakatli o‘yindir: o‘yin vaziyati tez o‘zgaradi, bola signalga javob berishi, yo‘nalishni birdan o‘zgartirishi, sherigi va raqibining harakatini oldindan payqashi kerak bo‘ladi.

O‘zbek xalq harakatli o‘yinlari bu jihatdan boy imkoniyatga ega. T.S. Usmonxo‘jayev va F. Xo‘jayev tomonidan to‘plangan o‘yinlarning katta qismi yugurish, quvlash, chap berish, predmetni ilib olish kabi elementlarga asoslanadi [10]. Jismoniy tarbiya nazariyasida harakatli o‘yinlar kompleks ta’sir ko‘rsatuvchi vosita sifatida baholanadi: ular bir vaqtning o‘zida tezkorlik, chaqqonlik va chidamlilikka ta’sir etadi [4]. Ular maxsus anjom talab qilmaydi, o‘quvchilarga tanish va yoqimli, milliy qadriyatlarni singdirishda ham muhim o‘rin tutadi. Biroq maktab amaliyotida bunday o‘yinlar odatda butun sinf uchun bir xil qoida va bir xil yuklama bilan o‘tkaziladi. Natijada jismoniy jihatdan tayyorgarligi yuqori o‘quvchi uchun o‘yin yetarli yuklama bermaydi, sust rivojlangan bola esa o‘yindan tez chiqib ketadi yoki uning chetida passiv ishtirokchiga aylanadi. Ta’limda tabaqalashtirilgan yondashuv g‘oyasi yetarlicha ishlab

chiqilgan bo‘lsa-da [14], uni milliy harakatli o‘yinlarga tatbiq etish metodikasi hali to‘liq asoslanmagan.

Tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tezkorlik va chaqqonlikni rivojlantirishda milliy harakatli o‘yinlardan tabaqalashtirilgan foydalanish metodikasini ishlab chiqish va uning samaradorligini pedagogik tajribada tekshirishdan iborat. Shu maqsadda o‘quvchilarning dastlabki tayyorgarlik darajasini aniqlash, o‘yinlarni kichik guruhlarga moslab tanlash va yuklamani me’yorlash, metodika samaradorligini baholash hamda uni qo‘llash tamoyillarini shakllantirish vazifalari qo‘yildi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot 2025-yil oktabr – 2026-yil aprel oylarida (28 hafta) Namangan shahar 9-maktabda o‘tkazildi. Unda 8–9 yoshli 3-sinf o‘quvchilari (n = 52) ishtirok etdi. 3“A” sinf o‘quvchilari tajriba guruhini (TG, n = 26; 14 o‘g‘il va 12 qiz bola), 3“B” sinf o‘quvchilari nazorat guruhini (NG, n = 26; 13 o‘g‘il va 13 qiz bola) tashkil qildi. Barcha ishtirokchilar tibbiy ko‘rik xulosasiga ko‘ra asosiy tibbiy guruhga mansub edi, tajribada qatnashish uchun ota-onalarning roziligi olindi.

Tezkorlik va chaqqonlik darajasini baholash uchun to‘rtta test tanlandi: 1) 30 m ga yuqori startdan yugurish (s) – harakat tezkorligi; 2) 3×10 m mokisimon yugurish (s) – chaqqonlik va yo‘nalishni tez o‘zgartirish qobiliyati; 3) tushayotgan chizg‘ichni ushlash (sm) – oddiy harakat reaksiyasi tezligi, besh urinishning o‘rtacha qiymati olindi; 4) tennis to‘pini 2 m masofadan devorga uloqtirib ilish (30 s davomidagi muvaffaqiyatli ilishlar soni) – qo‘l harakatlari koordinatsiyasi. Testlar tajriba boshida va oxirida, bir xil sharoitda, ertalabki darslarda umumiy isitishdan so‘ng o‘tkazildi [7; 9].

O‘quvchilarni tabaqalashtirish uchun dastlabki test natijalari standartlashtirildi va har bir o‘quvchi bo‘yicha umumlashgan ball (to‘rt test z-ko‘rsatkichlarining yig‘indisi) hisoblandi. $\bar{X} \pm 0{,}5\sigma$ oralig‘iga tushgan o‘quvchilar o‘rta darajaga, undan past natija ko‘rsatganlar past darajaga, yuqori natija ko‘rsatganlar esa yuqori darajaga kiritildi. Natijada TG da uchta kichik guruh shakllandi: I (past) – 7 nafar, II (o‘rta) – 13 nafar, III

(yuqori) – 6 nafar o‘quvchi. Tajribaning 14-haftasida oraliq test o‘tkazilib, natijasi sezilarli yaxshilangan o‘quvchilar yuqoriroq guruhga o‘tkazildi.

Har ikki guruhda jismoniy tarbiya darslari haftasiga ikki soat amaldagi o‘quv dasturi asosida o‘tkazildi. TG da har bir darsning asosiy qismida 12–15 daqiqa tabaqalashtirilgan tartibda milliy harakatli o‘yinlar tashkil etildi. NG da ham shuncha vaqt harakatli o‘yinlarga ajratildi, biroq ular butun sinf uchun umumiy qoida va yagona yuklama bilan o‘tkazildi. Shu tariqa guruhlar o‘rtasidagi farq o‘yinga ajratilgan vaqtda emas, balki uni tashkil etish usulida bo‘ldi.

Olingan ma’lumotlar matematik statistika usullarida qayta ishlandi: o‘rtacha arifmetik qiymat (X), o‘rtacha kvadratik og‘ish (σ) hisoblandi, guruhlar ichidagi va guruhlar o‘rtasidagi farqlar Styudentning t-mezoni yordamida baholandi, $p < 0,05$ ishonchlilik chegarasi sifatida qabul qilindi [16]. Nisbiy o‘sish $W = |X_2 - X_1| / X_1 \times 100\ \%$ formulasi bo‘yicha aniqlandi, bunda X_1 va X_2 – tajriba boshidagi va oxiridagi o‘rtacha natijalar.

NATIJALAR

Tajriba guruhidagi har bir kichik guruh uchun o‘yinlar ularning asosiy harakat tarkibiga qarab tanlandi. Past darajadagi o‘quvchilar uchun qoidasi sodda, signalga javob berish vaqti uzunroq bo‘lgan o‘yinlar olindi. O‘rta guruhda yo‘nalishni tez o‘zgartirish va raqibdan chap berish talab etiladigan o‘yinlar ustunlik qildi. Yuqori guruhda esa o‘yin maydoni toraytirilib, harakatlar vaqt bilan cheklandi, bu reaksiya va qaror qabul qilish tezligiga qo‘yiladigan talabni oshirdi (1-jadval).

1-jadval

Tajriba guruhida milliy harakatli o‘yinlarning kichik guruhlar bo‘yicha taqsimlanishi

Kichik guruh	Dastlabki holat	Qo‘llangan milliy o‘yinlar	O‘yin qoidasidagi o‘zgartirish	Yuklama me’yori
I (past) n = 7	Umumlashgan ball $\bar{X} - 0{,}5\sigma$ dan past; reaksiya sust, yo‘nalishni o‘zgartirishda qiynaladi	“Mushuk va sichqon”, “Oq terakmi, ko‘k terak”, “Quvlashmachoq”	Maydon kengaytirildi, quvlovchi soni bitta, signal oldindan e’lon qilinadi	2–3 takror; ish 40–50 s, dam 60–90 s
II (o‘rta) n = 13	Umumlashgan ball $\bar{X} \pm 0{,}5\sigma$ oralig‘ida	“Oq suyak”, “Bo‘ri va qo‘ylar”, “Chillak”	Asosiy qoidalar saqlandi, ikki xil signal (ovoz va qo‘l ishorasi) kiritildi	3–4 takror; ish 30–40 s, dam 60 s
III (yuqori) n = 6	Umumlashgan ball $\bar{X} + 0{,}5\sigma$ dan yuqori	“Oq suyak” (ikki suyak bilan), “Belbog‘ olish”, “Xo‘roz jangi”	Maydon toraytirildi, vaqt cheklovi va to‘siqlar qo‘shildi	4–5 takror; ish 20–30 s, dam 45–60 s

Tajriba boshida TG va NG o‘rtasida barcha testlar bo‘yicha statistik ahamiyatli farq aniqlanmadi ($t = 0{,}26–0{,}41$; $p > 0{,}05$), ya’ni guruhlar dastlab bir xil darajada edi. Tajriba yakunida har ikki guruhda natijalar yaxshilandi, biroq ularning ko‘lami sezilarli darajada farq qildi (2-jadval).

2-jadval

Tajriba va nazorat guruhlarida tezkorlik va chaqqonlik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi (n = 26 + 26)

Test	Guruh	Tajriba boshida $\bar{X} \pm \sigma$	Tajriba oxirida $\bar{X} \pm \sigma$	t; p	O‘sish $X_2 - X_1$	Nisbiy o‘sish, %	t; p (TG–NG)
30 m ga yugurish, s	TG	6,84 ± 0,41	6,32 ± 0,36	4,86; <0,001	−0,52	7,6	2,94; <0,01
	NG	6,81 ± 0,43	6,63 ± 0,40	1,56; >0,05	−0,18	2,6	
3×10 m mokisimon yugurish, s	TG	10,12 ± 0,58	9,34 ± 0,49	5,24; <0,001	−0,78	7,7	3,33; <0,01
	NG	10,08 ± 0,61	9,82 ± 0,55	1,61; >0,05	−0,26	2,6	
Chizg‘ichni ushlash, sm	TG	21,6 ± 3,4	17,2 ± 2,9	5,02; <0,001	−4,4	20,4	3,07; <0,01
	NG	21,3 ± 3,6	19,8 ± 3,2	1,59; >0,05	−1,5	7,0	
To‘pni devorga uloqtirib ilish, marta/30 s	TG	14,3 ± 2,6	18,1 ± 2,4	5,48; <0,001	+3,8	26,6	3,24; <0,01
	NG	14,6 ± 2,7	15,9 ± 2,5	1,80; >0,05	+1,3	8,9	

Izoh: TG – tajriba guruhi, NG – nazorat guruhi; yugurish va chizg‘ich testlarida qiymatning kamayishi natija yaxshilanganini bildiradi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, TG da barcha to‘rt test bo‘yicha o‘sish yuqori darajada ishonchli bo‘lgan ($p < 0,001$), NG da esa siljishlar statistik ahamiyatli chegaraga

yetmagan ($p > 0,05$). 30 m ga yugurishda TG natijasi o‘rtacha 0,52 s ga yaxshilangan bo‘lsa, NG da bu farq 0,18 s ni tashkil etdi. 3×10 m mokisimon yugurishda tegishli ko‘rsatkichlar 0,78 s va 0,26 s ga teng bo‘ldi. Eng katta farq koordinatsiya va reaksiya testlarida kuzatildi: to‘pni uloqtirib ilish testida TG natijasi 26,6 % ga, NG natijasi 8,9 % ga oshdi. Tajriba oxirida guruhlar o‘rtasidagi farq barcha testlarda ishonchli bo‘ldi ($t = 2,94–3,33$; $p < 0,01$). Nisbiy o‘sish ko‘rsatkichlari 1-diagrammada solishtirilgan.



1-diagramma. *Tajriba va nazorat guruhlarida test natijalarining nisbiy o‘sishi, %*

Tabaqalashtirilgan metodikaning ta’sirini chuqurroq baholash maqsadida TG ichidagi kichik guruhlar natijalari alohida tahlil qilindi. Eng yuqori o‘sish dastlab past darajada bo‘lgan o‘quvchilarda qayd etildi: 30 m ga yugurishda 9,6 %, mokisimon yugurishda 9,9 %. O‘rta guruhda bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 7,6 % va 7,6 %, yuqori guruhda esa 5,4 % va 5,6 % ni tashkil qildi (2-diagramma). Oraliq testdan so‘ng I guruhdan 2 nafar, II guruhdan 3 nafar o‘quvchi yuqoriroq guruhga o‘tkazildi.



2-diagramma. *Tajriba guruhidagi kichik guruhlarda tezkorlik va chaqqonlik ko'rsatkichlarining nisbiy o'sishi, %*

MUHOKAMA

Olingan natijalar kichik maktab yoshida tezkorlik va koordinatsion qobiliyatlarning pedagogik ta'sirga yuqori darajada sezgir ekanligi haqidagi ma'lumotlarga mos keladi [5; 6; 7; 8]. Shu bilan birga, NG da o'yinlarga ajratilgan vaqt TG bilan teng bo'lishiga qaramay, u yerda o'sish ancha past bo'ldi. Bu holat o'yin vaqtining o'zi emas, balki yuklamaning har bir o'quvchining imkoniyatiga qanchalik mos kelishi hal qiluvchi omil ekanligini ko'rsatadi. Umumiy qoidada o'tkaziladigan o'yinda kuchli bolalar tez g'olib bo'lib, qolgan vaqtni kam harakat bilan o'tkazadi, sust bolalar esa birinchi daqiqalardayoq o'yindan chiqadi. Kuzatuvlarimizga ko'ra, NG da o'yin davomida faol harakatda bo'lgan vaqt o'quvchilar o'rtasida keskin farq qilgan.

Kichik guruhlar natijalarining taqqoslanishi ham e'tiborga loyiq. Dastlab past darajadagi o'quvchilarda o'sishning eng yuqori bo'lishini ikki sabab bilan izohlash mumkin. Birinchidan, ularda rivojlanish zaxirasi kattaroq. Ikkinchidan, qoidalar soddalashtirilib, signal oldindan e'lon qilinganda bu bolalar o'yinda muvaffaqiyatga erishdi, bu esa ularning faolligini va mashg'ulotga qiziqishini oshirdi. Yuqori guruhda o'sishning nisbatan pastroq bo'lishi tabiiy holat, chunki yuqori natijalar sohasida har bir

qo‘shimcha yutuq ko‘proq kuch talab qiladi. Shunga qaramay, bu guruhda ham natijalar NG o‘rtacha ko‘rsatkichidan yuqori bo‘ldi.

Tezkorlikni rivojlantirishda ish va dam intervallarining to‘g‘ri tanlanishi alohida ahamiyatga ega. L.P. Matveev va T. Bompa ta’kidlaganidek, tezkorlik mashqlari charchoq fonida bajarilganda ularning samarasi pasayadi va harakat texnikasi buziladi [5; 13]. Tajribamizda I guruh uchun uzunroq dam olish vaqti belgilangani bolalarning har bir takrorni yetarli tezlikda bajarishiga imkon berdi. III guruhda esa ish vaqti qisqa, jadalligi yuqori qilib belgilandi, bu tezkorlik mashqlariga qo‘yiladigan umumiy metodik talablarga mos keladi [7; 17].

Tadqiqot natijalari va pedagogik kuzatuvlar asosida milliy harakatli o‘yinlardan tabaqalashtirilgan foydalanishning quyidagi tamoyillari shakllantirildi. Diagnostik asoslanganlik tamoyili o‘quvchilarni kichik guruhlarga ajratish subyektiv taassurotga emas, balki test natijalariga asoslanishini talab qiladi. Qoidalarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish tamoyiliga ko‘ra, o‘yinning bir xil mazmuni maydon o‘lchami, ishtirokchilar soni, signal turi va vaqt chekloviga o‘zgartirish kiritish orqali turli darajaga moslashtiriladi. Yuklamani me’yorlash tamoyili tezkorlikka yo‘naltirilgan o‘yinlarda ish davomiyligini qisqa, dam olishni esa to‘liq tiklanishga yetarli qilib belgilashni ko‘zda tutadi. Guruhlar o‘rtasidagi harakatchanlik tamoyili kichik guruh tarkibining qat’iy emasligini, oraliq testlar natijasiga ko‘ra o‘quvchining yuqoriroq guruhga o‘tishi mumkinligini bildiradi; bu bolalarda qo‘shimcha motivatsiya uyg‘otadi. Nihoyat, emotsional-tarbiyaviy yo‘naltirilganlik tamoyili o‘yinning quvonch bag‘ishlashi, jamoaviylik va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllantirishi bilan bog‘liq.

Tadqiqotning ayrim cheklovlarini ham qayd etish lozim. Tajriba bitta maktabda va nisbatan kichik tanlanmada o‘tkazildi, natijalar o‘g‘il va qiz bolalar kesimida alohida tahlil qilinmadi. Kelgusida metodikani turli hududlardagi maktablarda, katta tanlanmada sinovdan o‘tkazish hamda uning 1–2-sinf o‘quvchilariga moslashtirilgan variantini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi. Birinchidan, o‘zbek milliy harakatli o‘yinlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tezkorlik va chaqqonlikni rivojlantirish uchun samarali vosita bo‘lib, ularning ta’siri o‘quvchilarning dastlabki tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda qo‘llanganda sezilarli darajada ortadi.

Ikkinchidan, o‘yinlarga ajratilgan vaqt teng bo‘lgan sharoitda tabaqalashtirilgan metodika qo‘llangan tajriba guruhida 30 m ga yugurish natijasi 7,6 %, 3×10 m mokisimon yugurish 7,7 %, reaksiya tezligi 20,4 %, qo‘l harakatlari koordinatsiyasi 26,6 % ga yaxshilandi, nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkichlar 2,6–8,9 % oralig‘ida bo‘ldi ($p < 0,01$).

Uchinchidan, tabaqalashtirish eng ko‘p foydani dastlab past natija ko‘rsatgan o‘quvchilarga berdi, bu esa jismoniy tarbiya darsida har bir bolani faol ishtirokchiga aylantirish imkonini beradi. Ishlab chiqilgan tamoyillar – diagnostik asoslanganlik, qoidalarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish, yuklamani me’yorlash, guruhlar o‘rtasidagi harakatchanlik va emotsional-tarbiyaviy yo‘naltirilganlik – umumta’lim maktablarining jismoniy tarbiya o‘qituvchilari amaliyotida qo‘llanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri). 04.09.2015-yil, O‘RQ-394-son // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-son qarori // www.lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5924-son farmoni // www.lex.uz.
4. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. – Toshkent: O‘zDJTI, 2005. – 300 b.
5. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. – М.: Физкультура и спорт, 1991. – 543 с.
6. Лях В.И. Двигательные способности школьников: основы теории и методики развития. – М.: Терра-Спорт, 2000. – 192 с.
7. Холодов Ж.К., Кузнецов В.С. Теория и методика физического воспитания и спорта. – М.: Академия, 2000. – 480 с.

8. Волков Л.В. Теория и методика детского и юношеского спорта. – Киев: Олимпийская литература, 2002. – 296 с.
9. Годик М.А. Контроль тренировочных и соревновательных нагрузок. – М.: Физкультура и спорт, 1980. – 136 с.
10. Usmonxo'jayev T.S., Xo'jayev F. 1001 o'yin. – Toshkent: Ibn Sino, 1990. – 352 b.
11. Logan S.W., Webster E.K., Getchell N., Pfeiffer K.A., Robinson L.E. Relationship between fundamental motor skill competence and physical activity during childhood and adolescence: a systematic review // Kinesiology Review. – 2015. – Vol. 4, No. 4. – P. 416–426.
12. Gallahue D.L., Ozmun J.C., Goodway J.D. Understanding Motor Development: Infants, Children, Adolescents, Adults. – 7th ed. – New York: McGraw-Hill, 2012. – 461 p.
13. Bompa T.O., Haff G.G. Periodization: Theory and Methodology of Training. – 5th ed. – Champaign: Human Kinetics, 2009. – 424 p.
14. Tomlinson C.A. How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms. – 2nd ed. – Alexandria: ASCD, 2001. – 117 p.
15. World Health Organization. WHO guidelines on physical activity and sedentary behaviour. – Geneva: WHO, 2020. – 104 p.
16. Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. – Toshkent: Zar qalam, 2004. – 336 b.
17. Salomov R.S. Sport mashg'ulotining nazariy asoslari. – Toshkent: O'zDJTI, 2005. – 238 b.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

UDK: 372.879.6:796.1

MILLIY HARAKATLI O‘YINLAR ASOSIDA KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNING CHIDAMLILIK VA KUCH SIFATLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Xabibillayeva Iroda Jaloldin qizi
Namangan shahar 9-maktab o‘qituvchisi
E-mail: irodajaloldinovna@gmail.com
ORCID: 0009-0009-2826-6605

Annotatsiya. *Maqolada milliy harakatli o‘yinlar asosida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning chidamlilik va kuch sifatlarini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari asoslab berilgan. Namangan shahridagi umumta’lim maktablarining jismoniy tarbiya va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari (n = 34) o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma milliy o‘yinlardan asosan darsni emotsional yakunlash vositasi sifatida foydalanilayotganini, yuklama esa deyarli nazorat qilinmayotganini ko‘rsatdi. Shu asosda to‘rtta pedagogik shart-sharoit ishlab chiqildi: o‘yinlarni jismoniy sifatlar yo‘nalishi bo‘yicha tizimlashtirish, yuklamani yurak urish chastotasi orqali me’yorlash, harakat rejimining uzluksizligini ta’minlash hamda motivatsion-tarbiyaviy muhit yaratish va oila bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish. 4-sinf o‘quvchilari (n = 56) ishtirokidagi pedagogik tajribada tajriba guruhida kuch va chidamlilik ko‘rsatkichlarining o‘sishi nazorat guruhiga nisbatan statistik ishonchli darajada yuqori bo‘ldi (p < 0,01).*

Kalit so‘zlar: *kichik maktab yoshi, milliy harakatli o‘yinlar, chidamlilik, kuch, pedagogik shart-sharoitlar, yurak urish chastotasi, harakat rejimi, oila bilan hamkorlik.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ВЫНОСЛИВОСТИ И СИЛЫ УЧАЩИХСЯ МЛАДШИХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ СПОРТИВНЫХ ИГР.

Аннотация. *В статье обоснованы педагогические условия совершенствования выносливости и силы у детей младшего школьного возраста на основе национальных подвижных игр. Анкетирование учителей физической культуры и начальных классов общеобразовательных школ города Намангана (n = 34) показало, что национальные игры применяются преимущественно как средство эмоционального завершения урока, а нагрузка в них практически не контролируется. На этой основе разработаны четыре педагогических условия: систематизация игр по направленности на физические качества, дозирование нагрузки по частоте сердечных сокращений, обеспечение непрерывности двигательного режима, а также создание мотивационно-воспитательной среды и организация сотрудничества с семьёй. В педагогическом эксперименте с участием учащихся 4-х классов (n = 56) прирост показателей силы и выносливости в экспериментальной группе достоверно превысил результаты контрольной группы (p < 0,01).*

Ключевые слова: *младший школьный возраст, национальные подвижные игры, выносливость, сила, педагогические условия, частота сердечных сокращений, двигательный режим, сотрудничество с семьёй.*

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR IMPROVING ENDURANCE AND STRENGTH QUALITIES IN PRIMARY SCHOOL-AGE STUDENTS THROUGH NATIONAL ACTIVE GAMES

Abstract. *The article substantiates the pedagogical conditions for improving endurance and strength in primary school children through national outdoor games. A survey of physical education and primary school teachers from general secondary schools in Namangan (n = 34) showed that national games are used mainly as a means of emotionally concluding the lesson, while the load they impose is hardly monitored. On this basis, four pedagogical conditions were developed: systematising games according to the physical qualities they target, dosing the load by heart rate, ensuring the continuity of the daily motor regime, and creating a motivational and educational environment together with cooperation with families. In a pedagogical experiment involving fourth-grade pupils (n = 56), the gains in strength and endurance indicators in the experimental group were significantly greater than in the control group (p < 0.01).*

Keywords: *primary school age, national outdoor games, endurance, strength, pedagogical conditions, heart rate, motor regime, cooperation with families.*

KIRISH

Bugungi kunda yosh avlodning jismoniy barkamolligini ta'minlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishi hisoblanadi. “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunda [1] maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish ta'lim muassasalarining vazifasi sifatida belgilangan. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida [2] muntazam jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchi aholi ulushini oshirish, PF-5924-son farmonda [3] esa umumta'lim maktablarida milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini ommalashtirish vazifalari qo‘yilgan.

Shu bilan birga, bolalarning kundalik hayotida harakat faolligi kamayib borayotgani kuzatilmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti 5–17 yoshdagi bolalar uchun kuniga o‘rtacha kamida 60 daqiqa jadal jismoniy faollikni, shu jumladan haftasiga kamida uch marta mushak va suyaklarni mustahkamlovchi mashg‘ulotlarni tavsiya

etadi [16]. Boshlang‘ich sinf jismoniy tarbiya darslarida esa asosiy e’tibor ko‘pincha harakat ko‘nikmalarini o‘rgatishga qaratiladi, kuch va chidamlilik esa “keyinroq rivojlantiriladigan” sifatlar sifatida ikkinchi o‘ringa tushib qoladi.

Zamonaviy tadqiqotlar bu yondashuvni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. A. Faigenbaum va hammualliflar to‘g‘ri tashkil etilgan kuch mashg‘ulotlari kichik yoshdagi bolalar uchun xavfsiz ekanini va ularning harakat qobiliyatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini isbotlagan [13]. R. Lloyd va J. Oliver taklif etgan yoshlar jismoniy rivojlanishi modelida ham kuch va fundamental harakat ko‘nikmalari kichik maktab yoshidan boshlab parallel rivojlantirilishi lozimligi ta’kidlanadi [14]. V.I. Lyax va V.K. Balsevich ma’lumotlariga ko‘ra, 8–10 yoshda umumiy (aerob) chidamlilik va nisbiy kuch jadal o‘sadi [9; 15; 17]. Bu yoshda kuchni rivojlantirish uchun tashqi og‘irliklar emas, o‘z tana vazni bilan bajariladigan va o‘yin shaklidagi mashqlar maqbul hisoblanadi [8; 10].

O‘zbek xalq harakatli o‘yinlari bunday mashqlarga boy. “Arqon tortish”, “Belbog‘ olish”, “Xo‘roz jangi” kabi o‘yinlarda bola sherigining qarshiligini yengishi, gavdasini muvozanatda ushlab turishi lozim, bu esa statik va dinamik kuchni rivojlantiradi. Uzluksiz quvlash va qochishga asoslangan o‘yinlar esa aerob chidamlilikka ta’sir ko‘rsatadi [5; 11]. Biroq o‘yinning rivojlantiruvchi samarasi o‘z-o‘zidan namoyon bo‘lmaydi. U muayyan pedagogik shart-sharoitlar, ya’ni maqsadga erishishni ta’minlovchi tashkiliy, metodik va psixologik omillar majmui yaratilgandagina to‘liq yuzaga chiqadi. Amaliyotda esa milliy o‘yinlar ko‘pincha tasodifiy tanlanadi, yuklamasi nazorat qilinmaydi va faqat dars doirasida qo‘llaniladi.

Tadqiqotning maqsadi milliy harakatli o‘yinlar asosida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning chidamlilik va kuch sifatlarini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash va ularning samaradorligini tajribada tekshirishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot ikki bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda (2025-yil sentabr) Namangan shahridagi 8 ta umumta’lim maktabining 34 nafar o‘qituvchisi (21 nafar

jismoniy tarbiya va 13 nafar boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi) o‘rtasida 12 ta savoldan iborat anonim so‘rovnoma o‘tkazildi. Savollar milliy o‘yinlardan foydalanish chastotasi, maqsadi, yuklamani nazorat qilish usullari va duch kelinayotgan qiyinchiliklarga qaratildi.

Ikkinchi bosqichda 2025-yil oktabr – 2026-yil may oylarida (30 hafta) Namangan shahar 9-maktabda pedagogik tajriba o‘tkazildi. Unda 9–10 yoshli 4-sinf o‘quvchilari (n = 56) ishtirok etdi: 4“A” sinf – tajriba guruhi (TG, n = 28; 15 o‘g‘il va 13 qiz bola), 4“B” sinf – nazorat guruhi (NG, n = 28; 14 o‘g‘il va 14 qiz bola). Barcha o‘quvchilar asosiy tibbiy guruhga mansub bo‘lib, tajribada qatnashish uchun ota-onalarning yozma roziligi olindi.

Kuch va chidamlilikni baholash uchun quyidagi testlar qo‘llanildi: joyidan uzunlikka sakrash (sm) – oyoq muskullarining portlovchi kuchi; 90 sm balandlikdagi past turnikda yotgan holda osilib tortilish (marta) – qo‘l va yelka kamari muskullari kuchi; 30 s davomida chalqancha yotgan holatdan o‘tirish (marta) – qorin muskullarining kuch chidamliligi; 6 daqiqalik yugurish (m) – umumiy chidamlilik [9; 10]. Yuklama darajasi har bir o‘yindan so‘ng 10 s davomida puls sanash yo‘li bilan aniqlandi (har darsda 6 nafar o‘quvchida). Darsning motor zichligi xronometraj usulida baholandi [12].

TG da jismoniy tarbiya darslari amaldagi o‘quv dasturi asosida, lekin ishlab chiqilgan pedagogik shart-sharoitlar majmuasini joriy etgan holda o‘tkazildi. NG da darslar an’anaviy tartibda tashkil etildi: milliy o‘yinlar asosan darsning yakunlovchi qismida 8–10 daqiqa davomida, yuklama nazoratisiz qo‘llanildi. Olingan ma’lumotlar o‘rtacha arifmetik qiymat ($\bar{X}$), o‘rtacha kvadratik og‘ish (σ) va Styudentning t-mezoni yordamida qayta ishlandi, $p < 0,05$ ishonchlilik chegarasi sifatida qabul qilindi [6; 12]. Nisbiy o‘sish $W = |X_2 - X_1| / X_1 \times 100$ % formulasi bo‘yicha hisoblandi.

NATIJALAR

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, o‘qituvchilarning 88,2 % i milliy harakatli o‘yinlarni jismoniy tarbiyaning muhim vositasi deb hisoblaydi, biroq ulardan

muntazam, ya'ni har darsda yoki haftasiga kamida ikki marta foydalanadiganlar atigi 26,5 % ni tashkil etdi. Respondentlarning 73,5 % i o'yinni asosan darsni emotsional yakunlash, o'quvchilarni "dam oldirish" uchun qo'llashini qayd etgan. O'yin davomida yuklamani puls orqali nazorat qiladigan o'qituvchilar 14,7 % ni tashkil qildi. O'qituvchilar ko'rsatgan asosiy qiyinchiliklar 1-diagrammada keltirilgan.



1-diagramma. *O'qituvchilarning milliy o'yinlardan foydalanishdagi qiyinchiliklari, % (n = 34; bir nechta javob belgilash mumkin)*

So'rovnoma natijalari va ilmiy adabiyotlar tahlili asosida to'rtta o'zaro bog'liq pedagogik shart-sharoit ishlab chiqildi va tajriba guruhida amaliyotga joriy etildi (1-jadval).

1-jadval

Milliy harakatli o'yinlar asosida chidamlilik va kuchni takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari

Pedagogik shart-sharoit	Amalga oshirish mazmuni	Qo'llangan milliy o'yinlar	Tashkiliy shakl
1. O'yinlarni jismoniy sifatlar yo'nalishi	O'yinlar tortish, itarish, ushlab turish (kuch) va uzluksiz yugurish	"Arqon tortish", "Belbog' olish", "Xo'roz jangi"; "Oq	Dars (asosiy qism, 15–18 daqiqa)

Pedagogik shart-sharoit	Amalga oshirish mazmuni	Qo‘llangan milliy o‘yinlar	Tashkiliy shakl
bo‘yicha tizimlashtirish	(chidamlilik) elementlariga ko‘ra ikki blokka ajratildi; har bir chorakda bloklar almashtirib borildi	terakmi, ko‘k terak”, “Bo‘ri va qo‘ylar”, “Quvlashmachoq”	
2. Yuklamani yurak urish chastotasi orqali me’yorlash	Har bir o‘yindan so‘ng puls o‘lchandi; chidamlilik o‘yinlarida 140–170 zarba/daq zonasi saqlandi, kuch o‘yinlarida takrorlar orasida YuUCh 110–120 zarba/daq gacha tiklanishi kutildi	1-shartdagi o‘yinlar (qoidalar va takrorlar soni YuUCh ga qarab o‘zgartirildi)	Dars
3. Harakat rejimining uzluksizligini ta’minlash	Katta tanaffusda 10 daqiqalik tashkiliy o‘yin; haftada bir marta 35–40 daqiqalik “Milliy o‘yinlar soati”	“Chillak”, “Oq suyak”, “Arqon tortish” (jamoaviy)	Tanaffus, to‘garak
4. Motivatsion-tarbiyaviy muhit va oila bilan hamkorlik	O‘yin tarixi haqida qisqa suhbat, navbatma-navbat “o‘yin sardori” tayinlash, haftalik oilaviy o‘yin topshirig‘i, chorakda bir	“Belbog‘ olish”, “Arqon tortish”, “Quvlashmachoq”	Darsdan tashqari, oila

Pedagogik shart-sharoit	Amalga oshirish mazmuni	Qo‘llangan milliy o‘yinlar	Tashkiliy shakl
	marta “Oilaviy o‘yinlar bayrami”		

Namuna sifatida TG dagi odatiy darsning tuzilishini keltiramiz. Tayyorlov qismida (8–10 daqiqa) umumrivojlantiruvchi mashqlar bilan bir qatorda o‘yinda asosiy yuklama tushadigan muskul guruhlariga mo‘ljallangan maxsus mashqlar bajarildi. Asosiy qismda dastur materiali o‘rgatilgandan so‘ng 15–18 daqiqa o‘yin blokiga ajratildi. Kuch bloki haftalarida bu vaqt “Belbog‘ olish” (juftlikda, 3–4 raund × 20–30 s, raundlar oralig‘ida 60–90 s dam) va “Arqon tortish” (jamoalar kuchi teng qilib tuzilgan holda, 3 urinish) o‘yinlariga bag‘ishlandi. Chidamlilik bloki haftalarida “Bo‘ri va qo‘ylar” hamda “Quvlashmachoq” o‘yinlari 3–5 daqiqalik seriyalarda, seriyalar orasida 1,5–2 daqiqa faol dam bilan o‘tkazildi. Har bir seriyadan so‘ng nazorat uchun belgilangan o‘quvchilar pulsini sanab, natijani o‘qituvchiga aytdi, bu esa bolalarni o‘z organizmini kuzatishga ham odatlantirdi. Yakunlovchi qismda (4–5 daqiqa) nafas mashqlari va past jadallikdagi diqqat o‘yinlari bajarildi.

Tajriba davomida o‘tkazilgan kuzatuvlar TG va NG darslarining tashkiliy ko‘rsatkichlarida sezilarli farq borligini ko‘rsatdi. TG da o‘yin davomidagi o‘rtacha YuUCh 154 ± 8 zarba/daq ni, NG da 132 ± 11 zarba/daq ni tashkil etdi. Darsning motor zichligi TG da 71,3 %, NG da 56,8 % bo‘ldi. Tajriba boshida guruhlar o‘rtasida testlar bo‘yicha ishonchli farq aniqlanmadi ($t = 0,18–0,39$; $p > 0,05$). Tajriba yakunidagi natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Tajriba va nazorat guruhlarida kuch va chidamlilik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi (n = 28 + 28)

Test	Guruh	Tajriba boshida $\bar{X} \pm \sigma$	Tajriba oxirida $\bar{X} \pm \sigma$	t; p	O‘sish $X_2 - X_1$	Nisbiy o‘sish, %	t; p (TG–NG)
Joyidan uzunlikka sakrash, sm	TG	128,4 ± 11,2	139,6 ± 10,4	3,88; <0,001	+11,2	8,7	2,82; <0,01
	NG	127,9 ± 11,8	131,5 ± 11,1	1,18; >0,05	+3,6	2,8	
Past turnikda osilib tortilish, marta	TG	7,8 ± 2,9	11,6 ± 3,1	4,74; <0,001	+3,8	48,7	2,85; <0,01
	NG	8,1 ± 3,0	9,2 ± 3,2	1,33; >0,05	+1,1	13,6	
Chalqancha yotgan holatdan o‘tirish, marta/30 s	TG	17,2 ± 3,1	21,4 ± 2,8	5,32; <0,001	+4,2	24,4	3,23; <0,01
	NG	17,5 ± 3,3	18,9 ± 3,0	1,66; >0,05	+1,4	8,0	
6 daqiqalik yugurish, m	TG	942 ± 86	1038 ± 79	4,35; <0,001	+96	10,2	2,77; <0,01
	NG	948 ± 91	976 ± 88	1,17; >0,05	+28	3,0	

Izoh: TG – tajriba guruhi, NG – nazorat guruhi; barcha testlarda qiymatning ortishi natija yaxshilanganini bildiradi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, TG da barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘sish yuqori darajada ishonchli bo‘lgan ($p < 0,001$), NG da esa siljishlar statistik ahamiyatli chegaraga yetmagan ($p > 0,05$). Eng katta o‘sish qo‘l va yelka kamari kuchini ifodalovchi osilib tortilish testida qayd etildi: TG da 48,7 %, NG da 13,6 %. Qorin muskullarining kuch chidamliligi TG da 24,4 % ga, NG da 8,0 % ga oshdi. 6 daqiqalik yugurishda TG o‘quvchilari o‘rtacha 96 m ga, NG o‘quvchilari 28 m ga ko‘proq masofani bosib o‘tdi. Tajriba oxirida guruhlar o‘rtasidagi farq barcha testlarda ishonchli bo‘ldi ($t = 2,77–3,23$; $p < 0,01$). Nisbiy o‘sish ko‘rsatkichlari 2-diagrammada solishtirilgan.



2-diagramma. *Tajriba va nazorat guruhlarida kuch va chidamlilik ko‘rsatkichlarining nisbiy o‘sishi, %*

MUHOKAMA

So‘rovnoma natijalari maktab amaliyotidagi asosiy qarama-qarshilikni ochib berdi: o‘qituvchilar milliy o‘yinlarning ahamiyatini tan oladi, ammo ulardan rivojlantiruvchi vosita sifatida emas, balki darsning yakunlovchi, dam oldiruvchi qismi sifatida foydalanadi. Bunday holatda o‘yin qisqa muddatli bo‘ladi, yuklama esa rivojlantiruvchi chegaraga yetmaydi. NG dagi o‘rtacha YuUCh ning 132 zarba/daq atrofida bo‘lishi ham shundan dalolat beradi, chunki kichik maktab yoshidagi bolalarda

aerob chidamlilikni rivojlantirish uchun 140–170 zarba/daq oralig‘idagi yuklama tavsiya etiladi [8; 17].

Olingan natijalar harakatli o‘yinlarni jismoniy sifatlarni rivojlantirishning mustaqil vositasi sifatida ko‘rib chiqqan mualliflarning fikrlari bilan hamohang [10; 11]. L.V. Byleyeva va I.M. Korotkov o‘yinlarni tasniflashda ularning asosiy harakat tarkibini hal qiluvchi mezon sifatida olgan bo‘lsa [11], bizning tadqiqotimizda bu tasnif yuklama jadalligi mezoni bilan to‘ldirildi. D. Gallahue ma’lumotlariga ko‘ra, kichik maktab yoshida harakat ko‘nikmalari va jismoniy sifatlar bir-biriga tayangan holda rivojlanadi [15]. Tajribamizda ham kuch ko‘rsatkichlari yaxshilangan o‘quvchilarning o‘yindagi harakatlari aniqroq va ishonchliroq bo‘lgani, ular raqib bilan kurashda muvozanatni uzoqroq saqlay olgani kuzatildi.

Osilib tortilish testida kuzatilgan yuqori nisbiy o‘sishni ikki omil bilan izohlash mumkin. Birinchidan, o‘quvchilarning dastlabki natijalari past bo‘lib, bu sifatning rivojlanish zaxirasi katta edi. Ikkinchidan, “Arqon tortish” va “Belbog‘ olish” o‘yinlari an’anaviy darslarda deyarli uchramaydigan qo‘l va yelka kamari muskullariga izometrik va dinamik yuklamani ta’minladi. Kichik yoshdagi bolalarda kuchning oshishi asosan asab-muskul boshqaruvining takomillashuvi, ya’ni muskul tolalarini jalb qilishning yaxshilanishi hisobiga ro‘y berishi ma’lum [13; 14]. O‘yin sharoitida muskul kuchlanishi tez-tez va turli burchaklarda takrorlanishi aynan shu mexanizmni faollashtiradi.

Umumiy chidamlilikdagi siljish (10,2 %) harakat rejimi uzluksizligining natijasi deb baholash mumkin. TG o‘quvchilari haftasiga ikki jismoniy tarbiya darsidan tashqari tanaffuslarda va “Milliy o‘yinlar soati”da ham faol harakatda bo‘ldi, bu esa yuklamaning umumiy hajmini oshirdi. Bundan tashqari, puls nazorati o‘qituvchiga o‘yin qoidasi va davomiyligini o‘z vaqtida o‘zgartirish imkonini berdi. Masalan, YuUCh 170 zarba/daq dan oshgan hollarda o‘yin maydoni kichraytirildi yoki qisqa dam kiritildi, 140 zarba/daq dan past bo‘lganda esa quvlovchilar soni ko‘paytirildi. Shu tariqa bir xil o‘yin turli jadallikda o‘tkazilib, yuklama maqbul zonada ushlab turildi [4; 7].

Motivatsion-tarbiyaviy muhit va oila bilan hamkorlik shart-sharoitining ta'sirini alohida miqdoriy baholash qiyin, biroq kuzatuvlar uning ahamiyatini tasdiqladi. TG dagi 28 ta oiladan 20 tasi (71,4 %) haftalik oilaviy o'yin topshiriqlarini muntazam bajardi. "O'yin sardori" vazifasini bajargan o'quvchilar o'yin qoidalarini boshqalarga tushuntirishga, jamoani tashkil etishga harakat qildi, bu esa darsdagi faollikni oshirdi. O'yinlar tarixi haqidagi qisqa suhbatlar bolalarda milliy qadriyatlarga qiziqishni kuchaytirdi [5]. Shuni ta'kidlash lozimki, ishlab chiqilgan shart-sharoitlar alohida-alohida emas, balki majmua sifatida qo'llanganda samara beradi: yuklama nazoratisiz tizimlashtirilgan o'yinlar, yoki motivatsiyasiz uzluksiz rejim kutilgan natijani to'liq ta'minlay olmaydi.

Tadqiqot cheklovlari sifatida tajribaning bitta maktabda o'tkazilganini, har bir shart-sharoitning alohida hissasi aniqlanmaganini va natijalar jins kesimida tahlil qilinmaganini ko'rsatish mumkin. Kelgusidagi izlanishlarda bu masalalarni kengroq tanlanmada o'rganish rejalashtirilgan.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, maktab amaliyotida milliy harakatli o'yinlarning rivojlantiruvchi imkoniyatidan to'liq foydalanilmayapti: o'qituvchilarning faqat 26,5 % i ularni muntazam qo'llaydi, 14,7 % i yuklamani nazorat qiladi, asosiy qiyinchilik sifatida esa metodik qo'llanmalarning yetishmasligi (67,6 %) va yuklamani me'yorlash usullarini bilmaslik (58,8 %) ko'rsatilgan.

Ikkinchidan, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning chidamlilik va kuch sifatlarini milliy o'yinlar asosida takomillashtirish quyidagi pedagogik shart-sharoitlar majmuasi yaratilganda samarali kechadi: o'yinlarni jismoniy sifatlar yo'nalishi bo'yicha tizimlashtirish; yuklamani yurak urish chastotasi orqali me'yorlash; dars, tanaffus va darsdan tashqari mashg'ulotlarda harakat rejimining uzluksizligini ta'minlash; motivatsion-tarbiyaviy muhit yaratish va oila bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish.

Uchinchidan, ushbu shart-sharoitlar joriy etilgan tajriba guruhida joyidan uzunlikka sakrash natijasi 8,7 %, osilib tortilish 48,7 %, qorin muskullarining kuch chidamliligi 24,4 %, umumiy chidamlilik 10,2 % ga yaxshilandi, nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkichlar 2,8–13,6 % oralig‘ida bo‘ldi ($p < 0,01$). Ishlab chiqilgan shart-sharoitlar umumta’lim maktablarining jismoniy tarbiya va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari faoliyatida qo‘llanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri). 04.09.2015-yil, O‘RQ-394-son // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni // www.lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5924-son farmoni // www.lex.uz.
4. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. – Toshkent: O‘zDJTI, 2005. – 300 b.
5. Usmonxo‘jayev T.S., Xo‘jayev F. 1001 o‘yin. – Toshkent: Ibn Sino, 1990. – 352 b.
6. Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. – Toshkent: Zar qalam, 2004. – 336 b.
7. Salomov R.S. Sport mashg‘ulotining nazariy asoslari. – Toshkent: O‘zDJTI, 2005. – 238 b.
8. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. – М.: Физкультура и спорт, 1991. – 543 с.
9. Лях В.И. Двигательные способности школьников: основы теории и методики развития. – М.: Терра-Спорт, 2000. – 192 с.
10. Холодов Ж.К., Кузнецов В.С. Теория и методика физического воспитания и спорта. – М.: Академия, 2000. – 480 с.
11. Былеева Л.В., Коротков И.М. Подвижные игры. – М.: Физкультура и спорт, 1982. – 224 с.
12. Ашмарин Б.А. Теория и методики педагогических исследований в физическом воспитании. – М.: Физкультура и спорт, 1978. – 223 с.
13. Faigenbaum A.D., Kraemer W.J., Blimkie C.J.R. et al. Youth resistance training: updated position statement paper from the National Strength and Conditioning Association // Journal of Strength and Conditioning Research. – 2009. – Vol. 23, Suppl. 5. – P. S60–S79.
14. Lloyd R.S., Oliver J.L. The youth physical development model: a new approach to long-term athletic development // Strength and Conditioning Journal. – 2012. – Vol. 34, No. 3. – P. 61–72.
15. Gallahue D.L., Ozmun J.C., Goodway J.D. Understanding Motor Development: Infants, Children, Adolescents, Adults. – 7th ed. – New York: McGraw-Hill, 2012. – 461 p.

16. World Health Organization. WHO guidelines on physical activity and sedentary behaviour. – Geneva: WHO, 2020. – 104 p.

17. Бальсевич В.К. Онтокинезиология человека. – М.: Теория и практика физической культуры, 2000. – 275 с.

УДК 81'367:811.161.1'282.2

ГРАММАТИЧЕСКИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ, ОБУСЛОВЛЕННЫЕ ТИПОЛОГИЧЕСКИМ РАЗЛИЧИЕМ РУССКОГО И КАРАКАЛПАКСКОГО ЯЗЫКОВ

Толегенова Гулайым Жангабергеновна
старший преподаватель кафедры русского языка и литературы,
Нукусский государственный педагогический институт
(г. Нукус, Республика Каракалпакстан, Республика Узбекистан)
e-mail: tolegenova4944@gmail.com
ORCID: 0009-0002-2784-5508

Аннотация. *В статье рассматриваются грамматические трансформации, возникающие при переводе с русского языка на каракалпакский и обусловленные типологическим различием двух языков — флективно-синтетического строя русского и агглютинативного строя каракалпакского. Уточняется понятие грамматической трансформации, даётся сопоставительная типологическая характеристика контактирующих языков, систематизируются основные виды преобразований: перестановки, замены (частей речи, членов и типов предложения, грамматических форм), добавления, опущения, а также членение и объединение предложений. На конкретном языковом материале показаны причины и механизмы каждого типа трансформации. На основе количественного анализа определяется частотность видов трансформаций и вызывающих их типологических факторов. Делается вывод о системном характере грамматических преобразований, детерминированных различиями в порядке слов, способах выражения грамматических значений и построении предложения.*

Ключевые слова: *грамматические трансформации, перевод, русский язык, каракалпакский язык, типология языков, агглютинация, порядок слов, замена, эквивалентность.*

RUS VA QORAQALPOQ TILLARI O'RTASIDAGI TIPOLOGIK FARQ TUFAYLI YUZAGA KELGAN GRAMMATIK O'ZGARISHLAR

Annotatsiya. *Maqolada rus tilidan qoraqalpoq tiliga tarjima qilishda yuzaga keladigan va ikki tilning tipologik farqi — rus tilining flektiv-sintetik hamda qoraqalpoq tilining agglutinativ tuzilishi bilan bog'liq grammatik transformatsiyalar ko'rib chiqiladi. Grammatik transformatsiya tushunchasi aniqlashtiriladi, aloqaga kirishuvchi tillarning qiyosiy tipologik tavsifi beriladi, o'zgartirishlarning asosiy turlari tizimlashtiriladi: o'rin almashtirish, almashtirishlar (so'z turkumlari, gap bo'laklari va gap turlari, grammatik shakllar), qo'shish, tushirib qoldirish, shuningdek gaplarni bo'lish va birlashtirish. Aniq til materialida har bir transformatsiya turining sabab va mexanizmlari ko'rsatiladi. Miqdoriy tahlil asosida*

transformatsiya turlari va ularni keltirib chiqaruvchi tipologik omillarning chastotasi aniqlanadi. Grammatik o'zgartirishlar tizimli xususiyatga ega ekanligi haqida xulosa chiqariladi.

Kalit so'zlar: *grammatik transformatsiyalar, tarjima, rus tili, qoraqalpoq tili, tillar tipologiyasi, agglutinatsiya, so'z tartibi, almashtirish, ekvivalentlik.*

GRAMMATICAL CHANGES RESULTING FROM THE TYPOLOGICAL DIFFERENCES BETWEEN THE RUSSIAN AND KARAKALPAK LANGUAGES.

Abstract. *The article deals with the grammatical transformations that arise in translation from Russian into Karakalpak and are conditioned by the typological difference between the two languages — the fusional-synthetic system of Russian and the agglutinative system of Karakalpak. The notion of grammatical transformation is clarified, a contrastive typological description of the languages in contact is given, and the main types of transformation are systematised: transpositions, replacements (of parts of speech, sentence members and sentence types, grammatical forms), additions, omissions, as well as the splitting and merging of sentences. The causes and mechanisms of each type of transformation are shown on concrete linguistic material. On the basis of a quantitative analysis, the frequency of the types of transformation and of the typological factors that cause them is determined. It is concluded that grammatical transformations are systemic in nature, being determined by differences in word order, in the ways of expressing grammatical meanings and in sentence construction.*

Keywords: *grammatical transformations, translation, Russian language, Karakalpak language, language typology, agglutination, word order, replacement, equivalence.*

ВВЕДЕНИЕ

Перевод как вид межъязыковой коммуникации предполагает не механическую замену единиц одного языка единицами другого, а сложное преобразование, направленное на достижение эквивалентности при сохранении смысла оригинала. Поскольку языки различаются как по составу грамматических категорий, так и по способам их выражения, полное структурное совпадение исходного и переводного текстов оказывается невозможным. Это закономерно порождает переводческие трансформации — преднамеренные отступления от формальной структуры оригинала, обеспечивающие адекватную передачу содержания.

Особую значимость грамматические трансформации приобретают при переводе между языками, принадлежащими к разным типологическим классам.

Русский язык относится к флективно-синтетическому типу индоевропейской семьи, тогда как каракалпакский — к агглютинативному типу тюркской семьи. Различия в порядке слов, в наличии или отсутствии грамматического рода, в способах выражения падежных и притяжательных значений, в построении осложнённого и сложного предложения делают грамматические преобразования не факультативными, а системно обусловленными.

Актуальность темы определяется тем, что при значительном объёме переводов с русского языка на каракалпакский закономерности грамматических трансформаций остаются недостаточно изученными в сопоставительно-типологическом аспекте. Целью статьи является выявление и систематизация грамматических трансформаций, обусловленных типологическим различием русского и каракалпакского языков, а также определение их частотности и причин. Материалом послужили переводные тексты и сопоставительные языковые пары; в работе применялись сопоставительно-типологический, описательный и количественный методы.

1. Понятие грамматической трансформации в переводоведении

В переводоведении под грамматической трансформацией понимается преобразование структуры предложения в процессе перевода в соответствии с нормами переводящего языка. В классификации Л. С. Бархударова выделяются четыре типа переводческих трансформаций: перестановки, замены, добавления и опущения. В. Н. Комиссаров разграничивает лексические, грамматические и лексико-грамматические трансформации, относя к грамматическим дословный перевод (нулевую трансформацию), членение и объединение предложений, а также грамматические замены. Я. И. Рецкер связывает трансформации с закономерными соответствиями, разграничивая эквиваленты и вариантные соответствия.

Применительно к паре «русский — каракалпакский язык» грамматические трансформации целесообразно рассматривать как способ преодоления межъязыковой асимметрии, возникающей вследствие типологических различий. При этом трансформация выступает не признаком переводческой вольности, а необходимым условием достижения грамматической правильности и естественности переводного текста. В настоящей работе принята обобщённая классификация, включающая перестановки, замены (частей речи, членов предложения, типов предложения и грамматических форм), добавления, опущения, а также членение и объединение предложений.

2. Типологическая характеристика русского и каракалпакского языков

Причины грамматических трансформаций коренятся в системных различиях контактирующих языков. Русский язык характеризуется развитой системой словоизменения (флексией), грамматическим родом, категорией вида глагола, использованием предлогов и относительно свободным, но преимущественно контактным порядком слов (SVO). Каракалпакский язык, будучи агглютинативным, выражает грамматические значения последовательным присоединением однозначных аффиксов, не имеет грамматического рода, использует падежные аффиксы и послелоги вместо предлогов, а также характеризуется фиксированным порядком слов с постановкой сказуемого в конце предложения (SOV). Основные сопоставительные признаки приведены в таблице 1.

Таблица 1

Сопоставительная типологическая характеристика русского и каракалпакского языков

Грамматический признак	Русский язык	Каракалпакский язык
Типологический класс	Флективно-синтетический (индоевропейский)	Агглютинативный (тюркский)

Базовый порядок слов	SVO (относительно свободный)	SOV (фиксированный)
Грамматический род	Есть (муж., жен., ср.)	Отсутствует
Выражение падежа	Флексия (окончания)	Падежные аффиксы (агглютинация)
Служебные средства	Предлоги	Послелоги и падежные аффиксы
Притяжательность	Притяжательные местоимения	Притяжательные аффиксы (изафет)
Определительные конструкции	Придаточные предложения	Причастные и деепричастные обороты
Согласование с числительным	Родительный падеж мн./ед. числа	Существительное в форме единственного числа

Приведённые различия носят системный характер и предопределяют необходимость грамматических трансформаций практически на всех уровнях предложения — от расположения его членов до способа оформления определений и обстоятельств.

3. Основные типы грамматических трансформаций

3.1. Перестановки

Перестановка представляет собой изменение порядка следования языковых элементов в переводном тексте по сравнению с оригиналом. Наиболее регулярной перестановкой при переводе с русского языка на каракалпакский является перемещение сказуемого в конечную позицию, что обусловлено моделью SOV. Так, русскому предложению с порядком «подлежащее — сказуемое — дополнение» соответствует каракалпакская структура «подлежащее — дополнение — сказуемое»: русск. «Я читаю книгу» → каракалп. «Men kitap oqıyman» (букв. «Я

книгу читаю»). Аналогичным образом определение и обстоятельство, как правило, предшествуют определяемому слову, а зависимые компоненты предшествуют главному.

3.2. Замены

Замены — наиболее распространённый и разнообразный тип грамматических трансформаций. В переводе с русского на каракалпакский язык выделяются несколько их разновидностей.

Замена частей речи обусловлена, в частности, отсутствием в каракалпакском языке грамматического рода: русское согласуемое прилагательное, изменяющееся по родам, передаётся неизменяемой формой (русск. «красивая девушка» / «красивый мальчик» → каракалп. «gózzal qız» / «gózzal bala»). Русские предложно-падежные сочетания закономерно преобразуются в падежные формы с аффиксами: русск. «в доме» → каракалп. «úyde», русск. «на столе» → каракалп. «stolda».

Замена членов предложения нередко сопровождает передачу притяжательных отношений: русское притяжательное местоимение заменяется притяжательным аффиксом существительного (русск. «мой дом» → каракалп. «úyim», русск. «его книга» → каракалп. «kitabı»). Замена типа предложения проявляется прежде всего при передаче русских определительных придаточных, которым в каракалпакском языке обычно соответствуют причастные обороты: русск. «мальчик, который читает» → каракалп. «oqıp atırǵan bala» (букв. «читающий мальчик»).

Замена грамматической формы охватывает различия в выражении числа, падежа и видо-временных значений. Показательна передача сочетаний числительного с существительным: если в русском языке существительное при числительном ставится в форме родительного падежа или множественного числа,

то в каракалпакском оно сохраняет форму единственного числа (русск. «три книги» → каракалп. «úsh kitap»).

3.3. Добавления и опущения

Добавления связаны с необходимостью эксплицитно выразить в переводе значения, имплицитно присутствующие в оригинале, либо восполнить недостающие грамматические показатели. Опущения, напротив, устраняют избыточные с точки зрения переводящего языка элементы. Благодаря агглютинативной структуре каракалпакского языка целый ряд значений, выражаемых в русском языке аналитически (служебными словами), передаётся синтетически — одним аффиксом, что делает опущение служебных элементов регулярным явлением. Так, значения, передаваемые русскими предлогами и вспомогательными словами, нередко «свёртываются» в аффиксальные показатели каракалпакского слова.

3.4. Членение и объединение предложений

Членение предложения предполагает преобразование одной синтаксической структуры оригинала в две или более структуры перевода, объединение — обратную операцию. При переводе с русского языка на каракалпакский эти трансформации применяются прежде всего при передаче осложнённых и многокомпонентных сложноподчинённых предложений: развёрнутые причастные и деепричастные обороты каракалпакского языка позволяют компактно объединять содержание, тогда как громоздкие конструкции целесообразно членить для сохранения ясности. Обобщение основных типов трансформаций и их причин представлено в таблице 2.

Таблица 2

Основные типы грамматических трансформаций и их типологические причины

Тип трансформации	Типологическая причина	Пример (русск. → каракалп.)
Перестановка	Порядок слов SVO → SOV	«Я читаю книгу» → «Men kitap oqıyman»
Замена части речи	Отсутствие грамматического рода	«красивая девушка» → «gózzal qız»
Замена (предлог → падеж)	Падежно-послеложная система	«в доме» → «úyde»
Замена (местоимение → аффикс)	Притяжательные аффиксы (изафет)	«мой дом» → «úyim»
Замена типа предложения	Причастные обороты вместо придаточных	«мальчик, который читает» → «oqıp atırǵan bala»
Замена формы (число)	Существительное ед. ч. при числительном	«три книги» → «úsh kitap»
Опущение	Синтетическое выражение значений	свёртывание служебных слов в аффиксы

4. Частотность грамматических трансформаций и их причин

Количественный анализ показывает, что различные типы грамматических трансформаций представлены в переводе с русского языка на каракалпакский неравномерно. Наибольшую долю образуют замены, что объясняется многообразием их разновидностей и системным характером расхождений в способах выражения грамматических значений. Значительна также доля перестановок, обусловленных различием базового порядка слов. Соотношение основных типов трансформаций показано на рисунке 1.



Рис. 1. Частотность основных типов грамматических трансформаций (%)

Поскольку замены являются наиболее частотным типом, целесообразно рассмотреть их внутреннюю структуру. Распределение замен по подтипам представлено на рисунке 2.



Рис. 2. Распределение грамматических замен по подтипам (%)

Как показывает диаграмма, ведущее место среди замен занимают замена частей речи и замена типа предложения, что напрямую связано с отсутствием грамматического рода и с предпочтением причастно-деепричастных конструкций в каракалпакском языке. Наконец, важно установить, какие именно типологические факторы в наибольшей степени детерминируют трансформации. Соответствующие данные приведены на рисунке 3.



Рис. 3. Типологические факторы, обусловливающие грамматические трансформации (%)

Полученные данные подтверждают, что ведущими факторами трансформаций выступают различие в порядке слов и агглютинативный строй каракалпакского языка, тогда как отсутствие грамматического рода и различия видо-временной системы, оставаясь существенными, играют менее значительную роль в общем объёме преобразований.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Проведённое исследование показывает, что грамматические трансформации при переводе с русского языка на каракалпакский носят системный, а не случайный характер и непосредственно детерминированы типологическим различием двух языков. Флективно-синтетический строй русского языка и агглютинативный строй каракалпакского обусловливают регулярные преобразования на уровне порядка слов, частей речи, членов и типов предложения, а также грамматических форм.

Систематизация материала позволила выделить основные типы трансформаций — перестановки, замены, добавления, опущения, членение и объединение предложений — и соотнести каждый из них с конкретной типологической причиной. Количественный анализ показал преобладание замен и перестановок, а среди факторов трансформации — ведущую роль различия в порядке слов и агглютинативности.

Практическая значимость результатов состоит в возможности их использования в теории и практике перевода, в сопоставительной грамматике русского и каракалпакского языков, а также в подготовке переводчиков. Перспективным направлением дальнейшего исследования представляется изучение взаимодействия грамматических и лексических трансформаций, а также их роли в достижении эквивалентности при переводе текстов различных функциональных стилей.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Бархударов Л. С. Язык и перевод: вопросы общей и частной теории перевода. — Москва: Международные отношения, 1975. — 240 с.
2. Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). — Москва: Высшая школа, 1990. — 253 с.
3. Комиссаров В. Н. Современное переводоведение: учебное пособие. — Москва: ЭТС, 2002. — 424 с.
4. Рецкер Я. И. Теория перевода и переводческая практика. — Москва: Международные отношения, 1974. — 216 с.

5. Швейцер А. Д. Теория перевода: статус, проблемы, аспекты. — Москва: Наука, 1988. — 215 с.
6. Федоров А. В. Основы общей теории перевода. — Санкт-Петербург: Филол. фак-т СПбГУ; Москва: Филология три, 2002. — 416 с.
7. Латышев Л. К. Технология перевода: учебное пособие. — Москва: Академия, 2005. — 320 с.
8. Гак В. Г. Сравнительная типология французского и русского языков. — Москва: Просвещение, 1989. — 288 с.
9. Реформатский А. А. Введение в языковедение. — Москва: Аспект Пресс, 2004. — 536 с.
10. Баскаков Н. А. Каракалпакский язык. Т. II: Фонетика и морфология. — Москва: Изд-во АН СССР, 1952. — 544 с.
11. Насыров Д. С. Становление каракалпакского общенародного разговорного языка и его диалектная система. — Нукус; Казань, 1976. — 264 с.
12. Юсупов У. К. Сопоставительная лингвистика английского и узбекского языков. — Ташкент: Фан, 2007. — 128 с.
13. Ярцева В. Н. Контрастивная грамматика. — Москва: Наука, 1981. — 111 с.
14. Толегенова Г. Ж. К истории изучения вопроса «Переводы произведений А. С. Пушкина на каракалпакский язык» // Молодой учёный. — 2018. — № 40 (226). — С. 214–216.
15. Найда Ю. К науке переводить // Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике. — Москва: Международные отношения, 1978. — С. 114–137.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 4-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

QIZIQISHDAN MAQSAD SARI: BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA YAPONLARNING IKIGAI YONDASHUVI ASOSIDA O'ZINI ANGLASHNI RIVOJLANTIRISH

Abduraxmanova Aziza Odiljonovna
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali
ORCID ID: 0009-0002-6785-3377
E-mail.com: aziabduraxmonava2202@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zini anglash jarayonini rivojlantirishda yapon madaniyatida shakllangan Ikigai yondashuvidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqotda Ikigai tushunchasining mazmuni tahlil qilinib, uni boshlang'ich ta'lim sharoitiga moslashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. O'quvchilarning o'z qiziqishlari, qobiliyatlari, ijtimoiy foydaliligi va shaxsiy maqsadlarini anglashiga yo'naltirilgan to'rt komponentli metodik model taklif etilgan. Mazkur model "Qiziqish – Qobiliyat – Foydalilik – Maqsad" ketma-ketligi asosida o'quvchilarning o'zini anglash, refleksiv fikrlash va maqsad qo'yish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari Ikigai yondashuvini boshlang'ich ta'limga moslashtirish o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini anglash va hayotiy maqsadlarini shakllantirish uchun istiqbolli metodik vosita bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *Ikigai, boshlang'ich ta'lim, o'zini anglash, qiziqish, qobiliyat, maqsad, motivatsiya, refleksiya, shaxsiy rivojlanish, pedagogik yondashuv.*

ОТ ЛЮБОПЫТСТВА К ОСОЗНАНИЮ ЦЕЛИ: РАЗВИТИЕ САМОСОЗНАНИЯ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ НА ОСНОВЕ ЯПОНСКОГО ПОДХОДА «ИКИГАЙ»

Аннотация. *В статье рассматриваются педагогические возможности использования подхода «Икигай», сформировавшегося в японской культуре, в развитии самопознания учащихся начальных классов. Раскрывается содержание понятия «Икигай» и рассматриваются возможности его адаптации к условиям начального образования. Предлагается четырехкомпонентная методическая модель, направленная на осознание учащимися собственных интересов, способностей, социальной полезности и личных целей. Модель основана на последовательности «Интерес – Способность – Полезность – Цель» и направлена на развитие самопознания, рефлексивного мышления и навыков целеполагания у младших школьников. Результаты исследования показывают, что адаптация подхода «Икигай» к начальному образованию может рассматриваться как перспективное методическое средство формирования у учащихся представлений о собственных возможностях, интересах и жизненных целях.*

Ключевые слова: *Икигай, начальное образование, самопознание, интерес, способности, цель, мотивация, рефлексия, личностное развитие, педагогический подход.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

FROM CURIOSITY TO PURPOSE: DEVELOPING SELF-AWARENESS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS BASED ON THE JAPANESE *IKIGAI* APPROACH

Abstract. *This article examines the pedagogical potential of applying the Ikigai approach, which originated in Japanese culture, to the development of self-awareness among primary school pupils. The study explores the concept of Ikigai and considers possibilities for adapting it to the context of primary education. A four-component methodological model is proposed to help pupils identify their interests, abilities, social usefulness, and personal goals. The model is based on the sequence "Interest – Ability – Usefulness – Goal" and aims to develop pupils' self-awareness, reflective thinking, and goal-setting skills. The findings suggest that adapting the Ikigai approach to primary education can serve as a promising methodological tool for helping pupils understand their individual potential, interests, and personal aspirations.*

Keywords: *Ikigai, primary education, self-awareness, interest, abilities, goal, motivation, reflection, personal development, pedagogical approach.*

KIRISH

Zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchiga faqat tayyor bilimlarni berish emas, balki uning o'z imkoniyatlarini anglash, mustaqil fikrlash, maqsad belgilash va shaxsiy rivojlanish yo'nalishini aniqlashiga yordam berishdan iborat. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim davrida bolaning "Men kimman?", "Menga nima yoqadi?", "Men nimani yaxshi bajara olaman?" kabi savollar haqida fikrlay boshlashi uning keyingi ta'limiy va shaxsiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.An'anaviy boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholashga katta e'tibor beriladi. Biroq bolaning o'z qiziqishlarini anglash, kuchli tomonlarini aniqlash, o'z faoliyatiga baho berish va kelajakdagi maqsadini tasavvur qilish kabi metakognitiv jarayonlar har doim ham tizimli pedagogik faoliyatga aylantirilmaydi. Shu nuqtayi nazardan, Ikigai yondashuvi qiziqarli pedagogik imkoniyatlardan biri sifatida qaralishi mumkin. Ikigai yapon madaniyatida hayotning mazmuni, qadri va inson uchun yashashga arzigulik narsalar bilan bog'liq tushuncha sifatida shakllangan. Ilmiy adabiyotlarda uning yagona universal ta'rifi mavjud emas; ayrim tadqiqotlarda u hayot ma'nosi va maqsadi, boshqalarida esa shaxsiy qadriyatlar, mazmunli faoliyat va farovonlik bilan bog'lanadi.

METODOLOGIYA

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Hayot mazmuni anglashda yaponcha yondashuv "ikigai"dan yordam olishga qaror qildim. "Ikigai" so'zining yaponcha kanjilari, ya;ni ierogliflariga murojaat qiladigan bo'lsak, "iki" - "hayot" va "gai" - "qiymat" so'zlari birlashmasidan hosil bo'lgan va "hayotdan, yashashdan maqsad, yashash uchun sabab" kabi tarjima qilinadi. u yaponcha so'z bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinsa, xuddi logomulojajadek "hamisha band bo'lish baxti", degan ma'noni beradi. Lekin buning nozik tomonlari bor. Bu yana yaponcha uzoq umr ko'rishining g'ayrioddiyligini izohlashda, ayniqsa, global o'rtacha ko'rsatkichdan ham xiyla baland bo'lgan Okinava orolidagi har 100.000 kishiga 24,55 nafar 100 yoshdan oshgan to'g'ri kelishini tushuntirishda qo'l keladi.**[1.7 bet.]** Ikigai tushunchasining mazmuni faqat uzoq umr ko'rish yoki doimo band bo'lish bilan cheklanmaydi. Uning mazmun-mohiyatida insonning o'z hayotida muhim va qadrli deb bilgan faoliyatini anglash, kundalik faoliyatidan ma'no topish hamda o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga intilishi mujassamdir. Shu jihatdan Ikigai insonning "Nima uchun yashayapman?", "Menga nima quvonch beradi?", "Men nimani yaxshi bajara olaman?" va "Men boshqalarga qanday foyda keltira olaman?" kabi savollar ustida fikr yuritishiga undaydi.

Ayniqsa, ushbu yondashuvni bolalik davridan boshlab ta'lim jarayoniga kiritish o'quvchining o'zini anglash jarayonini tabiiy ravishda rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. Chunki bola maktabga kelgan dastlabki yillardan boshlab atrof-muhitni, o'z imkoniyatlarini va boshqa insonlar bilan munosabatlarini anglay boshlaydi. U "Men nimani yaxshi ko'raman?", "Nimani yaxshi bajara olaman?", "Menga qaysi faoliyat qiziq?" kabi savollarga javob izlash orqali asta-sekin o'zining individual xususiyatlarini kashf etadi.Shu nuqtayi nazardan, boshlang'ich ta'limda Ikigai tushunchasidan foydalanishning asosiy maqsadi bolaga juda erta yoshdan muayyan kasbni tanlatish emas. Aksincha, uning qiziqishlari, qobiliyatlari, qadriyatlari va intilishlarini anglashiga yordam berishdan iborat bo'lishi lozim. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchisining kelajakdagi kasbiy tanlovi hali o'zgaruvchan bo'lishi tabiiy. Bugun shifokor bo'lishni

istagan bola ertaga rassom, muhandis yoki o‘qituvchi bo‘lishni xohlashi mumkin. Shu sababli bu yoshda asosiy e’tibor yakuniy kasbiy tanlovga emas, balki bolaning o‘zini kashf etish jarayoniga qaratilishi maqsadga muvofiq.Ikigai yondashuvining ta’limiy ahamiyati ham aynan mana shu jihatda namoyon bo‘ladi. O‘quvchi o‘zining qiziqishlarini anglagan sari ta’lim jarayonida faolroq ishtirok etadi, o‘z qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi va o‘z oldiga kichik maqsadlar qo‘yishni o‘rganadi. Bunday jarayon bolaning ichki motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlash bilan birga, uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini ham mustahkamlashi mumkin.Biroq Ikigai tushunchasini boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga kattalar uchun mo‘ljallangan shaklda tushuntirish maqsadga muvofiq emas. “Hayot mazmuni”, “kasbiy missiya” yoki “umr maqsadi” kabi tushunchalar kichik yoshdagi bolalar uchun haddan tashqari abstrakt bo‘lishi mumkin. Shuning uchun mazkur yondashuvni bolaning yosh va psixologik xususiyatlariga moslashtirish zarur. Ikigai bilan bog‘liq faoliyatlar o‘quvchilarda o‘zini ifodalash, o‘ziga bo‘lgan ishonch, o‘zini anglash va o‘z xatti-harakatlarini boshqarish kabi ko‘nikmalarning rivojlanishiga yordam berishi mumkin**. [2]**



1-rasm. Ikigai yondashuvining to'rt komponentli modeli.

Qiziqish komponenti bolaning o‘ziga yoqadigan faoliyat, fan, mashg‘ulot va mavzularni aniqlashga qaratiladi. Bu bosqichda o‘quvchi o‘ziga quvonch va ichki qoniqish beradigan faoliyatlarni anglay boshlaydi. Masalan, ayrim bola rasm chizishga, boshqasi kitob o‘qishga, yana biri matematika masalalarini yechishga yoki tabiatni kuzatishga qiziqishi mumkin. Boshlang‘ich ta’limda qiziqishlarni aniqlash bolaning ichki motivatsiyasini kuchaytirish uchun muhimdir. Chunki o‘quvchi o‘ziga qiziqarli bo‘lgan faoliyatga ko‘proq e’tibor qaratadi va uni bajarish jarayonida faolroq ishtirok etadi. Qobiliyat komponenti bolaning o‘z kuchli tomonlari va muayyan faoliyatlarni bajarishdagi imkoniyatlarini anglashiga xizmat qiladi. Bu faqat maktab fanlaridagi yuqori natijalarni anglatmaydi. Qobiliyatga ijodkorlik, muloqot qilish, muammolarni hal etish, jamoada ishlash, kuzatuvchanlik, tashkilotchilik, sport yoki san’atga moyillik kabi jihatlar ham kiradi.Masalan, bir o‘quvchi matematik masalalarni tez yechishi, ikkinchisi chiroyli hikoya tuzishi, uchinchisi esa tengdoshlari bilan yaxshi muloqot qilishi mumkin. Shu sababli metodikada bolaning qobiliyatlarini faqat baholar orqali emas, balki uning kundalik faoliyati va amaliy topshiriqlarini kuzatish orqali aniqlash maqsadga muvofiq. Foydalilik komponenti bolaning o‘z qiziqish va qobiliyatlarini boshqa insonlar, maktab, oila va jamiyat ehtiyojlari bilan bog‘lashini nazarda tutadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun “Dunyo nimaga muhtoj?” kabi keng savolni bevosita berish o‘rniga, uni yoshiga mos tarzda “Men oilamga, do‘stlarimga yoki maktabimga qanday yordam bera olaman?” tarzida qo‘yish maqsadga muvofiq.

Masalan, tabiatga qiziqadigan bola maktab hovlisini toza saqlashga hissa qo‘shishi, kitob o‘qishni yaxshi ko‘radigan o‘quvchi kichik sinfdoshlariga kitob o‘qib berishi, rasm chizishga qobiliyatli bola esa sinf uchun ko‘rgazmali materiallar tayyorlashi mumkin. Maqsad komponenti bolaning qiziqishi, qobiliyati va foydalilik haqidagi tasavvurlarini kelajakdagi intilishlari bilan bog‘lashga xizmat qiladi. Bu bosqichda o‘quvchi o‘z oldiga kichik, aniq va amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan maqsadlarni qo‘yishni o‘rganadi. Masalan, rasm chizishga qiziqadigan va bu borada qobiliyatini

namoyon qiladigan o‘quvchi “kelajakda rassom bo‘laman” deyishi mumkin. Ammo pedagogik jihatdan undan ham samaraliroq maqsad — “har hafta bitta yangi rasm chizish texnikasini o‘rganaman” kabi aniq qadamni belgilashdir. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda maqsadni uzoq kelajakdagi kasb bilan cheklamasdan, bolaning bugungi faoliyatidan kelib chiqadigan kichik va real qadamlar bilan bog‘lash maqsadga muvofiq.

Komponentlar	Savollar
Qiziqish — “Men nimani yaxshi ko‘raman?”	*“Men nimani yaxshi ko‘raman va qaysi faoliyat bilan shug‘ullanganimda o‘zimni xursand his qilaman?”*
Qobiliyat — “Men nimani yaxshi bajara olaman?”	“Men nimani yaxshi bajara olaman va mening kuchli tomonlarim nimalardan iborat?”
Foydalilik — “Men boshqalarga qanday foyda keltira olaman?”	*“Men o‘z qiziqishim va qobiliyatlarim orqali boshqalarga qanday foyda keltira olaman?”*
Maqsad — “Men nimaga intilaman?”	“Men nimaga erishishni xohlayman va buning uchun hozir qanday kichik qadam tashlay olaman?”

NATIJA VA MUHOKAMA

Tadqiqot davomida Ikigai yondashuvini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zini anglash jarayoniga moslashtirish imkoniyatlari aniqlandi. Taklif etilgan metodik model qiziqish, qobiliyat, foydalilik va maqsad kabi to‘rtta o‘zaro bog‘liq komponentga asoslandi.Birinchi komponent — qiziqish bolaning “Men nimani yaxshi ko‘raman?” degan savolga javob topishiga yordam beradi. O‘quvchi o‘ziga yoqadigan fan, o‘yin,

ijodiy faoliyat yoki mashg‘ulotlarni aniqlash orqali shaxsiy qiziqishlarini anglay boshlaydi. Ikkinchi komponent — qobiliyat “Men nimani yaxshi bajara olaman?” savoli orqali bolaning kuchli tomonlarini aniqlashga yo‘naltiriladi. Bunda faqat akademik natijalar emas, balki ijodkorlik, muloqot, kuzatuvchanlik va jamoada ishlash kabi qobiliyatlar ham hisobga olinadi.Uchinchi komponent — foydalilik o‘quvchining o‘z qiziqish va qobiliyatlarini boshqalarga foyda keltirish bilan bog‘lashini nazarda tutadi. Tadqiqotlar Ikigai va hayot maqsadi o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi; insonning hayotiy maqsadini anglash uning hayot sifatini yaxshilashda muhim omillardan biri hisoblanadi**.[3]**Masalan, rasm chizishga qiziqadigan bola o‘z ijodiy qobiliyatidan sinf yoki maktab uchun foydali materiallar tayyorlashda foydalanishi mumkin. To‘rtinchi komponent — maqsad esa avvalgi uch komponentni muayyan harakatga aylantiradi. O‘quvchi o‘z qiziqishi va imkoniyatlarini anglagan holda kichik, aniq va amalga oshiriladigan maqsad belgilaydi.Shunday qilib, tadqiqotda taklif etilgan “Qiziqish → Qobiliyat → Foydalilik → Maqsad” modeli bolaning o‘zini anglash jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etishga xizmat qiladi. Ikigai yondashuvi o‘quvchilarga o‘z hayotiy maqsadlarini shakllantirishga yordam beruvchi vosita sifatida qo‘llanishi mumkin. Tadqiqotlarda u o‘zini anglash, mustaqillik, o‘z faoliyatini boshqarish va shaxsiy maqsadlarni aniqlash bilan bog‘langan**. [4]** Bunda Ikigai boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun tayyor kasbiy yo‘nalish emas, balki o‘z imkoniyatlarini anglash va kelajakdagi intilishlarini shakllantirishga yordam beruvchi pedagogik yondashuv sifatida talqin qilinadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda yosh avlodning o‘z hayot yo‘lini anglash, shaxsiy imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash va aniq maqsadlar belgilash masalasi ta’lim oldidagi muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, insonning kelajakdagi hayotiy qarashlari va o‘ziga bo‘lgan munosabati shakllanadigan boshlang‘ich ta’lim bosqichida bu jarayonga e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, yapon

madaniyatida shakllangan Ikigai yondashuvi o‘quvchilarga o‘z hayotidagi mazmunni anglash, nimaga qiziqishi, nimalarga qodirligi, boshqalarga qanday foyda keltirishi va kelajakda qanday maqsad sari intilishini tushunishga yordam beruvchi istiqbolli metodik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ikigaini bolalikdan boshlab o‘rgatishning asosiy maqsadi bolaga erta yoshdan muayyan kasb tanlatish emas, balki o‘zini izlash, o‘z kuchini anglash va hayotida mazmunli yo‘nalish topish ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat. Ikigai yondashuvi o‘quvchilarga o‘z hayotiy maqsadlarini shakllantirishga yordam beruvchi vosita sifatida qo‘llanishi mumkin. Tadqiqotlarda u o‘zini anglash, mustaqillik, o‘z faoliyatini boshqarish va shaxsiy maqsadlarni aniqlash bilan bog‘langan**.[5]** Bugungi kunda o‘z qiziqishi, qobiliyati va hayotiy maqsadini aniqlashda qiynalayotgan yoshlar mavjud ekan, bunday muammolarning oldini olishni maktabgacha yoki boshlang‘ich ta’lim bosqichidan boshlash maqsadga muvofiq. Bola o‘zining kichik qiziqishlarini anglashdan boshlab, ularni qobiliyat, qadriyat va maqsad bilan bog‘lashni o‘rgansa, kelajakda ongliroq tanlovlar qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, Ikigai yondashuvi insonning uzoq va mazmunli hayot kechirish g‘oyasi bilan ham bog‘liq bo‘lib, unda maqsadga ega bo‘lish, kundalik faoliyatdan ma’no topish va o‘zini jamiyatning foydali a’zosi sifatida his qilish muhim o‘rin tutadi. Demak, yosh avlodga Ikigai tamoyillarini yoshligidan anglatish nafaqat ularning ta’limiy va shaxsiy rivojlanishiga, balki kelajakda o‘z hayot yo‘lini ongli ravishda tanlashiga ham xizmat qilishi mumkin.Shu bois “Qiziqishdan maqsad sari” tamoyili asosida Ikigai yondashuvini boshlang‘ich ta’limga moslashtirish bugungi ta’lim uchun dolzarb va istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida baholanishi mumkin. Har bir bola o‘z Ikigaisini topishga qanchalik erta yo‘l olsa, uning kelajakdagi hayoti shunchalik ongli, mazmunli va maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Garcia, H., & Miralles, F. (2016). Ikigai: The Japanese Secret to a Long and Happy Life. London: Hutchinson.

2. Suraswadi, P., Wichaidit, S., Polahan, S., & Brown, G. T. L. (2025). Building student agency in rural Thailand: Using the Ikigai framework and positive youth development. Frontiers in Education, 10.
3. Tsuzishita, S., & Wakui, T. (2021). The Effect of High and Low Life Purpose on Ikigai (a Meaning for Life) among Community-Dwelling Older People. Geriatrics, 6(3), 73
4. Taylor, L. B. T., Raman, N., Chong, J., & Chin, C. M. (2026). Crafting life purpose statements using ikigai framework among first-semester students in Malaysia. Journal of University Teaching and Learning Practice.
5. Ijeaku, et al. (2025). Exploring the Effects of Ikigai on Mental, Physical, and Social Health: A Scoping Review. Lifestyle Medicine, 6(2).

УДК. 378.091.3:911

BO'LAJAK GEOGRAFIYA FANI O'QITUVCHILARINI KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODELINI TAKOMILASHTIRISH

Shadiyeva Nigora Sharipovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
"Geografiya" kafedrasi p.f.f.d (Phd), dotsent
nigrollashadiyeva10@gmail.com

Annotatsiya: *Mamlakatimizda kechayotgan zamonaviy globallashuv jarayonlarida malakali kadrlar tayyorlash, demokratik o'zgarishlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslari konsepsiyasini hayotga tatbiq etish, ijodiy tafakkur, innovatsion fan va texnologiyalarni, innovatsion ta'lim yo'nalishlari asosida xalqaro pedagogik tajribani o'zlashtirish zarurati tug'ilmoqda. Ta'lim va tarbiya uzluksizligini ta'minlash doimo e'tiborda bo'lib kelgan masalalardan biridir.*

Kalit so'zlar: *munozara, trening, ishbilarmonlik o'yini, aql, fikrlash, o'z-o'zini hurmat qilish, bola rivojlanishi*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МОДЕЛИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ГЕОГРАФИИ

Аннотация. *Актуальные вопросы этапов развития образования изучаются как приоритетное направление, в частности, подготовка будущих учителей к инновационной профессиональной деятельности, разработка инновационных моделей и повышение конкурентоспособности будущих кадров.*

Ключевые слова: *программные инструменты, компетенция, компетентность, профессиональная компетентность, профессиональная деятельность.*

IMPROVING THE MODEL FOR DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE GEOGRAPHY TEACHERS

Abstract. *Current issues related to the stages of educational development are studied as a priority area, specifically, preparing future teachers for innovative professional activities, developing innovative models, and enhancing the competitiveness of future professionals.*

Keywords: *software tools, competency, competence, professional competence, professional activit*

KIRISH

Ta'lim tizimiga axborot kommunikatsiya texnologiya tarixan XX asrga borib taqaladi. Uning o'tmishdagi dasturlashtirilgan ta'lim bo'lib, undan ommaviy foydalanish

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

o‘tgan asrning 50-yillariga to‘g`ri keladi. Jamiyatning rivojlanish darajasi va imkoniyatlari uning sifatli ta’lim berish jarayoniga bog‘liq. Zero, yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi” [1].

Ta’lim tizimi hamda uning nazariy-amaliy va metodik poydevorlarini o‘rganishga qaratilgan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan pedagogik tadqiqotlar tobora keng ko‘lam kasb etmoqda. Kompetensiyaviy yondashuvga oid ko‘plab ilmiy qarashlar aksiologik, akmeologik, faoliyatga yo‘naltirilgan, integrativ hamda kompetensiyaviy yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash asosida shakllantirilmoqda. Zero, ushbu yondashuvlar avvalo shaxsning ko‘pmadaniyatli jamiyat sharoitida samarali yashashi va faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini kengaytiradi. Shu bois bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quv-bilish malakalarini takomillashtirish, kasbiy va tayanch kompetensiyalarni egallashga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirish, shuningdek, o‘quvchilar hamda hamkasblari bilan olib boriladigan dialogik munosabatlarga madaniy jarayon sifatida yondashuvni shakllantirishga xizmat qiluvchi omillarga alohida e’tibor qaratilmoqda [2].

Mavjud muammoli holatdan samarali chiqishning asosiy yo‘llaridan biri — oliy ta’lim tizimiga zamonaviy, ya’ni kompetensiyaga asoslangan yondashuvni tatbiq etish hisoblanadi. Kompetensiyaviy yondashuv bo‘lajak geografiya ta’limi yo‘nalishi talabalardan bilim, malaka va ko‘nikmalarni parchalanmagan holda, o‘zaro uzviy bog‘liqlikda o‘zlashtirishni talab qiladi. Shu jihatdan qaralganda, ta’lim metodlarini tanlash va ularni qo‘llash mexanizmi ham yangicha mazmun kasb etadi. Chunki pedagogik usullarni saralash hamda amaliyotga joriy etish jarayoni ta’lim oldiga qo‘yilgan talablar asosida tegishli kompetensiyalar va funksional ko‘nikmalarni rivojlantirishni taqozo etadi.

Shuningdek, mazkur yondashuv oliy ta'limda an'anaviy usullardan voz kechib, ta'lim oluvchining mustaqil fikrlashi, kasbiy faoliyatga tayyorgarligi va amaliy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion metodlarni qo'llash zaruratini yuzaga keltiradi. Shu sababli kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim tizimi o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ta'lim tizimini samarali tashkil etish hamda bo'lajak mutahassislarni bilim olishi, kasbiy kompetensiyalarini oshirishga ta'sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi. Jamiyat buyurtmasiga ko'ra ta'lim beruvchilarning ta'lim-tarbiya berish, metodikasi va vositalarini takomillashtirish, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga olib keladi.

Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilari nafaqat chuqur ilmiy bo'lim va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini egallagan, ma'lumotlarni tezkor o'zlashtira oladigan, ijodiy fikrlovchi, real amaliy faoliyat asosida pedagogik jarayonni mustaqil loyihalay olishi, insonparvar, axloqiy va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxslar bo'lishi lo'zim va shu asosda quidagi talablar qo'yiladi (2-jadvalga qarang)[2].

2-jadval

Ijtimoiy jihatdan yetuk shaxslarda bo'lishi lo'zim bo'lgan ma'zonlar

№	Turlari	Izoh
1	Zamonaviy ilmiy bilimlar	O'qituvchilar geografiya fanining so'ngi yutuqlarini chuqur bilishi va zamonaviy yo'nalishlardan xabardor bo'lishi
2	Innovatsion pedogogik yondashuvlar	Zamonaviy ta'lim texnologiyalarni, jumladan AKT, 3D, masofaviy ta'lim usullarini samarali qo'llay ola biladigan o'qituvchilar talab etiladi
3	Tanqidiy va ijodiy fikrlash	O'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivijlantira oladigan pedagoglar kerak

4	Ekologik ongni rivojlantirish	Atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish g'oyalarini targ'ib qiladigan o'qituvchilar zarur.
5	Axloqiy va ma'naviy qadriyatlar	Geografik bilimlar bilan bir qatorda axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni singdira oladigan pedagoglar kerak
6	Amaliy ko'nikmalar	Nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lay oladigan hamda tashkil eta oladigan o'qituvchilar talab qilinadi
7	Uzluksiz rivojlanish	Doimiy ravishda o'z malakasini oshirib boradigan va yangi bilimlarni o'zlashtiradigan o'qituvchilar
8	Kasbiy hamkorlik	Hamkasblar va jamiyat bilan samarali hamkorlik qila oladigan pedagoglar
9	Shahsga yo'naltirilgan yondashuv	Har bir o'quvchining individual xususiyatlatini hisobga oladigan va rivojlantira oladigan pedagoglar talab qilinadi
10	Zamonaviy baholash usullari	O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini xolisona baholay oladigan va rivojlantiruvchi baholash usullarini qo'llay oladigan mutaxassislar

MATERIAL VA METODLAR

Geografik ta'limda ham turli-tuman ilmiy-amaliy usullar va ularning quidagi bir qancha tasnifi qo'llaniladi:

- Umumiy ilmiy usullar va yondashuvlar (matematik va bashorat qilish usullari, tizimli yondashuv statistik usullar va boshqalar)

- Umumiy geografik va fizik-geografik usullar (kartografik, dala tadqiqotlari, rayonlashtirish, qiyosiy geografiya va boshqalar)

- Iqtisodiy va geografik usullar (hududiy ishlab chiqarish kompleksi usuli, iqtisodiy rayonlashtirish usuli, energiya ishlab chiqarish sikli usuli va boshqalar)

Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilari statistik usullarni tayyorlash maqsadlariga muvofiq tasniflash uchun avval "Statistik usul" tushunchasining xususiyatlarini aniqlashda bir necha olimlarning tadqiqot metodlarini tahlil qilindi (2.1- rasmga qarang).

NATIJALAR

Geografiya ta'li yonalishi talabalarining kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'quv-uslubiy ta'minot sifatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar, amaliy mashg'ulotlarning virtual ko'rinishlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish, kasbiy yo'nalishdagi fanlarni o'qitishda kompetensiyaga asoslangan metodlardan foydalanish hamda fanlararo integratsiyani aks ettiruvchi amaliy mashg'ulotlar asosida ta'limni tashkil etish o'qitish sifati va samaradorligini yuksaltirishga muhim hissa qo'shmoqda[3].

Bo'lajak "Geografiya" ta'lim yo'nalishi talabalarini umumkasbiy va ixtisoslik fanlar bo'yicha kasbiy kompetensiyalarini rivijlantirish jarayonida dasturiy ta'lim vositalaridan, metodlardan foydalanib tayyorlash tuzilmasining modeli mazmunan takomillashtirildi. Geografiya ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirilgan modeli "Maqsad", "Tashkiliy", "Mazmun", "Natija" komponentlardan tashkil topgan (1-rasmga qarang)[3].



1-rasm. Geografiya ta'lim yo'nalishi talabalarni kasbiy kompetensiyalarni dasturiy ta'lim vositalari asosida rivojlantirishning takomillashtirilgan modeli

Dasturiy ta'lim vositalari asosidageografiya ta'lim yo'nalishi talabalarni kasbiy kompetensiyalarinirivojlantirishga tayyorlashning takomillashtirilgan modeli komponentlarining mazmuni quyidagicha izohlanadi:

Maqsad komponent

Malaka talablarida: Geografiya ta'lim yo'nalish talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirib tayyorlashga qo'yiladigan ilmiy-tadqiqot, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv, foydalanish, xizmat ko'rsatish, pedagogik faoliyat turlari nazarda tutilgan

Model maqsadi: geografiya ta'lim yo'nalishi talabalarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish asosida o'qitishdan iboratdir.

Modelda dasturiy ta'lim vositalari asosida geografiya ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan maqsad, Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarni, innovatsion yondashuvlar va tamoyillarga asoslanib kreativ fikrlovchi pedagog sifatida shakllantirishda dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanishning didaktik, tashkiliy-metodik, xususiyatlari o'rganildi.

Geografiya ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda o'qitilayotgan umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan o'tkaziladigan dars mashg'ulotlarining dasturlashtirilgan o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish, amaliy mashg'ulotlarda geografik obyektlarini loyihalash orqali talabalarning mustaqil-ijodiy ishlash ko'nikmalarining rivojlanishi, o'quv materiallarini g'oyaviylik, ilmiylik, vizuallik, tizimlilik, o'quv axborotlarining izchil bayon etilishi, talabalarning innovatsion sifatlarini rivojlantiruvchi metod, shakl, vosita va texnologiyalarning maqsadli, izchil qo'llanilishi, shuningdek pedagogik faoliyatni tashkil etishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan ijodiy foydalanish, zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan o'qitish metodikasini takomillashtirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish ko'nikmalarini qamrab oladi.

Tashkiliy komponent

Kredit-modul tizim - O'zbekistondagi oliy ta'limning o'lchov birligi hisoblanadi. Unga ko'ra, oliy ta'limda o'qitiladigan har bir fan undagi o'quv yuklamasi miqdoriga qarab, kreditlarda aks etadi. Masalan, har bir fan o'rtacha 5, 6 kreditlarda aks etishi mumkin. Talaba esa har semestr, o'quv yilida muayyan miqdorda kreditlar to'plab borishi mumkin va bu miqdorga qarab, unga bakalavr yoki magistr darajasi beriladi .

Kredit modul tizimi, ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim bo'yicha haftalik yuklamasi soati va ta'lim oluvchilarning faoliyatini baholash mezonlarini aks ettiradi. Ta'lim oluvchilar tomonidan barcha majburiy faoliyat turlari bajarilib, ular baholangandan so'ng kreditlarni to'plash mumkin bo'ladi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Kredit-modul tizim tarkibi

Kredit-modul tizimida talabaning bilim olish vaqti tushunchasi dars vaqti tushunchasi bilan cheklanib qolmasdan, talaba o'qish uchun sarflagan umumiy vaqt bilan o'lchanadi. Kredit-modul tizimining mohiyatini quyidagi tizimlashtirilgan struktura orqali tushunish mumkin.

1. Vaqt tushunchasining yangicha talqini

• **Kengaytirilgan o'lchov:** Bilim olish vaqti faqat auditoriyadagi dars soatlari bilan cheklanmaydi.

• **Umumiy sarf:** O'quv yuklamasi talabaning fanni o'zlashtirish uchun sarflagan barcha vaqti (mustaqil ta'lim, amaliyot va darslar) bilan o'lchanadi.

2. Ta'lim markazida — Talaba

• **Subyektiv yondashuv:** O'qish jarayoniga o'qituvchi emas, balki bevosita talaba nuqtayi nazaridan qaraladi.

• **Manbalar xilma-xilligi:** Bilim olishda faqat o'qituvchi yoki auditoriya bilan cheklanib qolmaslik nazarda tutiladi.

3. Mas'uliyat va muntazamlik

• **O'z-o'zini boshqarish:** Yuklamaning bunday taqsimlanishi talabaning mas'uliyatini oshiradi.

• **Doimiy o'qish:** Talabadan fanni nafaqat dars paytida, balki darsdan tashqari vaqtlarda ham muntazam o'rganib borish talab etiladi.

4. Miqdordan — Sifatga o'tish

• **Fanlar optimallashuvi:** O'quv rejasidagi fanlar sonining qisqarishi talabaga asosiy fanlarni chuqurroq o'rganishga yo'l ochadi.

• **Samaradorlik:** Tizim oliy ta'limni tashkil etishda son ko'rsatkichlaridan sifat ko'rsatkichlariga o'tishni ta'minlaydi

• **Yondashuvlar** – Geografiya ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanishning (Mantiqiy, evristik, integrativ, tanqidiy, kreativ, innovatsion) yondashuvlar asosida amalga oshirildi.

Mantiqiy yondashuv: ba'zi bir tanlangan mantiqiy tizimda pragmatik omillarga taalluqli bo'lgan emotsional, irodaviy harakatlar bir xil darajada muhim. Talabaning g'oyasini yuqori baholash, shaxsning axloqiy munosabatlari, uning ijtimoiy yo'nalishlari,

individual moyilliklari, odatlari, ishonchga sezilarli ta'siri muhim rol o'ynaydi. Mantiqiy yondashuv ba'zi bir bayonotlarning boshqa bayonotlar bilan asosliligi kabi argumentatsiya xususiyatini aks ettiradi.

Everistik yondashuv: interfaol o'qitishning bir usuli everstik suxbat bo'lib, lotincha "to'playman, izlayman" ma'nolarini anglatadi. Bu suxbat usuli bo'lib qadimgi grekcha ko'rinishi Suqrot suhbati deb nomlangan o'qitish tizimiga asoslangan. Shu yo'l bilan mohirona savollar tuzish va o'quvchini qo'yilgan savolga mustaqil ravishda to'g'ri javob topishga yo'naltirish kerak. Bu o'qitish usulini Suqrotnikidan farqi uning keng doirada jonligidir. Lekin uning so'zsiz o'xshashlik tomonlari ham mavjud, o'z tavsifiga ko'ra olinayotgan funksiyasi bevosita ularni faol o'ylash orqali o'quvchilarni mohirona savol berishga qaratilganligidir. O'z yo'nalishining psixologik tabiatiga ko'ra - evrestik suhbat bu jamoaviy fikrlash yoki suhbat, muammoni yechimini izlovchi sifatidagi suhbatdir. Shuning uchun pedagogikada bu usul muammoli o'qitish usullaridan hisoblanadi, shu qatorda muammoli izlanuvchi deb nomlanuvchi suhbatdan everestik suhbat psixologik tomondan hech ham farq qilmaydi. Pedagogika ular orasida shaxsiy miqdoriy chegara o'tkazadi [4].

Ushbu metodning asosi — bitta markaziy obyektni (masalan, biror viloyat yoki tabiiy geografik okrugni) to'rt xil o'lchamda (Tabiat — Aholi — Iqtisodiyot — Ekologiya) bir vaqtning o'zida tahlil qilish va ular orasidagi ko'rinmas zanjirlarni topishga asoslanadi(**1-jadvalga qarang)**

1-jadval

Loyiha bosqichlari va faoliyat rejasi

Bosqichlar	**Ishning mazmuni**	**Talabalar faoliyati**	**O'qituvchi faoliyati**
Tayyorgarlik	Loyiha mavzusini tanlash va asosiy maqsadlarni aniqlash.	Mavzuni muhokama qilish, qo'shimcha ma'lumotlar yig'ish va	Loyiha metodikasini tushuntirish, talabalarni rag'batlantirish va

Bosqichlar	Ishning mazmuni	Talabalar faoliyati	O'qituvchi faoliyati
		shaxsiy maqsadlarni belgilash.	maqsad qo'yishda ko'maklashish.
Rejalashtirish	1. Axborot manbalarini belgilash. 2. Ma'lumot yig'ish va tahlil usullarini tanlash. 3. Taqdimot shaklini aniqlash. 4. Baholash mezonlarini ishlab chiqish. 5. Jamoada vazifalarni taqsimlash.	Harakat rejasini tuzish va aniq vazifalarni shakllantirish.	Jarayonni kuzatish va o'zining kreativ fikrlari bilan loyihani boyitish.
Natijalar va xulosalar	To'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish va yakuniy xulosalar chiqarish.	Ma'lumotlarni tizimlashtirish va tahliliy ishlar olib borish.	Maslahatchi sifatida qatnashish va jarayonni nazorat qilish.
Hisobot berish	Natijalarni taqdim etish: og'zaki nutq, ko'rgazmali materiallar yoki yozma hisobot shaklida.	Tayyorlangan hisobotni jamoa va o'qituvchi oldida himoya qilish.	Hisobotni tinglash, ishtirokchi sifatida savollar berish va yakuniy xulosa qilish.

MUHOKAMA

Har bir talabaning o‘z salohiyati va iqtidorini namoyon etishi, strategik maqsadlarini amalga oshirishi hamda jamiyat taraqqiyotiga daxldorlik hissini tuyishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Shu nuqtai nazardan, kompetentsiyaviy yondashuv bo‘lajak geografiya mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning fundamental metodologik asosi bo‘lib xizmat qiladi[5].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni: 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son. – Toshkent, 2020.
2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi: 2020-yil 24-yanvar.
3. Jo‘rayev A.R., Shadiyeva N.Sh., Shoyimov A.M. Bo‘lajak o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy ta’lim vositalarning o‘rni // O‘zMU xabarlari. – Toshkent, 2022. – № 3. – B. 58–61.
4. Shadiyeva N.Sh. Talabalarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish (geografiya ta’lim yo‘nalishi misolida): Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2024. – 125 b.
5. Shadiyeva N.Sh. Geografiya ta’lim yo‘nalishi talabalarini o‘qitish metodikasi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid tadqiqot ishlarning tahlili // Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi. – 2026. – № 2 (fevral). – B. 29–36.
6. Shodiyev H.R. Uzluksiz ta’lim tizimida geografiyani o‘qitishda axborot ta’lim muhitidan foydalanish metodikasini takomillashtirish: Pedagogika fanlari doktori (DSc) diss. avtoref. – Samarqand, 2023. – 36 b.

MUNDARIJA

1	**12-13-yoshli regbichilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining tahlili** Mo'minov X.M.	3
2	**Description of the key decrees and decrees of the president of the republic of uzbekistan shavkat miromonovich mirziyoyev in the field of arts and culture** Achildieva M.A., Shodiyeva Sh.Sh.	11
3	**Применение методов искусственного интеллекта для оптимизации управления спортивными организациями: модели, алгоритмы и практические кейсы** Мирахматова М. А.	22
4	**Ai-driven optimization of management processes in sports organizations: frameworks, decision support, and implementation challenges** Mirahmatova M.A.	31
5	**Artificial intelligence readiness and gender equity in central asian higher education institutions** Shukurilloyeva L.Sh.	43
6	**Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik modellashtirish malakalarini shakllantirishda raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish samaradorligi** Jurabayeva Z.Z.	55
7	**Trenerlik faoliyatini tizimli yondashuv asosida takomillashtirishda «lider–trener» 6 modeli metodikalarining samaradorligi (basketbol misolida)** Norkulov D.R.	65
8	**13–14 yoshli yosh futbolchilarda statik va dinamik mashqlardan foydalangan holda topga zarba berish texnikasini takomillashtirish metodikasi** Abduvositov S.B.	75
9	**An improved model for the development of linguistic modeling skills in primary school mother tongue education** Jurabayeva Z.Z.	93
10	**Gumanitar ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talaba qizlarning kasbiy faoliyatiga xos jismoniy va psixofiziologik talablar** G'ulomjonov G'.G'.	106
11	**Pedagoglarning kasbiy faoliyatida stressni boshqarish va kasbiy barqarorlikni ta'minlashning pedagogik mexanizmlari**	121

Abdusamiyev D.A.

12 **Shashmaqom strukturasıda tasavvufıy g‘oyalar va strukturavıy qonunıyatlarnıng ıntegratsıyası** 135
Narzullayeva D.P.

13 **Adabiy ta’limda gaymifikatsiya orqali badiiy matn ustida ishlash metodikasi** 144
Abdujabborova N.R.

14 **“Ijtimoiy faollik” va “kompetentlik” tushunchalarining nazariy-metodologik asoslarini yorituvchi tadqiqotlar** 154
Yakubova Sh.E.

15 **Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida milliy o’zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari** 161
Turaboyev A.M.

16 **Talaba–sportchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda zamonaviy mashg‘ulot metodlarining o‘rni** 171
Adhamova N.S.

17 **Talabalarning tarixiy tafakkur darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqishda xalqaro tajribaning nazariy va metodologik asoslari** 186
Axmedov A.M.

18 **Tarbiyaviy ta’sir tushunchasi: tarbiyaviy ta'sirning ta'lim motivatsiyasidagi o’rni** 194
Islomov R.T.

19 **Geymifikatsiya asosida tarixiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik shartlari** 200
Axmedov A.M.

20 **Generativ sun'iy intellekt vositalari asosida algoritmik tafakkurni rivojlantirishning dasturiy vositalari va pedagogik imkoniyatlari** 212
Shodiyev A.O.

21 **Муҳандислик соҳасида гендер тенглик муносабатлари** 225
Алматаев Т.О.

22 **Oav tili va og‘zaki nutqda qo‘shma gaplarning propozitsional intensivligi: sintaktik va pragmatik tahlil** 241
Otaxonova G.K.

23 **Raqamli transformatsiya jarayonida boshlang‘ich ta’limning innovatsion didaktik modeli** 251
Samidjonova M.

24 **Raqamli pedagogika sharoitida boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishning integrativ modeli** 258
Karimova G.

25 **Mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o‘rgatish - o‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlash** 265
Qo‘chqorov M.

26 **Immersiv texnologiyalar vositasida talabalarning tanqidiy tarixiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi** 272
Yuldashev J.A.

27 **Yashil kimyo ta’limini tashkil etishning xususiyatlari, tamoyillari va xorijiy talablari** 283
Tursunova S.D.

28 **Topishmoqlarda olam lisoniy manzarasining konseptual asoslari** 294
Shodmonov M.

29 **Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatsevarlik fazilatining mazmuni va pedagogik ahamiyati** 302
Alisherova R.O.

30 **Paralimpiya sport turi bilan shug‘ullanuvchi talabalarning kuch sifatini takomllashtirishda elektron ta’lim dasturining o‘rni** 312
Mahmudjonov A.A.

31 **Methodological aspects and challenges of foreign language training for international medical students in uzbekistan** 319
Sharipova F.I.

32 **Экспериментальное обоснование методики совершенствования технико-тактических действий парадзюдоисток с нарушением зрения** 330
Ишлаева Э.У.

33 **Oliy ta’lim tizimida talabalarning antitsipativ kompetensiyalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida** 353
Sadriddinova F.M.

34 **Integratsiyalashgan ekologik ta’limdan kelajak avlodlar uchun tabiiy kapitalni himoya qilish vositasi sifatida foydalanish** 359
Radjabov Z.N.

35 **Современные подходы к использованию искусственного интеллекта в подготовке педагогических кадров** 366
Артикова Н.Ш.

36 **Yengil atletikaning uloqtirish turlarida (nayza, disk yoki yadro) sportchilarning tezkor-kuch sifatlarini** 377
Odiljonov O.O.

37 **Асосий гимнастикада ҳаракат, касбий билим ва кўникмаларни таркиб топтириш** 383
Нурхонова М.И., Хайтметов И.С.

38 **Principles for fostering independent thinking in grades 7-8 through english education** 390
Khamidova I.B.

39 **Raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish** 399
Xojikulova O.A.

40 **Talabalarnı ommavıy sport bılan muntazam shug'ullanıshga jalb etıshda tanıta bıoımpedans analızatorı va raqamlı texnologıyalardan foydalanısh samaradorlıgı** 405
Bobomuradov A.E.

41 **Taekvondo (wt) sportchilarining musobaqa faoliyatida texnik-taktik harakatlar samaradorligini oshirishning ilmiy-metodik asoslari** 416
Nazarov N.N.

42 **Para-o'qotuvchilarni tayyorlashda psixomotor va funksional monitoring asosida individual pedagogik boshqaruv metodikasi** 424
Muradov F.M.

43 **Гимнастика машқларини ўзлаштиришда ўйин методидан фойдаланиш самарадрлиги** 435
Нурхонова М.И.

44 **Taekvondo (wt) sportchilarini tayyorlash jarayonida funksional holat va maxsus ish qobiliyati ko'rsatkichlarini optimallashtirish** 444
Nazarov N.N.

45 **Enhancing student motivation through ai-powered educational tools** 452
Egamova M.

46 **8-sinf "o'zbekiston tarixi" darsligida mahalliy tarixiy manbalardan foydalanishning didaktik tizimi va metodik imkoniyatlari** 462
Abdug'ofurova R.X.

47 **Yangi o'zbekiston taraqqiyotida sport sohasidagi islohotlarning ahamiyati** 469
Usmanov Y.T.

48 **Ichki migrant talabalarning ta'lim jarayonida ijtimoiy faolligini oshirish orqali fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash yo'llari** 474
Eshonjonov B.Z.

49 **Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida innovatsion ilmiy-tadqiqot muhitini rivojlantirish yo'llari** 484
Nazarov O.D.

50 **Developing civil engineering student's oral communicative competence through a differentiated approach in esp classes** 492
Khaydarova S.Z.

51 **Bo‘lajak maxsus pedagoglarda kasbiy masulyatni shakllantirishga ta’sir etuvchi shart-sharoitlar** 516
Xalimova O.

52 **Aktyor badiiy nutqini rivojlantirishda she’riy dramalarning pedagogik qiymati** 523
Tuyg‘unov D.M.

53 **Raqamli ta’lim muhitida badiiy matnlarni tahlil qilish: globallashuv omillarining ta’siri** 533
Oymatova N.M.

54 **Глобаллашув шароитида таълим кластери субъектларининг функционал бошқарув тизимини такомиллаштириш** 542
Бадалова М. У.

55 **История и традиции узбекской фантастической литературы: сравнительно-типологический анализ этапов развития** 549
Турсунова М.И.

56 **10–12 yoshli badiiy gimnastikachilarning texnik tayyorgarligini sun’iy intellekt asosidagi videoanaliz texnologiyalari yordamida takommilashtirish** 561
Allaberganova N.Sh.

57 **Katta va tayyorlov guruhi bolalarini maktabga tayyorlik darajasiga qo‘yiladigan talablar** 572
Abdusamatova N.J.

58 **Basketbolchilarni ko‘p yillik tayyorlash tizimining nazariy asoslari** 582
Baxtiyorov U.B.

59 **Badiiy gimnastikachilarda egiluvchanlikni rivojlantirishning samarali usullari** 597
Allaberganova N.Sh.

60 **Boshlang`ich 4-sinf o‘quvchilarini sport mashg'ulotlarida jismoniy qobiliyatlarini shakllantirishning samaradorligini oshirishning turlari va metodlari** 604
Asqarov A.A., Anvarbekova I.A.

61 **Virtual laboratoriya texnologiyalarining “o‘zgarmas tok” bo‘limini o‘qitishdagi samaradorligi** 611
Abbosova N.B.

62 **Ingliz idiomalarini o‘zbek tiliga tarjima qilish muammolari va ularning yechimlari** 623
Anvarbekova I.A.

63 **Инновационные методы совершенствования технической подготовки метателей диска** 632

Щукина Ю. А.

64 **Методика развития специальной физической подготовки в лёгкой атлетике (метание диска)** 640
Щукина Ю.

65 **Multimodal matnlarning dalillarga asoslangan o‘qish savodxonligini rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari** 648
G‘ofurova D.T.

66 **Oliy ta’lim muassasalari talablarini boks sport turi bo‘yicha hakamlikka o‘rgatish** 660
Akramov I.I.

67 **Interaktiv metodlar orqali talabalarda boks sport turi bo‘yicha hakamlik ko‘nikmasini rivojlantirish** 672
Akramov I.

68 **Gender tengligi konsepsiyasini o‘qitish jarayonida talabalarda demokratik qadriyatlarni shakllantirish metodikasi** 683
Xamidjonova S.

69 **Художественная семантика любви в прозе а.п. чехова** 695
Абдуллаева И.М.

70 **Kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorgarlikni takomillashtirishda interfaol ta’lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi** 711
Abdualiyev H.T.

71 **Kichik guruh faoliyatini nemis tili darsida padlet platformasida tashkil etishning nazariy metodologik asoslari** 720
Tolipova Sh.B.

72 **Aviatsiya talabalari kommunikativ kompetensiyasini sun'iy intellekt asosidagi chatbotlar yordamida rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari** 734
Ergashaliyeva D.B.

73 **Korporativ oliy ta’lim sharoitida rahbar-kadrlarning soft-kompetensiyalarini rivojlantirishning andragogik mexanizmlari** 745
Axrorova U.X.

74 **Malakali gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini kompleks mashqlar orqali oshirishdagi muammolar** 758
Zaribboyev Z.F.

75 **Yosh o‘qituvchilarning emotsional barqarorligi va kasbiy moslashuvi o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlik** 769
Sotvoldiyeva Z.A., Maxsudova M.A.

76 **Xx asrning 20–40-yillarida o‘zbekistonda ilm-fan va ta’lim tizimining shakllanishi: muammo va yechimlar** 780
Qudratov A.T.

77 **Gandbol sport turining yoshlarni jismoniy tayyorlashdagi ahamiyati** 787
Abdulboriyeva G.A.

78 **Gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish** 799
Asqarova D.A.

79 **Integrating innovative technologies and simulation into contemporary urology training** 813
Sayfetdinov S.I.

80 **Sohaga yo'naltirilgan o'qish kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy asoslari** 824
Dadabayev Z.Z.

81 **Tayanch so'zlar asosida talabalar bilimini formativ baholash metodikasini takomillashtirishning innovatsion modeli** 838
Davidova D.T.

82 **Boshlang'ich sinf o'quvchilarida hissiy intellektni rivojlantirishning pedagogik omillari** 846
Abrayeva M.B.

83 **Yashil kimyo ta`limini rivojlantirishning halqaro tajibalari** 860
Yusupova H.Sh., Qodirxonov M.R.

84 **Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining kreativ kompetentligini ingliz tili ta'limi asosida rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari** 870
Madaminova M.Sh.

85 **5–6-sinf o'quvchilarida somatotipga asoslangan jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini aniqlash va tahlil qilish** 880
Izatullayev A.M.

86 **400 metrga g'ovlar osha yuguruvchilarning tezkor chidamliligini oshirish samaradorligi** 889
Satkulov B.M.

87 **13–14 yoshli voleybolchilarda o'yin faoliyatiga mos sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini takomillashtirish** 900
Tuxtaboeva N.A.

88 **Globallashuv va yoshlar tarbiyasi** 911
Xujamov M.E.

89 **Bo'lajak mutaxassislarni yangi avlod darsliklari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning dolzarbligi** 919
Abdujlilov F.P.

90 **Umumiy o'rta ta'lim maktablarida clil + 5e modeli asosida fizika darslarini loyihalash va tashkil etish** 932
Jumamuratova N.S.

91	**Communicative functions of proverbs across contemporary types of discourse** Yesimova G.Dj.	955
92	**Immersiv texnologiyalar vositasida talabalarning tanqidiy tarixiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi** Yuldashev J.A.	979
93	**Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida ta'lim-tarbiya va axloqiy kamolot masalalari** Eshmurodova N.O.	990
94	**Maot modeli (mediaart o'qitish tizimi) asosida musiqa va san'at maktablarida mediavositalardan foydalanishning pedagogik metodikasini takomillashtirish** Abdiyev R.O.	999
95	**Bo'lajak pedagoglarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning raqamli pedagogik imkoniyatlari** Ismoilova G.O.	1008
96	**Texnologiya darslarida zaruriy raqamli infratuzilma va texnik qo'llab-quvvatlash omillari** Ziyamova G.T.	1016
97	**Национально-культурная специфика образных компонентов русских и узбекских пословиц: сопоставительный анализ** Есимова Г.Дж.	1029
98	**Basketbolchilarni ruhiy tayyorgarliklarini tarbiyalashning usullari** Shamsitdinova M.F.	1050
99	**Ingliz tili mashg'ulotlarida yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi talabalarining yozuv malakalarini rivojlantirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari** Raxmanova D.A.	1058
100	**Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan yo'riqnomalar asosida yong'in xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish** Kambarov A.H., Rajabboyev B.E.	1071
101	**Ta'lim muassasalarida xavfsizlik madaniyatini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari** Alimov Sh.A., Isoqov A.Q., Xoldarov A.R.	1079
102	**O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda katta avlod tajribasidan foydalanish metodikasi** Niyozova N.A.	1084
103	**Bo'lajak tarbiyachilarning shakllantirishga tayyorgarligi maktabgacha yoshdagi bolalarda metakognitiv ko'nikmalar: mezon va darajalar**	1093

Karimova G.B.

104 **Malakali futbolchi qizlarning tezkorlik sifatlarini rivojlantirish metodikasining samaradorligi** 1108
Nodirov B.H.

105 **Raqamli media faoliyatning bo'lajak pedagoglar media-kompetentligini rivojlantirishdagi ahamiyati** 1118
Davletova X.S.

106 **Principles of linguistic focusing in modeling the process of students' speech development** 1126
Ilhomova N.I.

107 **Резекция печени при местнораспространенном раке желудка** 1133
Касымов А.А., Абдихакимов А.Н.

108 **Koordinatsion qobiliyatning rivojlanishidagi buzilish tarixiy, diagnostik asoslar** 1140
Raximov K.A.

109 **Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tezkorlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirishda milliy harakatli o'yinlardan tabaqalashtirilgan foydalanish metodikasi** 1150
Xabibillayeva I.J.

110 **Milliy harakatli o'yinlar asosida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning chidamlilik va kuch sifatlarini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari** 1162
Xabibillayeva I.J.

111 **Грамматические трансформации, обусловленные типологическим различием русского и каракалпакского языков** 1175
Толегенова Г.Ж.

112 **Qiziqishdan maqsad sari: boshlang'ich sinf o'quvchilarida yaponlarning ikigai yondashuvi asosida o'zini anglashni rivojlantirish** 1187
Abduraxmanova A.O.

113 **Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish modelini takomilashtirish** 1196
Shadiyeva N.Sh.